**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI**
**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**A.S.SOLIYEV, N.K.KOMILOVA,**
**S.L.YANCHUK, Sh.Z.JUMAXANOV, F.T.RAJABOV**

# IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYA

**Darslik**

**Toshkent**
**«Universitet»**
**2019**

**ISBN 978-9943-01-563-0**

**A.S.Soliyev., N.K.Komilova, S.L.Yanchuk, Sh.Z.Jumaxanov., F.T.Rajabov**
Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Darslik. – T.: “Universitet”, 2019. -360 b.

1.2. Hammuallif **UO’K** 33.91 (100) (075)

Ushbu darslikda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning hozirgi zamon mazmuni, tadqiqot obyekti va predmeti, shakllanishi hamda rivojlanish xususiyatlari, ichki tuzilishi, tadqiqot usullari ko‘rib chiqilgan. Darslik O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlari 5140600-Geografiya yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan. Shuningdek, undan magistrantlar, doktorantlar va boshqa iqtisodiy va ijtimoiy geografiya bilan qiziquvchilar ham foydalanishi mumkin.

**Mas’ul muharrir:** geografiya fanlari doktori,
professor O.Ata-Mirzayev

**Taqrizchilar:** geografiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
**M.Fayzullayev**

geografiya fanlari nomzodi, dotsent
**A.Xalmirzayev**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2019-yil 20-iyuldagi 654-sonli buyrug‘i bilan nashrga ruxsat berilgan

**ISBN 978-9943-01-563-0**

**© «Universitet» nashriyoti,**
**© Toshkent, 2019-y.**

# KIRISH

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalardagi islohotlar ta’lim tizimida ham yangidan yangi izlanishlarni taqozo etmoqda. Xususan, respublikamizda xorijiy adabiyotlarni o‘rganish va ularni respublika oliy ta’lim tizimida joriy qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada “Geografiya” fanida ham salmoqli o‘zgarishlar, yangilanishlar ro‘y berdi.

Aytish o‘rinliki, geograf mutaxassislar tayyorlashda, ularning boshlang‘ich bilim va malakalarini oshirishda “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” o‘quv kursi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda sotsial geografik tadqiqotlar ko‘lamining oshib borayotganligi hech kimga sir emas. Hozirgi vaqtda “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” mutaxassisligi doirasida himoya qilinayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining aksariyat qismi ham, aynan, sotsial geografiya tarkibidagi ilmiy yo‘nalishlar doirasida olib borilmoqda.

“Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fani geografiya notabiiy yo‘nalishining nazariy va amaliy evolutsiya natijasi, ya’ni “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanining rivojanishi uning turli davrlarda umumiy fan sifatida nomining o‘zgarishiga sabab bo‘lgan: Iqtisodiy geografiya – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya – Ijtimoiy geografiya – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Professor A.Soliyev ta’biri bilan aytganda, u avval iqtisodiy, so‘ngra iqtisodiy va ijtimoiy, hozirgi kunda esa keng ma’noda ijtimoiy geografiya deb ham nomlanadi. Biroq, ta’kidlash joizki, bugungi kunda ushbu fan sohasi rivojlangan ko‘plab xorijiy (Angliya, Fransiya, AQSh, Xitoy va h.k.) mamlakatlarda Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya “Inson geografiyasi” (Human Geography) deb atalmoqda. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya – geografiya fanlari tizimida *inson bilan bog‘liq barcha ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarning hududiy jihatlarini o‘rganuvchi fan* hisoblanadi. Uning shakllanishi va rivojlanishidagi muhim jihatlardan biri ijtimoiy

geografik tadqiqotlarning bosh markazida, birinchi navbatda, inson omili yotishidir.

Aytish zarurki, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani mustaqil fan sifatida to‘la nihoyasiga yetgan deb bo‘lmaydi. Ayniqsa, uning tadqiqot obyekti va predmeti, tuzilishi, fanlar tizimida tutgan o‘rni bilan bog‘liq jihatlariga aniqlik kiritish lozim. Bugungi kungacha respublikamizda “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” deb nomlanuvchi fan talabalarga o‘qitilmagan, aniqrog‘i, u boshqa nom bilan “Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya” yoki “Mutaxassislikka kirish” nomlari bilan ko‘pchilikka tanish bo‘lgan. Xorij mamlakatlarida esa u uzoq yillardan buyon “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” nomi bilan ko‘pchilikka yaxshi tanish. Xususan, mazkur qo‘llanma ham Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining ta’lim to‘g‘risidagi me’yoriy hujjatlari, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida yaratilgan.

Ushbu qo‘llanmaning yaratilishida asosiy manbaa sifatida Peter Haggett tomonidan yozilgan kitobdan (Geographie: Eine Globale Synthese. Verlag Eugen Ulmer, Stuttgart, 2004. ISBN-3825280012) keng foydalanilgan. Unda Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning nazariy masalalari, uning muhim mavzulari, ayniqsa, geografiyaning fan sifatida shakllanishi, resurslar va landshaftlar, aholi, shaharlar geografiyasi va urbanizatsiya; madaniyat geografiyasi, iqtisodiy, sotsial, siyosiy geografiya; geografik tuzilmalar va jarayonlar, hududiy tizimlarni o‘rganishning elementlari; hududiy modellar, geografik mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlarning shakllanishi; aholi kasalliklari geografiyasi va boshqa mavzular atroflicha yoritib berilgan, shuningdek, har bir mavzu yuzasidan Nazorat savollari va topshiriqlar keltirilgan.

# 1-BOB.IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYANING FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O‘RNI

Reja:

1.1. Iqtisodiy geografiya fanining rivojlanib borishi va uning nomining o’zgarishi.

1.2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ta'rifi.

1.3.Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tamoyillari.

1.4.Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar faqat vaqt (davr) davomida kechmaydi, ular ayni paytda muayyan joyda – makonda ham sodir bo'ladi. Ijtimoiy rivojlanishning ana shu hududiy jihatlari geografiya fanining tadqiqot doirasiga kiradi.

Biroq jamiyat rivoji bilan uni o'rganuvchi farlarning tadqiqot obyekti ham murakkablashib va takomillashib boradi. Bu tabiiy va o'z-o'zicha qonuniy holdir. Jumladan, iqtisodiy geografiyaning obyekti avvallari ma'lum bir mamlakat yoki rayonning xo'jalik va aholisi ishlab chiqarish kuchlarining joylanishidan iborat bo'lgan bo'lsa, keyinchalik u xo'jalik va aholining hududiy tarkibi yoki tizimi, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy majmualar (komplekslar) shaklini oldi. Shunga muvofiq ushbu fanning vazifasi ham o'zgarib bordi. Chunonchi, ilgari asosiy e'tibor qayerda nima borligini o'rganishga qaratilgan bo'lsa, hozirgi kunda esa nima uchun u yoki bu voqelik aynan shu joyda vujudga kelganligini ilmiy asosda izohlab va baholab berilishi talab etiladi. Bunday qonuniyatlarni chuqur anglash fanning amaliy (konstruktiv) ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki, u endi turli yiriklikdagi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning tahlilidan ularning tashxisiga, undan esa bashorat va boshqarish darajasiga ko’tariladi.

Demak, jamiyat taraqqiyoti ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish va joylanishidagi jarayonlar iqtisodiy geografiya obyektining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Shunga mos ravishda bu fanning tadqiqot predmeti va vazifalari ham takomillashib boradi. Ayni paytda bunday evolutsion jarayonlar fan nomini zamon talabiga muvofiqlashuviga olib keladi. Binobarin, an'anaviy iqtisodiy geografiya asta-sekin iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga, u esa, o'z navbatida, yanada murakkabroq shaklga – ijtimoiy geografiyaga aylanmoqdaki, bu ushbu fanni jahon miqyosidagi andazalarga moslashtiriladi.

Aytish joizki, mazkur fanning muayyan bir barqaror, barchani qanoatlantimvchi ta'rifi mavjud emas. Bunga sabab esa geografiya fanining keng qamrovliligi, obyekt va nomining davr mobaynida o'zgarib turishi bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiy geografiya ta'riflarining ko'pchiligida ishlab chiqarish kuchlari va ularning joylashtirish xususiyatlari ta'kidlanadi. Bular ushbu fanning o'zak tushunchasiga, aksiomasiga aylanib qolgan. Albatta, bu bejiz emas, chunki iqtisodiyotning asosini ishlab chiqarish kuchlari, iqtisodiy geografiyaning mohiyatini esa ularning joylashuv xususiyatlari belgilab beradi. Qolaversa, rivojlanish faqat aniq bir joyda, makonda amalga oshadi, shu bois, joylanish rivojlanishning hududiy in'ikosidir.

Masalaga bunday yondoshuv nazarimizda, iqtisodiy geografiyaning tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq. Ma'lumki, ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirish muammolari dastavval Yevropada, xususan, Germaniyada nemis olimlari I.Tyunen, A.Veber, A.Lyosh, V.Kristaller va boshqalar tomonidan amaliyotda ko'rib chiqilgan. Biroq ular o'zlarining joylashtirilish (shtandort) g'oyalarning natijasini "Iqtisodiy geografiya" deb ta'riflashmagan.

O'ylaymizki, hozirgi kunda ham fanning ta'rifida "ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi" iborasini qoldirish kerak. Zero,har qanday joylashtirish muayyan bir hududda amalga oshiriladi. Ammo fanimizning bugungi predmeti

uchun bu kifoya qilmaydi. Sababi: u endi iqtisodiygina emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy geografiya maqomini olmoqda. Shu vajdan, bunday ta'rif fanning nomi bilan mazmunini to'la aks ettirmaydi.

To'g'ri, "ishlab chiqarish kuchlari" eng avvalo uning subyekt, ya’ni egasi bo'lgan aholini ham o'z ichiga oladi. Lekin bu yerda aholi, asosan, ishchi kuchi mazmunida, ya'ni iqtisodiy kategoriya shaklida nazarda tutiladi. Inson, uning ijtimoiy hayoti, sotsial muhitdagi o'zaro munosabatlari esa bu ibora qamrovidan chctda qoladi. Busiz fan ilgaridek iqtisodiy, ishlab chiqarish geografiyasi bo'lib qolaveradi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalaridan kelib chiqqan holda, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ta'rifini, taxminan, shunday berish mumkin: Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya mustaqil fan sifatida *turli mamlakat va rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish va joylanish xususiyatlarinj hamda inson hayot-faoliyati va yashash tarzining hududiy jihatlarini o'rganadi*. Qisqacha qilib esa ijtimoiy geografiyani jamiyat hayoti va faoliyatini hududiy tashkil etish to'g'risidagi fan, deb ta'riflash to’g’ri bo'ladi. Shubhasiz, keltirilgan ta'rif ham mutlaq aniqlikka da'vogar. Ammo shu bilan birga aminmizki, u iqtisodiy va ijtimoiy jabhalarni doirasiga olgan holda. fanning tub mohiyatini o'zida aks ettiradi va uni to'la ifodalab beradi.

Berilgan ta'rifning ega va kesimi, aniqlovchisi va to'ldiruvchisi, ya'ni birinchi va ikkinchi darajali bo'laklari mavjud. Chunonchi, agar ushbu ta'rifdan gapning egasi - "turli mamlakat yoki rayon", "hudud" tushunchalari olib tashlansa, u holda geografiyaga o'rin qolmaydi. Demak, aynan ana shu iboralar ushbu ta'rifning geografiyaga taalluqligidan dalolat beradi.

Ayni shunday "xususiyat" (kesim) so'zi ham geografiya uchun o'ta muhimdir. Chunki fanning asosiy va pirovard maqsadi ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, inson hayoti tarzining turli rayonlaridagi o'ziga xos va

betakror xususiyatini ochib berishdan iboratdir (tarixda ham xuddi shundayjamiyat taraqqiyotidagi turli davrlar xususiyati aniqlanmasa, ushbu fan o'z mohiyatini yo'qotadi). Zero, hamma joyda bor narsa geografiyada mutlaqo bo'lmasligi kerak. Agar hamma joy bir rangda tekis, bir xil darajada bo'lganda edi, geografiyaning ham, qolaversa, jamiyat rivojlanishining ham o'zi bo'lmas edi.

Bizning ta'rifimiz kengayib ketmasligi, mumkin qadar qisqaroq bo'lishi uchun unga majmualar yoki komplekslar (tizimlar) g'oyasi kiritilmadi. Aslida esa iqtisodiy va ijtimoiy geografiya o'zi o'rganayotgan voqelikni muayyan hududda va faqat alohida-alohida emas, balki o'zaro aloqadorlikda, ya'ni ma'lum bir hududiy tizimlar doirasida ko'radi.

Shu bois, yuqorida berilgan ta'rifni yanada mukammallashtirilsa bo'ladi, ya'ni: "iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ishlab chiqarish kuchlarini turli mamlakat yoki rayonlarda rivojlanish va joylanish xususiyatlarini hamda inson hayot faoliyati va yashash tarzini hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar yoki majmualar doirasida o'rganadi", deb ifodalash mumkin.

Albatta, har qanday fanning predmeti, ta'rifi uning asosiy tamoyillarini o'zida aks ettirishi shart. Chunki o'zining metodologiyasi va metodi, tadqiqot predmeti va prinsiplariga ega bo'lmagan fan mustaqil fan hisoblana olmaydi.

Demak, geografiya va, shu jumladan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining bosh tamoyillari nimalardan iborat? Fikrimizcha, bu yerda turli darajadagi asoslar mavjud, ularning ayrimlari faqat shu fanga tegishli bo'lsa, qolganlari umumilmiy, falsafiy ahamiyatga ega.

Shubhasiz, geografiya fanining eng birinchi tamoyili uning **hududiyligi**dir. Zero, geografiyani hududiy munosabatlarsiz, makon tushunchasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ammo, shu bilan birga, hududga o'ziga xos borliq sifatida turlicha yondoshiladi. Masalan, muhandislik (yersozlik) hamda rayon planirovkasida ko'proq hududni tashkil etishga e'tibor beriladi. Bunda yer maydonining o’zi

ma’lum maqsadlar uchun tayyorlanadi. Jumladan, uni barcha infrastruktura shahobchalari bilan jihozlangan holda, tadbirkorlar uchun ijaraga berish yoki sotish mumkin.Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada an'anaviy tarzda "hududiy tashkil etish" iborasi qo'llanilib, u odatda, mazmun va shakllari bo'yicha ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga yaqinroq turadi. Shu bilan birga, oddiy joylashtirishdan farq qilib, ishlab chiqarishni, aholi yoki xo'jalik tarmoqlarini hududiy tashkil ctish, ayni paytda, uni muayyan maqsadga yo'naltirilishi va, eng muhimi, boshqarilishini ham o'z ichiga oladiki, bu ushbu tushunchaning ilmiyroq va amaliyroqligidan darak beradi. Bu yerda tizim (sistema) qoidasiga muvofiq ma'lum bir voqelikni tashkil etish, avvalambor, uni boshqarish niyatida amalga oshiriladi.

Ma'lumki, geograflar nigohida hudud qiyofasi o'zining barcha mavjudoti bilan gavdalanadi va bir qarashda u to'la qamrab olinadi. Biroq ko'rib turilgan hududda undagi bor elementlar (yo'l, daraxt. uy. kishilar. transport va hokazo) yakka-yakka yoki aksariyat holda ijtimoiy geografiyaning tadqiqot obyektiga kiruvchi barcha predmetlar turli hududiy majmua shaklini tashkil etadi. Chunonchi, qishloq xo'jaligi tarmoqlari – ekinzorlar yoki chorvachilik yaylovlari, rekreatsiya manzilgohlari o'rmonzorlar va boshqalar areal (maydon) ko'rinishiga ega. Sanoat markazlari va aholi manzilgohlari nuqta yoki tugun; transport yo'llari, gidrografik shahobchalar esa tasmasimon (chiziqsimon) shaklida ko'zga tashalanadi va xuddi shu tarzda xaritada tasvirlanadi. Bu o'rinda bir so'z bilan aytish mumkinki, ijtimoiy geografiya ana shu maydon, chiziq va nuqtalarning joylashuvi, ularning o'zaro va tashqi muhit bilan hududiy munosabatlarini o'rganadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning shakli sifatida hududiy ishlab chiqarish majmualari (komplekslari, sanoat tugunlari va rayonlarni) aholining bunday tashkil etish shakllariga esa turli tip yoki yirikligidagi qishloq va katta-kichik shaharlar, shahar aglomeratsiyalari, konurbatsiya va megapolislarni ko'rsatish o'rinli. Transportda transport tugunlari, aholiga xizmat

ko'rsatish geografiyasidagi maishiy kombinatlar yoki tan geografiyasidagi hududiy ilmiy tadqiqot majmualari ham ushbu sohalarning hududiy tashkil etish shakllariga kiradi.

Geografiya fanining ikkinchi bir muhim tamoyili **komplekslik**dir. Biroq, bu yerda kompleks ishlab chiqarishning ijtimoiy yoki hududiy tashkil etish shaklini emas, balki masalaga, fan obyekti va predmetiga yondashuv ma'nosini anglatadi. Ayni paytda, komplekslilik geografiya uchun alohida usul (metod) ham emas, aksincha, u fanning asoslaridan biri bo'lib, uning o'ziga xos va tub mohiyatini ifodalaydi.

Shu bilan birga, ba'zan "kompleks geografik (yoki iqtisodiy geografik) tadqiqot" iborasi ishlatiladi-ki, nazarimizda. bu ham ortiqcha yoki xatolikdir. Chunki geografik tadqiqot hamma vaqt kompleks bo'ladi, busiz u o'z mohiyatidan ajralib qoladi. Ekologik yondoshuv asosida ham komplekslilik yotadi va bu uni geogralik dunyoqarashga juda yaqinlashtiradi.

Kompleks qarash o'rganilayotgan obyektga atroflicha yondashuv, uni aloqadorlikda ko'rishni taqozo etadi. Shu ma'noda, u tizimli (sistemali) qarashga ham yaqinlashadi. Ammo bu tamoyildan to'g'ri va oqilona foydalana olish lozim. Aks holda, tadqiqot natijasi "har sohadan bir shingil" sayoz, yuzaki va quruq bo'lib, ba'zan o'zi nimani o'rganish kerakligi ham sezilmay qolinadi. Binobarin, ushbu tamoyil mohiyatini misli daraxt shaklida tasavvur qilmoq zarur: daraxt tanasi o'rganilayotgan asosiy hodisa bo'lsa uning shoxi va shoxchalari shu muammo bilan bevosita aloqador masalalar majmuasidir. Bunda daraxt tanasi o'ta yo'g'onlashib, shox-shabbasiz va, aksincha shoxlar kattalashib, uning tanasi ko'rinmay qolmasligi kerak. Birinchi holda komplekslikning o'zi bo'lmaydi, ikkinchisida esa haddan tashqari masaladan chetga chiqib ketish ayondir. Masalan, bog'dorchilik geografiyasida temir yo'l transporti yoki aholining tug'ilishni chuqur o'rganish aslo talab qilinmaydi.

Xuddi shunday hududiylik tamoyilining ham nozik jihatlari mavjud. Bu yerda biz tadqiqot obyekti – hududning juda kattalashib ketmasligini nazarda tutmoqdamiz. Chunki bunday holda ham tadqiqot natijasi yuzaki, "umurtqasiz" bo'lib qoladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya hamda, umuman, geografiya fanida ko'proq katta hudud "kichraytirib" o'rganiladi. Fanda buning aksi, kichik joyni kattalashtirib, yirik masshtabli tadqiqotlarni o'tkazish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar (Germaniya Yaponiya AQSh va boshqalar) tajribasi, aynan, shundan dalolat beradi.

Bu mamlakatlarda bizdan farqli o'laroq, asosan mikroiqtisodiyot, mikrogeografik yondashuv ustuvor turadi. Ehtimol, shuning uchun bo'lsa kerak, tadqiqotlar natijasi aniq, puxta va amaliy jihatdan yuqori bo'ladi. To'g'ri, tadqiqot obyekti sifatida kattaroq hududni ham olish mumkin. Lekin bunday holda hududning barcha qismini emas, aksincha muhim muammolarni uning ayrim va turli nuqtalari misolida chuqurroq tahlil qilish va shu negizda o'rganilayotgan obyekt va unga o'xshash joylarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni asoslab berish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, hududiylik va komplekslilik geografiya fani uchun o'ta zarur. Biroq ular o'z me'yorida bo'lishi kcrak. Boshqacha qilib aytganda, ushbu yondashuvlar hamma vaqt aniqlik bilan birga olib borilishi to'g'riroq bo'ladi. Professor E.B.Alayev aniqlikni (konkretlikni) geografiyaning alohida tamoyili sifatida ko'rsatadi. Biz esa uni yuqoridagi ikki asosiy tamoyilning umumiy maxraji, mezoni yoki "2 + 1" shaklida ko'rishni istar edik. Chunki muammo qancha keng va chuqur, ma'lum bir maqsad doirasida atroflicha har tomonlama va, ayni paytda, aniq tahlil etilsa, uning xulosalari hamma vaqt yuqori bo'ladi.

Geografiyaning ikki asosiy tamoyili hududiylik va komplekslilikdan so’ng **tarixiylik** turadi. Bu prinsip makon va zamon birligidan kelib chiqadi. Zero, har

qanday hodisa ma’lum bir vaqtda va muayyan bir joyda sodir bo'ladi. Shuning uchun geografiyaga tarixiy yondashuv kerak. Sababi, hozirgi voqelik o'z-o'zicha birdaniga vujudga kelmagan. Mavjud voqelik qachon va qanday sharoitda paydo bo'lgan va u qanday rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan – bularning hammasini hozirgi borliqdan kelib chiqqan holda, aniqlab olmasdan turib asosiy masalani hal etib bo'lmaydi. Faqat o'tmishni tahlil etish orqali hozirgini baholab bo'ladi, bu esa o'z navbatida kelajakni, istiqbolni ilmiy bashorat etishga yo'l ochadi.

Tarixiylik tamoyilining muhimligini N.N.Baranskiy ham ta'kidlagan. Bu olim: "Mamlakat va rayonlar iqtisodiy geografik ta'rifini shunday beringki, u oyog'i bilan yerga – geologiya, geomorfologiya va tuproqshunoslikka taqalib, tanasi bilan tarix orqali o'tishi, boshi bilan esa mafkuraga tayanishi kerak" deb uqtirgan edi. Ko'rinib turibdiki, tarixiylik iqtisodiy geografik ta'rif va tavsifning asosiy qismini tashkil etadi.

Aytish lozimki, geografiyaga tarix qanchalik kerak bo'lsa, tarix uchun ham geografiya shunchalik zarur. Biroq geografiya tarixga, tarix esa geografiyaga aylanmasin. Shu bois gcografiyada tarixiy yondashuv o'tmishning barcha mayda-chuydasini emas, balki hozirgi holatning yuzaga kelishida aynan qaysi tarixiy voqea va bosqichlar sabab bo'lganini aniqlashi yetarlidir. Masalan, agar respublikamiz poytaxti Toshkent shahrini iqtisodiy-geografik ta'riflamoqchi bo'lsak, uning ilk vujudga kelganidan keyin, so'nggi muhim tarixiy voqealar inobatga olinsa kifoya. Ular: o'tgan asming ikkinchi yarmida (1865-y.) Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi va Toshkent Turkiston general gubernatorligining poytaxti vazifasini bajarishi, 1917-yil sotsialistik inqilob yili, 1924-yil O'rta Osiyo respublikalarining tashkil etilishi, 1930-yil O'zbekiston Respublikasi poytaxtining Samarqanddan Toshkentga ko'chirilishi, Ikkinchi jahon urushi yillari, 1966-yil Toshkent yer qimirlashi, va, nihoyat, 1991-yil-O'zbekistonning mustaqillikka erishgan yili, Toshkentning mustaqil davlat

poytaxtiga aylanishi va shular kabi. Ana shu burilish yoki tarixiy voqealar bugungi Toshkentga, uning hududi, xo'jaligi va aholisi, shahar qurilishiga ozmi-ko'pmi o'z ta'sirini o'tkazgan, iz qoldirgan. Qolgan oraliq voqealar esa bizga, ayni paytda, uncha zarur emas. Binobarin, ularni tarix fani uchun qoldirish kerak.

Geografiyada tarixiylik tamoyili tarixiy geografiyaning o'rnini olmasligi lozim. Bu yerda tarixiy yondashuv o'rganilayotgan hodisaning o'tmishiga qisqacha "safar qilinishini" anglatadi, tarixiy geografiya esa o'tmishning alohida pog'onalarida tabiat va, xususan, xo'jalik tarmoqlari, aholi va boshqalar qay darajada rivojlangan va qanday joylashgan kabi masalalarni tahlil etadi va ko'z o'ngimizda gavdalantiradi. Shu bilan birga, tarixiylik geografiyaning tarixi ham emas. Chunki, geografiyaning tarixi deganda so'z ko'proq geografik kashfiyotlar to'g'risida boradi.

Shunday qilib. tarixiylik tamoyili, tarixiy geografiya va geografiya tarixidan farq qiladi, u bu yerda qo'yilgan maqsadga to'laroq qanday erishish asoslaridan birini ifodalaydi, o'tmishga bugungi kun nuqtai nazardan emas, balki unga o'sha davr va muhitdan kelib chiqqan holda baho berish. mavjud-voqelikka tarixiy qarashni talab etadi.

Aslini olganda, tarixsiz geografiya (geografiyasiz tarix) bo'lmaydi. Demak, ular bir-birlarini to'ldiradi. Ammo ularga alohida-alohida qarash ham noto'g'ridir. Chunonchi, nemis olimi A.Gettner geografiyada tarixiylikni inkor etgan, u xronologiyani rad etib, xorologiyani tan olgan. Bu jihatdan u nemis olimi, faylasuf I.Kant g'oyalariga asoslangan. Albatta bunday bir tomonlamalik ham nojoizdir. Hatto an'ana bo'lib qolgan "Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylanishi" iborasi ham bu ikkilikning chambarchas bog'liqligini bildiradi. Bu yerda agar rivojlanish tarix bo'lsa, joylanish geografiya demakdir. Har qanday rivojlanish ma'lum bir hudud doirasida amalga oshadi, joylashuv esa rivojlanishning hududdagi aksidan boshqa narsa emas.

Geografiya fanining tamoyillaridan yana biri **ekologik** yondoshuvdir. Ekologiya o'zining tub mohiyatiga ko'ra, organizmlarning ichki o'zaro va tashqi muhit bilan aloqadorligini anglatadi. U bu jihatdan geografik dunyoqarashning mazmuniga ham ancha mos keladi. Sababi, geografiyada barcha voqea va hodisalar o'zaro hamda tashqi muhit bilan hududiy munosabatda ko'riladi. Shu bois, ekologiya ma'lum ma'noda geografiyaga juda yaqindir. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zi olimlar bu ikki tushunchani ma'nodosh sifatida ishlatganlar. Masalan, chikagolik X.Berrouz "Inson ekologiyasi yoxud geografiya" nomli maqolasini (1923-y.) yozgan edi. Bu yerda geografiyadagi komplekslilik tamoyili ekologik dunyoqarashga o'xshab ketadi. Har ikkisida ham o'zaro uyg'unlikda qarash, mushohada yuritish talab etiladi.

Ekologik tamoyil, ayniqsa, ishlab chiqarishni ijtimoiy va hududiy tashkil etish shakllari, xususan, mujassamlashuv bilan uyg'unlashib ketadi. Masalan, qancha ishlab chiqarish mujassamlashuvi yuqori bo'lsa (korxona yirik yoki korxonalar majmui bir joyda ko'p bo'lsa), ekologik vaziyat, odatda, buning aksi bo'ladi. Demak, bu yerda "rivojlangan" degan tushuncha ko'p hollarda ekologik nosog'lom ma'nosi bilan yonma-yon turadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning yana bir prinsipi **demosentrizm** yoki antroposentrizmdir. Chunki, barcha hududiy iqtisodiy munosabatlar asosida eng avvalo inson – moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchisi va, ayni paytda, ularning iste'molchisi turadi. Qolaversa, tarix, jamiyat tarixi ham insonsiz bo’lmaydi. Bundan tashqari, dastavval, sof tabiiy ma'noga ega bo'lgan ekologiya tushunchasi ham industriyalashtirish va urbanizatsiya tufayli sotsial va inson ekologiyasiga aylanmoqda.

N.N.Baranskiy insonsiz geografiyaga bor vujudi bilan qarshi va "Insonni unutibsiz!" deb xitob qilar edi. Chindan ham ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining markazida inson turishi kerak. Biroq, inson avvalgidek, faqat ishlab chiqaruvchi

bo'lmay, balki u o'z nomi bilan Hazrati Insondir. Shuning uchun iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada inson tabiati, biogeografiyasi, yashash tarzi, urf-odati kabi sof ijtimoiy masalalarning hududiy jihatlari ham o'rganilishi lozim.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda, fan-texnika taraqqiyoti va boshqalarda inson omili, uning talab va ehtiyoji, dunyoqarashi muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, demosentrik tamoyil ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishda e'tiborga olinishi bilan bir qatorda, insonning o'zi ham o'rganilishi ahamiyatdan xoli emas. Chunonchi, uning dam olishi, davolanishga o'xshash bevosita ishlab chiqarish jarayonidan tashqarida yotgan va kishi yashashi, tafakkuri bilan bog'liq barcha masalalar sotsiologiya, etnologiya, psixologiya fanlari qirrasida tadqiq etilishi kerak.

Shunday qilib, hududiylik, komplekslilik, tarixiylik, ekologik hamda demosentrik yondashuvlar iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning birligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, bu asosiy prinsiplar alohida-alohida emas, balki birgalikda kuchli, ta'sirchan bo'ladi. Ular ushbu fanni ijimoiylashtirish, siyosiylashtirish, iqtisodiylashtirish va mahalliylashtirish kabi yo'nalishlar yordamida amaliyotga tatbiq etilsa, u yanada samaraliroq natijalar beradi.

Geografiya fanining yana bir ajoyib va betakror imtiyozi bor. Bu ham bo'lsa, uning integratsion salohiyatining kuchliligidir. Qamrovi keng bo'lgan geografiya juda ko'p fanlar bilan "qo'shnichilik" qiladi va tutash mavqega ega. Ular jumlasiga tarix, biologiya, geologiya, sotsiologiya, demografiya, iqtisodiyot, ekologiya psixologiya huquqshunoslik, shaharsozlik, tibbiyot va boshqalar kiradi.

Demak, geografiya bu fanlar bilan aloqada va uning kuchi ham ana shunda. Boshqacha qilib aytganda, geograflar uchun turli fanlar qirrasiga yangi-yangi yo'nalishlar va yutuqlarga erishish imkoniyati mavjud. Chunki geografiya fani barcha fanlar tiziinida qulay "geografik o'ringa" ega, u markazda (maxrajda) va shuning uchun qolgan fanlar istasa-istamasa geografiyaga to’qnashadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya boshqa geografik fanlar va, eng avvalo, tabiiy geografiya bilan bog'liq. Tabiiy va ijtimoiy geografiya inson va tabiat, tabiat va jamiyat juftligini aks ettirgan holda umumiy geografiyani tashkil qiladi. Ammo ular orasida farq ham yo'q emas. Chunonchi, ijtimoiy shu jumladan iqtisodiy geografiya uchun joylashuv xosdir. Chunki bu fan turli iqtisodiyot sohalarning joylashuv xususiyatlarini o'rganadi. Tabiiy geografiyada esa tabiiy komponentlarning yer yuzida joylashuvi emas, balki ularning vujudga kclish qonuniyatlari, tabiiy geografik jarayonlar tahlil etiladi, baholanadi va bashorat qilinadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya qator kartografik fanlar bilan ham aloqada. Bu borada, eng avvalo, uning tarix, iqtisodiyot, demografiya, statistika, etnologiya, tibbiyot va boshqalar bilan aloqalarini ta'kidlash joiz. Fanimiz ushbu fan tarmoqlarining yondashuv va materiallaridan foydalanadi va, shu bilan birga, mazkur fanlar qirrasida yangi yo'nalishdagi fanlar (mintaqaviy iqtisodiyot, demogeografiya yoki geodemografiya, geosiyosat, geopsixologiya, nozogeografiya va h.k.) shakllanadi. Bu esa geografiya fanining integratsion salohiyati, tadqiqot obyekti va qamrovining kengligidan kelib chiqadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya hodisa va voqeliklarni o'z tadqiqot doirasida o'rganar ekan, u muayyan usul (metod)lardan foydalanadi. Ular kartografik, geografik taqqoslash, statistik. tarixiy, kuzatuv, modellashtirish va boshqalardir.

Ma'Iumki, geografik fikrlashni hududsiz va uni xaritada tasvirlashsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Binobarin, xaritani geografiyaning "tili" ham deyishadi. Qolaversa, geografik bilimning chegarasi, aynan, ana shu o'rganilayotgan hodisaning hududiyligi va uni xaritaga tushira olishi bilan ifodalanadi. Geografik taqqoslashning ham ahamiyati katta, chunki taqqoslamasdan turib o'rganilayotgan joyning xususiyati, betakrorligini aniqlab bo'lmaydi. Bu esa iqtisodiy geografiyaning asosiy predmeti, maqsadidir. Masalan, O'zbekistonning o'ziga

xosligini faqat jahon hamjamiyatidagi boshqa davlatlar bilan taqqoslangan holda aniqlash mumkin, xolos.

Taqqoslash ikki umumiy holatiga ko'ra, o'xshash va noo'xshash obyektlari asosida olib boriladi. Tahlil jarayonida har ikki taqqoslanayotgan obyekt bir-biridan "uzoqlashib", ularning o'zaro farqi ko'payib boraveradi va, natijada, bu ikki voqelikning o'ziga xos, individual xususiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Biroq, ushbu metoddan foydalanishning eng muhim talabi shundaki, taqqoslash ayni vaqtda (sinxron) parallel holda (birin-ketin emas) amalga oshiriladi. Ikkinchidan, taqqoslanayotgan obyekflar ko'lami bo'yicha mumkin qadar bir-biriga tengroq bo'lishi ma'qul. Shu bois O'zbekistonni AQSh bilan yoki Bo'ka shahrini Toshkent shahri bilan taqqoslash unchalik to'g'ri bo'lmaydi.

Modomiki, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya raqam va ko'rsatkichlardan iborat ekan, uning uchun strategik metod ham muhimdir. Ushbu metodda jadval va grafik diagramma, turli ko'rsatkich (indeks, koeffitsiyent, protsent, promille va b.) va guruhlash usullaridan foydalaniladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning, umuman geografiyaning eng asosiy xususiyati shundaki, har bir voqelik yoki jarayon albatta qayerdadir va qachondir, ya'ni muayyan makon va zamonda sodir bo'ladi. Binobarin, tarix bilan geografiya, xronologik yondashuv bilan xorologik (hududiy) yondashuv ajralmas, dialektik dunyoqarashning mukammal birligidir. Tarix tugagan joydan geografiya boshlanadi, bugungi geografiya ertangi kun uchun tarixdir, tarix esa o'tmishning geografiyasi hisoblanadi; tarixni to'g'ridan-to'g'ri ko'rib bo'lmaydi, geografiyani esa eshitib.Shuningdek, iqtisodiy geografik bilim va fikrlashning shakllanishida kuzatish, anketa-so'rov, turli xil bashorat qilish usullari ham katta ahamiyat kasb etadi. Bunday bilim faqat "nima qayerda?" savollariga emas, balki "nimaga aynan shu joyda joylashgan?" savoliga ham javob bera olishni o'z ichiga olishi kerak. Bundan tashqari, har qanday bilim singari iqtisodiy geografik bilim ham uch asosiy

qismdan tashkil topgan. Bu ham bo'lsa tahlil (analiz), tashxis (diagnoz) va bashorat (prognoz)dir. Afsuski, hozirgi iqtisodiy geografiya ko'proq fakt va raqamlarni yodlab olish, miqdoriy ko'rsatkichlar yoki nomenklatur masalalar to'g'risida ma'lumot beradi, xolos. Hodisa va voqeliklar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqadorligi, qonuniy bog'lanishlar esa ko'p hollarda e'tibordan chetda qolmoqda. Shu o'rinda, kartografik metod to'g'risida ham aytish lozimki, xaritani bilish geografiyaning asosiy maqsadi emas, balki u asosiy maqsadga erishish uchun vosita qurol, usuldir. Qolaversa, xaritani bilish faqat geograflar uchun emas, u barcha o'zini savodli hisoblangalarga ham zarurdir.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy vazifalari davr talabiga mos holda, iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi va jahon geosiyosiy tizimidagi o'zgarishlardan kelib chiqadi. Shularni e'tiborga olgan holda, talabalar iqtisodiyot va ijtimoiy tarmoqlarining joylanish va rivojlanish qonuniyatlarini, mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining mustahkamlanish, uning hududiy xususiyatlari, mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi, uning yashash va mehnat sharoiti bilan bog'liq masalarni bilib olishlari zarur.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ta’rifida eng asosiy tushunchalar qaysilar?
2. Nima sababdan iqtisodiy geografiya iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga aylandi?
3. Tarix geografiya uchun qanday xizmat qiladi?
4. Hududiylik tamoyilini tushuntirib bering.
5. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining tadqiqot metodlari qaysilar?

## 2-BOB. IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYA FANINING TADQIQOT OBYEKTI VA PREDMETI

Reja:

2.1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni.

2.2. “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanining obyekti va predmeti.

2.3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning ta’rifi va vazifalari.

2.4. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning ichki tuzilishi.

2.5. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqasi.

Ma’lumki, “Geografiya” fanining tarmoqlaridan biri – iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (sinonimi: ijtimoiy yoki iqtisodiy va sotsial geografiya) iqtisodiyot, sotsiologiya, tarix, siyosatshunoslik fanlari kabi ijtimoiy fanlar qatoriga kiradi. O‘z navbatida, geografiyaning alohida yo‘nalishlari orasida texnikaviy (masalan, kartografiya) fanlar ham mavjud. Shu bois, geografiya tabiiy fanlar turkumidan o‘rin egallasa-da, uning tarkibida ijtimoiy va texnikaviy yo‘nalishdagi fanlarni ham uchratish mumkin[1].

Peter Haggett o‘zining “Geographie: Eine Globale Synthese” kitobida geografiya fanining to‘rt asosiy tarmog‘ini ajratadi:

1. Geografiya falsafasi.
2. Tarmoqlar geografiyasi.
3. Mintaqaviy geografiya.
4. Tadqiqot metodlari.

Ko‘plab olimlar geografiyani fanlar tizimi deb hisoblashsa, ayrimlari “Geografiya” fanining fanlar tizimida tutgan o‘rni qanday? Geografiyani yagona fan deyish mumkinmi? Faylasuf olim B.M Kedrov fanlar tizimini ikki guruhga ajratgan edi. Bular: bilish haqidagi umumiy fanlar (falsafa, mantiq); tabiiy, aniq va

[1] Peter Haggett. Geographie: Eine Globale Synthese. Verlag Eugen Ulmer, Stuttgart. –2004.

texnik fanlar (geologiya, biologiya, kimyo, fizika, matematika va boshqalar). Xo‘sh, zamonaviy fanlar tizimida geografik fanlar qanday o‘rin tutadi? Geografiya yagona fanmi? Yoki bir necha alohida fanlardan tashkil topganmi? Bu haqida bir qancha qarashlar mavjud. Chunonchi, rus olimi B.B.Rodoman: (1999),




1-rasm. Geografiya fanining tuzilishi. Manba: Peter Haggett. Geographie: Eine Globale Synthese. Verlag Eugen Ulmer, Stuttgart. - 2004.-B.781.

“Geografiya – umumiy ekologik qarashlar va hududiy tadqiqot usullarining birlashuvidan vujudga kelgan yagona fan”, deb hisoblaydi. Britaniyalik olim R.D.Jonstonning (1997) fikri ushbu qarashlardan birmuncha boshqacharoq. Jumladan, olim: “Ijtimoiy geografiya tabiiy geografik fanlarga nisbatan boshqa ijtimoiy fanlar bilan ko‘proq uzviy aloqadordir, ya’ni tabiiy va ijtimoiy (Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya) geografiya – bu ikki boshqa-boshqa fanlardir”, – deya ta’rif beradi.

Shu o‘rinda yana shunday savol tug‘ilishi tabiiy: geografiya tabiiy fanlar qatoriga kiradimi yoki uni ijtimoiy fanlar tarkibiga kiritish o‘rinlimi? Bu borada ko‘pchilik olimlar hamfikr bo‘lib, tabiiy geografiya tabiiy fanlar, ya’ni biologiya, geologiya singari tabiatni o‘rganuvchi fanlardan biri bo‘lsa, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ijtimoiy fanlar qatoriga kiradi

Boshqa ijtimoiy fanlardan farqli o‘laroq geografik fanlar xuddi tarix singari jamiyatning barcha jabhalarini o‘rgansa-da, biroq uning tadqiqot obyekti juda keng bo‘lib, u tabiat va jamiyatni o‘zaro bog‘laydi. Shu o‘rinda aytish joizki, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya jahonning turli mamlakat va mintaqalarida turlicha nom bilan ataladi. Chunonchi:

- ingliz tilida so‘zlashuvchi davlatlarda “Human geography”, ya’ni Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, Inson geografiyasi, Ijtimoiy geografiya;

- nemis tilida so‘zlashuvchi davlatlarda “die Humangeographie” (ijtimoiy) yoki “Antropogeographie” (anthropo – grek tilida inson ma’nosini anglatadi), “Kulturgeographie” (ma’daniy geografiya);

- fransuz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda “Geographie humaine”, ya’ni Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya;

- Rossiya va Qozog‘istonda 1990-yillar boshlarida ijtimoiy geografiya ko‘proq iqtisodiy, sotsial va siyosiy geografiya nomi bilan, 2007-yildan boshlab iqtisodiy, sotsial, siyosiy va rekreatsion geografiya nomi bilan atala boshladi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda va boshqa MDH davlatlarida Ijtimoiy geografiya yoki Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya nomi bilan yuritilmoqda.

Rus olimi V.S. Jekulin (1989) geografik fanlarni quyidagi to‘rt blokka ajratgan. Bular:

- **tabiiy fanlar**: tabiiy geografiya (landshaftshunoslik, poliogeografiya);
- **ijtimoiy fanlar**: sotsial-iqtisodiy geografiya, aholi geografiyasi, siyosiy geografiya, tarmoqlar geografiyasi (sanoat geografiyasi, qishloq xo‘jaligi geografiyasi, transport geografiyasi va boshqalar);
- **tabiiy-sotsial fanlar**: majmuaviy geografiya (tibbiyot geografiyasi, sotsial ekologiya, geoekologiya, rekreatsiya geografiyasi); tarixiy geografiya, toponimika, metageografiya, kartografiya singari muhim sohalar.

R.D.Jonston Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya tarkibida iqtisodiy, sotsial (tor ma’noda, ijtimoiy jarayonlar va aholini geografik o‘rganish), siyosiy, madaniy, tarixiy va regional sotsiogeografiya kabilarni ajratib ko‘rsatgan (R.D.Jonston, 1989).

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot obyekti va predmeti haqida turli xil fikrlar mavjud. Ilmiy adabiyotlarda geografiyaning ijtimoiy tarmog‘i obyektini quyidagicha aniqlashtirish holatlari uchraydi:

-inson hayoti va faoliyatiga tegishli hududiy mutanosiblik (bu yerda tabiiy hududiy mutanosiblik ham mavjudligini unutmaslik kerak);

-hududiy majmualar, bu ham, albatta, inson bilan bog‘liq ravishda;

-hududiy (territorial, geografik), ijtimoiy (iqtisodiy, sotsial, siyosiy va boshqa) tizimlar;

-iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning umumiy tadqiqot obyekti;

-atrof-muhitning inson tomonidan o‘zgartirilgan qismi yoki antroposfera;

-iqtisodiy rayon va boshqalar.

Shunday ekan, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya an'anaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning zamonaviy shakli (ko'rinishi) degan xulosaga kelish mumkin.

A.Y.Skopinning fikriga ko'ra, iqtisodiy geografiyaning obyekti antroposfera (ekosfera) bo'lib, bu yerda xo'jalik faoliyati rivojlanadi, tadqiqot predmeti esa, tizimli yondashuvlar asosida geoiqtisodiy muammolar yechimini izlash va antroposferaning transformatsiyasini o'rganishdir.

1960-1970-yillarda geografiya – hududiy tizimlar haqidagi fan degan qarashlar yuzaga keldi. Lyudvig fon Bertalanfi fikriga ko'ra: "Tizim bu doimo o'zaro munosabatda bo'lib turadigan elementlar majmuasidan iborat". Y.G.Saushkin "Iqtisodiy geografiya – hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning shakllanishi, faoliyati va rivojlanish jarayonlari hamda ushbu tizimlarni boshqarish haqidagi fan", deb ta'kidlagan. A.I.Chistobayev, M.D.Sharigin, V.V.Voronin va boshqalar "iqtisodiy va ijtimoiy geografiya hududiy ijtimoiy tizimlarni o'rganadi", degan fikrni ilgari surishgan.

A.S.Soliyevning fikriga ko'ra, har qanday fan alohida fan sifatida faoliyat olib borishi uchun, avvalo, u o'z tadqiqot obyektiga, o'zining predmetiga ega bo'lishi kerak. Bu yerda obyekt serqirra borliq, hodisa yoki voqealar bo'lib, u birgina fan uchun emas, balki ko'p fanlar birikmasi uchun xizmat qiladi. Masalan: aholi, ayni paytda, iqtisodchilar, demograflar, etnograflar, sotsial geograflar va boshqa fan vakillarini qiziqtiradi. Ammo har qaysi fan namoyandasi aholini o'z tomonidan o'rganadi. Jumladan, iqtisodchilar uchun aholi – bu asosiy ishlab chiqaruvchi kuch, mehnat qiluvchi subyekt sifatida ko'riladi; etnograflar uchun aholini qiziqtiruvchi tomoni uning milliy urf-odati, kiyinishi, an'analaridir. Demograf esa, aholini biosotsial kategoriya sifatida o'rgana-di, ya'ni u aholining tabiiy va migratsion ko'payishi (tug'ilish, o'lim, ko'chib yurish), nikoh, ajralish va boshqa tomonlarini ilmiy asosda tahlil qiladi. Demak, "obyekt" keng qamrovli tushuncha,

predmet esa nisbatan tor ma’noda bo‘lib, u shu obyektning qaysi tomoni o‘rganilishini bildiradi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning obyekti bo‘lib ishlab chiqarish kuchlari, ularni hududiy tashkil etish, hududiy sotsial-iqtisodiy tizimlar xizmat qiladi. Shubhasiz, bu obyekt bilan iqtisodchilar ham shug‘ullansa-da, geograflar, asosan, hududiy sotsial-iqtisodiy tizimlarning (yoki majmualarning) turli rayonlarda ijtimoiy va hududiy mehnat taqsimoti jarayonida vujudga kelishi, rivojlanishi va boshqarish qonuniyatlarini o‘rganadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya predmetining asosini ishlab chiqarish kuchlarining turli darajadagi tarmoq, tarmoqlararo va hududiy shakllanishi, rivojlanishi va boshqarilishini takomillashtirishdan iborat jarayonlar tashkil qiladi. Bu jarayonlar nihoyatda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va muammolarni o‘z ichiga oladi. Ular tabiiy muhit va tabiiy resurslar majmuasi, aholining demografik xususiyatlari va joylashish tizimlari – kichik qishloq (ovul)dan to urbanizatsiyaning eng rivojlangan shakllari (megalopolis)ga qadar, mehnat resurslari, bandlik va ishsizlik, migratsiya jarayonlari, moddiy ishlab chiqarishning yetakchi sohasi sanoat va uning tabaqalashgan tog‘-kon, yoqilg‘i-energetika, metallurgiya (qora va rangli), mashinasozlik, kimyo, o‘rmon-sellyuloza, yengil, oziq-ovqat sanoati tarmoqlari, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish majmuasi (dehqonchilik va chorvachilik), transport tizimi va uning mamlakat, mintaqaviy, xalqaro mehnat taqsimotidagi integratsion aloqalarning rivojlanishidagi roli, infratuzilmalar majmuasi (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish), xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro iqtisodiy integratsiya hamda jahon xo‘jaligi tarmoqlarini (mahalliy, mintaqaviy, xalqaro) hududiy tashkil qilish va fan-texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq rivojlantirish, takomillashtirish, mintaqaviy va umumbashariy muammolardan iborat.

“Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanining asosiy vazifalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy islohotlardan kelib chiqqan holda, talabalarga quyidagi yo‘nalishlarda puxta bilimlar berishdir:

- “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanining nazariy asoslarini o‘rgatish, jahon siyosiy kartasining shakllanish bosqichlari, xalqaro munosabatlar, xalqaro va mintaqaviy mojarolar, ularning oqibatlari, jahon mamlakatlari to‘g‘risida ma’lumotlar berish;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish qonuniyatlari hamda omillarini o‘rgatish;
- tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning mamlakatlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishidagi roli va o‘rni, ulardan foydalanish, ekologik muammolarning sabab va oqibatlarini tushuntirish;
- mamlakatlar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida erishilgan ilmiy-texnika yutuqlarini hamda ilg‘or texnologiyalardan foydalanish tajribalarini o‘rganish va xulosa berish;
- aholi geografiyasi, mehnat resurslari, turli mamlakatlarda mehnat resurslarining sifati va malaka tarkibi, migratsiya va urbanizatsiya masalalarini tadqiq qilish;
- iqtisodiy geografiyaning tarkibi (sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, tashqi iqtisodiy aloqalar) va hududiy rivojlanish xususiyatlarini, xalqaro iqtisodiy-ijtimoiy tizimlar faoliyatini o‘rganish;
- siyosiy va madaniy geografik tadqiqotlar, ularning rivojlanish xususiyatlarini o’rganish;
- insoniyat oldida turgan umuminsoniy (tinchlik va qurolsizlanish, ekologik, demografik, energetika va xomashyo, oziq-ovqat, Dunyo okeani va kosmosni tinchlik maqsadlarida o‘zlashtirish va boshqalar)

hamda mintaqaviy (Orol va Orolbo‘yi, Afg‘onistonda tinchlikni yuzaga keltirish va boshqalar) muammolarni o‘rganish;

- O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rnini baholash va uning Markaziy Osiyoda tinchlikni saqlash va barqarorlikni ta’minlashdagi roli hamda iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy tizimlardagi ishtirokini baholash.

Aytish joizki, mazkur fanning muayyan bir barqaror, barchani qanoatlantiruvchi ta’rifi hozircha yo‘q. Bunga sabab, geografiya fanining keng qamrovliligi, obyekti va nomining davrlar mobaynida hamda davlatlar miqyosida o‘zgarib turishidir. Mavjud ta’riflarning ko‘pchiligida ishlab chiqarish kuchlarining joylashish xususiyatlari ta’kidlanadi. Chunki, iqtisodiyotning asosini ishlab chiqarish kuchlari, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning mohiyatini esa ularning joylashuv xususiyatlari belgilab beradi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ta’rifini quyidagicha keltirish mumkin: Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ijtimoiy fan sifatida *turli mamlakat va rayonlarda xo’jalik tarmoqlarining joylanish va rivojlanish xususiyatlarini hamda inson hayot faoliyati va yashash tarzining hududiy jihatlarini o‘rganadi*.

Professor A.Soliyev fikriga ko‘ra, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ichki tuzilishi to‘rt asosiy qismdan yoki blokdan iborat bo‘lib, ular quyidagilar:

**1. Iqtisodiy geografiya** – sanoat geografiyasi, qishloq xo‘jaligi geografiyasi, transport geografiyasi, qurilish geografiyasi, tabiiy resurslar va ulardan foydalanish geografiyasi va h.k.

**2. Sotsial-iqtisodiy geografiya** – aholi va aholi punktlari geografiyasi, shaharlar geografiyasi (geourbanistika), qishloqlar geografiyasi, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari (savdo, madaniy, maishiy, maorif va boshq.) geografiyasi, tijorat geografiyasi va h.k.

**3. Sotsial geografiya** – tibbiyot geografiyasi, rekreatsiya geografiyasi, din geografiyasi, jinoyat geografiyasi, geopsixologiya, xulq-atvor geografiyasi, turmush tarzi geografiyasi va boshq.

**4. Siyosiy geografiya** – geosiyosat, limologiya, geokonfliktologiya, harbiy geografiya va boshqalar.

Shuningdek, mazkur fan tarmoqlari, o‘z navbatida, turli hududiy ko‘lamda (jahon, mamlakat, viloyat va h.k.) o‘rganilishi mumkinligini, ammo fanni undagi ilmiy yo‘nalishlar bilan chalkashtirish, yangi fanlar “ixtiro” qilish maqsadida uni haddan tashqari parchalab yuborish ham yaxshi emasligini ta’kidlaydi. Bu tizim-tarkib g‘oyasiga mantiqan ziddir. Chunonchi, aholi geografiyasini mayda bo‘limlarga bo‘lib, ayollar yoki erkaklar geografiyasi, sanoatda – kiyim kechaklar yoki non geografiyasiga o‘xshash “fanlarni” yaratish kulgili. Tizim ko‘rilayogan maqsad va vazifasiga ko‘ra, o‘zining mustaqilligi, yaxlitligini ma’lum darajagacha saqlab qoladi. Shu bois, tizimni cheksiz maydalash uni bosh maqsadidan chetlashtiradi va bu tizim o‘zgacha ma’no va mohiyatga ega bo‘ladi. Masalan, sanoat geografiyasida birlamchi bo‘lib sanoat korxonasi, aholi punktlari geografiyasida bu maqomda alohida qishloq yoki shaharlarni olish mumkin. Shu nuqtai nazardan, ularni yanada ko‘p qismlarga bo‘lish maqsadga muvofiq emas.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya yagona, mukammal tizim ekan, fanning aynan shu ko‘rinishda rivojlanishi uning ichki va tashqi aloqalarini kuchaytirishni talab etadi. Albatta, tizim nuqtai nazaridan uning ichki aloqalari muhimroq, ustuvorroq. Zero, ular fanning yaxlitligi, mustaqilligi, barqarorligini ta’minlaydi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (ijtimoiy geografiya) bir qator fanlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, uning tadqiqotlari va xulosalaridan keng foydalanadi. Xususan, bunday aloqador fanlar tizimini ikkiga ajratish maqsadga muvofiq:

1) tabiiy fanlar – ya’ni tabiiy geografik fanlar tizimi, geologiya, biologiya, tuproqshunoslik va tarmoqlar ekologiyasi;

2) iqtisodiy va ijtimoiy fanlar, ya’ni jahon iqtisodiyoti, mikro va makroiqtisodiyot, sanoat iqtisodiyoti, agrosanoat iqtisodiyoti, transport iqtisodiyoti, menejment va marketing, tashqi iqtisodiy aloqalar va xalqaro munosabatlar, statistika, axborotlar texnologiyasi va informatika, falsafa, tarix, mamlakatlar milliy iqtisodiyoti, iqtisodiy-geografik fanlar tizimi, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti, ijtimoiy ekologiya, sotsiologiya va xalqaro huquq.

Ko‘rinib turibdiki, “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fani ko‘plab fanlar bilan uzviy aloqada bo‘lsa-da, bu fanlar bilan qo‘shilib ketmaydi va mustaqil fan bo‘lib, jamiyatni hududiy tashkil etish va boshqarishni majmuali o‘rganishi bilan ajralib turadi.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanining obyekti va predmeti nimadan iborat?
2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rnini aniqlang.
3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga oid tadqiqotlar nimalarni o‘z ichiga oladi?
4. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tarkibini tushuntiring.
5. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o‘rganish bo‘yicha faoliyat olib borgan xorij olimlarini sanab bering?

## 3-BOB. FANNING TADQIQOT USULLARI

Reja:

3.1. Hudud geografik tadqiqot obyekti sifatida.

3.2. Kartografiya usuli va geografik taqqoslash usuli.

3.3. Tarixiylik usuli.

3.4. Iqtisodiy rayonlashtirish usuli.

3.5. Statistik tahlil usuli.

3.6. Tizim-tarkib usuli.

3.7. Sotsiologik so‘rov va boshqa usullar.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda XX asrning 50-yillaridan iqtisodiyotda mikro va makro tahlil bilan bir qatorda, alohida ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-tarixiy tizim sifatida mamlakat hududlarini (mintaqalarini) o‘rganish boshlandi. Natijada, iqtisodiy fanlar tizimida mustaqil “Mintaqaviy iqtisodiyot va boshqaruv” fani shakllandi va bugungi kunda ham izchil rivojlanib bormoqda.

Har bir fanda shu fanning tub mohiyatini ochib beruvchi tushuncha bo‘ladi. Jumladan, biologiyada – hujayra, matematikada – son, fizikada – materiya va energiya, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida esa bunday tushuncha – hudud va mintaqadir.

**Hudud**(territoriya) – yer sharining ma’lum bir qismi bo‘lib, o‘zining geografik o‘rni hamda tabiiy belgilariga ko‘ra boshqa hududlardan ajralib turadi. “Hudud” tushunchasini “akvatoriya” (yer sharining suv bilan qoplangan bir qismi), “aerotoriya” (yer shari atmosferasining bir qismi) kabi tushunchalar to‘ldiradi. Ayni vaqtda, “territoriya”, “akvatoriya” va “aerotoriya” tushunchalari birgalikda “geotoriya” tushunchasini hosil qiladi. “Hudud” tushunchasining g‘oyat murakkab va kattaligi uni mintaqalarga bo‘lib o‘rganishni taqozo qiladi.

**Mintaqa** (region) – lotincha so‘z bo‘lib, ilmiy iste’molga ingliz tilidan kirib kelgan va 100 dan ortiq turli mazmunda talqin qilinishi bilan ajralib turadi.

Keyingi yillarda ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlarda mintaqa tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-tarixiy, siyosiy-harbiy va ekologik tizim sifatida quyidagi: 1) dunyo xo‘jaligi va umumbashariy muammolar, geosiyosiy va hududiy takror ishlab chiqarish; 2) megaiqtisodiyotda – makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy tahlil yondashuvlarida keng qo‘llanilmoqda.

Dunyo xo‘jaligi va umumbashariy muammolar yondashuvi dunyo xo‘jaligining tarixiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida o‘zining umumiy ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-madaniy salohiyatiga ega mamlakatlar rivojlanishiga jiddiy ta’sir etuvchi, xalqaro siyosat, harbiy-siyosiy mojarolar, yoqilg‘i-energetika, oziq-ovqat, demografik, ekologik va boshqa umum-bashariy muammolar yechimlarini ishlab chiqishga intiluvchi iqtisodiy-siyosiy birlashmalar va ittifoqlar mavjudligiga asoslanadi. Jumladan, XX asrning oxirida Yevropada jiddiy milliy tizimlarni umumlashtirgan (moliya-kredit, yagona pul va b.) transmilliy mintaqa – Yevropa Ittifoqining yuzaga kelishi, MDH, Shimoliy Amerika Erkin Savdo Assotsiatsiyasi va boshqa integratsiyalarning shakllanishi jarayoni davom etayotganligi e’tiborga molik.

**Geosiyosiy yondashuv** – hududiy jihatdan yaqin va chegaradosh mamlakatlarning iqtisodiy integratsiya asosida umumiy bozor (bojxona, valyuta ittifoqlari va boshq.) tuzish uchun intilishi bilan xarakterlanadi (Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi, MDH doirasida Yevrosiyo iqtisodiy hamkorligi va boshqalar).

**Hududiy takror ishlab chiqarish yondashuvi** – mustaqil davlatlarning hududiy umumiyligini ifodalaydi. Mintaqaning hududiy ishlab chiqarishi ikki xil talqin qilinadi. Birinchi talqin sof iqtisodiy-geografik yondashuv bo‘lib, buning asosi hududiy mehnat taqsimotidan (tarmoq mehnat taqsimoti bilan) iborat bo‘lib, iqtisodiy rayonlar deb ham yuritiladi.

Ikkinchi talqin takror ishlab chiqarish nuqtai nazaridan, hudud uchun bir-birini to‘ldiruvchi ishlab chiqarish-taqsimlash-ayrboshlash-iste’moldan iborat bosqichlarni o‘z tarkibiga olgan yagona jarayondir. Bu holatda, bozor bog‘lovchi vazifasini bajaradi va bir mintaqa doirasida (ishlab chiqarish va iste’mol), shuningdek, ishlab chiqarish bir mintaqada, iste’molchi esa ikkinchi mintaqada bo‘lishi ham mumkin.

**Megaiqtisodiyot** – makromintaqa uchun umumiy bo‘lgan tabiiy sharoit va resurslar, mamalakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi, aholi hayotining sifat ko‘rsatkichlari (turmush darajasi, aholi daromadlari, intellektual salohiyat), ijtimoiy taraqqiyot va gumanitar rivojlanganlik umumbashariy muammolarni o‘z tarkibiga olgan yaxlit hududga xos yondashuvlarni ifoda etadi.

Yirik suveren davlat milliy-ma’muriy tuzilmalari (umumiy tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, diniy-etnik va boshqa yaxlitlik xos hududlar), ya’ni avtonom respublika, viloyat va okrug, shuningdek, alohida olingan joy, shahar, tumanlarga ham “mintaqa” tushunchasini qo‘llash va mikrotahlilni amalga oshirish mumkin.

Bugungi g‘oyat murakkab va ko‘p qutbli dunyo xo‘jaligining rivojlanishida “**qutbli mintaqa**” tushunchasi nafaqat yaxlit tabiiy-geografik hududlarga, balki ijtimoiy-iqtisodiy hamjamiyatlarga nisbatan ham qo‘llanilmoqda. Chunki turli bosqichdagi mintaqalar, o‘z navbatida, mintaqalar tizimining quyi bosqichi yoki elementi hisoblanadi.

Demak, keng ko‘lamda mintaqa deganda, umumiy tabiiy-geografik, tarixiy, milliy-madaniy birlik va diniy-etnik yaqinlik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish (xo‘jalik ixtisoslashuvi va iqtisodiy rivojlanish, demografik vaziyat, aholi turmush darajasi va b.) darajasi, turli bosqichda takomillashmagan boshqaruv tizimi hamda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni yechishdagi ma’muriy-hududiy organlar faoliyatining mushtarakligini taqozo qiluvchi yaxlit hududiy birlikni tushunish maqsadga muvofiq.

Dunyoning yirik makromintaqalarga bo‘linishi – megaiqtisodiyot shu makromintaqa uchun umumiy bo‘lgan – tabiiy sharoit va resurslar, mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi, aholi hayotining sifat ko‘rsatkichlari (turmush darajasi, aholi daromadlari, intellektual salohiyat), ijtimoiy taraqqiyot va gumanitar rivojlanish,

mintaqaviy va umumbashariy muammolar va boshqa ko‘rsatkichlar majmuasini o‘zida mujassamlashtiradi.

Bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda va amaliyotda dunyodagi mamlakatlarni turli tamoyillar asosidagi tipologik belgilarga bo‘lib o‘rganish nafaqat ilmiy, balki muhim amaliy yo‘nalishga ham ega bo‘lib, mavjud mamlakatlar joylashgan yirik mintaqalarning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, murakkab tabiiy-geografik va ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy va ekologik muammolar yechimlarini aniqlash imkonini beradi.

Hozirgi davrda, “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanining asosiy **obyekti**, *hududiy ishlab chiqarish va ijtimoiy tizimlar* bo‘lib, ularning *hududiy joylashishi, shakllanishi, rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari* fanning **predmeti**ni tashkil etadi.

Tabiat va jamiyat o‘rtasidagi aloqadorlik va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni hududiy tadqiq qilish g‘oyat murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu masalalarni o‘rganishda Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, asosan, quyidagi usullarga tayanadi:

- ✓ kartografiya usuli;
- ✓ geografik taqqoslash usuli;
- ✓ tarixiy usul;
- ✓ rayonlashtirish usuli;
- ✓ statistik tahlil usuli;
- ✓ iqtisodiy-matematik modellashtirish usuli;
- ✓ tizim-tarkib usuli;
- ✓ sotsiologik so‘rov usuli;
- ✓ aerokosmik tadqiqotlar usuli;
- ✓ klaster va boshqalar.

**Kartografikusul** orqali o‘rganilayotgan hodisa va voqeliklar umumlashtirilib, kartaga tushiriladi. Bu esa geografiya fanining o‘ziga xos mezoni ham hisoblanadi.

Chunki, hudud obyekt sifatida ko‘rilmasa va uni karta yoki karta-sxemalarda aks ettirish imkoni bo‘lmasa, u holda bunday tadqiqotning o‘zi ham geografiyaga tegishli emas. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya doirasida kartalar, asosan, ijtimoiy-iqtisodiy mazmunga ega: sanoat, qishloq xo‘jaligi tarmoqlari, transport, aholi, uning milliy va hududiy tarkibi, shaharlar va qishloqlar to‘ri va tizimi kabi kartalar va hokazo.

**Geografik taqqoslash usuli** – bu usul taqqoslanayotgan obyektlar uchun umumiy va o‘ziga xos tomonini ochib beradi. Ammo taqqoslash usulida, eng avvalo, ikki jihatga e’tibor qaratish lozim. Birinchidan, taqqoslanayotgan obyektlarning katta-kichikligi, o‘z ko‘lami jihatidan bir-biriga ma’lum darajada teng bo‘lishi shart. Masalan, Toshkent bilan Chust shahrini yoki Ukraina respublikasining xo‘jaligi bilan Farg‘ona vodiysi xo‘jaligini taqqoslash ilmiy nuqtai nazardan natija bermaydi. Ikkinchidan, taqqoslashda sinxron prinsipdan yoki ayni paytda, ikkala taqqoslanayotgan obyekt ko‘rilsa, bu usul unumli va sermazmun bo‘ladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani tadqiqotlarida **tarixiy usul** keng qo‘llaniladi. Mazkur usul ayni vaqtda barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida va tabiiy fanlar tizimida ham muhim tadqiqot usuli hisoblanadi. “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanida tarixiy usul orqali ishlab chiqarish kuchlarining turli tarixiy bosqichlarda rivojlanishi, iqtisodiy aloqalar, xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi va shakllanishi, xo‘jalik va aholining hududlar bo‘yicha joylashishi, tabiiy resurslarning o‘zlashtirilishi, hududlarning aholi tomonidan o‘zlashtirilish holati, iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi va joylashish xususiyatlari o‘rganiladi. Shuningdek, tarixiy usuldan ishlab chiqarish kuchlarining yaqin va olis istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda ham foydalaniladi.

**Iqtisodiy rayonlashtirish usuli** orqali mamlakatlarning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy mintaqalarining mamlakat ichki mehnat taqsimotidagi o‘rni, ixtisoslashuv

holati o‘rganiladi, shuningdek, bu usul mintaqalar bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi. Geografiyada iqtisodiy rayonlashtirish usulini qo‘llash natijasida mamlakat har bir mintaqasining o‘ziga xos tabiiy sharoiti, tabiiy resurslarining iqtisodiyotning rivojlanishidagi o‘rni, xo‘jalikning tarixiy-iqtisodiy rivojlanishi va hozirgi hududiy tashkil etish holati, mavjud ilmiy-texnika salohiyatlardan foydalanish negizida samarali ishlab chiqarish tizimini shakllantirishning yo‘nalishlari belgilanadi.

**Statistik tahlil** iqtisodiy-geografik va ekologik tadqiqotlarning muhim usullardan biri bo‘lib, u aholining ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati va hududlar bo‘yicha majmuali ma’lumotlar tizimini tadqiq qilish imkonini beradi. Bu usul orqali xalqaro, mintaqaviy va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimga doir fakt va raqamlar tahlil qilinadi, chunki statistik fakt va raqamlar iqtisodiy geografik tadqiqotlarning asosini tashkil qiladi. Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish asosida hududlardagi iqtisodiy-ijtimoiy jarayon, aholining joylashishi, umumiy demografik jarayon, mehnat resurslari, urbanizatsiya, shahar va boshqa aholi punktlari, shuningdek, iqtisodiyotning muhim sohalari – sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, ish-lab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarining rivojlanish va joylanish xususiyatlari o‘rganiladi.

**Iqtisodiy-matematik modellashtirish usuli** xo‘jalik va aholiga doir raqamlar majmuasini tahlil qilish, o‘rganilayotgan jarayonni miqdoriy baholash imkonini beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi miqdor bog‘lanishlarning matematik ifodasini kibernetika fanlarida model, uni tuzish esa modellashtirish deyiladi. Modelning aniqligi, to‘plangan ma’lu-motlar darajasi va hajmiga, ularning to‘g‘riligiga, tadqiqotchining malakasi va modellashtirish jarayonidagi aniqlanadigan masalaning ko‘lamiga bog‘liq. Keyingi yillarda tarmoqlararo va hududlararo ishlab chiqarish tizimlarini muvozanatlashtirish, iqtisodiyot

tarmoqlarini va ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishning turli variantlarini aniqlashda modellashtirishdan foydalanilmoqda. Iqtisodiy-matematik modellashtirish kompyuterlar orqali amalga oshirilib, bunda chiziqli dasturlashtirish qo‘llaniladi. Chiziqli dasturlashtirish xilma-xil iqtisodiy jarayonlar uchun oqilona yechimlarni aniqlash imkonini beruvchi matematik dasturdir.

**Tizim-tarkib usuli**, aslini olganda, falsafiy qarashlarning mahsuli bo‘lib, u o‘rganilayotgan hodisa yoki borliqning o‘zinigina emas, balki uni boshqa undan kattaroq doirada, birgalikda va o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilishni talab qiladi. Masalan, ma’lum viloyat xo‘jaligini yaxlit tizim sifatida o‘rganishda, ayni paytda, bu viloyat Respublika, yirik iqtisodiy rayon va O‘zbekistonning yagona xalq xo‘jalik kompleksining uzviy bir qismi, bo‘lagi ekanligini unutmaslik lozim. Tizim-tarkib usulida yana bir nazariy tushuncha mavjud. I.M.Maergoyzning fikricha, iqtisodiy va sotsial geografiya xalq xo‘jaligining hududiy tarkibini o‘rganishi lozim. Bu tarkib 4 xil bo‘ladi: moddiy ishlab chiqarish, aholi va aholi punktlarining hududiy joylanishi, ularning o‘zaro munosabati, tabiiy sharoit va boylik hamda ishlab chiqarish infrastrukturasi. O‘z navbatida, bu bo‘laklar o‘zining hududiy tarkibiga ega. Jumladan, moddiy ishlab chiqarish hududiy tarkibi bu hududiy ishlab chiqarish majmuasi, tabiiy sharoit va boyliklar tarkibida esa tabiiy hududiy kompleks (landshaft). Xuddi shunday infrastrukturada hududiy infrastruktura kompleksi, aholi geografiyasida aholi joylashuvining hududiy tizimini ko‘rish mumkin.

**Sotsiologik so‘rov usuli** tadqiqotlarda keng qo‘llaniladigan usullardan bo‘lib, aniq sharoitda hududlar, tarmoqlar bo‘yicha keng ma’lumotlar olish imkonini beradi. Bu usul, ayniqsa, hududlardagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolar majmuasini aniqlashda, ishlab chiqarishni tashkil qilishning turli shakllarida yuzaga kelgan muammolarni o‘rganishda, qolaversa, aholi va mehnat

resurslari bilan bog‘liq jarayonlarni tadqiq qilishda zarur bo‘lgan muhim ma’lumotlar yig‘ish imkonini beradi.

**Aerokosmik tadqiqotlar usuli** samarali tadqiqot usullaridan biri bo‘lib, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada kenglik bo‘yicha, ya’ni katta hududlarda (kichik masshtabli) tabiat, xo‘jalik, aholi, atrof-muhit majmuasini tadqiq qilishda keng foydalanilmoqda. Ayni vaqtda, aniq hududlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, hududiy tashkil qilish, xo‘jalik va aholi joylashuvi, shaharlar, aglomeratsiya va iqtisodiy rayonlar chegaralari, atrof-muhit holati to‘g‘risida aniq va yangi ma’lumotlar olish imkonini beradi. Bu usul orqali kerakli hududni tanlab olib o‘rganish va natijalarni boshqa hududlarga tatbiq qilish ham mumkin.

So‘nggi yillarda geografiya fanining notabiiy tarmoqlari ilmiy tadqiqotlarida **Klasterliyondashuv**dan keng foydalanilmoqda. Klaster modelini joriy etishning tarafdori M.Porterning fikricha, klasterlar geografik jihatdan o‘zaro bog‘langan kompaniyalar, firmalar, tashkilotlar (korxonalar, agentliklar, markazlar, universitetlar va hokazolar)ning mujassamlashuvidir.

Klasterlar, aslida, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish haqidagi nazariy qarashlar va amaliyotning evolutsiyasi natijasidir. Xususan, XIX asr va XX asr birinchi yarmida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish shtandortlari, rayon kombinatlari, energiya ishlab chiqarish sikllari kabi nazariy qarashlar ostida sanoat o‘sishi qutblari, sanoat rayonlari, hududiy ishlab chiqarish majmualari tashkil etildi. O‘tgan asrning 70-yillaridan esa jahonda ishlab chiqarish aloqalarida o‘zaro bog‘langan turli bo‘g‘inlarning yuqori kooperatsiyasi va mujassamlashuvini o‘zida qamrab olgan klasterlar joriy etila boshlandi. Rivojlangan mamlakatlarda hozirgi kunda iqtisodiyotning turli sohalarida minglab klasterlar faoliyat yuritmoqda.

Professor A.Soliyev ta’biri bilan aytganda, qo‘yilgan maqsad va vazifalarni yechish ushbu masalani moliyaviy, ashyoviy, tashkiliy va boshqa tomondan uyushtirilishini taqozo etadi. Bu tadbirlar majmui esa dasturni tashkil qiladi. Shu

bois, mazkur usul maqsadga dasturli yondashuv deb nomlanadi. Uni, ayni vaqtda, hozirgi zamon tili bilan aytganda, klaster usuli deb ham belgilash mumkin.

Shuningdek, “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanida olib boilayotgan tadqiqotlarda SWOT-tahlil, guruhlashtirish, ekspert baholash, prognoz qilish, faktlar tahlili, balans va boshqa usullardan ham foydalaniladi.

**SWOT-tahlil usuli** orqali hududning kuchli, zaif, imkoniyat va tahdid tomonlari belgilanadi. Natijada, o‘rganilayotgan obyektning raqobatbardoshligiga erishish yo‘llari aniqlanadi. Eng muhimi, bunda zaif tomonlar va imkoniyatlarga ham e’tibor qaratiladi, tahdid hisobga olinadi va shu asosda istiqbolda rivojlanish yo‘llari belgilanadi.

**Guruhlashtirish usuli** – ommaviy statistik ma’lumotlarning bir xil, tipik bo‘lgan belgilarga ko‘ra guruhlarga ajratish usuli hisoblanadi. Bu usul o‘rganilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni hududlar va tarmoqlar bo‘yicha umumlashtirish imkonini beradi.

**Ekspert baholash usuli** – ishlab chiqarish kuchlarining tarmoqlar va hududlar bo‘yicha istiqbolda rivojlanishini yuqori malakali ekspertlar yordamida baholashdir. Ekspert baholash usuli, ayniqsa, insonning xo‘jalik faoliyati tufayli atrof-muhitda yuz berayotgan o‘zgarishlarni baholashda keng qo‘llanilmoqda.

**Prognoz qilish usuli** – iqtisodiyotning rivojlanishi, aholi soni va tarkibini, hududlarning kelajakda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ilmiy bashorat qilishdan iboratdir. Iqtisodiy bashorat qilish ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni oldindan bilish, bu muammolarni aniqlash va jamiyat taraqqiyotining ilmiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

**Faktlar tahlili usuli** asosida tarmoqlar o‘rtasida hamda tarmoqlar ichidagi farqlar aniqlanadi va korxonalar yo‘nalishi belgilanadi. Faktlar tahlili ko‘plab hodisalarni umumlashtirish hamda tarmoqlarni modellashtirish uchun kerakli ma’lumotlarni tayyorlash imkonini beradi.

**Balans usuli** – iqtisodiyot tarmoqlari, tarmoqlararo, ijtimoiy sohalarda doimo o‘zgarib turuvchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar muvozanatini ifodalovchi tizimdir.

Yuqoridagilar bilan birga, “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fani yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda quyidagi yo‘nalish usullariga ham alohida ahamiyat qaratiladi:

-tarmoqlar bo‘yicha (mamlakatlar va iqtisodiy rayonlar xo‘jaligining alohida tarmoqlarini, shuningdek, jahon xo‘jaligining tarmoq tarkibini);

-rayonlar bo‘yicha: (mamlakatlar va iqtisodiy rayonlar xo‘jalik majumasini);

-mahalliy (lokal), ya’ni alohida olingan sanoat korxonasini, firmalar faoliyatini, aholi punktlari, dehqon-fermer va uy xo‘jaliklari, assotsiatsiyalar va boshqa korxonalar xo‘jalik faoliyatini tadqiq qilishda keng foydalaniladi.

“Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanida tarmoqlar bo‘yicha tadqiqot usullari muhim o‘rin tutadi. Bu usul orqali jahon xo‘jaligi, iqtisodiy rayon va mamlakat bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi va joylashish xususiyatlari, tarmoqning iqtisodiy rayon va mamlakat xo‘jalik ixtisoslashuvida tutgan o‘rni, istiqbolda rivojlanishi hamda iqtisodiy rayonlarning shakllanishidagi o‘rni tadqiq qilinadi.

Rayonlar bo‘yicha mamlakat xo‘jalik majmuasini, mavjud tabiiy sharoit, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy resurslar hamda fan-texnika inqilobi yutuqlari asosida samarali hududiy ishlab chiqarish tizimini rivojlantirish va shakllantirish tadqiq qilinadi. Shuningdek, rayon va mamlakat bo‘yicha majmuali tadqiqotda rayon va mamlakat hududida rivojlanayotgan ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishning samarali shakllari, hududiy ishlab chiqarish majmualari va agrosanoat majmualari, vertikal va gorizontal ishlab chiqarish aloqalari hamda energiya ishlab chiqarish bosqichlari (sikllari) o‘rganiladi.

Ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishni takomillashtirish va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishda mahalliy miqyosdagi tadqiqotlar, ya’ni aniq korxona,

firmalar faoliyati, aholi yashash manzilgohlari, assotsiatsiyalar, dehqon-fermer va uy xo‘jaliklarining iqtisodiy holatini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bunda asosiy e’tibor mahalliy sharoit, mehnat resurslari, ishlab chiqarish aloqalari hamda istiqbolda rivojlanish masalalariga qaratiladi.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning qanday tadqiqot usullari mavjud?
2. Qanday vaqtlarda kartografik usuldan foydalanish maqsadga muvofiq?
3. Tadqiqotlarda geografik taqqoslash usuli qanday amalga oshiriladi?
4. Tarixiy usul deganda nimani tushunasiz?
5. Geografik tadqiqotlarda rayonlashtirish usulining ahamiyatini tushuntiring.
6. Statistik tahlil usuli nimaga asoslanadi?
7. Iqtisodiy-matematik modellashtirish usuli haqida nimalarni bilasiz?
8. Tizim-tarkib usuli deganda nimani tushunasiz?
9. Sotsiologik so‘rov usuli qaysi hollarda qo‘llaniladi?
10. Prognoz qilish usulining ahamiyatini izohlang.

## 4-BOB. IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYA FANINING SHAKLLANISHI

Reja:

4.1. “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanining shakllanish tarixi.

4.2. O‘zbekistonda “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fani ilmiy yo‘nalishlarining rivojlanishi.

4.3. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va hududiy tashkil qilish tushunchalari.

4.4. Ishlab chiqarishni joylashtirishning klassik g‘oyalari.

Geografiya fanining rivojlanishi Antik davrga, mamlakatlar o‘rtasida hududiy (geografik) mehnat taqsimoti, ya’ni har bir hududning o‘ziga xos tabiiy sharoiti va resurslari, iqtisodiy geografik o‘rni, xalqlarning urf-odatlari va an’anlari asosida ma’lum bir mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashishi va ular o‘rtasida tovar ayirboshlash jarayonining shakllanishi davriga borib taqaladi.

Mamlakatlar o‘rtasida hududiy mehnat taqsimotining shakllanishi geografiya fanlari tizimida dastlabki iqtisodiy geografik tadqiqotlarning vujudga kelishiga olib keldi. Qadimgi yunon olimi Strabon o‘zining 17 tomlik “Geografiya” deb nomlangan asarida, aholining hududiy joylashuvi, mamlakatlar va hududlar o‘rtasidagi tovar ishlab chiqarish va savdo-sotiq aloqalarini yoritgan.

Ayniqsa, milodning V asridan XVII asr o‘rtalariga qadar bo‘lgan davrda ishlab chiqarish kuchlarining sezilarli taraqqiyoti (foydali qazilmalardan keng foydalanish, metall eritish, ip va shoyi gazlamalar to‘qish, gilam, qog‘oz va chinni buyumlar ishlab chiqarish, shamol va suv kuchidan foydalanish, kemachilikning rivojlanishi va dastlabki geografik kashfiyotlar, mamlakatlarning siyosiy, savdo va madaniy markazlari sifatida shaharlar rolining ortishi, fanning taraqqiyoti, ichki bozorning shakllanishi) hamda davlatlar o‘rtasidagi savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida sharqiy yarimsharda 3 ta yirik mintaqaviy savdo markazlarining (Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, Yevropa – Venetsiya, Genuya, Ginza Ittifoqi va Yaqin Sharq) shakllanishi xalqaro bozorning yuzaga kelishi uchun shart-sharoit hozirladi. O‘z navbatida, kapitalning dastlabki jamg‘arilishi jarayoni, tabiiy fanlar ravnaqi, xalqlarning millat bo‘lib shakllanishi, Buyuk geografik kashfiyotlar, aholi migratsion harakatlarining boshlanishi, xalqaro savdoning kuchayishi xalqaro bozorlarning yuzaga kelishiga, mustamlakachilikning boshlanishiga va dastlabki iqtisodiy hamda iqtisodiy geografik qarashlarning ta’limot sifatida mujassamlashuviga olib keldi.

Ma’lumki, Buyuk geografik kashfiyotlar xalqaro savdo va ilk kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Bu davrda hududiy mehnat taqsimotining chuqurlashishi va jahon xo‘jaligining shakllanishi, o‘z navbatida, iqtisodiy geografiya fanining rivojlanishida muhim bosqich bo‘ldi. O‘sha davrlarda mamlakatlar va ularning hududiy birliklari haqidagi iqtisodiy geografik tavsif g‘arbiy yevropalik olimlarning asarlarida chuqur talqin etilgan. Ayniqsa, ilk geografik bilimlarning nazariy jihatlari mamlakatning rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan iqtisodiy geografik o‘rin, yerning ustki tuzilishi, aholining tarkibi, shaharlar, siyosiy tuzum masalalariga qaratilgan. Ayni paytda, buyuk geografik kashfiyotlar natijalari va keyinchalik mustamlaka yoki qaram mamlakatlarning vujudga kelishi, dengiz tadqiqotlarining rivojlanishi va boshqa omillar davlatlararo savdo-sotiq ishlarini olib borishda tijorat geografiyasining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu yo‘nalish, dastavval, eng ko‘p mustamlaka mamlakatlariga, qulay transport geografik mavqega va yuksak dengiz kemachiligiga ega bo‘lgan Angliyada rivojlana boshladi.

XVI asr va XVII asrning birinchi yarmida texnika taraqqiyoti sanoatning rivojlanishiga, transport va savdo aloqalariga kuchli ta’sir qildi. XVII asr o‘rtalaridan boshlab Yevropada fabrika va zavodlarning ishlab chiqarishda bosh sohaga aylanishi, Angliyaning jahon iqtisodiyotida muhim o‘rin tutishi, milliy xo‘jalik tizimlarining baynalmilallashuvi va geografik mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish nazariyalarini yuzaga keltirdi.

XIX asrning 70-yillari va XX asr boshlariga qadar bo‘lgan bosqichda yirik sanoat, zamonaviy transport va xalqaro bozorlar jahon xo‘jaligining shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi. Bu bosqichda sanoatni oqilona joylashtirish – “shtandort” nazariyalarining yuzaga kelishi iqtisodiy geografiyani fan sifatida shakllanishi uchun shart-sharoit hozirladi.

“Iqtisodiy geografiya” tushunchasi M.V.Lomonosov tomonidan 1760-yildan ishlatila boshlagan bo‘lsa-da, iqtisodiy geografik tasavvurlar insoniyatning o‘zlashtiruvchi iqtisodiyot bosqichidan shakllangan. Birinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti dehqonchilikdan chorvachilikning ajralib chiqishi hamda uning ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotga o‘tishi, sug‘orma dehqonchilikning “Buyuk” tarixiy daryolar va O‘rta dengiz sohili bo‘ylarida yuzaga kelishi, ikkinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti hunarmandchilikning rivojlanishi, shaharlar va savdo-sotiqning taraqqiyoti iqtisodiy geografik bilimlarga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi va iqtisodiy geografik tasavvurlar doirasi kengaydi. Mulkchilik munosabatlarining yuzaga kelishi, qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari, fan, madaniyat, arxitekturaning rivojlanishi, qadimgi davlatlarning shakllanishi va rivojlanishi, boshqaruv shakllarining (monarxiya va demokratiya) yuzaga kelishi iqtisodiy geografiyani fan sifatida shakllantirdi.

“Iqtisodiy geografiya” fanining shakllanishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining hududiy tomonlariga bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar bilan belgilandi. Mavjud ilmiy manbalarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy geografiyaning vujudga kelishida 3 yo‘nalish yoki omil asosiy sabab bo‘lgan. Bu ham bo‘lsa, eng avvalo, kameral statistika, tijorat geografiyasi, siyosiy va harbiy geografiyadir. Ushbu yo‘nalishlar rivojlangan feodalizm va kapitalizmning shakllanishi davriga to‘g‘ri kelib, ular ko‘proq G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, xususan, Germaniya, Britaniya, Fransiya, Shvetsiya, Avstriya kabi davlatlar hamda Rossiyada paydo bo‘ldi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki bu mamlakatlarda fan-texnika sohasining taraqqiy etishi, sanoat inqilobining ro‘y berishi va dastlabki bozor iqtisodiyoti munosabatlarining shakllanishi ishlab chiqarishning va buning natijasida mamlakat hududlari to‘g‘risidagi iqtisodiy bilimlarning rivojlanishiga olib keldi.

Rossiyada kameral statistika yoki “Siyosiy arifmetika” davlatshunoslik, davlatning boyligi – yeri, mablag‘i va aholisini hisob-kitob qilish, uni boshqarish,

soliq va askar to‘plash kabi masalalar bilan shug‘ullangan holda, V.N.Tatishyev, ota-o‘g‘il P.P.Semyonov va V.P.Semyonov Tyan-Shanskiylar faoliyati bilan bog‘liq bo‘ldi. O‘sha paytlarda statistika o‘z qamroviga etnografiya va harbiy geografiya masalalari hamda savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullanuvchi tijorat geografiyasiga doir muammolarni ham olar edi. V.N.Tatishyev (1686-1750) geografiya fanini “sifat” jihatidan 3 ga bo‘lgan: matematik geografiya (ya’ni hozirgi geodeziya va kartografiya), tabiiy geografiya hamda siyosiy geografiya.

1830-yil Britaniyada turli geografik klublar birlashuvi asosida Qirollik geografiya jamiyati (Royal Geographical Society) vujudga keldi. Mazkur jamiyat dunyo haqidagi tadqiqotlarni va geografik ma’lumotlarni o‘zaro almashish maqsadida tuzilgan edi.

Shvetsiyada geografiya Britaniyaga qaraganda kechroq rivojlandi. Ilk marotaba X.X. fon Shverin 1879-yilda Lund oliygohida “Geografiya” fanidan ma’ruza o‘qishni boshladi. 1910-yilda esa Uppasla, Gyoteborg va Stokgolm iqtisodiyot oliy maktablarida ham “Geografiya” fanini o‘qitish yo‘lga qo‘yildi.

Siyosiy va harbiy geografiya Rossiyada XIX asr o‘rtalarida vujudga kelib, keng tarqala boshladi. “Siyosiy geografiya” hamda “Harbiy geografiya” tushunchalarini ham birinchi marta M.V.Lomonosov qo‘llagan edi. Bu yo‘nalishlar o‘z obyekti va mohiyatiga ko‘ra bir-birlariga juda yaqin turdosh bo‘lib, o‘zaro aloqadorlikda rivojlanib keldi. Rossiyadagi Ulug‘ Vatan va Qrim urushlari, boshqa siyosiy voqealar, Yevropa mamlakatlaridagi inqilobiy o‘zgarishlar, yangi davlatlarning shakllanishi va yangi ishlab chiqarish munosabatlarining vujudga kelishi siyosiy va harbiy geografiyaning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

XIX asrning birinchi yarmida rus harbiysi, professor P.A.Yazikov ikki qismdan iborat “Harbiy geografiyaning nazariy tajribasi” mavzuida asar yozgan bo‘lsa, shu asrning o‘rtalariga kelib harbiy akademiya bosh shtabi qoshida professor D.A.Milyutin (1816-1912) “Harbiy geografiya” kafedrasini tashkil etdi.

Harbiy geografiya faqat urush-yurishlar bilan aloqador masalalar bilangina emas, balki mamlakatning iqtisodiy va demografik qudrati, qazilma boyliklari, ulardan foydalanish kabi muammolar bilan ham shug‘ullanar edi. Shu bilan birga, harbiylar juda ko‘p geografik ekspeditsiyalarni tashkil etdilar va ularning o‘zlari bu tadbirlarda faol qatnashdilar. Masalan: rus geografiya jamiyatining ta’sis etilishi va uning faoliyatida admiral V.P.Litke, kartografiya va geografiyaning rivojlanishida general-leytenant V.V.Vitkovskiylarning xizmati samarali bo‘lgan. Qozoq geografi va etnografi Ch.Valixonov, Markaziy Osiyoni o‘rgangan V.M.Prjevalskiylar ham harbiy zobit bo‘lgan.

Bu o‘rinda shuni qayd etish lozimki, garchi harbiy geografiya fan sifatida XVIII asrdan e’tirof etilsa-da, harbiy geografiyaga doir bilimlar uzoq davrlardan buyon shakllanib kelgan, o‘rganilgan hamda qo‘llanilgan. Bunga ajdodlarimiz Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur hayotlaridan ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Xo‘sh, harbiy geografiya o‘zi qanday fan? U o‘z ichiga nimalarni qamrab oladi? Hozirgi harbiy tuzilmalar davlatlar va ularning ittifoqlari hayoti hamda faoliyatining barcha jihatlariga dahldor murakkab ijtimoiy hodisadir. Shu sababli, harbiy fanlarda qurolli urushni boshqarish usullarinigina bilish yetarli emas. Harbiy fanlar alohida mamlakatlar va ular ittifoqlarining iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va harbiy imkoniyatlariga, ehtimoliy urush maydonining tabiiy va ijtimoiy sharoitiga qiziqadi. Bularni o‘rganish bilan qator fanlar, jumladan, harbiy geografiya ham shug‘ullanadi. Harbiy geografiya mamlakatlar va urush maydonlaridagi siyosiy kuchlarni, mamlakatlar va davlatlar ittifoqining iqtisodiy va harbiy imkoniyatlarini, ularning joylashtirilishini hamda tabiiy sharoitni harbiy faoliyatni olib borish va butun urushga ta’siri nuqtai nazaridan o‘rganadi.

Harbiy geografiya ikki asosiy bo‘limdan tarkib topgan: harbiy mamlakatshunoslik va urush maydonlarini tavsiflash. Shu bilan birga, harbiy

geografik tadqiqotlar, odatda, mamlakatlarda bo‘lib o‘tgan yoki ehtimoliy urush maydonlarini ham o‘rganadi.

Harbiy mamlakatshunoslikning asosiy vazifasi – o‘rganilayotgan davlatlar yoki davlatlar ittifoqining harbiy qudratini aniqlashdir. Harbiy kuch-qudrat davlatning siyosiy va iqtisodiy tuzilishini, uning qurolli kuchlari tayyorgarligi va kuchli raqibga qarshi muvaffaqiyatli harbiy faoliyat olib bora olish qobiliyatini amalga oshiradi.

Davlatning harbiy qudrati darajasi uning iqtisodiyoti bilan bevosita bog‘liq. Armiyaning barcha tuzilmalari va unda qo‘llaniladigan jang usullari, ayni vaqtda, g‘alaba yoki mag‘lubiyat moddiy, iqtisodiy omillarga – inson va qurol materiallariga, shuningdek, aholi va texnikaning sifati va miqdoriga bog‘liq. Shuning uchun, harbiy geografiya alohida mamlakatlarni o‘rganishda ularning iqtisodiy salohiyatiga, mamlakatlar xalq xo‘jaligining o‘ziga xosligiga, ularning iqtisodiy va siyosiy tuzilmalariga, jamiyat ehtiyojlarini moddiy ta’minlashning maksimal imkoniyatlariga hamda urushni olib borish uchun zarur bo‘lgan barcha ishlab chiqarish tarmoqlariga alohida e’tibor qaratadi. **Harbiy geografiya mamlakatlar va ularning ittifoqlarini o‘rganishda quyidagilarga:**

- ✓ sanoatningrivojlanishdarajasivaishlabchiqarishquvvatiga (asosan, og‘irvaharbiysanoat), qishloqxo‘jaligi, transportvaaloqaningimkoniyatlari;
- ✓ mamlakatlarning tabiiy boyliklar va mehnat resurslari bilan ta’minlanganligi;
- ✓ ishlabchiqarishninggeografikjoylashishxususiyatlari, aholivazaxiralarningrivojlanganlikdarajasi, uningmamlakatmoddiyishlabchiqarishivaxalqma’naviyhayotigata’sirida rajasi;

- ✓ davlatningmoliyaviyahvolikabiiqtisodiyimkoniyatningengmuhimelementlarigaqiziqadi.

Mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatini aniqlashda harakatsiz (foydalanilmayotgan) ishlab chiqarish quvvatlarini, ishchi kuchi zaxiralarini, milliy boylik miqdorini, mahsulot ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga ta’sir etuvchi ba’zi zaruriy imkoniyatlarni hisobga olish lozim. Bu o‘rinda, harbiy geografiya mamlakatlarning harbiy-iqtisodiy salohiyatini ham o‘rganadi. Harbiy-iqtisodiy salohiyat mamlakatlar iqtisodiy salohiyatining tarkibiy qismi bo‘lib, undan urushlar olib borishda foydalanish mumkin. Bir xil umumiy iqtisodiy imkoniyatli mamlakatlardan qaysi birida harbiy munosabatlar kuchli bo‘lsa, o‘sha mamlakat katta harbiy-iqtisodiy salohiyatga ega bo‘ladi va undan yaxshi foydalaniladi.

Harbiy maqsadlarda iqtisodiy salohiyatdan foydalanish darajasi harbiy-siyosiy vaziyatni, urushning xarakterini, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasini aniqlab beradi. Harbiy geografiya davlatlar harbiy qudrati asoslarini tadqiq qilishda siyosiy geografiya va boshqa ijtimoiy fanlarning ma’lumot va yo‘l-yo‘riqlaridan foydalanadi. U jamiyat va davlat tuzilmalarining safarbarlik imkoniyatlarini o‘ziga xos baholashda va mamlakatlarning barcha resurslaridan mudofaa maqsadlarida foydalanishda yuqoridagi fanlar ko‘rsatmalariga amal qiladi.

Shuningdek, iqtisodiy geografiya fanining sobiq Ittifoqda rivojlanishi XX asrning 20-yillarida butun mamlakatni elektrlashtirishga qaratilgan dasturning amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu reja iqtisodiyotni ko‘tarish nuqtai nazaridan hududlardagi mahalliy yoqilg‘i resurslari asosida yirik elektrostansiyalarni qurish va ularning negizida metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoati tarmoqlarini shakllantirishga qaratilgan edi. Mazkur rejaning asosiy maqsadi, mamlakat hududlarida katta ahamiyatga ega bo‘lgan og‘ir sanoat tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirish bo‘lib, buning natijasida, yirik transport magistral yo‘llarini tashkil etish ham e’tiborga olingan.

Ushbu rejani amalga oshirish, o‘z navbatida, mamlakat hududlarining tabiiy resurslari va sharoitlarini, iqtisodiy geografik o‘rnini, aholi va mehnat resurslarini, hududiy ixtisoslashish va boshqa imkoniyat va sharoitlarni majmuali o‘rganishni talab etadi. Oqibatda esa iqtisodiy geografik tadqiqotlarni olib borish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Iqtisodiy geografik tadqiqotlarning asosiy ilmiy yo‘nalishlarida, mamlakat iqtisodiyotini jadal sur’atlarda rivojlantirish va sanoatlashtirish maqsadida iqtisodiy rayonlashtirish va yangi hududiy ishlab chiqarish majmualarini tashkil etishning nazariy masalalarini yaratishga katta e’tibor qaratiladi. Ushbu reja asosida, O‘zbekistondagi ilk yirik gidroelektrostansiyalar zanjiri – Chirchiq-Bo‘zsuv gidroelektroenergiya kaskadi qurildi va Toshkent viloyatida elektroenergetika, metallurgiya, kimyo va mashinasozlik korxonalari barpo etildi. Shu davrda iqtisodiy geografiya fanining rivojlanishiga G.M.Krjijanovskiy, I.G.Aleksandrov, Y.G.Saushkin va N.N.Baranskiy va boshqa qator olimlar katta hissa qo‘shdilar va o‘z ilmiy maktablarini yaratdilar.

Sobiq Ittifoq oliy o‘quv yurtlarida (iqtisodiyot va geografiya fakultetlarida) iqtisodiy geografiya asosiy predmet sifatida o‘qitilishi ham o‘tgan asrning 20-yillariga to‘g‘ri keladi. Ayni paytda, iqtisodiy geografiya dunyo siyosiy kartasida, jahon xo‘jaligida, mintaqalar va mamlakatlar xo‘jalik tizimidagi muhim miqdor va sifat o‘zgarishlarini tadqiq qildi. 1976-yildan boshlab iqtisodiy geografiya iqtisodiy va ijtimoiy geografiya deb yuritila boshlandi. Bunday o‘zgarish bilan professor A.Soliyev ta’kidlaganidek: “...**fanning mazmuni uning shakliga moslashtirildi, chunki bu shaklan o‘zgarish edi, mohiyatan iqtisodiy geografiya doirasida ijtimoiy masalalar ham ayni paytda o‘rganib kelinar edi**” (A.Soliyev, 1995). Biroq, bugungi kunda mazkur fan ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda **Inson geografiyasi** deb nomlanmoqda.

O‘z-o‘zidan ma’lumki, iqtisodiy jarayonlarning hududiy tomonini, uning joylashuvini o‘rganish iqtisodiy rayonlashtirish masalasiga olib keladi. “Iqtisodiy

rayonlashtirish” tushunchasi Rossiyada XIX asrning birinchi yarimidayoq keng ishlatila boshladi. Bu davrda K.I.Arsenyev Rossiyani 2 marta rayonlashtirdi (1818 va 1848-yy.), shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi, ularning funksional va genetik tiplari to‘g‘risida ilk bor asarlar yaratdi. Iqtisodiy rayonlashtirish va shaharlar geografiyasini yaratgan shaxs ham, aynan, shu olim edi. XX asr boshlarida aholi joylashuvi va shaharlar muammosi bilan V.P.Semyonov, A.I.Voykovlar ham shug‘ullanishgan.

XX asr 50-yillarining o‘rtalaridan boshlangan fan-texnika inqilobi (FTI) tabiat va jamiyat (T↔J) o‘rtasidagi munosabatlarni kengaytirdi va chuqurlashtirib yubordi, ishlab chiqarish tizimlarida va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda muhim sifat o‘zgarishlari uchun yo‘l ochildi. Tabiiy resurslarni o‘zlashtirish kuchaydi, mutlaqo yangi resurslar ishlab chiqarishga yo‘naltirildi. O‘zlashtirilishi murakkab va qiyin (agroiqlimiy jihatidan) bo‘lgan hududlarni jadal o‘zlashtirish bilan bir qatorda, qadimdan o‘zlashtirilgan hududlarda cho‘llanish jarayonlari ham kuchaydi. FTI gurkirab rivojlanishi, aholi soni ko‘payishining tezlashuvi oqibatida insoniyatning tabiatga, atrof-muhitga ta’siri kuchaydi va industrial yo‘nalishdagi antropogen (ikkinchi tabiat) landshaftlar (manzara, ko‘rinish) yuzaga keldi. Antropogen landshaftlarning tobora hukmron mavqeni egallab borishi tabiiy muhit tabiiyligining yoki birlamchi tabiatning asta-sekin yo‘qolib borishiga va bunday tabiat-jamiyat o‘rtasidagi qayta aloqalar esa murakkab ekologik inqirozlarning yuzaga kelishiga hamda umumbashariy muammoga aylanishiga olib keldi. Natijada, iqtisodiy geografiya tadqiqotlarida ekologik jarayonlarning o‘rganilishi kengaydi.

“Iqtisodiy geografiya” fani ekologik jarayonlarni tarmoq va hududiy jihatdan o‘rganadi. Iqtisodiy geografiya fanining vazifasi tabiat rivojlanishining obyektiv qonuniyatlari (TOQ) va jamiyat rivojlanishining obyektiv qonuniyatlarini (JOQ) bir-biri bilan bog‘liq holda, ya’ni (TOQ↔JOQ) tabiat – aholi – ijtimoiy-iqtisodiy

tizimlar (T↔A↔IIT) o‘rtasida barqaror doimiy (qayta) aloqalarning shakllanishini, bu aloqalar rivojlanish bosqichlarining amal qilishi, davom etishi va boshqarilishi jarayonlarini tadqiq qilishdan iborat.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya va unga asos bo‘lgan fan yo‘nalishlarining vujudga kelishida boshqa olimlarning xizmati ham sezilarli bo‘lgan. Nemis olimi, geograf va sotsiolog **F.Rattsel o‘zining “Antropogeografiya” asarini yaratib, siyosiy geografiya va siyosiy geografik determenizmga mansub ishlar olib borgan bo‘lsa,** undan keyinroq fransuz olimi Vidal de la Blash “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya”ning asoschisi bo‘lgan. Uning bu ilmiy maktabini F.Rattsel antropogeografiyasidan farqi shundan iboratki, u siyosiy masalalarni chiqarib tashlagan holda, ko‘proq inson va uning faoliyatini geografik muhitga moslashuvi, muvofiqlashuviga (possiblizmga) e’tibor bergan va tabiiy geografik omillar, eng avvalo, iqlim sharoitlarining jamiyat rivojlanishidagi rolini biroz “yumshatgan”. Keyinchalik Rattsel g‘oyalari asosida, geografik determenizmning siyosiy g‘oyalar bilan boyitilishi natijasida o‘ta reaksion – geografik siyosat (geosiyosat) vujudga kelgan.

Ammo bu ma’nodagi an’anaviy geografik siyosatni regional yoki hududiy siyosat, hozirgi geografik siyosat bilan tenglashtirish noto‘g‘ri. Iqtisodiy geografiya va, umuman, geografiya fanining rivojlanishida nemis olimi A.Gettnerning (1859-1941) ham ma’lum darajada xizmati bor. Biroq u asosiy e’tiborni hududga bergan va geografiyada tarixiylik tamoyiliga qarshi chiqqan, geografiya faqat hozirgi hududiy voqelikni o‘rganishini uqtirgan. Shu bois, A.Gettner geografiyasi “xorologiya” (ya’ni hudud) tamoyiliga asoslangan.

Shuningdek, iqtisodiy geografiyaga tegishli ilmiy muammolar boshqa davlat olimlari va turli maktablar tomonidan ham o‘rganilib, o‘z yechimini topgan. Masalan, ingliz olimi G.G.Chizxolmning o‘tgan asr oxirida yozgan tijorat geografiyasi, undan keyinroq yashagan golland X.Bos, shvetsariyalik G.Beshning

jahon xo‘jalik geografiyasi, amerikalik olimlar U.Izard hamda V.Leontyevning hududiy iqtisod, fransuz F.Perruning ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda qutblar va hududiy tengsizlik nazariyasi, P.Haggetning iqtisodiy geografiyada hududiy tahlil, amerikalik Ch.Garris va fransuz olimlari J.Boje, Garne hamda Shabolar, shved G.Aleksanderosning shaharlar geografiyasi, AQShlik olim D.Harveynning “Geografiya fanining umumnazariy masalalari”, uning vatandoshi G.Uaytning tabiiy resurslar va tabiiy ofatlarga bag‘ishlangan asarlari shular jumlasidan.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning shakllanishi va rivojlanishida geografiya jamiyatlarining tashkil etilishi ham ma’lum ahamiyatga ega bo‘lgan. Chunonchi, bunday jamiyat dastlab, Parijda (1821), so‘ngra Berlinda (1828), Londonda (1830), Nyu-Yorkda (1852) va Avstriyada (1856) tashkil etilgan edi. Peterburgda esa u 1845-yilda tashkil etildi. Rossiya geografiya jamiyatining tashkil etilishi va uning faoliyatida V.P.Litke, P.T.Semyonov Tyan-Shanskiylarning xizmati katta bo‘lgan. Biroq, bu ijtimoiy tashkilotlar doirasida sof iqtisodiy geografik masalalar kam edi. Masalan, Rossiya Geografiya jamiyatida 4 ta bo‘lim mavjud bo‘lgan: tabiiy geografiya, matematik geografiya va kartografiya; etnografiya; antropologiya va tarixiy geografiya; statistika va siyosiy iqtisod.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” (Iqtisodiy geografiya) fanining shakllanishida rus geografi va kartografi, geografiya fanlari doktori, sobiq Ittifoq davrida Fanlar akademiyasining faxriy a’zosi, iqtisodiy geografiya borasidagi maktab va oliy o‘quv yurtlari uchun mo‘ljallangan o‘quv darsliklar va qo‘llanmalar muallifi – Baranskiy Nikolay Nikolayevichning (1881-1963) xizmatlari kattadir.

“Iqtisodiy geografiya” fanining tarixiy rivojlanishi, eng avvalo, shu fan nomi bilan yuritiladigan kafedralarning ochilishida ham o‘z aksini topdi. Jumladan, bunday kafedra birinchi marta Rossiyada, **ya’ni Peterburg Politexnika**

**Institutida professor V.E.Den tomonidan 1902-yilda ochilgan edi.** Keyinchalik u Rossiya iqtisodiy geografiyasining birinchi professori sho‘rolar davrining dastlabki yillarida shunday kafedrani Sankt-Peterburg Universitetida ham tashkil qilgan edi. Sobiq Ittifoq iqtisodiy geografiyasining asoschisi N.N.Baranskiy iqtisodiy geografiya kafedrasini **1921-yilda Kommunistlar Universitetida** ochgan. O‘rta Osiyoda bunday kafedra ilk bor Toshkent davlat universiteti (hozirgi O’zMU)da 1940-yilda tashkil qilingan edi.

O‘zbekiston hududida dastlabki iqtisodiy va iqtisodiy-geografik bilimlar uzoq tarixga egaligi bilan ajralib turadi. Sug‘orma dehqonchilik, irrigatsiya inshootlari, shaharlar va mamlakatlar, aholishunoslik va hunarmandchilik, arxeologiyaga doir ma’lumotlar yirik mutafakkirlar Mahmud Qoshg‘ariy, Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Abdulla Muhammad ibn at-Termiziy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Zayd Balxiy, Abu Abdulla Jayhoniy, Abu Abdullo Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Xoraqiy, Mahmud az-Zamaxshariy, Xafizi Abru, G‘iyosiddin Naqqosh, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabilarning asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Jumladan, Mahmud Qoshg‘ariyning **“Devonu lug‘otut-turk”** nomli asarida tabiat tasvirlari, yershunoslik, ekologik va geografik ma’lumotlar berilgan. Muhammad ibn Muso Xorazmiyning (780-847) **“Yerning tasviri”** va **“Xorazm geografiyasi”** nomli asarlari yer bilimi, kartografiya, geodeziya va mamlakatshunoslikka oid qimmatli ma’lumotlarga boy.

Al-Beruniy va Ibn Sino asarlari XVIII asrga qadar Yevropa oliy o‘quv yurtlarida darslik sifatida qo‘llanib kelingan bo‘lsa, Xorazmda **“Ma’mun akademiyasi” va Ulug‘bek ilmiy maktabi Markaziy Osiyo** hududidagina emas, balki butun jahonda ilm-fanning rivojlanishiga beqiyos hissa qo‘shdi. Ayniqsa, Z.M.Boburning “Boburnoma” asari Farg‘ona vodiysi tabiati, xo‘jaligi, aholisi va shaharlariga doir g‘oyat qimmatli ma’lumotlar berilgani bilan ajralib turadi.

Markaziy Osiyo hududini ilmiy jihatdan tadqiq etish XVII asr oxiridan XX asr boshlariga qadar Rossiya imperiyasi tomonidan o‘lka boyliklarini o‘z manfaatlari uchun foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish maqsadida tashkil etilgan qator ilmiy ekspeditsiyalari faoliyati bilan bog‘liqdir. O‘lka Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilganidan so‘ng **1897-yili Toshkent shahrida tashkil etilgan Turkiston Geografiya Jamiyati**butun Turkiston, jumladan, O‘zbekiston hududi, tabiati, aholisi, tabiiy boyliklari, xo‘jalik tizimi, shaharlari to‘g‘risida sistemali tarzda ma’lumotlar to‘plash bilan shug‘ullandi.

1920-yildan boshlab Toshkentda Turkiston Davlat universitetining tashkil topishi (ToshDU, hozirgi O‘zbekiston Milliy universtiteti) o‘lkada keng miqyosda iqtisodiy va iqtisodiy-geografik tadqiqotlar yo‘lga qo‘yilishiga zamin yaratdi. Dastlab, rus olimlari **G.N.Cherdansev, N.N.Kojanov, N.K.Yarashevich, Y.I.Poslavskiy, A.I.Golovin** va boshqalar Turkiston hududini iqtisodiy rayonlashtirish, Markaziy Osiyo hududida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish, tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash, aholishunoslikning nazariy va amaliy muammolari bilan shug‘ullanadilar. 1940-yillarda esa yirik iqtisodiy-geograf **V.M.Chetirkin O‘rta Osiyoni iqtisodiy geografik jihatidan tadqiq qilib, “СредняяАзия”** nomli monografiyasini yozdi.

XX asrning 50-60-yillaridan boshlab O‘zbekiston iqtisodiy geograflarining dastlabki vakillari (Z.M.Akramov, M.K.Qoraxonov, S.Ziyodullayev va boshqalar) O‘zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish (Farg‘ona vodiysi, 1952), iqtisodiyot tarmoqlari – sanoat, qishloq xo‘jaligining rivojlanishi va istiqboli (Samarqand va Qashqadaryo qishloq xo‘jaligi geografiyasi), aholishunoslik va aholi geografiyasi, shaharshunoslikka doir ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirdilar.

1970-yillardan boshlab mamlakatimizdagi taniqli iqtisodiy geograflar – **Z.M.Akramov, A.Soliyev, O.Ota-Mirzayev**, iqtisodchilar – **S.Ziyodullayev, K.I.Lapkin, I.Iskandarovlar** rahbarligida ishlab chiqarish kuchlarini hududiy

tashkil qilish, rivojlantirish va istiqbollarini majmuali o‘rganuvchi yo‘nalishlar va ilmiy maktablar shakllandi.

Bu yo‘nalishlar:

- ✓ tabiiy sharoit va tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash va mintaqaviy ekologik muammolar tadqiqoti;
- ✓ aholishunoslik va aholi geografiyasi, shaharshunoslik;
- ✓ sanoat tarmoqlari geografiyasi, agrosanoat majmuasi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va istiqbollarini tadqiq qilishdan iboratdir.

O‘zbekistonda iqtisodchi va iqtisodiy geograflar tayyorlashda 1950-yilda tashkil etilgan O‘zbekiston FA ishlab chiqarish kuchlarini o‘rganish kengashi (SOPC), keyinchalik O‘zbekiston Makroiqtisodiyot va statistika vazirligiga qarashli Makroiqtisodiyot va ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar instituti hamda **1957-yilda tashkil etilgan O‘zbekiston FA Geografiya bo‘limi,** O‘zbekiston Milliy universiteti “Iqtisodiy geografiya” kafedrasi, 1972-yili tashkil etilgan Geografiya fakulteti qoshidagi **aholishunoslik muammolari laboratoriyasi** xodimlarining xizmatlari kattadir.

O‘zbekistonda iqtisodiy-ijtimoiy geografiya fani rivojlanishida professor **Abdusami Soliyev**ning hissasini alohida ta’kidlash joiz. A.Soliyev 1943-yili Tojikiston Respublikasining Isfara tumanida tug‘ilgan, 1969-yilda O‘zMUning Geografiya fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatib, shu yilning o‘zida aspiranturaga o‘qishga kirgan. 1973-yili nomzodlik, 1986-yilda doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan.

A.Soliyev o‘zining sermahsul ilmiy-ijodiy faoliyatida iqtisodiy-ijtimoiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot fanlarining nazariy asoslari, iqtisodiy rayonlashtirish va mintaqaviy siyosat, sanoat, tibbiyot geografiyasi, aholi geografiyasi va demografiya, shaharlar geografiyasi va urbanizatsiya, turizm va

jinoyatchilik geografiyasi muammolarini o‘rganib, geografiya fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. Atoqli olim respublikamizda mintaqaviy iqtisodiyot fanini shakllantirishiga, an’anaviy iqtisodiy geografiyaning, ayniqsa, ijtimoiy (sotsial) blokini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi.

A.Soliyev O‘zbekistonda birinchi bo‘lib geografiya fanining yangi yo‘nalishlariga asos solgan va yetakchilik qilgan. Masalan, mustaqillik yillarida olim rahbarligida respublikamizda “noan’anaviy” deb ataluvchi ko‘pgina yo‘nalishlarda (tibbiyot, jinoyatchilik, fan va ta’lim, turizm geografiyasi va b.) nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Shuningdek, A.Soliyevning rahbarligida sanoat, aholi, shaharlar va boshqa eng dolzarb masalalarga tegishli dissertatsiyalar ham himoya qilingan.

Professor A.Soliyev bir necha yillar davomida, ya’ni 2003-2016-yillarda O‘zbekiston Geografiya jamiyatining prezidenti sifatida ham samarali ishlar olib bordi. Olim tomonidan quyidagi o‘quv qo‘llanma, darslik va ilmiy monografiyalar yaratilgan: “Iqtisodiy geografiya asoslari” (1996); “Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari” (1999); “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy muammolari” (2002); “Mintaqaviy iqtisodiyot” (2003), “Iqtisodiy va siyosiy geografiya asoslari” (2003), “Tibbiyot geografiyasi” (2005); “Turizm geografiyasi” (2005), “Qishloq joylar demografiyasi” (2005), “Qo‘shma korxonalar geografiyasi” (2006), “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” (2014) va boshqalar.

A.Soliyevning ilmiy maktabi respublikamiz oliy o‘quv yurtlari va viloyatlarida tayanch, o‘ziga xos markazlarni shakllantirishga muvaffaq bo‘lgan. A.Soliyev 400 ga yaqin ilmiy ishlar, 30 dan ortiq monografiya, o‘quv qo‘llanma va darsliklar, ilmiy maqolalar e’lon qilgan, 40 ta fan nomzodi va 5 nafar fan doktorlarini tayyorlagan.

**Ishlab chiqarishni joylashtirishning klassik g‘oyalari.** Ma’lumki, xalqaro savdo nazariyasi asoslari XVIII asr oxirlari – XIX asr boshlarida mashhur iqtisodchilar Adam Smit va David Rikardo tomonidan shakllantirilgan.

Adam Smit o‘zining **“Xalqlar boyligi sabablari va ularning tabiati to‘g‘risida tadqiqotlar”** (1776-y.) kitobida mutlaq ustunlik nazariyasini shakllantirdi va xalqaro erkin savdoning rivojlanishidan manfaatdor mamlakatlar undan mustaqil ravishda eksporter yoki importyorligidan qat’iy nazar, albatta, yutishini ko‘rsatdi. **A.Smit “almashinish har bir mamlakat uchun foydali ekanligini, har bir mamlakat unda mutlaq ustunlikni topishini”** isbotladi. Xalqaro savdoda mutlaq ustunlik bu – mamlakatda ishlab chiqarishda boshqa mamlakatda mumkin bo‘lmagan kam mehnat sarflab tovar ishlab chiqarishdir.

A.Smit tahlili klassik nazariyaning tayanch nuqtasi sifatida erkin savdo siyosatining barcha turlariga asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, bu mulohazalarni oxirigacha davom ettirib, shunday xulosaga kelish mumkin: agar mamlakat chetdan cheklanayotgan miqdorda, arzon bahoda istalgan barcha narsasini topsa, uning manfaatlari chetda “hammasi” tusini oladi. Uning o‘zi sotish uchun biror-bir narsa ishlab chiqarayaptimi? Hech narsa buni kafolatlay olmaydi. Ana shunda uni o‘zi sotib oladigan narsalariga umid bog‘lashdan boshqa iloji qolmaydi. Turgan gapki, bunda mutlaq usutunlik nazariyasi boshi berk ko‘chaga kirib qoladi.

D.Rikardo “Siyosiy iqtisodning boshlanishi va soliqqa tortish” (1819-y.) kitobida bu boshi berk ko‘chadan chiqishning klassik nazariyasini olg‘a suradi. U xalqaro ixtisoslashuv mezonlarini ajrata turib, ikki davlat o‘rtasida qaysi doirada almashinish maqbulligini ko‘rsatadi. Har bir mamlakat o‘z manfaatidan kelib chiqib ishlab chiqarishda ustunlik beradigan yoki nisbatan kam foyda beradigan sohaga ixtisoslashishi mumkin. Uning mulohozalari **taqqoslama ustunlik nazariyasida o‘z aksini topadi.**

D.Rikardo xalqaro almashinuv barcha mamlakatlar uchun zarur va manfaatli ekanligini ko‘rsatib berdi. U shunday baho hududi (zonasi)ni aniqladiki, uning ichida almashinish hamma uchun foydalidir.

**Jon Styuart Mill o‘zining “Siyosiy iqtisod asoslari”** (1848-y.) ishida almashish qanday bahoda amalga oshishini ko‘rsatdi. Millning xulosasiga ko‘ra, almashish bahosi talab va ehtiyoj qonuni asosida belgilanadi va har bir mamlakatni eksportdan oladigan foydasi import to‘lovlarini qoplash imkoniyati darajasida bo‘ladi. Bu xalqaro qiymat qonuni yoki “Xalqaro qiymat nazariyasi” Millning katta xizmatidir. Xalqaro qiymat nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, mamlakatlar o‘rtasida tovar almashishni mo‘tadillashtiruvchi baho mavjud. Bu bozor narxi, talab va ehtiyojga bog‘liq.

Burjuaziya siyosiy iqtisodi klassik nazariyasi taraqqiyoti haqida yangi so‘zni Gotfrid Xaberler aytdi va u nafaqat mehnatni, balki ishlab chiqarishning barcha omillarini aniqlashtirib berdi.

Hozirgi zamon xalqaro savdo oqimi tuzilishi va yo‘nalishlari haqidagi tasavvurlarga shved iqtisodchi olimlari Eli Xeksher va Bertil Olin asos soldilar. Ularning taqqoslama ustunlik haqida tushuntirishlaricha, u yoki bu mamlakatda ma’lum mahsulotlarga egalik munosabati ishlab chiqarishning ta’minlanish omillari darajasiga bog‘liq. E.Xeksher va B.Olin ishlab chiqarish omillari – mehnat, yer, kapital, shuningdek, u yoki bu tovarlarga ichki turli talablar bahoni tenglashtirishi teoremasini olg‘a surdilar. 1948-yilda amerikalik iqtisodchilar P.Samuelson va V.Stolper Xeksher-Olin teoremasi isbotini takomillashtirdilar. Ya’ni ishlab chiqarish omillari bir turliligi, texnikalar bir xilligi, xalqaro tovar almashishda tovarlarni to‘liq safarbarligi va raqobat mamlakatlar o‘rtasida narx omillarini tenglashtiradi.

Bundan keyingi tashqi savdo nazariyasi taraqqiyoti amerikalik iqtisodchi V.Leontyevning “Leontyevning o‘ziga xos fikrlari” nomli ishida o‘z ifodasini

topdi. O‘ziga xos fikrlar shundan iboratki, Leontyev Xeksher-Olin teoremasidan foydalanib, urushdan keyingi davrda Amerika iqtisodiyoti kapitaldan chiqarish turlariga ixtisoslashganini ko‘rsatib berdi. Boshqacha aytganda, Amerika eksporti importga qaraganda bir muncha mehnat talab va kam xarjroq.

Bu xulosa AQSh iqtisodiyoti haqida avvalgi tavsavvurlarni chippak-ka chiqardi. Umumiy xulosaga ko‘ra, u hamisha kapitalni keragidan ortiqligi bilan xarakterlanadi va Xeksher-Olin teoremasiga binoan,AQSh kapital talab tovarlarni import emas, eksport qilishi kutilardi.

V.Leontyev kashfiyoti keyingi yillarda keng aks-sado berdi. Turli mamlakatlar iqtisodchilari “Leontyevning o‘ziga xos firklari” mavzusida bahs-munozaralarga kirishdilar. Natijada, tenglashtiruvchi ustunlik nazariyasi yanada rivojlandi. U texnika progressi va uning taqsimotda notekisligi, iqtisodiy vositalarni fermenli emasligi, ish haqi masalasida va boshqalarda mamlakatlar o‘rtasidagi farqlarni o‘z ichiga oladi.

G‘arb tadqiqotlarida xalqaro savdo muammolari, shuningdek, multiplikator (ko‘paytiruvchi) tashqi savdo nazariyasi ham keng yoyildi. Bu nazariyaga muvofiq tashqi savdo (ayniqsa, eksportda) milliy daromad o‘sish dinamikasi, bandlik hajmi, iste’mol va investitsion faollikka samarali ta’sir qiladi.

Har bir mamlakatda multiplikator ma’lum son bog‘liqligiga qarab, ma’lum koeffitsiyent turida aks etishi va hisoblab chiqilishi mumkin. Boshlang‘ich eksport buyurtmasi mahsulot ishlab chiqarishni bevosita ko‘paytiradi, turgan gap, buyurtmani bajaruvchi sohalarda ish haqi ham ko‘payadi. So‘ngra ikkilamchi iste’mol sarflari harakatga keladi.

Bevosita ishlab chiqarishni joylashtirishga oid ilmiy g‘oyalar, dastavval, Germaniyada yaratilgan. Masalan, nemis mulkdori **Iogan Genrix Tyunen** XIX asrning 20-30-yillarida o‘zining qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini joylashtirish bo‘yicha ilmiy fikrlarini maxsus asarida bayon qildi

**(“Изолированноегосударство” – Alohida davlat, 1826-y.).** Tyunen g‘oyasining asosiy mohiyati yagona shahar, ya’ni iste’mol markazi atrofida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ma’lum tartibda yetishtirishni hududiy tashkil qilishdan iborat. U bu g‘oyani amalga tatbiq qilish uchun xo‘jalik bilan shahar yoki bozor (uning misolida bu shahar – Meklenburgdagi Rostok) o‘rtasidagi masofa, qishloq xo‘jalik mahsulotining narxi, qiymati va yer rentasiga asoslanadi. Yer rentasi esa unga qo‘yilgan mablag‘ va olingan daromad nisbati bilan belgilanadi.

Yuqoridagi shartlar yordamida I.Tyunen shahar atrofida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining joylashuv tizimini yoki hududiy majmuasini yaratadi. Bu tizim adabiyotda “**Tyunen halqalari**” nomi bilan mashhur. Chunki, turli mahsulotlarni yetishtirishga ixtisoslashgan har xil tarmoqlar iste’mol markazi atrofida halqasimon joylashadi.

“Tyunen halqalari” quyidalarni o‘z ichiga oladi:

- **I halqa** – bog‘dorchilik, sabzavotchilik va qisman sut chorvachiligi;
- **II halqa** – o‘rmon xo‘jaligi (o‘sha davrda o‘tin uchun);
- **III halqa** – kartoshka, arpa yetishtirish va urug‘chilik;
- **IV halqa** – yuqori unumdor g‘allachilik va sut-go‘sht chorvachiligi;
- **V halqa** – g‘allachilik;
- **VI halqa** – yaylov chorvachiligi.

I.Tyunen birinchi bo‘lib yerdan foydalanish masalalarini ko‘tarib chiqdi va ilmiy adabiyotga “iqtisodiy makon” tushunchasini kiritdi. U o‘zining abstrakt modelida mahsulotning bozorga – iste’molchiga arzon va sifati, buzilmagan holda yetkazib berishga katta e’tibor beradi. Shunday qilib, I.Tyunen qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini joylashtirishning dastlabki ilmiy poydevorini yaratuvchisi bo‘ldi va shu ma’noda uni qishloq xo‘jaligi geografiyasining asoschisi sifatida e’tirof etish mumkin.

1909-yilda Tyunenning vatandoshi – **Alfred Veber“Sanoat shtandorti to‘g‘risida” nomli asarini chop ettirdi.** U o‘zining diqqat-e’tiborini sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishga ta’sir etuvchi omillarga qaratdi. Shu maqsadda Veber omillarning ta’sir kuchiga qarab tabaqalashtirdi, asosiy hal qiluvchi omilni aniqladi.

A.Veber – sanoat shtandortining asoschisidir. **Shtandort** esa – korxonaning o‘rnashgan joyi yoki korxonaning optimal (standart) joylashgan nuqtasi ma’nosini anglatadi. Joylashtirish omili u yoki bu korxonani qurishda ko‘zda tutilgan iqtisodiy samaradorlik, foyda nuqtai nazaridan baholanadi.

**Bu foyda, A.Veber fikricha, asosan, xomashyo, mahsulotni realizatsiya qilish, transport va ishchi kuchiga ketgan xarajatlar nisbati hamda asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatidan tashkil topadi.** Keyinchalik u xomashyo va mahsulotni sotish bilan bog‘liq omilni umumiy transport sarf-xarajatlariga kiritdi. Chunki, mahsulotning tannarxiga xomashyoni keltirish, mahsulotni realizatsiya qilish bilan bog‘liq xarajatlar ham kiradi. **Natijada, sanoat shtandortini belgilovchi ikkita omil – transport va ishchi kuchi (mehnat resursi) olindi.** Veber keyinroq ularga yana bir muhim omilni – aglomeratsiya omilini qo‘shdi.

Transport omiliga mahsulot yoki xomashyoning vazni, tashiladigan masofa, mehnat resursida ish haqi, aglomeratsiya omilida esa, korxonalarning bir joyda to‘planishi hisobga olinadi.

A.Veber ilmiy adabiyotda o‘zining shtandort nazariyasi, “joylashtirish omili” va “aglomeratsiya samaradorligi” tushunchalarini kiritganligi bilan mashhurdir. Aglomeratsiya samaradorligi – bu asl mohiyatiga ko‘ra mujassamlashuv (konsentratsiya) samaradorligi bo‘lib, unga hozirgi kunda korxonalarning yiriklashuvidan, ya’ni miqyos, masshtab iqtisodi asosida emas, balki korxonalarning kooperatsiya va ixtisoslashuv natijasida erishiladi.

I.Tyunen (qishloq xo‘jaligi) va A.Veberning (sanoat shtandorti) g‘oyalari abstrakt sharoitlarni hisobga olgan holda yaratilgan bo‘lsa-da, ularning ilmiy ahamiyati hozirgacha yo‘qolmagan. Bu olimlarning g‘oyalarini “omillar tahlili” shaklida umumlashtirish mumkin. Omillar esa hududda ayrim joylarni tanlab olish va pirovard natijada, hududiy mujassamlashuv va hududiy notekisliklarni yoki geografik tengsizlikni keltirib chiqaradi.

Aholi joylashuvi, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarining hududiy tashkil etish muammolari bilan nemis olimi **Valter Kristaller** shug‘ullangan. U 1930-yillarda aholining hududiy tarqalishi va joylanishi masalalarini o‘rganib, o‘zining “**Janubiy Germaniya markaziy o‘rinlari**” nomli kitobini yozdi. Markaziy o‘rinlar turli kattalikdagi shahar va boshqa aholi manzilgohlari bo‘lib, ular o‘ziga xos ta’sir doirasi, xizmat ko‘rsatish radiusiga ega. Ideal holatda har xil miqyosdagi markaziy o‘rinlar geografik muhitda oltiburchak shaklga ega va ular asalarining uyasini eslatadi.

Kristaller uchun ham hudud barcha sharoitlar bo‘yicha bir xil, ya’ni tep-tekis, aholi, aholi manzilgohlari, yo‘l va boshqalar bir xil joylashgan. Ana shunday ideal manzaradan kelib chiqqan holda u o‘zining ilmiy g‘oyasini yaratdi. V.Kristaller nomi bilan “Markaziy o‘rinlar”, iyerarxiya, shaharlar klassifikatsiyasi kabi tushunchalar, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarini joylashtirishga oid ilmiy fikrlar bog‘liq. Boshqa, yosh va iste’dodli nemis olimi **Avgust Lyosh** o‘zidan oldingi vatandoshlarining ilmiy ishlanmalarini umumlashtirib (u A.Veberning o‘quvchisi edi), barcha xo‘jalik tarmoqlarini joylashtirish to‘g‘risida ish olib bordi. A.Lyosh g‘oyalarining mohiyati uning maxsus kitobida (ruscha nomi “Географическоеразмещениехозяйства” –M., 1959) bayon etilgan. Kitobning asl nusxasi qo‘lyozmasi 1940-yilda nashr qilingan.

**A.Lyosh qishloq xo‘jaligining areal, maydon sifatida, sanoatning esa nuqtasimon hududiy tashkil etish xususiyatlarini asoslab berdi.** U birinchi

bo‘lib “bozor muhiti yoki makoni”, “**iqtisodiy landshaft**” (hozirgi kunda – iqtisodiy rayon) tushunchalarini yaratdi va fanga kiritdi. Agar avvalgilar, xususan, I.Tyunen va A.Veber alohida korxonani, tarmoqni o‘rgangan bo‘lishsa, A.Lyosh ishlari barcha xo‘jalik sohalarini qamrab oldi va o‘z mohiyatiga ko‘ra mikroiqtisodiy bozor munosabatlari, uning ta’sir doirasi haqiqiy rayon tashkil qiluvchi omil ekanligini ta’kidladi, matematik usullarni keng qo‘lladi. Aynan ana shu tamoyillarni hozirgi kunda O‘zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirish masalalariga tatbiq qilish ahamiyatdan xoli bo‘lmasa kerak.

Ta’kidlash joizki, I.Tyunen va A.Veber g‘oyalari o‘z davri talabiga mos kelardi. Chunki, u davrda hududning iqtisodiy sig‘imi, zichligi uncha yuqori emas, hududiy-iqtisodiy manzara qutbiylashmagan, ya’ni deyarli bir tekis edi. Ana shunday iqtisodiy geografik holat alohida korxona yoki tarmoqlarni ayrim joylarda o‘rinlashtirish ta’sirida o‘zgaradi, notekislik xususiyatini oladi. Boshqacha qilib aytganda, avvalgi tabiiy ko‘rinishdagi iqtisodiy tekislik notekislikka, hududiy mujassamlashuvning kuchayishiga o‘zgaradi. Buning natijasida notekislikni tekislashga urinib ko‘radigan ilmiy izlanishlar talab etildi. Xuddi shunday regulyar tizimga moslashgan ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarini hududiy tashkil qilish g‘oyalarini V.Kristaller va A.Lyosh yaratdi.

Iqtisodiyot nuqtai nazaridan uncha o‘zlashtirilmagan, xo‘jalik sig‘imi past hududlarni rivojlantirish va jonlantirish borasida o‘sish qutblari va rivojlanish markazlari to‘g‘risidagi nazariya ham katta ahamiyatga ega. Uning asoschisi fransuz olimi **Fransua Perru**dir.

**F.Perru “Markaziy o‘rinlar” g‘oyasidan kelib chiqdi, omillarni emas, tarmoqlarni rivojlanish xususiyati, harakatchanligi, atrofga ta’siri bo‘yicha tabaqalashtirdi va ularni uch guruhga ajratdi.** U, eng avvalo, hududiy iqtisodiy munosabatlarda tengsizlik, nobarobarlikni tan oldi va mutlaq jihatdan tenglikni amalga oshirish mumkin emasligiga to‘la ishondi.

Perru fikricha, iqtisodiyot tarmoqlari tez, jadal rivojlanish, rayon hosil qilish salohiyatiga, qobiliyatiga ega bo‘lib, aynan ana shunday mintaqaviy iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi tarmoqlar rivojlanishi o‘sish markazlarini tashkil qiladi. Markazlarning mustahkamlanishi, ularda turdosh korxonalarning ko‘payishi, atrofga bo‘lgan ta’sir doirasining kengayishi natijasida o‘sish qutblari vujudga keladi.

O‘sish qutblari g‘oyasi shved olimi – Lund universiteti professori (Shvetsiya) T.Xagerstrandning yangiliklar diffuziyasi nazariyasiga o‘xshab ketadi. Faqat muallif bu g‘oyani ko‘proq sotsial geografiya bo‘yicha ishlab chiqqan.

Chindan ham, jahon taraqqiyoti, dunyo xo‘jalik tizimining rivojlanish tarixi fan-texnika yutuqlari, ilmiy yangiliklar va kashfiyotlar, innovatsiyalar, texnologik determinizm bilan bog‘liq. Tarix nuqtai nazaridan yondashganda, jahon xo‘jaligi rivojlanishida ma’lum sikllarni ajratish mumkin. Bu davr yoki sikllar yangi kashfiyotlarning ixtiro etilishi, tatbiq etilishi, tarqalishi va ularning o‘rniga boshqa innovatsiyalarning kelishi bilan belgilanadi.

Maxsus adabiyotlarda amerikalik U.Rostouning (XX asr, 60-yillar) iqtisodiy rivojlanishning bosqichlari, rus iqtisodchisi N.D.Kondratyevning 30-yillarda fan-texnika o‘zgarishlariga asoslangan nazariyasi mavjud. Dunyo xo‘jaligining uzoq muddatli rivojlanishidagi o‘rnini aniqlashda 1892-1928-yillarda rus iqtisodchisi **N.D.Kondratyev** tomonidan birinchi marta katta bosqichlar nazariyasi – “Uzun to‘lqinlar” taklif etildi. Keyinchalik bu nazariya yanada rivojlantirildi va qisman dunyo xo‘jaligi tadqiqotlarida keng qo‘llanilmoqda.

N.D.Kondratyev nazariyasi va boshqa qator tadqiqotlar asosida dunyo xo‘jaligi rivojlanishida **3 ta katta bosqichni – industriyalashgacha bo‘lgan rivojlanish, industriyalash bosqichi, industriyalashdan keyingi rivojlanish bosqichini, uchta – birinchi, ikkinchi va uchinchi sanoat inqiloblarini hamda**

**“Uzun to‘lqinlar” davrlarini, ya’ni N.D.Kondratyev belgilagan besh davrni ko‘rsatib o‘tish mumkin.**

Hunarmandchilik va manufaktura ishlab chiqarishi hukmronlik qilgan industriyalashgacha bo‘lgan bosqich boshlang‘ich davr deb ataladi.

To‘rtta “Uzun to‘lqin”ga teng keluvchi birinchi va ikkinchi sanoat inqiloblari davrida quyidagilar yetakchi mavqega ega bo‘ldi:

- I davrda – tikuvchilik va hunarmandchilik;
- II davrda – ko‘mir ishlab chiqarish, qora metallarni eritish, tikuvchilik;
- III davrda – metallurgiya, kimyo va og‘ir mashinasozlik;
- IV davrda – avtomobilsozlik, elektronika, organik kimyo, mashinasozlikning turli tarmoqlari.

Ushbu to‘rt davr industriyalash bosqichiga to‘g‘ri keladi. Beshinchi davr esa rivojlangan davlatlarda industriyalashdan keyingi rivojlanish bosqichiga to‘g‘ri keladi va uchinchi sanoat inqilobini anglatadi. Ushbu davrda elektronika, lazer texnikasi, murakkab kimyo, biotexnologiya va gen injeneriyasi kabi tarmoqlar yetakchi mavqega ega bo‘ldi.

Har bir bosqich, sanoat inqilobi va N.D.Kondratyev davrlarining boshlanish va tugallanish vaqti keskin belgilab qo‘yilmaydi. Ushbu masalada ilmiy-texnik progressning tezlashuvidan kelib chiquvchi noan’aviy yondashuv muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvga, asosan, G‘arbiy Yevropaning rivojlangan davlatlarida bu davrlarni quyidagicha belgilash mumkin. Birinchi davr – 1770-1830-yillar; ikkinchi davr – 1830-1880-yillar; Uchinchi davr – 1880-1930-yillar; To‘rtinchi davr – 1930-1970-yillar; Beshinchi davr – 1970-yildan hozirgi vaqtgacha.

Har bir davr uchun o‘zining o‘rtacha aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi (o‘zgarmas narxlar bilan), “texnologik narvon” pog‘onalari hamda ishlab

chiqarishning tashkiliy shakllari xosdir. Masalan, boshlang‘ich davr uchun aholi jon boshiga 50-80 AQSh doll. (1960-yil kursi bo‘yicha) to‘g‘ri kelgan.

N.D.Kondratyev fikricha: “Uzun to‘lqinlar” endogen xarakterga ega, ya’ni u bozor iqtisodiyoti xo‘jaligiga xos bo‘lib, ushbu xo‘jalikning o‘z-o‘zini tartibga solishi uchun sharoit yaratadi. Rivojlanishdagi ko‘tarilish va pasayish davrlari tabiiy holdir, ularni oldindan bashorat qilish mumkin hamda ularga moslashish va ushbu bosqichlarni tashqi ta’sir, ya’ni davlat tomonidan boshqarish yo‘li bilan tartibga solish mumkin. Mazkur mexanizmning bir ko‘rinishi sifatida 30-yillarda J.M.Keyns tomonidan taklif etilgan va 1929-1933-yillardagi kapitalizm bo‘hronidan so‘ng qo‘llanilgan ssuda foizi stavkalari yordamida tartibga solish uslubini ko‘rsatish mumkin.

N.D.Kondratyev fikricha, taxminan 40-50 yil davom etadigan “uzun to‘lqinlar”ning moddiy sabablari “kapital asosiy ne’matlari”ning o‘zgarib turishi bilan bog‘liqdir. Ushbu o‘zgarishlardan uzoq muddatli iqtisodiy mutanosiblikni buzuvchi hamda nisbatan osoyishta evolutsion va ekstensiv rivojlanish bosqichlarini revolutsion va intensiv rivojlanish bosqichlari bilan almashtiruvchi fan-texnika taraqqiyoti (progressi) alohida rol o‘ynaydi.

Revolutsion bosqichlarning boshlanishi dunyo xo‘jaligining energetik, texnik va ishlab chiqarish asosi hamda hududiy tarmoq tarkibi va tashkiliy tuzilmasini keskin o‘zgartirishga sharoit yaratuvchi yangiliklar majmuasini joriy etish bilan bog‘liqdir. N.D.Kondratyev nazariyasi, boshqa tadqiqotchilarning gipotezalaridan farq qilib, yangi “turtki” boshlanishini bildiruvchi ichki va tashqi omillar mutanosibligi mavjudligiga e’tiborini qaratadi.

Yangi to‘lqin ekstensiv bosqichda keng tarqalgan texnologiyalarning ma’naviy eskirishi sababli uning rivojlanish cho‘qqisiga erishilgan vaqtidan boshlanadi. Kapitalning to‘planishi uning nisbatan qadrsizlanishiga olib keladi.

Ssuda foizlari va foyda me'yorlari shu darajada pasayadiki, bu hol yangi texnika va texnologiyaga tavakkaliga investitsiya kiritishning samaraliligini ta'minlaydi.

Katta hajmdagi yangi qurilishlar ko'lami, yangi korxonalarning ishga tushishi, yangi tarmoqlarning yuzaga kelishi, bozorlarda yangi mahsulotlarning paydo bo'lishi va boshqalar ko'tarilish bosqichi boshlanganligidan dalolat beradi. Ko'tarilish jarayoni o'zining yuqori bosqichiga yetgandan so'ng kapital va yangiliklarning tatbiq qilish zaxiralari tugaydi va ekstensiv rivojlanish bosqichi boshlanadi.

Asta-sekin keskin raqobat kurashlari ostida, yuksalish va bo'hronlar sharoitida milliy va xalqaro mahsulotlar va fondlar birjalari tizimi shakllandi, busiz yirik ko'lamdagi xalqaro savdoni iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli sifatida aksionerlik jamiyatlarini tashkil etish va kapitalni jalb etish aslo mumkin emas. Milliy xo'jaliklarning turli sur'atlarda rivojlanishi va umumiy rivojlanishdagi har xil sur'atlar mavjudligi qonuniyati N.D.Kondratyev davrlarining turli mamlakat va hududlarda "kapitalizmning notekis rivojlanishi"ga mos tarzda kechishda yaqqol namoyon bo'ldi va dunyo xo'jaligi tizimida bu turlicha nazariy va empirik tadqiqotlar obyektiga aylandi.

Shuningdek, amerikalik olim R.Vernonning (XX asr o'rtalari) eksport tovarining hayot sikli to'g'risidagi g'oyasi ham yangiliklarning diffuziyasi va texnologik determinizm bilan bog'liq.

Diffuziya kengayish va tarqalish xususiyatiga ega bo'lishi mumkin. Birinchisida yangilikning amaliy tatbiq doirasi asta-sekin kengayib boradi, ikkinchisida esa bu birin-ketin sodir bo'ladi, yangilik biridan ikkinchisiga ko'chadi. Xuddi shu xususda amerikalik iqtisodchi M.Porterning (1993) markazdan chetga kashfiyotlarning, yangi texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish tarmoqlarining ko'chishi, bir mamlakatdan ikkinchi, uchinchiga va

boshqa darajalarga kaskadsimon o‘tishi, migratsiyasi haqidagi ilmiy ishlanmalari ham bor.

Sobiq Ittifoqning parchalanishi va mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi bilan geosiyosiy vaziyat o‘zgardi. Ana shunday sharoitda chegara atrofi mintaqalarini o‘rganish, “Markaz – chekka” (perifiriya) munosabatlarini tadqiq qilish masalalari ham ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bevosita aloqadordir.

Jahon xo‘jaligi tizimi (bu tushuncha asoschisi amerikalik I.Vallerstayn), uning taraqqiyotidagi bosqichlar davriy, tarixiy xususiyatga ega. Bunday yondashuvni tik emas, gorizontal, ya’ni geografik jihatdan ham qo‘llash mumkin. Natijada, iqtisodiyot rivojlanishining hududdan hududga o‘tishi, bizning iboramizda “geografik konveyr” yoki estafeta ko‘z oldimizga keladi.

Xuddi shunga o‘xshash, hududiy-iqtisodiy rivojlanishning ketma-ketligini kuzatish mumkin. Shu o‘rinda**I.Mechnikovning jahon sivilizatsiyasi bosqichlari va bunda buyuk tarixiy daryolarning roli haqidagi asarini ham e’tibordan chetga qoldirmaslik kerak.** Muallif jahon madaniyati va taraqqiyotida **daryo**(Misr, Xitoy, Hindiston),**O‘rta dengiz** (Yunoniston, Rim) va **okean** (Angliya, Ispaniya, AQSh) sivilizatsiyalarini ajratadi. Ular bir vaqtning o‘zida emas, balki turli davrlarda, birining o‘rnini ikkinchisi olishi bilan yuzaga kelgan.

Darhaqiqat, jahon taraqqiyoti Uzoq Sharq, Yaponiya va Xitoydan boshlanib, O‘rta va Yaqin Sharqqa, undan O‘rta dengiz va Pireney yarim oroliga, ulardan Angliya va, nihoyat, Amerikaga (AQSh)ga ko‘chdi. Hozirgi davrda tarixni, iqtisodiy-ijtimoiy hayotni rivojlantiruvchi mintaqalar AQSh – G‘arbiy Yevropa – Yaponiya hisoblanadi. Ayni vaqtda, yetakchi kuchning asta-sekin yana Sharqqa ko‘chishi alomatlari sezilmoqda. Ayni vaqtda, buni Yaponiya ta’siri va boshchiligida yangi industrial mamlakatlar – Koreya Respublikasi, Singapur, Tayland, Malayziya, Indoneziya jadal sur’atlar bilan rivojlanishida ko‘ramiz. Demak, bizning nazarimizda, iqtisodiy taraqqiyotning sikl xususiyatiga ega

ekanligi faqat davr, vaqt doirasidagina emas, balki Yer shari, global geografik makonda ham sodir bo‘lmoqda. Bu esa, albatta, jahon xo‘jaligining rivojlanishi va uning hududiy tarkibiga ta’sir qiladi.

Shu bilan birga, mintaqa iqtisodchilari, iqtisodiy geograflar V.Leontyev va U.Izardlarning tarmoqlararo va hududlararo balansi hamda mintaqaviy iqtisodiyot fani to‘g‘risidagi ilmiy g‘oyalarini, Zipfa va Styuart, D.Fridman kabilarning shaharlar rivojlanishi, boshqa olimlarning “dunyoviy shaharlar” haqidagi yangi ishlarini ham bilishlari lozim. Zero, ularning barchasi ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bilan bevosita bog‘liq.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asoschilaridan biri **Piter Xagget**1933-yil 24-yanvarda Angliyaning Somerset shahri yaqinidagi Poulet shaharchasida tug‘ilgan. Kembridj universitetini tugatgan, dastavval maktabda, so‘ngra kollejda, 1966-yildan e’tiboran Bristol universitetida faoliyat olib borgan. 1966-1988-yillarda universitetning “Shaharlar va mintaqalar geografiyasi” kafedrasi mudiri, Britaniya akademiyasi vitse-prezidenti bo‘lgan. U Yevropa Fanlar akademiyasi asoschilaridan biridir (Piter Xagget hamda Torsten Xagerstrandlar akademiyaning dastlabki a’zolari qatoriga kiradi). Hozirgi vaqtda Somerset shahrida oilasi bilan hayot kechirmoqda.

Piter Xagget hududiy tahlil maktabining asoschilaridan biri. 1972-yilda o‘zining “Geografiya: zamonaviy bilimlar sintezi” asarini nashr etdi. 1960-1970-yillarda Xagget tibbiyot geografiyasining nazariy masalalari, yuqumli kasalliklarning tarqalishi muammolari bilan shug‘ullangan. 1991-yilda “Votren Lyud” mukofoti bilan taqdirlangan (asosiy ishlari: Locational Analysis in Human Geography, 1965; Models in geography, 1967; Network Analysis in Geography, 1969; Geography: a modern synthesis, 1972; The Geographical Structure of

Epidemics, 2000; World Atlas of Epidemic Diseases, 2004; Geography: a global synthesis, 2005).

Hurmatli kitobxon! Biz quyida geografiya fani tarixi bilan qiziquvchilar uchun Peter Haggett (Geographie: Eine Globale Synthese) asaridan olingan ushbu epilogni taqdim qilishni lozim topdik.

“Epilog: Ma’lum bir fanni o‘rganishda kamdan-kam uchraydigan mantiqqa ega bo‘lmagan narsalar hali fanda juda ko‘p bilimlar mavjudligini anglatadi. Yarim asr ilgari geografiya sohasi bo‘yicha Kembridj universitetida ta’lim olishni boshladim va hozir janob Isaak Nyuton nimani o‘ylaganligini aniq bilaman. Chunki biz hammamiz kichkina bolalar kabi planetaning mushtday qismi go‘zalligi va rang-barangligini tushunishga harakat qilamiz.

Ko‘pchilik geografiyani maktabda o‘rgangan va kelajakda musiqa, fizika, falsafa bo‘yicha tahsil olishni rejalashtirgan. Ulardan ba’zilari geografiya ilmiga ham qiziqib qolgandir, ehtimolki, geografiyani asosiy fan (yo‘nalish) sifatida tanlashni o‘ylab qo‘ygandir?

Yoshlar geografiyani maktabda dars predmeti sifatida o‘rganishlariga qaramasdan, ushbu yo‘nalish bo‘yicha universitetda tahsil oluvchilar soni ko‘pchilikni tashkil qilmaydi. Birlashgan Qirollikda atigi har o‘ninchi o‘quvchi geografiyani o‘quv fani sifatida o‘rganadi. Uning oliygohlarida bakalavr bosqichi tugatuvchilari orasidan faqatgina har 150 talabadan bittasi geografiyani asosiy yo‘nalish sifatida o‘rganadi. Falsafa yoki iqtisodiyot bo‘yicha ta’lim oluvchilar soni bilan geografiya sohasi bo‘yicha o‘qiydiganlar sonini taqqoslaydigan bo‘lsak, geografiyani asosiy yo‘nalish sifatida o‘rganuvchilar soni kamchilikni tashkil qilishiga guvoh bo‘lamiz. So‘nggi yillarda bir yilda o‘rtacha geografiya bo‘yicha bitta, fizikada 10 ta, kimyo va mashinasozlikda 20 ga yaqin, pedagogika bo‘yicha 25 nafar tadqiqotchi ilmiy daraja olishga erishmoqda.

XIX asr boshlarida nemis va fransuz institutlarida geografiya fani zamonaviy fan sohasi sifatida o‘rganilgan. Nemislar ushbu fanga ikkinchi jahon urushiga qadar ko‘proq hissa qo‘shgan.

Geografiyaga oid klassik adabiyotlarning ko‘pchiligi, dastlab, nemis tilida nashr qilingan. Kanada va Avstriyada yirik tadqiqod markazlari joylashgan. Rossiyada ham geografiya sohasi ildamlab bormoqda. Ammo vaziyat doimiy ravishda o‘zgarib turadi. 1960-yillarda geografiya yo‘nalishi bo‘yicha Shimoliy Amerika va G‘arbiy Yevropa oliygohlariga o‘qishga qabul qilinganlar soni ikki karra ko‘pchilikni tashkil qilgan. Ko‘rsatkich shundan keyin birmuncha to‘xtab qoldi, ammo 1990-yillarda yana ko‘tarildi. Amerika Geograflari assotsiatsiyasi a’zolari soni o‘sha davrga kelib ikki martadan ko‘proq oshgan.

Biz fanning rivojlanish istiqbolini tushinish uchun dastlab fanning ilgarigi rivojlanishini kuzatamiz. Bugungi holat bilan kelajakka nazar tashlaymiz. Umuman olganda, quyidagi savollarga e’tiborimizni qaratamiz: Geografiya qanday qilib mustaqil fan sifatida rivojlandi? Uning bugungi kundagi tuzilishi qanday? Geograflar ta’limni yakunlagandan keyin nima qiladilar? Geografiya kelajagi imkon darajada qanday ko‘rinishga ega? Uning kelajakdagi roli qanday?

XIX asr o‘rtalarigacha geografiya bilan shug‘ullanadigan olimlar kamchilikni tashkil qilgan (geografik tadqiqodlar dastlabki paytlarida qadimgi Gretsiyada ravnaq topgan). O‘zini geograf sifatida namoyon qiluvchi tadqiqodchilar soni o‘sha davrda juda kam bo‘lgan.

Tadqiqodchilar ko‘proq amaliy muammolar bilan qiziqqanlar: yer tadqiqoti metodi, navigatsiya jihozi, karta tuzish (ya’ni ma’lum bir davlatni kartada aks ettirish) va kartani bosmadan chiqarish texnikasi, atlas ishlab chiqarish, makonga oid ma’lumotlarni kartaga tushirish bo‘yicha ko‘p savollarga javoblar topdilar. Yevropa renesans davrining ta’siri karta tuzishda ahamiyatli bo‘lgan. Ko‘pchilik geografik maktablarda qisqa vaqt faoliyat olib borganlar va har xil

muvaffaqiyatlarga erishganlar. Aleksandr Gumbold, Immanuel Kant va Tomas Maltus geografiya faniga salmoqli hissa qo‘shgan (1930-yilgacha geografik publikatsiyalarning yarmi nemis tilida yozilgan).

XIX asr nemis geografiyasini Karl Ritter va Fridrix Rattselsiz, fransuz geografiyasini Vidal de la Blashsiz, Amerika geografiyasini V.M.Davis yoki Britaniya geografiyasini M.Makinderlarsiz tasavvur qilish qiyin.

Ikkinchi akt: guruhlar va jamiyatlar: XIX asr geografiya jamiyatlari ishi umumiy tadqiqod qiziqishlariga bag‘ishlangan. Qirollik geografik jamiyati turli geografik klublari birlashuvi asosida 1830-yilda Britaniyada vujudga keldi. Undan keyingi o‘rinda, ya’ni ikkinchi o‘rinda turadigan jahonga mashhur jamiyat bu Berlindagi Geografiya jamiyati bo‘lib, unga 1828-yilda asos solingan. Jamiyatlar faoliyati sabab geografiya fani maktab va universitet o‘quv rejalariga kiritildi. 1836-yilda Frankfurt, 1856-yilda Avstriya, 1869-yilda Myunxen, 1873-yilda Gamburg va 1877-yilda Bonnda geografiya jamiyati tashkil qilindi. Nyu-Yorkning Amerika geografik jamiyatiga 1852-yilda asos solingan.

Qirollik geografiya jamiyati – XIX asrda asos solingan tashkilotlarga tegishlidir. Ushbu jamiyat dunyo haqidagi tadqiqotlarni va geografik ma’lumotlarni o‘zaro almashish maqsadida tuzilgan. Unga geografiya fanini targ‘ib qilish maqsadida asos solingan. Jamiyatning asosiy maqsadi quyidagi vazifalarni amalga oshirish bo‘lgan:

- ✓ Birlashgan Qirollikda va chet davlatlarda geografik tadqiqodlarni qo‘llab-quvvatlash;
- ✓ ta’limda Geografiyaning ahamiyatini oshirish;
- ✓ geografik ma’lumotlarni egallash va keng targ‘ib qilish;
- ✓ geografiyaga bo‘lgan qiziqish targ‘iboti;

Qisqa davr ichida ular boshqa geografik jamiyatiga (1933-y.) asos soldi. Britaniya Geografiya institutiga birlashdilar, birgalikda kattalashgan holda jamiyat

bir qator jurnallar nashr qildi. Jamiyat Londonning g‘arbiy qismidagi Hyude parkida mashhur universitet (imperial College) va mada-niy markaz (Albert Hall) yaqinida joylashgan. Unda ahamiyatga molik kutubxona, kartalar to‘plami va arxiv bo‘lgan. Qirollik geografiya jamiyati ilk universitetlardan geografik institutga asos soldi. Ushbu institut geografiya fanini maktab predmeti sifatida o‘qitilishida muhim rol o‘ynagan.

Shvetsiyada geografiya fani Buyuk Britaniya va Fransiyaga qaraganda kechroq rivojlandi. U yerda antropologiya va Geografiya jamiyatiga 1870 yillarda asos solindi. Xabarlar va munozaralar 1877-yildan boshlab “Jamiyat” gazetasida chop qilindi. Bundan tashqari, jamiyat (1953-yildan dan 1971-yilgacha) Shvetsiyaning Milliy atlasini nashrdan chiqardi. Shvetsiyada juda qadimiy universitetlar bor (masalan, 1477-yilda asos solingan Uppasla va 1666-yilda asos solingan Lund universitetlari)”*

XIX asr o‘rtalari ilg‘or olimlaridan va qiyosiy (nisbiy) geografiya-ning asoschilaridan biri, A.Gumboldtning zamondoshi **Karl Ritter** (1779-1859) bo‘lgan, u 30 yil davomida Germaniyada Berlin universiteti “Geografiya” kafedrasiga rahbarlik qilgan. Mashhur lektor, uning ma’ruzalarini o‘z zamonasida K.Marks, Elize Reklyu, P.P.Sempyonov-Tyanshanskiylar alohida e’tirof etishgan, K.Ritter ulkan ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan. Uning o‘limidan so‘ng kafedraga rahbarlik ko‘p vaqt bo‘sh holda qolgan, chunki Germaniyada o‘sha vaqtda K.Ritter ilmiy salohiyati bilan o‘zini tenglashtiradigan geograf topilmagan ekan.

K.Ritter mashhur olim bo‘lib, uning merosi juda boydir. Tabiat aloqalari va inson tarixida Yer bilimi yoki tabiiy va tarixiy fanlar yo‘nalishida o‘rganish va talim berishning ishonchli asosi sifatidagi “Umumiy qiyosiy geografiya” 19 jildda

*Peter Haggett. Geographie: Eine Globale Synthese. Verlag Eugen Ulmer, Stuttgart 2004. ISBN-3825280012).

jamlangan bo‘lib, kitoblardan biri Afrikaga, qolganlari Osiyoga bag‘ishlanadi. K.Ritterning asarlari orasida yana maxsus nazariy asar – “Qiyosiy yer bilimi haqidagi g‘oyalar” ham bor. U shunday yozgan: “Yer insondan mustaqildir; u ungacha ham, usiz ham, tabiat hodisalari teatridir (maydonidir); shunga binoan, undan uning shakllari va mahsullari qonuni kelib chiqishi mumkin emas. Yer haqidagi fanning o‘zidan uning qonuniyatlarini qidirish lozim”. K.Ritter geografiyadagi tarixiy yondashuv ahamiyatini ta’kidlagan, biroq geografiyaning predmeti deb: “Yerning yuza qismida kenglikni” hisoblagan, “chunki bu kengliklar yerga o‘ziga xos narsalar bilan to‘ldirilgan. Tabiatning qaysi podsholigiga bu narsalar tegishli bo‘lmasin va qanday shaklda ko‘rinmasin”. Bir vaqtning o‘zida Ritter ham Kantga ergashib geografiyani tarixga qarshi qo‘yadi va tarixiy dalillarning kompleks asosi bo‘lib – xronologiya, geografiyani asosi esa – kenglik deb takidlaydi. U geografiya empirik ma’lumotlarga, kuzatuvga suyanishi kerak deb ko‘rsatib o‘tadi. U tarix bilan yaqin bog‘langan, tabiiy sharoit obzori esa tarixni o‘rganish sifatida berilgan. Ritter quruqlikni geometrik shakllarda qismlarga ajratish orqali ularning insonlar taqdiri atalganligini tushinishga harakat qilgan. Yer po‘sti tuzilishining asosiy xususiyati – qit’alarning okeanlar yarimshari bilan qarama-qarshiligini ko‘rsatib o‘tadi, “qit’alar yarimshar o‘rta qismining chuqurlashuvi buyuk qonuni”, unga binoan markazda keng pasttekisliklar hosil bo‘lishi va shunga bog‘liq holda eski dunyoning “butun jahon tarixining klassik asosi” ekanligi haqida so‘z yuritadi. Ritter eski Dunyoning bir iqlimiy mintaqada joylashganligini va bu turli xalqaro aloqalarga imkoniyat yaratganligini ko‘rsatib o‘tadi. Yerning aylanishiga asoslanib, Ritter insoniyat madaniyatini g‘arbdan sharqqa tarqalishi kerak degan “qonun”ga asos solgan. Olim inson jamiyati va tabiatning o‘zaro aloqalarini geografik determinizm konsepsiyasi ruhida ko‘radi. Masalan, u shunday yozadi; “Har bir inson o‘zi tug‘ilgan va tarbiya olgan, tabiiy joyning vakilidir. Landshaftlarning mahalliy ta’siri, ularda yashovchi aholi

xarakteriga, ularning tana tuzilishi, miya chanog‘i shakli, temperamenti, tili va ruhiy rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi”. K.Ritterning tarixiy xizmati shundaki, u umumjamiyat geografiyasiga e’tiborni qaratdi. D.N.Anuchin so‘ziga ko‘ra, “Ritter tabiiy va gumanitar fanlar chegarasida turgan, u geografiyaga yangi mazmun va hayot” kiritdi*.

XIX asr geografiya fani nazariyalari rivojlanishiga mashhur nemis olimi A.Gumboldtning (1769-1859-yy.) qarashlari jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Hozirda Berlin Universiteti uning nomi bilan ataladi. D.N.Anuchinning so‘zlariga ko‘ra: “A.Gumboldt butun tabiatshunoslikni o‘zining ruhiy qarashlari bilan qamrab olishga intilgan va hatto o‘zlarining o‘rganish doirasiga yo‘nalishning, tarix, filologiya, arxeologiya, etnografiya, statistika kabi tarmoqlarni ham qo‘shgan qadimiy Aristotel tipidagi olimlarning oxirgilaridan biri edi”. A.Gumboldtning geografik qarashlari, eng avvalo, shaxsiy, daliliy materiallarni qamray olish mahsuli edi. A.Gumboldt mashhur sayyoh ham bo‘lgan. Lotin Amerikasi bilan bir qatorda, Yevropani juda yaxshi bilar, hayotining oxirida Rossiyada ham bo‘lgan edi. A.Gumboldt o‘zidan boy ilmiy-nazariy meros qoldirdi. Mashhur “Tabiat manzaralari” nomli asarida dunyoning turli qismlari to‘liq manzarasini berdi, landshaftlarni tadqiq etish g‘oyasiga juda yaxshi yondashdi. 1878-yil qishida u Berlin universitetida tabiiy geografiyadan ommaviy kurslarda dars bergan. Unda yer shari fizikasiga tegishli bo‘lgan bilimlarning barcha sohalari: astronomiya, matematik geografiya, meteorologiya, yer magnetizmi, vulkanizm, geologiya, yer ustki qismi morfologiyasi, o‘simliklar, hayvonlar va Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani ko‘rib chiqdi. Keyinchalik u ko‘p marotaba bu masalalarni qayta ishlab chiqdi.

1845-1862-yillarda u umumiy tabiiy geografiyaga doir besh jildli “Koinot, dunyoni tabiiy tasvirlash tajribasi” nomli asarini nashr ettirdi. Tabiatni o‘rganishda

*Исаченко А.Г. Развитие географических идей. –М., 1971.

A.Gumboldt geografik qarashlarida tabiiy, ilmiy, stixiyali materializm pozitsiyasida turardi, ichki kuchlar ta'sirida hech qanday o'zgarishlar solmagan dunyoning materiyaviy bir butunligini ko'rsatgan: "Asosiy mening orzuim hamma vaqt tashqi dunyo hodisalarini ularning umumiy aloqalarida, bir butun harakatlanadigan ichki kuchlar ta'sirida uyg'onadigan tabiatni quchishga intilishdir". U asosiy e'tiborini Yerning geografik qobig'i tuzilishini o'rganishga qaratdi, uning murakkab, sintetik xususiyatini tahlil qildi. A.Gumboldt geografiyaning fan sifatida tuzilishi haqidagi eng ilg'or g'oyalarni ilgari surdi. U umumiy va regional geografiyaning bir butunligini yoqlab chiqdi, tabiatni, qismlarning oddiy yig'indisi kabi mexanik tushunishga qarshi bo'ldi. Shuning uchun u tabiatshunoslikning bo'lak xususiy tarmoqlari rivojlanishi bilan geografiyaning yo'qolib ketmasligini oldindan aytgan edi. A.Gumboldt shunday yozadi: "Hududlarni maxsus tasvirlash – shubhasiz, umumiy geografiyaning eng kerakli qismi hisoblanadi, biroq turli yerlarning eng serhafsala tasviri to'plami ham yer shari florasini sanab chiqqanda, o'sim-liklar geografiyasini tasavvur qilib bo'lmaganidek, tabiatga xos manzarani butunligicha tasavvur qilish imkonini bermaydi" (Isachenko, 1971-y. 190 b.). Geografiya o'zining haqiqatda mavjud bo'lgan tadqiqot obyekti – Yerning geografik qobig'i, vaqt va makonda uni hosil qiluvchi elementlari bilan o'rganish hisoblanadi. Shuning uchun geografiya ma'lumotlar yig'indisi emas, balki mustaqil o'ziga xos xususiyatlariga ega fandir.

Tabiiyki, Gumboldt qarashlarida o'z zamonasining ilmiy chegaralan-ganligi ham aks etgan. U jamiyat xarakteridagi geografik hodisalarni tushinishda to'g'ri yondasha olmagan. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi aloqalar mohiyatini Gumboldt (zamonasining ko'p olimlari kabi) geografik determinizm doirasida baholadi. Shuning uchun Gumboldtning geografiyasi bir butunligi bu tabiiy geografiyaning bir butunligi – "Yer shari fizikasi"dir. Yerdagi hodisalarning sababiylik aloqalarda, geografik bilishning markaziy vazifasi deb Gumboldt organik dunyoning notirik

tabiatga bog‘liqligi: o‘simliklar dunyosi va iqlim o‘rtasidagi aloqalari, iqlimni xuddi havo qobig‘i, quruqlik va okeanning ustki qismining birgalikdagi mahsuli sifatida o‘rganish deb hisoblagan. Bunday yondashuv Gumboldtga muhim tabiiy geografik qonuniyatlarni – tabiatning kenglik va balandlik bo‘yicha mintaqalanishini ochish imkonini berdi. Shunga qaramay Gumboldtdagi tabiiy geografik sintez faqat o‘simlik – iqlim munosabatlarini qamrab oladi, chunki o‘sha davrda tabiatning boshqa komponentlariga, ayniqsa, tuproqlarga doir materiallar yetarli emas edi. Gumboldt qarashlarining chegaralanganligi, geografik hodisalarni tabiiy talqinida ham ko‘proq yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Biz uchun yerdagi tabiiy hodisalarni oxirigacha o‘simlik formalari rivojlanishiga qadar va o‘z-o‘zini belgilovchi tirik organizm harakatigacha kuzatishda ehtiyoj mavjud”. Bu yerda Gumboldt insonni ham “uning turli xil fizik xususiyatlariga” kiritib qo‘yadi. Tabiat hodisalari o‘zaro aloqalarini o‘rgana turib Gumboldt ularning makondagi o‘zgarishiga e’tibor qaratgan, shuning uchun ham tabiiy yer tasvirlash, makonda ularning tartib bilan tarqalishini ko‘rib chiqadi. Bunday yondashuv amerikalik geograf R.Xartshornga Gumboldt konsepsiyasini xorologik (tarixiylikni rad etgan) deb baholash imkonini berdi. Biroq A.G.Isachenko fikriga ko‘ra, bunday fikrlashning yolg‘onligini isbotlash qiyin emas.

Gumboldt tabiiy o‘zaro aloqalarni o‘rganishni qandaydir ma’lum hududlar bilan chegaralamagan, balkim tadqiqot obekti sifatida butun Yer sharini ko‘rib chiqqan. Xorologik yondashuv tarafdorlaridan farq qilgan holda, Gumboldt tabiiy geografik tadqiqotlarda tarixiylik metodini yoqlab chiqqan: “Tabiatni o‘rganishni tabiat tarixidan ajratish mumkin emas” (Isachenko, 1971-y. -190 b). Geografiyaga dialektik yondashuv va tadqiqotning solishtirma geografik metodining kirib kelishi A.Gumboldt nomi bilan bog‘liq. Uning geografik g‘oyalari ta’siri o‘tgan butun XIX asr davomida kuzatiladi.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanining shakllanishida G‘arbiy Yevropa mamlakatlari qanday o‘rin tutadi?
2. XX asr boshlarida sanoat geografiyasi poydevorining yaratilishi.
3. Britaniyada geografiya fanining shakllanishi haqida so‘zlab bering.
4. Shvetsiyada geografiya fani tarixi haqida nimalarni bilasiz?
5. Harbiy geografiyaning rivojlanishi.
6. Siyosiy geografiya o‘z ichiga nimalarni qamrab oladi?
7. Qaysi olim Rossiyani 2 marta rayonlashtirdi?
8. Sotsial-ijtimoiy geografiyaning ma’nosini izohlang.

## 5-BOB. HUDUDIY ISHLAB CHIQARISH HAQIDAGI NAZARIYASI VA IQTISODIY GEOGRAFIK RAYONLASHTIRISH

Reja:

5.1. Hududiy ishlab chiqarish majmualari – Iqtisodiy geografiyaning asosiy tushunchalaridan biri.

5.2. N.N.Kolosovskiyning hududiy ishlab chiqarish majmualari to’g’risidagi nazariyasi.

5.3. Hududiy ishlab chiqarish majmualarining funktsional tiplari va klassifikatsiyasi.

5.4. Energiya ishlab chiqarish sikllari.

5.5. Hududiy ishlab chiqarish majmualari g’oyasining amalga tadbiq qilinishi.

Hududiy ishlab chiqarish majmualari (HIChM) iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning jahon ahamiyatiga ega bo’lgan nazariy yutuqlardan biridir. Uni yaratishda, eng avvalo, N.N.Kolosovkiyning xizmatini ko’rsatish joiz.

XX asrning 20-yillarida GOELRO, ya'ni Rossiyani elektrlashtirish davlat rejasi doirasida I.G.Aleksandrov ish ola bora turib va, ayniqsa, DneproGES loyihasini ishlab chiqish jarayonida rayon kombinatlari haqidagi o'zining nazariyasini yaratdi. XX asr 30-yillarda esa bu muhim masalani u aniqlashtirdi, chuqur o'rganib **rayon ishlab chiqarish kombinatlarini** barpo etish lozimligini ta'kidladi. Keyinchalik N.N.Kolosovskiy I.G.Aleksandrovning rayon ishlab chiqarish kombinatlari to'g'risidagi ta'limotidan Ural, Sibir va Qozog'iston kabi yirik rayonlar misolida amaliy foydalandi, uni boyitdi va shu asosda o'zining rayon komplekslari (kombinatlari, majmualari) to'g'risidagi ilmiy g'oyasini shakllantirdi. Bu, albatta, ilgarigiga qaraganda yangi bir qadam olg'a fikr edi.

N.N.Kolosovskiy 1947-yilda hududiy ishlab chiqarish (aniqrog'i, ishlab chiqarishning hududiy birikmalari, komplekslari) mavzuida maqola chop ettirdi. Uning fikricha, bu nazariyaning asosiy mohiyatini ma'lum bir hududda yoki iqtisodiy rayonda ishlab chiqarish korxonalari va aholi punktlarini bir-biri bilan bog'liq holda rivojlanishi va joylanishi tashkil etadi. U ishlab chiqarishning hududiy majmuasini iqtisodiy geografiya fanining tarkibiy qismi ekanligini qayta-qayta ta'kidladi va ayni paytda ma'lum hududda joylashgan ishlab chiqarish korxonalar yig'indisi hamma vaqt ham kompleks (majmua) bo'la olmaydi, deb uqtirgan edi. Bunday oddiy hududiy joylashish gruppirovkani tashkil etadi, xolos. Demak, biz qo'shimcha qilar ekanmiz, har qanday hududiy majmua bu guruh, ammo har qanday guruh majmua bo'lavermaydi.

Keyinchalik HIChM nazariyasini rivojlantirishga N.N.Baranskiy, N.T.Agafonov, A.G.Aganbegyan, M.K.Bandman, N.N.Nekrasov, Yu.G.Saushkin, T.M.Kalashnikova, M.N.Stepanov, A.I.Chistobayev, A.T.Xrushev, M.M.Palamarchuk, Z.M.Akramov, S.K.Ziyodullayev, A.G.Batigin, K.N.Bedrintsev kabi bir qator olimlar o'z hissalarini qo'shdilar.

Tajribalar hamda faktik materiallar shuni tasdiqlaydiki, hududiy (yoki geografik) mehnat taqsimoti fundamental tushuncha bo'lib, u iqtisodiy rayonlashtirish va hududiy ishlab chiqarish majmualarining vujudga kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, hududiy mehnat taqsimoti birlamchi, qolgan ikki tushuncha esa uning natijasidir.

N.N.Kolosovkiy ishlab chiqarishning hududiy majmualari (yoki hududiy ishlab chiqarish majmualari, bizningcha, bular bir xil ma'noga ega) iborasi iqtisodiy rayonlar to'g'risidagi tushuncha o'rnini egallamasligi kerak; bu iqtisodiy rayonlarning «yadrosi»ni tashkil etadi, xolos deb uqtirgan edi. Darhaqiqat, hududiy ishlab chiqarish majmualari mazmun va sifat jihatdan, ayniqsa ishlab chiqarish korxonalarini ma'lum bir nuqtadagi yoki joydagi turg'un birikmasi sifatida iqtisodiy rayonlardan farq qiladi.

So'nggi yillarda bunday qarash biroz o'zgardi: umuman olganda, har qanday bosqichdagi iqtisodiy rayonlar ham hududiy ishlab chiqarish majmualari shaklida ko'rilsa bo'ladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona vodiysi, Namangan viloyati hududiy ishlab chiqarish majmualari va h.z.

Savol tug'ilishi mumkin: haqiqatda yoki real voqelikda hududiy ishlab chiqarish majmuasi qaerda vujudga keladi va har qanday joyning ishlab chiqarish korxonalari birlashmasini majmua deb atash mumkinmi? Bu yerda, bizning fikrimizcha, masalaga har tomonlama yondoshish kerak va hududiy ishlab chiqarish majmualarining turli xil bo'lishini unutmaslik lozim. Aks holda, chalkashliklar vujudga kelishi muqarrar.

Albatta, iqtisodiy rayon xo'jaligi o'zining mohiyati va maqsadiga ko'ra har tomonlama (kompleks) rivojlanishi lozim. Ana shu nuqtai nazardan iqtisodiy rayonlar xo'jaligini real yoki potentsial hududiy ishlab chiqarish majmuasi sifatida ko'rish mumkin. Bu yerda biz tushunmovchilikka imkoniyat qoldirmaslik maqsadida bunday hududiy ishlab chiqarish majmualarini **«ma'muriy rayonlar**

**darajasidagi majmualar»** deb yuritishni taklif etamiz. N.N.Kolosovskiy aytgan ma'noda, ya'ni ma'lum bir joyda ishlab chiqarish korxonalarining o'zaro bog'liq holda joylanishi va rivojlanishi asosida vujudga kelgan majmualar esa tom ma'noda yoki «an'anaviy hududiy ishlab chiqarish majmualari», deb atalishi to'g'riroq. N.N.Kolosovskiy shogirdlaridan biri M.K.Bandman bunday hududiy ishlab chiqarish majmualarni mamlakat ahamiyatiga molik, muhim bir muammoni hal etishga, bir maqsadga qaratilgan dasturli majmualar, deb yozadi. Ular, odatda, real voqelikda vujudga keladi va ma'muriy chegaralarga ko'pincha mos kelmaydi. Sababi-mazkur hududiy majmualar asosida qandaydir tabiiy geografik obyektlar, masalan, daryo havzalari, qazilma boyliklar, tog', cho'l va boshqalar yotadi.

Ammo hududiy ishlab chiqarish majmualari qaysi ma'noda tushunilmasin, ular iqtisodiy geografiyani o'rganishda eng muhim va unumli nazariyadir. Bu rayon xo'jaligini sistema darajasida qarash va uni tarkibiy tuzilishi bo'yicha tahlil qilish, ishlab chiqarish korxonalari orasidagi aloqadorlikni nazarda tutadi.

Tom, haqiqiy hududiy ishlab chiqarish majmualari, asosan, yangi o'zlashtirilayotgan rayonlarda, ulkan tabiiy boylik va ayniqsa yoqilg'i-energetika zaxiralari negizida vujudga kelishi bilan tavsiflanadi.

Albatta, tarixiy rivojlanish davomida avval o'zlashtirilgan yerlarda vujudga kelgan xo'jalikning hududiy tarkibini majmuaga aylantirishga qaraganda, yangi, «sof» yoki «bo'sh» joyda bu maqsadga erishish osonroqdir. Majmua yaratuvchi tarmoq sifatida esa ko'proq yoqilg'i-energetika sanoati asos bo'lib xizmat qilishi ham, shubhasiz, bir holdir. Masalan, Rossiya Federatsiyasidagi Bratsk hududiy ishlab chiqarish majmuasini olaylik (uning dastlabki loyihasini N.N.Kolosovkiy rahbarligidagi olimlar guruhi yaratgan). Bu yerda yirik 4 mln kVt dan ortiq quvvatga ega bo'lgan suv elektr stantsiyasi qurildi va, ayni paytda, bo'lajak suv ombori maydonini o'rmondan tozalash maqsadida yog'och-sellyuloza sanoati vujudga keldi. Arzon elektroenergiyaning mavjudligi energiyani ko'p istemol

qiluvchi tarmoqlarni o'ziga «tortdi» va, natijada, bu yerda uchinchi yirik korxona alyuminiy zavodi barpo etildi. Rangli metallurgiya va o'rmon sanoati yana «zanjirsimon» tarzda boshqa korxonalar vujudga kelishini (jumladan, mashinasozlik, kimyo) taqozo etdi.

Bunday majmualar O'rta Osiyo respublikalarida qulay tabiiy sharoitda, aholi va mehnat resurslari bilan yaxshi ta'minlangan mintaqada va faqatgina energetika emas, balki agroiqlimiy resurslar asosida ham vujudga kelishi mumkin. Demak, respublikamiz hududiy ishlab chiqarish majmualari sug'oriladigan dehqonchilik, agrosanoat tarmoqlari va mehnatni ko'p talab qiluvchi korxonalarini o'z ichiga olar ekan. Bunga Mirzacho'l yoki Qarshi dashti asosida shakllanayotgan hududiy ishlab chiqarish majmualarida misol bo'la oladi.

Keng ma'noda hududiy ishlab chiqarish majmualari ham turli bosqichda bo'ladi. Oddiy sanoat yoki agrosanoat tugunidan tortib mamlakat miqyosida vujudga kelayotgan yagona xalq xo'jalik majmuasini ajratish mumkin. Bu, shubhasiz, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishda nihoyatda ilg'or va iqtisodiy jihatdan samarador bo'lib, mintaqa yoki alohida viloyatlarning mamlakatimiz mehnat taqsimotida tutgan o'rnini, «basharasini» belgilab beradi.

Hududiy ishlab chiqarish majmualarini iqtisodiy jihatdan samarador ekanligi, eng avvalo, umumiy infratuzilma (yo'l, suv, yer osti inshootlari, elektr energiya shahobchalari va b.) mavjudligidan kelib chiqadi. Masalan, paxta ekiladigan rayonlarni olaylik: bunday joylarda, odatda, paxta tozalash zavodi, uning yonida yog' zavodi, ularning chiqindilari asosida esa chorvachilik fermasini tashkil etsa bo'ladi. Bu yerda majmua hosil qiluvchi tarmoq paxtachilik hisoblanadi va u boshqa tarmoq yoki korxonalar joylanishiga sabab bo'ladi. Tabiiyki, bunday korxonalar alohida-alohida, tarqoq joylashsa, ularning har biri uchun yuqoridagi infratuzilma shahobchalari kerak. Bu esa iqtisodiy jihatdan nomaqbuldir. Agar ularning barchasi bir joyda hududiy tashkil etilsa, katta

tejamkorlikka va, binobarin, katta samaradorlikga erishiladi. Shu bois, aytish mumkinki, iqtisodiy geografiya fanini «iqtisodiy» qiluvchi asos ham aynan hududiy ishlab chiqarish majmualaridir. Zero, ular ikki kara ikki to'rt emas, besh bo'lishini ta'minlaydi.

Bu nazariyaning ahamiyati ayniqsa, mamlakat xalq xo'jaligini boshqarishdagi hududiy tamoyildan to'g'ri foydalanishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Darhaqiqat, mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini hozirgi qayta qurish davrida hududiy dasturlarni keng joriy qilish nihoyatda muhimdir. Hududiy dasturlash tarmoqlar asosida boshqarishga qaraganda mahalliy tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hamda shu joyning atroflicha rivojlantirish imkoniyatlarini har tomonlama hisobga oladi.

Bu haqda va, xususan, tarmoqlar bo'yicha boshqarishdagi ayrim kamchiliklarni Chirchiq shahri xo'jaligi misolida ko'rsa bo'ladi. Ma'lumki, bu shaharda o'tmishda mahalliy sharoit, iqtisodiy va tabiiy-geografik o'rin hisobga olinmaganligi sababli yangi sanoat korxonalarini joylashtirish salbiy ekologik oqibatlarga olib keldi.

Hududiy ishlab chiqarish majmualari mavzusini o'rganishda mahalliy misollariga murojaat qilish foydalidir. Masalan, Mirzacho'l yoki qarshi dashtini o'zlashtirish asosida vujudga kelayotgan majmualar to'g'risida fikr yuritish mumkin. Ushbu hududiy majmualar o'zlarining ixtisoslashuviga ko'ra agrosanoat majmuasi ekanligini anglash zarur. Shuningdek, keyingi yillarda agrosanoat majmualarini ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishdagi yangi bosqich sifatida shakllanishining katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini ham ko'rsatish kerak. Avvalambor, bu samaradorlik xomashyo va yarim mahsulotni bir joydan ikkinchi joyga olib borish uchun sarf etiladigan transport xarajatlarning qisqarishi, ishlab chiqarish chiqindilari asosida boshqa tarmoqlarning (jumladan,

chorvachilikning) rivojlanishi va eng muhimi qishloq bilan shaharlar o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirishda o'z aksini topadi.

Ilmiy va amaliy jihatdan respublikamizda hududiy ishlab chiqarish majmualarini yaratishdagi erishilgan yutuqlar to'g'risida ham aytib o'tilsa yaxshi bo'ladi. Jumladan, O'zbekiston Fanlar akademiyasiga qarashli sobiq Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish kengashida (SOPS) o'tgan asrning 50-yillarida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida **rayonlarning kompleks muammolari** tushunchasi yoki ilmiy yo'nalishi yaratilgan edi. Bu, ayniqsa, o'zining geografik o'rni va tarkibiga ko'ra, o'ziga xos bo'lgan Farg'ona vodiysi uchun, ayniqsa, ahamiyatli edi.

Hududiy ishlab chiqarish majmualari ham tizim-tarkib g'oyasiga ko'ra ko'p bosqichli, pog'onasimon (iyerarxiyali) bo'ladi. Bunda birlamchi element sifatida oddiy korxona xizmat qiladi. Jumladan, sanoat asosida vujudga kelgan hududiy majmualarning negizini, birlamchi elementini sanoat korxonasi tashkil qiladi. Sanoat korxonasi sanoat ishlab chiqarishining texnologik xo'jalik hamda yuridik (huquqiy) jihatdan tashkil etilishining birlamchi bo'g'inidir. Ular zavod yoki fabrika ko'rinishida bo'ladi. Zavodlarda, odatda, ishlab chiqarish vositalari, fabrikalarda esa iste'mol mollari ishlab chiqariladi.

Sanoat korxonasi mavjud bo'lgan joy **sanoat punkti** hisoblanadi. Agar bir joyda bir necha sanoat korxonasi mavjud bo'lsa, u holda **sanoat markazi** vujudga keladi. Yirik sanoat markazlari atrofida sanoat punktlarining joylashuvi navbatdagi, ya'ni sanoat ishlab chiqarishini hududiy tashkil etilishining to'rtinchi pog'onasi, bosqichi – **sanoat tugunini** shakllantiradi. Aynan sanoat tugunlarida hududiy majmualar mukammal tus oladi. CHunki, bunday sharoitda sanoat korxonalarining oddiy hududiy guruhi emas, balki ular o'rtasida aloqadorlik (ishlab chiqarish, texnologik, infratuzilma, aholi va mehnat resurslari aloqalari)

mavjud bo'ladi. Binobarin, sanoat tugunlarini sanoat ishlab chiqarish majmualarining eng yetuk shakli, deb baholash to'g'riroqdir.

Sanoat tugunlari, ya'ni sanoat korxonalarini bir joyda g'uj holda mujassamlashuvi **sanoat aglomeratsiyasi**, deb ham ataladi. Sanoat korxonalarini joylashtirishda aglomeratsiya omilini hisobga olish esa, avval ta'kidlaganimizdek, nemis olimi Alfred Veberga tegishli. Aglomeratsiya ham mujassamlashuv kabi katta iqtisodiy (ammo ekologik emas) samaradorlikga ega.

Darvoqe, hududiy ishlab chiqarish majmualarining vujudga kelishida ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning barcha turlari ixtisoslashuv, mujassamlashuv, kooperatsiya (hamkorlik) va kombinatlashuv ishtirok etadi. Aslida esa hududiy ishlab chiqarish majmualari bevosita kombinatlashuvning hududiy ko'rinishidan boshqa narsa emas. Faqat korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya hamma vaqt ham kichik bir hududda mavjud bo'lavermaydi.

Alohida tanlab olingan joyni barcha infratuzilma obyektlari bilan oldindan tayyorlash negizida sanoat parklari vujudga keladi. Bunday joylar tadbirkorlarga sotiladi yoki ijaraga beriladi.

Masalan, respublikamizda xorijiy mamlakatlar firmalarining sarmoyalari yordamida qurilayotgan aksariyat qo'shma korxonalar aynan ana shunday tayyor bino va infratuzilma shahobchalari muhayyo bo'lgan joylarda tashkil etilmoqda. Demak, aytish mumkinki, sanoat majmualarining asosini bunday sharoitda sanoat parklari tashkil etadi.

Nikolay Nikolayevich Kolosovskiyning hududiy ishlab chiqarish majmualari g'oyasini qaysi bir jihatdan A.Veberning ishlab chiqarish aglomeratsiyasi ta'limotiga yaqinligiga yoki o'xshashlik alomatlari borligiga oldinroq ishora qilgan edik. Ammo uning boshqa bir ilmiy g'oyasi **energiya ishlab chiqarish sikllari** ta'limotiga hech qanday e'tiroz bo'lmasligi kerak. Chunki u bu

g'oyani bevosita amaliyotdan kelib chiqqan holda (N.N.Kolosovskiy o'zining asl kasbi bo'yicha muhandis-iqtisodchi bo'lgan) yaratgan.

Energiya ishlab chiqarish sikllari ma'lum xomashyo va energiya (bu yerda energiya keng ma'noga ega) asosida ishlab chiqarishning texnologik jihatdan uzluksiz, hatto uning chiqindilari asosida tashkil etilishini nazarda tutadi. Bunda, Y.G.Saushkin iborasi bo'yicha, daraxtning tanasi-asosiy ishlab chiqarish tarmog'i (qora yoki rangdor metallurgiya, kimyo sanoati, dehqonchilik va h.k.), uning shoxlari esa ana shu asosiy ishlab chiqarish jarayoni bilan texnologik jihatdan bog'liq bo'lgan qo'shimcha tarmoq yoki tarmoqchalarning ayrim korxonalari demakdir.

N.N.Kolosovskiy o'z davrida qora metallarning pirometallurgik sikli, rangdor metallar, mashinasozlik, neft-gaz-kimyo, agroindustrial, o'rmon-yog'och-sellyuloza kabi 8 ta asosiy energiya ishlab chiqarish sikllarini ajratgan. Hozirgi kunda ularning soni 20 ga yaqinni tashkil qiladi.

Alohida ta'kidlash joizki, energiya ishlab chiqarish sikllari aslo hududiy birlik emas, aksincha ular ishlab chiqarishning texnologik birligidir. Shu bois, bunday sikllar nisbatan kattaroq hudud miqyosida vujudga keladi. Ko'rinib turibdiki, HIChM va energiya ishlab chiqarish sikllari bir-biridan tubdan farq qiladi; ikkinchisi birinchisining o'zagi bo'lishi mumkin, ammo uning o'zginasi emas.

Yana shuni e'tirof etish lozimki, umuman ilmiy nuqtai nazardan to'g'ri bo'lgan hududiy ishlab chiqarish majmualari g'oyasi sobiq Ittifoq sharoitida ko'zda tutilgan natijalarni to'laligicha bermadi. Sababi bunday majmualar nihoyatda katta hududlarda «rejalashtirildi», ma'muriy chegaralar e'tiborga olinmadi, ijtimoiy va ekologik omillar nazardan chetda qoldirildi, eng muhimi-ularning yagona «egasi» boshqaruv organlari bo'lmadi. Vaholanki, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda hududiy majmualar aynan nisbatan kichik miqyosda

yaratildi va ularning faoliyati davlatning mintaqaviy hamda munitsipial siyosatida boshqarib tartibga solinib boriladi.

Shunday qilib, HIChMlarning ilmiy nazariy asoslari, Rossiyada, taniqli olim Nikolay Nikolayevich Kolososvkiy tomonidan yaratildi. U ushbu masalani iqtisodiy rayonlashtirish muammolari bilan bog'liq ravishda o'rgandi.

Umuman olganda, N.N.Kolosovkiyning bunday dunyoqarashiga uning transport (temir yo'l transporti) muhandisi ekanligi va geografiya uchun an'anaviy ahamiyatga ega bo'lgan kompleks yondoshuvining uyg'unligi asos bo'ldi; «hududqkompleks» ishlab chiqarishning hududiy birikmalari yoki majmualarini (komplekslarini) tashkil etadi.

Chindan ham kompleks-majmuaning[2] ilmiy-amaliy ahamiyati katta. Chunonchi, u:

√ tabiiy sharoit va tabiiy resurslardan atroflicha foydalanish;

√ ishlab chiqarishni mumkin qadar chiqindisiz yo'lga qo'yish;

√ ishlab chiqarishni tizim-tarkib asosida hududiy tashkil qilish;

√ iqtisodiy geografiya va uning asosiy tushunchasi bo'lgan iqtisodiy rayonlarni o'rganish;

√ iqtisodiy rayonlar xo'jaligi tarkibini qayta qurish va boshqalarda ahamiyatlidir.

Aytish mumkinki, agar N.N.Kolosovskiy transport muhandisi, ya'ni o'ziga xos injenerlik fikrlash qobiliyatiga ega bo'lmaganda, ehtimol, bunday ilmiy cho'qqilarga, olamshumul yutuqlarga erisha olmasdi. Sababi transport hamma vaqt masofa va uni kesib (kezib) o'tish, tashish, olib o'tish kabi ma'nolarni bildiradi; masofani mumkin qadar qisqartirish, «yaqinroq» yo'l qidirish esa har qanday muvaffaqiyatning garovi, iqtisodiy samaradorlikning asosi hisoblanadi. Shu

[2] «Комплекс» - байналмилал тушунча бўлиб, у бирикма, бирлашма, у ёки бу ҳодисаларнинг ўзаро алоқадорликда, таъсирда мавжудлигини англатади.

o'rinda tayyor mahsulot tannarxi, qiymatida transport xarajatlari hatto 50-60 foizgacha yetishini unutmaslik kerak. Qolaversa, ishlab chiqarish korxonalarning qulay yoki noqulay joylashuvi, mahsulotning qimmat yoki arzon bo'lishi ko'p jihatdan aynan transport omiliga bog'liq.

Demak, ishlab chiqarish tarmoqlarini ma'lum iqisodiy makonda o'zaro aloqadorlikda joylashtirish, transport omilini e'tiborga olish, barcha yordamchi tarmoqlarni (hozirgi zamon tilida-infratuzilma shahobchalarini) umumiy tarzda tashkil etish katta iqtisodiy samaradorlikga olib keladi. Shuningdek, bunday samaradorlikga energiya, xomashyo, ishchi kuchi va boshqa omillardan to'g'ri foydalanish, «masshtab samaradorligi» (mujassamlashuv) negizidagina emas, balki «xilma-xillik» samaradorligi asosida erishiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Rossiyani amalda iqtisodiy rayonlashtirish uni elektrlashtirish (GOELRO) rejasining dasturi bilan bog'liq bo'lgan. Shu bois, dastlabki iqtisodiy rayonlar, joylarda yirik elektr stantsiyalar qurish va ularning ta'sir doirasini aniqlash nuqtai nazaridan energetika, **energiya ishlab chiqarish rayonlari** deb atalgan. Keyinchalik bu rayonlarda xo'jalik tizimining bir tomonlamaligiga yo'l qo'ymaslik, mahalliy sharoit va imkoniyatlardan to'laroq foydalanish, aholining ehtiyojlarini qondirish, transport harajatlarini qisqartirish va ortiqcha, iqtisodiy jihatdan nomaqbul, uzoq masofadagi transport qatnovlarini kamaytirish kabi omillarni e'tiborga olib, iqtisodiy rayonlar xo'jaligini **kompleks** ravishda tashkil etishga ustuvor ahamiyat berildi. Asosiy iqtisodiy rayonlarning xo'jaligi kompleks, majmuali bo'lishi (rayonlar miqyosidagi HIChMlar) yoki ularning iqtisodiyotini kompleks tamoyili negizida yaratish muhim hisoblanadi.

Dastlab N.N.Kolosovskiy «ishlab chiqarish kombinati» rayonlar ishlab chiqarish kombinati» tushunchalarini ishlatdi. Bunda «kombinat» so'zining ko'proq korxona doirasiga tegishligi va turli xil terminologik chalkashliklarga o'rin qoldirmaslik uchun «kompleks» so'zini ma'qul topdi. U o'z davrida ishlab

chiqarishning hududiy birikmasi (kompleksi) to'g'risida yozgan edi, keyinchalik esa bu tushuncha (N.N.Kolosovskiy vafotidan so'ng) hududiy ishlab chiqarish majmualari deb atala boshladi.

**HIChM** – muayyan sanoat nuqtasi (punkti) yoki alohida rayonda, uning tabiiy va iqtisodiy sharoitlari, transport va iqtisodiy geografik o'rniga muvofiq korxonalarni to'g'ri tanlab olish va joylashtirish hisobidan iqtisodiy samaradorlikga erishadigan ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish shaklidir.

HIChMlar g'oyasi, birinchidan, iqtisodiy rayonlar xo'jaligini kompleks rviojlantirish va, ikkinchidan, N.N.Kolosovskiyning Ural-Kuznetsk kombinati (UKK) va Baykalbo'yi («Angarqurilish») komplekslari loyihalarini yaratish va ularni amalga tadbiq etish jarayonida yuzaga keldi. Ushbu tushuncha ilk bor Irkutsk-Cherelexovo majmuasiga nisbatan ishlatildi. Albatta, bunda muallifning injenerlarcha fikrlashi, transport-temir yo'l qurilishi mutaxassisi bo'lishi ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uning, Rossiya (sobiq Ittifoq) iqtisodiy geografiya fanining HIChMlar va iqtisodiy rayonlar to'g'risidagi yutug'ini hatto rivojlangan mamlakatlar AQSh va Germaniya ham tan olgan; bevosita muallifning o'zi 1948 yilda Fransiyada ushbu muammolar va ularning amaliy yechimi haqida ilmiy ma'ruzalar qilgan.

HIChMlar iqtisodiy rayonlarning shakllanishi jarayonida muhim taktik va strategik vosita hisoblanadi. O'z navbatida bunday majmualarning o'ziga xos, individual xususiyatlarini aniqlashda, ularni alohida tiplarga ajratishda N.N.Kolosovskiy «energiya ishlab chiqarish sikllari» («energiya ishlab chiqarish rayonlari»ga mos holda) usulini yaratdi va undan unumli foydalandi. Bu yerda, N.N.Kolosovskiy bo'yicha, «energiya» quvvat, kuch, harakat, «energetika» ish qilish, faoliyat ko'rsatish qobiliyati ma'nolarini anglatadi.

Ta'kidlash joizki, N.N.Kolosovskiy HIChM va energiya ishlab chiqarish sikllarini ko'proq sanoatni tashkil etishga nisbatan ishlatgan. Shuningdek, u

iqtisodiy rayonlar va bu ikki tushunchani o'zaro aloqadorlikda qo'llagan: iqtisodiy rayonlar asosini HIChMlar, ularning asosini esa energiya ishlab chiqarish tskillari tashkil qiladi. Ushbu tushunchalarning barchasini ayni vaqtda ham usul (metod), ham vosita sifatida qarash mumkin.

Shunday qilib, iqtisodiy geografiya fanining uchta asosiy tushunchasi: iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy ishlab chiqarish majmualari va energiya ishlab chiqarish sikllari mashhur olim, geografiya fanlari doktori, professor Nikolay Nikolaevich Kolosovskiyga taalluqli. Shuningdek, u transport geografiyasi bo'yicha ham katta tadqiqotlar olib borgan. N.N.Kolosovskiy qator shogirdlar tayyorlagan. Ular jumlasiga I.M.Mayergoyz, S.N.Ledovskix, V.F.Pavlenko, I.I.Belousov, T.M.Kalashnikova, M.K.Bandman, A.T.Xrushev, N.N.Kazanskiy va boshqalar kiradi. Hatto, Sobiq Ittifoqda ilk bor mintaqaviy iqtisodiyot to'g'risida monografiya yozgan N.N.Nekrasov ham N.N.Kolosovskiy ilmiy rahbarligida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, respublikamiz iqtisodiyotini bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tkazish sharoitida ishlab chiqarishni majmualar shaklida hududiy tashkil etish, ularning ijtimoiy va ekologik jihatlariga ham e'tibor berish katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Sobiq shurolar tizimi davrida mamlakatni iqtisodiy rayonlashtirish masalalariga katta e'tibor berildi. Shu maqsaddda, 1921-yilda iqtisodiy rayonlashtirish komissiyasi tashkil etildi. Bu komissiyaga G.M.Krjinovskiy boshchilik kildi. Komissiya ishida I.G.Aleksandrov aktiv ish olib bordi. XX asr 20-yillardagi iqtisodiy rayonlashtirishning eng muhim prinsiplari quyidagilar edi:

- har bir iqtisodiy rayon yirik hududiy ishlab chiqarish majmuasini tashkil etish va u ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik tarmoqlariga ixtisoslashuvi lozim;
- rayonlashtirish asosini energetik va iqtisodiy prinsip tashkil etadi;

- har bir iqtisodiy rayon uzining tabiiy va sotsial iqtisodiy sharoitlari hamda boshqa imkoniyatlarini hisobga olgan holda, xo'jalikning malum bir tarmog'iga ixtisoslanadi;
- rayonlashtirish va rayonlar chegarasi vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadi, chunki uning asosida o'tgan hududiy mehnat taqsimoti doimo rivojlanishda;
- iqtisodiy rayonlashtirishda milliy masalalar, milliy respublikalarning rivojlanish vazifalari, yirik rayon tashkil etuvchi markazlarning mavjudligi hisobga olinadi.
- rayonlashtirish mamlakatning siyosiy-ma'muriy tuzilishi bilan bog'lik bo'ladi.

Iqtisodiy rayonlashtirishdan asosan ikki maqsad kuzda tutiladi. Bu ham bo'lsa ishlab chiqarish kuchlarini rejali ravishda to'g'ri hududiy tashkil etish va boshqarishdir. Har bir iqtisodiy rayonda maxaliy sharoitni hisobga olgan holda ixtisoslashgan tarmolarni rivojlantirish, rayonlararo transport-iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish lozim.

Iqtisodiy rayonlashtirish va umuman geografik rayonlashtirish mamlakat maydoni qanchalik katta va ichki jihatdan sotsial-iqtisodiy tafovutlarga qancha boy bo'lsa, shuncha muhimdir.

Bizning fikrimizcha, mamlakat hududini rayonlarga bulish bilan real rayonlarni ajratish bir xil emas.

- ✓ Birinchi holda bir rayonlar turkumi bilan butun territoriyani koplab olamiz,
- ✓ Ikkinchi holda esa rayonlar hamma joyda emas, balki har joy-har joyda, ishlab chiqarishni hududiy kontsentratsiyalashuvi va kompleks rivojlanishi shaklida kuramiz, xolos.

Xuddi shu tipdagi rayonlar kupincha xalq xo'jaligi tarmoqlarini hududiy birligini ajratishda uchraydi va ular hamma vaqt ham mamuriy siesiy bulinishi bilan to'g'ri kelmaydi.

Xar qanday rayon yaxlit hududiy iqtisodiy kompleksni tashkil etadi. Uning etuklik darajasi 3 gruppadagi tarmoqlarning mavjudligida, ularning bir-biri bilan uygunlashgan holda rivojlanganligida O'z aksini topadi. I gruppaga rayonning mehnat taqsimotida tutgan urnini belgilab beruvchi ixtisoslashgan xo'jalik tarmoqlari, II gruppaga yordamchi, I bilan bog'lik bo'lgan va uchunchisiga esa mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlar kiradi. Albatta, hamma rayonlarda tarmoqlar va ularning rivojlanganlik jarajasi har xil bo'ladi. Masalan, Markaziy Osiyo uchun I gruppani paxtachilik, pillachilik, paxta tolasi ishlab chiqarish, nodir qimmatbaxo metallarni kazib olish kiradi; II gruppaga mashinasozlik va III gruppani esa oziq-ovqat, yengil, elektr-energetika, qurilish materiallari sanoati tashkil etadi.

Har qaysi rayon ichki jihatdan bir-birini to'ldirib, yaxlit hududiy-iqtisodiy kompleksni tashkil etishi lozim. Ammo, real hayotda hamma rayonlar ham shunday emas.

Iqtisodiy rayonlar yoki zonalar geografik jihatdan quyidagi sxemada o'rganiladi:

1. Iqtisodiy rayonlar tarkibi va uni asoslash, maydoni va aholisi.
2. Rayonning mamlakat XTMda tutgan o'rni.
3. Iqtisodiy geografik o'rni.
4. Tabiiy-geografik o'rni va sharoitlar relyefi, foydali qazilmalari, iqlimi, gidrogeografiyasi, tuprog'i, o'simligi va hayvonot dunesiga iktisoiy jihatdan baho berish.
5. Aholisi: hududiy demografik tarkibi, o'sish, shahar, va qishloq aholi punktlari, shahar aglomeratsiyasi, urbanizatsiya jaraeni, mehnat resurslari.
6. Xo'jaligi: umumiy tarifini, sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti.
7. Rayonning ichki tafovutlari-kichik iqtisodiy rayonlar, sanoat va agrosanoat tugunlari, yirik shaharlar va shaharlar aglomeratsiyalari.
8. Tashqi transport-iqtisodiy aloqalari.

9. Rayon ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etishdagi asosiy muammolar va ularning kelajagi.

Iqtisodiy rayonlarni shu tartibda tariflash, tarixiy va geografik, sistema-struktura, kartografik va energiya ishlab chiqarish sikli metodidan moxirona foydalanish, tarmoqlarni hududiy nuqtai nazardan va, aksincha, hududiy iqtisodiy kompleksni tarmoqlar va ishlab chiqarishning texnologik birligi bo'lgan sikllar bo'yicha o'rganish juda katta samara beradi. Shu bilan birga rayonlarni o'rganish kompleks bo'lishi va ayniksa ularning iqtisodiy ijtimoiy tomoniga e'tiborni jalb etish hamda ekologik omillarni hisobga olish zarur.

Ammo kompleks xarakteristikada rayonlar bir-biriga o'xshab ketmasligi, shablon (1 qolipda) bo'lmasligi kerak, aksincha, har bir rayon uchun xos bo'lgan asosiy xalq xo'jaligi tarmogi va uning hududiy strukturasini mahkam «ushlab» va uning atrofida so'z yuritish darsni qiziqarli o'tish shartlaridan biridir.

Iqtisodiy yoki sotsial-iqtisodiy rayonlashtirish fanning asosi, deb aytsak xato bo'lmaydi.

Iqtisodiy rayonlashtirishning mexanizmi yoki formulasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

XTM - ixtisoslashgan tarmoqlarning shakllanishi - iqtisodiy rayonlarning vujudga kelishi - rayonlararo iqtisodiy aloqalar. Ammo, XTM nisbatan tez, rayonlar shakllanishi esa sekinrok amalga oshadi. Shunday bo'lsa-da, geografik mehnat taqsimotining tarixiy rivojlanishi iqtisodiy rayonlar chegarasi va sonini o'zgartirib turadi.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Hududiy ishlab chiqarish majmualari nima va uning asoschisi kim?

2. Nima sababdan hududiy ishlab chiqarish majmualari iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi?

3. Hududiy ishlab chiqarish majmualari va energiya ishlab chiqarish sikllari o'rtasidagi farq nimadan iborat?

4. Nima uchun Sobiq Ittifoq davrida hududiy ishlab chiqarish majmualari g'oyasi yaxshi natijalarni bermadi?

5. Respublikamizda vujudga kelayotgan hududiy ishlab chiqarish majmualarini ta'riflab bering.

## 6-BOB. INSON VA TABIAT O'ZARO TA'SIRI HAQIDA YONDASHUVLAR VA MINTAQAVIY TADQIQOTLAR

Reja:

6.1.Tabiiy sharoit haqida tushuncha.

6.2.Tabiiy shart-sharoitlarning insonlar hayoti va xo'jalik faoliyatiga ta'siri.

6.3.Tabiiy resurslarning asosiy turlari va ularning klassifikatsiyasi.

6.4. Qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan resurslar.

6.5. Tabiiy resurslarga iqtisodiy baho berishning nazariy asoslari.

6.6.Landshaftlar va ularni iqtisodiy geografik o'rganish.

Tabiiy omillar tushunchasi o'z tarkibiga tabiiy shart-sharoitlar, landshaftlarning barqarorligi va ekologik holatni oladi.

Tabiiy shart-sharoit hududlarning tabiiy muhiti komponentlarining asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim tabiiy tavsiflar majmuasidir. Tabiiy shart-sharoit to'g'ridan-to'g'ri aholining hayotiga va xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Aholining joylashuvi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va joylashishi, ixtisoslashuvi ham tabiiy shart-sharoitga chambarchas bog'liqdir.

Tabiiy muhit komponentlariga iqlim, geologik muhit, yer usti va yer osti suvlari, yer, biota kiritiladi. Tabiiy shart-sharoitni turli komponentlari bo'yicha tadqiq qilishda landshaftlarni baholash muhim o'rin tutadi.

Hududlarning tabiiy shart-sharoitlari ularning qaysi tabiat mintaqasida, hududlarda (muayyan tabiat landshaftida) joylashganiga qarab ajratiladi va bu tushunchalar:

Tabiiy hududlar – bu yer ustining yirik geografik qobig'i bo'lib, ularni quyosh radiatsiyasining miqdori, namlik, tuproq, hayvonot va o'simlik olamining turi kabi umumiy xususiyatlar birlashtiradi. Tabiat mintaqalarini ajratishda issiqlik va namlik asosiy o'rin tutadi.

Tabiiy landshaftlar – hududiy birlikning tabiiy mintaqalarga nisbatan ancha kichik toifasidir. Shuningdek, geografik qobiqning muayyan qonuniyatlarga ega bo'lgan bir xildagi qismlaridir. Tabiiy landshaftlardan tashqari antropogen yoki madaniy landshaftlar mavjud. Oxirgi yilarda lug'atlarda siyosiy, konfessional xo'jalik landshaftlari terminlari paydo bo'lishiga hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va o'zgarishlar sabab bo'lmoqda.

Landshaftlarning muhim xususiyatlarni shakllantiruvchi omillar tashqi (kosmik va geodinamik) va ichki (alohida tabiiy komponentlarning o'zaro harakati jarayonida yuzaga keluvchi) omillarga bo'linadi. Shuningdek, landshaftlarni shakllantiruvchi omillarni "zonal" (iqlim, tuproq, o'simlik) va "azonal" (relef, geologik tuzilish) omillarga ajratiladi. Boshqaruvda, umuman hududlar siyosatida landshaftlarga isonlar hayoti va xo'jalik faoliyatining tabiiy asosi sifatida qaraladi.

Oxirgi yuz yillikda, ayniqsa aholi zich joylashgan hududlarda antropogen manzaraning shakllanishi keng tus oldi. Chunki, inson relefga bevosita ya'ni to'g'ridan-to'g'ri (tog'-kon ishlari, suv qurilishi va hokazolar) va bilvosita ya'ni tabiiy muhitning komponentlari orqali ta'sir qiladi. Misol uchun savannalarda o'rmonlarning kesib yuborilishi, cho'llanish jarayonlarining kuchayishiga va shamol ta'sirida shakllanuvchi relef shaklining rivojlanishiga olib kelmoqda.

Hududlarning muhandislik-geologik sharoitlari yer po'stlog'ining yuqori gorizont dinamikasi qurilishi tarkibini insonning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq

holda ifodalaydi. Injenerlik-geologiyasi gruntlarda (tog' jinslari), qurulishlarda va turli inshootlarni qurishda yuz beradigan hodisa va jarayonlarni oldindan bashorat qiladi. Injenerlik-geologik tadqiqotlar asosida turli xil obyektlarni joylashtirish uchun eng qulay joylar aniqlanadi, tog' ishlarining qurilish ishlari jarayonida mustahkamligi, suv ombori qurilganidan keyingi sohilning qanday o'zgarishi, damba mustahkamligi kabilar hisob-kitob qilinadi. Bu omilni hisobga olish xo'jalik faoliyatining barcha sohalari, ayniqsa, shahar qurilishi, transport va gidro texnika qurilishlar uchun juda muhim hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uchun tuproq sharoitlari juda ahamiyatlidir. Tuproq – tabiatning o'ziga xos qismi bo'lib, u yer ustki qatlamining havo, namlik, biota ta'siri ostida o'zgarishi oqibatida shakllanadi. Tirik va o'lik tabiatning barcha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Tuproqning boyligi uning hosildorligi, serunumligi bilan ifodalanadi. Hosildorlik tuproqning o'simlikni zarur namlik va moddalar bilan ta'minlash hamda hosil olishga sharoit yaratib berish qobiliyatidir.

Biota deganda tabiiy fanlarda ma'lum bir hududda yashovchi tirik organizmlarning jamlanishi tarixi, Shuningdek, o'simlik va hayvonot dunyosining bir butunligi tushuniladi. Hududning tabiiy sharoitlariga o'simliklar va hayvonat olamini baholash ham kiradi. Hayvonot olami (zootsenoz) – bu ma'lum bir hudud doirasida yashovchi hayvonlar jamlanmasidir. O'simlik olami (fitotsenoz) esa ma'lum bir hududning o'simliklari qoplami.

Tabiiy shart-sharoitlarning insonlar hayoti va xo'jalik faoliyatiga ta'siri. Tabiiy shart-sharoitlar aholi kundalik hayotiga har tomonlama, xususan insonlarning mehnati, dam olishi, salomatligi, yangi, qulay va noqulay sharoitlarga moslashu vchanligiga ta'sir ko'rsatadi.

Tabiiy shart-sharoitni baholash uni inson uchun qulayligi darajasi bilan aniqlanadi. Uni o'lchash uchun o'ttizga yaqin ko'rsatgichdan foydalaniladi (iqlim

davrining davomiyligi, iqlim namligi, harorat, shamol, tabiiy zararlanish o'choqlarining mavjudligi va hokazo).

Qulaylik darajasiga qarab quyidagilar ajratiladi:

– o'ta noqulay hududlar (qutbiy hududlar, baland kengliklarning tog'li rayonlari va hokazo);

– noqulay hududlar – qattiq tabiiy sharoitli, aholi hayoti uchun kam foydali hududlar (Arktika cho'llari, tundra, yarim cho'llar, baland tog'li hududlar);

– sharoiti cheklangan hududlar – ko'chmanchi aholi uchun cheklangan tabiiy sharoitli hududar;

– o'rtacha qulaylikka ega hududlar – doimiy aholi shakllanishi uchun arzimas to'siqlar bo'lgan hududlar;

– qulay hududlar – aholi hayot faoliyati uchun ideal tashqi muhit sharoitiga ega bo'lgan hududlar.

Tabiiy shart-sharoit tushunchasi o'z-o'zidan u yoki bu xo'jalik faoliyati ko'rinishini nazarda tutadi. Aynan tabiiy shart-sharoitlar insonlar xo'jalik faoliyatining xilma-xilligini, alohida hududlarning tarmoq jihatdan ixtisoslashuvini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini oldindan belgilab beradi.

Ayniqsa, mamlakatlar iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va suv xo'jaligi kabi tarmoqlari uchun tabiiy sharoitlar birinchi darajali ahamiyatga egadir. Ularning rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri tuproqning unumdorligi, iqlim va hududning suv bilan ta'minlanishi bilan bog'liq. Shuningdek, transport va xo'jalikning boshqa sohalari ham tabiiy shart-sharoit ta'siri ostida bo'ladi.

Ma'lumki, foydali qazilmalarni qazib olishda ularning zaxiralari va sifat xususiyatlarigina emas, balki qazilmaning tannarxi, qazish usuli miqyosiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi yer sathiga chuqur yoki yaqin joylashish sharoiti ham hisobga olinadi. Amaliyotda tog' sanoatida ko'pincha shunday bo'ladiki, eng

qimmat emas, arzonroq, ammo qulay tabiiy sharoitda joylashgan konlar ko'proq foyda keltiradi.

Qurilishning barcha turlari tabiiy sharoitga bog'liq bo'ladi. Hududning tabiiy ko'rsatkichlari shahar kommunal xo'jaligini tashkil qilishga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Issiqlik, suv ta'minoti, kanalizatsiya, uylarni isitish va yoritish tizimi va ularning qurilish harajatlari iqlim hamda muhandislik-geologik sharoitlarga bog'liq holda farqlanadi.

Qishloq xo'jalikgi uchun tabiiy sharoit alohida ahamiyatga ega. Agar sohaning ixtisoslashuvi va samarasi jumladan, O'zbekistonuchun to'g'ridan-to'g'ri tuproqning tabiiy unumdorligi, iqlim, hududning suv tizimi bilan bog'liqdir. Turli ekinlarni yetishtirish va qishloq xo'jaligi hayvonlarini ko'paytirish agroiqlim sharoitlari muhim ahamiyatga ega. Iqlim sharoitlarini qishloq xo'jalikgi ishlab chiqarishiga ta'sirini agroiqlim ko'rsatgkichlari orqali miqdoriy ifodalash mumkin. Agroiqlim qonuniyatlarini o'rganish mamlakatlar milliy iqtisodiyotini agrar sohasini boshqarish uchungina emas, balki iqtisodiy-siyosiy tahlil uchun ham g'oyat zarurdir.

Tabiiy sharoitning insonlar hayotiga salbiy ta'sirini ham kuzatish mumkin. Tabiiy ofatlar – tabiiy sharoitning maxsus shakli bo'lib u yoki bu joyning noxush va xavfli hodisasidir. Maxsus adabiyotlarda tabiiy ofatlar tushunchasi kutilmagan holatlarni keltirib chiqaruvchi xavfli tabiat hodisasi sifatida tavsiflanadi. Kutilmagan holatlar deganda muayyan hududda tabiiy ofat yoki texnik avariya tufayli me'yordagi insonlar hayot foaliyati sharoitlarining buzilishi, sezilarli moddiy yo'qotishlar, insonlar salomatligi va atrof-muhitga yetgan zararlar, o'lim oqibatida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatga aytiladi.

Keng tarqalgan va inson hayoti uchun xavfli bo'lgan tabiiy ofatlarga yer qimirlashi, suv toshqini, bo'ron, dovul, qor ko'chkilari va tuproq (tog') surilmalari, vulqonlar, torf va o'rmon yog'inlari, quyun, yer cho'kishi, tsunami hodisalari

kiradi. Tabiatning noxush hodisalariga qurg'oqchilik, muzlash, qattiq sovuq, chaqmoq, kuchli va uzoq davom etuvchi sel-yomg'irlar, do'l kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Noxush va xavfli hodisalarning barcha ko'rinishlari gidrometereologik va geologik-geomorfologik turlarga ajratiladi. Kamroq tarqalganlari orasida quyoshli kosmik (magnit bo'ronlari, meteoritlarning qulashi), biogeoximik (tuproq sho'rlanishi, biologik yemirilish-eroziya) va biologik (qishloq xo'jaligi zararkunandalarining ko'payib ketishi) kabi xodisalar mavjud. Ularning ba'zilari to'satdan qisqa vaqt ichida yuz beradi (chigirtka bosishi, kolorado qo'ng'izi va boshqalar) va ko'plab moddiy yo'qotishlardan tashqari hatto insonlarning o'limiga ham olib keladi. Boshqalari, misol uchun suv toshqini, tuproq yemirilishi uzoq davom etadi va insonlar o'limi hamda katta moddiy zarar yetkazishi bilan ajralib turadi.

Sel – tabiatda tez-tez sodir bo'lib turadi. Yer sharining 3/4 qismiga tahdid soladi. Odatda tog'larda qorlarning tez erishi bilan bog'liq mavsumiy suv toshqinlari kuzatiladi. Ma'lum sharoitlarda bunday toshqinlar 1998 yilda Yakutiyaning Lena daryosida sodir bo'lgani kabi tabiiy ofatga aylanib ketishi mumkin.

Kuchli jala yomg'irlari ham katta-katta falokatlarga sabab bo'lib turadi. Misol uchun 1911-yilda Fillipinda sutkasiga 1168 mm, 4 kunda 2233 mm yog'in yoqqan. (Taqqoslash uchun uchun bu Moskvaning yillik o'rtacha yog'in miqdori darajasidan deyarli 4 barobar ko'pdir).

Xitoyning yirik Xuanxe daryosi o'zining halokatli sellari bilan ayniqsa, mashhur. Daryo vodiysida 80 mlndan ortiq aholi yashaydi. Insoniyat tarixidagi eng fojeali rekord ham shu daryoga tegishlidir. 1887-yilning kuzida Xuanxe suvi 20 metrdan ziyod ko'tariladi. 300 ta aholi punktlari suv ostida qoladi. 2 mln kishi halok bo'lgan. Ulardan yetgan moddiy zarar ham nihoyatda katta. Sellardan

himoyalanishning eng muhim va samarali vositasi ularni oldindan bashorat qilishdir. Suv toshqinidan faol (to'g'onlar qurish, ko'llar, ariqlarni boshqarish) va passiv (evakuatsiya, ko'chib o'tish) himoyalanish mumkin.

Yer qimirlashi – geologik tabiiy ofatlarlarning biri. Ularning oqibatida har yili 10 mlndan ortiq odam halok bo'ladi. Moddiy zarar esa yiliga o'rtacha 400 mln dollarni tashkil qiladi. Zilzila yer po'stlog'ining muttasil tebranishi va seysmik to'lqinlarning urilishi oqibatida yuzaga keladi. Tabiiy zilzilalardan tashqari inson faoliyati tufayli (neft va tabiiy gaz qazib olish, yirik suv omborlarini suvga to'ldirish, katta kar'erlar hosil qilish va boshq.) vayron qiluvchi zilzilalar ro'y berishi mumkin.

O'zbekistonda zilzilaning kuchini ko'rsatuvchi 12 balli shkala qabul qilingan. 6 balli zilzilalar g'ishtli va toshdan qurilgan binolarga 1-darajali zarar yetkazadi. Yerda 1 sm gacha yoriqlar paydo bo'lishi, ba'zi hollarda tog'li hududlarda ko'chkilar sodir bo'lishi ham mumkin. 10 balli yer qimirlashida binolarning 75 foizi qulaydi, shuningdek ba'zi to'g'onlar va ko'priklar vayron bo'ladi, temir yo'llar chalkashib ketadi va boshqalar.

**Tabiiy resurslar** – tabiat elementlari bo'lib, ijtimoiy ishlab chiqarishning hozirgi rivojlanish darajasida jamiyat ehtiyojlarini qondirishda foydalanilayotgan (yoki foydalanishi mumkin bo'lgan) tabiiy sharoitlar majmuasining bir qismi, tabiiy muhitning muhim komponentlari hisoblanadi. Ushbu resursalar tabiatdan foydalanishning bosh obyekti bo'lib, ular foydalanishga va qayta ishlash jarayonlariga jalb etiladi. Tabiiy resurslardan foydalanish bilan bir qatorda ularni muhofaza qilish va saqlashga (tabiatni muhofaza qilish muammolarining hal etishga) yo'naltirilgan faoliyat yonma-yon ro'y beradi.

Tabiiy resurslarni paydo bo'lishining tabiiy jarayon ekanligini va uning ulkan iqtisodiy ahamiyatini hisobga olib, quyidagicha klassifikatsiya ishlab chiqilgan:

1. Tabiiy (genetik) klassifikatsiya – tabiiy resurslarning tabiiy guruhlarga ko'ra klassifikatsiyasi: mineral (foydali qazilmalar), suv, yer (shu jumladan tuproq), o'simlik (shu jumladan o'rmon), hayvonot dunyosi, iqlim resurslari, tabiiy jarayonlar energiyasi resurslari (quyoshning nur sochishi va issiqligi, yerning ichki energiyasi, shamol energiyasi va boshqalar). O'simlik va hayvonot dunyosi resurslarini biologik resurslar deb ham yuritiladi.

2. Tabiiy resurslarning ekologik klassifikatsiyasi – ularning tugashi va tugamasligiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi.

Tugamaydigan tabiiy resurslar – hozir va yaqin kelajakda inson tomonidan o'zlashtirish natijasida tugamaydigan resurslar (quyosh energiyasi, yerning ichki energiyasi, suv va havo energiyasi).

Tugaydigan tiklanmaydigan tabiiy resurslar mavjud zahiralari turli maqsadlarda uzluksiz ishlatilishi natijasida tugaydigan va keyin tiklanmay qoladigan resurslardir. Mineral resurslar ana shunday resurslar jumlasiga kiradi.

Tugaydigan tiklanadigan tabiiy resurslar – ma'lum vaqt o'tgandan so'ng tiklanish xususiyatiga ega bo'lgan resurslardir. Masalan, suv, o'simlik va hayvonot resurslari va h.k. Bu guruhga o'ta sekinlik bilan tiklanadigan resurslar (yerning hosildorligi va unumdorligi, yuqori sifatli yog'och beruvchi o'rmon resurslari) ham kiradi.

3. Tabiiy resurslar xo'jalikda foydalanish imkoniyatlariga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Real – ishlab chiqarish kuchlarining hozirgi rivojlanish darajasida foydalanilayotgan tabiiy resurslar.

Potentsial – ilmiy tadqiqot va kuzatish ishlari asosida aniqlangan, jamiyatning texnik rivojlanish darajasi hozirgi kunda ulardan foydalanish imkoniyatini beradigan va shu bilan birga vaqtincha ulardan foydalanish imkonini bermaydigan resurslar ham kiradi.

4. Resurslarning almashtirilishi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligiga ko'ra muqobili mavjud va muqobili mavjud emas turlarga bo'linadi.

Muqobili mavjud tabiiy resurslarga yoqilg'i-energetika resurslari kiradi. U yoqilg'i resurslarining boshqa turlari bilan almashtirilishi mumkin.

Muqobili yo'q tabiiy resurslarga atmosfera havosi, chuchuk suvlar kiradi. Tabiiy resurslardan samarali foydalanishda ularning ana shu xususiyatlariga e'tibor berish kerak bo'ladi.

1. Tabiiy resurslarga iqtisodiy baho berishda va ularning iqtisodiy ahamiyatini baholashda ulardan xo'jalikda foydalanish turi va yo'nalishiga qarab ham klassifikatsiyalanadi. Bu klassifikatsiyalashning mezoni sifatida resurslarni moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy sohalarga, ya'ni tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalariga mansubligiga qarab ham bo'linadi. Tovar ishlab chiqarish xususiyatiga ko'ra tabiiy resurslar sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi resurslariga bo'linadi.

Sanoat ishlab chiqarishi resurslariga sanoatda foydalaniladigan barcha tabiiy resurslar kiradi. Lekin shu yerda ta'kidlab o'tish kerakki, sanoat ishlab chiqarishining juda ko'p tarmoqli ekanligi sababli tabiiy resurslar ham ko'p turlarga bo'linadi:

A) Energetik tabiiy resurslarga energiya ishlab chiqarishda ishlatiladigan tabiiy xomashyoning barcha turlarini kirtish mumkin. Bularga:

- yonuvchi tabiiy qazilmalar (neft, gaz, ko'mir va boshq.);
- gidroenergiya resurslari (daryo suvi energiyasi va x.k.);
- bioenergiya manbalari (yog'och, qishloq xo'jaligida olinadigan biogaz va boshqalar);
- yadro energiyasi manbalari (uran va boshqa radiaktiv elementlar).

B) Noenergetik resurslar sanoatning turli tarmoqlariga xom-ashyo beruvchi va ishlab chiqarishning texnik xususiyatlariga qarab unda ishtirok etuvchi resurslar:

– rudali va ruda bo'lmagan tabiiy resurslar;

– sanoat ishlab chiqarishida qo'llaniladigan suv resurslari;

– sanoat obyektlari va infrastrukturalar tagidagi yerlar;

– sanoat ahamiyatiga ega o'rmon resurslari;

– sanoat ahamiyatiga ega biologik resurslar.

Shuningdek, sanoatda foydalanish yo'nalishlarini o'zida aks ettiruvchi geologik-iqtisodiy klasssifikatsiya ham keng qo'llaniladi. Bular:

✓ yoqilg'i-energetika xom-ashyosi (neft, gaz, ko'mir, uran va boshqalar);

✓ qora, legirlovchi va qiyin eriydigan metallar (temir rudalari, marganets, xrom, kobalt, volfram va boshqalar.)

✓ noyob metallar (oltin, kumush va platinoidlar);

✓ kimyoviy va agronomik xom-ashyo (kaliy tuzlari, fosforitlar, appatitlar va boshqalar)

✓ texnik xom-ashyo (olmos, asbest, grafit va boshqalar).

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi resurslariga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda ishtirok etadigan tabiiy resurslar kiradi. Bular quyidagilar:

– agroiqlimiy resurslar–madaniy o'simliklarning rivojlanishi va chorvani ozuqa bilan ta'minlashda zarur bo'ladigan issiqlik va namlik.

– tuproq, ya'ni yer resurslari–biomassa ishlab chiqarish xususiyatiga ega yer va tuproqning usti qatlami.

– o'simlik resurslari– biologik ozuqa resurslari;

– suv resurslari – sug'orishda ishlatiladigan suv.

Nomoddiy (xizmat ko'rsatish) sohasi resurslariga (bevosita va bilvosita noishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur) tabiiy muhitdan olinadigan resurslar va shu bilan birga rekreatsion (dam olish, istirohat) xo'jalik, qo'riqxona hududlari va boshq.) kiradi.

Tabiiy resurslarni tabiiy va iqtisodiy jihatdan klassifkatsiyalash ulardan turli maqsadlarda foydalanish yoki ularning muqobillarini topish imkonini beradi. Tabiatdan oqilona foydalanish va ularning ayrim turlarini saqlash yo'llarini ko'rsatadi.

6. Tabiiy resurslardan foydalanish turlarining o'zaro aloqadorligiga qarab quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

- bir maqsad yo'lida ishlatiladigan tabiiy resurslar;
- ko'p maqsadli tabiiy resurslar. Bularga: suv va yer resurslari kiradi.

7. Tabiiy resurslarning boshqa guruhlarini ham ajratib ko'rsatish mumkin. Bunga xo'jalikdagi ahamiyati va zahiralarining katta kichikligiga qarab tabiiy resurslarning quyidagi shartli guruhlari kiradi:

- ✓ o'ta yirik (davlat ahamiyatiga ega);
- ✓ yirik (tumanlararo va mintaqaviy ahamiyatga ega);
- ✓ uncha katta bo'lmagan (mahalliy ahamiyatga ega).

Yuqoridagilar bilan birgalikda tabiiy resurslarning tabiiy xususiyatlarini va xo'jalikdagi ahamiyatini hisobga olgan xususiy klassifikatsiyalari ham ishlab chiqilgan. Ularga misol sifatida meliorativ klassifikatsiyani, daryolarning oqimini tartiblash darajasiga ko'ra guruhlari va boshqa klassifikatsiyalarni keltirish mumkin.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida tabiiy xom-ashyolar bilan savdo qilish harakterini tavsiflovchi klassifikatsiyalardan ham foydalaniladi. Bular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- strategik ahamiyatga ega bo'lgan resurslar. Bular bilan savdo aloqalarining yo'lga qo'yilishi mamlakatning mudofaa qudratini susayishiga olib keladi (uran rudalari va boshqa radiaktiv rudalar);
- eksport ahamiyatiga ega va valyuta tushumlarini ta'minlaydigan resurslar (neft, olmos, oltin va boshq.).
- ichki bozor resurslari. Ular keng tarqalganligi bilan tavsiflanadi (masalan, mineral qurilish xomashyolari).

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, tabiiy resurslarni klassifikatsiyalashdan foydalanish ularning turli guruhlari, genetik tavsifi, xo'jalikda foydalanish imkoniyatlari, o'rganilganlik darajasi va ulardan oqilona foydalanish hamda saqlash yo'llarini topish imkonini beradi. Masalan, ishlab chiqarish jarayoniga tiklanmaydigan resurslarni jalb etishda ulardan oqilona foydalanish, to'liq va majmuali qayta ishlashga e'tiborni qaratish kerak bo'ladi. Tiklanadigan resurslardan foydalanishda esa ifloslanishning turli yo'llarini oldini olishga va har tomonlama qayta tiklashga e'tiborni kuchaytirish zarur.

Iqtisodiyotda baholash termini falsafiy kategoriya bo'lgan "qiymat" tushunchasi bilan bir qatorga qo'yiladi. Qiymat obyekt ahamiyatining qay darajada ekanligini aks ettiradi va bu inson ehtiyojlarini qondirishi hamda obyektning shaxsiy xususiyatlari bilan belgilanadi. Tabiiy resurslarni baholash umumfalsafiy yondashuvlardan kelib chiqib, resurslarga xos xususiyatlarni insonlar ilgari surgan qiymat mezonlari bilan taqqoslashni nazarda tutadi. Inson ehtiyojlarining turlariga qarab qiymat moddiy, ijtimoiy-siyosiy, estetik va boshqa turda bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy baholash – iqtisodiy ko'rsatkichlarda ifodalangan ishlab chiqarish va iste'mol orqali ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladigan tabiiy resurslarning foydaliligini aniqlash;

Noiqtisodiy baholash – tabiiy resurslarning iqtisodiy ko'rsatkichlarda ifodalanmagan ekologik, estetik, madaniy va boshqa qiymatini aniqlash

hisoblanadi. Noiqtisodiy baholash orasida texnologik (ishlab chiqarish) baholashni ham alohida ko'rsatish mumkin. Chunki, u bir turdagi iqtisodiy resurslar ichidagi tabiiy farqlarni ajratishni aniqlashga mo'ljallanadi (masalan, neft va ko'mir turlari).

Baholash variantlari uning turli ko'rsatkichlaridan foydalanishni talab etadi, bular quyidagilarda ko'rinadi:

- natural (tonna, kub metr, gektar va x.k.);
- ballarda (bu ko'rsatkich orqali resurs manbalarini nisbiy hajmini va ularning xo'jalikdagi ahamiyatini baholash mumkin bo'ladi);
- baholi (pul ko'rinishidagi baholash resurslarning bozor narxini aniqlashda, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlarni to'lashda va iqtisodiy zararni aniqlashda foydalanish mumkin).

**Nazot savollari:**

1. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabat deganda nimani tushunasiz?
2. Tabiiy resurs nima?
3. Tabiat resurslaridan foydalanish me'yori deganda nimani tushunasiz?
4. Qanday tabiiy resurslarni bilasiz?
5. Energetik tabiiy resurslarga nimalar kiradi?
6. Tabiiy resurslar nima uchun iqtisodiy jihatdan baholanadi?
7. Madaniy yoki antropogen landshaftlar deganda nimani tushunasiz?

## 7-BOB.IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYANI RIVOJLANISHINING HOZIRGI BOSQICHI

Reja:

7.1. Hududiy mehnat taqsimoti xaqida tushuncha.

7.2.Geografik mehnat tasimotining omillari.

7.3. Hududiy mehnat taqsimotining bosqichlari.

7.4. Iqtisodiy rayonlashtirish va hududiy mehnat taqsimoti.

7.5. Yangi sharoitda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish.

7.6. Bozor iqtisodiyoti va davlat.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bevosita hududiy mehnat taqsimoti bilan bog'liq. Ammo hududiy mehnat taqsimoti asosan ishlab chiqarishning hududiy tarkibini bnldiradi va shu sababli u aholi va mehnat resurslarini o'z ichiga olmaydi. Aholining joylanishi esa ko'p hollarda ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilish bilan belgilanadi.

Maxsus adabiyotlarda hududiy mehnat taqsimoti bilan bir qatorda geografik, regional (mintaqaviy), akvatorial mehnat taqsimoti kabi turdosh tushunchalar uchrab turadi. Albatta, ular o'rtasida jiddiy farq yo'q, faqat akvatorial mehnat taqsimoti Yer sharining quruqlik qismida emas, balki uning okean va dengizlarida ishlab chiqarishning rivojlanishi, ixtisoslashuvini anglatadi (akva —suv demakdir).

Hududiy mehnat taqsimoti yoki ishlab chiqarishni hudud bo'ylab joylashtirish o'z mohiyatiga ko'ra,iqtisodiy geografik jarayon hisoblanadi. Chunki iqtisod hudud doirasida taqsimlanadi. Buning natijasida ishlab chiqarish kuchlarining hududiy tarkibi yoki tizimi (sistemasi), iqtisodiy rayonlar to'ri vujudga keladi. Ulariing o'zaro hududiy munosabati va joylanish holati iqtisodiy geografik vaziyatni ifodalaydi.

Hududiy mehnat taqsimoti ijtimoiy mehnat taqsimotining bir tomonidir. Ammo, u iqtisodiy mehnat taqsimotidan biroz keyinroq vujudga kelgan. Sababi avvallari kishilar tabiatda mavjud imkoniyatlardan foydalanganlar, o'zlarining u yoki bu joyda ma'lum mahsulotni yetishtirishlari esa tarixan kechroq paydo bo'ldi.

Demak, hududiy mehnat taqsimoti (HMT), soddaroq qilib aytganda, turli joylarning – mamlakat yoki rayonlarning turli mahsulot ishlab chiqarishga

ixtisoslashuvidir. Natijada ana shu joylarning iqtisodiy «basharasi» shakllanadi va ularning kattaroq hududiy tizimdagi o'rni o'z aksini topadi.

Agar kengroq qilib ta'riflamoqchi bo'lsak, HMT— bu ishlab chiqarish tarmoqlarini hududning tabiiy sharoiti va boyliklari, aholi va mehnat resurslari kabi omillariga qarab joylashtirishdir. Bundan kelib chiqadiki, HMTga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular:

- Tabiiy sharoit va qazilma boyliklar;
- Aholi va mehnat resurslari;
- Transport;
- Ijtimoiy infrastruktura;
- Ekologik vaziyat;
- Iqtisodiy geografik o'rin;
- Bozor manfaatlari va h.k.

Ayni vaqtda, ana shu va shunga o'xshash omillar ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda ham hisobga olinadi. Binobarin, bu masala keyinroq muffasal o'rganiladi. Bu yerda faqat bir omilga to'xtab o'tish joiz. Gap shundaki, avvallari, ya'ni «Sotsialistik rejalashtirish» davrida eng asosiy omil o'ta markazlashgan davlat, ya'ni Butunittifoq manfaatlari» edi; qolgan sharoitlarning qulaylik yoki noqulayliklaridan qat'iy nazar, agar davlat, Ittifoq uchun qaysi bir mahsulot zarur bo'lsa, u albatta yetishtirilishi shart edi. Masalan, O'zbekistonda paxtadan tashqari boshqa qishloq xo'jalik tarmoari (bog'dorchilik, uzumchilik, polizchilikni ham rivojlantirish mumkin edi, ammo Ittifoq, markaz sanoati uchun paxta kerakligi tufayli bu yerda xo'jalikning tor sohasi, xomashyoga yo'naltirilgan tizimi shakllandi.

Hozirgi bozor munosabatlari davrida vaziyat butunlay o'zgardi; endigi sharoitda yetakchi omil bozorning o'zi, talab bo'lib qoldi. qolgan omillarning ta'siri esa bunga nisbatan sustroq. Chunki, nimaga ixtisoslashuv, nima

yetishtirishni davlat emas, bozor belgilaydi, davlat esa, ilgari aytganimizdek, bu jarayonni u yoki bu vositalar yordamida tartibga solib boradi,

HMT uchun yetishtirilgan mahsulot mahalliy ehtiyojni qondirgan holda albatta bozorga, almashuvga chiqarilishi kerak. Bundan ayon bo'ladiki, mazkur jarayonning asosida ishlab chiqarishning nafaqat mujassamlashuvi (kontsentratsiyasi), balki uning ixtisoslashuvi ham yotadi. Ixtisoslashuv esa mahsulotnish chetga yuborilishi bilan belgilanadi. Shu bois, bu yerda ishlab chiqarilgan mahsulotning ortiqcha qismi boshqa yerga (mamlakat yoki rayonga) yo'nalishi lozim; mahsulotning shu joyning o'zida to'la, batamom iste'mol qilinishi ixtisoslashuv, HMT emas, bu oddiy natural xo'jalikdir. Bunday davlatlar jahon xo'jalik tizimiga kira olmaydilar, milliy iqtisodiyoti zaifligi sababli ular jahon bozorida ishtirok eta olmaydilar va doimo «sudraluvchi» bo'lib qolaveradilar. Agar mamlakat ichida shunday mintaqalar mavjud bo'lsa, u xolda uning yagona geoiqtisodiy tizimi vujudga kelmaydi, iqtisodiy xavfsizlik ta'minlanmaydi; xo'jalikning Hududiy tarkibi shakllanmaganligi, xomligi natijasida ichki iqtisodiy integratsiya jarayonlari rivojlanmaydi.

HMTning rivojlanishida transportning roli katta. Chunki transport mahsulot ishlab chiqarilgan joy bilan uni iste'mol qiladigan rayon o'rtasidagi aloqadorlikni bajaradi, transport xarakati esa mahsulotning iste'mol rayonidagi qiymatiga kiradi.

HMTda bir necha bosqich yoki daraja mavjud. Chunonchi, sobiq Ittifoq davrida ular quyidagilar edi:

- xalqaro yoki mamlakatlararo mehnat taqsimoti;
- sotsialistik yoki kapitalistik mamlakatlar orasidagi mehnat taqsimoti;
- butunittifoq mehnat taqsimoti;
- yirik iqtisodiy rayonlar doirasidagi mehnat taqsimoti;
- respublikalar ichidagi mehnat taqsimoti.

Bu yerda ta'kidlash kerakki, ilgarigi tizimda oxirgi ikki bosqichda hududiy mehnat taqsimoti amalda yo'q edi. Masalan, O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni mamlakatga, asosan, paxta yetishtirib berardi. O'zbekiston ichida esa bu taqsimot yanada zaif edi.

Sobiq Ittifoqning parchalanishi natijasida hududiy mehnat taqsimotining vertikal shaklida keskin o'zgarishlar yuz berdi: ilgarigi ittifoqdosh respublikalar endigi mustaqil davlatlar, jumladan, O'zbekiston jahon hamjamiyatining alohida subyekti sifatida bu taqsimotning birinchi bosqichidan joy oldi, ya'ni beshinchi o'rindan birdaniga birinchi o'ringa ko'tarildi. Albatta, bunday «sakrash» oqibatida anchagina muammolar yuzaga keldi. Agar bu muammoni sobiq O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni darajasida ko'rmoqchi bo'lsak, hozirgi kunda qo'shni respublikalar o'rtasida iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlantirish, yagona iqtisodiy makonni shakllantirish juda qiyin bo'lib qoldi. Buning sabablaridan biri barcha respublikalarning asosan bir xil mahsulot, ya'ni paxta yetishtirishidir.

Xuddi shunday vaziyat respublikamiz ichida yanada yaqqolroq ko'rinadi. Binobarin, milliy iqtisodiyotning biryoqlama, paxta yakka hokimligiga, yo'naltirilgan tizimining o'rniga turli tarmoqlarga ixtisoslashgan xo'jalik tarkibini vujudga keltirish zarur. Sobiq Ittifoqdan meros qolgan hududning tor ixtisoslashuvi ayrim viloyatlarda, masalan, Sirdaryo, Jizzax, Namangan, Surxondaryo, Xorazmda tamomila o'zgartirilganicha yo'q. Shu bois, mamlaktimizda ichki — mintaqalar va viloyatlar va xatto viloyat doirasida mehnat taqsimotini chuqurlashtirish lozim.

HMT ixtisoslashuvga, bir joyning ikkinchi joydan xo'jalik yo'nalishi bo'yicha farq qilishiga, hududiy rang-baranglikka olib keladi. Bu esa iqtisodiy rayonlarning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Demak, hududiy mehnat taqsimoti → ixtisoslashuv → iqtisodiy rayonlar o'rtasida zanjirsimon aloqadorlik mavjud.

Ta’kidlash zarurki, HMT mintaqalarning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga yordam beradi. Ammo, shu bilan birga hududlarga iqtisodiy aloqalar ham kerak. Zero, hududlarning xo’jalik ixtisoslashuvi bo’yicha turlanishi ular o’rtasidagi iqtisodiy aloqalarni taqozo etadi.

HMT va integratsiya natijasida turli miqyosdagi bozorlar vujudga keladi. Ular mahalliy, mintaqaviy, mintaqalararo, milliy va xalqaro darajada bo’ladi. Mamlakatlar doirasidagi bozorlar esa amaldagi iqtisodiy rayonlar chegarasini belgilaydi, chunki xar bir bosqichdagi bozor o’zining ta’sir doirasiga, makoniga ega. Nemis omili A. Lyosh ham o’z vaqtida iqtisodiy landshaftlar (rayonlar)ni bozorlar makoni, ta’sir radiusi yoki hududi bilan aniqlangan edi, hozirgi kunda esa ixtisoslashgan tarmoqlarni bozorga ixtisoslashgan tarmoqlar, deb ham aytishadi.

Har bir mamlakat milliy iqtisodiytining barkamolligi, mustahkamligi bosqichma-bosqich turli darajadagi bozorlarni o’z mahsuloti bilan to’yintirilishi, import mahsulotlarining o’rinini qoplovchi imkoniyatlarni yaratish negizida amalga oshiriladi. Xuddi shu maqsadda xalq iste’mol mollarini ko’proq yetishtirish ayni muddaodir.

Hozirgi davrning eng muhim muammolaridan biri – bu respublika ichida hududiy mehnat taqsimotini rivojlantirish, iqtisodiy rayonlar va viloyatlar xo’jalik tizimini shakllantirishdan iboratdir. Bu o’rinda barcha hududlarning faqat yoki, asosan, paxtachilikka ixtisoslashuvi aslo shart emas; u bilan birga xo’jalikning yana boshqa sohalari ham rivojlanishi zarur, Masalan, Farg’ona iqtisodiy rayonida (paxtachilikdan tashqari) pillachilik, bog’dorchilik, to’qimchilik va mashinasozlik (avtomobilsozlik), Qashqadaryoda —neft va gaz sanoati, Qoraqalpog’istonda — kimyo rivojlanishi va h.k. Ana shundagina mintaqalar mamlakat tashqarisidagi bozorlarga chiqish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Bu esa ochiq, erkin iqtisodiyot, bozor munosabatlariga mos keladi, iqtisodiyotni yanada liberallashtirishga sharoit yaratadi.

Jahon tajribasi shuni ko’rsatadiki, mamlakatlarning alohida, «berk», ya’ni eksport — importsiz rivojlanishi yaxshi iqtisodiy natijalar bermaydi. Shuning uchun ilg’or mamlakatlarda ochiq savdo, ya’ni fritreder prinsipi mavjud. Bizning mustaqil mamlakatimiz ham xalqaro geografik mehnat taqsimotida, jahon bozori va xo’jalik tizimida o’ziga munosib va nufuzli o’ringa ega bo’lishi kerak. Respublikaning bunday faolligi esa mintaqalariqtisodiy rayonlar va viloyatlar salohiyati orqali amalga oshiriladi.

Hududiy mehnat taqsimotining yuqori bosqichida ham jiddiy o’zgarishlar yuz bermoqda. Eng muhimi, jahon xo’jalik tizimi yanada rivojlanib bormoqda. Bunga sabab bu tizimning globallashuvi, mamlakat va regaonalararo mehnat taqsimotining takomillashuvi, iqtisodiy integratsiya jarayonlarining faollashuvi, yirik transmilliy kompaniya va korporatsiyalarning bugun dunyoni o’rgimchakdek o’rab olishi va boshqalardir.

E’tiborga olish joizki, avvallari jahon mamlakatlari u yoki bu mahsulot yetishtirishga moslashgan bo’lsalar (Braziliya – kofe, Kuba – shakar, Mongoliya esa teri, jun), endigi kunda ular mahsulotlarning turli xillariga ixtisoslashishmoqdalar. Ayni vaqtda, yetuk mamlakatlar fan-texnika taraqqiyotining oldingi saflarida borib, zamonaviy, ilmtalab ishlab chiqarish tarmoqlariga, yangi texnologiyalarga ixtisoslashib bormoqdalar. Ulardagi mavjud ishlab chiqarish sohalari boshqa mamlakatlarga ko’chmoqda. Natijada mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi darajasidagi farq, notekis holda kuchaymoqda.

Shu bilan birga, xalqaro miqyosda mamlakatlarning ayrimlari qurol-yaroq ishlab chiqarishga, yana ba’zi birlarining norasmiy ravishda narkobiznesga ixtisoslashuvi ham kuzatilmoqda. Bundan tashqari, xizmat ko’rsatish, xalqaro turizm ham qator mamlakatlarning rivojlangan industriyasiga aylanmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimotining yanada chuqurlashuvi va intensivlashuvi natijasida dunyoning turli qismlarida mamlakatlarning yirik hududiy iqtisodiy birikmalari vujudga kelmoqda. Chunonchi, 1957-yilda shakllangan Yevropa Hamjamiyati yoki Umumiy bozor — hozirda Yevropa Ittifoqi 27 tamamlakatni o'z doirasiga oldi va ular orasida mehnat taqsimoti rivojlanmoqda. Xuddi shunga o'xshash Osiyo —Tinch okeani regioni, Shimoliy Amerikada ham yirik mamlakatlararo iqtisodiy tizimlar paydo bo'lmoqda. Ehtimol, kelajakda ular MDH hududida, jumladan, O'rta Osiyo va Qozog'iston mintaqasida ham shakllanishi mumkin. Buning oqibatida, xalqaro mehnat taqsimotining asosiy subyekti sifatida alohida mamlakatlar emas, balki ko'proq mamlakatlararo iqtisodiy uyushmalar katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Bozor munosabatlari, «bozor» garchi sharqona mazmunga ega bo'lsada, uning hozirgi mohiyati butunlay boshqacha. To'g'ri, bozorlar (bizning an'anaviy tushunchamizga ko'ra) dastavval sharqda vujudga kelgan. Keyinchalik u O'rta Osiyo va Yaqin sharq, so'ngra O'rta dengiz, u orqali Pireney yarim oroliga, ya'ni Ispaniya va Portugaliyaga o'tgan. Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin «bozor» so'zi Atlantika okeanidan o'tib, Janubiy va Markaziy Amerikaga borib yetdi. Ana shunday evolutsiya va geografiyaga ega bo'lgan bozor o'zimizga yangi ma'no kasb etgan holda «qaytib keldi».

Qadim – qadimda ham xalqlarimiz bozorni pul, pul muomalasi bilan uyg'unlashtirishgan. Darhaqiqat, hozirgi kunda bozor, bozor munosabatlari bu pul demakdir. Ammo bugungi sharoitda pul doimo harakatda, muomalada bo'lishi, qo'shimcha qiymat yaratishi, aylanishi kerak («pul pulni topadi», deyishadi).

Demak, pul harakatda bo'lishi shart. Bundan bozor munosabatlarining yana bir hususiyati kelib chiqadi, ya'ni vaqt. Bozor sharoitida vaqtning iqtisodiy qiymati nihoyatda oshadi, davr zichlapadi, intensivlashadi, Munki «vaqting ketdi, naqding ketdi», deb bejiz aytishmagan.

Bozor munosabatlariga allaqachon o'tgan, bu borada boy tajribalarga ega bo'lgan rivojlangan mamlakatlarda vaqtdan samarali foydalanishga katta e'tibor berilmoqda. Yirik korxona yoki korporatsiyalar, firmalar o'zaro iqtisodiy aloqalarida, «oldi-bordi» munosabatlarida so'ralgan, buyurilgan narsani ayni o'z vaqtida yetkazib berish prinsipiga rioya qilishadi. Bu har ikkala tomon uchun ham ahamiyatli hisoblanadi.

Mazkur prinsipni amalga oshirilishi ishlab chiqarishni joylashtirish va tashkil qilishga ham ma'lum darajada ta'sir qiladi. Masalan, buyurilgan narsani o'z vaqtida va faqat kerakli miqdorda yetkazib berilishi katta-katta omborxonalarni zarursiz qilib qo'yadi, transport tizimi va omiliga o'zgartirish kiritadi.

Rivojlangan mamlakatlarda asta — sekin mehnatni ko'p talab qiluvchi, bevosita tabiiy boyliklarni qayta ishlovchi, ekologik jihatdan xavfli korxonalar, turli ta'mirlovchi zavodlar ikkinchi (ko'pincha yangi industrial mamlakatlarga), ulardan esa uchinchi darajali mamlakatlarga ko'chmoqda. Arzon ishchi kuchining borligi an'anaviy sanoat tarmoqlarini o'ziga jalb qilmoqda, rivojlangan («postindustrial») mamlakatlarning iqtisodiyoti esa asosan xizmat ko'rsatish, jumladan turizm iqtisodiyotiga, moliya funksiyalari, qimmatbaxo qog'ozlar va pul bozori kabi yangi omillarga tayanmoqda.

Bozor iqtisodiyotining eng muhimxususiyati talab va taklif, iste'mol va ishlab chiqarish munosabatlaridir. Vaxolanki, avvalgi «sotsialistik planlashtirish» sharoitida bu prinsip aksincha edi. Binobarin, hozirgi kunda talab, iste'mol taklif va ishlab chiqarishga ko'ra ildamroq, oldinda boradi va bu iqtisodiy rivojlanishni harakatga keltiradi.

Aynan, ana shunday sharoitda ishlab chiqarishni ijtimoiy va hududiy tashkil qilish mutlaqo o'zgaradi. Ma'lumki, ilgari mahsulotlarning turi oz, talab ham cheklangan edi. Ishlab chiqariladigai mahsulot muayyan bir andozada (standartda) ko'plab, konveyr usulida yaratilardi. Bu usul jahon miyosida amerikalik sanoatchi

G.Ford nomi bilan «fordizm» deb yuritiladi. U XX asr o'rtalarida «Ford» (F) markali avtomobillarni ko'plab ishlab chiqib, jahon bozorini monopoliya tarzida egallagan edi.

G.G.Ford "Men sizga istagan rangli avtomobil sotishim mumkin. Faqat bitta shartim bor: bu mashina albatta qora rangda bo'lishi kerak", - degan edi, ya'ni Ford firmasi konveyr usulida faqat bir rangli, ya'ni qora mashinalar ishlab chiqargan, talab darajasini inobatga olmagan.

Hozirgi kunda vaziyat butunlay boshqacha: iste'mol mollariga talab xususiylashmoqda (individuallashmoqda) va bu talab vaqt davomida tez-tez o'zgarib turmoqda. Shu bois, endiga sharoitda yoppasiga konveyr usulida bir tur va qo'rinishdagi mahsulot keraksiz bo'lib qoldi. Bunday holat jahon adabiyotida «postfordizm» deb yuritilmoqda.

Shunday qilib, avvallari «miqdor», «miqyos» iqtisodi bo'lsa, bugungi qunda "sifat", "turfa xillik" iqtisodi oldinga chiqmoqda. Demak, xo'jalik tizimini, majmuasini turliyo'nalishlar bilan boyitish, diversifikatsiya jarayonini rivojlantirganlar yutadi. Faqat bir turdagi mahsulotni ko'plab miqdorda ishlab chiqargandarning bozori «kasod» bo'lmoqda.

Biz yuqorida bozor munosabatlariga xos xususiyatlardan pul, vaqt, talab va taklif to'g'risida aytib o'gdik. Lekin bularning barchasi ham bozor iqtisodiyotining tub mohiyatini to'laligicha ifodalamaydi. Sabab bu yerda raqobat, raqobat muhiti yetishmayapti. Mahsulot arzon, sifatli, ko'rimli, xaridorgir bo'lishi uchun ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat zarur. Biroq, bu raqobat erkin, sog'lom, madaniy bo'lishi talab etiladi.

Raqobat uchun mulkchilik turli shaklda bo'lishi, erkin va ochiq iqtisodiyot yuritish lozim. Binobarin, o'tish davrida xususiyalashtirish va nodavlat sektorini rivojlantirishga ahamiyat beriladi. Bu davrda eng avval savdo, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari, qishloq xo'jaligi, yengil va oziq-ovqat, qurilish materiallari

sanoati osonroq «nodavlatlashadi». Shuning uchun bo'lsa kerak, hozirgi vaqtda ko'proq tog'-kon, yoqilg'i-energetika sanoat tarmoqlariga ixtisoslashgan viloyatlarda (Navoiy, Qashqadaryo, Toshkent) xususiylashtirish darajasi past. Ayni chog'da agrosanoat majmui rivojlangan hududlarda (Sirdaryo, Xorazm, Namangan va h.k.) bu jarayon tezlik bilan amalga oshmoqda.

Mulkchilikning turli shakllariga keng yo'l ochish, iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish maqsadida davlat antimonopol, ya'ni monopoliyaga qarshi siyosat olib boradi. Shu bilan birga, u ilgarigidek ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishni qat'iy rejalashtirmaydi (chunki, endi barcha mulk uniki emas), balki tartibga solib boradi. Ammo bu tizimga bosqichma-bosqich o'tib boriladi. Zero, buning uchun moddiy, ma'naviy, huquqiy shart-haroitlar muhayyo bo'lishi shart.

O'tish davri prinsiplaridan birida davlatning asosiy islohotchi, tashkilotchi kuch sifatida saqlanib qolishi qayd etilgan. Darhaqiqat, davlatning bunday vazifasi qolaveradi, faqat uning amalga oshirilish yo'llari biroz o'zgaradi. Davlat o'z tasarrufida bo'lgan sohalarga bevosita, qolganlariga esa bilvosita, ya'ni moliya-kredit, soliq, narx-navo siyosati orqali ta'sir qiladi. Demak, «joylashtirish», «hududiy tashkil qilish» tushunchalarining qat'iyligi ancha yo'qoladi, chunki endi hamma korxonalarni ham davlat rejalashtirmaydi. Binobarin, hozirgi sharoitda joylashtirish, hududiy tashkil qilishning «egasi», subyekti nafaqat davlat, balki aloxida jismoniy shaxs, oila, jamoa, kichik va o'rta tadbirkorlar hisoblanadi.

O'tish davrida rivojlanayotgan mamalakatlarda erkin iqtisodiy mintaqalarni (EIM) yaratishga katta e'tibor beriladi. Ularning ham shakli va turi ko'p: EIMlar bevosita sanoat ishlab chiqarishiga, eksport-import jarayoniga, xizmat ko'rsatish, savdo-sotiqqa (ofshor) ixtisoslashgan bo'lishi mumkin.

EIMlarni tashkil qilishda, avvalambor, qulay iqtisodiy geografik o'rin, infrastruktura tizimi, transportning rivojlanganligi hamda solig', bojxona

sohasidagi yengilliklar, imtiyozlar talab etiladi. O’z navbatida yaratilgan EIMlar milliy va mintaqaviy iqtisodiyotga katta ta’sir ko’rsatadi, ishlab chiqarishni joylashtirishga, hududlar rivojlanishini jonlantirishga ko’mak beradi, yangi texnologiyalarni kiritishda nihoyatda ahamiyatli bo’ladi.

O’tish davrida ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishda chet el sarmoyalarini, firmalarni jalb etish ham muhim. Buning uchun qulay investitsiya muhiti yaratilishi, xorijiy investorlarni qiziqtiruvchi shart — sharoitlar muhayyo bo’lishi zarur. Ikkala tomon uchun manfaatli bo’lgan qo’shma korxonalarni qurish esa mintaqa va milliy iqtisodiyotni mustahkamlashda, jahon bozoriga chiqishda katta ahamiyatga ega.

Mavjud jahon tajribasi ko’rsatadiki, o’tish davrida yengil, xususan, to’qimachilik sanoatini ustuvor darajada rivojlantirish yaxshi natija beradi. Sababi ushbu sanoat korxonasini qurishda, asbob-uskunalar uchun katta mablag’ talab qilinmaydi, mahsuloti esa barchaga va hamma vaqt kerak, pul oboroti (aylanishi) esa tez kechadi. Biroq shunday bo’lsada to’qimachilmk sanoatiga urg’u berish asosida barqaror iqtisodiyotni shakllantirish ancha vaqtni o’z ichiga oladi. Shuning uchun, bunday an’anaviy yo’lni «evolutsion yo’l» deb atash mumkin.

Shu bilan birga mashinasozlik sanoatini ham o’tish davri iqtisodiyotini shakllantirishda ahamiyati katta. Bu garchi «revolutsion» yo’l bo’lsada, u biroz tavakkalli va kafolatsizdir. Uning muvaffaqiyati uchun tegishli shart-sharoit, qulay raqobat makoni bo’lishi zarur.

O’tish davrida ko’pchilik hollarda «kichik» daraja ma’qul: kichik korxona, kichik tadbirkor, kichik shahar va h.k. Chindan ham kichik korxonalar harakatchan, ixcham, kasod bo’lgan tarzda ularning yo’nalishini (ixtisoslashuvini) osonlikcha o’zgartirish mumkin. Bunday korxonalarni boshqarish ham oson. Biroq, kichik korxonalar mahsuloti asosan mahalliy bozorni to’ldiradi, to’yintiradi, ularni mintaqaviy va xalqaro bozolardagi raqobatbardoshligi pastroq. Shu nuqtai

nazardan qaraganda, keyinchalik, xo'jalik tarmog'ining xususiyatidan kelib chiqqan holda, kattaroq korxona va tashkilotlarni qurish ham maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, yirik korxonalarda hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatlari kengroq, qolaversa, mamlakat milliy iqtisodiyotini, qudratini behisob mayda korxonalar emas, balki zamonaviy yirik korxona va korporatsiyalar belgilaydi.

Ma'ruzamizning yakunida yana bir holatni ta'kidlashimiz joiz. Bu ham bo'lsa, o'tish davrida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlanshtirishdagi hududiy tafovutlarni saqlab qolinishi va xatto kuchayishidir. Chunki, raqobat faqat mulk egalari, xo'jalik tarmoqlari o'rtasidagana emas, balki hududlar orasida ham mavjud bo'ladi (ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishida). Shuningdek, bu davrda hududlar xo'jaliganing individuallashuvi, mustaqilligining kuchayishi natijasida rayonlararo iqtisodiy integratsiya jarayonlari biroz zaiflashadi. Shu bois, hududlar orasidagi xo'jalik aloqalarini rivojlantirish mamlakatning geosiyosiy va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydi.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Hududiy mehnat taqsimoti nima?
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida hududiy mehnat taqsimoti qanday amalga oshiriladi?
3. Hududiy mehnat taqsimotining iqtisodiy rayonlashtirish bilan qanday aloqasi mavjud?
4. O'zingaz yashayotgan viloyatning respublika mehnat taqsimotidagi o'rnini ta'riflab bering.
5. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgi va shartlari nimalardan iborat?
6. «Bozor»ning an'anaviy sharqona va hozirgi zamon moxiyatini tushuntirib bering.
7. Raqobat uchun qanday shart – sharoitlar kerak?

8. Bozor munosabatlari ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishga qanday ta’sir ko’rsatadi?
9. Hududiy mehnat taqsimotini SWOT-tahlil usulida yoritib bering.
10. Xo’jalik yuritishning turlarini klasterga joylang.

## 8- BOB. TARIXIY GEOGRAFIYA

Reja:

8.1. Qadimgi yoki antik davrda geografik qarashlar.

8.2. O‘rta asrlar geografiyasi.

8.3. Buyuk geografik kashfiyotlar davri.

8.4. “Geografiya” fanining rivojlanishidagi yangi davr.

8.5. Eng yangi davr geografiyasining asosiy xususiyatlari.

Geografiya tarixi ko‘proq fanning shakllanishi va rivojlanishini, ya’ni faqat fanga tegishli g‘oyalar ketma-ketligini o‘rgansa, tarixiy geografiya muayyan bir davrdagi geografik qarashlar va g‘oyalarni tadqiq etadi. Tarixiy geografik asarlarda davrlarga ajratish turli olimlar tomonidan turlicha amalga oshirilgan. Ushbu adabiyotda u besh davrga ajratib o‘rganildi. Bular, qadimgi yoki antik davr, o‘rta asrlar, buyuk geografik kashfiyotlar, yangi hamda eng yangi davrlar deb nomlandi.

**Qadimgi yoki antik davr.** Bu davr (mil.avv. VII asrdan milodiy V asrga qadar) geografiya fanining shakllanish paytiga to‘g‘ri keladi. Misr, Yunoniston, Xitoy, Hindistonda geografik g‘oyalar paydo bo‘lgan. Masalan, Yerning shar shaklda ekanligi g‘oyasini dastlab Fales mil.avv. VII asrda aytgan bo‘lsa, shu fikrga Pifagor va uning shogirdlari (mil.avv. VI-V asrlar), Aristotel (mil.avv. IV asr), Eratosfen (mil.avv. 275-195-yillar) va boshqalar qo‘shilgan. Suriyalik Posidaniy (mil.avv. II-I asr) yerning sharsimonligiga asoslanib, geografik zonallik g‘oyasini aytgan va 9 ta iqlim mintaqaga (zona) ajratgan (hozir 13 taga ajratiladi).

Keyinroq Strabon (mil.avv. II-I asr) sharsimon yerda beshta mintaqa yoki zona bor deb hisoblab, quyidagilarni yozib qoldirgan: “Yerda beshta zonalar farqlanadi. O‘rtadagi zona eng issiq, chetdagilari esa juda sovuq (bularda yashab bo‘lmaydi). Qolgan ikki oraliq zonalarda insonlar yashaydi va bu zonada yil fasllari bir xil taqsimlanadi”.

Yer sharida quruqlik ko‘pmi (Ptolemey) yoki suv ko‘pmi (Gomer, Strabon) degan g‘oya ham XIX asrning boshlariga qadar yechilmay keldi. “Janubiy Yer”ni izlash 1820-yilda Antarktidani kashf etish bilan yakunlandi va suvning ko‘pligi isbotlandi. Yer yuzasining o‘zgarib turishi haqidagi g‘oya Garaklit (mil.avv. 530-470-yillar) davridan to XIX asrning boshlariga qadar mavhum bo‘lib keldi. Bu masalani 1912-yilda A.Vegener “Materiklar siljishi” asarida ilmiy asoslab berdi.

Yer yuzasining mukammalroq kartasini Ptolemey (90-168-y.) tuzgan edi. Uni Strabon tasdiqlab, shunday degan: “Yerning odam yashaydigan qismi oroldir, buni bizning sezgimiz va tajribamiz isbotlamoqda. Odam qadami yetib borgan hamma chekka joylarda, dengiz borki, biz ularni okean deb ataymiz”.

Miloddan oldingi IV-III ming yillikdan to milodning V asriga qadar Atlantika okeanidan Tinch okeanigacha bo‘lgan mintaqada o‘z davrining yirik quldorlik davlatlari shakllandi. Rim imperiyasida 50 mln., Hindiston va Xitoyda 40-50 mln. dan aholi yashagan. Dastlabki davlatlar bilan bir qatorda, davlat tuzilishining ikki shakli: monarxiya (qadimgi Misr, Vavilon, Ossuriya, Eron va Rim imperiyasi) va respublika (Finikiya, Gretsiya shahar davlatlari) yuzaga keldi. Ayni vaqtda, quldorlik mintaqasidan tashqari yirik hududlarda turli qabila va xalqlar yashagan. Milodning I asrida xalqlar va qabilalarning Buyuk ko‘chishi yirik quldorlik davlatlarini siyosiy jihatdan talvasaga soldi. V asrda Rim imperiyasi quladi va quldorlik tuzumi barbod bo‘ldi.

**O‘rta asrlar geografiyasi.** O‘rta asrlarda normanlar (“Shimol odamlari”) Skandinaviyadan Oq, O‘rta, Qora dengiz bo‘ylari va Islandiyani o‘z koloniyasiga

aylantiradi, Grenlandiyaga ko‘chib boradilar. Ulardan ota-bola Erik Raunda Rijiy Shimoliy Amerikani (982-yilda), “O‘rmon mamlakatini”, janubroqda “Vina mamlakatini” (40°-45° kengliklarga qadar) kashf etishadi. Arablar 711-yilda Pireney yarimoroligacha, Hind okeani bo‘ylab Madagaskar oroligacha, Osiyoning janubidan aylanib o‘tib, Xitoygacha suzib borishgan. Yevropaliklardan birinchi bo‘lib Marko Polo (oilasi bilan) Xitoy, Mongoliya, Janubiy Osiyo, Old Osiyo bo‘ylab 45 yil sayohat qilib, 1299-yilda Venetsiyaga qaytib boradi.

Buyuk ipak yo‘lining geografiya fanining rivojlanishida ma’lum darajada hissasi bor. Olimlarning hisoblariga qaraganda, Ipak yo‘li mil.avv. II asrdan boshlab tarmoqlanib ketgan. Ipak yo‘li tarmoqlari cho‘l-u biyobonlardan, baland qorli tog‘ dovonlaridan o‘tganligi bois, yo‘lning qishki va yozgi variantlari bo‘lgan. Yevropadan arzon dengiz yo‘lining ochilishi munosabati bilan XVI asrdan boshlab ipak yo‘li o‘z ahamiyatini yo‘qota boshlagan.

O‘rta asrlar davrida yashab, ijod etgan buyuk allomalarimizdan M.Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy kabi vatandoshlarimizning jahon madaniyati va faniga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Ularning ilmiy geografik merosi haqida H.Hasanov o‘zining “Sayyoh olimlar” asarida to‘xtalib o‘tadi. Arifmetikaning asoschisi M.Xorazmiy o‘lkamiz geografiyasining ham asoschisi hisoblanadi. Uning “Yer tasviri” nomli asari geografiyaning etimologik ma’nosiga to‘g‘ri keladi. Unda geografik obyektlar: shahar va qishloqlar, daryo va ko‘llar, dengizlar, aholi va ularning mashg‘uloti haqida ma’lumot beradi. U Turkiston o‘lkasida ilk bor Fanlar akademiyasini tashkil etgan, atlas tuzgan buyuk alloma hamdir.

Beruniy birinchi bo‘lib shimoliy yarimsharlarning bahaybat (diametri 5 m) globusini yasadi, mineralogiya va geodeziya kabi fanlarga asos soldi. Daryolarning, umuman suv oqimining geologik (gidrogeologik) ishini tahlil qilib, qonuniyat yaratdi. Keyinchalik u “Beruniy qonuni” deb ataladigan bo‘ldi. Uning

mohiyati – suv oqimi tashiyotgan yotqiziqning massasi uning tezligiga to‘g‘ri proporsionaldir.

Ibn Sino ham tibbiyot ilmining asoschisi bo‘lishi bilan bir qatorda, geografiya fanining rivojiga munosib hissa qo‘shdi. “Tib qonunlari” kitobining “Tabiat” bobida geografik ma’lumotlar, qimmatbaho toshlar, o‘lka iqlimi, tabiati haqida qiziqarli fikrlar aytilgan.

**Buyuk geografik kashfiyotlar davri**ning geografiya fani rivojlanishida muhim o‘rinni egallaganini alohida ta’kidlash lozim. Bu davrda (XV asrning oxiri va XVII asrning birinchi yarmi) misli ko‘rilmagan geografik o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bularga X.Kolumbning Markaziy Amerika, Janubiy Amerika sohillariga qilgan sayohatlari (1492-1504-yy.), portugaliyadan Vasko da Gamaning Hindistonga (Kalkutta shahri, 1497-1498-yy.), F.Magellanning Dunyo okeani bo‘ylab sayohati (1519-1522) kabilarni e’tirof etish joiz. Sayohatchilarning asosiy maqsadi bitta bo‘lgan: dengiz yo‘li orqali dunyoning eng boy va ko‘rkam joyi – Janubiy Osiyo (Hindiston, Indoneziya)ga borish.

Bu bosqich Yevropada V asrdan XVII asrga qadar davom etdi, 1500-yilga kelib Yer shari aholisining soni 400-500 mln. kishiga yetdi. Buning 3/4 qismi Osiyo qit’asiga to‘g‘ri kelar edi. Shahar hayoti bo‘yicha Osiyo Yevropadan o‘zib ketdi. Ammo Yevropada uzoq davom etgan turg‘unlikdan so‘ng shaharlarhunarmandchilik, savdo, madaniy va siyosiy markazlar sifatida katta rol o‘ynay boshladi.

Natural xo‘jalik va mehnat taqsimotining pastligi oqibatida siyosiy karta mayda-mayda bo‘laklardan iborat edi (birgina Germaniya hududida 300 dan ortiq kichik davlatlar bo‘lgan). Ichki bozorning shakllanishi, xalqlar o‘rtasida etnik konsolidatsiyaning kuchayishi bilan yirik markazlashgan, mutloq monarxiya tipidagi davlatlar – Fransiya, Angliya, Ispaniya, Rus davlati, Hindiston, Xitoy, Temuriylar davlati va boshqalar yuzaga keldi.

Sanoat rivojlanishi bilan bir qatorda, shaharlar tez rivojlandi. Chunonchi, XVII asr boshlarida Londonda 200 ming, Parij va Neapolda 300 mingdan ortiq aholi yashay boshladi. Aholining migratsion harakatlari kuchaydi. Bu jarayonlar Yevropa mamlakatlaridan Angliya, Gollandiya, Fransiyaga, ozroq Italiya, Ispaniya, Germaniyaga xos bo‘lib, Osiyo, Afrika, Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya va Okeaniyada ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyoti past darajada qolaverdi. Natijada, Yevropa jahon xo‘jaligida yetakchi mavqega ega bo‘lib qoldi va bugungi sanoatlashgan qiyofa uchun asos solindi. Yevropaning bu davrda jahon xo‘jaligida yetakchi mavqega ega bo‘lishiga va Buyuk geografik kashfiyotlarda asosiy rol o‘ynashiga quyidagi shart-sharoitlar:

1. Iqtisodiy, ya’ni tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi.
2. Siyosiy, ya’ni yirik markazlashgan davlatlarning shakllanishi.
3. Ijtimoiy – yangi yerlarni ochish va o‘zlashtirish uchun malakali mutaxassislar mavjudligi.
4. Texnik karavellani, kompas va kompas kartalarining yaratilishi.
5. Ilmiy-tabiiy fanlardagi yutuqlar.
6. Tarixiy-geografik, ya’ni turk Usmoniylari tomonidan O‘rta dengiz bo‘yi va Sharqiy Yevropaning bir qismini bosib olinganligi kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Buyuk geografik kashfiyotlar (Amerika – yangi dunyoning kashf etilishi) jahon siyosiy kartasining va jahon xo‘jaligining shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Buyuk geografik kashfiyotlar oqibatida Ispaniya Amerikada, Portugaliya va Gollandiya Osiyoda dastlabki mustamlaka hududlarga ega bo‘ldi. Mustamlakalardan Yevropaga qimmatbaho metallar, shakar, choy va boshqa “mustamlaka mahsulotlari” keltirildi. Asosiy savdo yo‘llari Atlantika va Hind okeanining ichki dengizlaridan o‘tdi. Yevropada Lissabon, Seviliya, Antverpen va Amsterdam kabi yirik port shaharlar yuzaga keldi. Geografik mehnat taqsimoti yanada chuqurlashdi.

Temuriylar davrida Turkiston geografiya fani yozma tavsif uslubida rivojlandi. Ayniqsa Boburning shoh asari “Boburnoma” har qanday maqtovga sazovor. Unda tog‘ va tekisliklar, daryo va ko‘llar, dengizlar, o‘simliklar va hayvonot olami, iqlimi, aholining urf-odatlari, madaniyati, shug‘ullanadigan yumushlari mohirona jonli tavsiflanadi. Boburni – mashhur sayyoh-geograf, haqiqiy alpinist deb atash mumkin. U Hindistonga yurish qilganda, baland qorli tog‘larni oshib o‘tgan. O‘zi yurgan, ko‘rgan va bilganlarni haqqoniy bayon qilgan. Shu asosda H.Hasanov “Bobur tasavvurida Farg‘ona vodiysi” kabi kartalarini bemalol qiynalmasdan chizgan. Temuriylar davrida yashagan Ali Qushchi, M.Qoshg‘ariy, M.Ulug‘bek, A.Samarqandiy singarilarning ijodida geografiya va unga turdosh fanlar to‘g‘risida qiziqarli fikrlar berilgan.

Geografiya fanining rivojlanishidagi yangi davr ikki asr davom etadi (XVIII asr boshlaridan hozirgi paytgacha). Ayniqsa, XVIII-XIX asrlarning tutash qismida kapitalistik ishlab chiqarish tizimining takomillashi bilan bog‘liq kashfiyotlar geografiya fanining taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etdi. Jumladan, 1785-yilda Kartrayt to‘quv stanogini kashf etdi va bu, o‘z navbatida, Angliyaning mustamlakalaridan paxta olib kelishni kuchaytirdi. Angliyada po‘lat eritish 1870-yilga nisbatan yuz barobar oshdi. 1784-yilda Uatt bug‘ bilan ishlaydigan mashinani (Rossiyada 1764-yilda Polzunov) ixtiro etdi, 1803-yilda birinchi paroxod qurildi, 1825-yilda birinchi parovoz ishga tushdi.

Gollandiyalik geograf **Bernxard Varenius** (1622-1650) va buyuk fizik **Isaak Nyuton** (1642-1727) geografiya faniga salmoqli hissa qo‘shgan olimlardan hisoblanadi. B.Varenius mashhur “Umumiy geografiya” darsligini yozgan. I.Nyuton shu darslik bo‘yicha ma’ruzalar o‘qigan va ikki marotaba qayta nashr (1672 va 1681-yy.) ettirgan. Rus tiliga 1718-yilda Pyotr I buyrug‘iga binoan tarjima qilingan. Kitob 3 jild va 40 bobdan iborat bo‘lib, Yer yuzasining

qonuniyatlari, Yerning qattiq, suv va havo qobig‘ini tavsiflaydi. U Yer yuzida uchta – issiq (torrida), sovuq (frigida) va mo‘tadil (temperata) zonani ajratadi.

Rossiyada geografiyaning ravnaq topishiga **V.N.Tatishyev** (1686-1750) bilan **M.V.Lomonosov** ham (1711-1765) munosib hissa qo‘shdilar. Tatishyev rahbarligida Sibir va Rossiyaning geografiyasiga tegishli “Katta chizma kitobi” (1745-y.) nashr etildi. Nyuton dunyoni ilohiy kuch yaratgan deb hisoblagan bo‘lsa, Lomonosov tabiat qonunlari asosida barpo bo‘lgan deb ta’kidlaydi. Lomonosov taklifi bilan Rossiyaning turli qismlariga tegishli atlaslar tuzildi. Uning loyihasiga binoan 1755-yilda birinchi rus universiteti – Moskva Universiteti tashkil topdi.

Nemis faylasufi va geografi **Immanuel Kant** (1724-1804) o‘zining mashhur kosmogonik konsepsiyasini yaratdi. U Kenigsburg universitetida 40 yil davomida geografiya professori hisoblangan. Kant geografiyasida tabiat komponentlari haqida ma’lumot beriladi. Uningcha, odamzod tabiat sirlarini qanday bo‘lsa shundayligicha to‘liq bilishga qodir emas. Odamzod faqat aql-zakovati doirasidagina fikr yurita olishi mumkin. Uning shunday so‘zlari bor: “Siz menga faqat materiyani bering, men undan Sizga butun dunyoni yaratib beraman”. Darhaqaqiqat, u Quyosh sistemasining paydo bo‘lishini (Dekart singari) changsimon tumanliklarning quyuqlashuvidan hosil bo‘ladi degan fikrni avliyolarcha bashorat qilgan edi. Ikkinchidan, u Olam issiqlik (energetik) halokat yoqasiga tabora yaqinlashmoqda degan. Quyosh soviydi, u vaqt kelganda o‘chadi degan fikrlarni aytgan.

Buyuk nemis geograflaridan yana biri **Aleksandr Gumboltdir** (1769-1859). Unga “quruqlik Magellani” deb nisbat berishgan. U Janubiy, Markaziy va Shimoliy Amerika, Yevropa, Rosiya, O‘rta Osiyo (Turkiston), Ol-toy o‘lkalarida bo‘lgan. Botanik Bonplan bilan birgalikda 6000 xil o‘simlik turidan gerbariy to‘plagan. Hozirgi biogeografiya, geomorfologiya, iqlimshunoslik, gidrogeologiya

kabi fanlarga oid qiziqarli ma'lumotlarni bevosita dalada to‘plab, tahlil qildi, umumgeografik xulosalar yaratdi.

**Charlz Darvin** (1809-1882) ham, birinchi navbatda, geograf-sayyoh bo‘lgan. U "Bigl" kemasida 5 yillik dunyo sayohatini o‘tagan. Darvin organik dunyoning evolutsion qonuniyatini yaratdi.

**Karl Ritter** (1779-1859) geografiya tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk shaxslardan biri. Uning asosiy asari "Umumiy yer bilimi" hisoblanadi. U singari birorta olim qiyoslash, hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni tavsiflash, geografik kontsepsiyaning birligi, narsa va hodisalarni mohirona yozishda undan o‘tadigan bo‘lmagan. Osiyo tavsifiga tegishli 5 jildini P.P.Semyonov (Semyonov-Tyanshanskiy) rus tiliga tarjima qilgan bo‘lib, Ritter to‘g‘risida shunday iliq so‘zlarni aytgan: "**Umumiy yer bilimi haqidagi fanlarning o‘lmas siymosi**". Ritterning ikkinchi asari universitet talabalariga mo‘ljallangan "Umumiy yer bilimi" kursi bo‘lgan. Ritterning asosiy g‘oyasi: "Geografiya (ya'ni umumiy yer bilimi) jami yerni o‘rganadi".

**A.Gettner** (1859-1941) singari geografiya fanining sof hududiy (xorologik) mohiyatini uzluksiz targ‘ib etgan tadqiqotchi bo‘lmagan. Lekin u geografiya bilan tarix fanini bir-biriga yaqinlashtirish mutlaq mumkin emas, deb Kant g‘oyasini yoqlab chiqadi.

Fransuz geografi **Eliza Reklyu** (1830-1905) uchta yirik geografik asar yaratgan ("Yer", 1867-y. 6 jildli, "Yer va el", 1876-1895-y. 19 jildli, "**Inson va Yer", 1905-1908-y. 6 jildli).** U "Inson va Yer" asariga epigraf tariqasida quyidagi go‘zal iborani keltirgan: "Geografiya insonga nisbatan makondagi tarixdan bo‘lak narsa emas, tarix esa o‘tmish geografiyasidir". Reklyu "geografik muhit" tushunchasini ko‘p ishlatgan.

Ruslarning dunyo aylanasi bo‘ylab qilgan sayohatini I.F.Kruzenshtern va Y.F.Lisyanskiy ekspeditsiyasi (1803-1806-y.) boshlab berdi. Rus dengizchi

sayyohlaridan O.E.Kotsebu, F.P.Litke, O.S.Makarov, N.N.Mikluxo-Maklay, I.M.Simyonov va boshqalar okean va undagi orollarni o‘rgangan. **1845-yilda birinchi bor Rus geografiya** jamiyati ta’sis etildi. Geografiya jamiyatining “Oltin davri” XIX asrning oxirgi choragiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda N.M.Prjevalskiy, G.N.Potanin, M.V.Pevtsov va boshqalar Markaziy Osiyoni tekshirdilar. Nazariyotchi geograflardan iqlimshunos A.I.Voyekov, geodezist A.A.Tillo, muz davrining tadqiqotchisi P.A.Kropotkin, biogeograf N.A.Seversev, geologlardan I.M.Mushketov va V.A.Obruchevlarni alohida tilga olish joiz.

**D.N.Anuchinning** (1843-1923) Moskva geografiya maktabi 1884-yil Moskva Davlat universitetida shakllandi. Olim kafedrani boshqardi va talabalarga “Umumiy yer bilimi” kursidan saboq berdi. Uningcha, geografiya “Yer yuzasining tabiatini o‘rganishi lozim. U geografiyani ikki qismga: umumiy yer bilimi va o‘lkashunoslikka ajratdi. Birinchisi Yer yuzasidagi tabiiy geografik komponentlar majmuasini, ikkinchisi tabiiy komplekslarni odam bilan birgalikda o‘rganadi.

**V.V.Dokuchayev** (1846-1903) Peterburg maktabi geografiya nazariyoti va amaliyotini rivojlantirdi, tuproqshunoslikka asos soldi. “Tuproq – landshaftning ko‘zgusi”, degan edi olim. Tabiat zonalari haqidagi ta’limotni yaratdi.

XVII asr o‘rtalaridan XIX asr o‘rtalariga qadar bo‘lgan bosqichda Yevropada **“sanoat inqilobi”** davri bo‘lib, manufaktura (qo‘l bilan ishlab chiqarish) bosqichidan fabrika-zavod ishlab chiqarish bosqichiga o‘tayotganligi bilan xarakterlanadi. Yevropa mamlakatlarida industrlashtirish, sanoatning moddiy ishlab chiqarishning bosh sohasiga aylanishi jarayoni boshlandi. Bug‘ mashinasining ixtiro qilinishi esa sanoat va transportda inqilobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.

Yevropada ishlab chiqarish kuchlarining jadal rivojlanishiga sanoat inqilobi g‘oyat kuchli ta’sir etdi. Jahon iqtisodiyotida Yevropa, so‘ngra 1776-yilda tashkil topgan AQSh katta o‘rin tuta boshladi. Angliya jahon mamlakatlari o‘rtasida

sanoat, savdo, moliya va harbiy jihatdan yetakchi mavqega ega bo‘ldi. London jahondagi eng yirik shahar, port va moliya markaziga aylandi. 1870-yilda jahon sanoat ishlab chiqarishning 33,0 foizi Angliya hissasiga, 25,0 foizi esa AQSh hissasiga to‘g‘ri kelar edi. Britaniya umumiy maydoni 22,0 mln.km$^2$ bo‘lgan (Hindiston, Kanada, Avstraliya, Janubiy Amerikada) hududlarni o‘ziga qaratib oldi. Ispaniya esa o‘zining Lotin Amerikasidagi deyarli barcha mustamlakalaridan ajralib qoldi (Lotin Amerikasidagi 1810-1825-yillardagi milliy ozodlik harakati natijasida). Bu holat Angliyani jahon iqtisodiyoti va siyosiy kartasida haddan tashqari katta o‘rin tutishiga olib keldi.

Bu bosqichning bosh iqtisodiy xususiyatlari xo‘jalikning yanada baynalmilallashuvi va xalqaro geografik mehnat taqsimotining chuqurlashuvidir. Xalqaro savdoda mustamlakalar o‘rni quyidagi omillar bilan belgilanar edi:

1. Mustamlakalar tor doiradagi qimmatbaho mahsulotlarni yetkazib berishdan tashqari rivojlangan plantatsiya xo‘jaligi (tropik dehqonchilik) mahsulotlarini yetkazib bera boshladi. “Eski dunyo” dan “Yangi dunyo”ga shakarqamish, kofe, choy, paxta ekinlari o‘tgan bo‘lsa, aksin-cha, u yerdan makkajo‘xori, kartoshka, pomidor, kakao, tamaki ekinlari keltirilgan.

2. Mustamlakalar plantatsiya xo‘jaliklari uchun ishchi kuchi yetkazib berdi. Qul savdosi rivojlandi, bundan Afrika katta zarar ko‘rdi.

3. Mustamlakalar metropoliyalar uchun sanoat mahsulotlari sotadigan bozorga aylandi. Dastlabki ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish konsepsiyalari ham yuzaga keldi. Masalan, nemis iqtisodchisi va iqtisodiy geografi I.Tyunenning (1783-1850) “Qishloq xo‘jaligini joylashtirish” nazariyasi bevosita Germaniya sharoitida bozor munosabatlariga xos yuqori foyda olish bilan bog‘liq dastlabki ilmiy qarashlardan hisoblanadi.

Ichki yonuv dvigatelining ixtiro qilinishi oqibatida transport tarmoqlarida yanada kuchli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Rossiya, AQSh va Kanadada dastlabki

transkontinental temir yo‘llar qurildi. Dengiz transporti kontinentlararo ahamiyat kasb etdi (yelkanli kemalar bug‘ bilan yuradigan kemalar bilan almashdi). Suvaysh va Panama kanallarining qurilishi tufayli okeanlararo yuk tashish yo‘nalishlari shakllandi. Transportning rivojlanishi xalqaro bozorning yanada kengayishiga olib keldi.

XX asr boshlarida jahon mamlakatlarida ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyoti ichki qarama-qarshiliklarga boyligi, iqtisodiy va siyosiy notekislik bilan xarakterlanadi. Bu jarayon, ayniqsa, AQSh uchun xos bo‘lib, XIX asrning 60-yillari oxiridan iqtisodiy yuksalish pallasiga kirdi. 1913-yilda AQShning jahon sanoat ishlab chiqarishidagi hissasi 36,0 foizni tashkil qildi. Bu Angliya, Fransiya, Germaniyaning birgalikdagi ko‘rsatkichidan ham ko‘proq edi. Nyu-York nafaqat jahondagi eng yirik shahar bo‘libgina qolmasdan, London va Parij shaharlarining bir qator funksiyalarini o‘ziga oldi yoki I.A.Vitver fikricha, jahon xo‘jaligi “Yevromarkazdan”, “ikki markazli”likka aylandi.

Yevropada Germaniya (1871-yilgi birlashuvdan so‘ng) iqtisodiy taraqqiyot yo‘liga kirib, Angliyadan o‘tib ketdi. Fransiya va G‘arbiy Yevropadagi boshqa bir qator mamlakatlarda iqtisodiy taraqqiyot nisbatan sekinroq ekanligi bilan tavsiflansa, Sharqiy va Janubiy Yevropa mamlakatlarida iqtisodiy taraqqiyot ancha bo‘sh edi.

Osiyo (Yaponiyadan tashqari), Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari iqtisodiy jihatdan qoloq, agrar xomashyo mamlakatlari bo‘lib qolaverdi. Xuddi shunday holat Rossiyaning mustamlakasi hisoblangan Turkiston o‘lkasi uchun ham xos bo‘lib, u tipik agrar xomashyo hududi edi.

“Buyuk davlatlar”ning iqtisodiy va harbiy salohiyati hamda “Yevropadagi imtiyozli mayda millat”lar (Shvetsiya, Belgiya, Gollandiya) dunyoni o‘zlarining ta’sir darajalariga kiritish va bo‘lib olish uchun kurashdilar. Dastlab, Afrika va Okeaniya to‘la bo‘lib olindi. Germaniya, Belgiya, Italiya, AQSh, Yaponiyadan

iborat mustamlakachi davlatlar yuzaga keldi. Fransiya mustamlakalari ko'paydi. Buyuk Britaniya o'zining mustamlakalarini kengaytirib, hududini 33,0 mln.km$^2$ ga yetkazdi.

Bo'lib olingan dunyoni qayta bo'lib olish uchun bo'lgan kurash IJahon urushiga (1914-1918) olib keldi. Mustamlaka qaramligining shakllari o'zgardi. Buyuk Britaniya tarkibidagi beshta mustamlaka dominion maqomiga ega bo'ldi. Xitoy, Eron, Turkiya amalda yarim mustamlaka hududlar bo'lib qoldi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida dunyo iqtisodiy jihatdan ham ta'sir mintaqalariga bo'lib olindi. Iqtisodiy jihati-dan rivojlangan mamlakatlar AQSh, Yevropa mamlakatlari bo'lsa, Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi, Avstraliya va Okeaniya mustamlaka va qaram hududlar bo'lib qoldi.

Ayni vaqtda, bu hududlar rivojlangan mamlakatlarning agrar xomashyo rayoniga aylandi. Bu mamlakatlar oziq-ovqat, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetkazib berishdan tashqari arzon ishchi kuchi yetkazib beradigan rayon va tayyor mahsulotlar sotiladigan bozor ham edi. Bir qator mamlakatlarda qishloq xo'jalik ixtisoslashuvi monokulturaga (yakka hokimlikka) asoslanib qoldi. Shuningdek, Kanada, Argentina, Avstraliya, Yangi Zellandiya, JAR mamlakatlari ham oziq-ovqat, xomashyo yetkazib beruvchi mintaqaga aylanadi.

XX asrning 20-90-yillari va XXI asr bo'sag'asida dunyo siyosiy kartasi va jahon xo'jaligida muhim miqdor va sifat o'zgarishlari yuz berganligi bilan ajralib turadi. Dunyo siyosiy kartasidagi o'zgarishlar:

a) 1917-yil Rossiyada oktabr to'ntarishi bilan bog'liq jahonning ikki ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga bo'lib yuborilishi;

b) 1939-1945-yillardagi Ikkinchi jahon urushi oqibatida Yevropa siyosiy kartasida Germaniyaning uchga (GFR, GDR va G'arbiy Berlin) bo'linishi; Sharqiy Yevropada xalq demokratiyasi shaklidagi davlatlarning (PXR, ChSSR, VXR, RSR,

BXR, YuSFR, AXDR, GDR, Osiyoda – XXR, KXDR, VXSR) Lotin Amerikasida esa 1959-yili Kuba, 1970-yil o‘rtalaridan LXDR ning yuzaga kelishi;

v) XX asr 50-yillari o‘rtalaridan mustamlaka va qaram hududlarda mustaqillik uchun kurashning kuchayishi oqibatida Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi, Okeaniya hududida 120 dan ortiq mustaqil davlatlarning yuzaga kelishi va taraqqiyot yo‘liga kirishi; bu mamlakatlarning dunyo siyosiy kartasida umumiy nom bilan “rivojlanayotgan mamlakatlar” deb yuritilishi;

g) XX asrning 80-yillari o‘rtalardan boshlab sotsialistik tuzumning ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida tanazzulga yuz tutishi, avvalo, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida, so‘ngra 90-yillarning boshlarida sobiq Ittifoq hududida sifat jihatidan yangi mustaqil davlatlar – Polsha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Albaniya, Serbiya, Cherno-goriya (Serbiya va Chernegoriya birgalikda Yugoslaviya ittifoqini tashkil qildilar), Sloveniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina hamda Latviya, Litva, Estoniya, Belarus, Moldova, Gruziya, Ozarbayjon, Armaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, O‘zbekiston va Turkmanistonning tashkil topishi, jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi hamda Germaniyaning yagona davlat sifatida birlashuvi;

d) Yaqin Sharqda Isroil-Falastin muammosining bosqichma-bosqich hal qilish jarayonining boshlanishi (1993-1999-yillar) bilan bog‘liq. Shuningdek, bu bosqichdagi asosiy iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar:

1. Sanoatning bir qator tarmoqlari, chunonchi, elektroenergetika, neft, alyuminiy eritish, samolyotsozlik, plastmassa ishlab chiqarish, transport tizimida avtomobil, havo, quvur; aloqada – radio tez rivojlandi. Qishloq xo‘jaligi intensiv taraqqiyot yo‘liga kirdi.

2. 50-yillardan boshlab jahon xo‘jaligida muhim sifat o‘zgarishlarga olib kelgan fan-texnika inqilobi (FTI) boshlandi. FTI jamiyatning yoqilg‘i-energetika

asosiga, mehnat vositalari, mehnat predmetlari va ishlab chiqarish texnologiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi va muhim sifat o‘zgarishlari yuz berdi.

3. FTI jahon xo‘jaligida muhim tarmoq o‘zgarishlarga olib keldi. Tarmoq tarkibida makro o‘zgarishlar sanoatni moddiy ishlab chiqarishning barqaror va samarali sohasiga aylanishi, noishlab chiqarish sohalari hissasining barqaror ortib borishi va qishloq xo‘jaligi hissasining qisqarish jarayoni boshlandi.

4. FTI ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashishiga kuchli ta’sir etdi. Ishlab chiqarish kuchlarining joylashishidagi “an’anaviy” omillar bilan bir qatorda, hududiy integratsiya, tabiiy resurslar, mehnat resurslari (“aql oqimi”) radio-elektronikada (ayollar mehnatidan keng foydalanish), transport, infrastruktura, fan, talab va ekologik omillarning roli kuchayganligi bilan ajralib turadi.

Ayni vaqtda, aholi ko‘payishining tezlashuvi (demografik portlash) urbanizatsiya jarayonining kengayishi, mehnat jarayonining chuqur-lashuvi, mehnat resurslari tarkibidagi jiddiy o‘zgarishlar va etnik jarayonlar rivojlandi.

Yangi va eng yangi davr geografiyasining asosiy xususiyatlari. Bu davrda geografiya fanining rivojlanishi davr (xalq xo‘jaligining) talabidan kelib chiqdi. Ayniqsa, texnika va ilm-fanning taraqqiyoti ijobiy ta’sir etdi.

Geografiya majmuali fanlar tizimiga aylandi. Ham iqtisodiy, ham tabiiy geografiya barobariga rivojlandi. Bu borada iqtisodiy geograf N.N.Baranskiyning xizmatlari katta.

Tabiy geografiya rayonlar va komponetlarni o‘rganish yo‘nalishlari bo‘yicha rivojlana boshladi.

Geografik ilmiy tadqiqot institutlari va tashkilotlari tashkil topdi. Natijada, fanning ilmiy-nazariy metodologiyasi va amaliy asoslari bo‘yicha tizimli ishlar olib borish yo‘lga qo‘yildi. Tadqiqotlar geografiya fanini turdosh fanlarga yanada yaqinlashtirdi. Jumladan, fizika, kimyo, biologiya, astronomiya, geologiya va boshqalar bilan. Masalan, V.I.Vernadskiy va uning o‘quvchisi B.B.Polinov,

keyinchalik B.P.Perelman landshaftlar geokimyosini, V.V.Shuleykin landshaftlar fizikasini rivojlantirdilar. A.A.Grigoryev zonallik qonuniyatida issiqlik va namlik nisbatining ahamiyatini asosladi. Paleogeografik, biogeografik (V.N.Sukachev), okeanografik (L.A.Zenkevich), landshaftshunoslik (L.S.Berg, N.A.Solnsev) yo‘nalishlari jadal sur’atlar bilan rivojlandi.

Tabiiy geografiya hozirgi paytda xalq xo‘jaligining turli tarmoqlariga xizmat qilmoqda. Jumladan, mustaqil O‘zbekistonda geografiya fani komponentlarni tadqiq etish va tabiatni kompleks (landshaft) o‘rganish yo‘nalishlarida rivojlanmoqda. Tabiiy geograflar geosistemalarning o‘tmishi, hozirgi holati, istiqboldagi taraqqiyotini o‘rganish, imkoniyatini baholash, rivojlanishini boshqarish kabi dolzarb muammolar ustida ishlamoqdalar.

Bu borada professorlardan N.A.Kogay, L.N.Babushkin, A.A.Rafiqov, A.Abdulqosimov, L.Alibekovlar, dotsentlardan Sh.S.Zokirov, P.G‘ulomov, A.Zaynutdinov, I.K.Nazarov, H.Hasanov, A.Sultonov va boshqalar samarali mehnat qildilar. Shuningdek, geografiya tarixini yaxshi bilgan nazariyotchi olimlardan professorlar: Z.M.Akramov, M.K.Qoraxonov, A.Soliyev, R.U.Raximbekov, A.G.Azatyan hamda dotsent A.L.Yugaylarning xizmatlarining ham xizmati katta.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Qadimgi yoki antik davr geografiyasining asosiy xususiyatlari qanday?
2. O‘rta asrlarda geografiya ilmi rivojlanishi.
3. Buyuk geografik kashfiyotlar deganda nimani tushunasiz?
4. Buyuk geografik kashfiyotlarning jahon iqtisodiyoti rivojidagi ahamiyati qanday?
5. Buyuk Ipak yo‘lining O‘rta Osiyoning rivojlanishidagi roli.
6. Yevropa mamlakatlarida sanoat inqilobi va uning turli mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri.

7. Geografiya fani rivojlanishining yangi davri.
8. Rossiya geografiya fanining yuksalishiga kimlarning hissasi katta?
9. Eng yangi davr geografiyasining asosiy xususiyatlari qanday?

## 9-BOB. IQTISODIY GEOGRAFIYA (TOR MA'NODA) - IJTIMOIY GEOGRAFIK FAN SIFATIDA

Reja:

9.1. Iqtisodiy geografiya Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tarmog'i sifatida.

9.2. Xo'jalik tarmoqlari haqida tushuncha, ularning klassifikatsiyasi.

9.3. Iqtisodiy geografiyaning tuzilishi.

9.4. Sanoat, qishloq xo'jaligi va transport geografiyalari.

9.5. Iqtisodiy aloqalar geografiyasi. Xalqaro turizm.

Vatanimizni milliy va siyosiy mustaqilligini mustahkamlash ko'p jihatlardan uning barcha tashqi va ichki imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni talab etadi. Davlatimiz joylashgan hududga, umuman, O'rta Osiyoga 70 yil davomida xomashyo manbai sifatida e'tibor qaratilganligi sababli, bu mintaqadagi mamlakatlarni barchasi bir tomonlama rivojlandi. Qayta ishlovchi zavodlar o'rnini ham qishloq xo'jaligi egallagan edi. Hozirgi paytda O'zbekiston iqtisodiyoti industrial-agrar ko'rinishiga ega bo'lib, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan:

- yoqilg'i-energetika kompleksining ildam su'ratlar bilan rivojlanishini ta'minlash, neft va tabiiy gaz qazib chiqarish hamda ularni qayta ishlash hajmlarini oshirib borish, shuning hisobiga respublikaning energetika mustaqilligiga erishish;
- tovarlarni chetdan keltirish o'rniga o'zimizda ishlab chiqaruvchi korxonalarni rivojlantirish asosida, boshqa mintaqalardan keltiriladigan xalq

xo‘jaligini va aholi turmushini ta’minlaydigan mahsulot turlariga respublikaning qaramligini kamaytirish choralarini ko‘rish;

- qishloq xo‘jalik mahsulotining eng muhim turlarini yanada to‘la qayta ishlash, yengil va mahalliy sanoatning turli tarmoq va korxonalarini rivojlantirish;

- eng muhim ist’emol mollarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni jadal rivojlantirish tayyorlanayotgan mahsulot turini, sifatini yaxshilash, osh tuzi, spirt, gugurt va kamyob tovarlarni ishlab chiqaruvchi yangi korxonalarni bunyod etish qishloq xo‘jaligidagi islohotlarning eng muhim bo‘g‘ini deb belgilangan.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishida ularni to‘g‘ri joylash-tirish ham katta rol o‘ynaydi. Bunda, asosan, ekologiya bilan “hisoblashish” ga to‘g‘ri keladi, zotan vujudga kelgan vaziyat buni qat’iylik bilan sanoat korxonalarining ishlashi shu nuqtai nazardan to‘xtatilganligi bejiz emas. Hozirda AQSh, Yevropaning ko‘p mamlakatlaridagi shunday korxonalar o‘z faoliyatini boshqa – aholisi kam yoki kuchsiz rivojlangan Afrika, Lotin Amerikasi, Osiyo mamlakatlarida davom ettirmoqda.

Umuman tarmoq deganda, korxonalarning ma’lum o‘xshash xususiyatlariga ko‘ra guruhlanishi tushuniladi. Sanoat tarmoqlari, odatda, uch asosiy mezon asosida ajratiladi. Ular:

- xomashyo birligi bo‘yicha ajratilgan sanoat tarmoqlari (mashinasozlik va metallni qayta ishlash, o‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati va h.k.);
- iste’mol birligi, ya’ni muayyan maqsadda mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar (yengil va oziq-ovqat, qurilish, elektr-energetika va b.);
- texnologik jarayon asosida tashkil etilgan sanoat tarmog‘i (kimyo sanoati).

Sanoatning tarmoqlar tizimi nihoyatda murakkab va u borgan sari o‘zgarib bormoqda. Eng yirik tarmoqlar sifatida yoqilg‘i, energetika, qora va rangli metallurgiya, kimyo va neftni qayta ishlash, mashinasozlik va metallni qayta

ishlash, qurilish, o‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash, sellyuloza-qog‘oz, yengil, oziq-ovqat, poligrafiya va boshqalar ajratiladi. Ular ham, o‘z navbatida, tarmoq va tarmoqchalardan iborat. Bu jihatdan mashinasozlik sanoatining turlanishi, ayniqsa, boy; faqat transport mashinasozligining o‘zi bir nechta qismlarni o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi tarmoqlar orasida eng an’anaviy, qadimiy tarixga ega bo‘lgani, shubhasiz, yengil (to‘qimachilik) sanoatidir. U dastavval manufakturadan boshlanib, so‘ngra yirik mashina industriyasiga o‘tdi, boshqa sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga turtki berdi. Albatta, oziq-ovqat, metallni qayta ishlash sanoatlari ham ancha qadimiy. Ayni vaqtda, mashinasozlik, elektr energetika va kimyo nisbatan “yangi tarmoq” bo‘lib, ular hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyotini aks ettiruvchi tarmoqlar jumlasiga kiradi.

Sanoat tarmoqlari og‘ir va yengil, ya’ni ishlab chiqarish vositalari va iste’mol mollari ishlab chiqaruvchi yirik guruhlarga (A va B) ajratiladi. Biroq bunday ajratish shartli bo‘lib, ular orasidagi farq borgan sari qisqarib bormoqda.

So‘nggi yillarda sanoat tarmoqlari tarkibida quyidagi o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda:

- sanoat tarmoqlarining yanada parchalanib borishi, yangi-yangi tarmoqlarning vujudga kelishi;
- tarmoqlar orasida integratsiya jarayonlarining rivojlanishi, tarmoqlararo majmualarning shakllanishi;
- fan-texnika yutuqlari bilan bevosita bog‘liq tarmoqlarning tezroq rivojlanishi.

Sanoatning tarmoqlar tizimini baholashda, eng avvalo uning turlanganligini (diversifikatsiyalashuvini) hamda yangi texnologiyalarga asoslangan tarmoqlarining mavjudligini e’tiborga olish kerak. Ba’zi rayonlar faqat tog‘-kon, xomashyo qazib olishga ixtisoslashgan, boshqalarida esa, asosan, ta’mirlovchi

sanoat korxonalari bo‘lishi mumkin. Tabiiyki, bunday rayonlarning sanoati yaxshi rivojlanmagan.

Sanoat tarmoqlarini hududiy tashkil etish o‘ziga xos xususiyatga ega. Ular iqtisodiy geografik makonda yoki kartada nuqtasimon shaklga ega. Demak, mazkur tarmoqda ishlab chiqarish va hududiy mujassamlashuv darajasi ancha yuqori. Bu esa sanoat ishlab chiqarishining qishloq xo‘jaligiga ko‘ra iqtisodiy samaradorligining yuqori bo‘lishiga olib keluvchi sabablardan biridir.

Sanoat korxonalarini joylashtirishga ta’sir etuvchi omillar soni ko‘p. Ular, asosan, xomashyo, yoqilg‘i, energetika, iste’mol, ishchi kuchi, iqtisodiy geografik o‘rin va boshqalardan iborat. Bu borada, xususan, ekologiya va bozor iqtisodiyoti omillarining ahamiyati tobora kuchaymoqda. Shu bilan birga, qayd etish joizki, turli xil sanoat tarmoqlarini joylash-tirish muayyan omillar asosida amalga oshirildi. Ularni qisqacha ko‘rib chiqamiz.

Yoqilg‘i sanoati tog‘-kon yoki qazib oluvchi sanoati toifasiga kiradi va yoqilg‘i turlari, qazilma boyliklarning joylanishi tabiiy, geoximik qonuniyatlarga asoslanadi. Sababi – ko‘mir, neft, gaz, yonuvchi slanes, torf kabi tabiiy boyliklarning paydo bo‘lishi va yer yuzida (ostida) tarqalishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Elektr-energetika suv, issiqlik va atom stansiyalaridan tashkil topadi. Suv elektrostansiyalarini (SES) tekislik joyga ko‘ra tog‘ va tog‘oldi rayonlarda qurish maqsadga muvofiq. Chunki bunday sharoitda relyef shakli – yer tuzilishining qiyaligi, tabiiy holda sharshara va tog‘lar orasidagi cho‘kmalarning mavjudligi qulay imkoniyatlar tug‘diradi. Shuningdek, suv ombori qoplagan yerlar qishloq xo‘jaligida deyarli ishlatilmaydi; qishloq manzilgohlari ham yo‘q va, binobarin, ularni ko‘chirtirish talab etilmaydi. Suv ombori va uning atrofida sport, dam olish zonalarini tashkil qilish, bog‘dorchilik va baliqchilikni rivojlantirish, pastki hududlarda yerlarni sug‘orish, kanallar qurish mumkin. Ba’zan SESlar bilan

birgalikda o‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati ham rivojlanib boradi (masalan, Rossiyaning sharqiy rayonlarida).

Ko‘rinib turibdiki, tog‘li rayonlarda qurilgan SESlar har tomonlama qulay, elektr energiyasi arzon. Agar shu stansiyalar tekislikda joylashtirilsa, katta maydon suv ostida qolib ketadi (ehtimol, bu yerda qimmatbaho qazilma boyliklar bordir) va to‘g‘on qurish katta mablag‘ talab qiladi.

Issiqlik elektr stansiyalari (IES) ikki turda bo‘ladi: IEM va IES. Ularning bir-biridan farqi qaysi maqsadda qurilganligidadir: foydalaniladigan yoqilg‘isi esa bir xil bo‘lishi mumkin. Masalan, IEM –issiqlik elektr markazi, odatda, ham elektr quvvati, ham bug‘ (par) talab qiluvchi sanoat korxonalari – to‘qimachilik, neftni qayta ishlash va h.k. yonida yoki yaqinida quriladi. Chunki bug‘ni 15-18 km masofadan uzoqqa jo‘natib bo‘lmaydi. Demak, bu stansiyani markazlashgan holda joylashtirishda, ishlab chiqarish iste’moli asosiy ahamiyatga ega.

Ammo, IEMlarning bevosita shahar ichida qurilishi tufayli ular atrof-muhitni ifloslantiradi. Shu sababdan, ekologik jihatdan bunday stansiyalarning aholi zich joylarda qurilishi ma’qul emas. Oddiy IESlar esa, asosan, elektr energiyasini beradi va, shu bois, ular yirikroq va shahardan biroz uzoqroq masofada joylashtiriladi.

Atom elektrostansiyalari, ko‘pincha, boshqa turdagi stansiyalarni qurish imkoniyati yo‘q hududlarda joylashtiriladi. Buning uchun, albatta, ekologik xavfsizlik ta’minlanishi kerak. Shuningdek, AESlarning barpo etilishida ilmiy-texnika omili ham hisobga olinadi.

Qora metallurgiya korxonalarini, ayniqsa, cho‘yan eritish zavodlarini (domna pechida eritiladi) joylashtirishda, eng avvalo, yoqilg‘i va xomashyo katta ahamiyatga ega. Bir tonna cho‘yan olish uchun taxminan ikki tonna temir rudasi, 1,2 tonna yoqilg‘i-kokslanuvchi ko‘mir lozim. Rudada temirning (Fe) miqdoriga, boy yoki boy emasligiga qarab zavod uch ko‘rinishda joylashtiriladi: yoqilg‘i yaqinida (temir ruda koni “boy”), xomashyo yaqinida (rudada Fe miqdori yuqori

emas) va ikkalasining o‘rtasida (yoqilg‘i va xomashyo uchun transport xarajati deyarli bir xil). Uchinchi variantda suv hamda iste’mol omillari ham e’tiborga olinadi.

Qora metallurgiyaga kiruvchi ferrosplav (temir qotishmalari) zavod-lari “elektrtalab” hisoblanadi: 1 t ferrosplav uchun 8-9 ming kVt/s. elektr energiyasi sarflanadi. Binobarin, bunday zavodlar arzon elektr manbalariga yaqinroq joylashtiriladi.

Rangli metallurgiya sanoatiga kiruvchi korxonalar turli-tuman (alyuminiy, mis, kumush, oltin, qo‘rg‘oshin, qalay va h.k.). Ular tabiatda alohida-alohida uchramaydi. Shuning uchun rangli metallarni qazib olishda kompleks, kombinat usuli qo‘llaniladi.

Tog‘ metallurgiya kombinatlari xomashyo rayonlarida (sababi rangli metallar miqdori rudada juda oz) quriladi, bevosita tozalangan metall esa iste’mol rayonlarida va xususan, arzon elektr energiyaga yaqin joyda bo‘ladi: tozalangan yoki “rafinatsiya” qilingan misning bir tonnasiga 9-10 kVt/s.gacha, alyuminiyga 18-19, titan va nikel uchun 50 ming kVt/s. gacha elektr energiyasi ishlatiladi. Shu bilan birga, rangli metallurgiya korxonalarini joylashtirishda ekologiya omilining ham o‘rni sezilarli.

Mashinasozlikning tarkibi boyligi tufayli unga ta’sir qiluvchi omillar turi ham har xil. Chunonchi, metallni ko‘p talab qiluvchi og‘ir mashinasozlik (vagonsozlik, tog‘-kon va shaxtalar uchun asbob-uskunalar va h.k.) qora metallurgiya rayonlarida kam, ammo malakali ishchi kuchi kerak bo‘lgan priborsozlik, elektrotexnika, hisoblash texnikalari kabi nozik va aniq mashinasozlik fan-texnika taraqqiyoti markazlarida joylashtiriladi.

Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi ko‘p hollarda iste’mol rayonlarida rivojlanadi. Masalan, O‘zbekistonda paxta teruvchi, Ukrainada g‘alla va qand lavlagi, Belorussiyada kartoshka va zig‘ir, Moldaviyada uzumchilik,

Qirg‘izistonda pichan o‘ruvchi va preslovchi mashinalar ishlab chiqariladi. Demak, mamlakat yoki rayon nimaga ixtisoslashsa, o‘sha sohaga xizmat qiluvchi mashinasozlik tarmog‘i tashkil etiladi. Bu qonuniyat boshqa tarmoqlarga ham tegishli. Chunonchi, Kareliyada o‘rmon, Uralda qora metallurgiya, Donbassda shaxta, O‘zbekistonda to‘qimachilik, Irkutskda oltin saralash mashinasozligi rivojlangan va h.k.

Shunday qilib, mashinasozlik mahsulotiga qarab uni joylashtirishga xomashyo (metall), ishchi kuchi, iste’mol, ilm-u fan, geografik o‘rin omillari ta’sir ko‘rsatadi. Tabiiyki, dengiz kemasozligi quruqlik ichkarisida emas, port shaharlarda joylashtiriladi. Xuddi shunga o‘xshash stanoksozlik, elektrotexnika, traktorsozlik kabi juda ko‘p mashinasozlik tarmoqlari o‘ziga xos hududiy tashkil qilish xususiyatlariga ega. Albatta, bu sanoat tarmog‘i uchun kooperatsiya shakli muhimligi tufayli, uning markazlari qulay transport geografik o‘ringa ega bo‘lishlari ham lozim.

Kimyo va neftni qayta ishlash sanoati. Asosiy kimyo uchun xomashyo omili uncha muhim emas. Chunki bu sanoat turli xil xomashyo: o‘simlik, mineral, ishlab chiqarish chiqindilari, hatto suv va havo asosida ham tashkil etilaveradi. Binobarin, kimyo sanoatini hududiy tashkil etish katta erkinlikka ega. Ammo unga ta’sir etuvchi boshqa kuchli omil mavjud – bu ham bo‘lsa ekologiyadir.

Neftni qayta ishlash zavodlari xomashyo rayonlariga ko‘ra iste’mol rayonlarida ko‘proq uchraydi. Xom neftni keltirib turli xil mahsulot olish, ularning barchasini alohida-alohida keltirishdan ko‘ra arzonroq, qulay va xavfsizroqdir. Ba’zan bunday zavodlar magistral neft quvurlari o‘tgan joylarda ham tashkil etiladi.

Kimyo sanoati uchun suv va elektr energiyasi omili ham ahamiyatli. Shu sababdan bo‘lsa kerak, Chirchiq yirik kimyo sanoati markaziga aylangan.

O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoatini joylashtirish ham o‘ziga xos. Jumladan, yog‘ochni qayta ishlash aksariyat hollarda o‘rmonzorlarga yaqin joylarda amalga oshiriladi, chunki 40 foizgacha yog‘och (novda va shox-shabbalar) chiqindiga ketadi. Sellyu-loza-qog‘oz ishlab chiqarish esa, asosan, uch variantda joylashtiriladi: xomashyo rayonida, yog‘och oqizuvchi daryolarning temir yo‘llar bilan kesishgan nuqtasida hamda daryolarning quyilish qismida. Ko‘rinib turibdiki, bu yerda transport va geografik o‘rin omillari katta ahamiyatga ega.

Qurilish sanoati boshqa tarmoqlarga nisbatan “oldinda” borishi kerak, zero usiz yangi yerlar o‘zlashtirilmaydi, korxona va tashkilotlar bunyod etilmaydi, g‘isht, sement, cherepitsa, shifrni ishlab chiqarish ko‘p jihatdan xomashyoga bog‘liq. Shu sababdan bo‘lsa kerak, Rossiyaning asosiy sement sanoati markazlari Volsk, Iskitim, Novorossiysk hisoblanadi. Sababi, ular ilmiy ishlab chiqarish uchun xomashyo – mergeli, ohaktosh ko‘p miqdorda mavjud. O‘zbekistonda ham sement ishlab chiqarish xomashyo omilini e’tiborga olgan tarzda amalga oshirilgan (Bekobod, Angren, Quvasoy, Ohangaron). Bundan tashqari, sement ishlab chiqarish qora va rangli metallurgiya markazlarida ham tashkil qilinadi. Buning uchun domna pechlarining chiqindisi – shlak, alyuminiy sanoatiga tegishli glinozyom zavodlari chiqindilari ishlatiladi.

Temir-beton mahsulotlari va qurilmalarini joylashtirish iste’mol omili orqali tashkil qilinadi. Shu bois, ularning geografiyasi keng bo‘lib, bunday korxonalar barcha yirik shaharlarda mavjud.

Yengil sanoatni hududiy tashkil qilishda xomashyo, ishchi kuchi va iste’mol omillari yetakchi rol o‘ynaydi. Masalan, paxta tozalash va pillachilik zavodlari, jun yoki terini yuvish kabilar bevosita xomashyo rayonlarida joylashtiriladi. Sababi, ulardan olinadigan mahsulot birligiga juda ko‘p xomashyo sarflanadi.

To‘qimachilik, poyafzal, tikuv, trikotaj fabrikalari, gilam ishlab chiqarish mehnattalab bo‘lgani uchun ular katta va kichik shaharlar, rayon markazlarida quriladi. Shu bilan birga, to‘qimachilik korxonalari og‘ir sanoat markazlarida ayollar ishchi kuchidan foydalanish maqsadida ham joylashtiriladi. Mazkur sanoatning ko‘p mehnat resursini talab qilishi, ayni paytda, uning iste’mol rayonlarida joylashtirilishi bilan uyg‘unlashib ketadi. Chunki aholi yengil sanoat mahsulotlarining iste’molchisidir, ular esa hamma uchun va har doim kerak.

Oziq-ovqat sanoatini joylashtirish ko‘proq iste’mol omiliga qarab amalga oshiriladi (bu mahsulotlar ham barcha uchun va doimo zarur). Shuningdek, ularning transportda tashish imkoniyatlari, sifatining buzilmasligi ham inobatga olinadi. Jumladan, yog‘-moy ishlab chiqarish, konserva, vino sanoati, qand-lavlagi va tamakini qayta ishlash ko‘proq xomashyo rayonlarida, go‘sht, sut sanoati korxonalari shahar joylarga yaqin quriladi. Qandolatchilik fabrikalari bevosita shaharlardan joy oladi.

Un sanoati, don mahsulotlari kombinatlari ham aksariyat hollarda kichik shaharlarda, g‘allakor rayonlarda yoki ularga yaqin bo‘lgan shaharlarda rivojlanadi. Keltirilgan undan turli xil mahsulotlarni ishlab chiqarish iste’mol rayonlarida – shaharlarda tashkil qilinadi. Bunday markazlarda ba’zan yirik yog‘-ekstraksiya, konserva va vino sanoati, tamaki fermentatsiya korxonalari qurilishi mumkin.

Shunday qilib, oziq-ovqat sanoatining hududiy tarkibi, asosan, iste’mol va xomashyo omillari ta’sirida shakllanadi. Ayni vaqtda, bu tarmoq qishloq xo‘jaligi bilan bevosita bog‘liqligi tufayli agrosanoat majmualari ko‘rinishida hududiy tashkil etiladi.

Poligrafiya sanoati ko‘proq shaharlarda, xususan, poytaxt shaharlardan joy oladi. Sababi – bunday shaharlarga matbuot, kitob, gazeta va jurnallarni nashr qilish o‘ziga xos vazifa (funksiya) hisoblanadi.

Yuqorida sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish masalasida omillardan emas, sanoat tarmoqlarining xususiyatlaridan kelib chiqildi. Shu o‘rinda eslatish lozimki, hozirgi sharoitda sanoat tarmoqlari va korxonalarni aynan qayerda joylashtirish, ularning texnik-iqtisodiy xususiyatlaridan tashqari, bozor munosabatlari – talab va taklif, soliq va kredit, narx-navo va davlatning maxsus mintaqaviy siyosati ta’sirida amalga oshiriladi.

Eng muhimi, joylashtirilgan korxona tadbirkor uchun ham, davlat uchun ham qulay va arzon bo‘lishi kerak. Qulaylik – transport xarajatlari kam, ekologik jihatdan maqbul, arzon demakdir. Kelajakda mahsulot qiymatiga, tannarxiga unga ishlatilgan xomashyo sarf-xarajatlari, ya’ni “resurs uchun to‘lov” ham kiritilishi kerak. Zero, bozor munosabatlari davrida u yoki bu resursni qazib olgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari, atrof-muhitga ko‘rsatilgan zarar albatta qoplanishi lozim.

Sanoat tarmoqlarining hududiy majmua yoki rayon tashkil etish qobiliyati ham har xil. Masalan, kimyo va neftni qayta ishlash, o‘rmon, yog‘och va sellyuloza, elektr energetika, qora va rangli metallurgiya kabilar boshqa sanoat tarmoqlari bilan yaqindan aloqada bo‘lib, ular ko‘pincha birgalikda, ya’ni tarmoqlarar va hududiy majmua shaklida tashkil etiladi. Chunonchi, neftni qayta ishlash “boyib ketish” imkoniyatiga ega, binobarin, bunday sanoat korxonalari joylashgan shahar tez orada o‘sish markaz va qutblariga aylanishi mumkin.

Arzon elektr energiya beruvchi suv elektr stansiyalari ham o‘ziga boshqa sanoat korxonalarini chaqiradi. Odatda, bunday markazlarda rangli metallurgiya, transformator zavodlari barpo etiladi. Qurilish materiallari sanoati (ayniqsa, sement ishlab chiqarish) esa rangli va qora metallurgiya, IESlar mavjud bo‘lgan joylarda tashkil etiladi.

Turli xil sanoat tarmoqlarning shakllanishi tarmoqlararo majmualarni vujudga keltiradi. Agar ular bir joyda o‘rnashgan bo‘lsa, bunday majmualar, ayni vaqtda,

hududiy majmua holatida ham bo‘ladi. Shu bilan birga, alohida sanoat tarmoqlarining mujassamlashuvi ham hududiy majmua (aglomeratsiya) shaklida bo‘lishi mumkin. Bunga mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati rayonlari misol bo‘la oladi.

Hududiy majmualar sanoatni rayonlashtirish tizimi bilan ham bevosita bog‘liq. Jumladan, yirik sanoat markazlari, sanoat tugun va rayonlari, albatta, hududiy majmua shakliga ega. Bulardan eng mukammali sanoat tuguni yoki aglomeratsiyasi hisoblanadi. O‘zbekistonda Toshkent, Farg‘ona-Marg‘ilon, Samarqand, Buxoro-Kogon kabi sanoat tugunlari, Angren-Olmaliq, Sho‘rtan-Muborakka o‘xshash sanoat rayonlari shakllangan. Ular, ayni vaqtda, hududiy majmualar shaklida tashkil etilgan.

Odatda, “**qishloq xo‘jaligi**” deganda uning asosiy tarmoqlari – dehqonchilik va chorvachilik tushuniladi. Bunday qarash an’anaviy bo‘lib qolgan va u tarmoq nuqtai nazaridan to‘g‘ridir. Ammo hududiy jihatdan qaraganda, qishloq xo‘jaligi shahar, mintaqa, milliy va dunyo xalq xo‘jaligiga o‘xshash alohida bo‘g‘in, taksonomik birlik sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bunda qishloqda qanday xo‘jalik tarmoqlarining mavjudligi nazarda tutiladi.

Chindan ham hozirgi vaqtda qishloq joylarda nafaqat dehqonchilik va chorvachilik (agrar sohalar), balki turli boshqa tarmoqlar, masalan, sanoat korxonalari, transport, dam olish maskanlari, sanatoriya va kurort, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari mavjud. Shu bois, “qishloq xo‘jaligi” tushun-chasining bunday ikki ma’noga ega ekanligini (birinchisida – tarmoq, ikkinchisida – joyning funksiyasi) unutmaslik lozim.

Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning qadimiy sohasidir. Dastlabki ijtimoiy mehnat taqsimoti ham avval chorvachilik, so‘ngra dehqonchilikning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Dehqonchilik va xususan, sug‘orma dehqonchilik jamiyat taraqqiyotida alohida, inqilobiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Sababi – aynan sug‘orma

dehqonchilik jamoa, uning asosida doimiy aholi manzilgohlarining vujudga kelishida, ilm-u fan taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan. Keyinchalik dehqonchilik hunarmandchilik va savdo-sotiqni, ular esa, o‘z navbatida, manufaktura va yirik mashina industriyasini rivojlantirishga olib kelgan.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun quyidagilar xos:

- agrar soha bevosita tabiiy sharoit bilan bog‘liqligi tufayli u mavsumiy xarakterga ega;
- mavsumiyligi uchun mehnat resurslari ham yil davomida band emas;
- qishloq xo‘jaligi rivojlanishi sanoatga nisbatan o‘zgaruvchan ko‘rinishda boradi;
- ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil qilish shakllari o‘ziga xos, ya’ni mujassamlashuv va ixtisoslashuv torroq, kooperatsiya va kombinatlashuv esa juda kam hollarda uchraydi;
- qishloq xo‘jaligi tarmoqlari areal yoki maydon shaklida hududiy tashkil qilinadi;
- mazkur tarmoqda ekstensiv va intensiv rivojlanish yaqqol ko‘rinadi;
- qishloq xo‘jaligining tarmoqlar tarkibi sanoatga o‘xshash uncha boy emas;
- qishloq xo‘jaligida mulkchilikni xususiylashtirish osonroq;
- xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik qilish, chet el investorlarini qishloq xo‘jaligiga jalb qilish kamroq va h.k.

Yuqoridagi xususiyatlar ushbu tarmoqning iqtisodiyoti va geografiyasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunonchi, tabiiy sharoitning, iqlim va ob-havoning noqulayligi qishloq xo‘jaligi unumdorligi, u esa qayta ishlovchi (oziq-ovqat) sanoatiga va pirovard natijada, xalqning turmush darajasining pasayishiga olib keladi. Qolaversa, qishloq xo‘jaligi bilan sanoatning boshqa tarmoqlari: mashinasozlik, kimyo, qurilish sanoati va elektr-energetika ham aloqador.

Mehnat resurslaridan foydalanishning mavsumiyligi, ishlab chiqarishning mujassamlashuv darajasi yuqori emasligi mazkur tarmoqning iqtisodiy ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligida yer ishlab chiqarish vositasi bo‘lib, uning tabiiy hosildorligi hamma joyda ham bir xil emas.

Qishloq xo‘jaligi makroiqtisodiy tarmoq sifatida, asosan, ikki katta sohadan, ya’ni dehqonchilik va chorvachilikdan tashkil topgan. Jahon qishloq xo‘jaligida dehqonchilik oldinda turadi. Biroq, shunday bo‘lsa-da, dehqonchilik va umuman, qishloq xo‘jaligida tarmoqlarning turlanishi sanoatga nisbatan sustroq bormoqda. Ayni vaqtda qishloq xo‘jaligidagi ayrim yangi yo‘nalishlar – broller parrandachiligi, teplitsa (issiqxona) xo‘jaligi, sut va go‘sht fabrikalari o‘zlarining tashkil qilinishiga qarab ko‘proq industrial sohaga yaqin turadi.

So‘nggi yillarda ba’zi bir mahsulotlarning yetishtirilishi (pomidor, bodring, ziravorlar va b.) mavsumiy xususiyatini yo‘qotib bormoqda. Masalan, Toshkent bozorlarida bunday mahsulotlar deyarli yil davomida mavjud. Albatta, bu o‘rinda “geografik konveyr”ning roli ham bor. Chunki yuqoridagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetkazib turish turli hududlarda, ularning agroiqlimiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda, navbatma-navbat amalga oshiriladi.

Yana shuni qayd etish joizki, ayrim qishloq xo‘jaligi mevalarining geografiyasi tobora kengayib bormoqda. Chunonchi, anjir, anor va, ayniqsa, xurmo faqat alohida, subtropik rayonlarning mevasi bo‘libgina qolmay, ular endigi sharoitda ko‘pgina hududlarda yetishtirilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini joylashtirishga tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sir ko‘rsatadi. Tabiiy komponentlar ichida, eng avvallo, iqlim, suv va tuproq, ya’ni agroiqlimiy resurslarning ahamiyati katta. Iqlim sharoitlari, harorat, yer osti va yer usti suvlari, tuproq xususiyatlari qishloq xo‘jaligining tarmoqlar va hududiy tarkibini ko‘p jihatdan belgilab beradi.

Foydali harorat, ya’ni yig‘indisi yil davomidagi sutka haroratining +100°C dan yuqorisi va ijobiy harorat yig‘indisi (erta bahordan to kech kuzgacha ijobiy haroratning yig‘indisi) o‘simliklarning pishib yetishi uchun talab qilinadigan vegetatsiya davrini shakllantiradi. Masalan, paxta uchun birinchi ko‘rsatkich eng kamida +2000°C, ikkinchisi +4000°C bo‘lishi kerak.

Qishloq xo‘jaligi uchun yerning ahamiyatini ta’kidlagan edik. Ammo har qanday yer maydoni ham bu sohada intensiv foydalanish imkoniyatiga ega emas. Binobarin, hududlarning qishloq xo‘jalik salohiyati ekin ekiladigan yoki haydaladigan yer va umumiy yer maydonining nisbati, yer fondining hajmi va tarkibi, tabiiy agrar imkoniyatlar orqali belgilanadi. Ayniqsa, sug‘oriladigan yer maydoni bilan qishloq aholisining ta’minlanganlik darajasi katta ahamiyatga ega.

Ayni chog‘da, bizning sharoitimizda faqat yer maydonining bo‘lishi yetarli emas. Buning uchun, albatta, yana issiq harorat va suv, namgarchilik talab qilinadi. Chunki O‘zbekistonda yetishtiriladigan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining ko‘pchiligi issiqtalab va suvtalabdir. Ayniqsa, bodring, pomidor, baqlajon, lavlagi poliz ekinlari, sholi kabilarda suv sarfi ancha yuqori.

Qizig‘i shundaki, tabiatda bir joyning o‘zida issiq harorat, dehqonchilikka yaroqli yer maydoni va tegishli miqdorda suv kamdan-kam hollarda uchraydi. Suv bor joyda qulay yer maydoni yo‘q (tog‘liklar), yer maydoni bor joyda suv yo‘q (cho‘llar). Birinchisida terrasa usuli, ikkinchisida sun’iy sug‘orish qo‘llaniladi.

Qadimda sug‘orma dehqonchilik daryolarning quyilish qismida, deltasida rivojlangan va buning uchun tabiiy hosildor allyuvial yotqiziqlardan foydalanilgan. Bunday joylar (Nil deltasi, Tigr va Yevfrat, Hind-Gang, Xuanxe daryosining pastki qismi) sug‘orma dehqonchiligi asosida fan va madaniyat rivojlangan, ular Yer yuzidagi dastlabki sivilizatsiya o‘choqlari hisoblanadi. Bizning o‘lkamizda dastlabki vohalar, aynan, ana shunday hududlarda vujudga kelgan. Keyinchalik sug‘orma dehqonchilik geografiyasi daryolarning quyilishidan ularning yuqori

qismlariga ko‘tarilib borgan, suv omborlari va kanallar qurilishi munosabati bilan tog‘ yonbag‘irlari, adirlar ham ishlab chiqarish oborotiga kiritilgan, vohalar bir-biriga tutashib ketgan (masalan, Farg‘ona vodiysida).

Sun’iy sug‘oriladigan dehqonchilikdan tashqari bizda bahorikor yerlar ham ko‘p (Samarqand, Jizzax, Surxondaryo viloyatlari va b.). Bunday tabiiy namgarchilikdan foydalanib dehqonchilikni yuritish, yerning gidrotermik rejimini hisobga olgan holda joylashtiriladi. Maxsus adabiyotlarda buning uchun “Lange omili” tushunchasi mavjud bo‘lib, u issiqlik bilan yog‘in-sochin nisbatini bildiradi. Jumladan, bahorikor dehqonchilikda yillik yog‘in-sochin miqdori o‘rtacha yillik haroratdan kamida 15 marta ko‘p bo‘lishi talab etiladi. Agar bu koeffitsiyent 15 dan kam bo‘lsa, u holda faqat cho‘l yaylovchiligini rivojlantirish mumkin, xolos.

Havo (harorat), suv, tuproq – qishloq xo‘jaligi rivojlanishi va foydalanishining asosiy uch shartidir. Shu bilan birga, melioratsiya va irrigatsiya, mehnat resurslari, fan-texnika taraqqiyoti, transport va boshqalarning ahamiyati ham muhim. Masalan, ishchi kuchi omili, ayniqsa, sug‘orma dehqonchilikda, sabzavotchilikda katta rol o‘ynaydi. Ammo, ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida mehnat resurslarining bandligi nihoyatda yuqori, ya’ni tarmoqda keragidan ko‘ra, ko‘proq ishchi kuchi band. Bu esa mazkur tarmoq samaradorligini, uning mehnat unumdorligini pasayishiga sabab bo‘ladi. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, AQSh qishloq xo‘jaligida atigi 8,7% mehnat resurslari band. Buyuk Britaniyada, hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari chetdan keltirilganligi tufayli, bu ko‘rsatkich 3 foizni tashkil qiladi, xolos.

Dunyo bo‘yicha qishloq xo‘jaligida mehnatga layoqatli aholining yarmidan ko‘prog‘i ishlaydi. Afrika va Osiyo davlatlarining ba’zilarida bu ko‘rsatkich yanada yuqori (masalan, Nepalda 90%). Ayni vaqtda, rivojlangan mamlakatlarda sanoatning “pastki” qatlamlarini rivojlanayotgan mamlakatlarga ko‘chishiga o‘xshab, ularda qishloq xo‘jaligining intensiv shakli saqlanib qolmoqda.

Qishloq xo‘jaligida aholi bandligining qisqarib borishi dastlab, Britaniyada, so‘ngra Belgiya, Niderlandiya, Daniya, AQSh va boshqalarda kuzatilgan. Natijada, hozirgi kunda bu mamlakatlarda bir fermer, taxminan, 80 va undan ortiq kishini oziq-ovqat bilan ta’minlashga qodir. Vaholanki, rivojlanayotgan mamlakatlarda mehnat sarfi haddan tashqari ko‘p, qishloq joylarda “yashirin” ishsizlar ko‘p, aholining nisbiy va, hatto, mutlaq ortiqchaligi sezilib turibdi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga va shu asosda ijtimoiy masalalarni hal etishga katta ahamiyat berilmoqda. Biroq hozircha bu yerda muammolar ko‘p: qishloqlarda ish o‘rinlari kam, shaharlar esa ortiqcha ish kuchini ta’minlay olmayapti. Bu ham bo‘lsa, o‘tish davrining qiyinchiliklaridan biridir.

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini joylashtirishda mexanizatsiyalash, agrotexnika, agrokimyo, selektsiya kabi ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq yo‘nalishlarni rivojlantirish ahamiyatlidir. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi infrastrukturasi, sug‘orish inshootlari – suv omborlari va kanallar, yerlarning meliorativ holatini yaxshilovchi chora-tadbirlar ham agrobiznesga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Ko‘pgina mamlakatlar qatorida O‘zbekistonda ham shahar atrofi qishloq xo‘jaligi rivojlanib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, paxta maydonlarining shahardan uzoqlashishiga olib keladi. Shu bilan birga, paxtachilik tog‘oldi hududlarida, Qoraqalpog‘istonda, Sirdaryo viloyati va Qarshi cho‘lining sho‘rlangan yerlarida qisqarib bormoqda. Qisman, bu jarayon g‘alla-bug‘doy maydonlarini kengaytirish asosida ham kuzatilmoqda. Demak, kelajakda paxtachilikda jiddiy o‘zgarishlarni kutish mumkin.

Ayni vaqtda, bog‘dorchilik va uzumchilik, ayniqsa, g‘alla yetishtirish maydonlari kengaymoqda. Bunday o‘zgarishlar jahon miqyosida ham sodir bo‘lmoqda. Xususan, 60-yillarda rivojlanayotgan mamlakatlardagi “yashil inqilob” g‘allachilik joylanishini sezilarli darajada o‘zgartirdi.

Dunyo bo‘yicha chorvachilikning yem-xashak maydoni umumiy yer maydonining taxminan 20-25% ini tashkil qiladi. Ba’zi mamlakatlarda (masalan, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Turkmaniston va b.) bu ko‘rsatkich undan ham yuqori. Buning ustiga, mazkur mamlakatlarda yaylovzorlarning hosildorligi past va, binobarin, ularning “chorva sig‘imi” ham yuqori emas. Demak, bu va shunga o‘xshash hududlarda ekstensiv chorvachilik rivojlanib boradi.

Chorvachilikning sut va sut-go‘sht yo‘nalishi uning ancha intensiv va mahsuldor sohalaridir. Sutchilik esa, odatda, uncha issiq bo‘lmagan va yog‘in-sochin yetarli rayonlarda, daryo qayirlari va dalalar yam-yashil o‘tloqzorlar bilan qoplangan joylarda juda yaxshi rivojlanadi (Belorussiya, Boltiqbo‘yi davlatlari, Rossiyaning Kostroma, Yaroslavl, Vologda viloyatlari, Gollandiya, Chuy vodiysi va h.k.). Jun chorvachiligi esa issiq, cho‘l tabiatida qulay imkoniyatga ega (Avstraliya, Mongoliya, Qozog‘iston va h.k.).

Sut chorvachiligining shahar aholisi ehtiyoji asosida shakllanishi ma’qul. Shu bilan birga, keyingi yillarda transport, xususan, avtorefrijeratorlarning ta’siri ostida bu tarmoq uzoqroq masofada ham joylashtirilmoqda. Keltirilgan sut asosida u bilan bog‘liq boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish shahar joylarda tashkil qilinadi.

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari – dehqonchilik va chorvachilikning hududiy birikmalari ham mavjud. Chunonchi, g‘allachilik rayonlarda parrandachilik, kartoshka yetishtiriladigan yerlarda sut-go‘sht chorvachiligi, qand lavlagi ekiladigan hududlarda cho‘chqachilik rivojlanib boradi. Bu esa qishloq xo‘jaligida o‘ziga xos hududiy ishlab chiqarish majmualarini shakllantiradi. Bunday majmualarning eng murakkab va rivojlangan shakli qishloq xo‘jaligi va qayta ishlovchi sanoat (rasman, oziq-ovqat sanoati) negizida vujudga keladi.

Agrosanoat majmuini (agrobiznesni) bundan ham keng ma’noda talqin qilish mumkin. U holda bu majmua sanoatning qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq barcha tarmoqlarini, transport va omborxonalarini ham o‘z qamroviga oladi. Aynan shu

mazmunda agrosanoat majmualari respublikamizda milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning o‘zagini hosil qiladi.

Sanoatda bo‘lganidek, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini joylashtirishda ham eng asosiy omil bozor munosabatlari bo‘lib qolmoqda. Nimani yetishtirishni hozirgi kunda bozor, narx-navo belgilaydi, ammo bu ta’sir qishloq xo‘jaligida ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng o‘z kuchini ko‘rsatadi (chunki, mahsulot yetishtirish uchun ancha vaqt talab etiladi, sanoatda esa bu jarayon nisbatan tez kechadi).

Respublikamiz sharoitida ko‘p va har doim iste’mol qilinadigan mahsulotlarning bozor konyunkturasida o‘ziga xos o‘zgarishlar bo‘lib turadi. Masalan, bir yili piyoz kam va qimmat bo‘lsa, ikkinchi yili, aksincha, kartoshka qimmat bo‘lishi mumkin. Bozordagi vaziyatning bunday almashib turishi dehqonchilik ixtisoslashuvi va joylanishida tez-tez o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Xuddi shunday holat sabzi, karam, lavlagi va boshqa kundalik hayot uchun zarur bo‘lgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishda ham kuzatiladi.

Qishloq xo‘jaligida namlik, harorat va tuproq tabiiy xo‘jalik rayonlari yoki majmualarining shakllanishida asosiy vazifani bajaradi. Ammo bunday majmualarni kichik hududlarda ham kuzatish mumkin. Masalan, paxta ekin maydonlari, sug‘orish, kanal va ariqlar bo‘yidagi tut qatorlar paxtachilik va pillachilikning uyg‘unlashgan holda rivojlanishiga, ya’ni o‘ziga xos hududiy majmua ko‘rinishida tashkil etilishiga olib keladi. Ayniqsa, soylarning quyilish qismida (konussimon yoyilmalarda) shakllangan, sug‘orma dehqonchilik rivojlangan Farg‘ona vodiysidagi hududiy majmualar diqqatga sazovordir.

Shahar va uning atrofidagi qishloq xo‘jaligi ham “Tyunen halqalari” singari hududiy majmuadir. Shuningdek, dehqonchilikda almashlab ekish, turli xil ekinlarni bir-biriga yaqin joyda yetishtirish (beda, paxta, poliz yoki uzum va mevalarni, tokchilik va bog‘dorchilikni hududiy tashkil etish), yirik chorvachilik fermalari ham hududiy majmua shaklida bo‘ladi.

Ma’lumki, ko’plab mamlakatlarning qishloq xo‘jaligi mahsuloti, asosan, fermer xo‘jaliklari tomonidan yetishtiriladi. Ta’kidlash joizki, fermer xo‘jaliklarini ixtisoslashuvini takomillashtirish va rivojlantirishda tashkiliy-huquqiy masalalar bilan bir qatorda, joylarning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari muhim o‘rin tutadi. Xususan, joyning relyefi, yer-suv zaxiralari, geoekologik vaziyati, agroiqlimiy resurslari, shaharlar rivojlanishi va urbanizatsiya jarayonlari, transport infratuzilmasi, demografik vaziyati kabi geografik omillar hududlarda fermer xo‘jaliklarining ixtisoslashuvi va rivojlanishini belgilab beradi.

Ayniqsa, fermer xo‘jaliklari ixtisoslashuvi va ularning o‘rtacha yer maydonlari hajmining shakllanishida aholi joylashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu borada, ular orasida muayyan darajada bog‘liqlik mavjud. Chunonchi, aholi zich joylashgan hududlarda fermer xo‘jaliklari nisbatan kichik yer maydonli va asosan ko‘p mehnat talab sabzavotchilik hamda sut chorvachiligiga ixtisoslashgan bo‘lsa, aholi siyrak joylashgan, ya’ni mehnat resurslari kamroq hududlar esa, ko‘proq yirik yer maydoni-ga ega paxtachilik-g‘allachilik, ekstensiv chorvachilik xo‘jaliklariga ixtisoslashgan bo‘ladi.

Shuningdek, fermer xo‘jaliklari rivojlanishining geografik xususiyati bir necha tarmoqning ma’lum bir hududda bir-biri bilan aloqadorlikda rivojlanishidir. Bu esa, o‘sha joyda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan birgalikda fermer xo‘jaliklari tarmoqlarining birikmasini, majmuasini shakllantirish imkonini beradi va ularning samaradorligini oshiradi.

**Transport** sanoat va qishloq xo‘jaligi bilan birga ishlab chiqarish va uni hududiy tashkil qilishning asosi real iqtisodiyotning negizi hisoblanadi. U xo‘jalik tizimining “qon tomiri”, harakatlantiruvchi kuchi sifatida mamlakat va rayonlar iqtisodiy aloqalarini amalga oshiradi, ularning geoiqtisodiy yaxlitligini ta’minlaydi. Transportsiz iqtisodiy geografiyaning fundamental tushunchasi bo‘lgan hududiy mehnat taqsimoti, mahsulotni ishlab chiqargan rayon bilan uni

iste'mol qiladigan joy orasida aloqa bo'lmaydi, hududiy ishlab chiqarish majmualari ham shakllanmaydi. Umuman olganda, tizim (sistema) va majmua (kompleks)ni transport aloqalarisiz tasavvur qilish qiyin.

Transportga turli ma'noda qarash mumkin. Masalan, u xo'jalikning alohida tarmog'i, ishlab chiqarishning hududiy tarkibiga kiruvchi to'rt elementdan biri. Shu ma'noda transport nafaqat vosita, balki muhim makroiqtisodiyot tarmog'i hisoblanadi. Ayni vaqtda, transport ishlab chiqarish infratuzilmasining asosi hamdir. Bu ma'noda transport ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va hududiy tashkil qilishning omili ekanligi ko'rinib turibdi. Demak, transportni tarmoq hamda vosita – omil ko'rinishida o'rganish mumkin.

Ta'kidlash lozimki, ayrim hollarda transportning ana shu ikki funksiyasi chalkashtirilib yuboriladi, uning makroiqtisodiyot tarmog'i va infrastruktura vazifasini bajarishi orasidagi farq sezilmay qoladi. Vaholanki, ikkinchisi birinchisi uchun xizmat qiladi, sharoit yaratadi.

Transportning ishlab chiqarishni joylashtirishdagi ahamiyatini oldingi mavzularda ko'rgan edik. Bu omilga birinchi bo'lib nemis olimi A.Veber o'zining "sanoat shtandorti"da katta o'rin bergani ham bizga ma'lum. Darhaqiqat, ishlab chiqarishni joylashtirishda "qulay" yoki "noqulay" degan tushunchalarning o'zi aksariyat hollarda transport omili orqali ifodalanadi; qulaylik – arzon demakdir, arzon esa transport jihatidan qulaylikni, yo'l sarf-chiqimining kamligini anglatadi.

To'g'ri, fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishda xomashyo va yoqilg'i sarfining kamayishi, temir yo'llarning elektrlashuvi, turli xil quvur transporti, yuqori quvvatli elektr uzatish tarmoqlari, dengiz transportini konteynerlashtirish va hokazolar transportning ishlab chiqarishni joylashtirishdagi rolini biroz bo'lsada susaytiradi. Ammo, shunga qaramasdan, transport mahsulot qiymatining shakllanishida, tannarxida hissasi katta. Xususan, bozor iqtisodiyoti sharoitida

talabning individuallashuvi, mahsulot turlarining ko‘payishi va ularni o‘z vaqtida yetkazib berish (jast in tame) transport ahamiyatini yanada oshiradi.

Transport bilan aholi joylashuvi, shaharlar rivojlanishi o‘rtasida katta aloqadorlik mavjud; biri ikkinchisini taqozo qiladi, biri ikkinchisisiz bo‘lmaydi. Odatda, yo‘llar shaharlarga olib boradi, shaharlardan tashqariga yo‘llar panjasimon tarqaladi; shaharlar transport tugunlariga aylanadi. N.N.Baranskiyning yo‘llar va shaharlarni ishlab chiqarishning hududiy tarkibi va tizimi, rayon va mamlakatlar xo‘jaligining “qovurg‘asi”, o‘zagi sifatidagi ta’rifida hech qanaqa mubolag‘a yo‘q. Chindan ham, hududning ichki tuzilishi “rentgen nuri” asosida kuzatilganda, bizning ko‘z o‘ngimizda, aynan, ana shu yo‘llar va shaharlar, o‘ziga xos hududiy majmualar orqali gavdalanadi.

Transportning shaharlar aglomeratsiyasi, shahar atrofi xo‘jaligida ham ahamiyati beqiyos. Amerikaliklarni hozirgi kunda shahar atrofi, shahar yaqinida yashovchi xalq, deb ta’riflashadi. Sababi, bu yerda urbanizatsiyaning yuqori bosqichi – suburbanizatsiya tez rivojlanmoqda.

Yo‘llar yangi o‘zlashtiriladigan hududlarga birinchi bo‘lib kirib keladigan infratstruktura elementidir. Yo‘llar qazilma boylik konlariga boradi, ularni ishlab chiqarish markazlari bilan ulaydi, bog‘laydi; sanoat parklarini shakllantiradi. Xullas, transportsiz hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim yoki majmua vujudga kelmaydi.

Transport to‘rining joylanishi, zichligi va shakli hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasining muhim ko‘rsatkichidir. Masalan, radial – aylana, to‘rsimon shakl, odatda, rivojlangan rayonlarda kuzatiladi. Agar hududning faqat chekka qismlari transport bilan ta’minlangan bo‘lsa, demak, bilingki, hududning ichki qismini tabiiy sharoiti o‘zlashtirish uchun noqulay (Sibir, Uzoq Sharq, Qozog‘iston, Turkmaniston va h.k.).

Ko‘pincha yo‘lning, transport turlarining joylanishiga qarab hududning xo‘jalik tarkibi, mujassamlashuvi va ixtisoslashuvini aniqlash mumkin. Ba’zan temir va avtomobil yo‘llar, quvur transporti, elektr uzatuvchi tarmoq va kanallar bir-biriga parallel holda joylashadi, ikki yirik markaz orasida serqatnov “koridor”, yo‘l va yo‘laklar vujudga keladi. Yo‘l bo‘yidagi aholi manzilgohlarining kichrayib borishi markazdan uzoqlashishni, yiriklashuvi esa boshqa markazga yaqinlashuvdan darak beradi. Bu haqda yo‘lning sifatini o‘zgarib borishi ham o‘ziga xos belgi, ko‘rsatkich (indikator) hisoblanadi. Yo‘li yaxshi davlat boy bo‘ladi, boy davlatning yo‘li esa har doim ham yaxshi bo‘lavermaydi.

Transport uzoqni yaqin qiladi, masofa va vaqtni uyg‘unlashtirib, ularni tejashga olib keladi, mayatniksimon migratsiyani kuchaytiradi. Ishlab chiqarish sohasida u mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatlashuv bilan chambarchas bog‘liq.

Mamlakat va rayonlar, shaharlarning iqtisodiy geografik o‘rni, salohiyat va imkoniyatlarini amalga oshiruvchi, joyning iqtisodiy va demografik sig‘imini belgilovchi omil ham transportdir. U hududlarni bir-biri bilan bog‘laydi, mintaqa, milliy va jahon ho‘jaligini mukammal sistema tarzida shakllantiradi. Bir vaqtlar N.N.Baranskiy: “Volga Rossiyani Osiyo mamlakatiga, Dnepr O‘rta Dengiz mamlakatiga aylantiradi”, deb aytgan edi. Agar bizning Amudaryo va Sirdaryo ham Jahon okeaniga bevosita chiqqanda edi, ehtimol o‘lkamizning geosiyosiy mavqei, xo‘jaligi va madaniyati yanada boshqacha bo‘lar edi.

Transport ayniqsa tashqi savdo bilan aloqador. Binobarin, mamlakat-ning savdo aloqalari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar negizida transport tizimi yotadi. Xuddi shu o‘rinda milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan erkin iqtisodiy mintaqalar yoki majmualarni (EIM), texnopolislarni vujudga keltirishda transport rolini ta’kidlash joiz.

Shunday qilib, ijtimoiy va iqtisodiy hayotning biror qismi yo‘qki, u transport bilan bog‘liq bo‘lmasa. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, aholi joylashuvi, aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining hududiy tashkil etilishi transport omiliga asoslanadi.

Endi transportning o‘zini joylanishiga ta’sir qiluvchi omillarni ko‘rib chiqaylik. Qadimda transport, xususan, dengiz va daryo transporti tabiiy sharoitga bog‘liq bo‘lgan. Hozir ham qit’a va mamlakatlarning qirg‘oq chizig‘i, shakli tabiiy holda portlarni (bandargohlarni) qurish nuqtai nazaridan qulay va noqulay bo‘lishi mumkin.

Temir yo‘l transportining tabiiy omillarga bog‘liqligi boshqalarga qaraganda ancha kam. Dunyoning ayrim mamlakatlarida (Boliviya, Peru) temiryo‘llar 4700-4800 m dengiz sathidan balandlikda joylashgan. Tog‘ mintaqalarida temiryo‘llar, odatda, daryo bo‘ylab, ba’zi joylarda tunellar orqali o‘tadi, murakkab sharoitda tor izli yo‘llar quriladi.

Temir va avtomobil yo‘llar qurilishida ko‘priklar ham katta ahamiyatga ega. Ko‘priklarni qurish esa tog‘ yoki tekislik daryolarda o‘ziga xos xususiyatga ega. Tog‘ daryolarida ko‘priklar uncha uzun emas, tekislikda esa ular uzun bo‘lib, buning uchun uning tayanchi qirg‘oqning qattiq jinslaridan iborat qismiga qo‘yiladi. Umuman, temir yo‘llarni qurish katta vaqt va mablag‘ni talab qiladi, ammo ular shunga muvofiq uzoq muddat xizmat qiladi.

Tabiiy sharoit, jumladan, shamol, yog‘in-sochin, bulut, tuman avtomobil, havo va dengiz transportiga ancha ta’sir ko‘rsatadi. Tuproq va uning fizik xususiyatlari, gidrogeologik sharoit, ayniqsa, qattiq qatlamli avtomobil yo‘llarni qurishda e’tiborga olinadi.

Xo‘jalik va aholi joylashuvi ham transport turi va tarkibiga ta’sir etadi. Jumladan, tog‘-kon, og‘ir sanoat rayonlarida temir yo‘l, qishloq xo‘jaligi rayonlarida avtomobil transporti, o‘rmon xo‘jaligida daryo transporti katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi yaxshi rivojlangan, aholi zich

joylashgan voha va vodiylarda, shahar atrofida, rekreatsiya rayonlarida transport tizimi shunga mos ravishda mukammal hududiy majmua ko‘rinishida shakllanadi.

Transportning joylashuviga siyosiy geografik omil ham ta’sir qiladi. Masalan, sobiq SSSRning tarqalishi va yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi natijasida ichki chegaralar tashqi davlat chegarasiga aylandi, mamlakat ichki qismlarini bog‘lovchi transport tizimini shakllantirish zaruriyati tug‘ildi. Chunonchi, O‘zbekistonda yo‘l mustaqilligiga erishish maqsadida, Uchquduq-Janubiy Qoraqalpog‘iston, Toshg‘uzor-Boysun-Qumqo‘rg‘on temir yo‘lari qurilib ishga tushirildi. 2016-yilda uzunligi 125 km.li Angren-Pop temir yo‘li ishga tushirildi. Parij-Shanxay yoki Buyuk Ipak yo‘lini qayta tiklash uchun Angren-Pop avtomobil yo‘li kengaytirilmoqda, respublika poytaxtidagi yo‘llar magistrallashtirilmoqda.

Transport to‘rining joylanishida mamlakat hududining katta-kichikligi, tashqi qiyofasi (konfiguratsiyasi) muhim mazmunga ega. Agar mamlakat yoki rayon o‘zidan kattaroq hududning markazida joylashgan bo‘lsa, u holda uning markaziyligi transport aloqalarida o‘z ifodasini topadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasini olaylik: u shimoli-g‘arbdan janubi-sharqqa uzoq masofada cho‘zilgan, Markaziy Osiyoning qoq o‘rtasida joylashgan. Demak, O‘zbekiston qo‘shni davlatlar bilan aloqa qilishda qulay imkoniyatlarga ega. Ayni vaqtda, hududning kesuvchanligi, o‘tuvchanligi (tranzitligi) ham uning geografik o‘rniga bog‘liq.

Agar mamlakat dengiz yoki okean bo‘yida joylashgan bo‘lsa, unda suv va quruqlik transportining uyg‘unlashuvi talab qilinadi: dengiz transporti tashqi aloqalarni, daryo yoki quruqlik transporti tashqi aloqalarni ichki tizimi bilan tutashtiradi.

O‘z navbatida, quruqlik transporti ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishda turli xil geometrik shakllarni, majmualarni vujudga keltiradi. Masalan, O‘zbekiston

kartasida Toshkent-Jizzax-Bekobod, Samarqand-Buxoro-Qarshi uchburchagi, Farg‘ona xalqasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Aynan ana shu transport majmualari mamlakat milliy va mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Transport turlari, xususan, avtomobil transportini joylashtirishga ekologik omil ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Ma’lumki, hozirgi kunda, ayniqsa, shahar ekologik muhitining ifloslanishida avtomobillar qatnovining o‘rni yuqori. Avtomobil va samolyot qatnovlari muhitni shovqin jihatidan ham “ifloslantiradi”. Bunday holat, ayniqsa, yirik aeroport o‘rnashgan joylarda juda sezilarli.

Shahar tashqarisidagi magistral avtomobil yo‘llar yoqasida ham bu muhit yaxshi bo‘lmaydi. Shu bois, ba’zi bir ma’lumotlarga qaraganda, katta yo‘llarning ikki tarafidan 50 m masofada ozuqabop qishloq xo‘jalik ekinlarini ekish maqsadga muvofiq emas.

So‘nggi yillarda transport turlari ko‘payib va rivojlanib bormoqda, ularning joylanishi ham o‘zgarmoqda. An’anaviy temir va avtomobil, suv (daryo, dengiz va okean), havo transporti bilan bir qatorda, quvur transporti ham rivojlanib bormoqda. U ko‘pincha neft-gaz sanoati mavjud bo‘lgan hududlardan turli iste’mol rayonlariga tarqalgan. Taraqqiy etgan mamlakatlarda esa quvurlarda, hatto, qattiq jinslar – temir rudasi, ko‘mir kabilar ham yuboriladi.

Barcha transport turlarining ikki asosiy vazifasi bor – yuk va yo‘lovchilar tashish. Yuk tashishda transport iqtisodiyotida tashiladigan mahsulot yoki xomashyoning transportabelligi, masofasi va tarkibi, qiymati hisobga olinadi. Eng arzon, odatda, dengiz (okean) transporti hisoblanadi. Undan keyingi o‘rinda katta daryolardagi transport turadi. Temiryo‘l transporti ham bu borada ancha arzon hisoblanadi.

Transportning ham hududiy majmualari mavjud. Bunga transport tugunlari misol bo‘la oladi (Toshkent, Qo‘qon, Kogon, Navoiy, Termiz va b.). Yirik

transport markaz va tugunlarda o‘ziga xos obyektlar (ta’mirlash zavodlari, omborxonalar, bevosita transport bilan bog‘liq qurilish materiallari va boshqa sanoat korxonalari) joylashadi. Shu jihatdan yirik port, aeroport, temir yo‘l vokzallari ham o‘ziga xos hududiy majmualar hisoblanadi.

Mavzu yakunida yana bir masalaga e’tibor bermoq lozim. Bu ham bo‘lsa, yo‘l va transport munosabatidir. Yo‘l transport vositalaridan oldin paydo bo‘lgan va u hozirgi kunda transport, ya’ni masofani kesib o‘tishda infrastruktura darajasiga xizmat qiladi; yo‘llar transportsiz ham bo‘laveradi, lekin aksincha emas. Binobarin, yo‘llarning joylanishi transport joylanishiga hamma vaqt ham mos kelmaydi. Ayni chog‘da, aholi manzilgohlarining ichidagi yo‘llar “ko‘cha” deb ham ataladi. Transport to‘rining ahamiyati, eng avvalo, shundaki, u hududiy majmuani tashkil qiladi, mustahkamlaydi va bog‘laydi.

**Iqsodiy aloqalar geografiyasi.** Jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda rivojlangan va an’anaviy shakl – bu tashqi (xalqaro) savdo aloqalaridir. Hozirgi kunda xalqaro savdo ulushiga xalqaro iqtisodiy munosabatlar hajmining beshdan bir (1/5) qismi to‘g‘ri keladi.

Har qanday davlat uchun tashqi savdo rolini baholash qiyin. J.Saksning ta’rificha, “Har qanday mamlakat iqtisodiyoti tashqi savdoga asoslangan holda yuksaladi. Jahon iqtisodiyoti tizimidan uzilib qolgan birorta mamlakat hali sog‘lom iqtisodiyot yaratishga muvaffaq bo‘lolgani yo‘q”.

Xalqaro savdo turli mamlakatlarda tovar ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi xalqaro mehnat taqsimoti asosida vujudga kelgan aloqalar shaklidir. Ularning o‘zaro iqtisodiy bog‘liqligini aksmilliy savdo siyosati ta’siri ostida tarkibiy tuzilishlar – ixtisoslashish va sanoat ishlab chiqarishining kooperatsiyalashuvi, milliy xo‘jalik hamkorlik harakatini kuchaytiradi. Xalqaro savdo, butun davlatlararo oqimining o‘rtalikdagi harakati natijasida ishlab chiqarish tez sur’atlar bilan o‘sadi. Tashqi savdo oboroti tadqiqotlariga ko‘ra, dunyo ishlab

chiqarishining har 10% o‘sishga jahon savdosi hajmining 16% ko‘payishi to‘g‘ri keladi. Bu bilan uning taraqqiyotiga qulay imkoniyatlar paydo bo‘ladi. Ma’lumki, savdoda uzilish bo‘lsa, ishlab chiqarishning rivojlanishi ham susayadi.

“Tashqi savdo” deyilganda, u yoki bu mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan to‘lov orqali olib kelinadigan (import) va to‘lov orqali jo‘natiladigan (eksport) tovarlar savdosi tushuniladi.

Ko‘p turli tashqi savdo faoliyati tayyor mahsulotlar savdosiga tovar bo‘yicha ixtisoslashuviga, mashinalar va uskunalar, xizmatlar va xomashyo savdosiga bo‘linadi.

**Xalqaro savdo** deb, dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi tovar aylanmasi to‘lovlarining yig‘indisiga aytiladi. Biroq “xalqaro savdo” tushunchasi tor ma’noda ham ishlatiladi. Masalan, rivojlangan mamlakatlar sanoat tovar aylanmasi, yoki bu qit’a, mintaqa tovar aylanmasi bo‘lishi mumkin. Misol uchun, Sharqiy Yevropa va shu kabilar.

Eksport va import mutanosibligi savdo balansini hosil qiladi. BMT statistika nashri butun jahon mamlakatlari birgalikdagi eksport qiymatini xalqaro savdo hajmi dinamikasi bo‘yicha ma’lumotlar sifatida e’lon qiladi.

Tabiiy hol, jahon savdosi taraqqiyotida unga ishtirok etuvchi mamlakat manfatiga tayanadi. Xalqaro savdo nazariyasi tashqi savdodan yoki tashqi savdo oqimi yo‘nalishidan manfaatdor savdo mamlakatga o‘z ixtisoslashuvini rivojlantirib, mavjud resurslar ishlab chiqarishini oshirish, shu orqali aholi faravonligini yaxshilashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

**Xalqaro turizm.** Turizm – xalqaro xizmatlar savdosida muhim sohalardan biri bo‘lib, ayni paytda, jahon iqtisodiyotining jadal sur’atlarda o‘sayotgan sohalridan biridir. Bu soha biznesning ko‘proq daromad keltiradigan turlaridan. U yirik investitsiyalarni jalb etadi. O‘sib borayot-gan bandlikni ta’minlaydi. Daromad

tushumini ko‘paytiradi va shu jumladan, mamlakatda davlat budjeti tushumini ta’minlaydi.

Turizm o‘zida jahon iqtisodiyotining murakkab va har tomonlama sohalarini mujassam etgan holda, butun jahon xo‘jaligiga sezilarli ta’sir o‘tkazadi. Turizm alohida mamlakatlar xo‘jaligiga ham, hududlarga ham birday tegishli. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi valyuta tushumlarining yagona manbai hisoblanadi. Uning sharofati bilan iqtisodiy taraqqiyotning yuqori darajasi va xalq turmush farovonligi qo‘llab-quvvatlanib turiladi. Turizm jahon xo‘jaligining uch yetakchi eksport sohalari qatoriga kirib, u faqatgina neft qazib olish va avtomobilsozlik sanoatlaridan keyingi o‘rinni egallaydi.

Hozirgi paytda turizm sohasi ulushiga butun jahon eksportining 8% ga yaqini, jahon xizmatlar savdosining 30 foizi, jahon yalpi mahsulotining 10,8 foizi, jahon kapital qo‘yilmalarining 9,4 foizi, jahon iste’molchilik xarajatlarining 11 foizi, butun jahon soliq tushumlarining 5 foizi to‘g‘ri keldi. Bundan tashqari, turizm sohasi aholining bandligiga katta ta’sir o‘tkazmoqda. Mutaxassislar bahosicha, hozirgi zamon turizmi va u bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarda jahondagi har sakkizinchi xodim banddir.

Jahonning ko‘pchilik davlatlarida turizm yagona tizim sifatida rivojlanib bormoqda. Turizm mamlakat va uning xalqaro tarixi, diniy, ma’naviy, madaniy hamda urf-odatlari bilan tanishish imkoniyatlarini yaratib beradi. Turizm mamlakatlar budjetiga salmoqli daromad keltiradi. Shuningdek, u juda ko‘p xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq jismoniy va huquqiy shaxslarga yordam ko‘rsatadi. Turizm sohasi nafaqat eng yirik, balki jahon iqtisodiyotining eng dinamik holda rivojlanayotgan sektorlaridan biridir. U tez sur’atlarda o‘sishi bilan yuz yilning iqtisodiy fenomeni hodisasi sifatida tan olingan. XX asrning ikkinchi yarmi davomida xalqaro turistlar soni salkam 28 martaga ko‘paydi, bu xizmat turidan tushgan tushumlar esa 237 martaga oshdi.

Butun dunyo bo‘yicha turistik xizmatlarga o‘sib borayotgan talab, eng avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy sabablar bilan izohlanadi (umumiy daromadlar o‘sishi va bo‘sh vaqt ko‘payishi, haq to‘lanadigan ta’tillar muddatining ko‘payishi, pensiya ta’minotining yetarli darajasi, oila tarkibida bolalar kamayishi evaziga o‘zgarishi va h.k), shuningdek, transport taraqqiyotidagi o‘sish, uning arzonlashishi va hammaning qurbi yetishi, valyuta cheklovlarining kamaytirilishi yoki bekor qilinishi, viza rejimining liberallashtirilishi kabilar.

Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari kabi turizm ham xalqaro, ham milliy tartibga solishning obyekti hisoblanadi. Hukumatlararo turizmning rivojlanishiga javob beruvchi yetakchi tashkilot, BMT bosh assambleyasi Butunjahon turistik tashkiloti (World Tourist Organisation)ni tan oladi. BTT 1975-yildan buyon xalqaro turistik tashkilot rasmiy ittifoqi merosxo‘ri sifatida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.BTT a’zolikning quyidagi kategoriyalarini o‘z ichiga oladi:

1) haqiqiy a’zolar (suveren davlatlar, shu jumladan, ko‘pchilik MDH mamlakatlari va Rossiya);

2) assotsiyalashgan a’zolar (o‘zining tashqi siyosatiga mustaqil mas’ul emas hududlar);

3) qo‘shiluvchi a’zolar (hukumatlararo, nodavlat va notijoriy tashkilotlar va birlashmalar, ya’ni sohada faoliyat ko‘rsatayotgan, turizm uchun qiziqish bildirayotgan).

BTT xalqaro turizmni tashkil qilish bo‘yicha bir qator deklaratsiyalar va boshqa hujjatlar qabul qilgan, shu jumladan, turizm bo‘yicha Xartiya va turist xulqi Kodeksi (1985-y.), statistik ma’lumotnomalar va prognozlar nashr qiladi, turistik biznes uchun ma’lumotlar axborot bankini taklif qiladi. Unda xalqaro turizm uchun zarur bir qator muhim tushunchalar qayd etilgan (“turizm”, “turist” singari va boshqa).

Turizm salomatlikni mustahkamlashga yordam beradi va yashash joyidan tashqariga chiqish va faol dam olishni belgilaydi. Turizmda “turist” (tashrif buyuruvchi) va “ekskursant” tushunchalari ajratiladi. Turist deyilganda, har qanday shaxsning doimiy istiqomat qilib turgan mamlakatidan o‘zga davlat hududida kamida 24 soat yashab (sog‘lomlashtirish, bilimni boyitish, kasbiy – ishga doir, sport, diniy va boshqa maqsadlarda) qolishi tushuniladi, lekin bunda turist faoliyati 1 yildan oshmasligi lozim. Ana shunday belgilanish orqali turizm va iqtisodiy migiratsiya o‘rtasidagi chegara aniqlab olinadi. Xalqaro bitimlar bo‘yicha turist maqomi sayohatchi uchun qator imtiyozlar yaratadi, ya’ni sodalashtirilgan viza rejimi va yashash hamda transport xizmatlaridagi to‘lovlarda chegirmaga ega.

Chet elda 24 soatdan kam bo‘lmagan sayohatchi ekskursant hisoblanadi va bu, kategoriya, avvalo, G‘arbiy Yevropa va Sharqiy O‘rta Yer dengizi mamlakatlarida keng tarqalgan.

Turizm o‘zida turistik industriyaga birlashgan butun bir xizmatlar majmuasini mujassamlashtirgan: mehmonxonalar, boshqa vaqtincha joylashish vositalari (motellar, kempinglar va boshqalar), umumiy ovqatlanish obyektlari, ko‘ngilochar obyektlar va vositalar, bilimni boyitadigan obyektlar, ishga aloqador, sport va boshqalarga mo‘ljallangan xizmatlar. Turistik industriyaning tarkibiy qismlaridan biri bu turistik biznes hisoblanadi.

Turistik biznesda faoliyat olib boradi:

a) turistik mahsulotlar (tur) ishlab chiqaradigan turoperatorlar – firmalar;

b) turagentlar – mustaqil firmalar yoki turoperator bilan yozma kelishuvga muvofiq turistik mahsulotlarni tarqatuvchi turoperatorlar agentlari.

Turistik industriya – ko‘p mablag‘ va mehnat talab qiladigan soha. BTT bahosi bo‘yicha, 1990-y. oxirida xalqaro turizm ulushiga jahon yalpi ichki mahsuloti (YaIM)ning 11 foizi, tovar va xizmatlarning jahon eksportining 6 foizi va ishchi o‘rinlarining 10 foizga yaqini to‘g‘ri kelgan. Barcha mamlakatlar bo‘ylab

tashrif buyuruvchi har yilgi turistlar soni 900 mln kishiga yetgan. Shu bilan birga, o‘n yilda xalqaro turizm bir yarim martaga o‘sdi va o‘sishi davom etayapti. O‘sish sur’atlari bo‘yicha jahon YaIM o‘sishiga nisbatan tezroq. Bu ham XXI asr boshidanoq xalqaro turizmni jahon iqtisodiyotining yirik sohasiga aylanishi haqida mulohazalar bildirishga asos bo‘la oladi. Ammo sayohat dinamikasi milliy iqtisodiy konyunkturasiga shu jumladan, jahon xo‘jaligiga juda sezgir.

Hozirgi zamon turizmi uchun sezilarli hududiy notekislik xarakterlidir. Bunday qaraganda, u umumiy ko‘rinishda har xil ijtimoiy-iqtisodiy darajani aks ettiradi. Masalan, hozirgi vaqtda rivojlangan davlatlarga barcha turistik kelishlarning 57 foizi, endi rivojlanayotgan mamlakatlarga 30 foizi, o‘tish iqtisodiyot mamlakatlariga 13 foizi to‘g‘ri keladi. Turistik kelishlarning regional tahlili va daromadlari tahlili chog‘ida jahonning oltita turistik makroregionlari ajratiladi:

- **Yevropa** – G‘arbiy, Shimoliy, Janubiy, Markaziy va Sharqiy Yevropa, MDH, shuningdek, Sharqiy O‘rta Yer dengizi davlatlari (Isroil, Turkiya, Kipr).
- **Amerika** – Shimoliy, Janubiy, Markaziy Amerika mamlakatlari, Karib havzasi hududi va orol davlatlari.
- **Osiyo-Tinch okeani** – Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiy, Avstraliya va Okeaniya.
- **Afrika** – Afrika mamlakatlari, Misr va Liviyadan tashqari.
- **Janubiy Osiyo** – Janubiy Osiyo barcha mamlakatlari.
- **Yaqin Sharq** – G‘arbiy mamlakatlari va Janubi-G‘arbiy Osiy, Misr va Liviya.

Deyarli 62% xalqaro turistik safarlar dam olish maqsadida amalga oshiriladi, ishga aloqador turizm 20%, qolgan 18 foizi esa boshqa maqsadlarga: tanishlar, qarishdoshlarnikiga tashrif, diniy sayohat (ziyorat, davolanish va h.k.)ni tashkil qiladi.

2020-yilgacha bo‘lgan davrda xalqaro kelishlar BTT prognozlari bo‘yicha ikki martadan ziyodroqqa ko‘payadi. (2003-yilgi 694 mln.dan 2010-yilda 1 mlrd. gacha va 2020-yilgacha 1,56 mlrd. gacha). Bu o‘rtacha o‘sish sur’atlaridan ozgina ko‘p yiliga 4% shu bilan birga, yillik o‘sish sur’atlari Osiyo-Tinch okeani hududida, Janubiy Osiyo, Afrika va O‘rta Sharqda 5% oshadi. Yevropa va Amerikada esa o‘sish ko‘rsatkichlari o‘rtachadan past (3 va 3,9 foiz) bo‘ladi.

BTT va YeI komissiyasi prognozlari asosida turistik industriyaning asosiy rivojlanish tendensiyalari quyidagilar:

➢ uzoq masofaga hududlararo safar ulushi ortadi (1995-y. 17,9 foizni tashkil etadi, 2020-yilga borib esa 24,2 foizgacha ko‘payadi). Bunday safarlarga keyingi va tez narx tushishi tendensiyasi – kuzatiladi, ayniqsa, yuqori tezlikdagi aviatexnika keng tarqala boshlagach shunday bo‘ladi;

➢ turizmda tashqi omillar ta’siri kuchayadi: iqtisodiy vaziyat, siyosiy, sayohat xavfsizligi darajasi;

➢ turizmga: kompyuter rezervatsiya tizimi, texnologik taraqqiyot, aviatashish takomillashuvi, elektron axborot, kommunikatsion tizim sezi-larli ta’sir o‘tkazadi;

➢ havo transportidan foydalanish kengayadi (qulay, to‘g‘ridan-to‘g‘ri reyslar soni ko‘payishi natijasida).

**Erkin savdo hududi** – iqtisodiy integratsiyalarning boshlang‘ich darajasi bo‘lib, u mamlakatlarning soliq to‘lashda maxsus imtiyoz tartibiga amal qiladigan alohida hududidir. Unga kiritilgan tovarlar boj va kvotalar to‘lovidan ozod etiladi va bojxona nazoratidan xoli bo‘ladi. Bunda har bir davlat shaxsiy savdo-iqtisodiy siyosatini uchinchi mamlakat munosabatlariga ham o‘tkazish imkoniyatiga ega. Ko‘p hollarda erkin savdo hududlarida yaratilgan shart-sharoitlar tufayli qariyib barcha mahsulotlar savdosi amalga oshiriladi. Bundan faqatgina qishloq xo‘jalik mahsulotlari mustasno xolos. Savdo hududi unga a’zo mamlakatlardan biriga joylashgan uncha katta bo‘lmagan davlatlararo kotibiyatda markazlashishi

mumkin. Ammo, tegishli hujjatlarga doir rahbariyat davriy yig‘ilishlarda o‘z taraqqiyotining asosiy parametrlariga xayrixoh bo‘lib, ularning ba’zilari busiz ham o‘z savdo faoliyatlarini amalga oshirishlari mumkinligi ayon bo‘ladi.

Erkin savdo hududiga, asosan, 1960-yilda tashkil etilgan Yevropa Erkin savdo assotsiatsiyasi (EAST) kiradi. Uning tarkibida Avstriya, Finlayandiya, Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya, Shvetsiya kabi bir qator mamlakatlar bor. Yevropa iqtisodiy hududi (1994-y.)da esa Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamda Islandiya va Lixtenshteynlar mavjud.

Boltiq bo‘yi erkin savdo hududiga – Estoniya, Latviya, Litva davlatlari kiradi (1993-yilda tashkil etilgan).

Markaziy Yevropa erkin savdo hududi 1992-yilda tuzilgan bo‘lib, uning tarkibiga – Chexiya, Vengriya, Polsha, Slovakiya mamlakatlari kiradi.

Shimoliy Amerika erkin savdo hududi (1994-y.) a’zolari – Kanada, Meksika, AQSh davlatlari.

ASEAN mamlakatlari erkin savdosi haqida kelishuvi (1992-y.) – Bruney, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur, Tayland davlatlarini birlashtiradi.

Iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuvi haqida Avstraliya va Yangi Zelandiya savdo kelishuvi (1983-y.) tashkil etilgan.

Bangkok kelishuvi (1993-y.) – Bangladesh, Hindiston, Koreya Respublikasi, Laos, Shri-Lanka davlatlaridan iborat.

**Iqtisodiy ittifoq** – integratsiyaning oliy shakli bo‘lib, bunda qatnashuvchi mamlakatlar o‘z iqtisodiy siyosatlarini, shu jumladan, pul, soliq va ijtimoiy siyosatlarini, shuningdek, savdoga hamda ishchi kuchi va sarmoya ko‘chib yurishiga nisbatan siyosatni muvofiqlashtiradilar. Unda bojxona tariflari, tovar va ishlab chiqarish omillari, mikroiqtisodiy siyosat koordinatsiyalari, valyuta, budjet, pul sohalarida qonunchilikning unifikatsiyasi ko‘rib chiqiladi.

Dunyoning iqtisodiy ittifoqiga – Yevropa hamjamiyati (YH), keyinroq *Yevropa Ittifoqi* (1993-y.) a'zo bo'ldi. Hozirgi kunda Yevropa ittifoqqiga 27 ta mamlakat qo'shilgan. Ular quyidagilar: Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Vengriya, Germaniya, Gretsiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Litva, Latviya, Kipr, Gollandiya, Portugaliya, Polsha, Ruminiya, Sloveniya, Slovakiya, Serbiya, Fransiya, Finlandiya, Shvetsiya, Chexiya, Estoniya, Xorvatiya.

*Benilyuks* iqtisodiy ittifoqi (1948-y.) – Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg davlatlarining integratsion faoliyatidan vujudga kelgan.

*Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi*, ya'ni MDH(1992-y.) – Armaniston, Ozarbayjon, Belorus, Ukraina, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekistonning a'zo bo'lishidan tarkib topgan.

*Mag'rib arab ittifoqi* (1989-y.) – Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Marakko, Tunis davlatlarini o'z ichiga oladi.

*Lagos harakat rejasi* (1973-y.) – Afrika janubidan Sahroi Kabirgacha bo'lgan mamlakatlar kiradi. Ular integratsiya va xavfsizlik bo'yicha o'zaro hamkorlik qiladilar.

*Manu daryosi ittifoqi* (1973-y.) – Gvineya, Liberiya, Serra-Leonelar a'zodir.

*G'arbiy Afrika iqtisodiy va valyuta ittifoqi* (1994) – Benin, Burkina-Faso, Kot-d'Ivuar, Mali, Niger, Senegal, Togo davlatlaridan tarkib topgan.

**To'liq iqtisodiy integratsiya** – a'zo mamlakatlar guruhlari yagona iqtisodiy siyosatining o'tkazilishiga qarab tiplari aralashadi. Ular integratsion ittifoq chegarasida huquqiy qonunchilikning unifikatsiyasini talab qiladi. To'liq iqtisodiy integratsiya barcha a'zo mamlakatlar uchun valyuta siyosatini talab qiladi. Yagona valyuta munosabatlarida yagona valyuta tizimi va yagona valyuta mexanizmi mavjud. Yagona valyuta, valyuta nazoratining yagona qoidalari, umumiy markaziy bank va boshqalar kiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, integratsion jarayonlar

makroiqtisodiy darajada ham, mikroiqtisodiy darajada ham muhim xarakterga ega. Shuning uchun bu integratsiyaning ikki darajasi parallel ravishda o‘tadi. Ular ko‘p kesishmaydi, bir-biri bilan yaqinlashadi va bir-birini to‘ldiradi. Integratsiyaning makroiqtisodiy darajasini egallash an’anasi aniq integratsion guruhga a’zo mamlakatlar davlatlararo iqtisodiy munosabatlarini nazorat qilishni ko‘chaytirishga to‘la mos keladi. Yo‘nalishlarning turli shakllari, makro va mikro integratsiyaning mos kelishi iqtisodiy jihatdan ham, integratsion birlashuv jihatdan ham xarakter kasb etadi. U yoki bu iqtisodiy integratsiya tiplarining yaratilishi va amal qilishida siyosiy omillar ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

**Jahondagi asosiy hududiy integratsiyalashgan uyushmalar.** Iqtisodiy integratsiyaning obyektiv jarayonlari dunyoning boshqa hududlarida ham rivoj topmoqda. Masalan, Lotin Amerikasi, Osiyo va Afrikada o‘ttizdan ziyod erkin savdo, boj va iqtisodiy itifoq zonalari faoliyat yuritmoqda. Iqtisodiy integratsiya rivoj topgan guruhlardan biri – 1994-yil yanvarida AQSh, Kanada va Meksika mamlakatlarida tashkil etilgan shimoliy Amerika erkin savdo hududi – NAFTA dir. Mazkur blok aholisi 500 mln kishidan ortiq va yirik iqtisodiy imkoniyatga ega hududni o‘z ichiga olgan. Bu mamlakatlarning yillik mahsuloti va ko‘rsatgan xizmati 3 trln dollardan oshadi. Dunyo savdo hajmida bu mamlakatlar ulushi qariyib 20 foizni tashkil etadi.

NAFTA dagi integratsiyalashuv jarayonlari AQSh, Kanada va Meksikadagi mavjud texnologiyalar, ishchi kuchlari, kapital va umumiy mol-mahsulot bozoridagi holatni YIga a’zo mamlakatlar bozoriga kiritishni ham o‘z ichiga oladi. NAFTA kelishuvining eng muhim vositasi, bu – unga a’zo uchala mamlakatdagi mavjud integratsiya muno-sabatlarida investitsion baryerlar hamda integratsiya bo‘layotgan mahsulotlar savdosini 2020-yilgacha zamonaviylashtirib borishdan iborat.

NAFTA kelgusida “Merkosur” (u 1991-yil Argentina, Braziliya, Urugvay, Paragvay o‘rtasida tashkil topgan) bloki bilan savdo-iqtisodiy soha integratsiyalashuvga ko‘ra, 2020-yillarda AQSh uchun asosiy integratsion yo‘nalish hisoblangan – Osiyo-Tinch okeani hududi (ATR)ning “integratsion to‘g‘on”ini zabt etish mo‘ljallangan.

XX asr oxirlariga kelib integratsiyalar jarayonining asosiy kuchi Osiyo-Tinch okeani (OTOH) hududida birlashdi. Ular o‘zlarida mavjud gigant imkoniyat va kuchlar hamda 3,5 mlrd.ga ega bo‘lgan aholisi bilan katta hududga ega bo‘lishdi. Ushbu hudud hisobiga hozirda 565 turdagi dunyo yalpi ichki mahsulotlarini ishlab chiqarish va jahon eksporti va importining 45 foizlik ulushi to‘g‘ri kelmoqda.

Osiyo-Tinch okeani hududi integratsion jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- bu integratsiyaga iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar jalb etiladi;
- integratsiya jarayonlari hududidagi mamlakatlar firma va korporatsiyalari o‘rtasida, asosan, makroiqtisodiy darajalarning yuqoriligi;
- integratsiya jarayonlarining maxsus alohida hududlarda yuqori darajada ro‘y berishi;
- integratsiya jarayonlari yuqori tayyorgarlikda tashkil etilmagan hududlarni rivojlantirishi;
- mavjud integratsion guruhlarning aniq rasmiylashtirilmaganligi.

Osiyo-Tinch okeani hududi bir qator subregional birlashmalar, ya’ni Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN). Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati tashkiloti (ATEC) – Avstraliya, Yangi Zelandiya erkin savdo hududi, Janubi-Tinch okean forumi (YuTF), Tinch okeani iqtisodiy soveti (TES)dan tashkil topgan.

Osiyo-Tinch okeani hududi jarayonlarida asosiy rolni Yaponiya o‘ynaydi. So‘nggi yillarda uning yoniga “Osiyo yo‘lbars”lari (Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur, Gonkong) hamda AQSH va Xitoy qo‘shildi. Hozirda integratsiya jarayonlari faollashayotgan yana bir birlashma Janubiy-Sharqiy Osiyo (ASEAN) mamlakatlari bo‘lib, u 1967-yilda olti mamlakat – Bruney, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur, Tailand negizida tashkil topgan. 1995-yilga kelib, ular safiga Vyetnam ham qo‘shildi. ASEAN mamlakatlari bir-biri bilan o‘zaro yuqori darajada integratsiyalashuvga kirishdilar va shu bilan birga, Yaponiya, AQSh, Janubiy Koreya, Tayvan va so‘nggi yillarda Xitoy bilan ham bu aloqalarni kuchaytirgan.

1989-yilda tashkil topgan Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati tashkiloti (ATEC) Janubiy Osiyoda iqtisodiy integratsiya taraqqiyotini rivojlantirdi. Uning tarkibiga 21 ta Osiyo va Janubiy hamda Shimoliy Amerika mamlakatlari kiradi. 1997-yilda esa, ular qatoriga Rossiya ham qo‘shildi. ATES rejasiga ko‘ra, dunyo erkin savdo hududida bu mamlakatlar boj va ichki baryerlar to‘lovidan ozod etilgan.

Integratsion jarayonlar Yer sharining turli hududlarida, turli qit’alarda jadal holda rivojlanmoqda. Ya’ni, Afrika, Yaqin Sharq, Lotin Amerikasi, Avstraliya va Okeaniya, Markaziy Osiyoda, 1989-yilda Afrika kontinentining shimoliy qismida Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Marakko, Tunislardan iborat Mag‘rib arab ittifoqi tuziladi. 1981-yilda esa Fors ko‘rfazi atrofidagi arab davlatlari (Saudiya Arabistoni, Quvayt, Qatar, Bahreyn, BAA, Ummon)dan iborat hamjamiyat kengashi (soveti) tashkil etilgan. Sobiq Sovet ittifoqi respulikalari 1991-1993-yillar mobaynida MDH doirasida Iqtisodiy ittifoqni shakllantirishga harakat qildilar. 1992-yilda esa Eron, Pokiston, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston va O‘rta Osiyo mamlakatlaridan iborat Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyat tashkiloti tuzilganligi e’lon qilindi.

1996-yilda Rossiya va Belorus hamkorligi, 1995-yilda esa Yevrosiyo iqtisodiy hamkorligi (Rossiya, Belorussiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston davtlari) bojxona ittifoqi va yagona iqtisodiy makon to‘g‘risida, 1998-yilda Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorligi tashkilotini (Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlatlari) tuzdilar. Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, O‘zbekiston Tojikiston va Qirg‘iziston davlatlari Shanxay Iqtisodiy Hamkorligi tashkilotini keyinchalik esa uning negizida Yevroosiyo iqtisodiy hamkorligi tashkilotini barpo etdilar. Kelajakda ushbu tashkilotga a’zo bo‘lib kirish uchun Mongoliya, Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston, Eron kabi mamlakatlar o‘z xohish-istaklarini bildirdilar.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Sanoat tarmog‘i nima va u qaysi belgilar asosida ajratiladi?
2. Sanoat korxonalarini joylashtirishga qaysi omillar ta’sir qiladi?
3. Qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Qishloq xo‘jaligining hududiy tashkil etish shakllari qanday va ular ushbu tarmoq iqtisodiyotiga qay darajada ta’sir ko‘rsatadi?
5. MDH davlatlari integratsion taraqqiyotida qanday imkoniyatlar mavjud?

## 10- BOB. IQTISODIY GEOGRAFIYANING ASOSIY TUSHUNCHALAR

Reja:

10.1. Geografiyada "Geografik o‘rin" tushunchasining nazariy asoslari.

10.2. Tabiiy-geografik o‘rin va uning ilmiy tushunchalari.

10.3.Iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rin tushunchasining ilmiy asoslari.

Tabiiy-geografik o‘rin – bu ayrim mamlakat, joy yoki nuqtaning tabiiy borliqqa (obyektga) nisbatan joylashishidir (materiklarga, tog‘larga, okeanlarga,

dengizlarga, daryolarga va h.k.). Mamlakatning tabiiy-geografik o‘rni uning iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga turlicha ta’sir qilishi mumkin. Tabiiy-geografik jihatdan qulay joylashish uning rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi, noqulay joylashish aksincha iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi (cho‘llarda, qutbiy hamda baland tog‘li o‘lkalarda joylashishi va h.k.). Mamlakatning yoki ma’lum bir joyning tabiiy-geografik o‘rni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- materik yoki qit’aning mamlakat joylashgan qismi (markazida, dengiz bo‘yida, tog‘ oldida, tekislikda, shimolida, sharqida, janubida, g‘arbida va h.k.);

-ekvatorga va Bosh meridianga nisbatan joylashishi (chekka nuqtalarning koordinatalari);

-okeanlarga, dengizlarga, iliq yoki sovuq havo massalariga, tog‘ tizmalariga, Erning issiqlik mintaqalariga nisbatan joylashishi;

-mamlakatni u yoki bu iqlim mintaqasi va undagi tabiat zonalarida joylashganligi (masalan, Indoneziya ekvatorial iqlim mintaqasida, doimiy yashil o‘rmonlar zonasida joylashgan yoki Rossiya arktika, subarktika va mo‘tadil iqlim mintaqalarining hamma tabiat zonalarida joylashgan).

Tabiiy geografik o‘rin, asosan, okean, dengiz, daryo, tog‘, cho‘l, o‘rmon, adir singari yirik tabiiy obektlarga nisbatan joylashgan o‘rniga ko‘ra belgilansa, iqtisodiy geografik o‘rin jahonning erkin iqtisodiy mintaqalari, jahon savdo yo‘llari, yirik savdo-sanoat markazlari va tabiiy boyliklardan foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Siyosiy geografik o‘rin esa muayyan davrda alohida davlatning harbiy mojarolar ro‘y berayotgan yoki ro‘y berishi mumkin bo‘lgan hudud va davlatlarga nisbatan qanchalik aloqadorligiga ko‘ra baholanadi. Geografik obektlar o‘zaro aloqador bo‘ladi. Ana shu aloqadorlik ko‘lamiga muvofiq geografik o‘rin mikro, mezo, makro miqyosda namoyon bo‘ladi.

**Iqtisodiy geografik o‘rin.** Iqtisodiy geografik o‘rin –iqtisodiy geografiyaning aniq tushunchasi, uning “kalitidir” Chunki, ushbu tushuncha orqali

korxona, shahar yoki boshqa hududiy obyektlarning nima uchun xuddi shu joyda qurilganligi va nima sababli shu darajaga etganligini anglab olinadi. Shu naqtai nazardan iqtisodiy geografik o‘rinni iqtisodiy geografik bilimning o‘ziga xos usulidir (iqtisodiy rayonlashtirish ham xuddi shunday metod sifatida qarash mumkin.

**Iqtisodiy geografik o‘rin** - bu ma’lum bir obyektning korxona, shahar, viloyat, mamlakat o‘zidan tashqarida yotgan geografik obyektlarga (tog‘, daryo, dengiz, chegara, konlar, yo‘l va h.k.) nisbatan joylashuvi va ularning ko‘rilayotgan obyektning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri demakdir.

**Bu yerda quyidagilarga e’tibor bermoq lozim:**

- iqtisodiy geografik o‘rin tushunchasida ko‘rilayotgan obyekt bitta, yagona, uning tashqarisidagi, atrofdagilar esa bir nechta;

- markaz va tashqi obyektlar o‘rtasida hududiy iqtisodiy aloqa va munosabatlar bo‘ladi va ular bir tomonga, ya’ni ko‘rilayotgan joyga nisbatan taxlili etiladi;

- iqtisodiy geografik o‘rin tarixiy tushunchadir, chunki ma’lum bir joyning o‘rni vaqt o‘tishi bilan qulay yoki noqulay bo‘lishi mumkin;

- iqtisodiy geografik o‘rin turli bosqichli (mikro, mezo va makro o‘rin) va har xil tarkibiy qismlarga ega (gidrogeografik, antropogeografik, transport-geografik o‘rin va h.k.) ;

- iqtisodiy geografik o‘rin davlat darajasida ko‘rilganda u siyosiy mazmunga, ya’ni siyosiy geografik o‘rin ma’nosini oladi.

Qator misollarga murojat qilaylik: Toshkent viloyatidagi Bekobod shahrida respublikamizda yagona qora metalllurgiya korxonasi qurilgan. Nima uchun ushbu korxona aynan shu shaharda joylashtirilgan? SababiBekobodning iqtisodiy geografik o‘rin qulay: u Toshkent, Mirzacho‘l, hamda Farg‘ona iqtisodiy rayonlariga yaqin joylashgan; shahar yaqinida Farhod GES, qurilish bazasisement

zavodi ham mavjud; korxona mahsuloti asosan Toshkent sanoati uchun kerak. Nima sababdan Chust, Nurota, G‘ijduvon, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlar juda qadimiy, boy tarixga ega bo‘lishiga qaramasdan hamon katta markaz emas, yaqindagina vujudga kelgan Navoiy esa tez orada katta shaharlar qayeriga kirdi? Bu savolga ham javobini ko‘proq ularning iqtisodiy geografik o‘rnidan qidirish kerak.

Yer yuzidagi aksariyat yirik shaharlar ularning qulay geografik o‘rin orqali mashhurdir. Masalan, Istambul, Singapur, Aleksandriya,Volgograd, Novosibirsk, Shanxay, Sankt-Peterburg, London, Rim, Rio de-Janeyro va h.k.

Jahon geosiyosiy xaritasida va hamjamiyatida Britaniya, Yaponiya, AQSh kabi davlatlarining yuqori darajada taraqqiy ekanligi va, ayni vaqtda, Afg‘oniston, Nepal, Butanga o‘xshash mamlakatlarning nisbatan sust rivojlanganligini, qoloqligi ko‘p jihatdan ularning geografik o‘rni bilan izohlanadi. O‘zimizning vatanimiz O‘zbekiston bir vaqtlar Buyuk ipak yo‘lida, katta karvon yo‘lida joylashtirilganda juda qulay geografik mavqega ega. Keyinchalik jahon madaniyati va savdosida degiz hamda okeanlar ahamiyatining oshishi natijasida bu qulaylik o‘z kuchini yo‘qotdi. Hozirgi kunda esa yurtimiz iqtisodiy geografik o‘rnini yana yaxshilashga katta e’tibor berilmoqda.

Iqtisodiy geografik o‘rin katta harbiy va siyosiy mazmunga ega. Bunga misol qilib, Ikkinchi jahon urushida Gitler qo‘shinlarining Moskva va Staliningradga jon-jahdi bilan hujumi yoki Misr Arab Respublikasidagi Aleksandriyadagi bo‘lgan janglarni keltirish mumkin. B. Napoleon: “agar Kiyevni olsam, Rossiyani oyog‘idan ushlayman, Peterburgni zabt etsam uni bo‘g‘izlayman, Moskvani egallasam Rossiyaning yuragini majaqlayman” degan edi. Mashhur rus (sovet) olimi N.N.Baranskiy “Dnepr Rossiyani O‘rta dengiz mamlakatiga Volga esa uni Osiyo malakatiga aylantiradi”, deb yozgan edi.

O‘zbekiston Respublikasining geosiyosiy va geostategik mavqeyiga, uni yaxshilash va undan samarali foydalanish masalalariga mamlakat I Prezidenti I.Karimov o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” (-T., 1997) nomli kitobida katta ahamiyat berilgan.

**Siyosiy geografik joylashish** deganda, ma’lum bir davlatning siyosiy kuchlarga, harbiy tashkilotlarga, kuchli agressiv davlatlarga nisbatan joylashishi tushuniladi. Siyosiy-goegrafik joylashishning qulayligi yoki noqulayligi inqiloblar, davlat to‘ntarilishlari, urushlar va boshqa jarayonlar tufayli o‘zgarib turadi.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Iqtisodiy geografik o‘rin nima?
2. Siyosiy geografik joylashish nima?
3. Geografik o’rinning geosiyosiy sharoitga qanday bog’liklari bor/
4. Geografik joylashuvning qaysi turi taraqqiyotga ko’proq ta’sir ko’rsatadi?
5. Mamlakatimiz taraqqiyotida geografik joylashuvning qaysi turi nisbatan to’siq bo’lmoqda?

## 11- BOB. GEOGRAFIK TUZILMALAR

11.1. Ishlab chiqarish kuchlari, ularni rivojlantirish va joylashtirish masalalari.

11.2. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish shakllari.

11.3. Erkin iqtisodiy zonalar (hududlar).

11.4. Geografik mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlarning shakllanishi.

11.5. Iqtisodiy geografik o‘rin.

11.6. Aholi migratsiyasi jarayonlari.

Inson (jamiyat) ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiat ne’matlari va kuchlarini o‘ziga moslashtirishdan iborat iqtisodiy jarayon **ishlab chiqarish** deb yuritiladi. Ko‘rinib turibdiki, ishlab chiqarish insonlarning ma’lum maqsadga

muvofiq yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib, ehtiyojlarni to‘laroq qondirishga mo‘ljallangandir. Bu jarayon ishlab chiqarish omillari – mehnat, kapital, yer va tadbirkorligining o‘zaro bog‘liq harakat faoliyati natijasida yuzaga keladi va jamiyat ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotini tezlashtiradi hamda jamiyat ehtiyojlarini to‘laroq qondirish uchun shart-sharoit hozirlaydi.

Bugungi ishlab chiqarish ikkita yirik bir-biri bilan bog‘liq sohalar:

a) **moddiy ishlab chiqarish** – ya’ni sanoat, qishloq va o‘rmon xo‘jaligi, qurilish, transport va aloqa (kommunikatsiya tizimi), savdo va umumiy ovqatlanish, moddiy texnika ta’minoti (logistika);

b) **nomoddiy yoki ijtimoiy-madaniy sohalar** – ya’ni madaniyat, ta’lim tizimi, sog‘liqni saqlash, fan, boshqaruv uy-joy va kommunal xizmat, xizmat ko‘rsatish (servis) va axborotlar tizimidir.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, XX asrning 50-yillaridan boshlab ITI ta’sirida moddiy sohalardagi chuqur sifat o‘zgarishlari ijtimoiy-iqtisodiy sohalar taraqqiyotiga yoki iqtisodiyotning ijtimoiylashuviga kuchli ta’sir etmoqda. Natijada, moddiy sohalarga nisbatan “murakkab – servis” sohalarining YaMM dagi hissasi uzluksiz ortib bormoqda. Bu jarayon deyarli barcha bozor iqtisodiyoti mamlakatlari uchun xos bo‘lib ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi va taraqqiyotida hamda ularni mamlakatlar, mintaqalar va xalqaro ko‘lam-da hududiy joylashishida ham o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishning asosiy tamoyillari:

- ishlab chiqarish tizimlarini xomashyo manbalari, yoqilg‘i va ener-giya resurslar, iste’mol mintaqalariga yaqin joylashtirish;
- yuqori samarali bo‘lgan tabiiy resurslarni o‘zlashtirish va majmuali foydalanish tizimini barpo qilish;

- mamlakat va mintaqalarda ekologik holatni sog‘lomlashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishning samarali mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish, tabiatdan foydalanishning boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- xalqaro kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish va qulay geostrategik mavqeyidan samarali foydalanish asosida xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokini chuqurlashtirib, kengaytirib borish yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlantirish;
- yirik shaharlarning haddan tashqari rivojlanishini tartibga solish, kichik va o‘rta shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirish, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tabaqalanish jarayonini boshqarish, iqtisodiyot tarmoqlari dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

XX asr 50-yillarining o‘rtalaridan boshlangan ilmiy-texnika inqilobi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, hududiy tashkil qilishni takomillashtirishning klassik nazariyalariga bir qator “tuzatishlar” kiritdi. Bunday tuzatishlar: a) sanoatning o‘ta yangi tarmoqlari, avvalo ilmiy tadqiqot va loyihalash-tajriba ishlari bilan chambarchas bog‘liq “ilmtalab” sohalarning gurkirab rivojlanishi; b) qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi-ning sanoat asoslariga ko‘chishi – agrosanoat majmuasining (agrobiznes) rivojlanishi; v) infrastruktura sohalarining milliy daromaddagi hissasining barqaror ortib borishi; g) ishlab chiqarish tizimini tobora transport-geografik o‘ringa va xomashyoga bog‘liqligining qisqarib borish jarayoni; d) ilmiy-tadqiqot ishlari va loyihalash-tajriba markazlari rolining ortib borishi; j) yuqori malakali mehnat hissasining tobora keng rol o‘ynashi; z) ijtimoiy-ekologik omillar – ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylashishida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Chunonchi, 70-yillarning o‘rtalaridan boshlab ishlab chiqarish tizimidagi o‘zgarishlar keng sur’atda

“markazdan qochma” yo‘nalishi (bir mamlakat va jahon xo‘jaligi doirasida) va sohil bo‘yiga to‘planish negizida port-sanoat ishlab chiqarish majmualarining yuzaga kelishi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida katta o‘rin tutishi bilan bog‘liq.

**Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylashishiga ta’sir etuvchi umumiqtisodiy qonunlar.** Qonun – tabiat va jamiyatdagi voqea va hodisalarning (o‘zaro aloqadorligini) barqaror takrorlanib turuvchi sabab-oqibat bog‘lanishlarini ifodalasa, qonuniyat voqea va hodisalarning ketma-ketligining barqarorligini va qonunlar majmuasininig o‘zaro uyg‘unligini ifodalaydi.

Ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining butun tarixiy-geografik bosqichlarida amal qiladigan ularning sababiy aloqa va o‘zaro ichki bog‘lanishlarini ifodalaydigan iqtisodiy qonunlar majmuasi umumiy iqtisodiy qonunlar deyiladi. Iqtisodiy qonunlar majmuasi ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqaruvchi kuchlarning xarakteri va rivojlanish darajasi bilan bog‘liqligi, samarali ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, mehnat unumdorligining oshib borishi, iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarning oshib borishi, ishlab chiqarish jarayonlarining umumlashuvi va iqtisodiy integratsiyasining chuqurlashuvi, davlat monopolistik mulki va iqtisodiyotning rivojlanishi ishlab chiqarish monopolizmi va davlatning antimonopolistik tadbirlari, davlatning iqtisodiyotning boshqaruviga aralashuvi, mintaqaviy rejalashtirish va bashorat qilish, mintaqaviy, iqtisodiy rayonlashtirish kabilardan iborat.

Ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqarish kuchlari xarakteri va rivojlanish darajasiga mos kelishi jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi. Ayni vaqtda, ishlab chiqarish munosabatlari (moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish jarayonlaridagi o‘zaro munosabatlar majmuasi) ishlab chiqarish kuchlarining belgilovchi ta’siri ostida rivojlanadi.

Bugungi kunda, bozor iqtisodiyotiga o‘tish va bozor munosabatlarini shakllantirish, murakkab va umuminsoniy jarayon bo‘lib, obyektiv zaruriyatga aylandi. Chunki, bozor iqtisodiyoti jahon sivilizatsiyasining g‘oyat ulkan yutug‘i sifatida –iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini uzluksiz ta’minlovchi iqtisodiy tizim ekanligini isbotladi.

Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarish kuchlaridan unumli va samarali foydalanishni ta’minlash bilan shunga mos yuksak ishlab chiqarish munosabatlarini ham yuzaga keltiradi. Chunki iqtisodiy taraqqiyot yo‘li yangi tizim zaminida inson manfaatini yuzaga chiqarish, uning mehnatini qadrlash, aholining nochor qatlamini sotsial himoyalash maqsadlari yotadi. Bozor iqtisodiyoti tajribasi uning amal qilish mexanizmi ijtimoiy yangilanishning eng samarali vositasi hisoblanadi, u xalqning ijodiy va mehnat salohiyatini to‘la ishga tushiradi, boqimandalik va tekinxo‘rlik kayfiyatiga chek qo‘yadi. Iqtisodiy tashabbus va ishbilarmonlikni rivojlantiradi. Har bir kishining milliy boylikni o‘stirish mas’uliyatini oshiradi, har bir kishini boy qilish orqali jamiyatni ham boyitib boradi.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda qonuniyatlar bilan bir qa-torda tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-demografik va ijtimoiy-ekologik omillar ham muhim o‘rin tutadi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish omillari ishlab chiqarish korxonalari, korxonalar guruhi, milliy xo‘jalik tarmoqlarini oqilona joylashtirish uchun hisobga olinmog‘i lozim. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishdagi omillarni, ularning belgilovchi roliga ko‘ra, 4 guruhga bo‘lish mumkin:

- *Tabiiy* omillar;
- *Ijtimoiy-iqtisodiy* omillar;
- *Ijtimoiy-demografik* omillar;
- *Ijtimoiy-ekologik* omillar.

1. Ishlab chiqarish kuchlarining tabiiy omillari – tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning iqtisodiyotning tarmoq hamda rayonlarning rivojlanishiga ta'siridan iborat. Bunda yer resurslari, foydali qazilmalarning joylashishi, miqdori, sifati, foydalanish darajasi, iqlim va suv resurslari, o'rmon resurslari muhim o'rin tutadi.

Ayniqsa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarmoqlarining joylashishida tabiiy sharoit – havo harorati, vegetatsiya davri, yog'inlar miqdori va uning davri, yer osti suvlarining ko'tarilish darajasi, shamollar, yer usti tuzilishi (relyef), yaylovlar va ularning mahsuldorlik darajasi, yer fondi va uning tarkibi, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar, tuproq tarkibi va tabiiy unumdorlik darajasi kabi omillar majmuasining o'rni katta.

Sanoatning muhim tarmog'i – qazib beruvchi sanoat tarmoqlari (tog'-kon sanoati) tabiiy resurslarga, ya'ni mineral xomashyo resurslarining tog'-geologik sharoitlari, ruda va rudali xomashyolarning yer ostida joylashishi darajasi, sifati (ruda tarkibida metall miqdori), rangli metallar majmuasi, neft va tabiiy gaz sifati, ko'mir (qatlamlarining joylashish va qalinlik darajasi kabilar), baliq-konserva, oziq-ovqat, o'rmon-sellyuloza korxonalari xomashyoga bog'liq holda joylashadi. Ayniqsa, qora metallurgiya (cho'yan, po'lat va prokat), gidroliz, o'rmon-sellyuloza, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish korxonalari (1 tonna mahsulot ishlab chiqarishga 2 tonnadan 6-7 tonnaga qadar xomashyo talab qiladi) joylashishida xomashyoga bog'liqlik kuchlidir.

2. Ishlab chiqarish kuchlarining joylashishida ijtimoiy-iqtisodiy, ya'ni davlatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi, davlat siyosati, transport-geografik, dengiz bo'yi holati, qo'shnichilik va chegaradoshlik (iqtisodiy rivojlangan hududlar bilan) omillarining hissasi kattadir. Mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot darajasi ilmiy-texnik inqilob bilan bog'liq zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyatlarini beradi. Ayniqsa, iqtisodiyotda muhim o'rin tutuvchi avtomobilsozlik, samolyotsozlik, atom sanoati, elektrotexnika, priborsozlik,

kontrol-o‘lchov, kosmik-raketa va boshqalar – avtomatlashtirish, robototexnika tarmoqlarining rivojlani-shini ta’minlaydi. Davlat sanoatning yangi va eng yangi tarmoqlarini, inqiroz hamda turg‘unlikka uchragan tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlardan iborat siyosati mamlakat va uning mintaqalarida ishlab chiqarish kuchlarining barqaror rivojlanish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Davlatning iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlari, chunonchi, yangi resursli hududlarni intensiv o‘zlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy-ekologik ahvoli og‘ir bo‘lgan hududlarga ko‘mak berish kabilar ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylashishida sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi. Transport-geografik holatning qulayligi, dengizbo‘yi hududlari, qo‘shnichilik va chegaradoshlik holatlari xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishi bilan ishlab chiqarishni xalqaro bozorga chiqish qulay hududlarga, dengiz bo‘ylariga (bu hol keyingi yillarda yirik port – sanoat ishlab chiqarish majmualarining rivojlanishiga olib keldi), rivojlangan mamlakatlar bilan qo‘shnichilik va chegaradoshlik esa ishlab chiqarish kuchlarining chegara hududlarida rivojlanishiga (“Umumiy bozor” doirasida) olib kelmoqda.

3. Ishlab chiqarish kuchlarining joylashishida ijtimoiy-demografik omillar – aholi soni, aholi sonining ko‘payishi, zichligi, milliy tarkibi, mehnat resurslari va uning sifat tarkibi, aholining iqtisodiy (malaka) tarkibi, ma’lumot darajasi, migratsion harakatlarga tortilishi, aholining hududiy joylashish tizimi (ovul, qishloq, kichik, o‘rta, yirik va o‘ta yirik shaharlar) katta o‘rin tutadi.

Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishda demografik jarayonlarning bugungi va istiqboldagi holati hisobga olinadi. Mehnat resurslari mavjud hududlarda sermehnat iqtisodiyot tarmoqlarini, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infrastrukturasi tizimlarini, yuqori malakali mehnat resurslari mavjud hududlarda zamonaviy va o‘ta zamonaviy sanoat tarmoqlari rivojlanishini

taqozo qiladi. Aholining hududiy joylashishiga mos ishlab chiqarish tizimini shakllantirish migratsion jarayonlarning tartibga solish va boshqarish imkonini beradi. Bu o‘rinda sanoat korxonalarini “filiallashtirish” orqali ishlab chiqarish kuchlarini hududlar bo‘yicha bir tekis rivojlantirishdan tashqari ekologik muammolarni ham yumshatish mumkin.

4. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning ijtimoiy-ekologik omillari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy-texnika inqilobi tufayli yuzaga kelgan ekologik inqirozlar va sanoatning eng yangi sohalarining sof tabiiy muhitga bo‘lgan talabi bilan bog‘liqdir. Aholi o‘sishi va ishlab chiqarish sur’atlarining haddan tashqari tezlashuvi, uning to‘planish jarayonining kuchayishi oqibatida atrof-muhitga ta’siri kuchaydi. Atmosferaning ifloslanishi, tuproq va yer resurslarining yaroqsiz holga kelishi, o‘rmon resurslarining qisqarishi, yirik shaharlardagi (megalopolislar) ijtimoiy-ekologik muammolarning haddan tashqari kuchayishiga olib keldi. Natijada, ishlab chiqarish kuchlari, ya’ni sanoat, qishloq xo‘jaligi, trans-port va infrastuktura sohalarini mamlakat hududlari bo‘yicha bir tekis joylashtirish, atrof-muhitga ta’siri kuchli korxonalar (kimyo, neft-kimyo, metallurgiya va boshqalar) qurilishini cheklash siyosatining amalga oshirilishi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning boshqa hudud va mamlakatlarga “iflos” ishlab chiqarish sohalarini ko‘chirish siyosatini yuzaga keltirdi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishga tobora keng sur’atda kamchiqindi va chiqindisiz texnologik jarayonlarni qo‘llashdan iborat berk ishlab chiqarish tizimini to‘la joriy qilish qo‘llanmoqda.

Umuman, sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish sohalarining rivojlanishi va joylashishida, bu tarmoqlar iqtisodiy samaradorligini oshirishda mavjud tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishda barcha omillar majmuasini hisobga olish samarali hududiy ishlab chiqarish tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda barcha shart-sharoitlar, omillar hisobga olinadi. Lekin ma’lum tarmoqni hududiy tashkil etishda barcha omillar emas, balki ulardan faqat ayrimlari yetakchi, hal etuvchi rol o‘ynaydi. Bu masalani tushunish uchun yaratiladigan mahsulotga suv yoki elektr quvvati, ishchi kuchining qay darajada sarflanishi ko‘rsatish kifoya. Boshqacha aytganda, kasr maxrajida mahsulot birligi, uning suratida esa alohida-alohida omil (masalan, 1 tonna shakar olish uchun qancha qand lavlagi ishlatiladi, qancha elektr quvvati yoki mehnat sarflanadi) turadi. Qaysi omil bo‘yicha yirik son chiqsa, odatda, uning ahamiyati shuncha joylashtirishda belgilovchi, aniqlovchi vazifani o‘taydi.

Shuni alohida qayd etish joizki, ma’lum tarmoqqa kiruvchi barcha korxonalar yoki kichik “tarmoqchalar” uchun bittagina omil tegishli bo‘lishi mumkin. Jumladan, mashinasozlik tarmog‘iga kiruvchi ba’zi bir korxonalarni joylashtirishda xomashyo (metall) ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lsa, boshqasi uchun malakali ishchi kuchi muhim omil hisoblanadi.

**Xomashyo omili**. Tabiiyki, barcha mahsulot xomashyosiz yaratil-maydi. Ammo ayrim mahsulotlarni olish uchun xomashyo boshqalariga qaraganda ko‘proq sarflanadi. Shu bois bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tarmoqlar va korxonalar mumkin qadar xomashyo rayonlariga yaqin joylashtiriladi.

Sanoatning ba’zi tarmoqlari, masalan, tog‘-kon, o‘rmon, baliqchilik sanoati korxonalarining joylashuvi xomashyo bo‘lmagan rayonlarda rivojlanmaydi. Bunday sanoat tarmoqlarining joylashuvi bevosita foydali qazilmalar yoki tabiiy boyliklar geografiyasi bilan belgilanadi. Boshqa sanoat tarmoqlariniig hududiy tashkil etilishi esa biroz murakkabroq tusga ega. Bu borada bir qator fakt va raqamlarni keltirish o‘rinli. Masalan, 1 t paxta tolasini olish uchun taxminan 3 t xom paxta, 1 t paxta yog‘i uchun 5 t chigit, 1 t pista yog‘i uchun 3 t kungaboqar, 1 t shakar uchun 7 t qand lavlagisi ishlatiladi. Ushbu raqamlarni nisbiy (foiz)

ko‘rinishida berish foydadan xoli emas. Chunonchi, paxta tolasining oq paxtadan chiqishi 32-33 foiz, paxta yog‘ining chigitdan olinishi 19-20, shakarni qand lavlagi-dan tayyorlash 14-15 foiz va shunga o‘xshash. Demak, bu korxonalar xomashyo rayonida yoxud unga yaqin maskanda joylashtirilishi shart.

Mineral o‘g‘itlar ichida kaliy o‘g‘itini ishlab chiqarish geografiyasi batamom xomashyo omili bilan belgilanadi, chunki uni olish uchun ko‘p miqdorda kaliy tuzi sarflanadi. Ayni paytda, azot (selitra) o‘g‘itini ishlab chiqaruvchi korxonalar ancha “erkin” joylashadi. Mazkur korxonalar qora metallurgiya markazlariga, suv manbalariga yaqin, neft va gaz sanoati rivojlangan rayonlarda joylashtirilishi ham mumkin.

Xomashyoga asoslangan sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining geografiyasi, eng avvalo, mamlakat tabiiy sharoiti va tabiiy resurslar joylanishi bilan bog‘liq. Chunonchi, qishloq xo‘jalik ekinlarini hududiy tashkil etishda suv, iqlim va tuproq sharoitlari katta ahamiyatga ega. Ular, ya’ni namlik, harorat va tuproq agroiqlimiy resurslarni tashkil etadi.

Xomashyo omiliga asoslanib, ishlab chiqarishning hududiy tashkil etish masalalari tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, atrof-muhit tozaligini saqlash muammolarini hisobga olgan holda hal etish maqsadga muvofiqdir. Natijada, tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya va ekologiyaga oid bilimlar o‘zaro muvofiqlashtiriladi.

Yoqilg‘i issiqlik elektr stansiyalari, qora metallurgiya sanoatining dastlabki – cho‘yan eritish (domna pechida) bosqichini joylashtirishda asosiy rol o‘ynaydi. Ammo uning ta’siri har doim ham yetakchi kuchga ega emas. Issiqlik elektrostansiyalari yoki metallurgiya zavodlari iste’mol rayonlarida ham joylashtirilishi mumkin. Bunday hol neft va uning mahsuloti mazut, tabiiy gaz asosida ishlovchi issiqlik elektr stansiyalarini qurishga taalluqli (yoqilg‘ining quvurlarda keltirilishi iqtisodiy jihatdan ma’qulroq) bo‘ladi.

Biroq qora metallurgiya (cho‘yan erituvchi) zavodlarini joylashtirish qonuniyatlari bir xil emas. Ma’lumki, qazib olinadigan temir rudasining taxminan 48-50 foizi foydali, bu degan so‘z ulardan deyarli shuncha miqdorda cho‘yan olinadi. ammo bu “o‘rtacha” raqam hamma joyda ham bir xil emas – ayrim konlarda temirning qazib olinadigan rudadagi ulushi atigi 17-19 foizni tashkil etadi. Bunday konlarga Uraldagi Kochkonar yoki Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Tebinbuloq konlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Bu yerlardan qazib olinadigan rudani bevosita domna pechlarida eritib bo‘lmaydi, sababi unda kerakli mineraldan ko‘ra foydasiz jinslar ko‘proq. Shuning uchun bu ruda dastlab boyitilishi va uning tarkibidagi foydali mineralning hissasi oshirilishi kerak. Boyitilgandan so‘ng ruda tarkibidagi temirning (rangli metallar uchun boyitish jarayoni ayniqsa muhim, chunki ularning rudalar tarkibidagi ulushi nihoyatda past) miqdori bir necha barobar ko‘payadi. Lekin bu bilan ham uning hissasi yetarlicha bo‘lmaydi. Shu sababdan metallurgiya korxonalari ko‘proq xomashyo rayoniga yaqinroq joylashtiriladi.

Yer yuzida “boy” konlar ham yo‘q emas. Jumladan, Kursk magnit anomaliyasi (Rossiya) doirasiga kiruvchi Belgorod yaqinidagi konlarda temirning rudadagi ulushi 60-65 foizgacha yetadi. Binobarin, bundan qazib olingan xomashyo to‘g‘ridan-to‘g‘ri, boyitilmasdan domna pech-larida eritilishi mumkin. Shunday ekan, ularni tashib borish uchun trans-port xarajatlari va pirovard natijada, eritilgan cho‘yanning tannarxi uncha yuqori bo‘lmaydi. Bu esa korxonalarni yoqilg‘i (kokslanuvchi ko‘mir) rayonida yoki unga yaqin joylarda qurishni taqozo etadi. Qozog‘iston Respublikasidagi Qaraganda to‘liq siklli metallurgiya kombinati bevosita ko‘mir havzasi rayonida joylashtirilgan, Lipetsk, Tula, Krivoy Rog kombinatlari esa xomashyo, ya’ni temir rudasi konlariga yaqin joyda qurilgan.

Ba’zan metallurgiya zavodlari xomashyo va yoqilg‘i rayonlari o‘rtasida joylashtirilgan, chunki mazkur sanoat tarmog‘i uchun bu ikki omilning ahamiyati deyarli bir xil. Bunga yorqin misol bo‘lib Cherepovetsk metallurgiya kombinati (Rossiya Federatsiasi) xizmat qiladi. U Pechora kokslanuvchi ko‘mir havzasi bilan Kola yarim oroli temir rudasi konlarining, taxminan, o‘rtasida qurilgan. Ammo korxona aniq ikki oraliq masofada emas, u biroz g‘arbga “tortilgan”, sababi Sankt-Peterburgning yirik mashinasozlik sanoatini po‘lat va prokatga bo‘lgan extiyojini qondirishdir. Korxona yaqinida katta suv ombori ham bor.

Shuningdek, ko‘mir va temir rudasini bir-biri bilan hududiy (mayatniksimon) almashuvi asosida har ikkala rayonda shakllangan qora metallurgiya markazlari mavjud. Bu borada o‘tgan asrning 30-yillarida amalga oshirilgan Ural-Kuznetsk kombinati (UKK)ni ko‘rsatish o‘rinli. Ushbu dastur hududiy ishlab chiqarish majmuining dastlabki ko‘rinishi bo‘lib, uni hayotga tatbiq etishda ham xomashyo rayonida – Janubiy Ural temir rudasi konlari asosida (eng yirik Magnitogorsk metallurgiya kombinati), ham yoqilg‘i rayoni – Kuznetsk toshko‘mir havzasida, ya’ni Novokuznetskda bunday ulkan korxonalar bunyod etilgan edi.

**Elektr quvvati** hozirgi zamon ishlab chiqarishini, hatto transport va qishloq xo‘jaligini ham elektr quvvatisiz tassavur qilish qiyin. Bu sohaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u yaratgan mahsulotni, ya’ni elektr quvvatini jamg‘arib, omborxonalarga yig‘ib bo‘lmaydi, undan ayni paytning o‘zida foydalanish kerak. Bundan tashqari, elektr quvvati yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari (shoxobchalari) orqali uzoq masofalarga berilishi mumkin. Xuddi shu maqsadda Kansk-Achinsk, Ekibastuz ko‘mir havzalarida yirik yoqilg‘i-energetika majmualari barpo etilgan. Angren ko‘mir havzasida ham xuddi shunday majmua yaratilgan. Ammo ba’zan murakkab tog‘ sharoitiga ega bo‘lgan rayonlarda elektr quvvatini uzoqqa uzatish iqtisodiy jihatdan ma’qul hisoblanmaydi. Bu quvvatdan mumkin qadar shu joyning o‘zida foydalanish lozim bo‘lib qoladi.

Odatda, elektr quvvati omilini ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishida, eng avvalo, uning arzon turiga urg‘u beriladi. Arzon elektr quvvati suv stansiyalaridan olinadi, chunki suv suvligicha GESdan keyin ham qolaveradi, issiqlik elektr stansiyalarida esa ko‘mir, mazut yoki tabiiy gaz sarflanadi. Elektr quvvati omiliga quyidagi misollarni keltirish kifoya: 1 t titan ishlab chiqarish uchun (titan po‘latdan bir necha marta yengil va ayni paytda, ancha chidamli) 40-50 ming kvt/s, alyuminiy uchun 17-19 ming kVt/s atrofida elektr quvvati sarflanadi. Tabiiyki, bunday korxonalarni arzon elektr energiya manbalariga yaqin joyda qurilishi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Rossiyaning bir qator shaharlarida GES va alyuminiy zavodlari aynan bir joyda, bir markazda uchraydi. Masalan, Bratsk GESi va Bratsk alyuminiy zavodi, Krasnoyarskdagi GES va alyuminiy zavodi va h.k. Bunday korxonalar birikmasi Volgograd, Volxov, Zaporojye va boshqa shaharlarda ham mavjud. O‘rta Osiyo mamlakatlarida yagona bo‘lgan Tursunzoda (Regar) shahridagi Tojik alyuminiy zavodi Norak GESiga yaqin joyda qurilgan.

Demak, elektr enegiyasi bir qator sanoat korxonalarini o‘z atrofiga “yig‘ar” ekan. Shu sababli u yirik rayon va majmua hosil qilish qudratiga ega. Bizning sharoitimizda elektr quvvati yangi yerlarni o‘zlashtirish uchun ham kerak. Jumladan, Qarshi dashtining asosiy qismi Talimarjondagi bir qator nasos stansiyalari vositasi bilan sug‘oriladi. Elektr quvvati Norak-Tursunzoda (Regar)-G‘uzor orqali keladi. Hozirgi kunda esa shu yerning o‘zida juda yirik mahalliy tabiiy gaz asosida ishlaydigan Talimarjon IES qurilmoqda.

**Suv** va **iqlim sharoitlari** ham ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda katta ahamiyatga ega. Suv manbaalari, ayniqsa kimyo, yog‘och-sellyuloza, metallurgiya zavodlarining faoliyatiga sezilarli ta’sir qiladi. Jumladan, cho‘yan erituvchi pechlarni sovitish uchun ham suv kerak. Suv va iqlim sharoitlari boshqa sanoat korxonalarini qurishda ham e’tiborga olinadi. Bu omilning ahamiyati

qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik uchun nihoyatda katta. Chunonchi, O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston Respublikasida an’anaviy dehqonchilik uning issiq va quruq iqlimiy sharoitida faqat sun’iy sug‘orish asosida olib boriladi. Paxta, meva, sabzavot, uzum va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlariga suv hamda issiq iqlim (ma’lum miqdordagi vegetatsiya haroratining miqdori) juda zarur. Shu bilan birga, issiq iqlim sharoitida sanoat korxonalarini ochiq usulda qurish, suv va boshqa alkogolsiz ichimliklar, ip gazlama ishlab chiqarishga o‘xshash tarmoqlarni ko‘proq rivojlantirish talab etiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ichida eng muhimi, aholi va **mehnat resurslari**dir. Albatta, har qanday ishlab chiqarish jarayoni ishchi kuchisiz sodir bo‘lmaydi. Bu o‘rinda ikki holni qayd qilish lozim: birinchidan, shunday korxonalar borki, ularga son jihatdan ko‘p ishchi kerak. Masalan, tikuv fabrikasi, konserva zavodi, paxta yetishtirish, uni qayta ishlash va h.k. Ayni bir paytda boshqa bir korxonalarga mehnat resurslarining miqdori ko‘p bo‘lishi shart emas, aksincha “oz bo‘lsa ham soz bo‘lsin” ma’nosida ularga malakali ishchi kuchi talab qilinadi. Mazkur korxonalar va tarmoqlar (radio yoki priborsozlik aniq mashinasozlik va shunga o‘xshash) malakali ishchi kuchi mavjud bo‘lgan shaharlarda, ilmiy-texnik markazlarida joylashtiriladi.

O‘zbekistonda mehnatga layoqatli aholi soni juda ko‘p. Ularning miqdori qishloq joylarda va sust rivojlangan kichik shaharlarda juda yuqori. Binobarin, bunday joylarda ish o‘rinlarini kengaytirish, yangi sanoat va boshqa korxonalar, madaniy-maishiy muassasalarni qurish zarur.

Aholi faqat ishchi kuchi emas, balki u, eng avvalo, **iste’molchiomili**hamdir. Bu omilning roli esa hozirgi kunda, xalqning yashash sharoiti va darajasini yaxshilash doirasida keskin oshib bormoqda. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish, muvaqqat qiyinchiliklarga barham berish unga kerak bo‘lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa ehtiyojlarni qondiruvchi mahsulotlarni yetarli darajada ishlab

chiqarishni taqozo etadi. Shu sababli iste'mol omili oziq-ovqat korxonalarini o'ziga "tortadi", ya'ni bunday zavod yoki fabrikalar bevosita aholi yashovchi maskanlarda joylashtiriladi.

Iste'mol omili faqat xalq ehtiyoji bilan belgilanmaydi. Ishlab chiqarishning o'zining talabi, boshqa xil mahsulotlarning keng miqdorda sarflanishi, ularni transportda keltirishning noqulayligi ham bunday korxonalarni iste'mol rayonlarida tashkil etishni nazarda tutadi. Masalan, qishloq xo'jalik mashinasozligi o'sha mintaqaning ishlab chiqarish ixtisoslashuviga muvofiq shu yerda rivojlanishi zarur.

Go'sht sanoatini joylashtirish ham o'ziga xos xususiyatga ega. Bu sanoat bevosita chorvachilik rayonlarida rivojlantirilsa, unda iste'molchiga faqat muzlatilgan go'sht keltiriladi. Bunday go'shtdan esa kolbasa, konserva va boshqa go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarib bo'lmaydi. Agar go'sht sanoati iste'mol rayonlarida joylashtirilsa-chi? Unga molni (chorvani) keltirish kerak, ammo bu davrda biroz bo'lsa-da u (chorva) o'z tirik vaznini yo'qotadi. Bundan tashqari, go'sht mahsulotini ishlab chiqarish molning juni va terisi, qoni va suyagidan shu joyning o'zida foydalanish imkoniyatini bersa-da, mazkur zavodlarni (aniqrog'i, kombinatlarni) yirik shahar ichida joylashtirish ekologik nuqtai nazardan, to'g'ri kelmaydi.

**Transport omili** ham juda muhim, chunki u ishlab chiqarishning bevosita davom ettiruvchi tarmog'i hisoblanadi. Transport shahobchalarisiz xomashyo ham keltirilmaydi, mahsulot ham iste'molchilarga yetkazilmaydi, hududiy mehnat taqsimoti rivojlanmaydi. Shuning uchun transportning ahamiyati barcha boshqa omillar bilan qo'shilib, uyg'unlashib ketadi va uni "sof" holda ajratib olish qiyin. Shu bilan birga, transport masalasi iqtisodiy geografik o'rin omili bilan ham chambarchas bog'liq, chunki bu obyektning, eng avvalo, tashqi (hududiy) iqtisodiy munosabatlarni anglatadi.

Biz ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilar ekanmiz, **fan-texnika taraqqiyoti** va uning ahamiyatini chetlab o‘tolmaymiz. Bu omilning ta’siri bir qator tarmoqlarning hududiy tashkil etilishida aniq va ravshan ko‘rinadi (mashinasozlik, elektroenergetika va kimyo). Shubhasizki, mazkur sanoat tarmoqlariga tegishli ko‘pgina korxonalar, ayniqsa, hozirgi zamon mashinasozlik zavodlari yuksak darajada ilmiy-texnika salohiyatiga ega bo‘lgan shaharlarda joylashtiriladi.

Yuqorida ko‘rilgan barcha omillar qatorida **ekologik omil**ning ahamiyati ham katta. Ekologik jihatdan ko‘p sanoat tarmoqlari va, eng avvalo, kimyo, yog‘och-sellyuloza, go‘sht, vino, konserva, charm zavodlari, issiqliqlik elekt stansiyalari va shunga o‘xshash korxonalar “nomaqbul” hisoblanadi. Binobarin, ular aholi joylashgan markazlardan uzoqroqda bo‘lgani yaxshiroq.

Kimyo sanoati misolida, ekologik omilning ishlab chiqarishni hududiy tashkil etilishiga ta’sirini ko‘rish mumkin, chunki bu sanoat korxonalarining joylashtirilishi chinakam erkin xususiyatga ega. Chunki kimyo sanoati o‘simlik, hayvonot, mineral xomashyosi, suv, havo (azot) asosida ham, boshqa sanoat chiqindisi (qora va rangli metallurgiya) negizida ham rivojlanish imkoniyatiga ega.

Shuningdek, **bozor iqtisodiyoti omili**ni ham unutmaslik kerak. Bu o‘rinda shuni alohida qayd etish joizki, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga birdaniga o‘tib bo‘lmaydi, buning uchun zarur shart va sharoit yaratish talab etiladi, ya’ni uning o‘zini moddiy, maishiy va madaniy infrastrukturasi bo‘lmog‘i lozim. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish tarixan birmuncha uzoq davrni nazarda tutadi.

Bozor iqtisodiyoti – bu ishlab chiqarish erkinligi, talabning ustuvorligi, raqobatdir. Bunday sharoitda ko‘p ukladli iqtisodiyot, mulkchilikning turli shakllari va sog‘lom raqobat muhitini vujudga keltirish, qulay investitsiya makonini shakllantirish, monopoliyaga qarshi kurash muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, bozor iqtisodiyoti omilini ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy tashkil

etishga nisbatan tahlil etar ekanmiz, unda bu boradagi ilgarigi, an'anaviy fikr yuritishlarimiz tamomila o‘zgarib ketadi. Chunki bu sharoitda aksariyat narsani, shu jumladan, nimaga ixtisoslashuvini va qayerda joylashtirishni pirovard natijada bozor, raqobat, talab va taklif belgilaydi, davlat esa o‘zining mintaqaviy va soliq, kredit, narx-navo, investitsiya siyosati orqali bu jarayonni boshqarib yoki tartibga solib boradi.

Xorijiy mamlakatlarda, ayniqsa, Yevropada ishlab chiqarishni joylashtirish nazariyasi bozor iqtisodiyotiga mos ravishda yaratilgan va amaliyotda sinalgan. Masalan, “shtandort” nazariyasi doirasidagi aglomeratsion qulaylik yoki samaradorlik omili ham juda murakkab bo‘lib, u o‘zida ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etilishining barcha shakllarini va xususan, kooperatsiya va ixtisoslashuvni uyg‘unlashtirilgan holda aks ettiradi. Qolaversa, ishlab chiqarish aglomeratsiyasi bu korxonalarni ma'lum bir nuqta yoki joyda to‘planishi, mujassamlashuvi hamdir. U, ayni paytda, infrastruktura omilini o‘ziga singdiradi, chunki infrastruktura jihatdan ta'minlanganlik hududlarning investitsiya jalb qilish qobiliyatini (jozibadorligini) kuchaytiradi.

“Shtandort” nazariyasi mamlakatni industriyalashning dastlabki bosqichlariga juda qo‘l keladi. U hududning iqtisodiy jihatdan uncha rivojlanmagan sharoitida barcha uchun va hamma vaqt kerak bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarmaydigan noyob sanoat tarmoqlariga taalluqlidir. Hududning iqtisodiy zichligi, uning murakkablashib va rivojlanib borishi bilan ishlab chiqarishni geografik tashkil etishda boshqa g‘oya va omillardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Chunonchi, hamma uchun har doim lozim bo‘lgan mahsulotlar, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish tarmoqlari turli yiriklikdagi va turli funksiyali markazlarda pog‘onasimon yoki iyerarxiyali joylashtiriladi (bu borada V.Kristallerning “markaziy o‘rinlar” g‘oyasi katta ahamiyat kasb etadi).

Mujassamlashuv yoki ishlab chiqarishning to‘planishi, yig‘ilishi iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tegishlidir. Ammo geografik jihatdan u eng avvalo, sanoat, qishloq xo‘jaligi va transport, ya’ni moddiy sohalarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Qolaversa, iqtisodiy geografiya fanining obyektini, aynan, shu tarmoqlarning hududiy tashkil etilishi, ularning joylashish xususiyatlari belgilab beradi. Chunonchi, sanoat uchun “nuqta” yoki tugun ko‘rinishida hududiy tashkil etish, qishloq xo‘jaligiga areal yoki mintaqa (zonal), transport uchun esa lentasimon yoki chiziq shaklidagi joylashuv xosdir. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ma’lum darajada xuddi ana shu nuqtalar – sanoat markazlari va tugunlari, areal va zonalar, “tasmalar”ni, ularning joylashuvi, aloqasi va hududiy munosabatlarini o‘rganadi. Ijtimoiy obyektlarning hududiy tashkil etilishi esa yuqoridagi tarmoqlar joylashuvi bilan belgilanadi. Masalan, aholi va unga xizmat ko‘rsatuvchi sohalarning hududiy tizimlari sanoat, qishloq xo‘jaligi va transport gsografiyasi asosida amalga oshiriladi. Demak, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya nuqta, areal va chiziqlar, ularning o‘zaro hududiy munosabati to‘g‘risidagi fan hisoblanadi.

Yuqorida mujassamlashuvning hududiy tomoniga e’tibor berdik. Uning ijtimoiy tomoni ham xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida turlicha bo‘ladi. Umuman olganda, mujassamlashuv sanoat misolida juda aniq yoki sezilarli ko‘rinadi. Bu borada ishlab chiqarish fondlari, yalpi mahsulot yoki ishchi va xizmatchilarning turli korxonalarda yig‘ilishi, to‘planishi sof holdagi ishlab chiqarish yoki korxona mujassamlashuvi, ularning shaharlar va rayonlar joylashuvini esa urbanistik va hududiy mujassamlashuv sifatida ko‘rsatish o‘rinli.

Mujassamlashuvning bu shakllari bir-biriga o‘tib turadi va turli rayon yoki mamlakatlarda har xil birikmada bo‘ladi. Masalan, shaharning markazlashuv darajasi ma’lum bir bosqichga ko‘tarilgandan, hududning “sig‘imi” optimal darajaga yetgandan keyin o‘ziga xos vaziyat vujudga keladi, ya’ni endi mazkur

shaharda qo‘shimcha korxonalarni qurish imkoniyati qolmaydi. Ekologik, uy-joy, transport muammolari keskinlashadi, qurish uchun yer maydoni ham yetishmaydi va ayni paytda yangi korxona bu markazdan olisda joylashuvni ham “istamaydi”. Demak, yirik shaharda ham emas, undan uzoqda ham emas; shaharning imkoniyati yo‘q, korxona esa undan yiroqlasha olmaydi. Nyatijada, yangi korxona yoki ilmiy tekshirish muassasalari, oliy o‘quv yurtlari yirik shaharning ta’sir doirasida o‘rnashadi – shahar aglomeratsiyasi, sanoat tuguni vujudga keladi. Ammo aglomeratsiyalar ham o‘ziga xos hududiy mujassamlashuvdir. Fanda aglomeratsiya omili va u bilan bog‘liq aglomeratsiya samaradorligiga ilk bor nemis olimi **Alfred Veber** (1909-y.) asos solgan.

Yuqorida keltirilgan mulohazalarga misol sifatida, Toshkent atrofida joylashgan go‘sht kombinati (O‘rtaovul shaharchasi), ToshIES, Toshkent agrar universiteti (Yalang‘och shaharchasi), Yadro fizikasi instituti (Ulug‘bek shaharchasi), alkagolsiz ichimliklar kombinati (Qibray) va hokazolarni ko‘rsatish mumkin. Toshkent aholisi ehtiyoji va xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan bu korxonalarni poytaxtda qurishning iloji yuq, lekin ular ists’molchi, sanoat, ilm-fan markaziga yaqin bo‘lmog‘i lozim. Bundan yana bir xulosa, ya’ni ishlab chiqarish mujassamlashuvi bilan shahar rivojlanishi o‘rtasidagi munosabat kelib chiqadi. Dastlab, shaharning vujudga kelish va ulg‘ayishida ishlab chiqarishni joylashtirish (mujassamlashuvi) yetakchi rol o‘ynaydi, keyinchalik esa shaharning o‘zi ishlab chiqarishning hududiy tashkil etish omiliga aylanadi.

Endi turli shakldagi mujassamlashuvga misol keltiraylik. Masalan, O‘zbekiston sanoat mahsulotining yarmidan ko‘pini har birida 2000 dan ortiq ishchi ishlaydigan korxonalar ishlab chiqaradi, deb faraz qilaylik. Bu ishlab chiqarish yoki korxona darajasidagi mujassamlashuvdir. Toshkent shahrida mavjud korxonalar O‘zbekiston Respublikasi sanoat mahsulotining, taxminan, 15-16 foizini beradi – bu urbanistik mujassamlashuv bo‘ladi. Agar Farg‘ona vodiysini

respublikamizning asosiy pilla yoki meva maskani, neft mahsulotlari yoki o‘simlik moyi ishlab chiqaruvchi rayoni sifatida ko‘rsak, u holda hududiy mujassamlashuvni nazarda tutgan bo‘lamiz.

Mujassamlashuvning yuqori yoki pastligi ayni chog‘da ma’lum bir sohaning rivojlanganlik darajasini belgilaydi. Bu yerda “umumiy maxraj” bo‘lib shahar, viloyat yoki boshqa bir joyda yashovchi aholining ulushi, hissasi xizmat qiladi. Aytaylik, Farg‘ona vodiysida O‘zbekiston Respublikasi aholisining 28 foizi joylashgan. Agar u yoki bu ishlab chiqarish ko‘rsatkichi shu raqamdan qancha yuqori bo‘lsa, mazkur ishlab chiqarish tarmog‘i vodiyda shunchalik rivojlangan, mujassamlangan bo‘ladi.

Korxona, urbanistik va hududiy mujassamlashuv turli rayon yoki mamlakatlarda turlicha birikma hosil qiladi. Past darajadagi korxona yoki ishlab chiqarish mujassamlashuvi yuqori urbanistik mujassamlashuvga to‘g‘ri kelishi ham uchraydi. Bu holda shaharda mayda korxonalar soni juda ko‘p bo‘ladi. Aksincha, urbanistik mujassamlashuv past, ammo ishlab chiqarish mujassamlashuvi yuqori bo‘lishi ham mumkin. Bunga kichikroq shaharda, masalan, Asaka yoki Xivada katta ishlab chiqarish korxonalarining joylashuvi misol bo‘la oladi.

Xuddi shunday, past darajadagi urbanistik mujassamlashuv yuqori hududiy mujassamlashuvga ham olib keladi. Bu holda mazkur hududda juda ko‘p kichik sanoat punkti yoki markazlari mavjud bo‘ladi. Xuddi shu vaziyatni respublikaning ko‘pgina viloyatlaridagi (Andijon, Buxoro, Farg‘ona, Namangan, Xorazm va h.k.) to‘qimachilik qo‘shma korxonalarining joylashganligida uchratamiz. Shu bilan birga, past darajadagi hududiy mujassamlashuv yuqori urbanistik ko‘rsatkich bilan ham uyg‘unlashgan tarzda keladi. Masalan, bir vaqtlar Fransiya deganda, avvalo, uning poytaxti – Parij, Vengriya ramzida esa Budapesht tushunilar edi.

Shunday qilib, yuqori darajadagi mujassamlashuv, ayniqsa bozor munosabatlariga o‘tish davrida o‘ta yirik korxonalarni barpo etish hamma vaqt ham ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan samarali emas. Bunday vaziyatda xomashyo va tayyor mahsulotni transportda tashish xarajatlari ko‘payadi, ishchi kuchi yetishmaydi va eng muhimi, ekologik muvozanat buziladi.

Xo‘sh, qaysi darajadagi mujassamlashuv ma’qul degan savol tugiladi. Axir, ayni bir hajmdagi mahsulotni turli xil yiriklikdagi korxona, shahar yoki rayonlarda ishlab chiqarish mumkin-ku. Bu yerda ham bir tomonlamalik, qat’iylik zararli va xavflidir. Binobarin, turli xil kattalikdagi kor-xonalar, shaharlar bo‘lgani maqsadga muvofiq bo‘lsa kerak. Demak, mujassamlashuv obyektiv qonuniyat, biroq u barcha mamlakatlarga xos va iqtisodiy samaradorlikka ega bo‘lsa-da, uning ma’lum chegarasi, darajasi, doirasi bo‘lishi shart.

Mamlakatning birgina, aksariyat hollarda poytaxt shahari asosida rivojlanishini Lotin Amerikasi davlatlarining yaqin o‘tmishdagi taraqiyoti yoki Afrika mamlakatlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Ushbu mamlakatlar o‘z ijtimoiy-iqtisodiy borlig‘ini ularning eng yirik markazi bo‘lgan poytaxt shahrida mujassamlashtiradi. Bunday hollarda ishlab chiqarishning bir tomonlama yoki nomutanosib hududiy tarkibi, o‘ta markazlashgan mujassamlashuvni bildiradi.

Respublikada ham faqat Toshkent yoki Toshkent viloyatini rivojlantirib, qolgan mintaqa va joylarni o‘z holiga qoldiraverish ham yaramaydi, albatta. Shu bois Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Surxondaryo, Jizzax kabi viloyatlar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish zamon talabi bo‘lib, bu masalalar mustaqil davlatning ilmiy asosda ishlab chiqilgan mintaqaviy siyosatida o‘z aksini topmog‘i lozim.

Markazlashuv mujassamlashuvning bir ko‘rinishidir. Bu yerda ishlab chiqarish korxonalari yoki boshqa tashkilotlar va sohalarni asosan birgina shaharda joylashuvi tushuniladi. Ayni paytda mamlakat yoki xo‘jalik boshqaruvining

bunday tizimi yakkahokimlik – monopoliyaga olib kelishi turgan gap, bu esa maqsadga nomuvofiqdir.

Yuqoridagi ma’noda “mujassamlashuv” tushunchasi hamma vaqt “markaz” tushunchasini ifodalaydi. Shubhasizki, bu markaz balandroq turishi, ko‘zga yaqqol va darhol tashlanishi lozim. Ammo “markaz” deganda shaharlarni, umuman, sanoat yoki madaniyat markazi sifatida qarash ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Qolaversa, barcha shaharlar ham sanoat, madaniyat markazidir. Shuning uchun shahar aynan qaysi sanoat tarmog‘i markazi ekanligini aniqlash ma’qulroq hisoblanadi. Chunonchi, Angren umuman sanoat markazi emas, balki ko‘mir (yoqilg‘i) sanoat markazi, Marg‘ilon yoki Namangan – to‘qimachilik, Asaka – mashinasozlik sanoatining markazi.

Ixtisoslashuv ham ishlab chiqarishni tashkil etishning muhim shakli bo‘lib, u hududiy mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlarning tarkib topishi bilan chambarchas bog‘liq.

Uning uch bosqichi va uch turi mavjud. Ixtisoslashuvning uch bosqichi deganda, **korxona**, **shahar** yoki **rayon** miqyosidagi ixtisoslashuv tushuniladi. Boshqacha aytganda, ularning har biriga hududiy yoki ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida ma’lum bir mahsulotning ishlab chiqarilishi biriktiriladi. O‘z navbatida, ixtisoslashuv shu korxona (u jamoa xo‘jaligi bo‘lishi ham mumkin), shahar va rayonlarning qiyofasini, ularning mehnat taqsimotida tutgan o‘rnini belgilab beradi.

Ixtisoslashuvning uch turi – bu qism (detal), texnologik yoki yarim mahsulot (polufabrikat) va predmet (tayyor mahsulot ishlab chiqarish) ixtisoslashuvidir. Ixtisoslashuvning bunday ko‘rinishlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq va ular turli hududiy bosqichda o‘zgacha xususiyatga ega bo‘ladi.

Ixtisoslashuv oqibatida xalq xo‘jaligining tarmoqlari vujudga keladi, iqtisodiy rayonlar, shaharlarning funksional tiplari shakllanadi. Shu bilan birga u tashqi

iqtisodiy aloqalarni taqozo etadi, chunki ishlab chiqarilgan va mahalliy iste'moldan ortib qolgan mahsulot chetga chiqariladi, mazkur rayonda yetishmaydigan mahsulot esa boshqa joydan keltiriladi.

Ixtisoslashuvni aniqlash uchun muayyan shart va sharoitlar zarur. Muhimi, mahsulot faqat shu joy talabini qondiribgina qolmay, balki ortiqchasi boshqa rayonlarga chiqarilishi yoki tovar xususiyatiga ega bo‘lishi kerak, aks holda bu tarmoq mazkur joy uchun ixtisoslashgan soha bo‘lmasligi mumkin. Aytaylik, rayon yoki viloyatda respublikada ishlab chiqilgan mahsulot shu yerning o‘zida batamom iste'mol qilinsa yoki, aksincha, ushbu mahsulot mahalliy sharoit ehtiyojini qondirmay, tamomila chetga chiqarilsa, har ikkala holda ham to‘laqonli ixtisoslashuv bo‘lishi mumkin emas. Birinchi misolda oddiy natural xo‘jalik, ikkinchi holda esa xomashyoga asoslangan qaram rayon yoki mamlakat guvohi bo‘lamiz, chunki ko‘p degan so‘z har doim ham ortiqcha degan ma'noni anglatmaydi. Masalan, Rossiya Federatsiyasining Markaziy iqtisodiy rayonida Belorussiyadan ko‘proq kartoshka yoki Boltiqbo‘yi respublikalariga ko‘ra ko‘proq sut ishlab chiqariladi. Ammo na kartoshka, na sut Rossiyaning Markaziy rayoni uchun ixtisoslashgan tarmoq hisoblanmaydi, zero bu mahsulotlarning barchasi o‘z joyida iste'mol qilinadi, chunki rayonning o‘zida 30 mln kishidan ziyod aholi yashaydi. Ayni paytda, kartoshka Belorussiya Respublikasi uchun, sut Boltiqbo‘yi mamlakatlariga ixtisoslashgan tarmoq bo‘lib xizmat qiladi. Bu joylarda qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan mahalliy talab qondiriladi, ortiqchasi esa chetga chiqariladi.

Shunday tartibda mulohaza yuritib, O‘zbekistondagi ixtisoslashgan tarmoqlarni aniqlash mumkin. Chunonchi, respublikamiz paxta tolasi, pilla, tog‘-kon sanoati, avtomobilsozlik va boshqa sohalarga ixtisoslashgan. Uni ip yoki ipak gazlamaga, un, neftsanoatiga ixtisoslashgan deyish biroz mushkul, chunki bu

mahsulotlar O‘zbekistonda hozircha yetarlicha ishlab chiqarilmaydi va ular mahalliy talabni to‘la qondira olmaydi.

Ixtisoslashuv, albatta, faqat moddiy ishlab chiqarishga tegishli emas. U barcha ijtimoiy jabhalarga ham molik xususiyatdir. Qolaversa, ayrim oliygohlar o‘qituvchi, boshqalari agronom, muhandis, iqtisodchi kabi mutaxassislarni tayyorlaydi. Sababi bu oliygohlar shunday xodimlarni tayyorlashga ixtisoslashgan.

Ixtisoslashuvning ham mujassamlashuvga o‘xshash o‘zining chegarasi bo‘lishi lozim; o‘ta tor ixtisoslashuv bir tomonlamalikka, yo‘l xarajatlarining ko‘payishiga olib keladi. Ulkan korxonalarni qurish qanday zararli bo‘lsa, haddan tashqari tor ixtisoslashuv, yakkahokimlik ham shuncha xatarlidir. Afsuski, yaqin o‘tmishda mamlakatimiz qudrati, uning rivojlanganlik darajasi “yirik”, “eng katta”, “yagona” kabi tushunchalar bilan ifodalanar, “birinchi” bo‘lish esa ko‘p hollarda qolgan barcha sohalarda qoloqlikni anglatar edi. Ammo bu mulohazalardan noto‘g‘ri xulosa chiqarish ham kerak emas, chunki ixtisoslashuvsiz shahar, tuman, viloyat, iqtisodiy rayon, respublikalarni, qolaversa, jamiyat va kishilarning o‘zini ham rivojlanishini tasavvur qilish qiyin.

Shuning uchun ixtisoslashgan tarmoq bilan birgalikda boshqa yordamchi yoki ikkilamchi sohalar ham hech bo‘lmaganda mahalliy ehtiyoj doirasida rivojlangan bo‘lishi lozim. Bu yerda ixtisoslashgan tarmoqni daraxtning tanasiga, daryoga, qo‘shimcha tarmoqlarni esa daraxtning shox va shoxchalariga, daryoning irmoqlariga o‘xshatish o‘rinli. O‘z-o‘zidan ma’lumki, tanasiz shox ham bo‘lmaydi, shoxsiz daraxt esa – bu oddiy butadir, irmoqsiz daryo ham barkamol daryo tizimini shakllantirmaydi.

Demak, ixtisoslashuv kompleks, har tomonlama rivojlanish bilan uyg‘unlashuvi kerak. Zero, ixtisoslashuvda yo‘l qo‘yilgan xatolar oqibatini hozirgi kunda sezib turibmiz. Bu kamchiliklar, ayniqsa, sobiq ittifoqdosh respublikalarning o‘zaro iqtisodiy aloqalarini buzilishida o‘z aksini topmoqda. Shu

sababli e’tibor ko‘proq har bir respublikaning mumkin qadar atroflicha rivojlanishiga qaratilmoqda. Albatta, bunday taraqqiyot respublikani jahon hamjamiyatidagi boshqa mamlakatlardan farq qildiruvchi, uning o‘rnini belgilab beruvchi ixtisoslashgan tarmoqlarni takomillashtirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, ixtisoslashuv har bir joyning kimligi yoki nimaligini, bir joyning ikkinchi joydan farqini anglatadi va, binobarin, u, ya’ni “hududiy ixtisoslashuv”, “iqtisodiy rayon” iqtisodiy geografiyaning o‘zak tushunchalar hisoblanadi.

Kooperatsiya, pirovard natijada, muayyan bir mahsulot yaratish uchun turli korxonalarning hamkorligidir. Bu korxonalar faqat bir yoki ikki tarmoqqa tegishli bo‘lmasligi mumkin. Shu bilan birga, kooperatsiyada hududiy birlik, barcha ixtisoslashgan korxonalarning bir joyda o‘rinlashuvi uncha sezilmaydi va, aksincha, ularning tarqoq ko‘rinishda joylashuvi kuzatiladi.

Kooperatsiyada qatnashuvchi korxonalar soni ishlab chiqarilayotgan mahsulotning murakkabligiga bog‘liq. Chunonchi, mashinasozlikda, aniqrog‘i yengil va yuk mashinalarini ishlab chiqarish uchun juda ko‘p ehtiyot qismlar, detallar kerak. Shu bois, bunday mashinalarning yaratilishida yuzlab ixtisoslashgan korxonalarning ulushi bor. Masalan, Moskvada yengil avtomobil yoki Lixachev nomli zavod, Tolyattidagi Volga avtomobil zavodi (Jiguli) va shunga o‘xshash birlashmalar 200 va undan ortiq korxonalar bilan hamkorlik qiladi. O‘zimizning Asakadagi “GM Uzbekistan” avtokorxonasi ham respublikamiz va boshqa mamlakatlardagi (asosan, Janubiy Koreya) korxonalar bilan aloqa bog‘lagan.

Modomiki, asosiy yakunlovchi yoki yig‘uvchi bosh korxona ko‘p joydan asbob-uskunalar, detall va jihozlar olar ekan, u transport-geografik jihatdan qulay nuqtada joylashishi zarur.

Kombinatsiya, kombinatlash kooperatsiyaga o‘xshab korxonalar bir-lashmasidan iborat. Ammo bu yerda tarqoq holda joylashgan birlik emas, balki

ularning hududiy umumiyligi tushuniladi. Shu sababali kombinatsiyada, kooperatsiyadan farqli o‘laroq, ko‘proq hududiylik, majmua namoyon bo‘ladi. Bu ikki, yuzaki qaraganda bir-biriga o‘xshash tushuncha o‘rtasida boshqa farqlar ham bor. Kooperatsiyada natija, maqsad, pirovard mahsulot bir bo‘lsa, kombinatsiyada aksincha, ya’ni xomashyo bir bo‘lib, undan olinadigan mahsulot turli xildir. Demak, kombinatlashuv ma’lum bir turdagi xomashyoni chuqur texnologik qayta ishlash, uning chiqindilaridan to‘la foydalangan holda barcha mahsulotlar ishlab chiqarishni anglatadi.

Kombinatsiya bir geografik nuqtada, hatto korxonalar birlashmasi doirasida kattaroq joy yoki rayonda ham bo‘lishi mumkin. Xalq xo‘jaligi tarmoqlari orasida esa u ayniqsa, qora va rangli metallurgiya, kimyo, o‘rmon, oziq-ovqat, yengil va qurilish sanoatiga tegishlidir. Xullas, qayerda “kombinat” so‘zini uchratsak, uni o‘sha sohada ko‘ramiz, hatto aholiga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarda ham (maishiy xizmat kombinatlari).

Sanoatda kombinatlar texnologik jihatdan bog‘liq bo‘lgan zavod yoki bir necha sexlardan tashkil topgan bo‘ladi. Masalan, qora metallurgiya kombinatlari, aniqrog‘i, to‘liq siklli kombinatlar cho‘yan, po‘lat va prokat ishlab chiqaruvchi zavodlar birlashmasidir. Agar ularning bittasi bo‘lma-sa, u holda kombinat to‘liq siklga ega emas (Bekoboddagi O‘zbek metallurgiya kombinati xuddi shunday korxonalardan).

To‘qimachilik kombinatlari yigiruv, bo‘yoqlash, tayyorlash sexlaridan iborat. Xomashyo bitta paxta tolasi yoki pilla mahsuloti; go‘sht kombinatida ham yagona xomashyo asosida bir necha mahsulot: go‘sht, konserva, kolbasa kabi boshqa go‘sht mahsulotlari olinadi. Uning chiqin-disidan, masalan, suyak va qondan qishloq xo‘jaligi va tibbiyot sohasida foydalanish mumkin, terisi esa oshlangandan so‘ng charm-poyafzal sanoatida ishlatiladi. O‘rmon, sement-shifer, kimyo kombinatlarining tuzilishi ham xuddi shunday. Qolaversa, Markazlashgan issiqlik

elektr stansiyalari ham kombinat xususiyatiga ega, chunki ular, ayni paytda, elektr energiyasi va par (bug‘) beradi.

Shunday qilib, kombinatsiya sanoat tarmoqlarining ko‘pchiligiga xosdir. Faqat mashinasozlikda “kombinat” so‘zini uchratmaymiz, ammo mohiyatan bu yerda ham u mavjud, zotan metalldan asosiy mahsulot bilan bir qatorda, keng iste’mol mollari ham ishlab chiqariladi. Masalan, Toshkentdagi Chkalov nomli aviatsiya birlashmasi samolyotdan tashqari avtomobil uchun ba’zi bir ehtiyot qismlar, bolalar aravachasi (kolyaska) va shunga o‘xshash turli xil xalq iste’mol mollarini ham ishlab chiqaradi.

Yuqorida keltirilgan misollarda ma’lum bir nuqtada yoki yirik korxonalar doirasidagi kombinatsiyani ko‘rish mumkin. Uning hududiy ko‘rinishi esa hududiy ishlab chiqarish majmuasining o‘zginasidir. Umuman olganda, ishlab chiqarishning ijtimoiy shakllari o‘zaro bog‘liq. Chunonchi, ixtisoslashgan korxonalar yoki kooperatsiya va kombinatsiya doirasidagi ishlab chiqarish bo‘g‘inlari ham u yoki bu ko‘rinishda mujassamlashuvni anglatadi. Biroq bu yerda ularning bir joyda to‘planganligi, yig‘ilganlik darajasi boshqa joylarga nisbatan yuqori bo‘lishi lozim, aks holda, tom ma’nodagi mujassamlashuv bo‘lmaydi.

Mujassamlashuv yoki ixtisoslashuv, ayni paytda, shu sohaning rivojlanganligidan dalolat beradi. Ammo bu rivojlanganlik mujassamlashuvda korxona yoki tashkilotning kattaligi, ko‘lami bilan o‘lchansa, ixtisoslashuvda esa u o‘z ifodasini yagonaligi, noyobligi va betakrorligida topadi. Kooperatsiya va kombinatsiya bir-biriga o‘xshashligini yuqorida qayd qilgan edik. Bu masalaga yana bir yondashsak, ularning ikkalasi uchun ham ixtisoslashuv tegishli ekanligining guvohi bo‘lamiz.

Agar kooperatsiyaga asosan detal yoki qism darajasidagi ixtisoslashuv mos bo‘lsa, kombinatsiya uchun texnologik, yarim mahsulot ishlab chiqarish doirasida ixtisoslashgan korxonalar birikmasi xosdir. Shuning uchun ularning aloqadorlik va

farqlarini aniqlash, ijtimoiy va hududiy tomonlarini ajrata bilish, bir-birlarini bog‘lab ko‘rish iqtisodiy geografik o‘rganishning muhim shartidir.

Mustaqillikni mustahkamlash va bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish sharoitida ishlab chiqarishni tashkil etishning barcha shakllaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanish zarur. Masalan, har qanday mustaqil davlatning iqtisodiy qudratini faqat kichik yoki tor darajada ixtisoslashgan korxonalar bo‘yicha parchalab yuborish maqsadga muvofiq emas. Shu bois, mamlakat uchun katta, o‘rta va kichik, turli darajada ixtisoslashgan korxonalarning turg‘un uyushmasi, majmuasi kerak.

**Erkin iqtisodiy zonalar (hududlar).** Erkin iqtisodiy hududlar (EIH) dunyoning ko‘plab davlatlarida mavjud. XX asrning oxirlarida dunyoda turli xildagi 4 mingdan ortiq EIHlar mavjud edi. G‘arb mutaxassislarining fikricha 2014-yilga kelib jahon tovar aylanmasining 30% i turli erkin iqtisodiy hududlarda ro‘y berdi. Xalqaro korporatsiyalar o‘z faoliyatlari uchun imtiyozli sharoitlarni qidirib, EIH larni ko‘p foyda olish mumkin bo‘lgan joy, deb hisoblashadi. Yirik xalqaro korporatsiyalar erkin iqtisodiy hududlarda o‘z ishlab chiqarishlarini tashkil qilishni ekspansiyalarining muhim yo‘nalishi deb hisoblaydilar.

Erkin iqtisodiy hududlar*mamlakatning boshqa qismlarida ishlatilmaydigan imtiyoz va rag‘batlantirishning o‘ziga xos tizimi qo‘llaniladigan milliy iqtisodiy hududning bir qismi*dir. Odatda, EIHlar geografik jihatdan u yoki bu darajada alohida hududdir.

Erkin iqtisodiy hududlar ularni tashkil qiluvchilar tomonidan ochiq iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishdagi muhim bosqich sifatida ko‘riladi. Ularning faoliyat ko‘rsatishi tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirish va erkinlashtirish bilan bog‘liq. Erkin iqtisodiy hududlarning iqtisodiyoti tashqi dunyoga ochiqligi katta darajada bo‘ladi. Bojxona, soliq va investitsion rejimi esa tashqi va ichki investitsiyalar uchun qulaydir. Erkin iqtisodiy hududlar tashkil

qilishning muhim sabablaridan biri shundaki, ko‘pincha davlat iqtisodiyotini kapital oqimi uchun to‘liq ochishni, o‘ziga xos investitsiya oqimini hamma joyda ishlatishni istamaydi. Shuning uchun ham maxsus hudud sifatida qisman ochiqlikni ishlatadi.

Erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilishda ikkita kontseptual yondashish qo‘llaniladi: hududiy va funksional (nuqtali). Birinchi holatda, hududdagi barcha rezident korxonalar xo‘jalik faoliyatida imtiyozlardan foydalanadilar.

Erkin iqtisodiy hududlarning eng oddiy ko‘rinishlaridan biri erkin bojxona (bojsiz) hududlari (EBH) hisoblanadi. Bu hududlar erkin savdo hududlari kabi birinchi avlod hududlariga kiradi. Ular XVII-XVIII asrlardan buyon mavjud. Bunday hududlar ko‘pincha “Bond omborlari” yoki “Erkin bojxona hududlar” deb ataladi. Erkin bojxona hududlari tovar olib kirish va olib chiqishda bojdan ozod qilinadi. Ular ko‘plab mamlakatlarda mavjud.

**Erkin savdo hududlari**AQShda eng ko‘p rivoj topgan. Ularni tashkil qilish 1934-yildagi maxsus qonunda nazarda tutilgan. Uning maqsadi savdoni rag‘batlantirish, savdo operatsiyalarini tezlashtirish, savdo xarajatlarini kamaytirishdan iborat.

Oddiy erkin savdo hududlari qatoriga yirik xalqaro aeroportlardagi maxsus “dyuti fri” magazinlarini kiritish mumkin. Rejim nuqtai nazaridan ular davlat chegaralaridan tashqarida deb hisoblanadi. Erkin savdo hududlari qatoriga imtiyozli holatga ega bo‘lgan an’anaviy erkin portlarni kiritish mumkin.

**Sanoat ishlab chiqarish hududlari** ikkinchi avlod hududlari hisoblanadi. Ular erkin savdo hududlariga faqat tovar emas, kapital ham olib kiritilishi va ularda faqat savdo bilan emas, balki ishlab chiqarish faoliyati bilan ham shu g‘ullanilishi oqibatida erkin savdo hududlarining evolutsiyasi natijasida vujudga keladi.

Sanoat ishlab chiqarish hududlari maxsus boj rejimiga ega bo‘lgan hududlarda tashkil qilinadi. Ularda eksport uchun yoki import o‘rnini bosuvchi

tovarlar ishlab chiqariladi. Bu hududlar sezilarli soliq va moliyaviy imtiyozlarga ega bo‘ladilar. Eksport ishlab chiqarish hududlarini tashkil qilish mantiqi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti bilan belgilangan edi. O‘tgan asrning 60-yillari o‘rtalarida bu yerda sanoat eksportini rag‘batlantirish va xorijiy kapital oqimi yordamida bandlik darajasini oshrish zaruriyati tug‘ilgan edi.

Texnika kiritish hududlari uchinchi avlod hududlari hisoblanadi (XX asr 70-80-yillari). Ular stixiyali tarzda hosil bo‘ladi yoki maxsus ravishda davlat yordamida yirik ilmiy markazlar atrofida tashkil qilinadi. Ularda yagona soliq va moliyaviy tizimdan foydalanuvchi milliy va xorijiy tadqiqotchilik, loyiha, ilmiy-ishlab chiqarish firmalari jamlanadi.Eng ko‘p texnika kiritish hududlari AQSh, Yaponiya, Xitoyda faoliyat ko‘rsatmoqda. AQShda ular texnoparklar, Yaponiyada esa texnopolislar, Xitoyda –ilg‘or texnologiyalar hududi deb ataladi.

Jahonda eng mashhur va AQShda eng yirik “Silikon vodiysi” nomli texnopark jahon hisoblash texnikasi vositalari va kompyuterlar ishlab chiqarishining 20 foizini yetkazib beradi. Umuman AQShda 80 dan ortiq bunday hududlar mavjud. Yaponiyada mahsus hukumat dasturlari doirasida ilg‘or ilmiy tashkilotlar asosida yigirmaga yaqin texnopolislar tashkil qilingan. Xitoyda ham bunday hududlar, odatda, davlatning ilm va texnikani rivojlantirish rejalarini amalga oshirish paytida tashkil qilinadi. 90-yillarning o‘rtalaridan boshlab Xitoyda 50 dan ortiq yangi va ilg‘or texnologiyalarni rivojlantirish hududlari ishlamoqda.

Turli moliya-iqtisodiy, sug‘urta va boshqa xizmatlar ko‘rsatuvchi firma va tashkilotlar uchun tadbirkorlik faoliyatining imtiyozli sharoitlari yaratiladigan hududlar servis hududlari deb ataladi.

**Servis hududlar** qatoriga offshor hududlar (OH) va solih gavanlari (SG) kiradi. OH va SG tadbirkorlarni qulay valyuta-moliya, fiskal sharoitlar, bank va tijorat sirlarining yaxshi saqlanishi, davlat boshqaruvining kamligi bilan o‘ziga jalb qiladi.

Offshor kompaniyalar faoliyat ko‘rsatayotgan davlatlar qatoriga Lixtenshteyn, Panama, Normandiya orollari, Men oroli (Britaniya), Antil orollari, Gonkong, Madeyra, Liberiya, Irlandiya, Shveytsariya va boshqalar kiradi. Oxirgi o‘n yillikda ularga Malta, Mavrikiya, G‘arbiy Samoa, Isroil, Malayziya (Labuan oroli) va boshqa davlatlar qo‘shildi.

**Offshor hududlar**dagi sanoat, savdo, bank, sug‘urta va boshqa kompaniyalar yo umuman soliqqa tortilmaydi (Irlandiya, Liberiya), yoki kichik miqdordagi soliqlar to‘laydi (Lixtenshteyn, Antil orollari, Panama, Men oroli va boshqalar). Offshor hududlarni tashkil qiluvchi davlatlar qo‘shimcha xorijiy kapital jalb qilish, offshor hududida ro‘yxatga olingan korxonadan foyda olish, mahalliy mutaxassislar uchun qo‘shimcha ish joylari tashkil qilinishi orqali foyda ko‘radilar. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, offshor biznesda band bo‘lgan kapital 500 mlrd. dollorga yetadi. Unda qariyib 2 mln kishi qatnashadi va har yili bir necha ming yangi kompaniya ro‘yxatga olinadi.

Majmuaviy hududlar alohida ma’muriy tumanlar hududida umumiy xo‘jalik yuritish rejimiga nisbatan alohida, imtiyozli rejim o‘rnatish bilan tashkil qilinadi. Ularga Xitoyning 5 ta maxsus iqtisodiy hududini, Braziliyadagi “Manuas” hududini, Argentinadagi “Olovli yer”ni, sanoati rivojlangan davlatlarning kam rivojlangan hududlaridagi erkin tadbirkorlik hududlarini kiritish mumkin.

Turli ko‘rinishdagi erkin iqtisodiy hududlarning o‘xshash tomonlari ularda o‘zida tadbirkorlar uchun bojxona, moliyaviy, soliq imtiyozlari va umumiy rejimga nisbatan ustunliklar bo‘lgan qulay investitsion iqlim mavjudligidadir. Turli hududlarda imtiyoz va rag‘batlantirishlar ba’zi jihatlari bilan farq qiladi.

Imtiyozlar 4 ta asosiy guruhga ajratiladi:

*Tashqi savdo imtiyozlari*. Bu alohida bojxona-tarif rejimini kiritish (eksport-import bojlarini kamaytirish yoki bekor qilish) va tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish tartibini soddalashtirish.

*Soliq imtiyozlari*. Bunda faoliyatning ma'lum ko'rinishlari soliq imtiyozlari orqali rag'batlantiriladi. Bu imtiyozlar soliq bazasi (daromad, mulk qiymati va h.k.), uning tarkibiy qismlari (amortizatsiya ajratmalari, ish haqiga xarajat, transport), soliq stavkalarining darajasi, soliqqa tortilishdan doimiy va vaqtinchalik ozod qilish masalalari.

*Moliyaviy imtiyozlar*. U o'z ichiga turli shakldagi subsidiyalarni oladi. Ularga kommunal xizmatlarning arzonligi, yer maydonlari va ishlab chiqarish binolari, ijara haqini kamaytirish, imtiyozli kreditlar berish kiradi.

*Ma'muriy imtiyozlar*. Korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish va xorijiy fuqarolar kirib-chiqishini yengillashtirish, shuningdek, turli xizmatlar ko'rsatish maqsadida ma'muriyat tomonidan maxsus hududlar ajratilishi.

Erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilishning jahon tajribasi ularning umumiy yutuqlari, umumiy xususiyatlari va rivojlanishining o'ziga xos tomonlari haqida ma'lum bir xulosalar chiqarishga imkon beradi. Sanoati rivojlangan davlatlardagi erkin iqtisodiy hududlar yaxshi rejalashtiril-ganligi va ularni boshqarishning moslashuvchanligiga bog'liqdir.

Bu hududlarni tashkil qilish ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan juda foydali bo'lib, ko'plab ish o'rinlarini tashkil qilishda, xalqaro tovar ayirboshlashni jonlantirishda, tashqi savdo aloqalari natijalarini yaxshilashda, ilmiy-ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda katta rol o'ynaydi.

Rivojlanayotgan davlatlardagi erkin iqtisodiy hududlar ham o'ziga xos qator o'xshashliklarga egadir.

Birinchidan, bu davlatlarda eksport ishlab chiqarish hududlari (EIChH) keng tarqalgan. Yuqorida aytilganidek, EIChH tashkil qilishga qator iqtisodiy sabablar, avvalambor, eksport uchun sanoat tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, mamlakatga xorijiy kapital, ilgor fan va texnika, zamonaviy texnik axborotlar jalb qilish zaruriyati kabi sabablar turtki bo'ladi.

Ikkinchidan, erkin iqtisodiy hududlardagi xo‘jalik yuritish rejimi xorijiy ishbilarmonlar uchun erkin va imtiyozli bo‘ladi. Bu erkin iqtisodiy hududlar orasida xalqaro raqobatning kuchayishi bilan bog‘liqdir.

Uchinchidan, erkin iqtisodiy hududlar faoliyati davomida ular faoliyatining tovar sanoat diversifikatsiyasi ro‘y beradi. Zamonaviy FTI yangi va yuqori texnologiya ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan ilmtalab ishlab chiqarish jamlangan erkin iqtisodiy hududlarni ilgor o‘rinlarga olib chiqadi.

Rivojlanayotgan davlatlar orasida Xitoyda maxsus iqtisodiy hududlar vujudga keldi. 80-yillarning boshlarida maxsus hududlarga birlashtirilgan kichik-kichik hududlar bilan boshlagan Xitoy hukumati 90-yillarning boshlarida bunday hududlarni yuzlab kvadrat kilometrga yoydi. Mamlakatda va xorijda mashhur bo‘lgan “Shenchjen”, “Chjuxay”, “Syamen”, “Shantou”, “Xaynan”dan tashqari mamlakatda texnik-iqtisodiy hududlar (yigirmadan ortiq) va yangi, yuqori texnikani rivojlantirish hududlari – texnoparklar ham rivojlandi. Shanxaydagi “Pudun” iqtisodiy rivojlanish hududiga alohida rol ajratilgan. Bu loyihaga ko‘ra, “Pudun” hududi bir necha o‘n yil mobaynida Shanxayni Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi yirik savdo va moliyaviy markazga aylantiradi.

Erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilish Xitoy hukumati tomonidan 70-yillar oxirida e’lon qilingan “ochiq eshiklar” tashqi iqtisodiy siyosatning tashkiliy bir qismi bo‘lib qoldi. Erkin iqtisodiy hududlar rivojlantirish modelini tanlashda Xitoy rahbariyati mamlakatning joriy ehtiyojlari va bunday hududlar tashkil qilishning xorijiy tajribalarini e’tiborga oldi. Singapur, Tayvan va AQSh tajribasi alohida e’tibor bilan o‘rganildi. Erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilishga tayoyrgarlik davrida ular faoliyatining bir necha variantlari taklif qilindi. Natijada, eksportga, xorijiy kapitalni jalb qilishga, shuningdek, ishlab chiqarish texnologiyasini yaxshilashga yo‘naltirilgan EIH tanlab olindi. Maxsus iqtisodiy hududlar ochiq

eshiklar siyosatini amalga oshirgan holda, mamlakatning boshqa tumanlarini bog‘lab turuvchi rolini o‘ynay boshladi.

Xitoydagi maxsus iqtisodiy hududlar va boshqa imtiyozli investitsion iqlimdagi tumanlar faoliyatining amaliyoti shubhasiz muvaffaqiyatga erishdi. Xitoylik va xorijiy mutaxassislar EIH erishgan yutuqlar qatoriga, avvalo, barqaror iqtisodiy o‘sish sur’ati, hududlarga ko‘p miqdorda xorijiy investitsyalarning jalb qilinishi, mehnat unumdorligining sezilarli o‘sishi va nihoyat, aholi turmush darajasining o‘sishini kiritishadi.

Erkin iqtisodiy hududlar muvaffaqiyatidan guvohlik beruvchi misollardan tashqari ularni tashkil qilishda muvaffaqiyatsizlikka ham uchralgan. Masalan, Shri-Lanka, Gvatemala, Liberiya, Senegal va boshqa davlatlarda turli ko‘rinishdagi erkin iqtisodiy hududlar nafaqat muvaffaqiyatsizlikka uchradi, balki, umuman, o‘z faoliyatini to‘xtatdi. Buning asosiy sabablariga siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy sabablarni ko‘rsatish mumkin.

Siyosiy sabablar mamlakatdagi umumiy siyosiy beqarorlik, fuqarolar kelishmovchiliklari va boshqalardir. Iqtisodiy sabablarga, avvalo, erkin iqtisodiy hududlardagi investor nuqtai nazaridan juda murakkab investitsion rejim haqidagi qonunchilik kiradi. EIHdagi byurokratik bashqaruv, hududda investorlarni ro‘yxatga olishda kerak bo‘lmagan protseduralar mavjudligi, hudud ustunliklarini yomon reklama qilinishi ham erkin iqtisodiy hududlar taqdiriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishning asosiy tamoyillariga tavsif bering.
2. Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning dastlabki tamoyilari va uning namoyandalari qarashlarini tavsiflang.
3. Imtiyozli hududlarning mamlakat rivojlanishidagi o’rni qanday?

4. Erkin iqtisodiy zonalar qay darajada rivojlanish o'chog'ini hosil qila oladi?
5. Hozirgi kunda mamlakatimizning qaysi hududlarida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilgan?

## 12- BOB. GEOGRAFIK JARAYONLAR. AHOLI MIGRATSIYASI VA GLOBALIZATSIYA

Reja:

12.1. Geografik mehnat taqsimoti.

12.2.Iqtisodiy rayonlashtirish.

12.3.Aholi migratsiyasi.

12.4. Globallashuv jarayoni va uning natijalari.

**Mehnat taqsimoti** – bu tarixan belgilangan ijtimoiy mehnat tizimidir. U jamiyat rivojlanishi jarayonida faoliyatning sifat jihatdan differensiatsiyasi natijasida kelib chiqadi.

Hududiy mehnat taqsimoti jamiyat taraqqiyotida mehnat faoliyatining sifat jihatidan tabaqalanish jarayonini ifodalaydi va ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishiga kuchli turtki beradi. Mehnat taqsimoti mohiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi, ya'ni:

a) butun jamiyat miqyosida;

b) ishlab chiqarishni tashkil etishning turli shakllaridagi ichki mehnat taqsimotidir.

Mehnat taqsimotining bu ikki turi o'zaro aloqadorlikda bo'lib, bir-biri bilan chambarchas bog'langan.

**Hududiy mehnat taqsimoti** – ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishning asosidir. Ayni vaqtda, hududiy mehnat taqsimoti iqtisodiy

rayonlarining shakllanishi bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir. Shuning uchun ham hududiy mehnat taqsimoti rayonlarning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan chambarchas bog‘liq, xo‘jalik iktisoslashuvining samarali yo‘nalishlarini ifodalaydi. Bunday xo‘jalik ixtisoslashuvi huddudagi eng qulay va samarali bo‘lgan alohida mahsulotlarni yetishtirishga (dehqonchilikda-bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavot-polizchilik kabi mahsulotlar yoki chorvachilikda – sut, go‘sht, jun, tuxum, parranda go‘shti yetishtirish, sanoatda – metallurgiya, mashi-nasozlik, kimyo, engil va oziq-ovqat tarmoqlari mahsulotlari yetkazib berish va kurort xo‘jaligi va boshqalar) hatto ana shu mahsulotlarning bir turi yoki qishloq xo‘jalik ekinlarining bir navini, ma’lum detalni yoki uning bir qismini ishlab chiqarishga ixtisoslashuv bilan bog‘liqdir.

Ana shunday xo‘jalik ixtisoslashuvi alohida shakllanadigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar – geografik mehnat taqsimoti yoki uning sinonimi hududiy mehnat taqsimoti deb yuritiladi. Hududiy mehnat taqsimoti juda murakkab tushuncha bo‘lib, xo‘jalik jihatidan turlicha ixtisoslashuv darajasidagi hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar tizimini ifodalaydi. Bunday iqtisodiy aloqalar rayon, mamlakat, jahon miqyosida mineral xomashyo, xilma-xil tovarlar almashuvidan iborat o‘zaro foydali bo‘lgan jarayondir.

N.N.Baranskiy “hududiy mehnat taqsimoti” tushunchasini “juda muhim tushuncha, to‘g‘rirog‘i, tarmoqlarni ham, iqtisodiy rayonlarni ham o‘zaro bog‘lab turuvchi tushunchalar tizimi” dan iborat deb hisoblaydi. Hududiy mehnat taqsimotining moddiy elementlari rayonlar va mamlakatlar, shaharlar va shahar aglomeratsiyalari, sanoatlashgan mintaqa, markaz, tugun va rayon, qishloq xo‘jalik mintaqalari va rayonlari, ishlab chiqarishni tashkil etishning xilma-xil shakllari, sihat-salomatlik va dam olish majmualaridan iborat.

Hududiy mehnat taqsimoti mohiyatiga ko‘ra – jamiyat miqyosida tarmoq va tarmoqlararo hamda ishlab chiqarishni tashkil etish shakllaridagi (ichidagi) mehnat taqsimotiga bo‘linadi.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti ishlab chiqarish kuchlarining “vaqt” mobaynidagi taraqqiyot bosqichlarini ifodalaydi. Jamiyat taraqqiyotining muayyani bosqichida (neolit davrida) chorvachilikdan dehqonchilikning ajralib chiqishi, keyinroq hunarmandchilikning ajralib chiqishi bilan mehnat taqsimoti ijtimoiylashib, sifat jihatidan rivojlanib bordi. Hunarmandchilikning rivojlanishi, savdo-sotig‘ning o‘sishi bilan ishlab chiqarishning tabaqalanishi jarayoni kuchaydi va bugungi murakkab ijtimoiy-hududiy mehnat taqsimotining shakllanishiga olib keldi.

Ishlab chiqarishning tarmoq mehnat taqsimoti iqtisodiyotining yirik tarmoqlariga, chunonchi, sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va infrastrukturadagi bo‘linishni ifodalaydi. Tarmoqlararo mehnat taqsimoti ishlab chiqarishning tarkiban murakkablashib borish jarayonidir, chunonchi, sanoatda undiruvchi va ishlov beruvchi sanoat tarmoqlari, bular ham, o‘z navbatida, yoqilg‘i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoatiga, qishloq xo‘jaligi – dehqonchilik va chorvachilikka, transport esa quruqlik, suv va havo transport tarmoqlariga, infrastruktura esa g‘oyat tabaqalashgan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlariga bo‘linishidir.

Monopoliyalar, konsernlar, assotsiatsiyalar, korxonalar, jamoa xo‘jaliklari, firmalar va boshqalar ishlab chiqarishning xilma-xil shakllaridagi mehnat taqsimoti – mahalliy yoki lokal mehnat taqsimotidir. Bir mamla-kat doirasida rivojlanadigan, mamlakatning tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan iqtisodiyot sohalarining ixtisoslashuv jarayoni mamlakat mehnat taqsimoti deyiladi. Bunday mehnat taqsimotida mamlakatning turli qismlari ishlab chiqarishning bir yoki bir necha soha-lariga ixtisoslashadi. Chunonchi, sobiq Ittifoq sharoitida 15 ta ittifoqdosh respublika iqtisodiyotining ixtisoslashuvidan tarkib topgan Butunittifoq

mehnat taqsimoti shakllangan edi. Butunittifoq mehnat taqsimoti doirasida Markaziy, shimoli-g‘arbiy, Ural, Donetsk-Dnepr bo‘yi iqtisodiy rayonlari ishlab chiqarish kuchlari rivojlangan, sanoatlashgan rayonlar hisoblansa, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston respublikalaridan iborat O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni mineral xomashyo va qishloq xo‘jalik mahsulotlari (paxta, bog‘dorchilik, sabzavotchilik, chorvachilik) yetkazib berishga ixtisoslashganligi bilan ajralib turgan.

O‘zbekiston mehnat taqsimotida Toshkent, Zarafshon va Farg‘ona iqtisodiy rayonlarining ishlab chiqarish kuchlari bir muncha rivojlangan, sanoati taraqqiy etgan, ayni vaqtda qishloq xo‘jaligi rayonlari – Surxon-daryo, Qashqadaryo, Buxoro-Qizilqum, Mirzacho‘l iqtisodiy rayonlari esa tabiiy resurslar jadal o‘zlashtirilayotganligi, qishloq xo‘jaligini istiqbolda rivojlantirish imkoniyatlari g‘oyat katta ekanligi bilan ajralib turadi.

Mintaqalararo yoki mintaqaviy mehnat taqsimoti tabiiy-geografik jihatdan yaxlit hududlardagi ikki va undan ortiq mamlakatlar guruhi o‘rtasida shakllangan ishlab chiqarish ixtisoslashuvini ifodalaydi. Jumladan, G‘arbiy Yevropa mamlakatlari doirasida “Umumiy bozor” shakllan-gan mintaqaviy mehnat taqsimotini ifodalaydi. Keyingi yillarda bunday mintaqaviy mehnat taqsimoti Lotin Amerikasi, Janubi-Sharqiy, Janubiy va Janubi-G‘arbiy Osiyo, Shimoli-G‘arbiy, Markaziy, Sharqiy Afrika, Shimoliy Amerikada shakllanmoqda. Yaqin istiqbolda O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikiston va Turkmanistondan iborat Markaziy Osiyo mintaqaviy mehnat taqsimotiga asoslangan iqtisodiy birlashmaning shakllanishi bu mintaqadagi murakkab tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolar yechimlarini ishlab chiqish va hal qilish negizida ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirish imkonini beradi.

**Xalqaro mehnat taqsimoti** (geografik) – Xalqaro ixtisoslashuv va xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi xalqaro mehnat taqsimotining mazmun mohiyatini, shakllarini amalga oshirishni belgilovchi mezonlardir.

Jahon xo‘jaligini rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishda samaradorlikni ko‘tarish, Shuningdek, ishlab chiqarishda xarajatlarni kamaytirishga intilish zarur. Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi jarayonida asosiy narsa, bu shu jarayonning har bir ishtirokchisi o‘zining XMTdagi ishtirokidan iqtisodiy foyda qidirishi va topishidir.

Har qanday davlatning xalqaro almashuv jarayonida xalqaro mehnat taqsimotining ustunliklarini amalga oshirishi – birinchidan, eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning tashqi va ichki bozor narxlaridagi farqni olish; ikkinchidan, arzonroq bo‘lgan importdan foydalanib, milliy ishlab chiqarishdan voz kechgan holda ichki xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Xullas, XX-XXI asrlar bo‘sag‘asida jahonda misli ko‘rilmagan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlar ro‘y bergan bo‘lib, ular albatta, xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishiga o‘zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatgan.

Xalqaro mehnat taqsimoti uch asosiy tiplar bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin va bular ishlab chiqarish kuchlari tegishli rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi: umumiy, xususiy va yakka tartibda.

Umumiy tipdagi xalqaro mehnat taqsimoti, ya’ni ishlab chiqarish sohalari bo‘yicha (qazib olish, qayta ishlash, sanoat, qishloq xo‘jaligi) ko‘proq xo‘jalikni ekstensiv rivojlanish davriga xos va eng avvalo, tabiiy, ishlab chiqarishning tabiiy geografik sharoitlari bilan bog‘liq. Xususiy tipdagi xalqaro mehnat taqsimoti ma’lum sohalar, ularning tarmoqlari va ishlab chiqarish turlarida xalqaro ixtisoslashuvni taqozo etadi. Bunda almashuvning internatsionallashuvi paydo bo‘ladi va kengayadi, savdo o‘sishi tezlashadi.

Yakka tartibdagi xalqaro mehnat taqsimoti alohida operatsiyalar (detallar, uzellar, agregatlar) va texnologik stadiyalarga ixtisoslashuvni taqozo qiladi. Bu sharoitda bozor hajmi o‘sadi. Jahon savdosi o‘zish sur’atida rivojlanadi (ishlab chiqarishga taqqoslanganda). Shuning uchun ham xalqaro savdoda komplektlovchi kooperatsiya tartibida, shu jumladan, transmilliy korporatsiya doirasida (TMK) 1/2 dan ko‘proq mahsulot tovar almashinuvi qayta ishlash sanoatiga to‘g‘ri keladi.

**Iqtisodiy rayonlashtirish** – ishlab chiqarishni samarali tashkil qilishni takomillashtirish va hududiy rejalashtirish asosi sifatida mamlakatlarning hududiy-iqtisodiy majmuasini ifodalaydi. Iqtisodiy rayonlashtirish uzoq tarixga ega. Iqtisodiy rayonlashtirish asosida hududiy mehnat taqsimoti yotadi. Ana shu mehnat taqsimoti orqali mamlakatlarning ayrim qismlari, ya’ni tabiiy-iqtisodiy jihatdan yaxlit hududlari ishlab chiqarish-ning bir yoki bir nechta iqtisodiy samarali bo‘lgan tarmoqlariga ixtisoslashadilar. Natijada, rayon darajasidagi va rayonlararo aloqalar amalga oshadi. Mamlakat bu iqtisodiy rayonlar tizimi bo‘lib, o‘z navbatida, iqtisodiy mintaqalarga, iqtisodiy kichik rayonlarga bo‘linadi. Iqtisodiy rayonlar bir-biridan ishlab chiqarish sharoitlari bilan farqlanadi. Bunday sharoitlar:

a) iqtisodiy rivojlanish darajasi;

b) mehnat resurslarining shakllanish xususiyatlari;

v) ishlab chiqarish tizimining ixtisoslashuvi va konsentratsiyasi;

g) transport turining shakllanishi;

d) ishlab chiqarishning tabiiy omillari;

e) tabiiy-tarixiy xususiyatlari bilan belgilanadi (N.T.Agafonov, A.T.Chistabayev va boshqalar).

Iqtisodiy jihatdan qulay rayonlarda yirik ishlab chiqarish turlari – elektro energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, yengil, oziq-ovqat sanoati majmualarini, ixtisoslashgan qishloq xo‘jaligini joylashtirish butun mamlakat xo‘jalik majmuasi uchun yuqori iqtisodiy samara beradi. Ayni vaqtda, iqtisodiy

rayonlarda samarali ishlab chiqarish tizimining shakllanishi mavjud tabiiy sharoit va tabiiy resurslardan majmuali foyda-lanish, sanoat tarmoqlarining o‘zaro uyg‘unlashgan holda rivojlanishini ta’minlash va sanoat majmualari, agrosanoat ishlab chiqarishi va infrastruktura tarmoqlarini barqaror rivojlanishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik muammolar yechimlarini hal qilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuningdek, iqtisodiy rayonlarni siyosiy-ma’muriy bo‘linishlari doirasida ajratish ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga va samarali ishlab chiqarish tizimini shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Chunki, yaxlit tabiiy-iqtisodiy hududlarda tabiiy resurslarni turli siyosiy-ma’muriy birliklar doirasida bo‘linib qolishi bu resurslardan oqilona foydalanishga imkon bermaydi. Mamlakatlarni tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik hamda iqtisodiy rayonlashtirish iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Har bir iqtisodiy rayon uchun mintaqaviy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi.

**Iqtisodiy geografik o‘rin** – iqtisodiy geografiyaning aniq tushunchasi, uning “kalitidir”, chunki ushbu tushuncha orqali korxona, shahar yoki boshqa hududiy obyektlarning nima uchun xuddi shu joyda qurilganligi va nima sababli shu darajaga yetganligi anglab olinadi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy geografik o‘rinni iqtisodiy geografik bilimning o‘ziga xos usuli (iqtisodiy rayonlashtirish ham xuddi shunday metod sifatida) deb qarash mumkin.

Iqtisodiy geografik o‘rin – bu ma’lum bir obyektning korxona, shahar, viloyat, mamlakat o‘zidan tashqarida yotgan geografik obyektlarga (tog‘, daryo, dengiz, chegara, konlar, yo‘l va h.k.) nisbatan joylashuvi va ularning ko‘rilayotgan obyektning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri demakdir.

Bu yerda quyidagilarga e’tibor bermoq lozim:

- iqtisodiy geografik o‘rin tushunchasida ko‘rilayotgan obyekt bitta, yagona, uning tashqarisidagi, atrofdagilar esa bir nechta;

- markaz va tashqi obyektlar o‘rtasida hududiy iqtisodiy aloqa va munosabatlar bo‘ladi va ular bir tomonga, ya’ni ko‘rilayotgan joyga nisbatan tahlil etiladi;

- “iqtisodiy geografik o‘rin” tarixiy tushunchadir, chunki ma’lum bir joyning o‘rni vaqt o‘tishi bilan qulay yoki noqulay bo‘lishi mumkin;

- iqtisodiy geografik o‘rin turli bosqichli (mikro, mezo va makro o‘rin) va har xil tarkibiy qismlarga ega (gidrogeografik, antropogeografik, transport-geografik o‘rin va h.k.);

- iqtisodiy geografik o‘rin davlat darajasida ko‘rilganda u siyosiy mazmunga, ya’ni siyosiy geografik o‘rin ma’nosini oladi.

Qator misollarga murojaat qilaylik: Toshkent viloyatidagi Bekobod shahrida respublikamizda yagona qora metalllurgiya korxonasi qurilgan. Nima uchun ushbu korxona aynan shu shaharda joylashgan? Sababi – Bekobodning iqtisodiy geografik o‘rni qulay: u Toshkent, Mirzacho‘l hamda Farg‘ona iqtisodiy rayonlariga yaqin joylashgan; shahar yaqinida Farhod GES, qurilish bazasi – sement zavodi ham mavjud; korxona mahsuloti, asosan, Toshkent sanoati uchun kerak.

Nima sababdan Chust, Nurota, G‘ijduvon, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlar juda qadimiy, boy tarixga ega bo‘lishiga qaramasdan hamon katta markaz emas, yaqindagina vujudga kelgan Navoiy esa tez orada katta shaharlar qatoriga kirdi? Bu savolga javobni ham ko‘proq ularning iqtisodiy geografik o‘rnidan qidirish kerak.Yer yuzidagi aksariyat yirik shaharlar ularning qulay geografik o‘rni orqali mashhurdir. Masalan, Stambul, Singapur, Aleksandriya, Volgograd, Novosibirsk, Shanxay, Sankt-Peterburg, London, Rim, Rio-de-Janeyro va h.k.

Jahon geosiyosiy kartasida va hamjamiyatida Britaniya, Yaponiya, AQSh kabi davlatlarining yuqori darajada taraqqiy etganligi va, ayni vaqtda, Afg‘oniston, Nepal, Butanga o‘xshash mamlakatlarning nisbatan sust rivojlanganligini,

qoloqligi ko‘p jihatdan ularning geografik o‘rni bilan izohlanadi. O‘zimizning vatanimiz O‘zbekiston bir vaqtlar Buyuk ipak yo‘lida, katta karvon yo‘lida joylashganda juda qulay geografik mavqega ega bo‘lgan. Keyinchalik jahon madaniyati va savdosida dengiz hamda okeanlar ahamiyatining oshishi natijasida bu qulaylik o‘z kuchini yo‘qotdi. Hozirgi kunda esa yurtimiz iqtisodiy geografik o‘rnini yana yaxshilashga katta e’tibor berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining geosiyosiy va geostategik mavqeiga, uni yaxshilash va undan samarali foydalanish masalalariga mamlakat birinchi Prezidenti I.Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli kitobida katta ahamiyat berilgan.

**Aholi migratsiyasi.** Migratsiya – lotincha “ko‘chaman”, “joyimni o‘zgartiraman” degan ma’noni bildiradi va aholining joylashishi qayta taqsimlanishi, tarkibi va soniga ta’sir ko‘rsatadi. Migratsiya jarayonlari xarakteriga ko‘ra ichki, tashqi (mamlakatlararo) va ishchi migratsiyalariga ITI sharoitida esa “aql oqimi” yo‘nalishiga bo‘linadi. Migratsiya jarayonlarining bosh sabablari – iqtisodiy, siyosiy, etnik, demografik, madaniy, diniy va boshqalar bo‘lishi mumkin. Migratsiya jarayoni aholi hududiy harakatining asosiy turi bo‘lib, inson bilan tabiat o‘rtasidagi aloqadorlik vujudga kelgandan buyon shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Aholi migratsiyasi buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlab keng miqyosda amalga oshmoqda. Migratsiya tashqi va ichki migratsiyaga taqsimlanadi. Mamlakatlar aholisining soni va tarkibiga bo‘ladigan ta’siri nuqtai nazardan tashqi migratsiyalarning ahamiyati beqiyosdir. Tashqi migratsiya kat-ta hajmga ega mamlakatlarda, uning aholi soni va tarkibiga bo‘lgan ta’siri sezilarli oqibatlarga olib kelishi mumkin. AQSh, Kanada, Avstraliya va boshqa qator mamlakatlar tarixda migratsiya saldosining ahamiyati tabiiy o‘sishi, jumladan ustun bo‘lgan ayrim davrlar kuzatishganligini ta’kidlab o‘tish joizdir.

Hozirgi vaqtda ham mazkur mamlakatlarda migratsiya saldosi aholi sonining o‘sishida muhim omil hisoblanadi. Isroil davlatida esa migratsiya saldosi aholi soni o‘sishining deyarli 2/3 qismini ta’minlamoqda. Yuqoridagi mamlakatlar aholining ko‘chib kelishi bo‘yicha yetakchi hisoblansa, qator boshqa mamlakatlar, chunonchi, Irlandiya aholisining ko‘chib kelishi bo‘yicha dunyoda mashhur bo‘lib qolgan. Tashqi migra-tsiyalar o‘z xususiyatlari, sabablari, hududiy qamrovi davom etishi bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Migratsiya xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yuritganda, avvalambor, xohishiga ko‘ra va majburiy migratsiyalar nazarda tutiladi. Tashqi migratsiya asosan, iqtisodiy sabablar bilan bog‘langan. Bunda yangi yerlarni o‘zlashtirish maqsadida hamda ishchi kuchini shart-nomalar bo‘yicha boshqa mamlakatlarga yuborish bilan bog‘liq migratsiyalar katta rol o‘ynaganligini ta’kidlab o‘tish joizdir. Hududiy qamroviga qarab materiklarga va materik ichidagi migratsiyalarni ajratish qabul qilingan. Hozirgi vaqtda ikkinchi turdagi migratsiyalar asosiy ahamiyat kasb etadi. Davom etishi bo‘yicha doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy migratsiya turlari mavjud. Shartnoma asosida amalaga oshirilayotgan migratsiyalar vaqtinchalik migratsiyalar deb ataladi. Doimiy migratsiyalar uy-joyi va ish joyining tamomila o‘zgarishi bilan bog‘liq aholi ko‘chishi bilan bog‘liq bo‘lib, u migratsiyalar ichida asosiy o‘rin egallaydi.

Insoniyat xo‘jalik va ijtimoiy-madaniy faoliyatida ro‘y berayotgan internatsionallashuv va demokratsiyalashuv jarayonlari, shuningdek, mamlakatlararo, millatlararo ayrim ziddiyatlar, to‘qnashuvlar, favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlar oqibatida aholi hamda mehnat resurslarining mamlakat ichida mamlakatlararo keng miqyosda bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yurishi ro‘y beradi. Bular bir tomondan, jahon sivilizatsiyalash va xalqaro mehnat bozorlari, turar joy va ish joy tashlash uchun yaratib bergan huquq va imkoniyatlaridan foydalanuvchi ko‘pchilik migratsiyalardan iborat bo‘lsa, ikkinchi tomondan, o‘z xohishi bilan emas, balki sharoit taqozosi bilan tug‘ilib o‘sgan

joyini tashlab ketishga majbur bo‘lgan qochoqlar hamda zo‘raki migrantlardan iboratdir. Ayrim tarixiy yerlarda migrantlar oqimining ko‘lami hamda ahvolining murakkabligi juda katta muammolarni yuzaga keltiradi. Bu muammolarni yechish esa keng miqyosda xalqaro hamkorlikni taqozo etadi.

Aholi va mehnat resurslarining mamlakatlararo migratsiyasi ishchi kuchini qabul qiluvchi va uni chetga chiqaruvchi mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot darajasida hamda aholining tabiiy o‘sish sur’atlarida anchagina tavofutlar mavjud bo‘lgan chog‘da ro‘y beradi. AQSh, Kanada, Avstraliya kabi yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarning ko‘pchiligi, shuningdek, neftdan katta daromad olib, iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan mamlakatlar (Saudiya Arabistoni, Bahrayn, Quvayt, BAA va boshq.) immigratsiyalash geografik markazlari hisoblanadi.

U bir davlatning mintaqalari o‘rtasida ro‘y beradigan ishchi kuchi migratsiyasi va bir necha mamlakatni qamrab oladigan tashqi migratsiyadan iborat. Xalqaro migratsiya muammolarini o‘rganishda duch kelinadigan asosiy tushunchalar quyidagilar:

- ishchi kuchi migratsiyasi mehnatga layoqatli aholining bir davlatdan ikkinchi bir davlatga, bir yildan ko‘proq muddat bilan ko‘chib o‘tishi, buning iqtisodiy va boshqa sabablari bo‘lishi mumkin;

- immigratsiya – mehnatga layoqatli aholining biron-bir mamlakatga chetdan kirib kelishi;

- emigratsiya – mehnatga layoqatli aholining bir davlatdan ikkinchi bir davlatga chiqib ketishi;

- migratsiya saldosi – mamlakatda bo‘ladigan immigratsiya va emmigratsiya o‘rtasidagi farq;

- aqliy talafot – yuqori malakali kadrlarning xalqaro migratsiyasi;

- reemigratsiya – emmigrantlarning turg‘un turish uchun o‘z vataniga qaytib kelishi;

- tashqi migratsiya – aholining ikki davlat o‘rtasida ko‘chib yurishi;

- ichki migratsiya – aholining bir davlat doirasida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yurishi;

- mavsumiy migratsiya – mavsumiy ishlar bilan bog‘liq migratsiya-dir.

Tashqi migratsiyaning asosiy sabablari iqtisodiy qiyinchilik, siyosiy beqarorlik, milliy-diniy nizo va urushlardir. Ichki migratsiyaning sabablari ham shunga o‘xshab ketadi va quyidagilardan iborat: iqtisodiy qiyinchilik, mavsumiy ish, milliy nizolar, urushlar va boshqalar.

Aholining bir davlatdan ikkinchi bir davlatga va bir davlatning ichida bir joydan ikkinchi bir joyga ko‘chib yurishini boshqarish migratsiya oqimi deb ataladi. Migratsiya oqimi mamlakat yoki rayonlar aholisining soniga sezilarli ta’sir etishi mumkin. Insoniyat tarixi davomida juda ko‘p ommaviy tashqi va ichki migratsiyalar sodir bo‘lgan. Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin asosiy migratsiya oqimi Amerika, Avstraliya va boshqa yangi kashf qilingan yerlar tomon bo‘lgan. Ommaviy ichki migratsiya davlat dasturi asosida amalga oshiriladi Masalan, Mirzacho‘l yoki Qozog‘iston qo‘riq yerlarining o‘zlashtirilishi va h.k.

Xalqaro migratsiyaning faollashuvi 60-yillarning oxirida iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liq bo’ldi. Natijada, asosan, shunday xulosaga keldiki, ishchi kuchining xalqaro harakati ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida iqtisodiy rivojlanish sur’atiga ta’sir qiladi, bu harakatning sababi esa turli mamlakatlarda, mehnatga haq to‘lash darajasi turlicha ekanligidan iborat. Har bir kishi o‘z mehnatining eng so‘nggi samarasini oladi va iste’mol qiladi degan aqidaga asoslanuvchi neoklassik nazariya tarafdorlarining emmigrant qabul qiluvchi mamlakat farovonligini oshirishga xizmat qiladi, ayni bir paytda, emmigratsiyaning asl vatani bo‘lgan davlatda iqtisodiy rivojlanish saqlanib qoladi yoki hech bo‘lmasa pasaymaydi.

Neoklassika tarafdorlari ishchi kuchini, ayniqsa, yuqori malakali xodimlarni eksport qiluvchi mamlakatda migratsiya muhimligini e'tirof etishadi. Shu munosabat bilan "aqliy talafot"ga soliq solish va undan kela-digan daromadni BMT ixtiyoriga o'tkazib, ulardan rivojlanish maqsadlarida foydalanish g'oyasi keng muhokama etildi. Keyingi yillarda jamlashishga mamlakat iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida qarash ustun kela boshladi. Jamlangan inson potensiali iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili jamligidan kelib chiqilsa, xalqaro mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy rivojlanish borasidagi sur'atlar necha xil ekanligining sabablaridan biri deb hisoblasak bo'ladi.

Xalqaro migrantlar 5 toifaga bo'linadi.

1. Mamlakatga oshkora kiritilgan immigrantlar va noimmigrantlar. Ko'pdan beri immigrantlarni qabul qilib kelayotgan mamlakatlar uchun 80-90-yillar immigratsiya yuqori pog'onaga ko'tarilgan davr bo'ldi;

2. Shartnoma bo'yicha ishlaydigan xizmatchi migrantlar 90-yillarning oxirida ularning soni dunyo bo'yicha 25 mln kishidan ko'proq edi. Ko'pincha mamlakatlar chet el ishchi kuchiga muhtojlik sezadi. Bu hollarda ishchi kuchi serob bo'lgan mamla-katlar: masalan, Osiyoning ba'zi mintaqalari, ya'ni Sharqdagi qator mamlakatlar bilan shunday shartnomalar haqida kelishib olishadi;

3. Yashirincha kelgan immigrantlar 90-yillarning oxirida bularning soni 30 mln kishidan ortiq edi. Deyarli barcha sanoat rivojlangan mamlakatlarda yashirin immigrantlar mavjud. Ularning bir qismi chegara orqali o'tsa, boshqalari viza muddati tugagandan keyin begona mamlakatdan chiqib ketmaydi: bundaylar, odatda, eng kam ish haqi to'lanadigan ish joylariga yollanadilar.

4. Boshpana so'ragan shaxslar. Bunday toifadagi migrantlar soni 80-yillargacha juda oz bo'lib, keyinchalik ancha ko'paydi. 90-yillar oxiriga kelib, 1 mln. kishini tashkil etdi. Shaxslar siyosiy sabablarga ko'ra, iqtisodiy ahvol tufayli boshpana so'raydi.

5. Qochoqlar soni, BMT ma'lumotiga ko'ra, 90-yillar oxiriga kelib, dunyoda 22 mln. dan ko'proqni tashkil etgan va bu raqam yildan-yilga ortib bormoqda (bulardan qariyb 4 mln. kishi o'z vataniga qaytib kelgan bo'lsa ham, BMT homiyligida yashaydi). Qochoqlarning ko'pchiligi bugungi kunda maxsus lagerlarda istiqomat qiladi. Bu lagerlar BMT yoki xususiy agentliklar homiyligidadir.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Hududiy mehnat taqsimoti – ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning ilmiy asosi ekanligini tushuntirib bering.
2. Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashishiga ta'sir etuvchi omillarga tavsif bering.
3. Samarali ishlab chiqarish jarayoni deganda, nimalarni tushinasiz.
4. Mintaqaviy rejalashtirish va mintaqaviy bashoratlashga tavsif bering.
5. Ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishiga ta'sir etuvchi tabiiy omillarga tavsif bering.
6. Iqtisodiy rayonlashtirish deganda nimani tushunasiz?
7. Migratsiya turlarini sanab bering?
8. Migratsiyaga ta'sir etuvchi omillar qaysi?
9. "Aqliy talafot" nima?

## 13- BOB. URBANIZATSIYA

Reja:

13.1. Shaharlar geografiyasi Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning eng faol va yetakchi tarmog'i ekanligi.

13.2. Urbanizatsiya va uni geografik o'rganish.

13.3. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari.

13.4. Shaharlarning funksiyalari.

13.5. Megapolislarning vujudga kelishi.

Geourbanistika yoxud shaharlar geografiyasi aholi va aholi manzilgohlari, umuman, iqtisodiy va sotsial geografiyaning eng rivojlangan yo‘nalishidir. Shaharlar boshqa iqtisodiy geografik obyektlarga qaraganda o‘zining yaxlit, darhol ko‘zga tashlanib turishi bilan farqlanadi. Buning sababi – ularning ishlab chiqarishni, ijtimoiy-iqtisodiy voqelikni hududda, geografik kartada o‘ziga xos tasvirlashidir.

Ma’lumki, iqtisodiy kartalarda, asosan, uch hududiy shakl ko‘rsatiladi: chiziqlar yo‘llarga mos kelsa, areal yoki maydonlar qishloq xo‘jalik sohalariga, nuqta va tugunlar (tugunchalar) esa sanoat markazlari, shaharlarni aks ettiradi. Binobarin, aytish mumkinki, iqtisodiy va sotsial geografiyaning asosiy tadqiqot obyekti ana shu uchlik, hududiy yoki geografik geometriya hisoblanadi va ularni tahlil etish bu fanning tub masalasidir.

Shaharlar geografiyasining iqtisodiy va sotsial geografiya fani doirasidagi bunday yutug‘ining boisi nima? Avvalambor, ta’kidlash lozimki, shaharlar hududiy birlikdir, ikkinchidan, ular murakkab sotsial-iqtisodiy kategoriya; uchinchidan, shaharlarda atrof-muhit, mazkur hududning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati misli oynada aksni topganidek, yaxlit mujassamlashadi; to‘rtinchidan, shaharlar har bir davlat, hudud, iqtisodiy va sotsial geografik tizimning tayanch nuqtalari, “ustunlari” bo‘lib xizmat qiladi. Shaharlar – bizning o‘tmishimiz, hozirgi kundagi qudratimiz va istiqbolda rivojlanish quvvati va imkoniyatimizdir. Ular yerdagi chinakam porloq yulduzlardir.

Shaharlar juda murakkab mavjudot bo‘lib, serqirra vazifalarni bajaradi. Siyosiy jihatdan olsak, har bir davlat o‘zining shaharlar to‘ri va, ayniqsa, poytaxti (dorulsaltanati) bilan kuchlidir. Bejiz emaski, har qanday urush-yurishlar muvaffaqiyati va zafari dushmanning shahar va qal’alarini zabt etishda,

bo‘ysundirishda o‘z isbotini topgan. Demak, qadimda shaharlar butun yurtga, mamlakatga, boylikka nisbat berilgan. Ularni turli mamlakat yoki “iqlimlarda” turlicha atashgan: qubba, madinat, polis, bolig‘, bozor, taun, grad, pur, burg, vill va hokazolar. Bundan ko‘rinib turibdiki, shaharlar davlatlarning siyosiy hayotida, ularning jahon hamjamiyatida, geosiyosiy tuzilmasida muhim rol o‘ynaydi.

Shaharlarning qudrati ularda mujassamlangan iqtisodiy salohiyat bilan belgilanadi. Shaharlar, eng avvalo, qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan tarmoqlarning hududiy tashkil etish shakli sifatida iqtisodiy jihatdan samarali, serdaromad, harakatchan (dinamik) yo‘nalishlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Shu bois, har qanday mamlakat milliy iqtisodiyotining tarkibi, rivojlanganlik darajasi va xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rni, undagi mavjud shaharlar tizimi, urbanizatsiya jarayoni bilan tavsiflanadi. Ayni vaqtda, shaharlarning ilmiy-texnikaviy, madaniy salohiyati ham salmoqlidir.

Shaharlar bozor iqtisodiyotiga o‘tishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Ularda mavjud bo‘lgan bank-moliya tizimlarini bozor infrastrukturasi ma’nosida ta’riflash mumkin. Binobarin, mustaqil mamlakatimizning siyosiy hayoti va uning bozor munosabatlariga o‘tish davrida shaharlarning ahamiyati beqiyosdir. Shaharlarda zamonaviy tarmoqlar, ilg‘or texnologiya joriy etish imkoniyati katta; xorijiy sarmoyadorlar ham, asosan, shaharlar va, ayniqsa, infrastruktura tizimi mukammal shakllangan mar-kazlarni tanlashadi. Shaharlarda tovar ayriboshlash, pul oboroti (aynalishi) faol bo‘ladi. Bularning barchasi shaharlarga yangicha qarashni taqozo etadi.

Davlatlar va iqtisodiy rayonlarni o‘rganishda, o‘lkashunoslikda bu hududlarning umumiy ta’rifidan shaharlarga o‘tiladi, ya’ni shaharlar mamlakatlar ichki tuzilishi, xo‘jalik tarkibi va hududiy tafovutlarni bilib olishda tahlil qilinadi. Demak, bunday an’anaviy yo‘nalishda shaharlar o‘lka, hudud iqtisodiy ta’rifining poyonida, yakuniy bo‘g‘inidan o‘rin olgan. Biroq, bu masalani, aksincha, muqobil

ravishda ham hal etish imkoniyati bor: shaharlarning jamiyat hayoti va uning sotsial-iqtisodiy tuzilmasini aniq va asosiy hududiy shakli ekanligidan kelib chiqqan holda mamlakat tavsifini uning shaharlaridan boshlash mumkin.

Shaharlar mamlakat va iqtisodiy rayonlar geografiyasida o‘rganilishi bilan bir qatorda, ular alohida tadqiqot obyekti bo‘lib ham xizmat qiladi. Bu borada, ya’ni shaharlarni iqtisodiy geografik o‘rganish tartibi haqida ilmiy-uslubiy adabiyotlarda ko‘pgina taniqli olimlarning ko‘rsatmalari mavjud. Albatta, shaharlarni o‘rganish, avvalambor, ularning tarixi, kelib chiqishi, genetik xususiyatlarini tahlil qilishdan boshlanadi. Natijada, asosan, tarixiy manbalarga tayangan holda, o‘rganilayotgan shahar yoki shaharlarning nima uchun aynan shu joyda va o‘tmishning aynan shu bosqichida vujudga kelganligi yoritilib beriladi.

Shaharlarni retrospektiv o‘rganish tarixiy tamoyilga binoan bajariladi: qo‘yilgan maqsad nuqtai nazaridan o‘tmish ma’lum tarixiy davrlarga bo‘linadi va har bir davrning shahar (shaharlar) shakllanishi va rivojlanishiga bo‘lgan ta’siri tadqiq etiladi. Ammo, bu yerda tarixning “ikir-chikiriga” o‘tib ketilmaydi, geografiya tarix uchun emas, aksincha, tarix geografiyaga xizmat qilishi kerak.

Mamlakatimiz shaharlarini o‘rganishda ularni bunyod etilganligidan boshlab, hozirgi kungacha bosib o‘tgan yo‘lidagi asosiy tarixiy, davriy voqealar qisqacha ko‘rib chiqiladi va ular mavjud borliqdan kelib chiqqan holda baholanadi. Boshqacha qilib aytganda, shaharlarning tarixi vujudga kelgan va rivojlanib ketgan davr nuqtai nazaridangina emas (bu, asosan, tarixning vazifasi), balki ularning hozirgi vaqtdagi holatidan kelib chiqib ham tahlil qilinadi. Tarixiy geografiya uchun esa har bir hodisa o‘sha davrdan kelib chiqib tahlil etilishi va baholanishi lozim. Zero, Geraklit aytganidek, “Ayni bir oqimga bir vaqtning o‘zida ikki marta tushib bo‘lmaydi”. Chunki, ikkinchi marta kirganda oqim (suv) ham, unga tushuvchi ham ilgarisidek emas, o‘zgargan bo‘ladi.

O‘rganilayotgan shahar yoki shaharlar tarixiga ko‘ra, ularning genetik turlari ajratiladi, “yangi” va “eski” shaharlar guruhi aniqlanadi. Endigi sharoitda “yangi shaharlar”ni sobiq sovetlar davrida vujudga kelganligi bilan asoslash noto‘g‘ri. Qolaversa, “yangi shahar” tushunchasining o‘zi ham nisbiydir. Keng ma’noda, yurtimizning yangi tarixiga muvofiq “yangi shaharlar” deb ularni Turkiston Rossiya tomonidan zabt etib olingan davr (XIX asrning ikkinchi yarmi)dan so‘ng paydo bo‘lganlarini aytish mumkin. Bunday shaharlar turkumiga Farg‘ona (Yangi Marg‘ilon, Skobelov), Kogon (Yangi Buxoro), To‘rtko‘l (Petroaleksandrovsk) shaharlaridan boshlab, keyingi yillarda vujudga kelgan barcha shaharlar kiritiladi. Shu ma’noda sobiq SSSR davrida barpo bo‘lgan shaharlar (Navoiy, Zarafshon, Shirin, Drujba, Marjonbuloq, Tolimarjon, Yangiyer va boshqalar) ham yangilar qatoriga kiradi. Ammo iqtisodiy va sotsial geografiya nuqtai nazaridan qaraganda butunlay “bo‘sh” yoki o‘zlashtirilmagan joylarda hamda keyingi qisqa davrda aholisi va xo‘jaligi keskin rivojlangan va tashqi qiyofasi tubdan o‘zgargan manzilgohlarni tom ma’nodagi yangi shaharlar deb atash to‘g‘ridir.

Shaharlar geografiyasini o‘rganishdagi navbatdagi bosqich ularni katta-kichikligi bo‘yicha tabaqalashtirish (klassifikatsiyalashtirish)dan iboratdir. Bu yerda qo‘yilgan maqsad va tadqiq qilinayotgan obyekt xususiyatidan kelib chiqib, shaharlar to‘ri aholi soni bo‘yicha turli daraja yoki klasslarga ajratiladi. Eng avvalo, ular 3 guruhga: katta, o‘rta va kichik shaharlarga bo‘linadi, maxsus tadqiqotlarda esa yanada kengroq klassifikatsiya qo‘llaniladi. Tabiiyki, “katta” yoki “kichik” shahar tushun-chasi ham nisbiydir. Masalan, Toshkent darajasida, hatto, azim Samarqand yoki Namangan ham kichik shahardir (Yaponlar “shahar nima?” savoliga “bu Tokiodir” deb javob berishgan ekan). Ayni paytda, mamlakatimiz qishloq joylari, ichkarisidan qaraganda tuman markazi – kichik shahar ham ular uchun katta, ulkan ko‘rinadi. Misol uchun Qashqadaryoning Qamashi yoki Chiroqchi aholisining nigohida shahar bu, eng avvalo, Qamashi va

Chiroqchidir; Qarshi, Samarqand, Toshkent esa ular uchun nihoyatda ulkan, azim shahar hisoblandi.

Demak, shaharlarni miqdoriy jihatdan turlicha baholash sun'iylikka ega ekan. Biroq, bunday qarash, odatda, oddiy xalq, hayotiy va an'anaviy, kundalik andozalarga mos keladi, xolos. Ilmiy izlanishlarda esa har bir tadqiqot obyekti uchungina emas, balki mamlakat miqyosida rasmiy ravishda qabul qilingan ma'lum andozalarga amal qilish kerak. Bu, ayni paytda, turli viloyat va mamlakatlar shaharlarini qiyosiy geografik o‘rganishda ham qo‘l keladi.

Shaharlar kelib chiqishi va ularni klassifikatsiyalash natijalari maxsus statistik jadval, diagramma, grafik va kartalar yordamida tasvirlanishi shart. Jumladan, shaharlar tabaqalanishini piramida shaklida ko‘rsatish ham nihoyatda maqbul usul hisoblanadi. Chunki, bunday tasvirda mamlakat yoki viloyatning qaysi bo‘g‘inidagi shaharlari ko‘p yoki kam, kuchli yoki zaifligi va ushbu muammoni hal etish yo‘llari, manbalari yaqqol ko‘rinadi. Ayni chog‘da, bu holat mamlakat yoki rayon xo‘jaligining hududiy mujassamlashuv xususiyatini aks ettiradi.

Shaharlar miqdoriy darajalari bilan birga, ular sifat ko‘rsatkichlari, bajaradigan vazifalari (funksiyalari) bo‘yicha ham bir-biriga o‘xshash emas. Ma'lumki, juda ko‘p shaharlar turli maqomdagi ma'muriy markaz vazifasini o‘taydilar. Ular orasida ko‘pchilikni tuman markazlari, undan kamrog‘ini viloyat markazlari va faqat bittasi esa mamlakat ma'muriy-siyosiy markazi, ya'ni poytaxt funksiyasini bajaradi.

Xo‘jalik jihatidan yondashganda, juda ko‘p shaharlar sanoat va transport markazi, ayrimlari dam olish (rekreatsiya), fan markazlari hisoblanadi. Shaharlarning bajaradigan vazifasini, ixtisoslashuvini aniqlashda, asosan, band bo‘lgan aholi tarkibi tahlil etiladi. Shunga ko‘ra, sanoat, transport yoki fan-texnika markazlari ajratiladi. Sanoat shaharlari ichida ko‘p tarmoqli sanoat markazi, og‘ir va yengil sanoat, resurs shaharlar kabi funksional tiplar belgilanadi. Agarda ana

shunday shaharlar toifalari ularning katta-kichikligi, bosqichlari bilan birgalikda ko‘rilsa, tadqiqot yanada chuqur va samarali bo‘ladi.

O‘rganishlar natijasida, shaharlar iqtisodiy geografiyasining eng muhim qonuniyati o‘z isbotini topadi. Bu ham bo‘lsa, shaharlarning bajaradigan vazifasi ixtisoslashuvi, funksiyasi ularning katta yoki kichikligini belgilashidir.

Shaharlarni o‘rganishda, ularning iqtisodiy geografik o‘rni, ishlab chiqarishning ijtimoiy va hududiy tashkil etish shakllariga alohida e’tibor berish kerak. Bu borada, ayniqsa, ishlab chiqarishning mujassamlashuvi, ixtisoslashuvi, kooperatsiya va kombinatlashuvini, sanoat tuguni va majmualarini tadqiq qilish muhimdir. Bunday iqtisodiy ko‘rsatkichlar statistik usullar, hisob-kitoblar yordamida aniqlanadi, shaharlar ko‘rsatkichlari boshqa shaharlar va mamlakatlar o‘rtacha holati bilan taqqoslanadi. Jumladan, mujassamlashuv va ixtisoslashuv koeffitsiyenti va indekslari, tarmoqlarning turlanishi (diversifikatsiyasi), aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsuloti, rivojlanganlik darajasi va boshqalar hisoblab chiqiladi.

Ma’lumki, hozirgi bozor munosabatlariga o‘tish davrida, ishlab chiqarishning yuqori darajada mujassamlashuvi, yirik korxonalarni qurish ko‘p jihatdan maqbul emas. Shu sababdan, bugungi sharoitda sanoatni joylashtirish asosida shaharlarning vujudga kelishi va ularning keskin rivojlanishi nisbatan kam uchraydigan holatdir. Bundan ulkan qo‘shma korxonalar qurilayotgan Asaka, Qorovulbozor shaharlari mustasnodir.

Shu bilan birga, azaldan mavjud bo‘lgan kichik shaharlar muammosi hozirgi kunda o‘zgacha ma’no kasb etadi. Bunday shaharlarning birdan-bir ijobiy imkoniyati, ularda mehnat resurslarining ko‘pligi, qishloq rayonlariga yaqinligidir. Biroq kichik shaharlar moliyaviy jihatdan zaif, o‘z-o‘zlarini boshqarishlari qiyin va davlat yordamiga muhtoj. Uning ustiga, mazkur shaharlarda malakali ishchi

xodimlar oz, zamonaviy infrastruktura tizimi to‘la shakllanmagan. Binobarin, kichik shaharlarimizga katta muammolar xos, deb aytishimiz mumkin.

Ana shunday sharoitda, xorijiy sarmoyadorlar ko‘proq katta shahar muhitini istaydilar, qo‘shma va kichik korxonalar qurish imkoniyatlari ham bunday shaharlarda kengroq. Demak, endigi sharoitda, katta shaharlarda kichik korxonalar ko‘proq yaratilmoqda, kichik shaharlarda esa, agar ular moddiy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlansa, yirik sanoat korxonalari ham quriladi. Ammo barcha kichik shaharlarni bunday rivojlantirish mumkin emas: vaqt ham, kapital mablag‘, sarmoya ham yetishmaydi. Binobarin, kichik shaharlarning ayrimlarigina tanlab olinadi va ular o‘sish qutbi hamda markazi sifatida rivojlantiriladi. Bunday shaharlarni ajratib olish esa, ularning ko‘p omilli tahlil etilishi va baholanishi (iqtisodiy geografik o‘rni, mehnat va xomashyo resurslari, ekologik holati, transport va boshqa infrastrukturasi, funksiyasi, katta-kichikligi va h.k.) asosida amalga oshiriladi.

Shaharlarni iqtisodiy geografik o‘rganishda, ularning transport funksiyasiga ham alohida e’tibor beriladi. Shahar va transport yo‘llari o‘zaro chambarchas bog‘liq: biri ikkinchisisiz bo‘lmaydi, yo‘llar shaharlarga keladi, shaharlardan yo‘llar ketadi. Xullas, shaharlar va yo‘llar bu mamlakatning iqtisodiy asosi, “qovurg‘asi” hisoblanadi.

Shuningdek, shaharlarning sotsial funksiyalari, fan va ta’lim tizimi, madaniyati, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari, ekologik vaziyati, aholisining o‘sishi kabi masalalar ham o‘rganiladi. Shu o‘rinda poytaxt shaharlarni alohida ta’kidlash joiz. Chunki har qanday mamlakatning jahon hamjamiyatidagi mavqei, xalqaro va diplomatik aloqalar, siyosiy hayoti, eng avvalo, uning poytaxti bilan bog‘liq. Boshqacha qilib aytganda, olamshumul va umumbashariy muammolar xususida rasmiy so‘z yuritilganda, odatda, davlatlarning poytaxti nomidan gapiriladi. Shu bois, poytaxt shaharlarning “yuki”, mas’uliyati nihoyatda vazmin:

ular, bir tomondan, mamlakatni hududiy-siyosiy jihatdan tashkil qilish, boshqarish vazifasini ado etsa, ikkinchi tomondan, bunday markazlar davlatni jahon miqyosiga munosib ravishda olib chiqishlari kerak. Aynan ana shu ma'noda har qanday davlat o'z taqdirini poytaxtiga topshiradi.

Ko'pchilik hollarda shaharlarning genetik tiplari ularning nima bilan shug'ullanishini ham belgilab beradi. Bu esa ularning hududiy mehnat taqsimotida tutgan o'rni, qiyofasini ko'rsatib turadi. Shaharlar ham turli sohalarga ixtisoslashadi, ya'ni ularning o'ziga xos va mos "kasbi", vazifasi va yo'nalishi mavjud. Bu jihatdan shaharlar sanoat, transport, ilm-u fan, dam olish markazlari bo'lishi mumkin.

Shaharlarning qaysi sohaga ixtisoslashuvi, ularning bajaradigan vazifasini aniqlash funksional tipologiya doirasida amalga oshiriladi. Bunda bosh mezon qilib shahar aholisining bandlik tarkibi olinadi, ya'ni qaysi sohada mehnat resurslari ko'proq (mamlakat shahar joylari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori) bo'lsa, o'sha yo'nalish mazkur shaharning funksional tipini ifodalab beradi. Odatda, shaharlar quyidagi funksional tiplarga bo'linadi:

— Ko'p funksiyali siyosiy-ma'muriy markazlar, poytaxt shaharlar.
— Ko'p funksiyali shaharlar – viloyat markazlari.
— Ko'p tarmoqli yirik sanoat markazlari.
— Asosan, bir yoki ikki sanoat tarmog'iga ixtisoslashgan shaharlar.
— Transport markazlari.
— Agroindustrial shaharlar.
— Tuman markazlari.
— Rekreatsiya shaharlari.
— Ilm-u fan markazlari, universitet shaharlari va h.k.

Yuqoridagi funksional tiplar shaharlarning katta-kichikligiga qarab ham turlanadi. Bu holda shaharlarning funksional klassifikatsiyasi vujudga keladi.

O‘zbekistonda birinchi va ikkinchi guruh shaharlarga Toshkent hamda barcha viloyat markazlari kiradi. Ular, ayni paytda, ko‘p tarmoqli sanoat markazlari ham hisoblanadi. Uchinchi tipga, asosan, Chirchiq, Olmaliq, Qo‘qon kabi shaharlar mansub, to‘rtinchi guruhga Marg‘ilon, Angren, Ohangaron, Muborak, Gazli, Zarafshon, Taxiatosh, Asaka, Uchqo‘rg‘on, Quvasoy kabi shaharlarni kiritish mumkin.

Kogon, Xovos, Qo‘ng‘irot – transport shaharlari, Chortoq – rekreatsiya, Ulug‘bek – fan markazlaridir.

Respublikamizda juda ko‘p shaharlar agroindustrial yo‘nalishga ega, ya’ni ularda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalari mavjud. Ulardan ham ko‘proq shaharlar qishloq tumanlar markazi vazifasini bajaradi. Biroq, bunday shaharlar – “kichik poytaxtlar”, ayni paytda, agroindustrial xarakterga ham ega bo‘lishlari mumkin.

Poytaxt shaharlar mamlakat shaharlar turi va tizimida karvonbosh-chilik qilishadi. Ammo, ular aholisi bo‘yicha eng katta, sanoat o‘ta rivojlangan bo‘lishi aslo shart emas. Chunki bunday shaharlarning asosiy vazifasi – siyosiy markaz, dorulsaltanat, ya’ni poytaxt funksiyasini bajarishdan, binobarin, mamlakatni boshqarish, uni siyosiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tashkil qilishdan iborat bo‘lishi lozim.

Juda ko‘p mamlakatlarda poytaxt shaharlar muammosi keskin turadi. Bunday shaharlar mumkin qadar mamlakat hududining o‘rtasida (markazida), tarixan asosiy tub millat tarqalgan hududda joylashgan bo‘lmog‘i lozim. Bunga sabab, ular, eng avvalo, milliy poytaxtlardir. Shu bilan birga, bu shaharlarda boshqaruv funksiyasi keng rivojlangan bo‘lishi shart.

Dunyo mamlakatlarining ayrimlarida poytaxt shaharlari o‘zgarib turgan. Masalan, Braziliyada poytaxt Rio-de-Janeyrodan Braziliaga, Poki-stonda Karachidan Islomobodga, Qozog‘istonda Olma-Otadan Ostonaga ko‘chirilgan va

h.k. Bir vaqtlar Ukrainaning poytaxti Xarkov, Rossiyaniki Peterburg, Turkiyaniki Stambul, Qoraqalpag‘istonniki To‘rtko‘l bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasining dastlabki poytaxti Samarqand bo‘lib, 1930-yilda Toshkentga ko‘chirilgan.

Poytaxt shaharlarning nufuzi ham, mas’uliyati ham yuqori. Binobarin, har qanday mamlakat o‘zining bosh shahri, “yo‘l boshchisi”ga katta e’tibor bermog‘i tabiiydir, chunki ular o‘sha joyda yashovchilarning milliy iftixori hisoblanadi.

Shaharlar – mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy, ilmiy faoliyat markazlaridir. Shahar – aholisi, asosan, sanoatda, savdoda, maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida, boshqaruv, fan, madaniyat shoxobchalarida band bo‘lgan yirik aholi punktlari. Shaharlar aholi soniga qarab katta shaharlar (aholisi 100 mingdan ortiq), yirik shaharlar (aholisi 250 mingdan ortiq), juda yirik shaharlar (aholisi 500 mingdan ortiq) va “millioner shaharlar”ga ajratiladi. Ular bir qancha vazifani bajaradi. Bunday shaharlar ko‘p funksiyali shaharlar deyiladi. Ko‘p funksiyali shaharlar juda tez rivojlanadi, ular yonida yo‘ldosh shaharlar vujudga kelib, aglomeratsiyalarni hosil qiladi. Aholi punktining shahar maqomini olish sharti turli mamlakatlarda turlichadir. Aholi punktiga shahar maqomini berishda shahardagi turmush tarzi (urbanizatsiya)ning holati ham hisobga olinadi.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylanishi, xususan, mujassamlashuvi natijasida turli funksional tip va yiriklikdagi shaharlarning bir joyda g‘uj holda o‘rnashgan shakli vujudga keladiki, ularni ilmiy adabiyotlarda shahar aglomeratsiyasi deb ta’riflashadi. “**Aglomeratsiya**” so‘zi geologiyadagi “aglomerat”ni eslatadi, ya’ni bir hududda to‘p bo‘lib joylashganlikni anglatadi, iqtisodiyot va, ayniqsa, g‘arbda shakllangan mintaqaviy iqtisodda esa sanoat aglomeratsiyasi – sanoat korxonalarini bir nuqtada to‘planganligini bildiruvchi tushuncha mavjud. Shunga mos ravishda aglomeratsion omil va aglomeratsion effekt (samaradorlik) iborasi ham bor.

Aglomeratsiyaning vujudga kelishi taxminan quyidagi sxemada (tartibda) amalga oshadi. Qulay iqtisodiy geografik o‘ringa ega bo‘lgan shahar asta-sekin yiriklashib boraveradi. Sababi – u o‘ziga barcha yangi-yangi sanoat korxonalari, xizmat ko‘rsatish muassasalari, oliy o‘quv yurtlari, moliya-bank tashkilotlari va boshqalarni tortaveradi. Bu paytda shaharning tortish kuchi, markazga intiluvchi harakat avjida bo‘ladi.

Shaharlarning yoyilib ketishi, qimmatli qishloq xo‘jalik yerlari hisobidan kengayishi ma’lum darajagacha davom etib boraveradi. Keyinchalik shahar hududining cheksiz kengayishi to‘xtab “qoladi”, u tog‘ yoki daryo, davlat chegarasi yoki dengiz kabi to‘siqlarga duch keladi, shahar ichida esa uy-joy, transport, ekologiya muammolari keskinlashadi.

Natijada, o‘ziga xos “revolutsion vaziyat” vujudga keladi: yirik shahar muhiti, uning fan-texnika, infrastruktura salohiyati o‘ziga yangi-yangi korxonalarni jalb qiladi, biroq yuqoridagi qiyinchiliklar buni cheklab qo‘yadi. Ana shunday tartibda yirik shaharga yaqin joyda uni to‘ldiruvchi, ixtisoslashgan shahar va shaharchalar vujudga keladi. Bunday “yo‘ldosh” shaharlarda markaziy shahar ehtiyojini qondiruvchi yoki unga xizmat qiluvchi obyektlar o‘rnashadi. Shunday qilib, yirik shahar o‘z rasmiy chegarasidan chiqadi, miqdor o‘zgarishi sifat o‘zgarishiga o‘tadi, hududiy mujassamlashuv o‘z shaklini o‘zgartiradi va shaharlarning hududiy to‘plami paydo bo‘ladi.

**Shahar aglomeratsiyasining shakllanishi uchun quyidagi shart-sharoitlar zarur:**

– albatta bir yoki ikki yirik shahar bo‘lishi kerak;

– uning atrofida kamida ikkita shahar va shaharchalar bo‘lishi shart;

– markaziy shahar (aglomeratsiya yadrosi) va yo‘ldosh manzilgohlar orasidagi masofa eng ko‘pi ikki soatlik vaqt doirasida bo‘lishi kerak;

– aglomeratsiya shahar va shaharchalari o‘rtasida “aholi” aloqasi bo‘ladi, mayatniksimon (tebranma) migratsiya rivojlangan bo‘lishi shart;

– yo‘ldosh shaharlarda eng kami aglomeratsiya aholisining 10 foizi joylashgan bo‘lishi zarur va h.k.

Ko‘rinib turibdiki, aglomeratsiyalar har qanday sharoitda ham vujudga kelavermaydi; juda ko‘p shaharlar bo‘lsa-yu, ular orasida aglomeratsiya tashkil qiluvchi markaz bo‘lmasa, yoki aksincha, yirik shahar bir o‘zi bo‘lsa, bunday holda aglomeratsiya shakllanmaydi. Masalan, Jizzax katta shahar, lekin uning atrofida shaharlar kam; Navoiy ham deyarli shunday vaziyatda, yoki Shahrisabz – bu yerda Kitob, Yakkabog‘ va boshqa shaharlar ham mavjud, ammo Shaxrisabzning o‘zini aglomeratsiya hosil qilish qudrati past.

Aglomeratsiyalar bir markazli (monotsentrik) va ko‘p markazli (poli-tsentrik) bo‘ladi. Farg‘ona-Marg‘ilon, Angren-Olmaliq aglomeratsiyalar ikki markazli hisoblanadi, Toshkent, Samarqand, Andijon, Namangan, Qarshi, Nukus, Urganch va boshqa aglomeratsiyalar bitta yirik shahar atrofida vujudga kelgan.

Aglomeratsiyalarning tashqi qiyofasi (konfiguratsiyasi) ham turlicha*:

— Doirasimon.
— Lentasimon.
— Cho‘zinchoq.
— Amfibiyaga o‘xshash bo‘ladi.

Bu o‘sha joyning yer usti tuzilishi, transport tizimi, gidrografiyasiga bog‘liq. Odatda, yirik daryolar bo‘yida shakllangan aglomeratsiyalar 50-70 va, hatto, 100 kmga cho‘zilib ketadi (Volgograd, Krivoy Rog, Bratsk aglomeratsiyalari).

Har qaysi aglomeratsiyaning tarixiy geografik o‘rni, asosi bo‘ladi. Masalan, respublikamizda eng yirik Toshkent aglomeratsiyasi (u 30 ga yaqin shahar va

*ChristionSawyer. Human geography crash course. Printed in the United States of America. Green Edition. -2012. P.185.

qishloqlarni birlashtiradi) Chirchiq daryosi asosida vujudga kelgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, u biroz shimoli-sharqdan janubi-g‘arbga cho‘zilgan.

O‘zbekiston (O‘rta Osiyo) aglomeratsiyalari o‘ziga xos mintaqaviy xususiyatlarga ega. Ular, asosan, tog‘oldi hududlarda, sug‘orma dehqonchilik joylarida, elektr transporti sust rivojlangan, atrofi qishloq xo‘jalik ekinlari bilan o‘ralgan sharoitda vujudga kelgan. Mohiyatan, bizning aglomeratsiyalar shahar emas, balki shahar-qishloq aglomeratsiyalaridir.

Agar shahar va shaharchalar, o‘zaro hududiy tutashib, qo‘shilib ketsa, u holda yaxlit – ulkan shahar vujudga keladiki, ular **konurbatsiya** deyiladi (London, Rur havzasi konurbatsiyasi va h.k.). Biroq, konurbatsiya ham aglomeratsiyalarning bir shakli, ko‘rinishi bo‘lsa-da, har qanday aglomeratsiya ham konurbatsiya emas.

Shaharlar hududiy birlashmasining yana bir murakkab shakli **megalopolis**lardir (ushbu tushunchani fanga amerikalik olim Jan Gottman 50-yillarda kiritgan). Megalapolislar aglomeratsiyalarning o‘zaro qo‘shilib ketishi natijasida vujudga keladi. Masalan, Bosvash (Boston-Vashington), Chigpits (Chikago-Pitsburg), Tokio-Iokogama va boshqa megalopolislar mavjud.

O‘zimizning Farg‘ona vodiysida ham aholi joylashuvining o‘ziga xos shakli vujudga kelgan, uni yirik shaharlarning bosh harfi bilan FANO‘X (Farg‘ona-Andijon-Namangan-O‘sh-Xo‘jand) megapolisi deb atash mumkin. Umuman esa, megalopolis yoki megapolis ulkan shahar (megakatta, yirik) ma’nosini bildiradi. Grek arxitektori Doksiadis hatto oykumenapolis haqida ham fikr bildirgan (bu butun dunyo shaharlarining yagona tizimidir). Daryolarning quyi qismida joylashgan shaharlar birikmasini biz deltapolis deyishimiz mumkin.

Urbanizatsiyaga AQShlik olima Christion Sawyer quyidagicha ta’rif bergan:

1. Urbanizatsiya – shahar landshaftlari va shahar turmush tarzining o‘sishi va yoyilishidir.

2. Hamma shahar ham klassifikatsiya qilishga kerakli odamlarning soniga mos kelavermasligi sababli shaharni aniqlash va tasniflash qiyin bo‘ladi (shaharshunos olimlar shaharlarga beradigan ta’rifga yondashuv turlicha).

3. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar yuqori urbanizatsiyalashgan holda, rivojlanayotgan mamlakatlarda shaharda yashovchilarning soni va ulushi yaqin yillarda ancha o‘sgan.

4. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi ko‘plab shaharsozlik idoralari bunday “portlovchi” urbanizatsiya jarayonini nazorat qilishga harakat qilishmoqda. Haqiqatda, har yili taxminan 10 mln kishi “portlovchi” urbanizatsiyani kechirayotgan hududlardagi yuqori demografik sig‘im va yetarli darajada infrastruktura ta’minotiga ega bo‘lmaganligi sabab yuz beradigan xatarli sharoitlar tufayli nobud bo‘lmoqda*.

**“Urban” (urban) – shahar, “zatsiya” – jarayon demakdir.** Shu ma’noda urbanizatsiya mamlakat yoki boshqa hududlarning shaharlashuvini anglatadi. U o‘ta murakkab, ijtimoiy-iqtisodiy va butun dunyoga xos global jarayondir.

**Urbanizatsiya** – jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi; ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. U tarixiy rivojlanish asosida shakllangan jamiyat bosqichlari va hududiy mehnat taqsimoti natijasida sodir bo‘lgan ko‘p qirrali geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayondir. Uning torroq doiradagi demografik-statistik tushunchasi dunyoda, alohida hududlarda, mamlakatlarda shaharlarning (ayniqsa, katta shaharlarning) va shahar aholisi salmog‘ining ko‘payib borishini anglatadi. Dastlabki shaharlar mil.avv. 3-1-ming yilliklarda Misrda, Mesopotamiya, Suriya, Hindiston, Kichik Osiyo, Xitoy, Hindixitoy, shuningdek, Yevropa va Afrikaning O‘rta dengiz sohillarida vujudga

*Christion Sawyer. Human geography crash course. Printed in the United States of America. Green Edition. -2012. 185-P.

kelgan. Yunon Rim dunyosida esa Rim va Karfagen shaharlarining mavqei yuqori bo‘lgan. O‘rta asrlar va uyg‘onish davrida kapitalistik ishlab chiqarish unsurlari shakllana boshladi. Bu jarayon shaharlarda aholi sonining o‘sib borishiga, konsentratsiyalashuviga olib keldi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda yirik shaharlar paydo bo‘la boshladi. Biroq uning geografik jihatlari ham kam emas, chunki urbanizatsiya turli mamlakat va rayonlarda o‘zgacha sodir bo‘lmoqda. Urbanizatsiya murakkab hodisa ekanligi tufayli uni faqat bitta mezon, ko‘rsatkich bilan ifodalash, o‘lchash mumkin emas. Ammo, shunday bo‘lsa-da, barcha uchun qulay bir o‘lchov kerak. U ham bo‘lsa mamlakat va boshqa hududlar aholisining qancha qismi shahar joylarda yashashi, ulushi, nisbiy hissasidir. Masalan, O‘zbekiston Respublikasida bu ko‘rsatkich 51%, Tojikistonda – 27%, Afg‘onistonda – 19%, Turkmanistonda – 50 % va h.k. Rivojlangan mamlakatlarda urbanizatsiya koeffitsiyenti 90 va undan ortiq foizni tashkil etadi.

Urbanizatsiyaning umumiy ko‘rsatkichi bilan mamlakat iqtisodiyoti-ning rivojlanganlik darajasi va uning tarkibiy tuzilishi orasida ma’lum aloqadorlik bor. Chunonchi, agar urbanizatsiya koeffitsiyenti, taxminan, 70-75 va undan ortiq bo‘lsa, u holda mamlakat sanoat jihatidan yuksak darajada rivojlangan industrial mamlakat hisoblanadi; 50-70% – bu ham rivojlangan, milliy iqtisodiyoti industrial-agrar; 30-50% – rivojlanayotgan agrar-industrial va 30% dan past bo‘lsa, sust rivojlangan agrar mamlakat holatida bo‘ladi.

Ammo, shuni alohida ta’kidlash joizki, urbanizatsiyaning yuqoridagi ko‘rsatkichi hamma vaqt va hamma joylarda ham real hududiy-iqtisodiy vaziyatni aks ettirmaydi. Masalan, Rossiya Federatsiyasining Chukotka o‘lkasida yoki Kamchatka, Magadan viloyatlarida, o‘zimizning Qoraqalpog‘istonda urbanizatsiya ko‘rsatkichi nisbatan yuqori. Biroq bu hududlar iqtisodiy jihatidan uncha rivojlanmagan.

Demak, u yoki bu mamlakat urbanizatsiya darajasini boshqa mamlakat bilan qiyoslaganda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

– shahar tashkil qilish mezonlari (masalan, Turkmanistonda buning uchun 5 ming aholi istiqomat qilishi kerak, O‘zbekistonda 2 ming);

– shaharlarning umumiy soni va zichligi;

– yirik shaharlarning mavjudligi;

– shahar aglomeratsiyalarining rivojlanganligi;

– qishloq-shahar va mayatniksimon migratsiya;

– aholining bandlik darajasi va tarkibi;

– qishloq joylar urbanizatsiyasi, qishloqliklarda “shaharchasiga” yashash tarzining mavjudligi va h.k.

Yuqoridagilar urbanizatsiyaning naqadar murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa ekanligidan yana bir bor dalolat beradi.

Albatta, urbanizatsiya – bu obyektiv va, umuman olganda, ijobiy jarayon. Ammo, uning salbiy tomonlari ham yo‘q emas. Chunonchi, ekologik va sotsial muammolarning keskinlashuvi hozirgi zamon urbanizatsiyasining eng ko‘zga ko‘rinarli salbiy “yo‘ldoshlari”dir.

O‘rta Osiyo va O‘zbekistondagi urbanizatsiya sharqona xususiyatga ega. Binobarin, bu yerda urbanizatsiya ko‘rsatkichini yaqin kelajakda 70-80 foiz bo‘lishini tasavvur qilish qiyin va aslo bunday bo‘lmaydi ham. Bunga sabab, bizda shaharlar rivojlanishi qishloq xo‘jaligi bilan qadimdan an’anaviy holda bog‘liq.

Qolaversa, bunday mamlakatlarda qishloq urbanizatsiyasi ham katta ahamiyatga ega. Boz ustiga, respublikamiz rahbariyati qishloq joylarda ijtimoiy-iqtisodiy tub o‘zgarishlarni amalga oshirish, qishloq industriyasi va infrastrukturasiga jiddiy e’tibor qaratmoqdaki, bu ham urbanizatsiyani ichkaridan, “yashirincha” rivojlanishidan darak beradi. Demak, urbanizatsiyaning umumiy demografik ko‘rsatkichi garchi ma’lum qulayliklarga ega bo‘lsa-da, uning ayrim

nozik jihatlari ham mavjud. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi shaharlarning o‘sishi va shahar aholisining shakllanishi, shahar aholisining tabiiy o‘sishi, shahar atrofi hududlarining ma’muriy jihatdan shaharga qo‘shilib borishi, qishloq aholi manzilgohlarining shahar maqomini olishi bilan bog‘liqdir. Shaharlarning o‘sishida shahar atrofi zonalarida shahar turmush tarzining shakllanib borishi, ya’ni urbanizatsiya jarayonining kuchayishi ham ahamiyatlidir. Katta shahar atrofida kichik shaharlar paydo bo‘lib, katta shaharlarga qo‘shilib boradi va shaharlar aglomeratsiyasi hosil bo‘ladi.

Avvalo, urbanizatsiya jarayoni va uning hududlar bo‘yicha rivojlanish mezonlari haqida umumiy tushuncha hosil qilish maqsadga muvofiqdir. Shu asnoda tabiiy sharoit omillarining yirik shaharlarga ta’sirini urbanizatsiya jarayonida sezilarli kechishini ko‘rish mumkin.

Shaharlar barcha zamonlarda rivojlanish uchun turtki bo‘luvchi asosiy nuqtalar sifatida xizmat qilib kelgan. Ularning bu xususiyati fan-texnika taraqqiyotidan keyin, ayniqsa, umumjahon mezoniga aylandi. Bugungi kunda mamlakatlarning industrial va texnologik va boshqa mezonlar bilan belgilanuvchi rivojlanish darajasi urbanizatsiya darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bir so‘z bilan aytganda, urbanizatsiya mamlakat taraqqiyotini belgilovchi asosiy mezondir.

Eng birinchi yirik shaharlar 4 ming yil oldin Mesopotamiya, Nil, Hind, Xuanxe daryolari vodiylarida vujudga kelgan. Shaharlarning vujud-ga kelishi iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘lanadi. Shaharlar hukmdorlar yashovchi hududlar, bosh vazifasi mudofaa bo‘lgan qal’alar sifatida shakllangan. Bunday holatda ular strategik jihatdan eng qulay joyda bunyod qilingan. Meksika va Peru hududlarida Kolumbga qadar davrlarda ulkan shaharlar sivilizatsiyalari rivojlangan. Qadimiy Amerika va Yevrosiyo hududlari bir-biridan butunlay xabarsiz bo‘lsa-da ulardalgi shaharlar sivilizatsiyasi o‘z xususiyatlariga ko‘ra juda o‘xshash bo‘lgan. O‘rta asrlarda dunyodagi eng yirik shaharlar – Nankin (470 ming kishi), Qohira (450

ming kishi), Vidjvanagar (350 ming kishi), Pekin (320 ming kishi) bo‘lgan. Yevropa mintaqasining eng yirik shahri Parij bo‘lib, uning aholisi 275 ming kishi bo‘lgan. Milan va Venetsiya shaharlari undan ikki barobar kichik bo‘lib, XIX asrda 870 ming aholisi bilan dunyoning eng yirik shahri bo‘lgan London aholisi o‘sha vaqtda 50 ming kishidan oshmagan. XVIII asr boshida dunyo aholisining 10 foizidan kamrog‘i shaharlarda yashagan.

O‘rta asrlarda eng katta bo‘lgan shaharlar hozirgacha mavjud, ba’zi-lari rivojlanishdan to‘xtab qolgan va provinsiyalar markaziga aylangan yoki butunlay yo‘q bo‘lib ketgan. Shaharlashish jarayonini quyidagi xususiyatlarda ko‘rishimiz mumkin:

1) shahar aholisi sonining o‘sib borishida;

2) ishlab chiqarishning shaharlarda to‘planishida.

Shaharlar maydonining kengayib borishida jamiyat rivojlanishi tarixda shaharlarning ma’muriy markaz, madaniy markaz hamda iqtisodiy aloqalar qilinadigan markazlar sifatidagi roli ortib bordi. 1808-yilda dunyo aholisining 2,4 foizi shaharlarda yashagan bo‘lsa, hozirgi kunda bu ko‘rsatkich 50 foizga ortib ketdi.

Umuman olganda, urbanizatsiya jarayonining quyidagi shakllanish bosqichlari mavjud:

XIX asrda, asosan, Yevropa va Shimoliy Amerikada yuzaga kelgan.

XX asrning birinchi yarmida butun dunyoda shahar aholisining soni tez sur’atlar bilan orta boshlagan.

XX asrning ikkinchi yarmida jahon mamlakatlarida shahar aholisi soni ortishi bilan birga shaharlar maydonlari ham kengaya boshladi. Shahar aholisining ulushi 1900-yilda 1,4%, 1950-yilda 29%, 1990-yilda 45% bo‘lgan. Davlatning urbanizatsiyalashish darajasi quyidagi ko‘rsat-kichlar asosida belgilanadi.

1) 50% dan yuqori bo‘lsa, yuqori darajada urbanizatsiyalashgan;

2) 25-50%, o‘rtacha urbanizatsiyalashgan;

3) 25 dan kam bo‘lsa, past darajada urbanizatsiyalashgan.

Urbanizatsiyaning quyidagicha ko‘rinishlari mavjud:

- Konurbanizatsiya – shahar aglomeratsiyalari.
- Suburbanizatsiya – shahar atrofi urbanizatsiyasi.
- Rurbanizatsiya – “qishloq” urbanizatsiyasi.
- “Shahar portlashi”.
- “Soxta” urbanizatsiya.

Urbanizatsiyani geografik o‘rganish quyidagi xulosalarni keltirib chiqaradi.

Shaharlarning rivojlanishi va urbanizatsiya jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Ushbu jarayonning rivojlanishi hududda sanoat korxonalarining, transport yo‘llarining barpo etilishi bilan bog‘liq.

Urbanizatsiya jarayoni shakllanishi hududiy farqlarga ega. Rivojlangan davlatlarda shahar hududlarining kengayishi, suburbanizatsiya, rurbanizatsiya kabi zamonaviy urbanizatsiya ko‘rinishlari rivojlanayotgan bo‘lsa, rivojlanayotgan davlatlarda esa aglomeratsiya, megalopolislar paydo bo‘lishi bilan bir qatorda soxta urbanizatsiya holati ham yuzaga kelmoqda.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida shaharlarning rivojlanishi va urbanizatsiya jarayoni bilan bog‘liq bir qator ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Yangi shahar aholi manzilgohlarining shakllanishi, shaharsozlikda zamonaviy loyihalar asosida shaharlar qiyofasining o‘zgarishi shular jumlasidan.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. “Shahar aholi punkti” tushunchasini izohlang.
2. Shahar aglomeratsiyasi nima?
3. Shahar aholi punktlarining funksional tiplariga nimalar kiradi?
4. Shahar megolopolislarini tushuntiring.
5. Urbanizatsiyaning umumiy ko‘rsatkichlarini tushuntirng.

6. Shahar aholi punkti maqomlarini izohlang.

## 14- BOB. AHOLI GEOGRAFIYASI

Reja:

14.1. Aholi geografiyasi iqtisodiy geografiyaning muhim va alohida tarmog‘i ekanligi.

14.2. Aholi geografiyasining tuzilishi.

14.3. Aholi geografiyasining muhim tushunchalari.

14.4. Aholi dinamikasi. Aholi takror barpo bo‘lishining an’anaviy tipi.

14.5.Demografik portlash fenomeni.

14.6. Aholi takror barpo bo‘lishining zamonaviy tipi.

“Aholi” tushunchasi ko‘proq aholi geografiyasi, iqtisodiyot, tibbiyot kabi ijtimoiy (gumanitar) sohalarda qo‘llanilib, u ma’lum bir hududda yashovchi kishilarning birligini anglatadi. Masalan, Uychi tumani aholisi, Namangan aholisi, O‘zbekiston aholisi, Dunyo aholisi va h.k. Ko‘rinib turibdiki, bu yerda nisbatan kattaroq hudud nazarda tutilmoqda, kichik hududlarda yashovchi kishilarning birligini, hududiy umumiyligini “sotsium” tushunchasi ifodalaydi va u sotsiologiya fani uchun xos (o‘zbek tilida bu jamoa, mahalla ahli ma’nosiga mos keladi). Sotsiologiya esa ma’lum yoshdagi shaxs, millat, kasb egalarini, odatda, kichik hududlar doirasida tadqiq qiladi.

Tarix va etnografiyada “xalq” tushunchasi qo‘llaniladi, muayyan bir ma’muriy hudud iqtisodiyoti “xalq xo‘jaligi” atamasi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, biologiya, psixologiya, tibbiyot kabi fanlarda “odam”, “inson” tushunchalari ko‘proq uchraydi.

Aholi – jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi. Aholisiz ishlab chiqarishning o‘zi ham, fan va texnikaning rivojlanishi va mavjudligi ham bo‘lishi

mumkin emas. Shu bilan birga, aholi sanoat, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining, transportning va xizmat ko‘rsatish sohalarining asosiy iste’molchisidir. Shu sababli, aholining soni har bir mamlakat uchun muhim omil hisoblanadi.

AQShlik olim Christion Sawyer aholi va demografiya masalalariga quyidagicha ta’rif bergan*:

A) Demografiya asoslari:

1. Demografiya inson populatsiyasini o‘rganadi.

2. Geograflar aholining hududiy tarqalishi va ularning ko‘chishlarini o‘rganishda demografik tahlillardan foydalanishadi.

3. Mamlakat aholisining yosh tarkibi, ijtimoiy va etnik tarkibi hamda o‘sish sur’ati uning sog‘lom bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi.

B) Aholining hududiy joylashuvi:

1. Aholining hududiy joylashuvi aholining yer yuzasi bo‘ylab taqsimlanishida o‘ziga xos shakllarni hosil qilgan.

2. Insoniyat tarixi davomida aholi notekis taqsimlangan.

3. Aholi ko‘pincha suv havzalari va haydaladigan yerlar kabi hayot bilan ta’minlaydigan resurslar atrofida to‘planadi. Kam o‘zlashtirilgan hududlarda, misol uchun sahrolarda aholi kam yashaydi:

- jami aholining deyarli 75 foizi yer yuzasining faqat 5 foizida yashaydi;

- Yer shari aholisining taxminan 50 foizi shaharlarda va qolgan yarmi qishloqlarda yashaydi;

- aholi joylashuvidagi hududiy farqlar insoniyat tarixining ko‘p davrida, asosan, shahar joylarda emas, balki qishloqlarda yashaganligini aks ettiradi.

C) Global aholi taqsimlanishi:

*Dr Christion Sawyer. Human geography crash course. Printed in the United States of America. Green Edition. - 2012.. 37-P. 244.

1. Dunyo aholisining deyarli 80 foizi Lotin Amerikasi, Afrika va Osiyodagi rivojlanayotgan davlatlarda yashaydi.

2. 1 mlrd kishidan ko‘proq aholisi bo‘lgan davlatlar faqat 2 ta: Xitoy va Hindiston.

3. Aholining eng yuqori hududiy konsentratsiyasi Sharqiy Osiyo (Xitoy, Yaponiya, Tayvan, Shimoliy va Janubiy Koreya)da tashkil topgan.

4. Aholining ikkinchi yuqori konsentratsiyasi Janubiy Osiyo (Hindiston, Bangladesh, Shri-Lanka, Pokiston) davlatlarida tarkib topgan.

5. Aholining uchinchi yuqori konsentratsiyasi Yevropada – Atlantika okeanidan Ural tog‘larigacha bo‘lgan mintaqadadir*.

Taraqqiyot jarayonida aholining shaxsiy iste’moli bilan birga, aholining o‘zi ham takror barpo qilinadi, ya’ni kishilar avlodlari tarbiyalanadi, voyaga yetkaziladi. Shuning uchun ham aholini geografik jihatdan o‘rganayotganda uch narsaga e’tibor berishimiz kerak:

1. Aholi moddiy boylik ishlab chiqaruvchi kuch, barcha moddiy ne’matlarning yaratuvchisi.

2. Aholi ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulotlar ma’lum qismining iste’molchisi.

3. Aholi butun ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining asosiy qismi bo‘lib, o‘zi ham takror barpo qilinishi zarur.

Har qanday iqtisodiy geografik muammolarni hal qilishda aholiga xos bo‘lgan ana shu xususiyatni o‘rganish zarur. Shuning uchun ham aholi geografiyasi iqtisodiy geografiyaning tarkibiy qismidir.

*Dr Christion Sawyer. Human geography crash course. Printed in the United States of America. Green Edition. - 2012. 37-P. 244.

Aholi geografiyasi iqtisodiy geografiyaning bir tarmog‘i bo‘lishi bilan birga, boshqa tarmoqlar: sanoat geografiyasi, transport geografiyasi, qishloq xo‘jaligi geografiyasi orasida alohida o‘rin tutadi.

Aholi geografiyasi aholining tarkibi, dinamikasi va joylashuvidagi shunday hududiy farqlarki, bu farqlarni vujudga keltiradigan qonuniyatlarni, aholi punktlarining hududiy tizimlarini va ularning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadi. Shuningdek, aholi geografiyasi aholining yer shari bo‘yicha, ayrim davlatlar hamda rayonlar bo‘yicha harakatini o‘rganadi.

Aholi geografiyasining muhim tushunchalaridan biri – aholining hududiy joylashish shakllaridir.

Aholi geografiyasining yana bir muhim tushunchasi – aholining funksional guruhlarga bo‘linishi. Aholi uchta funksional guruhlarga bo‘linadi:

1. Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida ishlovchilar (sanoat, qishloq xo‘jaligi va transport).

2. Xizmat doirasi sohasida ishlovchilar (savdo, maorif, sog‘liqni saqlash, kommunal xo‘jalik, shahar transporti xodimlari).

3. Ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etmaydiganlar (bolalar, uy bekalari, qariyalar).

Bundan tashqari aholining migratsiyasi bilan ham bog‘liq bo‘lgan bir qancha qonuniyatlar bor.

Aholi geografiyasi quyidagi yo‘nalishlarga bo‘linadi:

1. Aholi tarkibi va uning takror barpo qilinishidagi geografik farqlar va bu farqlarning sababini o‘rganish.

2. Mehnat resurslari va ulardan foydalanishdagi geografik farqlarni o‘rganish.

3. Aholining hududiy taqsimlanishi va ularning harakatini o‘rganish.

4. Aholi punktlari va ularning hududiy tizimini o‘rganish.

5. Aholining madaniyati va turmush sharoitidagi farqlar va ularning sababini o‘rganish.

6. Tarixiy aholi geografiyasi. O‘tgan tarixiy davrlardagi aholi geografiyasini o‘rganish.

7. Aholini kartaga tushirish.

Aholi geografiyasining o‘z tadqiqotlari jarayonida aloqa qiladigan, bevosita bog‘liq holda tadqiqot olib boradigan fanlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. Geografiya fanlari tizimi. Aholi geografiyasi xo‘jalik tarmoqlarini joylashtirish qonuniyatlarini ishlab chiqishda bevosita tabiiy geografiya bilan, aholi salomatligi ishlab chiqarish kuchlarining to‘g‘ri joylashtirishda, aholi tibbiy xizmatini tashkil etishda tibbiyot geografiyasi bilan, shuningdek, xizmat doirasi geografiyasi, turizm geografiyasi, iste’mol geografiyasi, tarixiy geografiya va kartografiya yo‘nalishlari bilan uzviy aloqada rivojlanadi.

2. Demografiya va etnografiya. Bu fanlar aholi geografiyasi bilan chambarchas va har tomonlama bog‘liq bo‘lgan fanlar hisoblanadi. Chunki bu fanlar ham bevosita aholi geografiyasi singari aholini o‘rganadi. Lekin, ushbu fanlar aholini o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda o‘rganadi. Masalan, demografiya aholining soni, takror barpo bo‘lish qonuniyatlari va omillarini o‘rgansa, etnografiya xalqlarning turmushi va madaniyati, vujudga kelishi va madaniy-tarixiy aloqalarini o‘rganadi. Shunday qilib, aholi geografiyasi va demografiya hamkorlikda hal etilishi mumkin bo‘lgan muammolarni demografiya o‘rganadi. Xalqlarning geografik tarqalishini esa etnografiya o‘rganadi. Antropologiya kishi organizmining evolutsiyasi va undagi jismoniy o‘zgarishlarning qonuniyatlari, shuningdek, irqlarning vujudga kelishi va geografiyasi, aholi mehnat faoliyati, turmush sharoiti va madaniyatining hududiy xususiyatlarni o‘rganadi.

Aholi geografiyasi aholi migratsiyasi, tabiiy o‘sishi, talab va ehtiyojlarini aniqlashda sotsiologiyaga murojaat etsa, mehnat resurslari, ularning joylashish xususiyatlarini o‘rganishda esa iqtisod fani bilan bog‘lanadi.

Aholini dastlabki ro‘yxatga olish, qadimgi Gretsiya, Vavilon, Mesopatamiya, Rim, Xitoy, Yaponiya va Misrda o‘tkazilgan. Lekin bu aholi ro‘yxatlarini o‘tkazishdan maqsad aholidan soliq yig‘ish, ya’ni boj olish hamda harbiy yurishlar uchun erkaklar sonini aniqlash bo‘lgan. Shuning uchun ham f*aqat erkaklar ro‘yxatga olingan*. Chunki u paytlarda oilada, jamiyatda erkakning iqtisodiy o‘rni yuqori bo‘lgan va soliq to‘lashda faqat erkaklar qatnashgan, xolos.

Eng qadimgi aholi ro‘yxatlari (senzi) eramizdan oldingi VI asrda qadimgi Rimda imperator Servi davrida o‘tkazilgan. Bu aholi ro‘yxatlari 510 yillardan boshlab, har 5 yilda muntazam o‘tkazilib turgan. Unda oila boshliqlari o‘zi haqida, shu bilan birga, oila a’zolari va mol-mulklari haqida ma’lumot berganlar.

Feodalizm davrida esa kichik-kichik davlatlar paydo bo‘lishi, ularning parchalanishi natijasida aholining muntazam ro‘yxati o‘tkazilmagan. Faqat alohida sharoitlarda, ba’zan, yoppasiga tarqalgan epidemiyalardan, urushlardan keyin qancha aholi qolganligini bilish maqsadida aholi ro‘yxatga olingan.

XVIII asrning o‘rtalarida milliy davlatlarning paydo bo‘lishi, kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi bilan aholi haqida mukammalroq ma’lumotlarga talab ortib boradi va aholi o‘rtasida qator ro‘yxatlar o‘tkaziladi. Lekin, bu ro‘yxatlar ham hamma aholini, uning barcha ijtimoiy-demografik guruhlarini qamrab olmaydi. Ular ham ba’zi hududlarda soliq to‘lovchilarni, harbiy xizmatga yaroqli aholi miqdorini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan.

Mukammal aholi ro‘yxati o‘tkazishning o‘z ilmiy qonun-qoidalari mavjuddir. Bunday aholi ro‘yxati aholining hammasini, ya’ni yangi tug‘ilgan chaqaloqdan boshlab, to eng keksa guruhgacha qamrab olishi kerak. Ana shunday mukammal aholi ro‘yxati birinchi marta 1790-yili AQShda, 1801-yili Fransiya, Daniya,

Norvegiya va Buyuk Britaniyada o‘tkazildi. Lekin bu aholi ro‘yxatlari ham juda oddiy bo‘lgan va uzoq muddatga cho‘zilgan. Masalan, birinchi Amerikadagi aholi ro‘yxati (senzi) 18 oyga cho‘ziladi.

XIX asrga kelib aholini o‘rganish juda kengaydi. Statistika fan sifatida taraqqiy etdi. Qator Yevropa davlatlarida statistik tashkilotlar tuzildi. Aholini ro‘yxatga olish ilmiy dasturlar asosida olib borildi. 1870-1879-yillarda dunyoda 48 ta aholi ro‘yxati o‘tkazildi. 1880-yillarda 54 ta, 1890-yillarda 57 ta aholi ro‘yxati o‘tkazilgan bo‘lsa, XIX asrning oxirida dunyo aholisining 21 foizi, XX asr boshida esa 64 foizi ro‘yxatga olindi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin aholini ro‘yxatga olish yana ham rivojlanib ketdi. 1945-1954-yillarda 151 ta davlatda, 1965-1974-yillarda 179 ta davlatda aholi ro‘yxatdan o‘tkazildi. Hozirgi paytda dunyodagi deyarli barcha davlatlarda aholi ro‘yxati o‘tkaziladi. Faqat ba’zi bir rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy, siyosiy sabablarga ko‘ra aholi ro‘yxati o‘tkazilmaydi.

Bugungi kunda barcha davlatlarda aholi va uni ijtimoiy demografik guruhlarining demografik taraqqiyotini o‘rganish uchun statistik ma’lumotlar mavjuddir. Aholi ro‘yxatlari ilmiy asoslangan dasturlar orqali juda keng mavzularni qamrab olgan holda, har 5-10 yillarda o‘tkazib turiladi. Hozirgi davrda o‘tkazilgan aholi ro‘yxati ma’lumotlari shu qadar keng doirada to‘planganki, ular asosida aholining va ijtimoiy-demografik guruhlarning faqat miqdorini emas, balki ularning sifatiy ko‘rsatkichlarini, ya’ni ma’lumoti, oilaviy va ijtimoiy ahvoli, boshqa xarakterlarini ham o‘rganish mumkin. Olingan ma’lumotlar EHMlar yordamida har bir yo‘nalishlar bo‘yicha alohida o‘rganilib, statistik yilnomalar tayyorlab boriladi.

Dunyodagi barcha davlatlar qatori O‘zbekistonda ham aholini ro‘yxatga olish o‘z tarixiga va xususiyatlariga ega.

Aholi ko‘payishi va uning omillarini o‘rganishda sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish ham muhim ahamiyatga molikdir. Unda har bir hudud, millat va ijtimoiy guruhlarda mavjud demografik muammolarni aniqlash maqsadida mutaxassislar tomonidan maxsus so‘rovnomalar tuzilib, aholiga tarqatiladi yoki ushbu guruhlarda mutaxassislar ishtirokida suhbatlar olib boriladi. Sotsiologik uslubda tadqiqot olib borish, asosan, XX asrdan boshlab rivojlana boshladi. O‘zbekistonda ham 1960-1970-yillardan boshlab aholi ko‘payishi va boshqa demografik masalalarni mukammal o‘rganish maqsadida qator sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazilgan. Bu borada respublikada Mirzo Ulug‘bek nomli ToshDUning Aholishunoslik laboratoriyasi asosiy ilmiy-markaz bo‘lib faoliyat ko‘rsatgan.

**Aholining takror barpo bo‘lishi.** Insoniyat taraqqiyoti davomida hamisha avlodlar almashinuvi jarayoni davom etib kelgan. Har yili qandaydir sabablarga ko‘ra vafot etgan aholi o‘rnining dunyoga yangi kelgan avlod hisobiga to‘ldirib borilishi aholining takror barpo qilinishi deyiladi. Tug‘ilganlar soni o‘lganlar sonidan ortiq bo‘lgandagina aholi soni oshib, ko‘payib boradi. Bu esa jamiyat taraqqiyoti uchun muhimdir.

Aholini takror barpo bo‘lishi, asosan, ikki demografik jarayonlar – tug‘ilish va o‘limga bog‘liqdir.

Tug‘ilish – biologik jarayon. Lekin, u ijtimoiy-iqtisodiy muhit ta’sirida o‘zgarib boradi. Ma’lumki, insoniyat o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida bir nechta ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarni bosib o‘tgan va tug‘ilish darajasi jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida ham bir xil bo‘lavermagan. Kapitalistik tuzumgacha mavjud bo‘lgan davrlarda tug‘ilish biologik xarakterga ega bo‘lgan, ya’ni cheklanmagan. Avvalo, shuni aytib o‘tish kerakki, quldorlik tuzumi davrida ham, feodalizmda ham ko‘p bolalilikdan har bir oila va shu bilan birga jamiyat ham manfaatdor edi. Nega shunday? Chunki oilada bolaning iqtisodiy roli juda katta edi. Ko‘pgina mamlakatlarda oila yumushlarida, hunarmandchilikda,

dehqonchilikda va chorvachilikda bolalar mehnatidan foydalanilgan. Oiladagi iqtisodiy daromadning bir qismi bevosita bolalar mehnati orqali hosil qilingan. Demak, bola mehnati milliy daromadning ma'lum ulushini tashkil etgani sababli, u jamiyat tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan. Hatto, ba'zi davlatlarda, masalan, Rossiyada dehqonlarga ishlash uchun beriladigan yer ham bolalar soniga qarab taqsimlangan. Bunday sharoitda o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, har bir oila bolalar sonini ko'paytirishdan manfaatdor bo'lgan.

Kapitalistik ishlab chiqarish usulining vujudga kelishi bilan sanoat tez rivojlana boshladi, yangi-yangi shaharlar paydo bo'ldi. Ko'pchilik aholi ish qidirib qishloqdan shaharlarga ko'chib kela boshladi. Shahar aholisining o'sib borishi natijasida, bir tomondan, shaharlarda turar joy, oziq-ovqat muammolari kelib chiqqan bo'lsa, ikkinchi tamondan, fan-texnika taraqqiy etib, ishsizlik vujudga keldi. Uchinchidan, kapitalistik ishlab chiqarishda ayollar va bolalar mehnatiga juda kam haq to'lanar edi. Jamiyatda bunday o'zgarishlar oilada bolalar sonini cheklashga, tug'ilishning qisqarishiga olib keldi. Ayniqsa, aholisining asosiy qismi shaharlarda yashovchi Yevropa mamlakatlarida tug'ilish kamayib ketdi.

Yer yuzida tug'ilishning kamayish jarayoni, asosan, XVIII asrning ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropa davlatlarida boshlanib, keyinchalik AQSh, Kanada, Avstraliya va Yaponiyaga tarqaldi. Ayniqsa, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan davlatlarda tug'ilish tez kamaya boshladi. Agar bu davlatlarda XVIII asrning ikkinchi yarmida har ming kishi hisobiga 38 ta bola tug'ilgan bo'lsa, oradan sal kam ikki yuz yil o'tgach, ya'ni XX asrning oxirgi choragida bu ko'rsatkich 16 tani tashkil etdi. Boshqacha qilib aytganda, ikki yuz yil davomida tug'ilish 2 barobardan ko'proq qisqargan. Xuddi ana shu davrlar uchun rivojlanayotgan davlatlardagi tug'ilishni qiyoslaydigan bo'lsak, boshqacha holatning guvohi bo'lamiz. Ularda 1750-1800-yillarda har ming kishi hisobiga 41 tadan bola tug'ilgan bo'lsa, 1970-1990-yillarda har 1000 kishi hisobiga tug'ilgan bola 34 tani

tashkil qilgan. Demak, rivojlanayotgan mamlakatlarda tug‘ilishning kamayishi nisbatan sekin borgan.

1970-1990-yillar davomida tug‘ilishning eng tez kamayishi Osiyoga tegishli. Xitoyda oilada bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. 1970-yillardan boshlab aholi o‘rtasida tug‘ilishni kamaytirish uchun qator tadbirlar qo‘llana boshladi. Natijada, Xitoyda tug‘ilish keskin kamaydi. BMT ma’lumotlariga qaraganda, 1970-1974-yillarda Xitoyda har bir ayol o‘zining farzand ko‘rish davrida o‘rtacha 4,8 va 1986-1990-yillarda esa 2,1 tadan farzand ko‘rgan.

Hindistonda ham tug‘ilish davlat tomonidan nazorat qilinadi. Oilada bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. Bu masala yuzasidan bir qancha tashkilotlar maxsus tadqiqot olib boradilar. Ular jumlasiga oilani rejalashtirish uyushmasi, Hindiston tibbiyot uyushmasi, Hindiston Qizil yarim oy jamiyati kabi tashkilotlar kiradi. Hindistonda tug‘ilishning kamayishiga aholi savodxonlik darajasining oshishi ham ta’sir etmoqda. Masalan, 1971-yili Hindiston aholisining 29,4 foizi savodli edi; hozirgi davrda 40 foizga yaqini savodlidir. Tug‘ilishni nazorat qilish hamda xalqning savodlilik darajasini ko‘tarish, tibbiyotni rivojlantirish natijasida Hindiston davlati tug‘ilishni ancha kamaytirishga erishdi. Masalan, 1970-1990-yillarda har bir ayolning o‘z farzand ko‘rish davri davomida ko‘rgan farzandlar soni 5,4 dan 3,3 ga kamaydi.

Ma’lumki, Osiyo aholisining 70 foizdan ko‘prog‘ini Xitoy va Hindiston aholisi tashkil etadi. Shuning uchun ham Xitoy va Hindistonda tug‘ilishning kamayishi butun Osiyo bo‘yicha tug‘ilish ko‘rsatkichiga ta’sir qildi. 1970-1990 yillarda tug‘ilish bu yerda deyarli 40 foizga kamaydi. Holbuki, xuddi shu davrda tug‘ilish Xorijiy Yevropada 16 foizga, Avstraliya va Okeaniyada 19 foizga, Afrikada esa 5 foizga kamaygan, xolos. Tug‘ilishning kamayib borishi sobiq SSSR tarkibidagi xalqlarda ham kuzatiladi.

XIX asr oxirlariga qadar sobiq Ittifoq hududida yashovchi barcha xalqlarda tug‘ilishning juda yuqoriligi kuzatilgan. Masalan, farzand ko‘rish davrida (dunyo bo‘yicha ayollarning 15-49 yosh davri) har ming kishiga nisbatan tug‘ilgan bolalar soni 1861-1865-yillarda 50,7 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 1911-1913-yillarga kelib bu ko‘rsatkich 43,9 taga kamaydi, lekin bu raqam ham yuqori ko‘rsatkichdir. 1920-yillardan boshlab esa, sobiq Ittifoqda tug‘ilish juda keskin – ellik besh yil ichida (1925-1990) deyarli 2 martaga kamaydi. Biroq bu jarayon barcha respublikalarda bir tekisda borgan emas. Asosan, Boltiqbo‘yi, Belorussiya, Moldaviya, Rossiya va Ukrainada, ya’ni xo‘jaligida sanoat yetakchi bo‘lgan respublikalarda tug‘ilish keskin kamayib ketgan.

Shunday qilib, biologik jarayon bo‘lgan tug‘ilish va uning miqdori, ijtimoiy-iqtisodiy omillarning oila muhitiga bevosita ta’siri orqali o‘zgarib boradi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tug‘ilish darajasini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Bu hol O‘zbekistonning demografik taraqqiyotida ham o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonda tug‘ilish jarayonini quyidagi 3 bosqichga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq:

1. Oktabr inqilobiga qadar.
2. Sovet hokimiyati yillarida.
3. Mustaqillik davri.

Ma’lumki, aholining ko‘payib yoki kamayib borishi, birinchi navbatda, uning tabiiy o‘sishiga, ya’ni tug‘ilish va o‘lim jarayonlariga bog‘liqdir.

Tug‘ilish darajasini ifodalovchi eng ko‘p qo‘llaniladigan ko‘rsatkich tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti bo‘lib, u ma’lum hudud va davr uchun har 1000 aholiga nisbatan tug‘ilganlarni ifodalaydi. Tug‘ilish koeffitsiyenti (n), bir yilda tug‘ilganlar soni (N)•1000, aholining o‘rtacha soni (C):

$$n = \frac{N \bullet 1000}{S}$$

Shuningdek, o‘lim koeffitsiyenti ham mavjud bo‘lib, bu ko‘rsatkich har 1000 aholiga nisbatan o‘lganlar sonini ifodalaydi.

O‘lim koeffitsiyenti:

$$m = \frac{M \bullet 1000}{S}$$

Aholining tabiiy o‘sish koeffitsiyenti har 1000 aholiga nisbatan tabiiy o‘sishni ifodalaydi. Aholining tabiiy o‘sishi (R) tug‘ilish koeffitsiyenti (n) va o‘lim koeffitsiyenti (m) orasidagi musbat farqni anglatadi:

$$R = n - m$$

Nikoh, ajralish kabi demografik jarayonlar ham koeffitsiyentlarda ifodalanadi. Nikoh koeffitsiyenti:

$$в = \frac{B \bullet 1000}{S}$$

Bu yerda: в – nikoh koeffitsiyenti, B – bir yilda nikohga kirganlar soni, S – aholining o‘rtacha soni.

Ajralish koeffitsiyenti:

$$a = \frac{A \bullet 1000}{S}$$

Bu yerda: a – ajralish koeffitsiyenti, A – bir yilda ajralganlar soni, S – aholining o‘rtacha soni.

Biz yuqorida tug‘ilish, o‘lim, nikoh va ajralish kabi demografik jarayonlarni ifodalovchi umumiy, eng ko‘p qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar bilan tanishdik. Ushbu koeffitsiyentlarda 1000 ta aholi o‘lchov sifatida olingan. Ushbu koeffitsiyentlar orqali har 1000 aholiga nisbatan tug‘ilganlar, o‘lganlar, nikohga kirganlar va ajralganlar soni aniqlanadi va hosil bo‘lgan ko‘rsatkich (raqam) yoniga ‰ (promille) belgisi qo‘yiladi. Promille har 1000 aholiga nisbatan olinganligini bildiradi. Demografik jarayonlarning umumiy koeffitsiyentidan

tashqari maxsus koeffitsiyentlari ham mavjud bo‘lib, ular har bir jarayonda bo‘layotgan o‘zgarishlarni atroflicha o‘rganishga yordam beradi.

**O‘lim.** Aholi o‘limi uning takror barpo bo‘lishidagi asosiy jarayondir. Chunki, aholining tabiiy o‘sishi tug‘ilish bilan bir qatorda o‘limga ham bog‘liqdir. Tug‘ilish yuqori, o‘lim kam bo‘lgan hollardagina aholining tabiiy o‘sishi yuqori darajada bo‘ladi.

Maxsus olib borilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, jamiyat taraqqiyoti davomida XVIII asrning ikkinchi yarmiga qadar dunyoning barcha hududlarida o‘lim juda ko‘p bo‘lgan.

Olimlar tomonidan aholi o‘rtasidagi o‘lim sabablari 2 ta guruhga ajratiladi:

1. Endogen sabablar.

2. Ekzogen sabablar.

Har bir odamning biologiyasidan kelib chiqadigan, irsiyat bilan bog‘liq bo‘ladigan tug‘ma kasalliklar natijasida o‘lishi endogen sabablardir. Bunday o‘lim juda kam bo‘ladi. Asosan, o‘limlar ko‘pchiligi ekzogen sabablarga ko‘ra sodir bo‘ladi. Ekzogen sabablar kishi organlarida tashqi ta’sir natijasida ro‘y beradi. Tashqi ta’sir deganda odamlar yashab turgan muhiti, ya’ni tabiiy muhit, kishilar mehnati tufayli yaratilgan sun’iy muhit, sotsial muhit ko‘zda tutiladi.

**Tabiiy muhit** – ayrim hayvonlar ba’zi yuqumli kasalliklarni yuqtirishi, masalan, pashsha bezgak kasalligini, tropik o‘rmonlardagi setse chivini uyqu kasalligini keltirib chiqaradi.

Ammo o‘limlarning eng ko‘pi sun’iy muhitdan kelib chiqadi. Inson o‘z mehnati tufayli shunday sun’iy muhitni vujudga keltirdiki, ular ta’sirida bir qancha xavfli yurak-qon tomir, asab sistemali xavfli yaralar, venerik kasalliklar ko‘payib ketdi. Bularga asosiy sabab hozirgi zamon sanoati, urbanizatsiya, texnika taraqqiyoti, avtomatlashtirish, xalq xo‘jaligini kimyolashtirish natijasida atrof-muhitning buzilishi, havoning, oqar suvlarning ifloslanishi ro‘y berdi. Yurak-qon

tomir kasalliklari industrial jihatdan rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda rivojlanayotgan mamlakatlarga qaraganda 6-8 marta ko‘proqdir. Bu kasalliklarni to‘la tuzatib yuborishga tibbiyot hali qodir emas.

Atmosferani ifloslantirayotgan asosiy manbalarga transport, sanoat, energetika va kommunal xo‘jaligi kabilar kiradi. Masalan, AQSh da atmosfera ifloslanishining 60 foizi transportdan, 17 foizi sanoatdan; 14 foizi energetikadan; 9 foizi uylarni isitish uchun yoqilg‘i yoqishdan chiqqan gazlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Avtomobillashishning yana bir salbiy tomoni avariyalardir. Yer sharida har yili 55 million avtohalokat sodir bo‘lib, unda 300 mingdan ortiq kishi halok bo‘ladi. Taxminiy hisoblarga ko‘ra, haydovchilarning har to‘qqistasidan bittasi avtohalokatda halok bo‘ladi yoki og‘ir jarohatlanadi. Avtohalokatlardan halok bo‘lish AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya kabi yuksak darajada avtomobillashgan davlatlarda ko‘proq. Aholi o‘rtasidagi o‘lim ko‘rsatkichiga turli xalqlar turmush sharoiti, ularning odatlari va ovqatlar tarkibi ham ta’sir qiladi. Masalan, alkogolizmdan sodir bo‘lgan jigar serrozi kasalligi eng ko‘p fraktsiyalarda uchraydi. Ayrim kasalliklarni geografik tarqalishi ahamiyatlidir. Masalan, qizil o‘ngach yarasi kasalligi O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmanistonda, sut bezlari yarasi Latviya, Estoniyada uchraydi.

O‘limning sotsial sabablari ko‘p jihatdan ijtimoiy tuzumga bog‘liq. Masalan, O‘zbekistonda bepul tibbiy xizmat tufayli ko‘plab kasalliklar – bezgak, qizamiq va boshqa infeksion kasalliklar tugatilgan.

**Aholining tabiiy o‘sishi.** Aholining tabiiy o‘sishi ma’lum bir muddatda tug‘ilganlar sonidan o‘lganlar sonini olib tashlaganda qolgan qoldiq bilan o‘lchanadi.

Aholining tabiiy o‘sishi dunyoning turli qismlarida, har xil mamlakatlarda, hatto bir mamlakatning ayrim qismlarida turlichadir Masalan: O‘zbekiston tabiiy

o‘sishi yuqori bo‘lgan davlatlardan hisoblanadi. Buning sabablari tug‘ilish va o‘limga bog‘liq. Hozir Yer shari aholisi har yili 2 foizga ko‘paymoqda. Ammo, aholi tabiiy o‘sishining dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lgan joylar ham bor. Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi ko‘payishi yiliga 3-4 foizga yetadi. Eng kam tabiiy o‘sish rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda kuzatiladi. Masalan, Yaponiyada – 10,8, Avstraliyada – 9,2, Italiyada – 4,9, AQShda – 5,9, Buyuk Britaniyada – 0,6‰ ni tashkil etadi. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 18‰ ni tashkil etmoqda.

Dunyo hududlarini tug‘ilishning XX asrning ikkinchi bosqichidagi holatiga qarab sharhlamoqchi bo‘lsak, ularni shartli ravishda uch guruhga ajratish maqsadga muvofiq.

**Birinchi guruh** – tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan davlatlar. Bunga Afrika davlatlari (deyarli hammasi), Osiyo va Janubiy Amerikadagi qator davlatlar, Avstraliya va Okeaniya hamda O‘rta Osiyo davlatlari kiradi. Bu davlatlardagi oilalarda farzandlarning o‘rtacha soni to‘rttadan to sakkiztagacha, ba’zi hollarda esa undan ham yuqori bo‘ladi. Ushbu davlatlardagi oilalarda tug‘ilish darajasining bunday yuqori bo‘lishiga olib keluvchi qator omillarning asosiylari quyidagilar: yuqorida zikr etilgan davlatlar, asosan, iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan davlatlar bo‘lib, aholisining, ayniqsa, ma’lumotlilik darajasi nisbatan past, ayollar ijtimoiy ishlab chiqarishda kam ishtirok etadi, shahar tarzining shakllanishi sust, tug‘ilishni cheklash haqidagi tushunchalar va unga kerakli tibbiy vositalar keng tarqalmagan.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, tug‘ilish darajasining yuqoriligi ba’zi bir demografik oqibatlarni keltirib chiqaradi. Jumladan, aholi soni juda tez ko‘payib, yangi oilalar vujudga keladi, aholi tarkibida bolalar salmog‘i yuqori bo‘ladi. Bu demografik oqibatlar esa, o‘z o‘rnida, qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga sabab bo‘ladi.

Yuqorida qayd etilgan davlatlar aholisi keyingi 10-14 yil davomida yiliga o‘rtacha 2,7-3,2 foizdan ko‘paydi va dunyo aholisidagi salmog‘i 23 foizdan oshdi.

**Ikkinchi guruh** oilalarda tug‘ilish darajasi o‘rtacha bo‘lgan davlatlar guruhidir. Ushbu guruhga dunyo bo‘yicha jami 44 ta davlat kiradi. Ulardan 25 tasi Yevrosiyoda, 2 tasi Afrikada, 16 tasi Amerikada va 1 tasi Avstraliya va Okeaniyada. Ularning aholisi yer shari aholisining qariyb 40 foizini tashkil etadi. Ushbu davlatlardagi oilalarda o‘rtacha ikkitadan to‘rttagacha farzandlar bor. Bu guruhga kirgan davlatlar aholisi har yili 1,9 foizdan ko‘payib bormoqda. Mazkur davlatlarda oilaning bunday shakllanishi ularning tarixan tarkib topib kelgan ijtimoiy-iqtisodiy omillari bilan bog‘liqdir.

Tug‘ilish darajasi o‘rtacha bo‘lgan joylarda aholi o‘zining mavjud sonini saqlab boradi. Ularda aholining keskin ko‘payib ketish va kamayib ketish hollari kutilmaydi. Aholi taraqqiyoti muammolarini hal etish bir muncha yengil kechadi.

**Uchinchi guruh** esa tug‘ilish darajasi past bo‘lgan davlatlardir. Ularning soni 32 ta. Shundan 24 tasi Yevrosiyoda, 5 tasi Amerikada va 3 tasi sobiq SSSRda joylashgani holda iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan davlatlardir. Ushbu guruhga mansub davlatlar dunyo aholisining 36,0 foizini yoki uchdan bir qismini tashkil etadi. Ularda aholi yiliga o‘rtacha 0,9 foizdan ko‘payib bormoqda. Oilalarning aksariyat qismida bitta va ikkitadan bola bor, xolos.

So‘nggi guruh davlatlarida istiqomat etuvchi oilalarda tug‘ilishning bunday kamayishb ketishi, birinchi navbatda, kapitalistik munosabatlar keng tarqalishi, sanoat ishlab chiqarishi rivojlanib, shaharlar sonining o‘sishi va shahar turmush tarzining keng tarqalishi sabab bo‘ldi. Ayniqsa, aholisining asosiy qismi shaharlarda yashovchi Yevropa mamlakatlarida tug‘ilish juda kamayib ketgan. Masalan, Angliyada 1850-yillarda aholining 50 foizi shaharlarda yashagan va shu davrda har ming kishi hisobiga tug‘ilgan bolalarning soni o‘rtacha 32-33 tani tashkil qilgan. Yoki Germaniyani olib qaraylik. Bu mamlakatda aholining 90 foizi

shaharlarda istiqomat qiladi. Dunyodagi tug‘ilish eng kam davlat bo‘lib, har ming kishiga nisbatan tug‘ilgan bolalar 9-10 tani tashkil etadi. Ushbu guruh davlatlarida hozirgi davrda tug‘ilish darajasining kamayib ketishiga olib kelgan navbatdagi omil ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda, yollanma ishlarda nisbatan ko‘proq qatnashishidir. Masalan, Kanadada 1931-yilda ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan ayollar aholining 17 foizini, 1980-1990-yillarda esa 40 foizini tashkil etgan.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda tug‘ilishning kamayishiga olib kelgan omillardan yana biri oilalarning buzilishi, ya’ni nikohdan chiqish hollarining nihoyatda ko‘pligidir. Hozirgi davrda AQShda har yili qayd etilgan nikohlarning 50 foizi yoki yarmi buzilayotganligi ma’lum. Boshqacha qilib aytganda, oila qurgan yoshlarning deyarli yarmi ajralib ketmoqda. Tabiiy holki, nikohning qisqa davom etishi oilada bola sonining o‘z-o‘zidan kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari, barcha iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlar qatori, Shimoliy Amerikada ham fan-texnika rivojlanib, ishlab chiqarish sohalariga kirib borishi natijasida aholining tarkibida ishsizlar miqdori tobora ko‘payib bormoqda. Ishsiz, boshpanasiz aholining ertangi kunga ishonchi, oila qurish va farzand tarbiya qilishga iqtisodiy imkoniyati bo‘lmaydi. Ana shunday holatlar tug‘ilishning kamayib ketishiga olib keladi. Umuman olganda, kapitalistik munosabatlarning keng tarqalishi va rivojlanishi oilaning farzandlarga bo‘lgan ham iqtisodiy, ham ma’naviy ehtiyojini nihoyatda pasaytirib yubordi. Fikrimizning dalili sifatida eng taraqqiy etgan kapitalistik davlatlardan biri – AQSh oilalaridagi tug‘ilish ko‘rsatkichlariga murojaat etaylik. Agar, 1950-yilda har bir amerika oilalarida o‘rtacha 3-4 tadan bola tug‘ilgan bo‘lsa, 1970-yili bu ko‘rsatkich 2-3 taga, bugunga kelib esa 1-2 tagacha kamaydi. AQSh da farzandsiz oilalar salmog‘i ko‘payib bormoqda. Bu davlatda o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, ko‘pchilik oilalarda faqat bittadan farzand bo‘lib, ularning 44 foizi kutilmagan, 15 foizi xohlanmagan

farzandlar ekan. Mutaxissislar ushbu ahvolni “Amerika oilasida inqiroz” deb atashmoqda. Bu inqiroz Amerika Qo‘shma Shtatlari kelajagi uchun muammomi, yo‘qmi? Uni ushbu davlat aholisining taraqqiyot tarzidan kelib chiqib aniqlamoq lozim.

Shunday qilib, biz yuqorida jahon mamlakatlari oilalarida tug‘ilish jarayonidagi o‘zgarishlar bilan tanishib chiqdik. Ma’lum bo‘ldiki, hozirgi paytda yer shari xalqlari oilalarida farzandlarning tug‘ilish jarayoni bir xil emas ekan. Bir guruh mamlakatlar oilalarida tug‘ilish juda kamayib ketgan bo‘lsa, ikkinchi bir guruhda esa, aksincha, juda yuqoridir. Boshqa bir guruh davlatlar mavjudki, ularda tug‘ilish o‘rtacha. Bunday holat, yuqorida aytganimizdek, turli ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog‘liq.

Dunyodagi har bir hudud va davlatlarning o‘z demografik tarixi xususiyatlari hamda aholi yosh tarkibiga ta’sir etuvchi omillari mavjuddir. XX asr boshlarida shved demograf olimi G.Sundberg aholini yosh tarkibiga qarab uch turga bo‘ldi:

1. Progressiv.
2. Statsionar.
3. Regressiv.

**Progressiv** yosh tarkibida aholi umumiy miqdorida bolalar (10-14 yoshdagi) salmog‘i qariyalarga (65 yosh va undan yuqori) qaraganda yuqori bo‘ladi. Bunday holat tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda kuzatilib, ularning aholisi muntazam ko‘payib boradi.

**Statsionar** yosh tarkibida aholi umumiy miqdorida qariyalar salmog‘i tengdir. Statsionar yosh tarkibida aholi soni bir xil miqdorda turadi. Aholining tez kamayishi yoki ko‘payishi kuzatilmaydi.

**Regressiv** yosh tarkibida aholi umumiy sonida qariyalar salmog‘i bolalarga qaraganda yuqori bo‘ladi. Bunday holatda esa aholi soni asta-sekin kamayib borib,

“depopulyatsiya” holati yuz beradi. Aholi qarib boradi. Dunyo aholisi yosh tarkibi bo‘yicha hududiy xususiyatlarga egadir.

**Aholining ijtimoiy tarkibi.** Aholining ijtimoiy tarkibi deganda, faoliyati, maqsadi, manfaati va ishlarining umumiyligi asosida uyushgan, jamiyat sotsial strukturasi birligini tashkil etadigan kishilarning nisbatan barqaror guruhlari tushuniladi. Jamiyatda turli xil ijtimoiy guruhlar mavjud. Ushbu guruhlar faoliyati ijtimoiy ishlab chiqarishda tutgan o‘rniga qarab bir-biridan farq qiladi. Bunday guruhlarga ishchilar, dehqonlar, hunarmandlar, o‘qituvchilar, shifokorlar, quruvchilarni kiritish mumkin. Bu guruhlarning har biri yana bir ishchi guruhlarga bo‘linadi. Masalan, ishchilar: g‘isht teruvchi slesar, haydovchi; shifokorlar: ko‘z shifokori, kardiolog, urolog, bolalar, ayollar shifokori.

Ijtimoiy guruhlar ularga birlashgan kishilar miqdoriga qarab ikkiga bo‘linadi:

1. Katta-katta kishilar ommasini birlashtiruvchi guruhlar (turli sinflar, partiyalar).

2. Nisbatan kichik (miqdor jihatidan kamroq) kishilarni birlashtiruvchi guruhlar (zavod, korxona ishchilari, oliygoh talabalari, o‘qituvchilar, jamoa a’zolari va hokazo).

Ijtimoiy guruhlar faoliyat ko‘rsatish davriga qarab ham ikkiga bo‘linadi.

1. Doimiy ijtimoiy guruhlar (oila, sinf).

2. Vaqtincha ijtimoiy guruhlar (kishilarning vaqtincha tasodifiy birlashgan guruhlari – teatrdagi tomoshabinlar guruhi, sayohatga chiqqanlar guruhi, anjumanga yig‘ilgan kishilar guruhi.

Jamiyatda formal va noformal guruhlar ham mavjud.

Formal guruhlar – insonlarning tasdiqlangan rasmiy hujjatlari asosida guruhlash. Masalan, oliy ma’lumotli kishilar, yuqori malakali ishchilar, xodimlar, o‘rta maxsus ma’lumotlilar, bemorlar, sog‘lomlar.

Noformal guruhlar – kishilarning shaxsiy sifatlariga qarab guruhlash. Masalan, olijanob insonlar, yaxshilar, yomonlar, ezmalar, kamgaplar, kamtarin insonlar.

**Aholining ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi.** Aholining eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi uning sinfiy tarkibidir. Sinflar jamiyat taraqqiyoti davomidagi mehnat taqsimoti va xususiy mulkning kelib chiqishi asosida shakllangan guruhlar. Har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyada asosiy va asosiy bo‘lmagan, ya’ni oraliq sinflar mavjud. Masalan, ibtidoiy jamiyatdagi qabila boshlig‘i va qabila a’zolari, quldorlik jamiyatida qul va quldor, feodalizmda feodal va krepostnoy, kapitalizmda kapitalist va yollanma ishchilar, sotsializmda ishchi, kolxozchi va xizmatchi asosiy sinflar hisoblangan. Barcha formatsiyada ham o‘rtahol dehqonlar, kichik va o‘rta fermerlar oraliq sinflar bo‘lib faoliyat ko‘rsatishgan.

Jamiyat tarqqiyotidagi iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar natijasida aholining ijtimoiy guruhlari tarkibida ham o‘zgarishlar yuz beradi. Masalan, O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida aholi ijtimoiy guruhlarida birmuncha o‘zgarishlar yuz berdi. Tadbirkorlar, fermerlar, savdogarlar, ishbilarmonlar, yollanma ishchilar kabi guruhlar shakllana boshladi.

Aholining ijtimoiy-iqtisodiy tarkibiga uning egallagan kasbi, mutaxassisligi, ma’lumoti bo‘yicha guruhlarga ajralishi ham kiradi.

Shuningdek, aholining ijtimoiy geografik tarkibi ham mavjud bo‘lib, unda aholining yashash joyi (shahar, qishloq, viloyat, tuman, tog‘li o‘lkalar va cho‘l zonalari) bo‘yicha taqsimlanishi tushuniladi.

Aholining milliy tarkibi ham uning ijtimoiy tarkibini bildirib, unda aholi millatlar, etnik guruhlar bo‘yicha taqsimlanadi. Umuman, aholining sinfi, millati, egallagan kasbi, ma’lumoti va yashash joyiga qarab guruhlarga bo‘linishi uning ijtimoiy tarkibini bildiradi.

**Mehnat resurslari va ulardan foydalanish.** Mehnat resurslari asosini mehnat yoshidagi aholi tashkil etadi. Mehnat yoshi, ya'ni mehnatga qobiliyatli yosh insonning ijtimoiy ishlab chiqarishda qatanashishiga bog‘liq bo‘lgan yoshdir. O‘zbekistonda mehnat yoshi erkaklar uchun 16-60, ayollar uchun esa 16-55 yosh hisoblanadi. Mehnat yoshidagi aholi soni tug‘ilish, o‘lim va migratsiya jarayoniga bog‘liqdir.

Shahar va qishloq hududlarida mehnat yoshidagi aholi dinamikasi yosh va jinsiy tarkibi o‘ziga xos xususiyatlariga egadir. Mehnat yoshidagi aholini mehnat resurslari nuqtai nazaridan o‘rganilganda 2 guruhga ajratiladi:

– 40 yoshgacha bo‘lgan mehnat yoshidagi aholi;

– 40 yoshdan keyingi mehnat yoshi guruhi.

Ushbu yosh guruhlari ishlab chiqarishda qatnashishi darajasi, mehnatning samaradorligi, o‘z kasbidagi malakasi bilan o‘zaro farq qiladi. “Mehnat yoshi” tushunchasi fanga aholishunos olim B.Urlanis tomonidan kiritilgan.

**Mehnat resurslari.** Aholining kerakli fiziologik rivojlanishiga, aqliy qobiliyatga ega bo‘lgan va xalq xo‘jaligida band bo‘lgan qismi mehnat resurslari deyiladi. Mehnat resurslari soni jonli mehnatning mavjud imkoniyatini ifodalaydi.

Mehnat resurslari jamiyat bag‘rida ham miqdor, ham sifat jihatdan rivojlanib boradi. Mehnat resurslarining miqdoriy rivojlanishi aholining tabiiy o‘sishi va migratsion harakatiga bog‘liqdir. Mehnat resurslarining sifatiy taraqqiyoti esa jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga, davlatning aholining ishga bandligi bo‘yicha olib borayotgan siyosatiga bog‘liqdir.

Har bir mavjud davrda mehnat resurslari bandlik sferalari bo‘yicha bo‘linadi. Bu sferalar ijtimoiy mehnat (davlat tashkilotlarida, muassasalarida va korxonalarida, jamoatchilik tashkilotlarida), shaxsiy mehnat (uy xo‘jaligi, shaxsiy xo‘jalik), bilim olish (ishlab chiqarishdan ajralgan holda bilim oladigan o‘quv muassasalari) va qurolli kuchlar sferalardir.

Iqtisodiyotda davlat sektori rolining oshib borishi jamiyatda ishchi va xizmatchilarning ko‘payishiga olib keladi.

Aholining yuqori darajadagi ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligi, mehnat resurslarining sekin tabiiy ko‘payishi sharoitida, mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalasini qo‘yadi.

Mehnat resurslarining shakllanishi, ularning xalq xo‘jaligi sohalari bo‘yicha tayyorlash va mehnat resurslaridan foydalanish juda ko‘p sotsial muammolarni hal etishni talab etadi.

Aholi tarkibida mehnat resurslari salmog‘ining muntazam ko‘payib yoki kamayib borishining ham ijobiy, ham salbiy oqibatlari mavjud.

Har bir korxona, muassasa va tashkilotlarda mehnat resurslaridan samarali foydalanishga erishish uchun ular bilan korxona rahbariyati o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar me’yori buzilmasligi, har ikkala tomon talablari ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim.

Mehnat resurslari tarkibi, asosan, uch qismdan iboratdir:

1. Mehnat yoshidagi aholi.

2. Ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashayotgan o‘smirlar.

3. Ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashayotgan nafaqaxo‘rlar (qariyalar).

Mehnat resurslarini sotsiologik nuqtai nazardan o‘rganishda mehnat resurslari shakllanishi, ulardan foydalanish, ularga bo‘lgan talab, mehnat resurslarining ish joyidagi ko‘nimsizlik sabablari, ularning sifatiy taraqqiyoti bilan bog‘liq qator sotsial omillarga e’tibor qaratish lozim.

Mehnat resurslarini sotsial-iqtisodiy nuqtai nazardan o‘rganishda, birinchi navbatda, quyidagi jarayonlarga e’tibor berilishi lozim:

1. Aholining ijtimoiy ishlab chiqarishda band aholiga (ishlovchilarga) va ijtimoiy ishlab ishlab chiqarishda band bo‘lmagan aholiga (ishlamaydiganlarga) taqsimlanishi.

2. Ishchilarning ijtimoiy ishlab chiqarish sohalari bo‘yicha taqsimlanishi (moddiy ne’matlar ishlab chiqarish sohalari, moddiy ne’matlar ishlab chiqarmaydigan sohalar).

3. Ishchilarning aqliy va jismoniy mehnatlar bilan bog‘liqligi.

4. Ishchilarning umumta’lim va kasb-hunar malakalariga tayyorlash darajasining oshib borishi. Yuqorida keltirilgan jarayonlarni o‘rganish mehnat resurslaridan samarali foydalanish, xalq xo‘jaligining har bir sohasini ishchi kuchi bilan muntazam ta’minlab borish imkoniyatini yaratadi. Mehnat resurslarining shakllanishi dunyo davlatlari bo‘yicha, turli mavqega, xususiyatlarga egadir. Bu borada har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik imkoniyatlari asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonda mehnat yoshidagi aholi salmog‘ining yuqoriligi, mehnat resurslarini muntazam ko‘payib borishini ta’minlaydi.

Hozir respublika qudratli mehnat salohiyatiga ega. Mehnat zaxiralari bugun aholining deyarli 50 foizini tashkil etadi va har yili 210-220 ming kishiga ko‘payib bormoqda.

Mehnat salohiyatining muhim xususiyati uning yosh va kasb tarkibidir. O‘zbekiston aholisining o‘rtacha yoshi 24 yoshga teng. Bu XXI asr bo‘sag‘asida mehnat zaxiralari yuksak, mehnat faolligi, kasb tayyorgarligi bilan ajralib turadigan odamlar ko‘pchilikni tashkil etishiga imkon beradi.

Ish bilan band bo‘lgan aholini tarkibiy jihatdan qayta taqsimlash hamda mehnatga layoqatli yoshlarni yangi ilg‘or tarmoqlar va sohalarga jalb qilish ham mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning qudratli zaxirasidir. Hozir qishloq xo‘jaligida barcha ijtimoiy ishlab chiqarish xodimlarining uchdan bir qismidan ko‘prog‘i band.

Mehnat zaxiralarining umumiy va professional ta’lim darajasi yuqoridir. Respublikada majburiy umumiy o‘rta ta’lim qonun yo‘li bilan mustahkamlab

qo‘yilgan. Bunday ta’limni umumiy (majburiy) ta’lim maktablari, litseylar, gimnaziyalar, o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurtlari va tijorat maktablarining keng tarmog‘i orqali olish mumkin. Bu borada qiziqarli va namunali statistika mavjud. 15 va undan katta yoshdagi har 1000 kishiga hisoblaganda, oliy va to‘liqsiz oliy ma’lumotlar soni ancha ortdi. Hozirgi vaqtda u 143 kishini tashkil etadi. Shu bilan birga, ta’lim olish 11,4 yilga yetdi. Har 1000 kishining 200 nafari o‘rta maxsus ma’lumotli mutaxassislardir. Moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lgan to‘rt kishining bittasi oliy yoki o‘rta maxsus ma’lumotiga ega. Ya’ni hozir bilim darajasi jihatidan respublika haqli suratda o‘qimishli mamlakatlar qatoriga kiradi.

Mehnat resurslarini sotsial tahlil etishda aholi sonining o‘sib borishi, uning hududiy harakati, mehnat resurslarining sotsial-demografik tarkibini bilish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Mehnatga layoqatli aholi yoki “mehnat resurslari” 2 murakkab sistemasi aholi bilan ishlab chiqarishni bir butun qilib birlashtiradi. Mehnat resurslari – bu jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi, ijtimoiy ishlab chiqarishning eng muhim komponentdir.

Mehnat resurslarining soni, tadrijiy o‘zgarishi professional tayyorgarligi va joylashishi butun mamlakat miqyosida va ayniqsa, regionlar doirasida ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va hududiy tashkil etilishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xalq xo‘jaligining muhim dasturlarini amalga oshirish zarurati esa kadrlar tayyorlash, ularni ishlab chiqarish tarmoqlari va ayrim hududlar o‘rtasida qayta taqsimlashga qaratilgan davlat siyosati yurgizishni taqozo etadi, bu esa aholi tizimi va geografiyasida o‘z aksini topadi.

Mehnatga layoqatli yosh chegaralari davlat tomonidan ko‘p omillarni, shu jumladan, har xil yoshdagi odamlarning o‘z sog‘lig‘iga putur yetkazmasdan mehnat qilish qobiliyatini, davlatning ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojini,

mamlakatdagi yoshlarning majburiy o‘rta zarurligi va boshqalarni hisobga olgan holda belgilanadi.

Mehnat resurslari faqat potensial ishchi kuchi bo‘lib, bu kuchdan jamiyat o‘z imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda turli darajada har tomonlama va samaradorlik bilan foydalanishi mumkin. Mehnat resurslarini boshqarish ularning tarkib topishi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘zaro bog‘liq holda rejalashtrish asosida amalga oshiriladi. Mehnat resurslarining vujudga kelishi ularning miqdor va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha rivojlanish jarayonidir. Mehnat resurslarining o‘sishi, birinchi navbatda, mamlakatdagi demografik vaziyatga hamda aholi va ayniqsa mehnatga layoqatli yoshga o‘tayotgan kishilar sonining tadrijiy o‘sishiga bog‘liq.

Mehnat resurslarining tadrijiy o‘sishi mehnatga layoqatli yoshga yetgan va shu kategoriyadan chiqib ketayotgan kishilar sonining nisbatiga bog‘liq. Aholi yuqori sur’atlar bilan o‘sganda va uning absolyut ko‘payishi ro‘y berganda mehnatga layoqatli yoshga o‘tayotgan kishilarning miqdori har bir keyingi yilda mehnat resurslarining tabiiy kamayishidan sezilarli darajada ortiq bo‘ladi, natijada, mehnat resurslarining soni ko‘payadi, aholi past sur’atlar bilan o‘sganda esa buning teskarisi bo‘ladi.

Mehnat resurslaridan foydalanish mehnatning yuqori samaradorligi va mehnatga layoqatli aholining to‘liq bandligiga erishishni ko‘zda tutadi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanishning asosiy mezoni ijtimoiy mehnat unumdorligi va uning o‘sish sur’atlaridir.

Mehnat unumdorligi ko‘p sabablarga (ishlab chiqarishning texnika bilan jihozlanganligi va mehnatning to‘g‘ri tashkil qilinishiga, ishchilarning malakasiga) bog‘liq. Ishlab chiqarishning joylashish xususiyatlari va uning kombinatlanishi darajasi hamda ishlab chiqarish jarayonida amalga oshirilayotgan tabiiy sharoitlar ham juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu omillar ijtimoiy ishlab chiqarish

geografiyasi bilan bog‘liqdir. U bilan mehnat unumdorligi darajasi o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash iqtisodiy-geografik tadqiqotlarning muhim masalasidir.

Mehnat resurslaridan foydalanishning muhim mezonlaridan biri – bu aholining mehnatga faolligi, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan mehnatga layoqatli aholining salmog‘idir.

Demografik jarayonlardagi, aholining jinsiy-yosh tarkibi va oilaning katta-kichikligi, aholi harakatidagi, shuningdek, mehnat malakasidagi, xo‘jalik yuritish shakllari va aholining hamda aholi manzilgohlarining joylashuvidagi muhim hududiy tafovutlar millatlarning moddiy va ma’naviy madaniyati bilan chambarchas bog‘liq.

Kishilarning tarixan tarkib topgan umumiyligi milliy yoki etnik umumiylik deb ataladi.

**Etnik** umumiylik – “etnos”, ijtimoiy rivojlanishning obyektiv qonunlari asosida shakllangan va hudud, til, ma’naviy hamda madaniy xususiyatlari, o‘z-o‘zini anglash kabi bir qator umumiy barqaror belgilarga ega bo‘lgan sotsial organizmdir.

**Qabila** etnik taraqqiyotning boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, ibtidoiy jamoa tuzumida tarkib topgan. Elat ma’lum tarixiy sharoitlarga etnosning soni va joylashganligiga, uning bir butunligini belgilab beruvchi belgilarga bog‘liq holda tarkib topadi va rivojlanadi.

**Millat** – jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi etnik birlikning oliy shaklidir.

Belgilarning barqarorligi, hudud, til, madaniyat shu etnosga mansub ekanligini anglaydigan kishilar milliy etnikning umumiyligi millat uchun xosdir. Aholini geografik o‘rganishda uning milliy xususiyatlarini hisobga olish muhim metodologik va amaliy ahamiyatga ega.

**Aholi siyosati.** Aholini rivojlantirish maqsadida olib boriladigan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yo‘nalishidir.

Aholi rivojlanishiga ma’lum darajada ta’sir etib borish tarixiy jarayon bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida shu davrning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga mos holda, alohida xususiyatga ega bo‘ladi. Jumladan, feodalizm sharoitida natural va yarim natural oila formalari rivojlangan. Davlat, umumiy ta’lim, maxsus tayyorlov reglamentatsiyalari, ya’ni aholi rivojlanishining asosiy elementlari nisbatan kam edi (masalan O‘zbekistonda masjidlar, madrasalar qoshida ta’lim sistemasi joriy etilgan, ularni ta’minlash uchun davlat va ayrim mulkdorlar tomonidan vaqf mulklari ajratilgan). Odamni mehnatga tayyorlash, oila muhitida yosh avlodning bevosita mehnat faoliyatida ishtirok etishi orqali amalga oshirilar edi. Inson jamiyat a’zosi uchun zarur bo‘lgan dastlabki bilimlarni, axloqiy sifatlarni oiladan olar edi. Sanoatning tez rivojlanish natijasida mehnatga tayyorlashda maxsus faoliyatga zarurat tug‘ildi. Bunda umumiy ta’lim, ta’limni davlat tomonidan boshqarish, yosh avlodni kasb-hunarga o‘rgatish tashkil topdi.

Aholi siyosati usullarini shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tarbiyaviy-psixologik. Aholi siyosatini olib borish alohida ijtimoiy demografik guruhlarning (bolalar, o‘smirlar, yoshlar, ayollar, pensionerlar va h.k.) o‘ziga xos manfaatlarini, kishilarning milliy va hududiy birligini hisobga olishni taqozo etadi.

Aholi siyosatini olib borish va uning yo‘nalishlarini belgilashda har bir davlat o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy va demografik sharoitlarni hisobga olgan holda ish tutadi.

Aholi siyosatining asosini demografik siyosat tashkil etadi. O‘zbekistonda hozirgi vaqtda olib borilayotgan aholi siyosatining asosiy maqsadi har tomonlama sog‘lom avlodga erishish, xalq xo‘jaligining har bir sohasi uchun malakali mutaxassislar tayyorlash, aholi salomatli va oila ravnaqini ta’minlashdan iborat.

Aholining o‘sishi haqida turli nazariyalar mavjud. Jumladan, aholi soni haqida “optimum” nazariyasi, bunda aholi sonining o‘sishi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanish darajasi bilan tenglashtirish g‘oyalari oldinga suriladi. Ayniqsa, aholining o‘sishi haqida ingliz iqtisodchisi **Tomas Robet Maltus** nazariyasi muhim rol o‘ynaydi.

XVII asr oxirlari XIX asr boshlarida Angliya sanoatida mashinasozlik rivojlana boshladi, qator zavod va fabrikalar qoloq manufakturadan mashina texnologiyasiga o‘tdi, natijada, zavod va fabrikalarda ishchi o‘rinlarining qisqartirish holati yuz beradi. Bu esa ishsizlar armiyasining paydo bo‘lishiga olib keldi. Ishsizlar turli ishtashlashlar, fabrika, zavod egalariga va davlatga qarshi namoyishlar tashkil etdi. Ana shu vaqtda mashhur ingliz iqtisodchisi Maltus “Aholishunoslik qonuni haqida tajriba” degan asarini chop ettirdi.

T.Maltus bu asarida Angliya sanoat ishlab chiqarishida paydo bo‘lgan ishsizlar armiyasini aholi sonining tez o‘sishi bilan bog‘laydi. Aholi soni tez o‘sishining oldini olish uchun turmush qurish yoshini kechiktirish va turli urushlarning bo‘lib turishi lozimligini ta’kidlaydi. Aholi sonining o‘sishi geometrik progressiya asosida va aholiga iste’mol mollari ishlab chiqarish esa matematik progressiya asosida rivojlanishini uqtiradi. Agar aholi soni o‘sishining oldi olinmasa, ishsizlar armiyasi paydo bo‘lishi bilan birga, atrof-muhitning ifloslanishini ta’kidlaydi.

T.Maltusning bu g‘oyasini ikki tomonlama tahlil etmoq lozim, ya’ni har bir mamlakatda jamiyat taraqqiyoti oqilona rivojlanishi uchun aholi sonining o‘sishi bilan ishlab chiqarish rivojlanishini muvofiqlashtirish zarur. Aks holda, aholi ortiqchaligi holati yuzaga keladi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan qator mamlakatlarda aholining tez sur’atlar bilan o‘sishining oldini olish choralari qo‘llanilmoqda. Bunga Xitoy, Hindiston va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari misol bo‘la oladi.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Aholi deganda nimani tushiniladi?
2. Aholi dinamikasi nima?
3. Aholi tabiiy ko‘payishining birinchi tipiga qanday mamlakatlar kiradi?
4. Aholining milliy tarkibi deganda nimani tushunasiz?
5. Aholi etnik belgilariga ko‘ra qanday guruhlarga ajratiladi?
6. Aholi til xususiyatlariga ko‘ra qanday til oilalariga ajratiladi?
7. “Demografik portlash” tushunchasining mohiyatini tushuntiring.
8. Aholining tabiiy ko‘payishiga qanday omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi?
9. Aholi migratsiyasi deganda qanday jarayon tushiniladi?
10. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish.
11. Aholining hududiy joylanishi va aholi zichligi deganda nima tushuniladi?
12. Qishloq va shahar aholi punktlari va ularning shakllari qanday?

## 15- BOB. MADANIY MAKON (MADANIYAT GEOGRAFIYASI)

Reja:

15.1. Madaniyat va madaniyat geografiyasi haqida tushuncha.

15.2. Madaniyat geografiyasining asosiy tarmoqlari.

15.3. Til geografiyasi.

15.4. Din geografiyasi.

15.5. Xulq-atvor geografiyasi.

Madaniyat faqatgina san’atkorona faoliyatga xos tushuncha emas, garchi musiqiy va badiiy faoliyatni ta’riflash uchun “madaniyat” termini qo‘llanilsa-da, ushbu tushuncha biror biri jtimoiy guruh, sinf yoki xalqning ma’lum davrda qo‘lga kiritgan yutuqlarini ifoda etadi. Xususan, nutq (til) madaniyati, din madaniyati (masalan, Islom madaniyati), xulq-atvor madaniyati, shular qatorida musiqa

madaniyati va hokazo. Qolaversa, madaniyat kishilarning naslini (kelib chiqishi)ni ham anglatmaydi. Nasl aynan bir avlodning ma’lum bir belgilari orqali farqlanadigan a’zolarini tasniflashga oid biologik tushunchadir. Jumladan, agar bir xil madaniyatga ega bo‘lgan yangi tug‘ilgan chaqaloqlar turlicha guruhlarda yashasa, turlicha o‘ziga xos madaniyat bilan o‘sadi.

**Madaniyat** so‘zi Madina shahri nomi bilan bog‘liq holda kelib chiqqan. Madinaning to‘liq arabcha nomi Madina Rasulliloh, ya’ni payg‘ambar shahri hisoblanib, obodonchiligi, ko‘rkamligi bilan Arabistondagi aholi yashaydigan boshqa manzilgohlardan ajralib turar edi. Shuningdek, Madina Makkadan keyin musulmonlar ibodat qiladigan eng yirik shahardir. Shu tariqa madaniyat so‘zi bizning o‘lkamizga Madina shahri nomi bilan, islom dini bilan bog‘liq tarzda kirib kelgan.

Fanda, odamlar o‘rtasidagi muloqatda madaniyat so‘zi bilan bir qatorda kultura so‘zi ham ishlatiladi. Kultura so‘zi lotincha “culture” so‘zidan olingan bo‘lib, “ishlov berish”, “ekib o‘stirish” ma’nosini bildiradi. Rus faylasuflari N.Berdyaev va V.Rozinovlar “kultura” so‘zining “kult”, ya’ni diniy ibodat, sig‘inish so‘zidan kelib chiqqanligini qayd etganlar.

Hozirgi paytda insoniyat faoliyatining ko‘pgina sohalarida madaniyat yoki kultura so‘zi qo‘llaniladi. Qadimgi Rimda madaniyat deganda shaxsning tarbiyalanganligi, ma’rifatlilik darajasi tushinilgan. Keyinroq madaniyat deganda shaxsning qadr-qimmati, takomilligi tushunilgan. Nemis faylasufi F.Shiller kishilardagi insoniylik fazilatlarini, uning ichki dunyosi, ma’naviylik darajasini madaniyat deb tushuntirgan. Amerikalik madaniyatshunos olim Eduard Teylor (1832-1917) madaniyat atamasini ilm-fanga kiritdi. Teylor o‘zining “Первобытнаякультура” asarida: “Madaniyat keng ma’noda kishining jamiyat a’zosi sifatida o‘zlashtirgan bilimi, e’tiqodi, san’ati, axloq-odobi, qonun-qoidalari

va boshqa bir qator qobiliyatlari hamda odatlari yig‘indisidan tashkil topadi”, deb ta’kidlaydi.

Faylasuf va madaniyatshunos V.M.Rozin iborasi bilan aytganda “qancha yirik madaniyatshunos bo‘lsa, shuncha nazariyalar, tushunchalar mavjud”. Teylor zamonida madaniyatning 7 ta ta’rifi bo‘lgan bo‘lsa, 1950-yillarda uning soni 150 taga, hozirgi kunda esa madaniyatga berilgan ta’riflar soni 400 taga yetadi. Bu ta’riflar umumlashtirilsa, madaniyat so‘zining ma’no-mazmunini quyidagicha tushunish mumkin:

1. Madaniyat – uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklar, asori-atiqalar yig‘indisi.

2. Madaniyat – u yoki bu jamiyatga xos falsafiy qarashlar, ilm, fan, maorif, san’at, axloq, din, huquq, siyosat maishiy xizmat ko‘rsatish darajasini aks ettiruvchi omillar, ijtimoiy taraqqiyot darajasi.

3. Madaniyat – insonlar hayotida, jamiyat rivojida shakllangan milliy, umuminsoniy qadriyatlar majmui.

4. Madaniyat – har bir kishining tarbiyalanganligi, insoniylik fazilatlari va ijodiy faoliyatining ifodasidir.

Madaniyatni qo‘llanilishiga qarab shaxsiy, oilaviy, kasbiy, tabaqaviy, milliy madaniyat, jamiyat madaniyati, umuminsoniy madaniyat kabi shakllarga bo‘lib o‘rganish ham mumkin. Kundalik hayotda “muomala madaniyati”, “mehnat madaniyati”, “nutq madaniyati”, “ishlab chiqarish madaniyati”, “xizmat ko‘rsatish madaniyati”, “dam olish madaniyati”, “huquqiy madaniyat” kabi tushunchalar ham qo‘llaniladi.

Madaniyat inson hayotida muhim vazifalarni bajaradi. Ular orasida quyidagilarni alohida ta’kidlab ko‘rsatish mumkin.

Madaniyat, avvalo, ijtimoiy vazifalarni, ya’ni shaxsni, odamni inson qilib shakllantirish va tarbiyalash vazifasini bajaradi. Madaniyat har bir shaxsning

insoniyat yaratgan bilimlarni, ma’naviy qadriyatlarni, tartib-qoidalarni o‘zlashtirib olish, tarbiyalash, jamiyatning to‘la huquqli a’zosi sifatida faoliyat yuritish qobiliyatini shakllantirish vazifasini bajaradi. Insonning tabiat hukmronligidan ajralib chiqishi madaniyatga xos ayrim elementtlarning shakllanishi bilan birga sodir bo‘ladi. Aynan madaniyat orqali har bir shaxs jamiyatda to‘plangan tajribalarni, an’analar va urf-odatlarni, turmush tarzini o‘zlashtiradi, ular keyingi avlodlarga yetkaziladi.

Madaniyat axborotlarni o‘zlashtirish, bilish, tushunish vazifasini bajaradi. Madaniyat inson uchun dunyoni bilish, dunyo to‘g‘risida turli ma’lumotlar, axborotlar olish, ularni avloddan avlodga o‘tib borishini ta’minlaydi.

Madaniyat tartibga soluvchi vazifani ham bajaradi, ya’ni kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni belgilangan tartib-qoidalar, axloqiy-huquqiy normalar asosida tartibga solishga xizmat qiladi.

Madaniyat kishilar o‘rtasida o‘zaro fikr almashuv bilan bog‘liq bo‘lgan, aloqa uchun xizmat qiladigan vazifani bajaradi. Bu borada til asosiy vosita rolini o‘ynaydi. Gap shundaki, madaniyatning bir qator sohalari – fan, san’at, texnika va boshqalarning o‘ziga xos tili bo‘lib, ularni bilmasdan turib madaniyatni to‘laligicha bilib bo‘lmaydi.

Madaniyat aksiologik vazifani ham bajaradi, ya’ni kishilar tomonidan moddiy, ma’naviy, estetik, axloqiy qadriyatlarni egallashga, yomondan yaxshini, bema’ni, xunuk narsalardan go‘zallikni ajrata bilishga ko‘maklashadi.

Madaniyat ijodkorlikni rivojlantirish vazifasini ham bajaradi. Insonni mavjud madaniyatga tanqidiy-ijodiy qarash, isloh qilish, takomillashtirish, yangi bilimlar, qoidalar, qadriyatlar, tartib-qoidalar yaratishga undaydi.

Madaniyat kishilardagi jismoniy va ruhiy toliqishni haydash, hordiq chiqarish, tiklanish, kayfiyatini ko‘tarish yo‘lidagi tadbirlar, o‘yinlar tashkil etuvchi vazifalarni ham bajaradi.

Madaniyat doimo taraqqiy etuvchi ko‘p qirrali jarayon, uning tarkibiga kiruvchi elementlari o‘zgarib turadi. Shu jihatdan tadqiqotchilar madaniyatni o‘ziga xos belgilari, sifatiga qarab bir necha turlarga bo‘ladilar. Madaniyatga sivilizatsion nuqtai nazardan yondashuvchi mutaxassislar insoniyat bir necha sivilizatsiyalarni bosib o‘tganligini ta’kidlaydi.

Madaniyatni tili, dini, an’analari, qadriyatlari, iqtisodiyoti yaqinligini inobatga olib, milliy, mintaqaviy, davriy jihatdan bir necha turlarga bo‘lish keng tarqalgan. Milliy madaniyatda diniy, axloqiy, badiiy, moddiy, geografik yaqinlik, umumiylik nazarda tutiladi. Madaniyatni irqiy omilni nazarda tutgan holda bo‘lish holatlari ham uchraydi. Fransuz faylasufi J.Gobino jamiyat, madaniyat, din, til to‘laligicha irqiy jihatlar bilan bog‘liq, madaniyat mavjud tabiiy sharoit bilan bog‘liq deb tushuntiradi va Yevropa madaniyatini negroid madaniyatdan eng yuqori, ustun darajada deb hisoblaydi.

XX asrning ikkinchi yarmida ayrim mutaxassislar jamiyat va madaniyat sohasida yuz bergan o‘zgarishlarni tushuntirish uchun “kontkultura”, “subkultura” tushunchalarini qo‘llay boshladilar. Kontkultura deganda, hukmron madaniyatga qarshi nazariyalar, qadriyatlar, falsafiy, badiiy qarashlar, ideallar tushuniladi. Subkultura deganda, jamiyatdagi turli sinflar, tabaqalar, guruhlarga xos madaniy jihatlar hisobga olinadi. Shuning-dek, qashshoqlar, kambag‘allar, o‘rta tabaqalar, yuqori tabaqalar, jamiyat-dagi “elita qatlamlari madaniyati” degan tushunchalar ham ishlatiladi. Masalan, ayrim tadqiqotchilar kambag‘al tabaqalar madaniyati shaxsiy gigiyenadan tortib, bilim darajasigacha bo‘lgan sohalarda past saviyada namoyon bo‘ladi, deb tushuntiradilar. Jamiyatni umumiy madaniyat asosida birlashtirishga intiluvchi ommaviy madaniyat mavjudligi haqida fikr bildiruvchilar ham bor.

Yoshlar orasida modaga berilgan xotin-qizlar, ayrim musiqaga berilgan yoki alohida jargon bilan gaplashishni xush ko‘radigan subkulturalar haqida ham fikr

mavjud. Shahar madaniyati, qishloq madaniyati, kasb madaniyati – ular o‘rtasidagi farqlar haqida ham gapiriladi. Bularning hammasi madaniyatning murakkab tarkibiy tizimdan iborat ekanligini ko‘rsatadi.

“Madaniyatshunoslik” fanida shaxs kamoloti muhim masaladir. Shaxsning barkamol inson bo‘lib yetishishida tarixiy, ijtimoiy-madaniy muhitning ta’siri katta. Inson ma’lum ijtimoiy-madaniy muhitda dunyoga keladi, go‘daklik chog‘idayoq shaxs ijtimoiy-madaniy muhitni tayyor holda topadi. Mavjud ijtimoiy-madaniy muhit ta’sirida shaxs ijtimoiy shaxsga aylanadi. Shaxsning ijtimoiylashuvi madaniy-ijtimoiy muhit yaratgan va rioya qilinadigan qadriyatlarni, urf-odatlarni, axloq-odobni, moddiy va ma’naviy boyliklarni, g‘oyaviy andozalarni o‘zlashtirish, qabul qilish orqali sodir bo‘ladi, shaxs inson sifatida shakllanadi. Shu bilan birga, shaxsda o‘tkinchi ehtiyojlarni – yurist, iqtisodchi, injener, shifokor, pedagog, san’atkor bo‘lish, boy bo‘lish, amaldor bo‘lish, shon-shuhrat qozonish, turli unvonlar olish va boshqa ehtiyojlarni qondirish kabi istaklar ham paydo bo‘ladi. Buning uchun ta’lim muassasalarida qunt bilan o‘qib, dunyo va jamiyat, ularning taraqqiyot qonunlari to‘g‘risidagi umumiy bilimlarni egallash, maxsus kasbiy fanlarni o‘rganish, izlanish, hayotiy tajriba orttirish, intellektual salohiyatga ega bo‘lish zarur.

Madaniyat kishining nafaqat ijtimoiylashuvini, shuningdek, jamiyat bilan integratsiyalashuvini ham ta’minlaydi. Madaniyat insonga barkamollikka erishishga, ijodiy kuchlarini namoyon etishga ko‘maklashadi. Shaxsning madaniy darajasini baholashda uning aqli, tafakkuri, ongi, axloqi, xulq-atvori ham muhim o‘rin tutadi. Madaniyat insonning yashirin, betakror individual xususiyatlari, qobilyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘stirish va rivojlantirishga yordam beradi.

Shaxsni barkamol qilib yetishtirishda jamiyat madaniyatining bir qator tizimlari alohida ahamiyatga ega. Masalan:

**Siyosiy madaniyat** – kishilarning siyosiy ongi, manfaatlari, maqsadlarini ifodalovchi siyosiy-huquqiy g‘oyalar majmuidir. Siyosiy madaniyat jamiyatning turli ijtimoiy tabaqalari manfaatlari bilan bog‘liq holda vujudga keladi va siyosiy faoliyatda namoyon bo‘ladi. Har bir ijtimoiy tabaqa o‘zining siyosiy manfaatlaridan kelib chiqib g‘oyalar, dasturlar ishlab chiqadi, siyosiy tashkilotlar tuzadi va siyosiy hokimiyat uchun turli usullar, vositalar bilan amaliy harakat qiladi.

Siyosiy madaniyat **huquqiy madaniyat** bilan bog‘liq. Huquqiy madaniyat qonunlarni bilish, ularga amal qilish, huquqiy ong, huquqiy saviya, huquqiy munosabatlar, huquqiy faollik madaniyati demakdir.

**Iqtisodiy madaniyat** deganda, iqtisodiy bilim, iqtisodiy ong, iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Shaxs iqtisodiy madaniyati jamiyat iqtisodiy madaniyatining tarkibiy qismidir. Shaxs iqtisodiy madaniyatining kamol topishi uchun iqtisodiy qadriyatlarni, iqtisodiy bilimlarni puxta egallashi lozim, shundagina u erkin iqtisodiy faoliyat yurita oladi.

**Axloqiy madaniyat** tarkibiga axloqiy ong, axloqiy munosabat va axloqiy faoliyat kiradi. Jamiyat axloqiy madaniyat, axloqiy qadriyatlar tizimini ifodalasa, shaxs axloqiy madaniyatida axloqiy qadriyatlarning individuallikda qanday darajada aks etishi ifodalanadi.

Barkamol insonni tarbiyalashda ekologik madaniyat, estetik madaniyat, din, fan va boshqalar ham muhim ahamiyatga ega.

Ko‘pgina hollarda “madaniyat” va “sivilizatsiya” so‘zlari yonma-yon ishlatiladi. Masalan, “Qadimgi Misr sivilizatsiyasi”, “Qadimgi Misr madaniyati”. Bu atamalar go‘yo bir xil ma’noni anglatganday ko‘rinadi. Aslida esa, sivilizatsiya va madaniyat bir-birlaridan farq qiluvchi tushunchalardir. Faylasuflardan O.Shpengler va A.Berdyayev asarlarida sivilizatsiya – bu insoniyat borlig‘ining

moddiy-texnik tomoni, madaniyat esa uning ma’naviy tomonidir, deb tushuntiriladi.

Madaniyat – insoniy munosabatlarda, ya’ni bir avlodning boshqa avlodga yoki guruhga bo‘lgan fikrlari va tasavvurlari yordamida hosil bo‘ladi. Insoniy madaniyatlarning komplekslik xususiyatlari mavjud bo‘lib, bu esa ularni ilmiy o‘rganishni biroz qiyinlashtiradi. Hattoki eng kichik va sodda madaniy guruhlarda ham (misol uchun Amazonkadagi kichik ovchilar qabilasida yoki mikroqishloq aholisida) katta miqdordagi madaniy bilimlar o‘zlashtirilgan bo‘lishi mumkin.

**Madaniyat geografiyasi** – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bir qismi bo‘lib, madaniy farqlarning hududiy jihatlarini o‘rganuvchi yo‘nalish hisoblanadi. Shuningdek, u, eng avvalo, quyidagicha izohlanadi:

Madaniyat geografiyasi kishilarning hayot tarzi, kashfiyotlari, hudud va ilohiy kuchlarga munosabatlarini o‘rganish sifatida tushuniladi.

U qanday holatda va nima sababdan turli joylarda turlicha ko‘rinishda ifodalanishini tadqiq qiladigan inson geografiyasi tarkibidagi mustaqil yo‘nalishdir.

U madaniyatning moddiy (kiyim-kechak, arxitektura va b.) va nomoddiy (tili, dini va e’tiqodi, xulq-atvori va h.k.) komponentlarining hududiy xususiyatlarini o‘rganishni taqozo etadi.

Madaniyatning o‘ziga xos geografik ko‘rinishi – bu tildir. Til insoniyat madaniyatidagi mavjud aloqa vositasidir. U bir guruh a’zolarini bir-birlari bilan o‘zaro cheksiz xabarlashish imkonini beradi. Biroq, u bir til guruhi a’zolarini boshqa til guruhi a’zolari bilan xabarlasha olmasliklariga ham sabab bo‘ladi. Bugungi kunda shevalarni hisobga olmaganda deyarli 3 mingta tilda gapiriladi. Ma’lumotlarga qaraganda, insoniyat paydo bo‘lgandan to hozirgi paytgacha so‘zlashilgan 4 mingga yaqin til o‘z davrida yo‘qolib ketgan.

Insonlar so‘zlashayotgan tillar soniga ko‘ra juda oddiy tasniflanadi. Dunyo tillarida ko‘p insonlar, mahalliy tillarda esa kamchilik kishilar gaplashadilar. Dunyo tili sifatida ingliz tili taxminan har o‘ninchi kishining ona tilisi va boshqa ko‘p kishilar uchun ikkinchi til sifatida ifodalanadi. Shuningdek, eng ko‘p kishilar tomonidan so‘zlashiladigan xitoy tili o‘zining bir qancha dialektlari bilan Sharqiy Osiyoda deyarli milliardlab insonlar tilidir.

Madaniyat geografiyasi aholi so‘zlashuvida mavjud bo‘lgan til oilalarini ham o‘rganadi. Yer shari aholisi quyidagi til oilalariga mansub:

1. Ural tillari oilasi – Rossiyaning Yevropa qismlari va Sibir xalqlari.
2. Oltoy tillari oilasi – Turklar, mo‘g‘illar, O‘rta Osiyoning Qirg‘iziston, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Turkmaniston kabi davlatlar xalqlari.
3. Xitoy-Tibet tillari oilasi – Sharqiy va Janubiy Osiyo xalqlari.
4. Malayziya tillari oilasi – Hind va Tinch okeanidagi xalqlar.
5. Dravit tillari oilasi – Hindiston xalqlari.
6. Monkxmer tillari oilasi – Hindixitoy mamlakatlari xalqlari.
7. Semit, hamit tillari oilasi – Janubi-g‘arbiy Osiyo va Afrika, shimoliy arab xalqlari.
8. Bantu tillari oilasi – Afrikaning janubiy xalqlari.

Til madaniyatning muhim, ammo ilmiy qoidalarga mos kelmaydigan bir elementidir. U aholining ba’zi bir qismini bog‘laydi, ammo boshqa qismlarini ajratadi. U joylardagi o‘zgarishlar va rivojlanishlar tezligini, o‘zgarmas madaniy ko‘rinishlarini ko‘rsatadi.

Madaniyat geografiyasining ikkinchi muhim tarmog‘i bu *dinlar geografiyasi*dir. Ma’lumki, din jamiyat hayotida, kundalik turmushimizda juda muhim rol o‘ynaydi. Bunda davlatning iqtisodiy rivojlanganlik va aholining bilim darajasi katta ahamiyat kasb etadi. Aholining diniy tarkibini bilish va uni to‘g‘ri baholash dunyoda bo‘lib o‘tayotgan voqea hamda hodisalarni to‘g‘ri tushunish va

anglashga imkon beradi. Shuning uchun ham etnoslarga tavsif berishda ko‘pincha mutaxassislar ularning diniy mansubligiga e’tibor qaratadilar.

Turli tarixiy davrlarda diniy va etnik birliklar nisbati turlicha bo‘lgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida diniy va etnik chegaralar o‘zaro mos kelgan. Har bir xalq tomonidan yaratilgan xudolar milliy xudolar bo‘lib, ularning ta’sir doirasi muayyan qabila chegarasidan tashqariga o‘tmagan. Bu davrda har bir davlat va unga tegishli etnos o‘z xudolariga, o‘ziga xos diniy tasavvurlariga ega bo‘lgan. Atoqli geograf olim V.P.Maksakovskiy “Siyosiy, etnik va diniy chegaralar bir-biri bilan mos tushgan joyda bir millatli mamlakatlar vujudga keladi”, deb juda to‘g‘ri ta’kidlagan edi.

Jamiyat taraqqiyoti, etnik aloqalarni kuchayishi bilan ancha katta diniy birliklar vujudga keldi, bir dinga bir necha xalqlar e’tiqod qila boshlaydilar. Keyinchalik bir etnosning ma’lum qismi eski xudolariga sig‘inishda davom etsalar, boshqalarining yangi dinni qabul qilish hollari tez-tez ro‘y berib turdi. Shunday qilib, xalqlar asta-sekin ko‘pxudolikni qabul qila boshladilar. Jahon dinlarining vujudga kelishi bilan etnik va diniy chegaralar muvofiqligi barham topadi. Ba’zi holatlarda diniy tafovutlar til jihatdan o‘zaro yaqin (gollandlar va flamandlar; serblar va xorvatlar va h.k.) aholi guruhlarining milliy chegaralanishida muhim rol o‘ynaydi.

Keyingi davrlarda diniy mansublik va etnik mansublik o‘rtasidagi aloqalar susaya bordi. Ko‘pgina yirik zamonaviy xalqlar turli dinlarga sig‘inuvchi kishilar guruhlarini o‘zida birlashtiradi, ayni paytda, bitta dinga ko‘plab etnoslar e’tiqod qilishlari ham mumkin. Hozir, faqat ba’zan, unda ham shartli ravishda milliy dinlar haqida gapirish mumkin (arman-grigorian cherkovi – ko‘pchilik armanlar, sintoizm – yaponlarning asosiy qismi, sikxizm – panjobliklarning ma’lum qismi va h.k.).

Ba’zi mamlakatlarda hukmron mavqega ega dinga e’tiqod qilmaydigan deyarli barcha aholi milliy kamsonli guruhlar tarkibiga kiritiladi. Jumladan, Eronda nafaqat armanlar, assiriyaliklar, yahudiylar, shu bilan birga, fors xalqining bir qismi bo‘lgan gebrlar (zoroastriylar) ham milliy kamsonli guruh sifatida e’tirof etiladi. Ayrim arab davlatlarida etnik kamsonli guruhlarga nafaqat musulmon bo‘lmagan aholi, hatto islomning mazkur mamlakatda hukmron mavqega ega bo‘lmagan mazhabiga mansub guruhlar ham kiritiladi.

Etnik birliklarda bo‘lgani kabi, diniy birliklar uchun ham tabaqalashuv xosdir. Har bir din turli yo‘nalishlar, mazhablar, oqimlar va sektalarga bo‘linadi. Odatda, mamlakatlar yoki xalqlar shartli ravishda musulmon, nasroniy (xristian), budda dinlariga ajratiladi, biroq quyi taksonomik darajalarga tushgan sari bunday bir xillik yo‘qola boradi.

Ayrim nasroniy mamlakatlar diniy jihatdan bir necha qismlarga bo‘lingan. Masalan, nemislar protestant (uning ikki oqimiga – lyuteranlik va reformatlik) va katolik dinlariga e’tiqod qiladilar; shveysarlarning turli guruhlari orasida protestantlar (reformatlik) va katoliklar tarqalgan; shotlandlar orasida protestant-presviterianlar ustunlik qiladi.

Bitta xalq turli qismlarining har xil diniy oqimlarga mansubligi tufayli uning ichida madaniy-maishiy tafovutlar kelib chiqadi va bu narsa, o‘z navbatida etnodiniy guruhlar shakllanishiga olib keladi. Bunday guruhlar jumlasiga, kurdlar orasidagi yazidlar diniy guruhini, Suriya va Livan arablari orasida – druzlarni, misrliklar orasida – kopitlarni misol qilib keltirish mumkin. Buning ustiga, boshqa yo‘ldosh holatlar ham unga ta’sir etsa, diniy tafovut muhim etnotabaqalashuv omili bo‘lib xizmat qiladi.

Ayrim mamlakatlarda din kishilar hayotining ko‘pgina tomonlariga, ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga, turmush tarziga va madaniyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Jahonning turli nuqtalarida ro‘y berayotgan siyosiy voqealarni, agar u yerdagi

diniy vaziyat hisobga olinmasa, tushunish qiyin. XX asrning 70-yillarida Hindiston diniy jihatdan ikki mustaqil davlatga bo‘lindi, va natijada, Pokistondan ko‘pgina hindlar, Hindistondan esa musulmonlar ko‘chib ketdilar. Bunday migratsiya jarayonida yigirma milliondan ortiq kishi ishtirok etdi. Turli diniy guruhlarga mansub kishilar orasida Livan, Isroil, Filippin, Afg‘oniston, Serbiya va boshqa joylarda to‘qnashuvlar sodir bo‘ldi. Avvalo, turli siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sabablar natijasida kelib chiqqan bunday kelishmovchiliklarda diniy omil muhim rol o‘ynadi. Din ko‘p mamlakatlar ichki siyosiy hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi, hatto ularning ayrimlarida siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalari diniy mansublik tamoyili asosida tuzilgan.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, turli tarixiy voqealar va hozirda ro‘y berayotgan hodisalar hamda milliy munosabatlar mohiyatini tushunish uchun o‘sha mamlakat yoki mintaqa aholisi diniy tarkibiga e’tibor qaratish zarur. Aholi diniy tarkibi bilan tanishishdan avval quyida dinlar tarixi haqida qisqacha ma’lumot beriladi:

Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va dastlabki davlatlar yuzaga kelishi bilan ajdodlar ruhiga topinish, dehqonchilik va chorvachilikka xos ibodatlar muhim ahamiyat kasb eta boshladi, ruhlarning ierarxiyasi paydo bo‘ldi, alohida tabaqa sifatida kohinlik ajralib chiqdi. Jamiyat sinfiy tabaqalashuvi shunda ham o‘z aksini topdiki, din oliy va quyi xudolarga (politeizm) bo‘lindi, keyinchalik bu jarayonlar yakkaxudolikni (monoteizm) keltirib chiqardi.

Miloddan avvalgi II ming yillikda hozirgacha saqlanib qolgan dinlar tashkil topdi. Eng qadimiy shunday dinlardan biri Old Osiyoda yuzaga kelgan **iudaizm** bo‘lib, u dastlab, politezmga asoslangan, keyinchalik monoteizmga o‘tgan. Mil.avv. I ming yillik boshlarida Markaziy Osiyoda boshqa din – **zardushtiylik** (uning asosida dualizm – yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash haqidagi tasavvur yotadi) rivojlana boshladi, milodning XI asrida uning tarmoqlaridan biri –

**yazidizm** paydo bo‘ldi. Osiyoning boshqa hududlarida politeistik dinlar shakllandi. Janubiy Osiyoda hukmron bo‘lgan kasta tuzumi orqali shuhrat qozongan **braxmanizm** va kasta tuzumini inkor qiluvchi **jaynizm** (mil.avv. VI-V asrlar) shular jumlasidandir. Mil.avv. VI-V asrlarda Xitoyda deyarli bir vaqtda ikki falsafiy-axloqiy ta’limot – **daosizm** va **konfutsiylik** yuzaga keldi hamda keyinchalik ular alohida dinlarga aylandi. Yaponiyada ibtidoiy jamoa tuzumi davridan bu mamlakatda hukmron bo‘lgan ajdodlarni hurmatlash va tabiatga topinish asosida **sintoizm** vujudga keldi.

Yer yuzi bo‘ylab juda katta hududlarda tarqalgan ayrim dinlar jahon dinlari nomini oldilar (odatda, ularga buddizm, xristian va islomni kiritadilar).

Milodning I ming yilligi boshlarida Old Osiyoda monoteistik din – nasroniylik**,** ya’ni **xristianlik** yuzaga keldi. 1054-yilda u ikki: pravoslav va katolik yo‘nalishlariga ajraldi. XVI asrda katolik dinidagi islohotlar natijasida undan (Rim papasi hokimiyatini inkor qiluvchi va ilk nasroniylikka qaytishni yoqlovchi) protestantizm ajralib chiqdi. Protestantizm bir qancha mustaqil oqimlar (eng yiriklari: anglikanlar, lyuteranlik, kalvinizm, reformatlar va h.k.) ko‘rinishida shakllandi va o‘z navbatida ular ham mayda bo‘lakchalarga bo‘linib ketdi. Nasroniylik tarkibida yuqorida qayd etilgan uchta (pravoslav, katolik va protestant) asosiy tarmoqdan tashqari, yana ikkita nisbatan kam tarqalgan, V asrda shakllanib, diniy marosimlari pravoslavlarga yaqin bo‘lgan monofisit va nestorian yo‘nalishlari mavjud.

Boshqa monoteistik din – **islom** VII asrda arablar orasida shakllandi. Yangi din oradan ko‘p o‘tmay uchta: sunniy, shia va xorijiy yo‘nalishlariga ajralib ketdi. Sunniylik va shialik o‘rtasida siyosiy masalalarda, ayrim diniy marosimlar va an’analar bo‘yicha tafovutlar mavjud. Siyosiy tafovut shundaki, agar sunniylar xalifalik hokimiyatini yoqlasalar, shialar esa imomat tarafdoridirlar. Diniy marosimlar va an’analardagi farqlar ham anchagina. Sunniylikda shialikda mavjud

bo‘lgan “Muta”, “Shaxsey-Vaxsey” va boshqa marosimlar yo‘q. Sunniylar Makka va Madina shaharlarini muqaddas hisoblasalar, shialar Iroqdagi Karbalo va Najaf shaharlarini muqaddas deb biladilar. Sunniylar Sunnani butunligicha etirof etadilar, shialar esa uning ba’zi qismlarinigina tan olishadi. Bu oqimlar orasida bunday tafovutlar juda ko‘p, shu bilan birga, ma’lum o‘xshashliklar ham bor. Masalan, mahdiylik – oxir zamon bo‘lishi va Mahdiy (arabcha, Olloh tamonidan to‘g‘ri yo‘lga yetaklovchi) kelishi haqidagi diniy ta’limot ikkala oqimda ham mavjud. Xorijiylar sunniylarga yaqin bo‘lib, ular o‘z izdoshlariga qattiq talablarni qo‘yadilar – zeb-ziynatni qoralaydilar, musiqa va raqsni taqiqlaydilar va h.k.

Alohida dinlarga e’tiqod qiluvchilar soni haqidagi ma’lumotlar birmuncha noaniq va ishonchsiz bo‘lishiga qaramasdan, har holda ular turli dinlarning ta’sirini baholash imkonini beradi. Nasroniylarning umumiy soni dunyo bo‘yicha, taxminan, 1.2 mlrd kishidan ortiq bo‘lib, shundan katoliklar – 700 mln, protestantlar – 400 mln va pravoslavlar – 100 mln kishi atrofida. Katoliklarning asosiy qismi Amerikada (ular umumiy sonining yarmidan ko‘prog‘i) to‘plangan; Yevropada, taxminan, 200 mln kishi, Osiyo va Afrikada – 100 mln kishidan iborat. Protestantlarning 40 foizi Amerikada, 1/3 qismi Yevropada (asosan, qit’aning shimoliy qismida), Afrika va Osiyoda, mos ravishda, 40 va 70 mln, Avstraliya va Okeaniyada –20 mln kishi. Pravoslavlar va boshqa Sharqiy cherkovlar izdoshlari Janubi-Sharqiy Yevropa, Rossiya va Shimoli-Sharqiy Afrika aholisi orasida keng tarqalgan.

Protestantlarning eng yirik guruhlaridan baptistlar – 75 mln, lyuteranlar – 70 mln, anglikanlar – 67 mln, reformatlar va presviterianlar – 52 mln, metodistlar – 43 mln, pyatidesyatniklar – 8 mln, Iegova guvohlari – 5 mln, “qutqarish armiyasi” izdoshlari – 5 mln, mormonlar – 4 mln, kongregasionalistlar – 3 mln, yettinchi kun adventistlari – 3 mln kishini tashkil etadi. Sharqiy cherkovlar vakillari orasida – taxminan 20 mln monofisitlar va 100 ming kishi nestorianlardan iborat. Induistlar

taxminan 550 mln, buddistlar – 300 mln (ular orasida maxayanistlar – 60% atrofida), konfutsiylar – 200 mln, sintoistlar – 100 mln, daosistlar – 30 mln, sikxlar – 15 mln, jaynlar – 4 mln, zoroastrizm tarafdorlari – 300 ming, yazidlar – 100 ming kishiga teng.

Iudaistlar (yevrey yoki yahudiylar) 15 mln kishi atrofida bo‘lib, ularning yarmidan ko‘prog‘i Amerika xalqlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Musulmonlar orasida tug‘ilishning yuqoriligi tufayli keyingi yillarda ularning soni nasroniylardan oshib ketdi (1,5 mlrd. kishi atrofida). Ularning, taxminan, 90 foizi sunniylar, 9.5 foizga yaqini shialar va 0.5 foizi xorijiylardan iborat. Islomga e’tiqod qiluvchilar, asosan, Shimoliy Afrika va Osiyoda (uning Sharqiy qismi bundan mustasno) jamlangan. Boshqa barcha dinlarning izdoshlari, asosan, Osiyo aholisi.

Afrika, Osiyo va Okeaniyada saqlanib qolgan mahalliy dinlarga sig‘inuvchilar sonini aniqlash ancha murakkab. Ularni hisoblashda muayyan dinga mansublik haqidagi ma’lumot doim ham haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Bundan tashqari, mazkur mintaqalar aholisi statistik jihatdan ham yaxshi o‘rganilmagan. Nihoyatda taxminiy hisob-kitoblarga ko‘ra, mahalliy dinlarga sig‘inuvchilar soni dunyo bo‘yicha 100 mln kishi atrofida.

Aholi diniy tarkibi haqidagi ma’lumotlarning noaniqligi tufayli, turli dinlarga sig‘inuvchilar soni bo‘yicha o‘sish dinamikasini belgilash ancha mushkul. Shunga qaramasdan, musulmonlar va induistlar sonining jadal o‘sishi, boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchilar o‘sish sur’atining esa pastligi yoki, hatto, kamayishi kuzatilmoqda. Buning sababi, induizm va islom hukmron bo‘lgan davlatlarda aholi orasida tug‘ilish sur’atlarining yuqoriligi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, islom dini Afrikada janubga, uning tropik qismiga tomon jadal siljimoqda, induizm esa Hindiston qabilalari orasida keng tarqalmoqda.

Yer sharining yirik mintaqalari bo‘yicha diniy guruhlar tarqalishi quyidagi ko‘rinishga ega:

MDHning katta qismini pravoslav diniga mansub kishilar guruhlari (Rossiyaning katta hududlari, Ukraina, Belorus, Moldova va Gruziya) tashkil etadi. Armanistondagi xudojo‘ylar monofisit arman-grigorian cherkoviga mansub, Litvada katolik dini, boshqa Boltiqbo‘yi davlatlarida – lyuteranlik keng tarqalgan.

Islom diniga Markaziy Osiyo va Qozog‘iston, Kavkazning katta qismi, Tatariston va Boshqirdiston aholisi e’tiqod qiladi. Ozarbayjonda, asosan, shia oqimiga mansub musulmonlar, boshqa hududlarda – sunniylar ko‘pchilikni tashkil etadi. Buddizm-lamaizmga Buryatiya, Tuva va Qalmig‘iston tub joy aholisi e’tiqod qiladilar. Xudojo‘y yahudiylar – iudaistlardir.

Yevropa shimolida protestantlik, Skandinaviya davlatlari, Finlandiya va Islandiyada – lyuteranlik, Angliyada – anglikanlik, Shotlandiyada – presviterianlik ustunlik qiladi. Belgiya, Lyuksemburg, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Italiya, Avstriya va Maltada katolik dini tarqalgan. Markaziy Yevropada katoliklar va protestantlar soni deyarli teng, biroq, Germaniyada protestantlar orasida lyuteranlar, Shveytsariya va Gollandiyada esa – reformatlar ustunlik qiladi. Gretsiyada ko‘pchilik xudojo‘ylar pravoslavlardan, Turkiyaning Yevropa qismida esa musulmonlardan iborat. Polsha, Chexiya, Slovakiya va Vengriya aholisi orasida katoliklar, Bolgariya va Ruminiyada – pravoslavlar, Germaniyada – protestantlar (asosan, lyuteranlar), Albaniyada – musulmonlar (sunniylar) ko‘pchilikni tashkil etadi. Sobiq Yugoslaviya respublikalarida ko‘proq pravoslavlar, qisman katoliklar va musulmonlar mavjud.

Osiyo aholisi diniy jihatdan nihoyatda xilma-xil. Islom barcha Old Osiyo mamlakatlarida (Isroil, Kipr va Livandan tashqari), Pokiston, Bangladesh, Maldiv orollari, Indoneziya va Malayziyada yetakchilik qiladi. Kipr, Sharqiy Timor, Hindiston, Shri-Lanka, Filippin aholisining muayyan qismi musulmonlardan

iborat. Ko‘pchilik mamlakatlarda islom-ning sunniy mazhabi hukmronlik qilsa, Eronda shialikning mavqei yuqori. Iroq, Yaman Arab Respublikasi va Bahraynda sunniylar va shialar soni deyarli teng. Eron, Hindiston, Pokistonda zoroastriylarning, Eron, Iroq va Turkiyada – yazidlarning kamsonli guruhlari mavjud.

Hindiston va Nepal induizm tarqalgan asosiy hududlardir. Induistlar Shri-Lanka va Bangladesh hamda Indoneziyaning Bali oroli aholisi orasida ham uchraydi.

Hindixitoy mamlakatlari va Shri-Lankada aholining ko‘pchiligi buddistlardan iborat (Vyetnamda – maxayana mazhabi, boshqalarda – txeravada). Shu bilan birga, ayrim Sharqiy Osiyo mamlakatlari aholisi maxayana buddizmidan tashqari, bir vaqtning o‘zida boshqa dinlarga: jumladan, Xitoyda – konfutsiylik va daosizmga, Koreyada – konfutsiylikka, Yaponiyada – sintoizmga ham e’tiqod qiladilar. Mo’g‘ulistonning xudojo‘y aholisi – lamaist buddistlardir.

Osiyoning faqat ikki mamlakati, ya’ni Filippin (asosan, katoliklar) va Kiprda (pravoslavlar) nasroniylar yetakchilik qiladi. Mazkur dinga sig‘inuvchilar Livan aholisi yarmidan ozrog‘ini tashkil etadi (maronitlar).

Osiyoda qabilaviy ibodat izdoshlari soni izchil kamayib bormoqda. Hozirgi paytda ular faqat Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning borish qiyin bo‘lgan tog‘li o‘lkalaridagina saqlanib qolgan.

Afrikaning barcha arab davlatlarida, Somali va Jibutida islomning sunniy mazhabi hukmronlik qiladi. Sahroi Kabirdan janubda joylashgan bir qator mamlakatlarda (Sudan, Chad, Niger, Yuqori Volta, Mali, Senegal, Gambiya, Gvineya, Gvineya-Bisau, Serra-Leone, Liberiya) musulmonlardan tashqari, mahalliy dinlarga sig‘inuvchi muayyan guruhlar saqlanib qolgan. Efiopiya aholisining 2/3 qismi nasroniylikning monofisit mazhabiga mansub. Nigeriyada musulmonlar, asosan, mamlakat shimolida joylashgan bo‘lib, aholining yarmidan

ko‘prog‘ini tashkil etadi. Shu bilan birga, bu yerda nasroniylar va mahalliy dinlarga sig‘inuvchi guruhlar ham mavjud. Qit’aning boshqa mamlakatlarida nasroniylar (protestantlar va katoliklar) hamda mahalliy dinlarga sig‘inuvchi guruhlar turlicha nisbatda taqsimlangan. Umuman, yer sharida saqlanib qolingan mahalliy dinlarga sig‘inuvchilarning deyarli 80 foizi Afrikada jamlangan.

Deyarli barcha Amerika mamlakatlarida nasroniylik boshqa dinlardan ustunlik qiladi. AQSh va Kanadada protestantlar ko‘p bo‘lib, ular, o‘z navbatida, xilma-xil diniy oqim va sektalarga bo‘linib ketganlar. Janubiy va Markaziy Amerika aholisining ko‘pchiligi – katoliklar. Vest-Indiyaning bir orolida son jihatdan katoliklar ustun bo‘lsalar, boshqasida – protestantlar. Kuba, Gayana, Surinam hamda Trinidad, Tobagoda katolik hamda protestantlardan tashqari induistlar va musulmonlarning ma’lum guruhlari joylashgan. Janubiy Amerikaning ichki hududlaridagi hindu qabilalari mahalliy dinlarga sig‘inadilar.

Avstraliya va Okeaniyada xudojo‘ylarning katta qismini turli oqim va sektalarga bo‘lingan protestantlar, ozroq qismini esa katoliklar tashkil etadi. Yangi Kaledoniya, Guame hamda Uollis va Futun orollarida katoliklar protestantlarga nisbatan ko‘proq. Fijida xristianlar bilan bir qatorda, induistlar va musulmonlar mavjud. Mahalliy dinlarning tarafdorlari, asosan, Vanuatu, Papua-Yangi Gvineya va Avstraliya tubjoy aholisi orasida saqlanib qolgan.

**Xulq-atvor geografiyasi.** Insonning mohiyati va jamiyatda tutgan o‘rni, o‘zini tutishi, ruhiyati fanlar doirasida keng o‘rganiladi. Turli ilmiy va diniy ta’limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. Shunday bo‘lishi tabiiy. Chunki, inson ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy-geografik sharoitda o‘zligini teranroq anglashga, yangidan-yangi shart-sharoitlarga chuqurroq moslashishga, insoniy mohiyatini ro‘yobga chiqarishga intilaveradi.

Suqrotning “O’zingni angla” degan hikmatli so‘zi ham har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etadi. Zero, insonda butun olam va jamiyatning mohiyati

mujassamlashgan. Ulug‘ mutasavvuf Abdulxoliq G‘ijduvoniy insonni “kichik olam” deb hisoblagan. Yuqoridagi fikrlar kengroq mushohada qilinsa, ularning tub mohiyati insonning xulq-atvori, ruhiyati, yurish-turishi bilan ko‘proq aloqador ekanligi ko‘zga tashlanadi.

Inson – o‘zida biologik, ijtimoiy va ruhiy xususiyatlarni mujassamlashtirgan ongli mavjudot. Uning biologik xususiyatlariga: ovqatlanish, himoyalanish, o‘zidan zurriyot qoldirish, sharoitga moslashish kabilar xos bo‘lsa, sotsial xususiyatlariga: til, muomala, bilim, ong, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, iste’mol qilish, boshqarish, o‘z-o‘zini idora etish, badiiy ijod, axloq, nutq, tafakkur, qadriyatlarni kiritish mumkin.

Inson shu xususiyatlari orqali yaxlit bir tizimni tashkil etadi. U mukammal va murakkab mavjudot sifatida o‘z ehtiyojlarini qondiradi va insoniyat davomiyligini ta’minlaydi. Shu bos, insonga xos bo‘lgan biologik xususiyatlarni ijtimoiy xususiyatlardan ustun qo‘yish yoki ruhiy xususiyatlarni bo‘rttirish uning mohiyatini buzib talqin etishga, bir yoqlamalikka olib keladi.

Insonning ruhiy xususiyatlariga ruhiy kechinmalar, hayratlanish, g‘am-tashvish, qayg‘u, iztirob chekish, zavqlanish, kayfiyat va boshqalar kiradi. Aynan ana shu holatlarga atrof-muhitning ta’siri va uning hududiy jihatlari xulq-atvor geografiyasi tomonidan o‘rganiladi.

Ta’kidlash joizki, bu boradagi izlanishlar ancha ilgari buyuk mutafakkirlar asarlarida batafsil yoritib berilgan. Jahon tibbiyotida o‘chmas iz qoldirgan mashhur yunon olimi Gippokrat (mil.avv. 460-377) ham inson ruhiyatida tashqi muhit ta’sirini alohida uqtirib o‘tgan. Gippokrat tabib va sayyoh edi, ya’ni u ko‘p sayohat qilar, turli mamlakatlarda bo‘lar ekan, o‘sha yerlardagi odamlarning turmush tarzi va urf-odatlari, davlatlarning iqlimi, suvi, havosi va boshqa tabiiy sharoitlarining inson ruhiyatiga ta’sirini ham o‘rgangan. Gippokrat har xil geografik sharoitlarda

turlicha odamlar yashashini ko‘rdi, ularning o‘z tana tuzilishlari, yurish-turishi bilan farq qilishlarini aniqladi.

Olim bu haqda “Havolar, suvlar va joylar” nomli asarida shunday degan edi: “Odam organizmining tabiatini tashqi muhit belgilaydi. Jamiyat esa o‘z qonun-qoidalari bilan odam tabiatini o‘zgartirishi mumkin”. Bundan shuni e’tirof etish mumkinki, Gippokrat inson organizmiga ijtimoiy muhitning ta’sirini ham yaxshi anglagan.

Beruniy o‘zining “Qadimiy xalqlardan qolgan yodgordiklar” asarida birinchi bo‘lib odam rangi, qiyofasi, tabiati va axloqi turlicha bo‘lishini ular yashaydigan tuproq, suv, havo va yerga ham bog‘liqligini ta’kidlab, geografik aloqadorlik g‘oyasini ilgari suradi. Beruniyning fikricha, inson ichki va tashqi qiyofasi tabiat ta’sirining natijasidir. Shu bilan birga, uning ichki qiyofasi cheksiz sa’y-harakatlar oqibatida tubdan o‘zgartirilishi mumkin. Har bir kishi o‘z xulq-atvorining sohibi ekanligi olim fikrlarida chuqur mushohada qilingan.

Shuningdek, vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino asarlarida ham issiq o‘lkalar tabiati va ularning inson jismiga ta’siri haqidagi fikrlarni uchratish mumkin. Chunonchi, u issiq o‘lkalarda odam tanasining qoramtirligi, sochlarining jingalakligi, havoda namlikning ko‘p bug‘lanishi natijasida keskin kamayib ketishi inson jismining tez qarishiga olib kelishini ta’kidlagan edi. Olim pastlikda joylashgan hududlar aholisining doimiy issiqlik va dimlikda yashashlari, bunday o‘lkalarda sho‘rxok va botqoqliklarning ko‘pligi sababli suvlar tarkibi ham salbiy xususiyatlarga ega ekanligini batafsil yoritib bergan. Bunday hududlar aholisi ruhiyatida jizzakilik, jahldorlik birmuncha yuqoriligini ta’kidlab o‘tgan (Abu Ali Ibn Sino, 1994).

V.P.Semyonov Tyan-Shanskiy Rossiya antropogeografiyasining eng yirik nomoyandasi sifatida geografiya fani – ko‘rish, tasavvur qilish, ko‘rish xotirasi orqali egallanadigan fan deb ta’riflaydi. Ko‘pgina sohalardagi kabi geografiyada

“intuitsiya” muhim o‘rin egallaydi. Aynan intuitsiya xuddi san’atdagi singari geografiya fanini aniqlikka yetaklaydi, deya ta’kidlaydi. Ushbu fikrlar esa xulq-atvor geografiyasining asosiy g‘oyalaridan biridir.

Xulq-atvor geografiyasi bilan bog‘liq tadqiqotlar Rossiyada ilk marta 1940-1950-yillarda olib borilgan va bunda aholi migratsiyasi bilan bog‘liq ilmiy ishlarda mazkur sohaga doir ma’lumotlarga zarurat tug‘ildi. Chunonchi, L.I.Mechnikov insoniyat tarixida turli tabiiy geografik omillar ta’sirini o‘rganib, buyuk daryolar sivilizatsiyasi yoki daryo madaniyati konsepsiyasni yaratdi. E.F.Zyablovskiy o‘z fikrlarida ko‘proq xulq-atvor geografiyasi atamasi o‘rnida urf-odat geografiyasi atamasini qo‘llashni lozim, deb bilgan. E.G.Milyukov jinoyatchilik bilan bog‘liq masalalar ham aynan xulq-atvor geografiyasi tomonidan o‘rganilishi zarurligini uqtirib o‘tgan. B.B.Rodoman, V.L.Kaganskiy singari olimlar “zehn va fe’l-atvor landshaft muhitiga, ayniqsa, madaniy landshaftlar bilan aloqador”ligi borasida o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi. K.Zauer tabiiy va madaniy landshaft insonning tashqi muhit bilan o‘zaro muvofiqligini ta’kidlab o‘tadi.

Ta’kidlash joizki, tuproqning turli, hatto siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy xususiyatlariga o‘z davrida Fridrix fon Rattsel va Vidal de la Blashlar ham e’tibor qaratishgan. Jumladan, Blash: “Inson – tuproqning ishonchli o‘quvchisidir. Binobarin, uni o‘rganish aholining xarakteri, urf-odati kabi holatlarini aniqlashga yordam beradi”, degan edi.

XIX asrning oxirlarida Germaniyada F.Rattsel tomonidan antropogeografiyaga asos solindi. Olim g‘oyasining negizida geografik determinizm, ya’ni inson, xalqlarning ruhi va jismiga tabiiy muhitning hal qiluvchi ta’sir etish g‘oyasi yotgan edi. Mazkur g‘oya asosida keyinchalik xulq-atvor geografiyasi shakllandi. F.Rattsel o‘z qarashlarida muhitning ijtimoiy hayotimizga ta’sirini to‘rt turga ajratdi va bunda tabiiy hamda psixologik ta’sirni alohida ta’kidlab o‘tdi.

1960-yillarda xulq-atvor geografiyasi rivojida Karl Zauer, Dj.Rayt va U.Kirk singari amerikalik olimlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Dj.Rayt hududlar mazkur joyda yashovchi insonlarning mavjud aqliy jihatlariga ham ta’sir etishi borasida o‘z fikrini bildirgan.

U.Kirk o‘z qarashlarida “**axloqiy muhit**” tushunchasini izohlab o‘tadi. Muayyan hududlarda yashayotgan insonlarning madaniyatlilik darajasi ularning nigohlarida namoyon bo‘ladi. Xuddi shunday jinoyatchilar qilmishlari ham ularning ko‘z qarashlarida, nigohlarida o‘z aksini topishi olim tomonidan e’tirof etilgan. Shuningdek, u har bir joy aholisi o‘z o‘lkasiga nisbatan o‘zgacha mehr-muhabbat hissini tuyishi, jumladan, tog‘li hududlar aholisi ko‘proq tog‘larga sig‘inib, tog‘larga hurmat-ehtirom bilan qarashsa, sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi xalqlar ko‘proq daryolarni (Nil, Gang va h.k.) ilohiylashtirishlari haqida o‘z ilmiy qarashlarini bildirgan. Bizning fikrimizcha, chindan ham joylarning inson ruhiyatiga, axloqiy jihatlariga ta’siri katta. Bu esa o‘sha joyda yashovchi kishilar orasida jinoyatchilik yoki axloqiy me’yorlar bilan bog‘liq nomutanosibliklarning oldini olishga yordam beradi. Binobarin, ayrim manbalarda “Xulq-atvor geografiyasi” joyning aqliy suratini anglatuvchi tushuncha sifatida ham qaraladi.

Xulq-atvor geografiyasi borasidagi tadqiqotlarda makon bilan bog‘liq ramziy jihatlarga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda:

– joy (muhit)ning muhim ramziy belgilari sifatida qorli, yomg‘irli, shamolli, tumanli, shovqini va boshqa jihatlari muhim o‘rin egallaydi;

– joy tavsifi mohiyatiga ko‘ra (kvintessensiyasi) muqaddas joylar, modalar markazlari, musiqa madaniyati markazlari, qimorbozlik markazlari va h.k.

Aytish o‘rinliki, xulq-atvor geografiyasi sotsial va Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya borasidagi tadqiqotlarning no‘ananaviy jihatlarini o‘zida jamlaydi.

Unda hududlar (makon, manzil) quyidagicha talqin etiladi:

**Sotsial makon** – avvalo, shuni e'tiborga olish lozimki, insonning o'rab turgan tabiiy va madaniy muhit bilan munosabatlarini (anglash va xulq-atvor) namoyish qilish xususiyati muayyan hududda sodir bo'ladi. Insonlar istiqomat qiladigan hudud yoki makon – sotsium jamoa ehtiyoj va zaruratlari natijasida shakllanadi.

**Shaxsiy makon** – insonlar tanasi atrofidagi boshqa odamlardan ajratib turuvchi chegaraviy ko'rinmas hudud hisoblanadi.

Xulq-atvor geografiyasida insonlar yashash tarzi, yurish-turishi shakllanadigan makonlar, ya'ni hududlar bir necha turlarga ajratiladi:

- *asosiy* makon – uy: insonning o'z shaxsiy ehtiyojlarini amalga oshiruvchi, hayotiy faollik darajasi yuqori bo'ladigan, xavfsizlik vazifasini o'tovchi hudud;
- *ikkilamchi* makon – sotsial hududlar (guruhlar). Bunda bir xil o'xshash hodisalar ko'zga tashlanadi, hayotiy faollik darajasi ancha past, xulq-atvorida ochiq munosabatlar ko'zga tashlanadi;
- *jamoaviy* makon – sotsial huquq va me'yorlar amal qiladigan, yurish-turishda chegaradan chiqmaydigan, istalgan kishi foydalanadigan, vaqtinchalik hudud.

Xulq-atvor geografiyasidagi muhim tushunchalardan biri – bixeviorizm tushunchasi bo'lib, u inson xulq-atvorining xilma-xil jihatlarini o'rganuvchi ilmiy qarashlar majmuidir. Shuningdek, u kishilarning tabiiy va sotsial muhitga moslashuvi, ularning aqli va qilmishlariga bunday muhitning ta'sirini o'rganadi. Muhit bilan bixeviorizm birgalikda xulq-atvor geografiyasi mazmun-mohiyatini tashkil qiladi.

Umuman olganda, inson xulq-atvori, urf-odatlari, yurish-turishi va ruhiy kechinmalari ham hududiy tafovutlarga ega. Chunki hududlar o'z iqlimi, relyefi, suv va tuprog'i, iqtisodiy-ijtimoiy jihatlari bilan o'zaro farqlanadi. Ularning barchasi kishilar xulq-atvorining hududiy tomonlarini va uning geografik xususiyatlarini izohlab beradi.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Madaniyat geografiyasi nimani o‘rganadi?
2. Jahon aholisining til oilalarini aytib bering.
3. Jahon aholisining diniy tarkibini izohlang.
4. Xulq-atvor geografiyasi borasida ilmiy izlanishlar olib borgan xorij olimlari kimlar?
5. Inson xulq-atvori, urf-odatlari, yurish-turishi va ruhiy kechinmalari hududiy tafovutlarga ega ekanligini izohlab bering.
6. Doimiy tumanli yoki bulutli o‘lkalar tabiati kishilarning xulq-atvoriga va umumiy kayfiyatga qanday ta’sir qiladi?
7. Xulq-atvor geografiyasi mazmun-mohiyatini nima tashkil qiladi?
8. Urf-odatlar geografiyasi haqida nimalarni bilasiz?

## 16- BOB. SOTSIAL GEOGRAFIYA

Reja:

16.1. Sotsial geografiyaning obyekti, predmeti va vazifalari.

16.2. Sotsial geografiyaning shakllanish tarixi.

16.3. Sotsial-geografik tadqiqotlar.

16.4. Sotsial geografiyaning muhim vazifalari.

**Sotsial geografiyaning obyekti, predmeti va vazifalari.** Insoniyat taraqqiyoti asrlar davomida turli xil fanlar va ularning yutuqlari asosida shakllanib, rivoj topib kelgan. Shu nuqtai nazardan fanlar tizimida geografiya fani ham o‘z mavqeiga ega va uning rivojida ko‘plab yangi-yangi tadqiqot va izlanishlar bo‘lishi tabiiy. Xususan, keyingi yillarda mustaqil respublikamizda an’anaviy iqtisodiy geografiyaning sotsiallashuvi va uning keng ma’nodagi sotsial geografiyaga aylanib borish jarayoni sodir bo‘lmoqdaki bu, albatta, ijobiy holatdir.

Sotsial geografiya aholini yashash tarzi va sharoiti, dini, urf-odati, milliy qadriyatlari, dam olishi, davolanishi kabi ko‘pgina sotsial hodisa va voqealarning hududiy tomonlari va xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot beradi. Demak, sotsial geografiya aholining sotsial (ijtimoiy) va tabiiy muhit bilan aloqasini o‘rganadi.

Sotsial geografiyaning eng muhim tushunchalaridan biri bu “sotsial makon” tushunchasidir. Sotsial makon deganda, eng avvalo, kishilarning kundalik muayyan hududdagi hayotini, o‘zaro aloqalarini tushunamiz. Bunda turli kasb, millat, yosh va jinsdagi aholining yashash joyi, uning hududiy umumiyligi (sotsiumi) nazarda tutiladi.

Yana shuni ta’kidlash kerakki, sotsial geografiya tarkibiga bevosita aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari geografiyasini kiritib bo‘lmaydi, chunki mazkur yo‘nalish professor A.S.Soliyev ta’biri bilan aytganda, “bevosita sotsial va ijtimoiy-iqtisodiy geografiya o‘rtasida turadi va u iqtisodiy geografiyaning sotsiallashuvi yo‘nalishidagi dastlabki muhim bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi”.

Hozirgi kunda “Sotsial geografiya” fani tez rivojlanayotgan fanlar qatoriga kiradi. Sotsial geografiya bilan bog‘liq tadqiqotlarning roli va ahamiyati mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etib, endilikda uning tadqiqot doirasi tobora kengayib bormoqda. Ushbu fan yo‘nalishining noan’anaviy sohalariga tibbiyot geografiyasi, jinoyatchilik geografiyasi, din, turizm, rekreatsiya, fan va ta’lim geografiyasi singarilarni kiritish mumkin hamda ular sotsial geografiyaning mazmunini yanada boyitadi, zamonaviylashtiradi. Aytish joizki, zamonaviy iqtisodiy va sotsial geografiyada bevosita aholi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, uning tarkibiga kiruvchi sotsial geografiyada jamiyat, aholi va uning sotsial jihatlari bilan bog‘liq qonuniyatlarni o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi davrlarda an’anaviy iqtisodiy va sotsial geografiya fanining tadqiqot obyekti va predmeti sezilarli darajada kengayib bormoqda. Avvallari ilmiy tadqiqotlarning bosh mavzusi sifatida asosida ko‘proq, sanoat, qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish kuchlari va ularni rivojlantirish masalalari yotgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, aholi va u bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jihatlarni o‘rganishga, ayniqsa, uning sotsial jihatlari, salomatligi, dam olishi, davolanishi, turmush tarzi, urf-odatlari, dini, bilan bog‘liq jihatlarni o‘rganishga qiziqish ortdi va bu boradagi ilmiy izlanishlarning hajmi ortib bormoqda.

Jahonda XX asrning o‘rtalaridan boshlab bir qator iqtisodiy fanlardagi “sotsiallashuv” jarayoni iqtisodiy geografiyaga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Bu holat keyinchalik aholi geografiyasining va u bilan bog‘liq tarzda, sotsial geografiyaning shakllanib borishiga zamin yaratdi.

Shuni ta’kidlash kerakki, dastavval, XX asrning 30-yillaridayoq N.N.Baranskiy “sotsial geografiya”ni yaratish masalasini ko‘ndalang qo‘ygan edi va keyinroq, uning muhim masalalarini (aholi geografiyasi, shaharlar geografiyasi va b.) o‘rgandi. O‘sha davrdayoq N.N.Baranskiy: “Iqtisodiy – geograf nafaqat aholining tarkibi, joylashuvi, aholi manzilgohlarining tavsifini, balki uning ruhiyati, urf-odatlari va madaniyatini ham bilishi kerak” ekanligini ta’kidlagan edi.

Aholining mehnat qilishi, dam olishi, ruhiy kechinmalari, sog‘lig‘ini saqlash va boshqa ijtimoiy, madaniy-ma’naviy hayot faoliyatlari bilan bog‘liq masalalar xorijda, shuningdek, sobiq Ittifoq iqtisodiy geografiyasi doirasida ham o‘rganib kelingan. Shuning uchun ham Y.G.Saushkin ijtimoiy geografiyani iqtisodiy geografiyadan ajratish, iqtisodiy va sotsial geografiyaning rivojlanishiga zid ekanligini, real borliqni anglashga to‘la javob bermasligini, ya’ni insonni ijtimoiy hayoti murakkabliklari bilan iqtisodiy geografiyadan ajratib bo‘lmasligini ham uqtiradi (Nazarov M., Tojiyeva Z. Ijtimoiy geografiya, 2003).

Hozirgi kunda ijtimoiy geografiyaning tor va keng ma’nodagi talqini professor A.S.Soliyev tomonidan e’tirof etilgan. Olimning ta’kidlashicha, tor ma’nodagi sotsial geografiya – bu bevosita inson hayoti bilan borliq masalalari hududiy jihatlarini, uning o‘zi yashab turgan muihiti bilan munosabatini o‘rganuvchi fandir. Keng ma’nodagi ijtimoiy geografiya esa o‘z ichiga tor ma’nodagi sotsial geografiya va insonning ijtimoiy hayot tarzi, madaniy, ma’naviy, ruhiy rivojlanishi masalalarining hududiy qirralarini ham qamrab oladi.

**Sotsial geografiyaning shakllanish tarixi.** Tarixiy ma’lumotlarga nazar tashlasak, sotsial geografiyaning rivojlanishidagi dastlabki qadamlar xorijda ko‘zga tashlanadi. Xususan, “sotsial geografiya” tushunchasi XIX asrning oxirlaridayoq fransuz maktabi vakili, iqtisodchi va sotsiologi Le-Ple tomonidan foydalanilganligi manbalardan ma’lum. Yana bir tadqiqotchi G.S.Dunbarning ta’kidlashicha, ushbu tushuncha ilk bor P.de-Ruzening 1884-yilda chop etilgan sotsial geografiya bo‘yicha izlanishlarida qo‘llanilgan (Nazarov M., Tojiyeva Z. Ijtimoiy geografiya, 2003).

Le-Ple ilmiy maktabining taniqli namoyandasi E.Demolen esa sotsial geografiyani “sotsiogeografiya” tarzida talqin qiladi va uning mohiyati mahalliy shart-sharoitlar (shu jumladan, tabiiy sharoitlar)ni ijtimoiy rivojlanishga, “ijtimoiy guruh”larning vujudga kelishiga ta’siri sifatida tushuntiradi.

1895-yili ilk bor “Sotsial geografiya” tushunchasi E.Reklyuning “Umumiy geografiya” asarida qo‘llanildi. Bunda u sotsial geografiyani tabiiy shart-sharoitlarning kishilarni mehnat va turmush tarziga hududiy jihatdan ta’sir etishi ma’nosida qo‘llagan.

XX asrning boshlarida Niderlandiyada geografiya va sotsiologiyaning uyg‘unlashuvidan vujudga kelgan “yangi fan” – sotsial geografiya paydo bo‘ldi. Uning predmeti “jamiyatdagi guruhlar va o‘zaro aloqadorliklarning regional taqsimlanishini o‘rganish” deb tushuniladi. Mazkur fan tarmog‘ining aynan

Gollandiyada paydo bo‘lishi ham bejiz emas. Chunki, uning amaliy vazifalari, aholisi zich va yer resurslari taqchil bo‘lgan Gollandiyada mintaqaviy rejalashtirish masalalarini hal etishda o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Sotsial geografiyaning vujudga kelishi va rivojlanishiga sobiq Ittifoq geograf olim va tadqiqotchilari ham munosib hissa qo‘shganlar. Bu davrda sotsial geografiyaning rivojlanishida shartli uch bosqichni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. XX asrning 50-yillarigacha bo‘lgan davr.

2. XX asrning 50-70 yillari.

3. 70-yillardan hozirgacha bo‘lgan davr. Sotsial geografiyaning nazariy va amaliy jihatlari aynan mana shu davrda sezilarli tarzda rivojlandi. Ayniqsa, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari geografiyasi bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Sotsial geografik tadqiqotlarning obyekti va predmeti, uning mazmun-mohiyati xususidagi dastlabki aniq fikr-mulohazalarni R.M.Kabo-ning ishlarida uchratamiz. Jumladan, uning fikricha, “Ijtimoiy-madaniy” geografiya mehnat faoliyati bilan bog‘langan aholi joylashuvi tiplari, uning turmush tarzi va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarining hududiy tafovutlarini, shuningdek, har bir sotsial hududiy kishilar guruhini mujassam etgan barcha elementlarning murakkab uyg‘unligini o‘zida ifodalaydi.

Sotsial geografiyaning tuzilishi va vazifalarini M.F.Grin yanada kengroq talqin qildi. Uning fikricha, ijtimoiy geografiya sotsial siklga mansub geografik fanlar bilan birga, iqtisodiy geografiyani ham qamrab oladi. Ijtimoiy geografiyaning bunday keng ma’nodagi talqini V.M.Goxman va S.Y.Nimmik tushungan “Общественнаягеография – Umumiy geografiya”ga mos tushadi.

Ushbu masalaga amaliy nuqtai nazardan real va asosli ravishda yondashgan A.A.Dolinin: “Ijtimoiy hodisa va jarayonlarning mintaqaviy xususiyatlarini, mintaqalarning tabiati, iqtisodiyoti va demografik vaziyatini tavsiflovchi narsalarni jalb etmasdan chuqur o‘rganib bo‘lmaydi, demak bunday tadqiqotlarni iqtisodiy

geograflar muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirishlari mumkin", deb aytgan edi. A.A.Dolinin fikricha, sotsial geografiyaning obyekti – bu kishilarning o‘zaro munosabatlari orqali bog‘langan hududiy birikmalaridan iborat.

**Sotsial-geografik tadqiqotlar.** Tibbiyot, din, turizm geografiyasi singari fan yo‘nalishlari chindan ham fanlar qirrasida yuzaga kelgan chegaraviy yo‘nalishlar bo‘lsa-da, ularni geografiya fanlari tizimi, aniqrog‘i, sotsial geografiya fani doirasida ko‘rishni ma’qul ko‘ramiz. Chunki, jumladan, tibbiyot geografiyasini oladigan bo‘lsak, yer yuzida kasalliklarning vujudga kelishi va tarqalishida hududiy tafovutlar mavjud ekan, mazkur fan asosini geografik omillar tashkil etadi.

Shu o‘rinda eslatib o‘tish lozimki, sotsial geografiya bo‘yicha olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni M.Nazarov va Z.Tojiyevalar quyidagi to‘rt guruhga ajratgan:

1. "Sotsial geografiya **mavjud emas**, ammo geografiyada ijtimoiy jihatlarning borligi shubhasizdir", degan fikr tarafdorlari. Ushbu yo‘nalishga mansub mualliflar sotsial geografiya mustaqil mavjud emasligini yoqlaydilar. Ular jumlasiga E.B.Alayev, S.A.Kovalyov, N.Y.Kovalskaya, G.M.Lappo, S.B.Lavrov, G.V.Sdasyuk, Y.G.Saushkin, A.A.Tkachenko kabilarni kiritish mumkin. Ushbu olimlar yaratgan bir qator asarlarda sotsial va iqtisodiy jihatlar bo‘linmasligi va qat’iy bo‘lishga urinishlar natijasiz bo‘lishi ta’kidlanadi.

2. "Sotsial geografiya – mustaqil fan bo‘lib, geografiya fanlari tarkibida eng **quyi pog‘onada** joylashgan. Ko‘p hollarda uni aholi geografiyasining tarkibiy qismi sifatida ko‘rish mumkin", degan fikr mualliflari. Mazkur yo‘nalishga mansub fikrlarga ko‘ra, sotsial geografiya mustaqil bo‘lib, geografiyaning quyi ierarxik pog‘onasida, aholi geogra-fiyasi tarkibiga kiradi. (Anoxin A.A., Kostyayev A.I., Dolinin A.A). Jumladan, A.A.Dolinin sotsial geografiyani aholi geografiyasining o‘ziga xos bo‘g‘ini sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, sotsial

geografiya odamlarning hududiy birikmalarini ijtimoiy rivojlanish darajalarini aniqlashda mujassamlashgan.

A.A.Anoxin va A.I.Kostyayevlar esa sotsial geografiya turli taksonomik toifadagi rayonlarning ijtimoiy hayotini hududiy tashkil etilishini o‘rganuvchi fan sifatida shakllandi, deb hisoblaydilar. Sotsial geografiyani aholi geografiyasi doirasidan ancha keng ma’noda tushunishlariga qaramay, yuqoridagi mualliflar, baribir aholi geografiyasi asoslaridan kelib chiqadilar.

3. Sotsial geografiya – mustaqil fan bo‘lib, geografiya fanlari tarkibida **o‘rta iyerarxik pog‘onada**, ya’ni masalan, iqtisodiy geografiya bilan bir pog‘onada joylashgan. Uchinchi yo‘nalishga mansub qarashlarga ko‘ra, sotsial geografiya iqtisodiy geografiya bilan bir darajada turgani holda, ijtimoiy geografiyaning (keng ma’noda) oxirgi asosiy tarmog‘i hisoblanadi. Bunday nuqtai nazarni V.M.Goxman va S.Y.Nimmiklar yoqlab chiqishgan va ular bir xil shunday xulosaga kelishgan. Shuningdek, ular rivojlanganlik darajasiga ko‘ra sotsial geografiyani iqtisodiy geografiyadan orqada qolyapti, chunki sotsial geografiya ancha keyin shakllana boshladi, degan fikr S.Nimmik sotsial geografiyani iqtisodiy geografiyaga qaramligini va shuningdek, sotsial va madaniy geografiyaning bo‘linmasligini ham ko‘rsatib o‘tadi.

4. Sotsial geografiya – mustaqil fan bo‘lib, ijtimoiy geografiya fanlari tarkibida **yuqori iyerarxik pog‘onada** joylashgani holda, ijtimoiy geografiyaning sinonimi hisoblanadi; sotsial (ijtimoiy) geografiya tarkibiga iqtisodiy geografiya ham kiradi.

To‘rtinchi yo‘nalishga mansub fikrga ko‘ra, sotsial geografiyani barcha ijtimoiy munosabatlarni qamrab olgan fan sifatida tushunish mumkin. Bu yerda “sotsial” va “ijtimoiy” tushunchalari o‘zaro mos va ular o‘zaro sinonimdir. Demak, bularga ko‘ra sotsial geografiya (ijtimoiy geografiya) boshqa sotsial geografik tarmoqlar (aholi geografiyasi, siyosiy geografiya, harbiy geografiya, tarixiy

geografiya va boshqalardan tashqari iqtisodiy geografiya)ni ham qamrab oladi. N.N.Baranskiy ham sotsial geografiyani shunday keng ma’noda tushungan va bunday tushunish mahalliy olimlarga (Soliyev A., Ota-Mirzayev O. va boshqalar) ham xos.

Hozirgi vaqtda ko‘pchilik mualliflar tomonidan sotsial geografiya terminini bir vaqtning o‘zida tor va keng ma’noda tushunishning zarurati tug‘ildi. U.Merestening fanlarni integratsiyalashuvi konsepsiyasi bo‘yicha, ijtimoiy geografiya sotsial geografiyaning sinonimidir. Sotsial geografiya – barcha ijtimoiy obyektlar va ular o‘rtasidagi sotsial va geografik munosabatlarni qamrab olgan sotsial geografik tizimlarni o‘rganadi.

Falsafiy jihatdan tahlil qilinganda, agarda inson va uning turmush tarzi, mehnat qilishi, bilim va dam olishi, sog‘lig‘ini tiklashi, o‘y-xayollari, urf-odatlari bilan bog‘liq yoki bir so‘z bilan aytganda, keng ma’nodagi ijtimoiy voqea-hodisalar makon va zamonda mavjud ekan, o‘z navbatida ularni vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishining hududiy qonuniyatlarini o‘rganish zaruriyatining tug‘ilishi tabiiy va ushbu masala, fanlar mantiqiga ko‘ra, avvalo, geografiya fanining tadqiqot obyekti doirasi-ga kiradi, aniqrog‘i u bilan sotsial geografiyaning shug‘ullanishi maqsad-ga muvofiqdir (Nazarov M., Tojiyeva Z. Ijtimoiy geografiya, 2003).

Sotsial yoki tor ma’nodagi ijtimoiy geografiyaning O‘zbekistonda shakllanishi va rivojlanishiga mahalliy olimlar, xususan A.Soliyev, I.Nazarov, Z.Tojiyeva, N.Komilovalar o‘z hissalarini qo‘shdilar. Jumladan, professor A.S.Soliyev o‘tgan asrning so‘nggi o‘n yilligida e’lon qilingan qator risola va o‘quv qo‘llanmalarida an’anaviy iqtisodiy geografiyaning rivojlanish yo‘nalishlarini ochib bergan va shu o‘rinda mazkur fanning sotsiallashuvi (ijtimoiylashuvi)ga alohida urg‘u bergan. Shuningdek, A.S.Soliyev ayrim hollarda

“sotsial” tushunchasi “ijtimoiy” tushunchasiga *to‘la mos kelmasligi*ni ta’kidlab, birinchi atamaning ham ba’zan ishlatilishini maqsadga muvofiq, deb biladi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda sotsial geografiyaga bag‘ishlangan qator ishlar amalga oshirildi. A.S.Soliyev rahbarligida M.Nazarov tomonidan aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish muammolari bo‘yicha yoqlangan dissertatsiya (1996) an’anaviy iqtisodiy geografiyadan sotsial geografiya tomon muhim bir qadam bo‘ldi. Buning davomi sifatida keyinchalik fan, va ilmiy tadqiqotlar geografiyasi (X.Nazarova, 1997), tibbiyot geografiyasi (N.Komilova, 1999; 2012), jinoyatchilik geografiyasi (A.Qayumov, 2006) bo‘yicha dissertatsiyalari yoqlandi. Keyinroq tibbiyot geogra-fiyasiga daxldor yana bir nechta dissertatsiya himoya qilindi.

Shunday qilib, sotsial geografiya (keng ma’noda) – bu geografiya fanlari va ijtimoiy fanlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarida vujudga kelayotgan geografiya fanlari tizimidan iborat. Hozirgi davrda ushbu tizimda fanlarning uyg‘unlashuvi (sintezi) ro‘y bermoqda va sotsial ijtimoiy geografiyaning umumiy nazariyasi tez shakllanmoqda. Demak, sotsial geografiya shakllanish bosqichini boshidan kechirmoqda va shuning uchun ham uning mustaqilligi va bir butunligi istiqbolidan dalolat beradi.

Sotsial geografiyaning mustaqilligi, birinchi navbatda, mazkur fan nazariyasini vujudga keltirilishi bilan va ikkinchidan, uning atrofida integratsiyalashgan turli fanlarning shakllanishi bilan ta’minlanadi.

Sobiq Ittifoq davridan boshlab ijtimoiy geografiya uch asosiy yo‘nalishda rivojlanmoqda. Birinchisi, bu ushbu fanning hozirga qadar shakllangan bo‘limlarining (aholi geografiyasi, geodemografiya, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari geografiyasi va ijtimoiy infrastruktura) rivojlanishining davom etishi. Ikkinchi yo‘nalish yangi shakllanayotgan bo‘limlarni o‘z ichiga oladi. Bularga tez rivojlanayotgan rekreatsiya geografiyasini, turmush tarzi geografiyasi, madaniyat

gsografiyasi va boshqalar mansub. Uchinchisi, sekinlik bilan bo‘lsada, ijtimoiy geografiyaning umumiy nazariyasining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq.

Sotsial geografiyaning muhim vazifalariga quyidagilar kiradi:

1) ijtimoiy geografiya tarmoqlarini rivojlantirish, ya’ni aholi geografiyasi va joylashuvi, xizmat ko‘rsatish sohalari, iste’mol, rekreatsiya va boshqalar;

2) yirik masshtabli sotsial geografik tadqiqotlarni olib borish;

3) ijtimoiy geografiyaning xorijiy mamlakatlarda rivojlanishini o‘rganish;

4) ijtimoiy geografiyaning barcha yo‘nalishlariga tegishli bo‘lgan o‘ziga xos vazifasi, ya’ni ilmiy tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga tatbiq etishini kuchaytirish.

Hozirgi davrda sotsial geografiya shakllanish jarayonini boshidan kechirmoqda. Shu sababdan, aynan shu davrga xos bo‘lgan eng dolzarb muammolar jumlasiga quyidagilar kiritiladi:

a) ijtimoiy-geografik rayonlashtirish (prinsiplari, mezonlari, ko‘rsatkichlar tizimi, tadqiqot usullari, iqtisodiy va boshqa turdagi rayonlashtirish turlari bilan nisbati);

b) aholining turmush tarzi va darajalaridagi, ijtimoiy tuzilmalar va ularning tadrijidagi, ijtimoiy sohalarni hududiy tashkil etishdagi rayonlararo tafovutlar);

c) umumlashtiruvchi va maxsus ijtimoiy-geografik tipologiyalar (geodemografik vaziyat, shaharlar va aholi joylashuvi tizimlari, qishloq joylar va boshqalar);

d) tibbiy-geografik tadqiqotlar va ularning dolzarbligini yetarlicha baholamaslik va h.k.

Mazkur muammolarning har biri ijtimoiy geografiyaning to‘la shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Sotsial geografiyaning obyekti va predmeti nima?

2. Sotsial geografiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rnini aniqlang.

3. Sotsial-geografik tadqiqotlar nimalarni o‘z ichiga oladi?

4. Sotsial geografiyani tarkibini tushuntiring.

5. Sotsial sohalarni hududiy tashkil etish deganda nimani tushunasiz?

6. Sotsiallashuv jarayonini tushuntiring.

7. Sotsial geografiya sohasidagi yirik olimlarni sanab bering.

8. Sotsial sohalar bilan bog‘liq muassasalar joylashuviga qanday omillar ta’sir qiladi?

9. Sotsial geografiya rivojiga hissa qo‘shgan o‘zbek olimlari kimlar?

10. Sotsial geografiya rivojiga hissa qo‘shgan rus olimlarini ko‘rsating.

## 17- BOB. TIBBIYOT GEOGRAFIYASI

Reja:

17.1. Tibbiyot tizimi – tibbiyot geografiyasining tadqiqot obyekti sifatida.

17.2. Tibbiyot geografiyasining fanlar tizimida tutgan o‘rni. Tadqiqot obyekti va predmeti. Boshqa fanlar bilan aloqasi.

17.3. Zamonaviy tibbiyot tizimining tuzilishi va rivojlanishi.

17.4. Nozogeografiya.

17.5. Aholining tibbiy xizmatga bo‘lgan ehtiyojlari, uning turlari va qondirilishi darajasi.

Tibbiyot geografiyasi geografiya hamda tibbiyot fanlari oralig‘ida vujudga kelgan fandir. Uning rivojlanishi bilan iqtisodiy geografiyaning ijtimoiylashuvi jarayonlari yanada jadallashdi. Bularning natijasi o‘laroq, tibbiyot geografiyasi zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning sotsial qanotidan o‘rin olib, uni yanada rivojlantirdi.

**Tibbiyot geografiyasi** – inson salomatligi va turli kasaliklarning vujudga kelishiga ta’sir etuvchi omil va sharoitlar, ularning mamlakat hamda rayonlarda tarqalish qonuniyatlari va xususiyatlarini o‘rganadi.

Ko‘pchilik olimlar tibbiyot geografiyasini mustaqil fan tarmog‘i sifatida vujudga kelish vaqtini XIX asrning o‘rtalari deb hisoblaydilar. Shu davrdan boshlab, to hozirga qadar tibbiyot geografiyasining tadqiqot obyekti va predmeti borasida olimlar tomonidan turli-tuman fikrlar bildirildi va mazkur fanning predmeti muttasil takomillashib bordi.

Tibbiyot geografiyasining obyekti ko‘p qirrali va murakkab bo‘lishi bilan birga, u o‘z ichiga aholining salomatligi va uning o‘zgarishlarini, kasalliklar hamda sog‘liqni saqlash sohasini qamrab oladi.

Tibbiyot geografiyasining ko‘pchilikka tushunarli bo‘lgan ta’rifi A.A.Keller tomonidan berilgan: “Tibbiyot geografiyasi, geografik muhitning kompleks tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillarini aholining salomatlik holatiga, inson kasalliklarining vujudga kelishi va tarqalishiga ta’siri qonuniyatlarini o‘rganadi”.

Tibbiyot geografiyasining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqalari juda keng va xilma-xildir. U, avvalo, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning aholi geografiyasi bilan chambarchas bog‘langan, shuningdek, demografiya, sotsiologiya, kartografiya, mamlakatshunoslik, etnografiya, sotsial statistika, landshaftshunoslik, iqlimshunoslik, ekologiya, biogeografiya, sotsial ekologiya, epidemiologiya, parazitologiya, sotsial gigiyena va sog‘liqni saqlashni tashkil etish, kurortologiya, zoogeografiya kabi fanlar bilan mustahkam bog‘liq.

Tibbiyot geografiyasining mustaqil fan sifatida tanilishi (garchi ko‘pchilik olimlar tomonidan XIX asrning o‘rtalari, deb hisoblansa-da), tibbiy-geografik tadqiqotlarga oid masalalar qadimgi Sharq va G‘arb olimlarining (Ibn Sino, Gippokrat) asarlarida yoritilgan. Ammo, hozirgi tushunishdagi tibbiyot geografisiga oid bo‘lgan dastlabki yirik tadqiqot –

“Обобщениевсеобщеймедицинскойпрактическойгеографии” – nemis olimi Finke tomonidan 1792-yilda amalga oshirilgan. Bunda, u tibbiyot geografiyasini “Joyning aholi salomatligi va kasalliklariga ta’sirini o‘rganuvchi fan”, deb hisobladi.

Tibbiyot geografiyasining rivojlanishiga xorijiy olimlardan Finke, Shnurrer, Buden, Rayt, Girsh, Fuks, Mey, Masako, Ratwel, Stemp, Bojyo-Garne, Layt va boshqalar o‘z hissalarini qo‘shdilar.

XX asr boshlariga qadar Rossiyada tibbiyot geografiyasining nazariy va amaliy masalalari P.Z.Kondoidi, N.I.Toropov, N.I.Pirogov, I.M.Sechenov, S.P.Botkin, I.P.Pavlov, E.X.Ikavitts, N.I.Litunovskiy, A.F.Zmeyev, P.I.Preobrajenskiy, D.V.Mertsalov, K.P.Andreyev, P.A.Bursev, N.A.Korjavin, K.S.Morkotun, S.P.Lovsov, G.I.Arxangelskiy, P.A.Peskov, I.A.Peskov, N.I.Avgustovkiy, P.I.Shmakov, A.A.Bunge, Ye.V.Bek, V.L.Yakimovlarning ishlarida yoritilgan. Binobarin, B.B.Proxorov tomonidan Baykal-Amur magistrali qurilishi zonasi miqyosida ilk bor doktorlik dissertatsiyasi darajasidagi tibbiy-geografik tadqiqot amalga oshirilgan.

O‘zbekistonda esa aholining salomatligi, kasalliklar hamda sog‘liqni saqlash masalalari bevosita tibbiyot nuqtai nazaridan bajarilgan ishlar mavjud. O‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab, O‘zbekiston va uning ayrim regionlari bo‘yicha tibbiyot muassasalarini hududiy tashkil etish masalalari M.I.Nazarov (1996), nozogeografik vaziyat esa N.Komilovalar (1999) tomonidon ilk bor o‘rganilgan. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston FA Geografiya bo‘limi tomonidan 90-yillarda respublikaning tibbiy-geografik atlasiga oid ishlar olib borilgan edi.

Shuningdek, mamlakatimizda tibbiyot geografiyasi bo‘yicha 2 ta doktorlik dissertatsiyasi himoya qilinganligini alohida ta’kidlash joiz. Bular, N.Komilovaning “O‘zbekiston tibbiy geografik sharoitining hududiy tahlili va aholi salomatligi muammolari” (2012-y.) va I.Turdimambetovning

“Qoraqalpog‘iston Respublikasi nozogeografik vaziyatini yaxshilashning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari” (2016-y.) mavzuidagi doktorlik dissertatsiyalari. Ushbu tadqiqotlarning yaqin o‘tmishda amalga oshirilganligi respublikada tibbiyot geografiyasining jadal rivojlanib borayotganini bildiradi.

Tibbiyot geografiyasining predmeti turli davrlarda olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Bunda, ko‘pchilik tadqiqotchilar tabiiy geografik, ijtimoiy-iqtisodly omillarga katta ahamiyat bergan holda, tibbiyot geografiyasini geografiya fanlari qatoriga qo‘shsa (E.I.Ignatyev, Y.P.Pavlovskiy, B.B.Proxorov, Y.L.Rayx), boshqalari tibbiy omillarning ustuvorligini ta’kidlab, tibbiyot geografiyasini tibbiyot fanining bir tarmog‘i, deb biladilar (D.K.Zabolotniy, A.I.Sisgin va b.).

Tibbiyot geografiyasining mohiyati va vazifalarini ilk bor o‘rgangan N.I.Toropov (1864): “Har qanday kasallikni yer yuzasi bo‘yicha tarqalishi masalalarini tibbiyot geografiyasi o‘rganadi”, deb ta’kidlagan. E.Ikavitts esa, (1885) “Yer sharining turli mamlakatlari va xalqlari orasida hayot va o‘lim, salomatlik va kasalliklarning turli-tuman hodisalari tibbiyot geografiyasining predmetidir” degan xulosani bildiradi. Shuningdek, ba’zi bir olimlar, jumladan, D.K.Zabolotniy: “Tibbiyot geografiyasi tibbiyotning bir tarmog‘i sifatida yer yuzida turli kasalliklarning tarqalishini o‘rganuvchi fan”, deb tibbiy omillarni ustun qo‘ysa, Y.I.Ignatyev “Tibbiyot geografiyasi geografik muhitning inson tanasiga ta’sirini o‘rganuvchi geografiyaning bir tarmog‘idir”, deb ta’kidlaydi. Y.P.Pavlovskiy (1955, -89 b.) ham geografiya fanining muhim tarmog‘i bo‘lgan tibbiyot geografiyasi “yer yuzida inson kasalliklarining tarqalishi sabablarini o‘rganadi” deb masalaninig geografik jihatlariga katta e’tibor qaratadi.

Tibbiyot geografiyasining hozirgi rivojlanish bosqichida olimlar tomonidan uning nozogeografiya, salomatlik geografiyasi va sog‘liqni saqlash geografiyasi kabi bo‘limlari ajratiladi. Shuningdek, V.P.Byakov va Y.I.Veselovlar Sobiq sovet tibbiyot geografiyasining quyidagi asosiy yo‘nalishlarini ham ajratadilar:

— tabiiy va sotsial-iqtisodiy omillarni tibbiy-geografik baholash;

— tibbiyot landshaftshunosligi;

— tibbiyot mamlakatshunosligi;

— nozogeografiya (inson kasalliklari geografiyasi);

— tibbiyot kartografiyasi.

Tibbiyot geografiyasining nazariy-metodologik va amaliy masalalarini o‘rganishda sobiq Ittifoq olimlarining xizmatlarini ta’kidlash lozim. Jumladan, Y.N.Pavlovskiyning kasalliklarni tabiiy o‘choqlari va landshaft epidemiologiyasi g‘oyalari va ishlanmalari sobiq Ittifoq tibbiyot geografiyasining fundamental asoslaridan biridir. A.A.Shoshin va boshqa mualliflar tomonidan esa, tibbiy geografiyaning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqildi.

Zamonaviy tibbiy-geografik tadqiqotlarga, avvalo, mazkur fanga doir nazariy-metodologik tadqiqotlarning tez rivojlanishi; tibbiy-geografik tadqiqotlar natijalarining amaliyotda qo‘llanishini kuchaytirish; mintaqaviy tibbiy-geografik tadqiqotlarni avj olishi hamda tibbiyot kartografiyasini tez rivojlanayotganligi xosdir.

Hozirgi tibbiy-geografik tadqiqotlarda rayonlashtirish masalalari tobora ko‘proq amalga oshirilmoqda. Binobarin, uning ilmiy asoslari, tamoyillari A.A.Keller tomonidan 1962-yildayoq ishlab chiqilgan edi. Chunonchi, tibbiy-geografik rayonlashtirish bu kompleks tadqiqotlarning natijasi bo‘lib, aholini salomatlik holati, tabiiy va sotsial-iqtisodiy shart-sharoitlarni inson salomatligiga ta’siri, inson kasalliklarini vujudga kelishi va tarqalishi jarayonlarini qamrab oladi.

Tibbiy-geografik tadqiqotlar va ularga bo‘lgan amaliy talab-ehtiyojlar hozirda tibbiyot geografiyasi oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- tabiiy sharoit (omillar) yoki ularning majmualarini aholi salomatligiga ta’sirini o‘rganish;

- kompleks tabiiy va ijtimoiy iqtisodiy omillarning inson kasalliklarini vujudga kelishi va tarqalishidagi rolini aniqlash;
- landshaftlar va alohida olingan davlatlarda inson kasalliklarini vujudga kelishi va tarqalishi qonuniyatlarini aniqlash;
- tibbiy-geografik ishlanmalarni amaliy tatbiqi masalalarini kuchaytirish.

Tabiatda turli xil landshaft ko‘rinishlari quruqlik va suvliklar, sahro va o‘rmonlar, tog‘ va tekisliklar mavjud bo‘lib, ularning barchasida insonlar o‘ziga xos faoliyat ko‘rsatadilar. Har bir landshaft doirasida tashqi muhit omillarining u yoki bu turi inson jismiga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi.

Abu Ali ibn Sino ham kasalliklarning kelib chiqishi sabablarini aniqlashda va davolashda tashqi muhitdagi sharoitning (iqlim, ob-havo, turarjoy, ovqatlanish) ta’siriga alohida e’tibor qaratgan edi.

O‘rta Osiyo hududida yashab ijod qilgan mashhur tabiblar, jumladan, Abu Bakir ar-Roziy asarlarida kishilarda uchraydigan kasalliklarning aksariyat qismi uning yashash joyi bilan bog‘liqligi qayd etilgan. U, hatto, kasalxonalar qurilishida joyning iqlimi, joylashgan o‘rni kabi jihatlarga e’tibor berish zarurligini ta’kidlagan. Shuningdek, tibbiyot ilmining asoschisi Gippokrat o‘z asarlarida turli makon va manzillarda yashovchi kishilar salomatligini baholashda mazkur joyning iqlimi, suv va tuproq tarkibi, o‘simlik va hayvonot dunyosi kata ahamiyat kasb etishini alohida izohlab o‘tgan. Olimning ta’kidlashicha, inson umumiy tabiat olamining bir qismi bo‘lib, uning tashqi tuzilishi va ichki ruhiyatini shu tabiat shakllantiradi. Bu haqda Gippokrat shunday deb yozgan edi. “Odam jismining tabiatini tashqi muhit belgilaydi. Jamiyat esa o‘z qonun-qoidalari bilan odam tabiatini o‘zgartirishi mumkin”.

Shunga o‘xshash fikrlar vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy tomonidan ham ilgari surilgan. Uning yozishicha “Odamlar tuzulishlarining rangi, surati, tabiat va

ahloqi turlicha bo‘lishi faqatgina nasablarning turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning, kishilar yashaydigan joylarning turlichaligidan hamdir”.

Inson salomatligi va ular orasida uchraydigan kasalliklar hududiy tafovutlarga ega. XVIII asrda yashab ijod qilgan fransuz olimi Sharl Monteskye o‘zining “Qonunlar ruhi to‘g‘risida” nomli asarida “Iqlimning hukumronligi barcha kuchlardan ustunroqdir”, degan shiorni olg‘a surgan edi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlaridayoq tibbiyot meteorologiyasi sohasida rus iqlimshunoslari A.I.Voyeykov, A.P.Sokolov, A.A.Kaminskiy kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Ayniqsa, bu xususda tibbiyot geografiyasida iqlim bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishda rus olimi A.S.Berg tomonidan ishlab chiqilgan, iqlimning sinflarga ajratilgan tavsifi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Olim tibbiy geografik jihatdan mamlakat iqlimini 12 ta tabaqaga ajratgan. U iqlim va ob-havoni sinflarga ajratish orqali salomatlikning hududiy jihatlarini o‘rganishga ham e’tibor bergan. Ob-havoning iqlimga nisbatan inson jismiga ta’sirini sezilarli, ya’ni ob-havoning tez-tez o‘zgarib turishi bilan inson jismida ma’lum ma’noda o‘zgarishlar sodir bo‘lib turadi, ayniqsa, buni ba’zi a’zolarimiz juda tez sezadi. Shuningdek, ob-havodagi ayrim jiddiy o‘zgarishlarni ba’zi kasalliklarga (bod, radikulit, revmatizm, qon bosimi xastaliklari)ga chalingan kishilar ancha oldinroq payqaydilar.

Inson kasalliklarining kelib chiqishi va tarqalishida yoki nozokomplekslar va nozoareallarning vujudga kelishida kasalliklarning rivojlanishi bilan atrof-muhit omillari orasida uzviy aloqadorlik mavjud. Bunda atrof-muhitning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarini yetakchi rolini alohida ta’kidlash lozim.

Inson kasalliklari va uning turlicha nozokomplekslari va nozoareal-larining vujudga kelishi va tadrijiy o‘zgarishlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga quyidagilar kiradi:

**Tabiiy-geografik omillar** (iqlim, yer yuzasi tuzilishi, suv manbalari va tuproq, hayvoiot va o‘simliklar, regionning ekologik ahvoli) inson kasalliklarini vujudga kelishiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ular kasalliklarni hududiy tarqalishini belgilab, nozoareallarning vujudga kelishida katta rol o‘ynaydi.

**Ijtimoiy-iqtisodiy omillar** (sog‘liqni saqlash tizimining holati, aholining joylashuvi, zichligi, jins-yosh va ijtimoiy tarkibi, ma’lutmotlilik darajasi, ko‘chib yurishi, yashash va mehnat sharoitlari, shahar va qishloqlar to‘ri va tizimi, transportning rivojlanganlik darajasi, urbanizatsiya jarayonlari, hududning xo‘jalik ixtisoslashuvi, ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi va rivojlanish darajasi, ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturasining holati va boshqalar)ning inson kasalliklarini kelib chiqishi va nozoareallarini vujudga kelishidagi ta’siri kuchayib bormoqda.

Nozoareallar miqyosida aholinnig kasallanishi darajasi va kasalliklarning tarqalishida tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillarning rolini aniqlash zamonaviy tibbiy-geografik tadqiqotlarning dolzarb muammolaridan biridir.

Joylarning relyef xususiyatlari ham inson salomatligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Baland tog‘ mitnaqalarida o‘z nomi “tog‘ kasalligi” deb ataluvchi kasallik keng tarqalgan. Tog‘ kasalligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ispan sayyohi Akosta tomonidan yozib qoldirilgan. Uning yozishicha, 1590-yil And tog‘lari bo‘ylab sayohat chog‘ida 4500 metr dengiz sathidan balandlikda hamrohlari orasida qandaydir kasallik yuzaga kelganligi, ularning yurak urishlari o‘zgarib, bosh aylanish, nafas siqishi, burunlarining qonashi, quloqlarining shang‘ilashi kabi holatlar kuzatiladi. Bu tog‘ kasalligi bo‘lib, 1887-yil fransuz olimi Bert tomonidan aniqlangan va bu kasallikning bosh sababchi kislorod yetishmasligi deb izohlangan. Keyingi yillarda tog‘larda yashovchi kishilarning yurak faoliyatini o‘rganish natijasida ushbu hududda yashovchilar yuragi boshqa

hududdagilarga nisbatan ancha farq qilishi, ya'ni ularning yurak o'ng qorinchalarining qalinligi aniqlangan. Tog'li o'lkalarda yashovchi kishilar orasida yana quyosh urishi, oftalmiya, endemik buqoq kabi kasalliklar ko'proq uchraydi.

Dengiz va boshqa suv havzalarida faoliyat ko'rsatuvchi kishilar orasida ko'pincha "dengiz kasalligi" uchraydi. Ushbu kasallik kemaning chayqalishi natijasida yuzaga keladi. Dengiz kasalligining kelib chiqishi va rivojlanishida asab tizimining holati muhim rol o'ynaydi.

O'rmon, tayga hududlarida ham o'z nomi bilan "o'rmon kasalligi" deb nomlanuvchi kasallik uchraydi. Bu kasallikda kishi jismida har xil ruhiy holatlar, karaxtlik, tinimsiz uyqu, chivinlar va kanalar chaqishi bilan bog'liq kasalliklar ko'p uchraydi.

Cho'l va unga yaqin hududlarda havo harorati va bug'lanish yuqoriligi, nisbiy namlik esa past bo'ladi. Aslida inson organizmi uchun +18, +21 gradusli havo harorati, 40-60 foizli nisbiy namlik qulay hisoblanadi. Doimiy yuqori harorat va namlikning me'yorda bo'lmasligi kishi tanasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu hol, o'z navbatida, asab va gormonal tizimlar bilan bog'liq kasalliklarni, shuningdek, qon-tomir tizimidagi kasalliklarni keltirib chiqaradi. Bunday cho'l sharoitida ko'proq holsizlanish, darmonsizlanish va o'ta tashnalik bilan ajralib turuvchi "cho'l kasalligi" ko'p uchraydi. Cho'l kasalligiga chalinish natijasida ruhiy xastaliklar ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, tropik mamlakatlar aholisi orasida astiniya kasalligi tarqalgan va uning vujudga kelishi mazkur mamlakatlarning tabiiy sharoiti bilan bevosita bog'liq.

Inson salomatligini belgilashda joylarning tuproq xususiyatlari ham yetakchi ahamiyatga ega. Chunki tuproq tarkibida kasallik tug'diruvchi bakteriyalar va mikrorganizmlar hayot kechiradi. Tuproq turli xil mikroorganizmlar uchun makon hisoblanadi. O'lat, tulyaremeya, gangrena singari ko'plab kasalliklarni tashuvchi infeksiyalar aynan tuproqda yashaydi. Mashhur tibbiy geograf Shaalya o'z

tadqiqotlarida salmonelezlarning vujudga kelishi va tarqalishini ko‘proq tuproq omili bilan bog‘laydi. Tuproqning ifloslanishi, o‘z navbatida, suvning, ham ifloslanishiga olib keladi. Tuproqdagi barcha mikroelementlar inson ogranizmiga suv orqali o‘tadi. Shuning uchun yirik aholi pukntlarida ichimlik suvi doimo xlor bilan tozalanadi. Ayrim hollarda endemik buqoq kasalligining yuzaga kelishi suvning tarkibidagi mikroelementlar bilan bog‘liq. A.P.Vinogradov tadqiqotlaridan ma’lumki, inson organizmi bir kecha kunduzda 120 gramm yod qabul qilishi kerak. Buning 70 grami o‘simlik mahsulotlaridan, 40 gramini esa hayvon mahsulotlaridan olinishi lozim. Demak, inson yodni asosiy qismini o‘simliklardan oladi. Yod moddasini esa o‘simliklar suv orqali tuproqdan oladi. A.P.Vinogradov nazariyasiga ko‘ra, tog‘ va kulrang tuproqlarda yod tanqisligi mavjud.

**Nozogeografiya.** Tibbiyot geografiyasining asoslarini yaratishga katta hissa qo‘shgan yirik olim A.A.Shoshin nozogeografiya, ya’ni inson kasalliklari geografiyasini tibbiyot geografiyasining tarkibiy qismlaridan biri ekanligini ta’kidlagan.

Tibbiyot geografiyasi vujudga kelgan davridan boshlab, to hozirga qadar bajarilgan tibbiy-geografik tadqiqotlarning aksariyatini bevosita nozogeografiya bilan tushuntirish ham yetarli bo‘lmaydi. Vaholanki, “Nozogeografiyaning asosiy vazifasi inson kasalliklari geografik tarqalishining umumiy qonuniyatlarini ochib berish, alohida olingan kasalliklarning nozokomplekslari va nozoareallarini hamda ularning tadrijiy o‘zgarishlarini aniqlash bilan belgilanadi. Demak, shunday qilib, tadqiqot obyektining o‘ziga xosligiga bog‘liq holda, nozogeografiya tibbiyot geografiyasining mustaqil bo‘limi hisoblanadi” (Shoshin, 1962.-83 b.).

Umuman olganda, tibbiyot geografiyasi aholi va uning salomatlik holati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha geografik jarayon va qonuniyatlarni o‘rganar ekan, bunda u, eng avvalo, geografik muhitning aholi salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi kompleks tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillariga asosiy e’tiborni qaratadi. Ular

orasida, ayniqsa, iqlim va atrof-muhitning aholi salomatligiga ta'siri, kasalliklarning tarqalishi, aholining joylashuvi, mehnat va turmush sharoitlari, urbanizatsiya jarayonlari, regionning xo'jalik ixtisoslashuvi xususiyatlari, sog'liqni saqlash sohasini rivojlanganlik darajasi juda muhimdir. Hozirgi davrda, ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga mansub omillarning ahamiyati ortib bormoqda. Binobarin, tibbiy-geografik tadqiqotlarning muhim ilmiy-amaliy natijasi hisoblangan tibbiy-geografik atlaslar qishloq joylarda sog'liqni saqlashning holati va rivojlanishi masalalari bo'yicha A.P.Ayriyan tomonidan Armanistonda, F.G.Grigoryev tomonidan esa Chuvashiyada (1976-y.) chop etilgan.

Nozogeografiyaning mohiyati va vazifalarini tushuntirishda kasallik-ning o'zi, kelib chiqish sabablari haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish lozim. Bu borada ko'pgina tadqiqotlarni amalga oshirgan olimlarning (I.Sechenov, S.Botkin, Anichkov, Petrov, I.Pavlov) fikricha, insonning kasallanishi, avvalo, o'ziga xos biologik jarayon bo'lib, insonni atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirida uning hayot faoliyatini buzilishi yoki butunlay to'xtashi bilan bog'liqdir.

Inson kasalliklari turli-tuman bo'lishi bilan birga, ularni keltirib chiqaruvchi sabablar ham turlichadir. Shu jihatdan, ularni o'rganish va bu boradagi bilimlarga ega bo'lish kasalliklarning tarqalishini bartaraf etishda katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Avvalambor, inson kasalliklarining kelib chiqish sabablarini o'rganish juda muhim masalalardan biridir. Ammo, shu bilan birga, kasalliklarning hududiy tarqalishi qonuniyatlarini ochib berish kelajakda paydo bo'lishi (tarqalishi) mumkin bo'lgan kasalliklar areallarini aniqlash ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Inson kasalliklarining kelib chiqishi obyektiv omillar bilan chambarchas bokliq. Bunda, eng avvalo, insonni o'rab olgan atrof-muhitning bosh rolini alohida ta'kidlash kerak. Binobarin, Y.N.Pavlovskiyning parazitar (yuqumli)

kasalliklarning tabiiy o‘choqlari haqidagi g‘oyasi (bilimlari) bir qator inson va hayvon kasalliklarining geografik tarqalishi va evolutsiyasi haqida ilmiy asoslangan xulosalar olish imkonini berdi.

Nozogeografik tadqiqotlarda nafaqat kasalliklarning kelib chiqishi yoki ularning tarqalishi qonuniyatlari, balki nozokomplekslar, nozoareallarni aniqlash, tadqiq etish muhim masalalardan biridir. Ammo amalda bunday nozoareallar, ayniqsa, nozokomplekslarni aniqlash murakkab va tadqiqotchidan chuqur epidemiologik bilimlarni ham talab qiladi.

Nozokompleksni bir qator bo‘g‘inlarni (komponentlarni) o‘z ichiga olgan bir butun tizim sifatida tushunilishi mumkin. Ushbu bo‘g‘inlarning har biri o‘zaro bevosita aloqadorlikka ega. Ulardan birortasining o‘zgarishi darhol boshqasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Inson kasalliklaridan birortasiga mansub bo‘lgan nozokompleks bir tomondan, kasallikni vujudga keltiruvchi (chaqiruvchi) shart-sharoitlarni va ikkinchi tomondan, aynan shu kasallikni qabul qilishga moyil organizmni o‘z ichiga qamrab oladi. Jumladan, endemik buqoqqa xos bo‘lgan nozokompleks, eng avvalo, ushbu kasallikka moyil bo‘lgan inson organizmi hamda suv va oziq-ovqat mahsulotlarida yod moddasini yetishmasligini o‘z ichiga oladi. Nozokomplekslarni, ayniqsa, yuqumli kasalliklar bo‘yicha ko‘plab ajratish mumkin.

Nozokomplekslarning komponentlari va ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik sodda (inson-suv yoki oziq-ovqatda yodning yetishmasligi) yoki murakkab (atrof-muhitning ikki, uch va undan ortiq komponentlari va inson organizmi) ko‘rinish (tur)larga ega. Murakkab nozokomplekslarga, ko‘pincha, inson parazitar kasalliklari bilan bog‘liq bo‘lgan (bezgak, leyshmanioz, kana entsefaliti va b.)larni kiritish mumkin. Muayyan hudud doirasidagi turlicha nozokomplekslar, bevosita inson kasalliklari bilan aloqador bo‘lgan nozogeografik vaziyatning u yoki bu holatini belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

Nozogeografik vaziyatning bosh mezonlari va ko‘rsatkichlariga aholining o‘rtacha umr ko‘rishi, umumiy va bolalar o‘limi darajasi, aholining kasallanishi, turli mamlakat va rayonlardagi ekologik, sanitariya-gigiyena va epidemiologik holatlar kiradi (A.Soliyev, N.Komilova, 1999.-12b.).

Zamonaviy nozogeografik tadqiqotlarni kasaliklarning nozoareallarini (tarqalish hududlarini) o‘rganmasdan tasavvur qilib bo‘lmaydi. Demak, nozoareal – bu aholi orasida muayyan bir kasallik turi hisobga olinayotgan yoki paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan hududni o‘z ichiga oladi. Ularning vujudga kelishi, maydoni, chegaralari tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sirida turlicha shakllanadi.

Alohida olingan inson kasalliklari nozoareallarining tadrijiy o‘zgarishlarini tadqiq etish natijasida ularning vujudga kelishi sabablari o‘rganilib, tarqalishi mumkin bo‘lgan hududlar aniqlanadi. Bu esa, kasalliklarning avvaldan qachon va qayerda paydo bo‘lishini bilishda va ularga qarshi tibbiy chora-tadbirlarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Turlicha inson kasalliklarining nozoareallarini o‘zaro hamda atrof-muhit omillari va shart-sharoitlari bilan taqqoslash, o‘z navbatida, ularning vujudga kelishi, hozirgi holati va kelgusidagi o‘zgarishlari qonuniyatlari haqida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Tibbiyot geografiyasining o‘rganish obyekti va predmeti nima?
2. Tibbiyot geografiyasining geografiya fanlari tizimida tutgan o‘rnini tushuntiring.
3. Nozogeografik vaziyat nima?
4. Aholining salomatlik holatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni sanab bering?

5. Relyef xususiyatlari bilan bog‘liq kelib chiqadigan kasalliklarni tushuntiring?

## 18- BOB. SIYOSIY GEOGRAFIYA

Reja:

18.1. Siyosiy geografiya, uning obyekti va predmeti.

18.2. Siyosiy geografiyaning Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanlari tizimidagi o‘rni va aloqalari.

18.3. Siyosiy geografiyaning shakllanishi va unda g‘arb olimlarining xizmatlari.

18.4. Siyosiy geografiyaning tuzilishi. Siyosiy geografiya va geosiyosat.

**Siyosiy geografiya** turli geografik makondagi siyosiy tashkilotlar va ularning hududiy tarkibini o‘ganishga asoslangan ta’limotidir. Olimlar siyosiy geografiyani 3 miqyosda o‘rganishadi: xalqaro, regional yoki davlat miqyosi va lokal miqyos.

Davlat miqyosidan yuqorida siyosiy geograflar ko‘plab davlatlarni qamrab oladigan Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi tashkilotlarni ham o‘rganishlari mumkin. Davlat miqyosida esa olimlar davlat boshqaruv usulining qanday tashkil etilganligini ko‘rib chiqishadi. Davlat miqyosidan pastdagisida geograflar, masalan, saylov okruglari chegaralarini o‘rganishlari mumkin. Siyosiy geograflar, shuningdek, dunyo siyosiy jarayonlarida davlatlar rolining o‘zgarishini ham o‘rganishadi*.

**Siyosiy geografiya** hozirgi bosqichda:

*Dr Christion Sawyer ap Human geography crash course. Printed in the United States of America. Green Edition. - 2012.195-P. 244.

- dunyodagi mamlakatlarning davlat va jamiyat qurilishining bosh belgilari va xususiyatlari, mamlakatlarning ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari;
- mamlakatlarning siyosiy-geografik, ya’ni (geostrategik) mikro, mezo va makro holati, davlat chegaralarining, hududiy tarkibining shakllanish bosqichlari;
- mamlakatlar aholisining milliy, ijtimoiy-siyosiy-iqtisodiy hayotdagi roli va o‘rnini;
- mamlakatlarning jahon hamjamiyatidagi, xalqaro siyosiy, iqtisodiy va nodavlat tashkilotlardagi o‘rni, mamlakatlarning siyosiy maqsadlari va xalqaro munosabatlar tizimidagi ishtirokini tadqiq qiladi.

Siyosiy geografiya keng ma’nodagi ijtimoiy geografiyaning bir qismidir. U iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sotsial geografiya bilan bir qatorda o‘zining alohida blokini shakllantirmoqda. Ushbu blokka harbiy va elektoral (saylovlar) geografiyani ham kiritish mumkin. Mazkur fan yaqinda vujudga kelmagan bo‘lsa-da, MDH mamlakatlari shu jumladan bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanib borayotgan O‘zbekiston uchun ham yangi sanaladi. Ushbu fanning ayrim masalalari (masalan, siyosiy karta, davlatlarning siyosiy tuzimi va h.k.) iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning qator kurslarida ma’lum darajada yoritilgan bo‘lsa-da, u, maxsus kurs sifatida o‘qitilmagan.

Siyosiy geografiyaning tadqiqot obekti bo‘lib hududiy siyosiy tizimlar (sistemalar) xizmat qiladi. Uning predmeti esa muayyan mamlakat yoki butun jahon miqyosida jamiyatning siyosiy-hududiy tashkil etilishini o‘rganishdan iborat. Shuningdek, bu fan davlatlar va ularning chegaralari (limologiya), davlat tuzumi, ma’muriy-hududiy tuzilishi, mamlakat doirasida siyosiy partiya va kuchlarning joylashishi, hududiy tarkibini o‘rganadi. So‘nggi yillardagi jahon hamjamiyati va geosiyosiy tizimidagi muhim o‘zgarishlar hamda davlatlararo tashkil etilgan

harbiy-siyosiy uyushma yoki ittifoqlar siyosiy geografiya tadqiqot predmetini yanada kengaytirmoqda.

Mazkur fanning tarixi ham ancha uzoq. Agar keng ko‘lamda qaraydigan bo‘lsak, uning vujudga kelishi dastlabki davlatlarning paydo bo‘lishiga borib taqaladi, chunki siyosiy geografiya uchun davlat (demak, uning hududiy yaxlitligi, chegarasi, boshqarish tashkilotlari, harbiy va siyosiy kuchlari) asosiy mazmun kasb etadi.

Ammo siyosiy geografiyaning fan sifatida shakllanish tarixi uncha uzoq emas. Dastavval, “siyosiy geografiya” tushunchasi, ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, XVIII asrning 20-50-yillarida Peterburgda (Rossiyada) xizmatda bo‘lgan nemis olimlari G.V.Kraft va X.N.Vintsgeymlar tomonidan tilga olingan. Ular ushbu tushunchani geografiya fanining bir qismi, tarixiy geografiya va statistika (davlatshunoslik) bilan aloqadorligini ta’kidlashgan. Siyosiy geografiyani haqiqiy fan sifatida shakllanishini esa ko‘pchilik nemis geografi va sotsiologi Fridrix Fon Rattsel nomi bilan bog‘laydir. U 1898-yilda “Siyosiy geografiya” nomi bilan kitob nashr etganligi uchun siyosiy geografiyaning “otasi” deb tan olingan. Shu bilan birga Rattselning aynan mazkur asari tufayli shved olimi R.Chellen “geosiyosat” tushunchasini yaratdi.

Geosiyosat haqida mulohaza yuritishdan avval “geosiyosat” tushunchasi mazmun va mohiyati, ahamiyati, fan sifatida shakllanishi, o‘qitishning zarurati haqida ma’lumotga ega bo‘lish lozim. Bu fan orqali uning shakllanish bosqichlari asosiy kategoriyalari davlat kuch-qudratining shakllanishi, siyosat va geografiya fani orasidagi aloqadorlik haqidagi bilimlar egasi bo‘lamiz. Bu fanni o‘rganish jarayonida fanning rivojlanishiga, fan sifatida shakllanishida o‘zini ulkan hissasini qo‘shgan olimlar, siyosatchilar, geosiyosiy yo‘nalishlar, oqimlar geosiyosatning rivojlanishidagi asosiy paradigmalari to‘g‘risida ilmiy ma’lumotlar olamiz.

**Geosiyosat** – turli siyosiy jarayonlarning geografik sharoit (muhit) ga bog‘liq holda rivojlanishini o‘rganadigan fandir. XX asrda dunyo siyosiy kartasining tubdan o‘zgarishi, hududiy, ijtimoiy-ekologik va demografik muammolarning keskinlashuvi geosiyosat faniga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirib yubordi.

“Geosiyosat” fanini o‘rganish geografiya, tarix, demografiya, etnografiya, dinshunoslik, ekologiya, sotsiologiya, harbiy fanlar, siyosatshunoslik va boshqa fanlar bo‘yicha ham bilimlarga ega bo‘lishni taqozo etadi.

“Geosiyosat” fani siyosiy geografiya asosida shakllandi va rivojlandi. Siyosiy geografiya jahondagi davlatlarning turg‘un (statik) holatdagi tavsifini tuzish bilan shug‘ullanadi. Siyosiy geografiyani ko‘proq davlatlarning joylashishi, hududining shakli, o‘lchamlari, chegaralari, xo‘jaligi, aholisining savodxonlik darajasi, madaniyati qiziqtiradi.

“Geosiyosat” fani siyosiy jarayonlarning geografik makondagi o‘zaro aloqalarini, ularning yerga va madaniy omillarga ta’sirini o‘rganadi. Ushbu fan asosiy e’tiborini tabiiy muhit omillarni harbiy-siyosiy, iqtisodiy va ekologik xavfsilik maqsadlarida faol foydalanishga qaratadi.

Geosiyosat fanining o‘rganish obyekti: sayyoraviy (planetar) makon, geosiyosiy jarayonlar va hodisalardir. Sayyoraviy makonga quruqlik, suvlik (Dunyo okeani), havo qobig‘i, davlatlar va ularning resursdari kiradi.

Insoniyat tarixini geosiyosiy nuqtai nazardan geosiyosiy bosqichlarning yoki ma’lum bir kuchlarning navbatma-navbat almashinib kelishi sifatida qarash mumkin. Har bir geosiyosiy bosqich kuchlar muvozanatiga, ta’sir doirasiga va chegaralariga ega bo‘ladi.

Geosiyosiy bosqichlarning rivojlanish jarayonida **Vena geosiyosiy bosqichi** o‘ziga xos o‘rin egalladi. Bu bosqich Vena kongressining (1814-1815-yy.) tuzilishi bilan xarakterlanadi. Buning asosi sifatida geografik hududni nazoratda tutish tamoyili olingan.

Mazkur bosqichda jahon kuchlari markazi sifatida Rossiya va Avstriya-Vengriya imrperiyasi, Britaniya kolonial imperiyasi, Germaniya imperiyasi (1871-yildan), XIX asrning o‘rtalaridan jahon kuchlari markazi sifatida Fransiya o‘zini namoyon eta boshladi. 1877-yildan boshlab Turkiya sultoni “Usmonli turklar imperatori” maqomini qabul qildi.

Bu bosqichda yirik geosiyosiy markazlarning harbiy, siyosiy va boshqa ko‘rinishdagi nizolari, bir markazning rivojlanishi (AQSh, Germaniya) yoki, aksincha, parchalanishi, yoki ta’sir doirasining pasayishi (Rossiya, Ispaniya) kuzatiladi.

Bu bosqichdagi eng yirik siyosiy voqealardan biri ikkita yirik ittifoqning shakllanishi hisoblanadi. Birinchi ittifoq “Uchlik ittifoqi” hisoblanib, unga Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiya kirgan edi. ikkinchi ittifoq Atlanta hisoblanib, unga Fransiya, Angliya va Rossiya davlatlari birlashgan edi.

Uchlik ittifoqining birinchi jahon urushida (1914-1918) parchalanib ketishi **Versal geosiyosiy bosqichi**ning boshlanishi bilan xarakterlanadi va geopolitik kuchlar nisbatining tubdan o‘zgarishiga olib keldi. Kuchli siyosiy markaz bo‘lib hisoblangan Germaniya, Avstriya-Vengriya, Rossiya va Turkiya imperiyalari inqirozga yuz tutdi. Ushbu davlatlarning parchalanishidan paydo bo‘lgan nisbatan kichik davlatlarni Versal shartnomasining mualliflari o‘z ta’sir doiralariga kiritishni maqsad qilib oldilar. Versal shartnomasi siyosiy yetakchilikni quruqlikda Fransiyaga, dengizda esa Angliyaga tegishini ta’minlab berdi.

G‘olib davlatlar siyosatchilari nuqtai nazaridan Rossiya uchun Yevropada joy yo‘q edi. Versal shartnomasining ajralmas qismi hisoblangan Millatlar ligasi nomidan Germaniya va Turkiya imperiyalari koloniyalari g‘olib davlatlar tomonidan bo‘lib olindi. AQSh Prezidenti Vilsonning rejalariga ko‘ra, Rossiya davlati bir necha ta’sir doiralarga bo‘linishi kerak edi. Masalan, Kavkaz Turkiya imperiyasining bir qismi sifatida, O‘rta Osiyo esa biron-bir Yevropa davlatining

protektorati qilinishi lozim edi. Rossiya va Sibirning o‘zida esa amalda hech qanday siyosiy kuchga ega bo‘lmagan qaram davlat tuzish ko‘zda tutilgan edi. Shu maqsadda jahonning 15 ta yirik davlati o‘z qo‘shinlarini Rossiya hududiga kiritdi.

Birinchi jahon urushida eng katta yutuqqa AQSh burjuaziyasi erishdi. U o‘z kuchini his qilgan holda, 1922-yilda Vashington konferensiyasida AQSh Angliya bilan bir qatorda, harbiy dengiz flotiga ega bo‘lish huquqini qo‘lga kiritdi.

Birinchi jahon urushida eng katta Millatlar ligasi yordamida g‘olib davlatlar tomonidan Germaniya va Rossiya o‘rtasida Fransiya va Angliya davlatlari ta’sir doirasida bo‘lgan bir guruh davlatlardan iborat “sanitar kordon” tashkil etildi va bu bilan ikki yirik davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalariga chek qo‘yildi.

Ikkinchi jahon urushi Versal tinchligiga chek qo‘ydi. Urushning barcha qiyinchiliklarini sobiq Ittifoq o‘z bo‘yniga oldi, lekin ushbu urushdan u harbiy va geosiyosiy jihatdan mustahkam bo‘lib chiqdi. O‘z tarixida birinchi marta Rossiya atrofida yirik geopolitik blokni tashkil etdi. Keyinchalik ushbu blokni mafkuraviy va axborot qurollari yordamida parchalash uchun yarim asr vaqt sarflandi.

**Posttam geosiyosiy bosqichi** 1945-yildan boshlandi. Berlin shahri yaqinida joylashgan bu shaharchada imzolangan shartnoma Germaniya va uning ittifoqchilari ustidan qozonilgan g‘alabadan so‘ng Yevropadagi kuchlar muvozanatini o‘zida aks ettirdi, yangi geosiyosiy kuchlarning holatini, yangi chegaralarini aniqlab berdi. Shartnoma jahonning ko‘p qirralikdan biopolyar tizimga o‘tganligidan dalolat berar edi. Ya’ni, bir tomondan, kontinental (quruqlik) kuchlarini namoyon qiluvchi sobiq Ittifoq va uning ittifoqchilari, ikkinchi tomondan, ko‘proq dengiz kuchlarini o‘zida namoyon qiluvchi AQSh geosiyosat olamida tan olindi. Bu ikki qutbning qarama-qarshiligi Potstam bosqichining mazmunini aniqlab berdi. Uning ahamiyatga molik tomoni shunda ediki, ikkita yirik qutbning qarama-qarshiligi “sovuq” va yadro urushglari o‘rtasidagi muvozanatda kechdi. Sobiq ittifoq iqtisodiyoti tashqi o‘zgarishlar va

rivojlanishlarga nisbatan moslashuvchanlik darajasi past bo‘lganligi uchun inqirozga yuz tutdi.

**Belovej geosiyosiy bosqichi** yangi davlatlarning paydo bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Birinchi navbatda, jahonning yangi hukmdorlari “barxatli” va ma’lum kuchga tayangan holda Sobiq Ittifoq atrofida, so‘ngra Rossiyada yangi jahon qoidalarini shakllantirmoqdalar. Ular Versal shartnomasi qoidalariga asoslangan holda ish yuritmoqdalar.

Qadimgi davrlardanoq olimlar geografik muhitning inson siyosiy hayotiga ta’sirini o‘rganishga qiziqqanlar. Arastu o‘zining “Siyosat” deb nomlangan asarida quyidagi fikrni aytib o‘tgan: “Iqlimi sovuq bo‘lgan mamlakatlarda istiqomat qiluvchi kishilar dovyurak bo‘lishadi, ammo ularda xayoliy orzular va ixtirolar qilishga moyillik yo‘q. Shuning uchun ham ular boshqa xalqlarga nisbatan ko‘proq vaqt ozodlikni saqlab turishadi, biroq o‘z qo‘shinlariga boshchilik qilish va ularni boshqarish qobiliyatiga ega emas, ular siyosiy rahbarlikka muhtojdirlar. Janubiy xalqlar, aksincha, chuqur o‘ylaydigan va qiyin holatlardan chiqib ketishga ustadirlar. Ammo ular g‘ayratli emaslar. Shuning uchun ham qullik va tobelik ularga xos “tabiiy holatdir”. Oraliq mintaqalarda istiqomat qiluvchi yunonlar esa o‘zlarida shimol hamda janub xalqlariga xos bo‘lgan eng yaxshi hislatlarni jo qilganlar”.

Bunday siyosiy nazariyada geografik determizm an’analariga yo‘l ochib berilgan edi. Mazkur yondashuv Jon Boden tomonidan rivojlantirildi. U insonning rivojlanishiga geografik muhit xalq xarakteri va ruhiyati orqali ta’sir ko‘rsatadi, degan xulosaga kelgan. Uning fikricha, inson hayoti uchun eng qulay va yaxshi sharoitlar mo’tadil mintaqada, 40°-50° shimoliy kengliklar oralig‘ida mavjud. Aynan mana shu hududlarda qudratli davlatlar vujudga kelganligini ko‘rsatib o‘tadi. Jon Boden mustaqil davlatlarning kuch-qudrati va taraqqiyoti ularni o‘rab turgan tabiiy sharoitning ta’siriga bevosita bog‘liq, deb hisoblagan.

Sharl Monteskye ijtimoiy hayot shakllarining rivojlanishida iqlim hal qiluvchi ahamiyatga ega, deb hisoblagan hamda mamlakat qonunlari uning geografik sharoitlariga mos bo‘lishi zarurligini asoslab bergan.

Geografik determinizm g‘oyalari Germaniyada XVIII va XIX asrlarda siyosiy geografiyadan geosiyosatgacha bo‘lgan davrni bosib o‘tdi.

**Geografik determinizm** (lotincha, “determino” – aniqlayman) g‘oyasiga binoan, ijtimoiy sharoitni mamlakatning geografik joylashishi va tabiiy sharoitini belgilab beradi. Geografik determinizm g‘oyasi vakillarining fikricha, kishilik jamiyatining rivojlnishini geografik sharoitning xususiyatlari belgilab beradi. Masalan, Ritter dunyoni ikki qismga bo‘ladi – suvlik (okeanlar) va quruqlikka. U quruqlik Shimoliy yarimsharda, suvlik esa Janubiy yarimsharda asosiy maydonni tashkil qilishini ta’kidlaydi. Shimolda joylashgan quruqlikni “Eski Dunyo” (Evropa, Osiyo) va “Yangi dunyo” (Shimoliy va Janubiy Amerika) ga bo‘ladi. Uning fikricha, “Eski dunyo” g‘arbdan sharqqa katta masofaga cho‘zilganligi sababli iqlimiy jihatdan bir xillikka ega. “Yangi dunyo” esa shimoldan janubga tomon katta masofaga cho‘zilganligi tufayli iqlimiy farqlari juda katta. Mazkur iqlimiy farqlar Ritterning fikricha, mintaqada istiqomat qiluvchi xalqlar xarakteriga katta ta’sir ko‘rsatadi.

O‘z navbatida, tashqi siyosat turli yo‘nalishlardan iborat. U, avvalambor, boshqa davlatlar bilan tinch-totuv yashash, iqtisodiy, madaniy, fan-texnika, global ekologik muammolarni hal qilishdagi xalqaro aloqalarni o‘z ichiga oladi. Tashqi siyosatning bir ko‘rinishi – geografik siyosat, ya’ni geosiyosatdir. Bu siyosatning mazmunini ham ikki xil talqin qilish mumkin: avvalgi reaksion ma’noda va hozirgi to‘g‘ri mazmunda. Birinchisi, ko‘proq g‘arb mamlakatlarida alohida oqim sifatida, asosan, nemis, ingliz va shved olimlari (Fridrix Rattsel, Rudolf Chellen, Karl Xausxofer, Alfred Mexen, Xelxord Mokkinder va b.) tomonidan yaratilgan bo‘lib, u o‘ta reaksion, o‘zga davlatlar va millatlarni kamsitish, ularning hududlariga

tahdid-tajovuz qilish, bosib olishni anglatadi. Aytish joizki, aynan ana shunday geosiyosat mamlakatlar o‘rtasidagi nizolar, jang-u jadallar sababchi bo‘lgan: nemis fashizmining II Jahon urushini boshlashi ham g‘oyaviy jihatdan reaksion geosiyosatga asoslangan edi.

Yer yuzining turli qismlarida mavjud bo‘lgan hududiy kelishmovchiliklar asosida turli davlatlarning birinchi yo‘nalishdagi geosiyosati yotadi. Yugoslaviya hududidagi janjallar, Isroil-Falastin munosabati, Panjob va Kashmir, Tog‘li Qorabog‘, Checheniston kabi juda ko‘p muammoli hududlar shular jumlasidan.

Geosiyosatning hozirgi zamon, to‘g‘ri ma’nosi u yoki bu davlatning jahonning boshqa mamlakatlari, eng avvalo, qo‘shni davlatlar bilan tinch-totuv yashash, ular bilan turli sohalarda hamkorik qilishni bildiradi. Shuningdek, bu yerda mamlakatning jahon okeaniga va bozoriga arzon, qulay, beg‘araz yo‘llar orqali chiqishi ham nazarda tutiladi. Hozirgi geosiyosat bu avvalgi hududiy siyosatdan tubdan farq qiladi va u davlatlarning tashqi munosabatini bildiradi. Bunday siyosat, o‘z navbatida, turli tarmoq-soha siyosatlaridan tashkil topadi.

Mamlakatning geografik mazmundagi ichki siyosatini mintaqaviy siyosat shaklida qabul qilgan ma’qulroq, garchi “geo”-yer, hudud, mintaqa atamasiga to‘g‘ri kelsa-da, uning aynan shu ko‘rinishi to‘g‘riroqdir. Sababi davlatning bunday siyosatini hududiy siyosat darajasida talqin qilish ba’zan kishilar ongiga singib qolgan tushunmovchilikka, noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin.

Davlatlar va xalqlar hayoti uning butun xilma-xilligiga ko‘p darajada geografik atrof-muhit va iqlim sabab bo‘lganligi haqidagi fikr-mulohazalar uning butun tarixi davomida insonning ijtimoiy sharoitlarini kuzatib boradi. Fridrix Rattselgacha ijod qilgan ko‘p faylasuflar, olimlar, siyosiy arboblar geograf olimlar siyosiy jarayonlar va hodisalarga e’tibor qaratgan. Geosiyosatchilarning o‘zlari ko‘pincha, Monteske, Gerder, nemis geograflari Karl Ritter, Ferdinond Rixtxofen va boshqa ko‘zga ko‘ringan olimlar ularning ajdodlari ekanligini ta’kidlashar edi.

Geografik maktab yo‘lida burilgan ijtimoiy tizimlar XIX asrda G.T.Bokl, V.Kuzen, E.Renon, I.Ten kabi mualliflar tomonidan vujudga keltirilgan.

Qadimda klassik uyg‘onuvchilar bilan mos ravishda, geografik determinizm haqidagi tasavvurlar, bu insoniyat jamiyatining rivojlanishi mustasno tarzda geografik olimlarga bog‘liq deb hisoblanar edi, davlat chegaralarining o‘rnatilishi esa kuchli haqiqatga asoslanadi va butunlay bosib olishlarga bog‘liq bo‘ladi. Geografik muhitni (birinchi navbatda iqlimni) urf-odatlarga, an’analariga va ayrim umumtarixiy jarayonlarga ta’siri haqidagi savolni antik mualliflar – “tibbiyot otasi” Gippokrat, “tarixning otasi” Gerodot, Rim tarixchisi Polibiy va boshqalar ko‘rib chiqishar edi.

Qadimgi greklar birinchi bo‘lib, geografik muhit ta’siriga, insonni sotsial mavjudligiga e’tibor qaratishdi. Bu hech aqlga sig‘maydigan qiziqish edi, u amaliyotda sinalgan tasavvurlar bilan bayon qilinar edi. Sivilizatsiyaning rivojlanib borishi, shahar-davlatlar soni va ular aholisining o‘sib borishi birgalikda sof geosiyosiy muammolar ham vujudga kelar edi: ortib borayotgan aholi uchun hududni kengaytirish zarurati, erkin hudularni o‘zining parametri bo‘yicha mustamlakaga aylantirish, chegaraviy muammolar va hokazolar. Ularni hal qilishda ko‘pincha qo‘shnilar bilan urush qilishga to‘g‘ri kelar edi. Ular o‘zlariga ma’lum bo‘lgan dunyoni iqlimiy sharoitlar bilan mos tarzda bo‘la boshlashdi. Qadimgi grek faylasufi Parmenid (mil.avv. VI asrda) 5 ta haroratli zonalar yoki mintaqalar nazariyasini olg‘a surdi: 1 ta issiq, 2 ta sovuq va 2 ta oraliq.

Parmenid nazariyasiga tayanib, Arestotel (mil.avv. 384-322) greklar o‘rnashgan oraliq zonaning kuchliligini ta’kidlar edi. Bizning davrimizga kelib esa, iqlimiy mintaqalar nazariyasi yangicha nomlana boshladi. Tarix shimoliy kenglikni 20-600 oralig‘idagi hududda, ya’ni quruqlikning katta qismi joylashgan shimoliy yarimsharda vujudga kelgan degan, nuqtai nazar keng tarqalgan. Dunyoning siyosiy quvvati, asosan, mo‘tadil iqlim zonalarida rivojlandi va tortish kuchining

tarixiy markazlari janubdan shimolga bo‘lgan yo‘nalishda harakatlanar edi, lekin baribir shu hudud chegarasida.

**Gippokrat** (mil.avv. 460-370-yillar) “Havo, suvlar va hududlar haqidagi” risolasida, inson organizmi xususiyatlariga, aholi xarakterining xususiyatlariga va, hattoki, jamoat tuzumiga geografik sharoitlar va iqlimning ta’siri haqida fikr yuritgan. Keyinchalik geografik konsepsiyalarga bir mamlakatni boshqarishga nisbatan holatini taqqoslash uchun muhim xususiyatlar sifatida, “quruqlik” va “dengiz hududi” tushunchalarini qo‘sha boshlashdi. Mamlakatlarni ichki va tashqi hayoti uchun geografik sharoitlar ahamiyatini Ploton, Polibiy, so‘ng rimliklar Sitseron va ayniqsa Strabonlar ta’kidlagan edilar.

Antik siyosiy va geografik g‘oya musulmon sharqidan meros qilingan edi. Insoniyat tarixiga tabiat ta’sirining ulkan ahamiyatini arab tarixchisi va faylasufi Abu ar-Rahmon Abu Zayd Ibn Xoldun (1332-1406) bergan edi. Shimoliy Afrika musulmon davlatlarining siyosiy hayotida sezilarli rol o‘ynagan jamoat arbobi. Ibn Xoldun nazariyasiga ko‘ra, jamiyat siyosiy hayotiga tabiatni belgilovchi ta’sirini asosiy omil – iqlim hal qiladi. Faqat iqlimi mo‘tadil mintaqalardagi odamlar madaniy faoliyat bilan shug‘ullanish qobiliyatiga ega, janubda yashovchilar esa (ya’ni ekvatorga yaqin mamlakatlar), madaniyatni rivojlantirish uchun undovchi sabablarga ega emas, chunki ular na mustahkam uylarga, na kiyim-kechakka muhtoj, ozuqani esa tayyor holda tabiatni o‘zidan oladilar; sovuq shimol mamlakatlari xalqlari esa butun o‘zini quvvatini ozuqa topishga, kiyim-kechakni tayyorlashga va uy-joy qurishga sarflaydilar; demak ularning fan, adabiyot va san’at bilan shug‘ullanishga vaqti yo‘q.

Zamonaviy siyosiy adabiyotlarda “geosiyosat” tushunchasi ba’zan juda keng va ko‘p rejali talqin qilinadi, natijada, ilmiy fan tomonidan tadqiqotning barcha sohasini bajaruvchi xos xususiyatlardan mahrum bo‘ladi. Geosiyosat mamlakatlarni xalqaro-siyosiy vaziyati, xalqaro munosabatlar tizimidagi ularning

o‘rni, harbiy-siyosiy birlashmalarda ularning qatnashish sharoitlarini baholash uchun ishlatiladi. Umumjahon va regional balans kuchlarining saqlanishida yoki o‘zgarishida muhim rol o‘ynovchi iqtisodiy, siyosiy, harbiy-strategik, ekologik, resursli va boshqa tadqiqot majmualarining savollariga muhim ahamiyat beriladi.

O‘z-o‘zidan ma’lumki, sanab o‘tilgan aspektlar qaysidir darajada geosiyosatga taalluqlidir, lekin bu holatda o‘z-o‘zidan savol tug‘iladi: huddi shuningdek, bu savollarni ko‘rib chiquvchi xalqaro munosabatlar va tashqi siyosatning umumnazariy tadqiqotlaridan geosiyosat nimasi bilan farq qiladi? Bu boradagi ensiklopediyalardagi mavjud tushuncha va izohlar ham to‘liq hisoblanmaydi.

Geosiyosiy kuzatuvlar hududiy qamrovining mavzusi, yondashuvlarining xilma-xilligiga qaramay, alohida mamlakatlar va regionlardagi barcha o‘zgarishlar va tashqi siyosiy, strategik muammolar o‘rtasidagi bog‘liqlik tashxisini kirituvchi umumiy negizini ajratish mumkin. Ilgari geosiyosiy tashxisning “mustaqil o‘zgaruvchilari” qatoriga asosan, geografik holat, mineral xomashyoli va boshqa tabiiy resurslar mavjudligi va chegaralanganligi, mamlakat chegarasining xususiyatlari (relyefi, gidrografik tarmog‘i, hayotiy muhim markazlar chegarasidan uzoqligi va h.k.) kabi milliy parametrlar kirar edi. Bu omillar ahamiyati o‘zgardi, lekin ular to‘laligicha o‘z rolini yo‘qotishmadi. Geosiyosat fan sifatida o‘zining asosiy e’tiborini tabiiy muhit omillarini siyosat tomonidan faol ko‘lam imkoniyatlarini va unga mamlakatning iqtisodiy, harbiy va ekologik xavfsizligi doirasidagi ta’sirini o‘rganishga va ochishga yo‘naltiradi. Amaliy geosiyosat doirasiga mamlakatning hududiy muammolari, uning chegaralari, resurslardan, inson resurslarini ham hisobga olgan holda regional foydalanish va taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalar kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda geosiyosatni, geografik muhitni shakllantiruvchi (joylashuv xarakterini, relyef, iqlim, landshaft, foydali qazilmalar,

ekologiya, demografiya, ijtimoiy stratifikatsiya, harbiy qudrat) siyosiy bo‘lmagan omillar tizimi bilan siyosatni ta’sir etuvchi qonuniyatlarini o‘rganuvchi bilimlar tarmog‘i sifatida aniqlash mumkin. Geosiyosat an’anaviy tarzda fundamental va amaliy bilimlarga bo‘linadi; bunda oxirgisi, ba’zan geostrategiya deb nomlanuvchisi, yuqorida sanab o‘tilgan omillarni qamrab oluvchi optimal siyosiy yechimlarni qabul qilish sharoitlarini ko‘rib chiqadi.

Bunda geosiyosiy omillarni o‘rganish va baholash muhim ahamiyatga ega. Geosiyosiy omillarga quyidagilar kiradi:

- geografik (geografik o‘rni, tabiiy resurslari);

- siyosiy (siyosiy tuzumi, davlat chegaralari, jamiyatning ijtimoiy tarkibi, asosiy erkinliklarning mavjudligi);

- iqtisodiy (ishlab chiqarish kuchlarining quvvati va tarkibi, aholining turmush darajasi, strategik zaxiralar va safarbarlik quvvatlari);

- harbiy (qurolli kuchlarning kattaligi, quvvati, harbiy tayyorgarlik holati);

- ekologik (cheklangan yoki tugaydigan va tiklanmaydigan) resurslarga bo‘lgan demografik bosim, xomashyo resurslarining kamayishi va tugashi, aholi turmush darajasining o‘zgarishi;

- demografik (aholi soni, o‘sish sur’ati, zichligi va tarkibi);

- madaniy-ma’rifiy (konfessiyalar, millat va elatlar, mehnat an’analari, ilm-fan, ta’lim, sog‘liqni saqlashning rivojlanganligi, urbanizatsiya darajasi va boshqalar).

Yuqoridagi omillarni geosiyosiy jihatdan tahlil qilish uchta yo‘na-lishda olib boriladi:

a) ijtimoiy-siyosiy vaziyatni ularning ma’lum bir hudud va davr doirasida rivojlanishi bilan bog‘liq holda tadqiq etish;

b) ma’lum bir hudud to‘g‘risidagi haqiqiy ma’lumotlarni ayrim hollarda tamomila qarama-qarshi tasavvurlar bilan taqqoslash;

v) makonni o‘zgartirish bo‘yicha siyosiy strategiyani amalga oshirishni bashoratlash.

Umuman, siyosiy geografiya hududning shakllanishida qonuniyatlarni kuzatish bilan shug‘ullanadi, ya’ni bevosita siyosiy yechimlar bilan berilgan shunday hududiy sharoitlar tizimi bilan, ko‘rinib turganidek, bu fanlarning tor doiradan aloqasini rad etish mumkin bo‘lmasa ham siyosiy geografiya va geosiyosat turli xil yo‘nalishga ega. Bu aloqa, ularning rivojlanishidagi ma’lum sinxronligida namoyon bo‘ladi.

Geosiyosiy omillar tahlilining muhim elementi – davlatning kuch-qudrati deganda, ikki narsa tushuniladi: birinchidan, davlatning o‘z maqsadiga boshqa davlat siyosatiga tashqi siyosat orqali ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan erishishi; ikkinchidan, uning o‘z manfaatlarini imkoniyatlari yordamida himoya qila olishi tushuniladi. **Har qanday davlatning, kuch-qudratini quyidagi omillar belgilab beradi:** davlatning geografik o‘rni, tabiiy resurslari, sanoat salohiyati, qurolli kuchlarning miqdor va sifat ko‘rsatkichlari, inson resurslari, milliy xususiyat, milliy ma’naviyati, diplomatiya sifati, davlat boshqaruvi darajasi.

Shunday qilib, geosiyosiy yo‘nalishlar – bu geosiyosiy makonni tashkil etuvchi jarayonlarning elementlaridir. Geosiyosiy makon (siyosiy makon) deyilganda, davlat yoki davlatlar ittifoqi tomonidan nazorat qilib turiladigan makon tushuniladi.

Tarixiy jarayonlar ko‘plab nazariyalar asosida geosiyosiy xususiyatga ega. “Geosiyosat asoslari” fanining nazariy asoslari sifatida nazariyotchi olimlar mehnati kattadir. Bu klassik geosiyosat mohiyatining asosini ham ularning yaratgan nazariyalari va fikrlari, qarashlari tashkil etadi.

Nemis tashkilotchilik maktabi vakili Fridrix Rattsel (1844-1904) birinchi bo‘lib dunyoga geosiyosiy qarashning asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqdi. Uning qarashlari biologiyaga qiziqishidan kelib chiqqan va darvinizm hamda

evolutsionizmga asoslangan edi. Biologiyada shunday tushuncha bor – “Yashash uchun kurash”, olim bu tushunchani xalqlarga, davlatlarga nisbatan qo‘llagan.

F.Rattsel davlatni asosiy xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritgan: mamlakat hududining kattaligi, geografik o‘rni, chegaralari, o‘simlik dunyosi, boshqa hududlarga bo‘lgan munosabati. Rattsel “Davlatning o‘sish qonuni” nomli asarida quyidagi qonuniyatlarni ishlab chiqdi.

1. Davlat makoni madaniyat rivojlangan sari kengayib boradi.

2. Davlat siyosati g‘oyalar, savdo, diniy targ‘ibotlarning rivojlanishi bilan bir paytda amalga oshadi.

3. Davlatning taraqqiyoti va kengayishi kichik davlatlarni qo‘shib olish va bosib olish hisobiga amalga oshadi.

4. Davlat chegarasi uning o‘sishini ta’minlashi qudrati yoki zaif tomonlari o‘zgarishining asosiy sababchisi bo‘lishi mumkin.

5. Davlat riojlanishi davomida o‘zini o‘rab turgan eng muhim tabiat elementlari, qirg‘oq chiziqlari, daryo vodiylari, tog‘lar, tekisliklar va resurslarga boy mintaqalarni qo‘shib olishga doimo harakat qiladi.

6. Sodda (kuchsiz) davlatlarga hududini kengaytirish haqidagi dastlabki turtki tashqaridan, yuqori darajali madaniyat makrkazlaridan keladi.

7. Davlatlar vujudga keladi, taraqqiy etadi, vaqti-soati kelganda tirik jonzotlar kabi barham topadi.

Davlatning kengayishi yoki torayishi uning ichki hayotida ro‘y beradigan jarayonlar bilan bog‘liq bo‘ladi. U katta davlatlarga geografik ekspansiya (bosib olishga intilish)ga moyillik mavjudligini va bu xususiyat asta-sekin sayyoraviy (planetar) miqyosida kengayib borishini aniqlagan. Bundan tashqari, u har bir xalq va davlat o‘zining hududi taraqqiyot konsepsiyasiga ega ekanligini asoslab berdi. Uning tadqiqotlari asosi va muhim jihatlaridan biri –“Geografik makon siyosiy kuch sifatida geosiyosatning asosini tashkil etadi”, degan xulosasidir. Har qanday

davlat uchun eng muhimi, uning ko‘lami, geografik joylashishi va chegaralanishidir. Davlatni organizm deb hisoblash mumkin, chunki xalqning hayoti yer bilan bog‘liqdir va bu yer xalqni boqadi. Rattsel o‘zining “Dengiz – xalqlarning qudratli manbai” nomli kitobida ta’kidlashicha, dengiz davlat siyosatida eng muhim ahamiyatga ega chunki dengiz harbiy kuchlarni rivojlantirishga yordam beradi va dengiz asosiy harakatlantiruvchi omil hisoblanadi. Rattselning nazariya va g‘oyalarida hozirgi zamon geosiyosat fanining izlanishlari joylashgan desa bo‘ladi.

“Geosiyosat” fanining rivojlanishida yirik klassik siyosatchilardan R.Chellen va K.Xausxofer katta hissa qo‘shganlar. Rudolf Chellen (1864-1922) birinchi bo‘lib “davlat inson kabi sezuvchan va fikrlovchi mavjudotdir”, degan fikrni aytgan. Davlat yer yuzasida o‘z kuchiga bog‘liq holda mavjuddir. U kurash holatida bo‘lib, tirik mavjudotlarga o‘xshab so‘lib boradi va halok bo‘ladi, deb ta’kidlaydi.

Yashash uchun kurash, R.Chellen fikriga ko‘ra, har qanday davlat organizmining mohiyatini tashkil etadi. Urush – geografik makonni egallash maqsadida olib borilayotgan kurashning aniq bir shaklidir.

R.Chellen shved olimi bo‘lib, “geosiyosat” tushunchasini birinchi bor qo‘llagan va o‘z ishlarida Rattsel nazariyasini rivojlantirgan. R.Chellen “Davlatning hayotiy shakli” kitobida tabiiy hodisalarni odamlardan ajratib yoki odamlarni tabiatdan ajratib tabiiy hodisalarni o‘rganib bo‘lmaydi degan.

Kuch-qudrat davlatni ushlab turish va qo‘llab-quvvatlashda qonunga nisbatan muhimroq asosdir. Chunki qonunning o‘zi faqat kuch orqali ushlab turiladi. U qonun davlatga ma’naviy-axloqiy elementlarni olib kirsa, kuch-qudrat uning faoliyatini ta’minlaydi deb ta’kidlaydi. R.Chellen davlat o‘z nomi bilan maqsaddir, u fuqarolari farovonligini yaxshilashga xizmat qiluvchi organizm emas, degan xulosaga kelgan. K.Xausxofer (1896-1946) dunyo geosiyosat maktabining

asosichisi va tashkilotchisi hisoblanadi. Uning imiy ishlarida va izlanishlarida “Hayotiy makon” kategoriyasiga katta e’tibor berilgan.

“Hayotiy makon” tushunchasi (kategoriyasi)ning shakllanishida F.Maltus ishlari va g‘oyalari muhim o‘rin tutadi. Maltus aholi o‘sishi biologik qonunlar asosida geometrik progressiya bo‘yicha, oziq-ovqat mahsulotlari esa, arifmetik progressiya bo‘yicha o‘sadi, degan g‘oyani olg‘a surgan. Shuning uchun aholining ko‘payishi oziq-ovqat mahsulotlarining ko‘payishiga nisbatan tezroq bo‘ldi. Demak, aholisi eng ko‘p va eng zich mamlakat Germaniyada urushlarning oldini olib bo‘lmaydi, shunday sharoitda tirik qolish uchun hayotiy makonni kengaytirish zarur degan xulosaga kelgan. K.Xausxofer boshqa milliy g‘oya tarafdorlari kabi, nemis davlatining kuch-qudratini kuchaytirishga harakat qildi. Bu maqsadga esa o‘z-o‘zidan mamlakat industrial qudrati va madaniyatini ko‘tarmasdan, geosiyosiy ekspansiya qilmasdan erishish mumkin emas edi. Germaniyaning Yevropa qoq markazida joylashganligi uni tabiiy holda, g‘arbiy dengiz mamlakatlari – Angliya, Fransiya va kelajakda AQSh ga qarshi qilib qo‘ymoqda edi. Shuning uchun ham Germaniyaning “Atlantika mamlakatlari” bilan siyosiy ittifoq tuzishi xomxayol hisoblanar edi. Bunda Fransiya va Angliyaning hududiy e’tirozlari ham muhim o‘rin egalladi. Mana shunday fikr-mulohazalar K.Xausxofer geosiyosiy qarashlarning asosi bo‘lib xizmat qildi. K.Xausxofer katta davlatlarning kichik davlatlar oldidagi yutug‘i to‘g‘risidagi Rattsel g‘oyasini o‘ziga asos qilib olib, Germaniyaning qo‘shni kichik davlatlar ustidan hech qanday gap-so‘zsiz hukmronlik qilishini mutlaq haqiqat deb, Germaniyaning iqtisodiy jihatdan Rossiyani o‘ziga tobe qilib olishini esa asosiy vazifalardan biri deb hisoblar edi.

**Xelford Makinder** (1861-1977) geosiyosatchilar ichida eng hurmatga sazovor bo‘lgan, bu olim xalqlar tarixini tabiiy muhitga chambarchas bog‘liqligini aytib o‘tgan va yuqori baholagan. Makinderning ta’kidlashicha, davlatning kuchli yoki kuchsizligi geografik o‘rniga ham bog‘liq, davlatning geografik o‘rni qulay

(o‘rtada yoki markazda) bo‘lgani yaxshi, deb hisoblagan. Bunga misol qilib, Yevrosiyo hududini ko‘rsatadi. Bu maydon geografik o‘rniga ko‘ra, butun dunyoni nazorat qilish uchun juda qulay joy, degan.

Bizga ma’lumki, geosiyosiy qarashlarning rivojlanishida ikki yo‘nalish muhim rol o‘ynaydi: birinchi yo‘nalish, Angliya-Amerika yo‘nalishi deb ataladi. Bu yo‘nalishda asosiy e’tibor dunyoviy geostretegik konsepsiyalar tuzishga qaratiladi. Mazkur konsepsiyada dengiz va quruqlik, hududlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va aloqalar, ularning tarkibi va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ikkinchi yo‘nalish: kontinental (quruqlik) yo‘nalish deb ataladi. XX asrning 40-50-yillarida Germaniya va Fransiya o‘zining eng yuqori darajadagi rivojlanish nuqtasiga yetdi. Mazkur yo‘nalish – Yevropa sentrizm regional (mintaqaviylik) xususiyat-lari bilan ajralib turadi va Yevropa davlatlari ichidagi integratsiya muammolarini o‘rganishga alohida e’tibor beradi. Birinchi dunyoviy model Angliyada X.Makinder tomonidan ishlab chiqilgan. U 1914-yilda Buyuk Britaniya qirollik geografiya jamiyatida “Tarixning geografik o‘qi” deb nomlangan ma’ruzasida jahon siyosatining “o‘q” mintaqalari g‘oyasini ilgari surdi.

X.Makinder o‘zining 1919-yilda nashr qilingan “Demokratik ideal va reallik” nomli kitobida “o‘q mintaqa” ni Xartlend deb atadi. Bu o‘q mintaqaga Rossiyaning g‘arbida Sharqiy va Markaziy Yevropa, sharqda esa Tibet va Mo‘g‘ilistonni kiritdi.

X.Makinder fikricha, dengizning kuch-qudrati jahondagi kuchlar balansida juda katta ahamiyatga ega bo‘lsa ham, quruqlik va havodagi kommunikatsiyalarning rivojlantirilishi dengiz kuch-qudrati samaradorligining pasayishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham Makinder “Dunyoga hukmronlik qilishda kontinental davlatlarning imkoniyatlari behisobdir” deb ta’kidlagan.

AQShning qudratli davlatga aylanishi X.Makinder konsepsiyasini qayta ko‘rib chiqishga va “Atlantizm” geosiyosat g‘oyasining shakllani-shiga sabab bo‘ldi. Bunda A.Mexen (1840-1914) g‘oyalari hal qiluvchi ahamiyatga egadir. U

“Tarixda dengiz kuchlari” va boshqa qator asarlarida “dengiz kuchlari” tushunchasi asosida geosiyosat konsepsiyasini ishlab chiqdi. Erkin dengiz savdosi bilan shug‘ullanish A.Mexen g‘oyasining asosini tashkil qiladi. A.Mexen AQSh “dengiz taqdiri”ga ega, buning natijasida u, avval, Amerika qit’asida, keyinchalik esa butun dunyoda hukmronlik qiladi deb hisoblagan.

A.Mexenning geosiyosiy g‘oyalari to‘liq holda XX asr mobaynida AQSh hayotiga tatbiq etildi va yuqori darajada o‘z samarasini berdi.

Nikolas Spaykmen (1893-1943) geosiyosat nazariyasi va amaliyotiga ulkan hissa qo‘shgan AQShlik olimdir. U Xartlend potensial makon bo‘lib, mustaqil g‘oyalarni hal qila olmaydi bu vazifalarni shu jumladan, dunyoga hukmronlik qilish vazifasini Rimlend bajarishi mumkin, deb hisoblaydi.

N.Spaykmen dunyoni uch qismga: Xartlend, Rimlend va olisda joylashgan Afrika va Avstraliya qit’alariga bo‘ladi. Rimled tarkibiga G‘arbiy va Markaziy Yevropa, Turkiya, Eron, Saudiya Arabistoni, Uzoq Sharq mamlakatlari va Xitoy kiritilgan. Uning g‘oyasiga ko‘ra, kim Rimlendni nazorat qilsa, Yevropada hukmronlik qiladi, kim Yevropani nazorat qilsa, u jahon taqdirini hal qiladi.

N.Spaykmen AQShni Xartlendga ham, Rimlendga nisbatan ham juda qulay o‘ringa ega deb hisoblaydi U “O‘rta okean” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi va Atlantika dunyosi tomonidan Rimlend ustidan o‘rnatilgan nazorat quruqlik kuchlarini mag‘lub bo‘lishiga va Atlantika dunyosi tobe holatga tushushiga sabab bo‘ldi, degan xulosaga kelgan.

U davlat geosiyosiy qudratini ta’minlovchi 10 ta mezonni alohida ajratib ko‘rsatadi. Ular quyidagilar:

- 1.Hudud yuzasining tuzilishi.
- 2.Chegaralarining tabiati.
- 3.Aholi soni.
- 4.Foydali qazilmalarning mavjudligi yoki mavjud emasligi.

- 5.Iqtisodiy va texnologik taraqqiyot.
- 6.Davlat moliyaviy quvvati.
- 7.Etnik birligi.
- 8.Sotsial integratsiyalashish darajasi.
- 9.Siyosiy barqarorlik.
- 10.Millat ruhi.

Yuqoridagi baholash shkalasidan foydalangan holda davlatni umumiy geosiyosiy kuch qudratini aniqlash mumkin. Agar umumiy baho uncha yuqori bo‘lmasa, bunday holat o‘z-o‘zidan ushbu davlatni boshqa davlatlar bilan strategik ittifoqlar tuzishga majbur qiladi. Bu esa mazkur davlat suverinetitetiga ma’lum darajada putur yetkazadi.

N.Spaykmen II Jahon urushidan so‘ng Yevropa davlatlari mustaqilligining pasayishi, AQSh mustaqilligining esa oshishini bashorat qilgan edi. Bu bashorat hozir – XXI asrda o‘zining aniq ifodasini topmoqda, kuchlar nisbati borgan sari AQSh foydasiga hal bo‘lmoqda.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Klassik geosiyosatning mohiyatini va asosini nima tashkil etadi?

2. Geosiyosiy qarashning asosiy yo‘nalishlarini birinchi bo‘lib kim ishlab chiqqan?

3. “Antropogeografiya” nomli asar kim tomonidan yozgan?

4. Har qanday hududiy o‘zgarishlar hayotiy o‘yin sistemasiga to‘g‘ri keladi: tug‘iladi, o‘sadi, rivojlanadi va o‘ladi. Bu qaysi olimning qarashlari?

5. Davlatning asosiy xususiyatlariga qanday xususiyatlar kiradi?

6. “Davlatning o‘sish qonuni” asarini kim yozgan?

7. Ratselning nazariya va g‘oyalarida qanday izlanishlar jamlangan?

8. “Davlat inson kabi sezuvchan, fikrlovchan mavjudotdir”, degan fikr kim tomonidan bildirilgan?

9. K.Xousxofer geosiyosiy qarashlarining asosini qanday fikr-mulohazalar tashkil etadi?

## 19- BOB. INSONIYATNING GLOBAL MUAMMOLARI

Reja:

19.1.Global muammolar tasnifi.Tinchlik va qurolsizlanish muammosi.

19.2.Rivojlangan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish muammosi.

19.3.Ekologik muammo.

19.4.Demografik muammo.

19.5.Energetik muammo.

19.6. Xomashyo muammosi.

19.7. Oziq-ovqat muammosi va boshqalar.

Insoniyat XXI asrga qadam qo‘yar ekan, uning oldida juda murakkab muammolar vujudga keldi, ularning asosiy qismi ta’sir doirasining miqyosi va ahamiyatiga ko‘ra global muammolar nomini oldi. Qanday muammolarni global muammo deb hisoblash mumkin? Mazkur savolga mutaxassislar tomonidan ellikka yaqin muammolar ro‘yxatga kiritilgan, biroq shundan o‘nga yaqini bilan ko‘pchilik yaxshi tanish.

Butun insoniyatni qamrab olgan insoniyatning bugungi kuni va kelajagiga xavf soluvchi, yechimini topishga barcha davlatlar va xalqlarning birgalikda harakatini talab qiluvchi muammolar global muammolar deb ataladi.

Global muammolar – aholi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar natijasidir. Global muammolar jamiki insoniyatga, barcha mamlakatlar, xalqlarga ta’sir ko‘rsatadi; ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda katta talafotlar, inqirozlar keltirib chiqaradi, jahon sivilizatsiyasining mavjudligiga ham xavf soladi; yechimini toppishda umumplanetar miqyosdagi hamkorlikni,

barcha mamlakatlar va xalqlarning birgalikda harakat qilishini talab etuvchi muammolardir.

Ular quyidagilardan iborat: tinchlik va qurolsizlanish muammosi; rivojlanmagan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish muammosi; ekologik muammo; demografik muammo; energetik muammo; xomashyo muammosi; oziq-ovqat muammosi; dunyo okeanidan foydalanish muammosi; koinotdan tinch maqsadlarda foydalanish muammosi.

Urush va tinchlik muammosi XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshida insoniyatning eng muhim muammosi bo‘lib kelmoqda. O‘tgan asrda bo‘lib o‘tgan jahon urushlari tufayli 100 mln.dan ortiq aholi hayotdan ko‘z yumdi, 1980-90-yillarda dunyo siyosiy kartasida bo‘lib o‘tgan o‘zgarishlar ham insonlar kelajagiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ba’zi davlatlarning yaqin va uzoq masofaga uchiriladigan raketalarga, yadro quroliga ega bo‘lishi, “sovuq urush” bilan bog‘liq xavf-xatar o‘rnini so‘nggi davrlarda o‘z o‘rnini ekstremizm, urushlar, terrorizm, diniy-milliy mojarolar egalladi.

Sust rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish global muammolarning eng muhimidir. Mazkur muammoning dolzarbligi dunyo siyosiy kartasida qoloq mamlakatlar soni va salmog‘ining kattaligi hamda mavqeyining ortganligi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda qoloq aholining 3/4 qismi Afrikada, qolgani Osiyoda joylashgan o‘ndan ziyod mamlakatda qashshoq holda yashamoqda. Iqtisodiy qoloqlik mazkur mamlakatlarda siyosiy beqarorlik hamda ijtimoiy tengsizlik, irqiy va diniy ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

**Ekologik muammolar**. Insoniyat XXI asrga qadam qo‘yar ekan, uning oldida qanchadan-qancha muammolar mavjudligi ko`zga tashlanadi. Zero, fan va texnikaning jadal rivojlanib borishi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq qator

jahonshumul muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ana shunday muhim dunyoviy muammolardan biri bu ekologik muammolardir.

So‘nggi yillarda sayyoramizda inson faoliyati tufayli qator ekologik* o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda: iqlim va ob-havo yer sharining barcha mintaqalarida sezilarli tarzda o‘zgarib bormoqda, suv va tuproqlar tarkibi tobora ifloslanmoqda, o‘simlik va hayvonot dunyosi turlari kamayib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yer yuzida yashovchi barcha insonlarning sog‘ligiga keskin ta’sir ko‘rsatmoqda.

Butun Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti hozirgi kunda jami kasalliklarning 80 foizga yaqinrog‘i ekologik muammolar oqibati ekanligini qayd etadi. Shunday ekan bunday ekologik xavf-xatarning oldini olish nafaqat ekologlar, qolaversa, keng jamoatchilik, shu jumladan, geograflar oldiga ham qator masalalarni ko‘ndalang qo‘ymoqda.

Umuman, atrof-muhitning o‘ta ifloslanib borishi, insonning tabiat ustidan cheksiz hukmronligi inson ekologiyasi, qolaversa, u bilan bog‘liq kasalliklarning yer yuzida tarqalish sabab va qonuniyatlarini tadqiq etuvchi tibbiyot geografiyasi oldiga yangidan-yangi muammolarni qo‘ymoqda.

Fan va texnikaning jadal taraqqiyoti, insonning tabiatga bo‘lgan ta’sirining to‘xtovsiz ortib borishi va shu tufayli tabiiy muhitda yuz berayotgan qator salbiy o‘zgarishlar inson salomatligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Tabiiy muhitning ifloslanishi, shaharlashuv jarayoni, aholining shaharlarda o‘ta tig‘iz joylashuvi, ijtimoiy muhitdagi salbiy o‘zgarishlar kishilarda qadim zamonlarga xos va mos bo‘lmagan asab va boshqa turdagi kasalliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Shaharlashuv (urbanizatsiya) jarayonining jadallashuvi o‘z navbatida havo, suv va tuproqning ifloslanishi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bilan

*Ma’lumki, “ekologiya” tushunchasi dastaval, 1869-yilda nemis biologi Ernest Gekkel tomonidan fanga kiritilgan edi. Olim “ekologiya” so‘zini barcha tirik mavjudotlarning tashqi muhit bilan o‘zaro aloqadorligini ifoda etuvchi zoologiyaning (biologiyaning) bir tarmog‘i sifatda ishlatgan. Ekologiya so‘zi grekcha so‘z bo‘lib, “oykos”-uy, yashash joyi, logos-fan, ta’limot ma’nolarini anglatadi.

birga hozirgi vaqtda shaharlar kishilar ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi shovqin markazlari bo'lib kelmoqda. Yer sharidagi *eng shovqinli shahar* Rio-de Janeyro bo'lib, uning o'rtacha shovqin darajasi **85 dB** ga teng. Shovqin asab tizimi, eshitish a'zolari va yurak faoliyatining buzilishiga sabab bo'luvchi asosiy manba sifatida bugungi kunda, ayniqsa, yirik sanoat va aholi o'ta zich shaharlarda yuqoridir. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi, shaharlarning yiriklashuvi, ulkan aglomeratsiya, konurbatsiya va megapolislarning vujudga kelishi, ishlab chiqarishning yuqori darajada mujassamlashuvi va boshqa hayotiy jarayonlarning jadallashuvi bunday muhitda kishilarning yashashlari uchun juda katta noqulayliklar tug'diradi. Odatda, yirik shaharlarda kishilarning qon bosimi yuqori bo'ladi, ular orasida asab tarangligi hollari tez-tez uchrab turadi. Bunday sharoitda o'ziga xos xastaliklar vujudga keladiki, uni olimlar "urbanit" deb ham nomlashadi.

Dunyo mamlakatlarida ro'y berayotgan ko'plab tabiiy ofatlar (suv toshqinlari, zilzilalar, o'rmonlarga o't ketish hollari, cho'llashuv jarayoni, ozon tuynuklarining kengayib borishi) oqibatida turli yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklar ortib bormoqda. Masalan, Yava orollari hududida so'nggi o'n-o'n besh yil davomida aholi orasida teri raki bilan kasallanish hollari keskin ko'payib borgan. Buning asosiy sababi – mazkur hududda tinimsiz raketalarning uchirilishi oqibatida uning ozon qatlamida yoriqlarning kengayib borishi quyoshdan keladigan turli xil nurlarni to'g'ridan-to'g'ri yer yuziga kirib kelishiga sharoit yaratmoqda. Natijada, kishilarning terilari zararlanib, ular orasida rak kasalligining nihoyatda ortib borishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, harbiy sohada atom qurollarini sinash ishlari olib boriladigan hududlar, qaysiki ko'pgina orol mamlakatlari aholisi orasida esa nurlanishning yuqoriligi qayd etilmoqda*.

*Jumladan, Qozog'iston Respublikasining Semipalatinsk, Rossiyaning Chelyabinsk, Ukrainaning Chernobil shaharlari atrofida vujudga kelgan noxush ekologik vaziyat bunga misol bo'la oladi.

So‘nggi yillarda jahon mamlakatlarining ko‘pchiligida tog‘-kon sanoatining tez sur’atlarda rivojlanib borishi ham mazkur hududlar ekologik holatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Jumladan, Yevropa davlatlari hududida joylashgan Rur, Galle Leypsig, Elzas va Lotaringiya havzalarida, respublikamizning Angren-Olmaliq sanoat rayoni hamda Navoiy shahri atrofida qazilma ishlarining olib borilishi oqibatida atrof-muhit sezilarli tarzda ifloslangan.

Dunyo okeaniga tashlanayotgan neft mahsulotlari, sanoat-maishiy chiqindilar, oqova suvlar, radiaktiv va turli zaharli kimyoviy moddalar hajmi yil sayin ortmoqda. Okeanlardan neft qazib olish natijasida yiliga 100 minglab tonna neft okean suviga tarqalmoqda. Qishloq xo‘jaligida turli pestitsidlarning ishlatilishi tirik organizmlarni nobud qilib, aholi orasida turli kasalliklarni keltirib chiqarmoqda. Yilida 130 ming tonnadan ortiq har xil pestisidlar atmosfera orqali yoyilmoqda.

**Issiqxona samarasi va global ishish.** “Issiqxona samarasi”* tushunchasi ko‘pchilikka yaxshi tanish. Ma’lumki, atmosferadagi karbonat angidrid gazi quyosh nurini o‘tkazadi, lekin issiqlikni ushlab qolish xususiyatiga ega. Uning miqdori esa sanoat korxonalari, energiya manbalari, transport vositalaridan havoga ko‘tarilib, ortib bormoqda. Demak, iqlim ham yildanyilga isib boradi. Olimlar bashoratiga ko‘ra, 2020-yilga borib, harorat odatdagidan 2,5ºC, 2050-yilga borib, 4ºC ga ortadi.

Geograflar sanoatlashuvning yoyilishi hamda iste’mol va ifloslanishning ortishi o‘rtacha global temperaturaning ortishiga sabab bo‘layotganligidan xavotir olishmoqda.

*Parnik, ya’ni issiqxona “samarasi” - bu shunday hodisaki, uning natijasida sayyoraning o‘rtacha harorati borgan sari ko‘tarilib boradi, tungi va kunduzgi harorat o‘rtasidagi farq kamayadi. Parnik samarasiga ko‘proq yer yuzida qazilma yoqilg‘i turlarining ayovsiz ishlatilishi, bu yoqilg‘ilardan ajralib chiquvchi karbonat angidrid, metan va boshqa gazlarning atmosferaga o‘tib, yer yuzidan ajralib chiqayotgan issiqlikni oyna kabi qaytarishidir.

1. Issiqxona samarasiga atmosferda yerning haroratini ortishiga olib keladigan, radiatsiyani issiqlikka aylantiradigan bug‘ni hosil qiladigan karbonat (II) oksidi va metan gazi kabi sanoat chiqindilari sabab bo‘lmoqda.

2. Global ishish nazariyasi yer haroratining ortishi, qutb muzliklarining tezlik bilan erib ketishi va natijada dengiz sathining ko‘tarilishiga sabab bo‘ladigan salbiy oqibatlarga olib keladi*.

O‘zbekiston Respublikasi “Rio deklaratsiyasi”ni ratifikatsiya qildi. O‘zbekiston Iqlimning o‘zgarishi to‘g‘risidagi Konvensiya va Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi Konvensiyalarga qo‘shildi. 1998-yili Barqaror rivojlanish Konsepsiyasi tayyorlandi. 1999-yili Barqaror rivojlanishning Milliy strategiyasi ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanishni ta’minlash ustuvor masalaga aylandi.

Xullas, atrof-muhitning buzilish darajasining ortib borayotganligi tabiatdagi barcha mavjudotlar, jumladan inson salomatligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli tabiatni muhofaza qilish ishlari keyingi paytlarda yanada ommaviy tus olmoqda. Hatto, ayrim mamlakatlarda davlat tomonidan ekologik siyosat yuritilayotganligi ham sir emas. Shuningdek, bu borada qator qonunlar (*tabiatni muhofaza qilish haqidagi birinchi qonun* 1273-yilda Angliya qiroli Eduard I tomonidan chiqarilgan edi) qabul qilindi, jarimalar tizimi ishlab chiqildi, tabiatni muhofaza qilish davlat idoralari tashkil etildi. Chunonchi, shu xususdagi ishlar doimiy ravishda BMTning atrof-muhit bo‘yicha maxsus tashkiloti YUNEP (Keniya, Nayrobi) tomonidan nazorat etib boriladi.

Demografik muammo global muammolarning eng muhimi hisobla-nadi. Ushbu muammolar rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori darajada tug‘ilish va tabiy ko‘payish bilan, rivojlangan mamlakatlarda esa juda past darajadagi tug‘ilish

*Dr. Christion Sawyer ap* Human geography crash course. Printed in the United States of America. Green Edition. - 2012.183-P.

va tabiiy ko‘payish bilan bog‘langan. Buning oqibatida birinchi guruh mamlakatlarda aholi va mehnat resurslari soni tez o‘smoqda, ikkinchi guruh mamlakatlarda esa aholi va mehnat resurslari soni past sur’atlari o‘smoqda, ular murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Hozirgi vaqtda energetika va xomashyo muammosi iqtisodiyot va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan eng dolzarb muammolardan biridir. Mazkur muammolarning kun tartibiga birinchi bor chiqishi XX asrning 70-yillarida qayd etildi. 1973-1988 va 2007-yillarda yuz bergan energetika inqirozi va uning oqibatlari hozirgi kungacha sezilmoqda. Energetik inqiroz va undan keyin chuqurlashgan xomashyo muammosi yoqilg‘i va xomashyoga bo‘lgan talab va taklif nisbati bilangina belgilanmasdan, balki ularni qazib olish sharoitlari, dastavval, kon-geologik sharoitlarning murakkablashuvi hamda xomashyo qazib olinayotgan hududlarda ekologik vaziyatning yomonlashuvi bilan ham bog‘liqdir.

Global oziq-ovqat muammosi insoniyatning eng qadimgi muammolaridan biri hisoblanadi. Ocharchilik qadimgi davrlarda ham, o‘rta asrlarda ham, hozirgi vaqtda ham insonlarning boshiga tushuvchi eng katta kulfat-lardan biri bo‘lgan. Ocharchilik ikki shaklda namoyon bo‘ladi. Birinchi shaklda ocharchilik surunkali davom etadi, uning natijasida odamlarning sog‘lig‘i yomonlashadi, tinkasi quriydi va har xil kasalliklarga chalinish ehtimoli kuchayadi. Ocharchilikning bu shakli “to‘yib ovqat yemaslik” deb ham ataladi. Ikkinchi shaklida ma’lum bir vaqtda yer yuzasining ma’lum bir hududida qurg‘oqchilik va boshqa sabab bilan bog‘liq bo‘lgan ocharchilik oqibatida millionlab, o‘n millionlab insonlar halok bo‘ladi.

FAO (Xalqaro oziq-ovqat bilan ta’minlash tashkiloti), Xalqaro sog‘liqni saqlash va boshqa tashkilotlarning ma’lumotlariga ko‘ra, insonning bir kunlik oziq-ovqat meyori 2400-2500 kkal.dan past bo‘lmasligi lozim. Ba’zi bir mualliflar ushbu ko‘rsatkich 2700-2800 kkal.ga teng bo‘lishi lozim deb hisoblamoqdalar. Shu bilan birga, mazkur ko‘rsatkich insonlarning yoshi, jinsi, mehnat faoliyati, kasb-

kori, tabiiy-iqlimiy sharoitlari bilan aloqador tarzda o‘zgarishi mumkin. “Ovqatni to‘yib yemaslik” holati yuqoridagi norma 1800 kkal.dan pastga tushganda sezila boshlaydi, ocharchilik esa ushbu ko‘rsatkich 1000 kkal.dan kam bo‘lganda kuzatiladi.

FAO ning ma’lumotiga ko‘ra, Yer yuzidagi jami aholining 35 foizi to‘yib ovqatlangan, 15 foizi zaruriy miqdordagi kaloriyalarni qabul qilgan, lekin ular oqsilni yetarli darajada iste’mol qilmagan. Aholining 20 foizini oqsilga bo‘lgan talabi qondirilmagan, 30 foizi surunkasi ovqatni to‘yib yemagan yoki och qolgan. Hozirgi vaqtda ocharchilik 700-800 mln kishini qamrab olgan. 1,2-1,5 mln. kishi esa to‘yib ovqat yemayapti. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ocharchilikdan yiliga 13 mln.dan 18 mln. gacha kishi vafot etmoqda, shularning ¾ qismini bolalar tashkil etmoqda.

Shu o‘rinda aytish lozimki, jahonning ko‘pgina mamlakatlari aholisi yashash tarzining og‘irligi, to‘yib ovqat iste’mol qilmasligi, shuningdek, tabiiy shart-sharoitlarining o‘ta noqulayligi ular orasida turli xastaliklarning ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. Chunonchi, Somali, Chad, Niger, Gayana, Surinam kabi Afrika va Lotin Amerikasining ayrim davlatlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shu tufayli jahon aholisi orasida ochlik va kasallanish darajasining asosiy qismi ana shu davlatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Insoniyatning global muammolariga misollar keltiring.
2. XXI asrda insoniyat orasida keng tarqalgan kasalliklarga misollar keltiring.
3. Global muammolarning o‘zaro aloqadorligini tushuntirib bering.
4. Global ilmiy gipotezalar va loyihalar haqida nimalar bilasiz?
5. Futurologiya nima?
6. Parnik ya’ni “issiqxona samarasi” deganda nimani tushunasiz?
7. Ekologik barqaror rivojlanish konsepsiyasini izohlab bering.

8. Madaniy landshaftlar va ularning zararlanishi haqida nimalar bilasiz?

## 20- BOB. IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYA HAMDA EKOLOGIYA

Reja:

20.1. Ekologiya, uning iqtisodiy va ijtimoiy geografiya bilan aloqasi.
20.2. Umumiy ekologiyadan ijtimoiy ekologiyaga.
20.3. Ijtimoiy ekologiyaning shakllanishi va rivojlanishi.
20.4. Ekologik barqaror rivojlanish konsepsiyasi.
20.5. Iqlimni saqlash muammosi. Iqlimni shakllantiruvchi omillar.
20.6. Tabiiy va kuchaygan parnik effekti – “issiqxona samarasi”
20.7. Iqlim muammolari bo‘yicha xalqaro kelishuvlar.
20.8. O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishlari.

Fan va texnika rivojlanib borayotgan hozirgi davrda ijtimoiy yo‘nalishdagi tadqiqotlarning ko‘lami ortib bormoqda. Shu jumladan, ijtimoiy ekologik izlanishlar miqyosi ham jadal rivojlanmoqda. Bu borada, ayniqsa, aholi salomatligi bilan bog‘liq muammolarni tadqiq qilish o‘ta dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, “aholi salomatligi” o‘ta murakkab va serqirra tushuncha bo‘lib, Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ustaviga ko‘ra, aholi (inson) salomatligi uning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy (sotsial) holati bilan belgilanadi.

Aholi salomatligi ijtimoiy borliqning rivojlanishi va tashkil etilishi bilan ham bog‘liq. Ijtimoiy muhitning tabiiy borliqqa ta’siri ortib borayotgan hozirgi davrda aholi salomatligiga tasir etuvchi ekologik omillar (yoki geoekologik omillar) iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlar bilan birlashib, kompleks tasir etuvchi kuchga aylanib bormoqda.

Hududning sanoatlashuvi, urbanizatsiya darajasi, transport to‘rining zichligi, ishlab chiqarishning mujassamlashuvi va texnologik qurollanish holati, aholi joylashishi, antropogen va texnogen bosim makonning nozogeografik turlanishiga, umuman olganda, ijtimoiy omil yoki muhit tabiiy-ekologik sharoiti bilan birgalikda muhim ta’sir etuvchi kuchga aylangan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida xo‘jalik sohalarining ekstensiv tarzda olib borilishi tabiiy muhitning izdan chiqishiga, ijtimoiy muammolarning yanada chuqurlashuviga olib kelmoqda. Shunday mintaqalar qatoriga O‘rta Osiyo mamlakatlari ham kiradi. Mintaqaning arid, cho‘l sharoiti aholi turmush-tarziga ma’lum darajada qiyinchilik tug‘dirishi bilan birga inson ta’sirida kuchli degradatsiyaga uchramoqda.

Mintaqa aholisining salomatligi va ijtimoiy faoliyatining yomonlashuvida Orol dengizi fojeasi asosiy o‘ringa ko‘tarilmoqda. Dengizning 500 km radius qismidagi atrofi jahon hamjamiyati tomonidan “Ekologik fojea” hududi deb e’tirof etilgan. Xorazm viloyati ham bevosita ushbu hudud doirasida joylashgan.

Aholi salomatligi inson taraqqiyotini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. Ushbu muammo hududning ekologik tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishiga qaramasdan, uni geografik o‘rganish masalalari yaqin o‘tmishga borib taqaladi. Xusuan, bunday tadqiqotlar hozirda ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda shakllanish bosqichida bo‘lsa, jahonning rivojlangan mamlakatlari, shu jumladan, MDH mamlakatlarida ancha taraqqiy etgan.

Aholi sonining ortib borishi hamda unga mutanosib ravishda tabiiy muhitga bo‘lgan ta’sirning kuchayishi o‘tgan asr davomida o‘nglab bo‘lmas turli darajadagi ekologik muammolarni insoniyat oldida ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Yangi asrda Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) tomonidan “ming yillik barqaror rivojlanish” konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unda atrof-muhit, aholini ijtimoiy himoyalash, savodxonligini oshirish, salomatligini tiklash, onalik va bolalik muhofazasi,

bolalarni aqliy va jismoniy rivojlanishini ta’minlovchi va yana bir qator ijtimoiy masalalar o‘rin olgan.

“Inson ekologiyasi” fani antropoekologik sistemalarning kelib chiqishi, yashashi va rivojlanishi qonuniyatlarini o‘rgatadi.

Antropoekologik sistemalar – muhit bilan dinamik muvozanatda bo‘lgan va shu munosabat orqali o‘z ehtiyojlarini qondiradigan odamlar jamoasidir.

Antropoekologik sistemalarning tabiiy ekosistemalardan asosiy farqi – uning tarkibida odamlar jamoalarining mavjudligidir. Ma’lum hududda yashaydigan odamlar jamoasining faolligi ularning atrof-muhitga ko‘rsatadigan ta’sir darajasi bilan aniqlanadi. Aholi sonining ortib borishi bilan birga oziq-ovqat mahsulotlariga, xomashyoga, suv resurslariga, chiqindilarni joylashtirishga ehtiyojlar ham ortib boradi. Bu esa, o‘z navbatida, tabiiy muhitga ta’sirni kuchaytiradi, biotik va abiotik omillardan foydalanishni jadallashtiradi.

Sog‘liqni saqlash choralarining yaxshi yo‘lga qo‘yilishi, tibbiyot fanining qo‘lga kiritgan yutuqlari, insonlarning o‘rtacha umr ko‘rish muddatining uzayishi, bolalar o‘limining kamayishi natijasida sayyoramizda aholi sonining jadal o‘sishi XX asrning asosiy demografik o‘ziga xosligidir.

1999-yilda aholi soni 6 milliardga yetdi. XX asrning o‘zida aholi soni 4,4 mlrd kishiga ko‘paydi, XX asrning faqat oxirgi 12 yilining o‘zidayoq aholi soni 1 mlrd kishiga oshdi.

Aholi sonining tez o‘sishi uning muhitga antropogen ta’sirini (qishloq xo‘jaligining, sanoatining, transportning jadal rivojlanishi, shaharlar egallagan hududlarning ortishi) yanada kuchaytiradi. Aholisi juda ko‘p bo‘lgan mamlakatlarda aholi soni o‘sishini cheklash, oilani rejalashtirish choralari amalga oshirilmoqda (masalan, Xitoyda va Hindistonda).

Antropoekologik sistemalarda insonlar va tabiiy muhitning o‘zaro ta’siri ikki xil yo‘nalishda kechadi: 1) ayrim individlarning va butun jamoaning biologik va

ijtimoiy ko‘rsatkichlari o‘zgaradi; 2) muhitning o‘zi ham odamlarning ehtiyojini qondirish jarayonida o‘zgara boradi.

Inson ekologiyasini o‘rganishda muhit biogeografik xususiyatlarining odamlar populyatsiyasining biologik o‘zgaruvchanligiga ta’siri, antropoekologik sistemalarda insonning salomatligi masalasi katta ahamiyatga egadir. Odam ekologik omillarning ta’sir obyekti bo‘lishi bilan birga, o‘zi ham muhitga ta’sir qiladi. Odamning ekologik omil sifatida o‘ziga xosligi, uning tabiatga ta’sirining ongli, maqsadga muvofiqli va kuchli bo‘lishidir.

Har qanday biologik tur cheklangan energetik resursga ega, shuning uchun uning tabiatga ta’sir etish imkoniyati cheklangandir. Yashil o‘simliklar Quyosh energiyasidan foydalanadi, boshqa organizmlar esa o‘zidan avvalgi oziq darajasining organik moddalari energiyasi hisobiga yashaydi.

Odam o‘zining ongli faoliyati jarayonida juda kuchli energiya manbalari, ya’ni yadro va termoyadro reaksiyalarini yaratdi. Natijada, insonning imkoniyatlari kengaydi. U sayyoraning har qanday ekologik bo‘shliqlarini egallay olish qudratiga egadir.

Insonning ekologik omil sifatida o‘ziga xosligi yana uning faoliyati faol, ijodiy xarakterda ekanligidir. Inson o‘z atrofida sun’iy muhit yarata olishi ham uni boshqa ekologik omillardan ajratib turadi.

Inson uchun tashqi muhitning asosiy omillaridan biri ovqatdir. Ovqat tufayli organizmda sarflanadigan energiya o‘rni to‘ldiriladi, hujayra va organizmning plastik almashinishi ta’minlanadi. Inson uchun bir sutka davomida kamida 2500 kkal energiya zarur, bu energiya, asosan, *uglevod*lar, *yog‘*lar va *oqsil*lar hisobiga to‘ldiriladi. Yengil hazm bo‘ladigan hayvon, qush va baliq mahsulotlari oqsilning asosiy manbalari hisoblanadi.

Ovqat sifatli va kaloriyaga boy bo‘lishi, unda oqsil, yog‘ va uglevodlardan tashqari vitaminlar (ayniqsa, organizmda sintezlanmaydigan vitaminlar) yetarli bo‘lishi zarur.

Organizm uchun fermentlarni faollashtiruvchi oqsillar va biologik faol moddalarning tarkibiy qismiga kiruvchi mineral moddalar (Na, K, Ca, P va boshqalar) ham zarurdir. To‘yib ovqat yemaslik yoki ovqatning tarkibida zarur moddalar yetishmasligi organizmdagi har xil funksiyalar buzilishiga sabab bo‘ladi. Masalan, ovqat tarkibida oqsil va vitaminlar yetishmasligi o‘sish va rivojlanishning susayishiga sabab bo‘ladi.

Okeanlardan uzoqlashgan kontinental hududlarda, masalan, Markaziy Osiyoda, tashqi muhitda, shuning natijasida ovqat tarkibida ham yod yetishmaydi. Natijada qalqonsimon bezning faoliyati buziladi. Bunday buzilishlarning oldini olish uchun osh tuzining tarkibiga, albatta, yod qo‘shilishi lozim.

**Sanoat va atrof-muhit muammosi.** Sanoatning rivojlanishi atrof-muhitga kuchli ta’sir qiladi. Chunki sanoat tarmoqlari yer osti va yer usti resurslarining asosiy “iste’molchi”sidir. Tog‘-kon sanoatining rivojlanishi oqibatida tabiiy landshaftning buzilishi, tog‘ jinslarining ochiq muhitga chiqarib tashlanishi atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazadi. Uning oqibatlari insoniyat uchun nihoyatda xavfli bo‘lib, tuproq qoplamining buzilishiga, yer osti suv manbalarining ifloslanishiga hamda rekultivatsiya jarayonlari-da katta xarajatlarga olib keladi. Dengiz tog‘-kon ishlarini kengayishi Dunyo okeani suvlarining ifloslanishiga, uning bioresurslariga salbiy ta’sir qilib jiddiy ekologik xavfni yuzaga keltirmoqda.

Yoqilg‘i energetika majmuasida IESlari atrof-muhitga zararli modda-lar chiqaradi, atmosferaning gaz tarkibini buzadi, suv temperaturasini ko‘taradi, AES esa atrof-muhitga g‘oyat zararli radioaktiv elementlarni chiqaradi, yoki AES lardagi falokat oqibatlari (Ukraina-Chernobil AES dagi avariya) tuzatib bo‘lmas holatlarni yuzaga keltirishi, juda ehtiyotkorona yondashishni taqozo qilmoqda.

AESlar nisbatan “sof” bo‘lsa-da, to‘g‘on platinalar, suv omborlari atrof-muhit relyefiga, o‘simlik va hayvonot dunyosiga, yer osti suvlariga ta’sir etib, ekologik muvozanat buzilishi-ga olib kelmoqda.

Metallurgiya sanoatining rivojlanishi esa resursli hududlar qiyofasi jiddiy bo‘zilishidan tashqari atrof-muhitga temir, qo‘rg‘oshin, qalay, mis, simob, surma va boshqa zararli metall chiqindilari, zarralari va changlarni chiqarib inson salomatligiga xavf solmoqda.

Kimyo va neft-kimyo sanoati, o‘rmon-sellyuloza va boshqa sanoat tarmoqlari havoni, suvni, tuproq qoplamini turli zararli chiqindilar bilan ifloslantirmoqda. Ayniqsa, kimyo sanoati korxonalaridagi halokatlar g‘oyat xavfli oqibatlarni yuzaga keltirmoqda.

Shuning uchun ham sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va joylashtirishda ekologik omilni hisobga olish, tabiiy muhitni muhofaza qilish tamoyillariga amal qilish, “chiqindisiz texnologiya”larni va berk ishlab chiqarish tizimlarini joriy qilish g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

**Qishloq xo‘jaligi va ekologik muammolar.** Dehqonchilik va chorvachilikning ming yillar davomida rivojlanishi atrof-muhitga sezilarli ta’sir o‘tkazgan va madaniy landshaftlarni yuzaga keltirgan. Ayniqsa, o‘tdalali dehqonchilik tizimi Yevropada ko‘plab o‘rmonlarning qirqib yuborilishiga olib kelgan bo‘lsa, bugungi kunda ham Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida bu jarayon takrorlanishiga tuproq ustki qatlamining ochilib qolishiga (tropik yog‘inlar natijasida yuvilib ketilishiga), errozion jarayonlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Yaylov chorvachiligining rivojlanishi unumdor o‘tloq va yaylovlar mahsuldorligining pasayishiga, tuproq ustki qoplamining ochilib qolishi va shamol eroziyasi oqibatida adir va yarim adir mintaqalarda cho‘llanish jarayonining kuchayishiga ta’sir etmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmidan ITIning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga ta’siri natijasida intensiv rivojlanish jarayoni boshlandi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida kimyolashtirish jarayoni oqibatida (o‘simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari – pestitsidlar, mineral o‘g‘itlar, veterinariya pestitsidlari va b.) tuproq, havo va suv resurslari jiddiy zaharlanmoqda hamda tuzatib bo‘lmas oqibatlarini yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida 100 ming tonna turli xil kimyoviy vositalar qo‘llanilmoqda, 100 mln tonnadan ortiq mineral o‘g‘itlar (fosforli, kaliyli, azotli), va 2-3 mln t. zaharli ximikatlar ishlatilmoqda.

Keyingi yillarda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar qishloq xo‘jaligida zaharli kimyoviy vositalardan foydalanishni taqiqlanishi oqibatida ko‘proq biologik usullar keng yoyilmoqda. Biologik usul atrof-muhit uchun xavfsiz bo‘lib, zarar keltirmaydi. Ayniqsa, biologik usullar – bog‘dorchilik-uzumchilik, sabzavot va poliz yetishtirishda qo‘llanilmoqda hamda bu ekologik “sof” mahsulotlar narxi yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Shunga qaramay, hanuz dunyo mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish va chorvachilik mahsuldorligini oshirish maqsadida mineral o‘g‘itlar, pestitsidlar, turli kimyoviy moddalar keng qo‘llanib, buning oqibatida yiliga, to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlarga qaraganda, 400 mingdan 2 mln kishigacha odamlar zaharlanmoqdaki, buning asosiy qismi rivojlanayotgan mamlakatlar qishloq aholisi hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Yaqin istiqbolda, qishloq xo‘jaligida ilg‘or biotexnologiya, gen injeneriyasi yutuqlarini qo‘llash yuzaga kelgan ekologik muammolarni yumshatish imkonini berishi mumkin.

**Transport va atrof-muhit muammosi.** Transport tizimining rivojlanib borishi atmosferaga, o‘simlik va tuproq qoplamiga, okean, dengiz, daryo va yer osti suvlariga ta’sir etmoqda, inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazmoqda.

Ayniqsa, quruqlik transporti tizimida avtomobil, temir yo‘l va quvur transporti o‘ziga xos ravishda atrof-muhitni ifloslantirishga sabab bo‘lishi bilan ajaralib turadi. Avtomobil transporti is gazi, azot ikki oksidi ($NO_2$) va uglevodorod bilan birgalikda g‘oyat zaharli bo‘lgan qo‘rg‘oshin chiqaradi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda atmosfera havosini ifloslanishining 40-50 foizi, shaharlar va shahar aglomeratsiyalarida, urbanizatsiyalashgan mintaqalarda esa 80 foizi avtomobil transportiga to‘g‘ri keladi. Mutaxassislar ma’lumotlariga ko‘ra, 1 ta avtomobil o‘rtacha yiliga 4 tonna oksigenni havodan olib, tashqi muhitga 800 kg is gazi, 400 kg, azot oksidi va 200 kg zaharli moddalar, shu jumladan uglevodorodlar chiqarib tashlaydi. Agar, keyingi yillarda ham avtomobillashuv jarayoni tez sur’atlar bilan rivojlanishini e’tiborga olsak, bu g‘oyatda keskin muammolardan biri ekanligi ayon bo‘ladi. Shuning uchun ham yaqin kelajakda atrof-muhitni eng oz ifloslantiradigan muqobil yoqilg‘i manba-laridan foydalanish xalqaro avtomobillashuv jarayonining bosh yo‘nalishlaridan biridir. Temir yo‘l transporti ham atrof-muhitga qattiq zarrachalar chiqarsa, quvur transportida vaqti-vaqti bilan bo‘lib turadigan halokatlar oqibatida minglab tonna neft va neft mahsulotlari oqib chiqishi tuproq, o‘simlik va hayvonot dunyosi, yer osti suvlariga, ayniqsa, oqar suvlarga zarar yetkazib, murakkab ekologik vaziyatni yuzaga keltirmoqda.

Bundan tashqari, avtomobil, temir yo‘l va havo transporti shovqini ham aholi eshitish qobiliyatiga ta’sir qilib, turli kasallik va “stress” holatlarni yuzaga keltirmoqda. Yirik shahar va shahar aglomeratsiyalarida shovqin tobora keskin muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Suv transporti gidrosferani (okean, dengiz, daryo va ko‘llar) ifloslantiruvchi bosh manbalardan biridir. Ayniqsa, xalqaro iqtisodiy aloqalarda neft va neft mahsulotlari tashuvchi tanker va super tankerlar halokati oqibatida minglab tonna neft okean va dengiz suvlarini katta hududlarda yupqa plyonka hosil qilib qoplab

olishi bu hududlar biofondiga tuzatib bo‘lmas zarar yetkazmoqda. Atmosfera ifloslanishiga tobora havo transporti ham o‘z “hissa”sini qo‘shmoqda.

Shuning uchun ham bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan va bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda “transport va atrof-muhit” muammosi bilan bog‘liq jiddiy ilmiy tadqiqot ishlari va chora-tadbirlar majmuasi amalga oshirilmoqda.

**Insoniyatning ekologik ixtisoslashishi** – tabiiy va sun’iy muhit omillari insonga doimo ta’sir ko‘rsatadi. Sayyoraning turli joylarida har xil tabiiy omillarning ta’sirida insoniyat rivojlanishi tarixi davomida yer shari aholisining ekologik ixtisoslashishi natijasida odamlarning adaptiv (moslashuvchan) tiplari kelib chiqqan.

**Adaptiv tip** – yashash sharoitiga biologik reaksiya normasi bo‘lib, insonning o‘sha sharoitga yaxshi moslashishini ta’minlovchi morfologik, funksional, biokimyoviy, immunologik belgilar kompleksining rivojlanishi bilan ta’riflanadi. Har xil iqlimli hududlarda yashovchi xalqlarning ovqatlanishida ham o‘ziga xosliklar mavjud. Shu tufayli ularning hazm fermentlari sintezida, ajratilishida va sifatida ham moslanuvchanlik o‘zgarishlari kuzatiladi.

Insonlarning quyidagi adaptiv tiplari farqlanadi: arktik, tropik, o‘rta iqlim zonalari, baland tog‘liq, cho‘l va chalacho‘l adaptiv tiplari.

**Arktik adaptiv tip**. Sovuq iqlim va ko‘proq hayvon mahsulotlari bilan oziqlanish sharoitida shakllanadi. Arktika xalqlari hazm sistemasida o‘simliklar tarkibidagi C vitaminni kam iste’mol qilishga moslanish xususiyati rivojlangan. Arktik adaptiv tipning xarakterli belgilariga: tananing suyak-muskul sistemasi yaxshi rivojlanganligi, qonda oqsil, yog‘larning ko‘p miqdorda bo‘lishi va boshqalar kiradi. Arktik tip uchun energiya almashinuvining kuchliligi va termoregulyatsiyaning yaxshi rivojlanganligi ham xarakterlidir.

**Tropik adaptiv tip**. Issiq va nam iqlim, oziq-ovqat ratsionida hayvon oqsili nisbatan kam bo‘lgan sharoitda shakllanadi. Ekologik sharoitning xilma-xilligi ham bu tipning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham subtropik va tropik mintaqalarda yashovchi aholi irqiy, etnik jihatdan xilma-xil guruhlarga kiradi. Negroidlar uchun xarakterli belgilarga: tananing uzunchoq shakli, mushak massasining kamligi, oyoq va qo‘llarning uzunligi, ko‘krak qafasi torligi, ter bezlarining ko‘p bo‘lishi hisobiga terning ko‘p ajralishi kabi belgilar xarakterlidir.

**Tog‘ adaptiv tipi**. Bu tipning shakllanishida asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ekologik omil – gipoksiya (havoning tarkibida kislorod miqdorining kamligi hodisasi) hisoblanadi.

Baland tog‘likda yashovchi aholida uning qanday irqqa kirishidan qat’i nazar moddalar almashinuvi jadal, ko‘krak qafasi keng, qonda eritrotsitlar ko‘p bo‘lishi kuzatiladi.

Markaziy Osiyo aholisi orasida tog‘ adaptiv tipiga mansub populyatsiyalar ham uchraydi (Qirg‘iziston, Tojikiston, O‘zbekistonning tog‘li hududlari). Sahro, yarimsahro, **cho‘l adaptiv tipi** quyosh nurlanishi kuchli, issiq, quruq, o‘ta kontinental iqlim sharoitida shakllanadi. Bu tip uchun issiqlikning, ko‘p ajralishi, ter bezlarining yaxshi rivojlanishi, suvning ko‘p iste’mol qilinishi xarakterlidir. Markaziy Osiyo hududida yashovchi ko‘pchilik aholi shu adaptiv tipga kiradi.

Shunday qilib, tarixiy rivojlanish jarayonida insoniyat ekologik omillar ta’sirida ixtisoslashib, bir-biridan ayrim belgilari bilan farq qiluvchi adaptiv (moslashuvchan) tiplarga ajralgan.

Adaptiv tiplar irqiy mansubligidan qat’i nazar, turning genofondi bilan belgilanuvchi moslashish mexanizmlari asosida, konkret ekologik muhitga moslashish natijasida shakllangan. Antropogen ekosistemalar, ularning inson salomatligiga ta’siri. Eng muhim hozirgi zamon antropogen ekosistemalariga shaharlar, qishloqlar, transport kommunikatsiyalari kiradi.

Shaharlarda tabiat muhitining o‘zgarishi yaqqol namoyon bo‘ladi. Sanoat va turmush chiqindilari tuproqda, suvda, o‘simliklarda mikroelementlarning ko‘payib ketishiga sabab bo‘ladi, shahar aholisining zichligi natijasida yuqumli kasalliklar keng tarqaladi. Havoning ifloslanganligi natijasida, yer yuzasiga ultrabinafsha nurlarning ancha miqdori yetib kelmaydi. Yorug‘lik yetishmasligi esa D avitaminozini ko‘paytiradi.

Qishloq ekologik sistemalari o‘z xususiyatlari jihatidan shahar ekosistemasidan ancha farq qiladi. Qishloqda hayvon va o‘simlik turlarining xilma-xilligi kuzatiladi. Hayvonlar orqali yuqadigan yuqumli va parazitar kasalliklar qishloqda ko‘proq uchraydi.

Hozirgi avlod ko‘z o‘ngida mahalliy va regional ekologik inqiroz vaziyatlari kuzatilmoqda. Bunda inson tomonidan o‘zgartirilgan tabiatning ijtimoiy taraqqiyotga ta’sirining keskin ortishi kuzatiladi.

Insoniyat tarixida ekologik inqirozlar ko‘plab kuzatilgan. Ularning natijasida millionlab gektar yerlar cho‘lga aylangan, minglab o‘simlik va hayvon turlari qirilib ketgan, o‘rmonlarning maydoni qisqargan, gullab-yashnagan sivilizatsiyalar inqirozga yuz tutgan.

Atrof-muhitdagi katta ko‘lamidagi salbiy ekologik o‘zgarishlar XVII asrdan boshlangan va XX asrning boshlariga kelib yer yuzidagi ekologik sistemalarning 20 foizi buzilgan. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib qisman va to‘la buzilgan ekosistemalar hissasi 63% dan oshdi.

1960-yillar oxirida rivojlangan G‘arb mamlakatlarida atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi kuchli jamoatchilik harakati vujudga kelgan, dastlabki ekologik qonunlar qabul qilingan, mingga yaqin ekologiya va rivojlanish masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar tuzildi.

1968-yili 10 ta davlatdan 30 kishidan iborat fan, madaniyat, maorif, biznes vakillari tomonidan “Rim klubi” deb nomlangan nodavlat tashkilot tuzildi. Klub

a’zolari *insoniyatning hozirgi va kelajakdagi murakkab ahvolini muhokama qilish va inqirozdan chiqish yo‘llarini o‘rganish*ni asosiy maqsad deb belgiladilar. 1972-yil 13-martda “Rim klubi” uchun tayyorlangan “O‘sish chegaralari” ma’ruzasi e’lon qilindi. Ma’ruzada sayyoramiz kelgusi ekologik holatini bashorat qilish bo‘yicha global model tahlil qilingan. Modelda sayyorada o‘sishni va uning chegarasini belgilaydigan besh asosiy omil: aholi soni, qishloq ho‘jalik ishlab chiqa-rishi, tabiiy resurslar, sanoat ishlab chiqarishi va atrof-muhitning ifloslanishi asos qilib olingan. Ma’ruzada aholi sonining o‘sishi sur’atlari va iste’mol modeli o‘zgarmasa, XXI asrning 30-yillariga kelib chuqur ekologik inqirozlar bashorat qilingan.

“Rim klubi”ning e’lon qilingan keyingi global modellarida (1974; 1990; 1992) yangi sharoitlar hisobga olingan, o‘sish istiqbollariga, ekologik halokat xavfiga qarashlar o‘zgargan.

1972-yil 5-iyunda Stokgolmda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Atrof-muhit bo‘yicha birinchi Umumjahon Konferensiyasi o‘tkazildi. Unda 113 ta davlat vakillari qatnashdilar. Konferensiyada ekologik yo‘naltirilgan sotsial-iqtisodiy rivojlanish g‘oyasi oldinga surilgan bo‘lib, unga muvofiq aholi turmush darajasining ortishi yashash muhitining yomonlashishi va tabiiy sistemalarning buzilishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

Ekologik rivojlanish davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar va iqtisodiyotdagi chuqur o‘zgarishlar, resurslarni taqsimlash va foydalanish strategiyasida, dunyoning rivojlanishida tub burilishni ko‘zda tutadi. Ekologik rivojlanishning asosiy talablari Konferensiyada qabul qilingan 26ta prinsipdan iborat “Stokgolm deklaratsiya”da keltirilgan. Bu prinsiplardan birida “Har bir inson qulay atrof-muhitda yashash huquqiga ega, uning sifati esa insonlarni munosib hayot kechirishga va taraqqiyotga erishadigan darajada bo‘lishi kerak”, deb ta’kidlanadi. Qabul qilingan “Tadbirlar rejasi” 109 ta banddan iborat bo‘lib, unda alohida

davlatlar va xalqaro hamjamiyat o‘rtasida atrof-muhitni muhofaza qilishning tashkiliy, siyosiy va iqtisodiy masalalari yoritilgan. Xalqaro tashkilotlar faoliyatini oshirish-ga alohida e’tibor qaratilgan. Konferensiya qarori bilan uning ochilish kuni 5-iyun Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni deb belgilandi.

Konferensiyadan so‘ng, belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun BMTning Bosh assambleyasi atrof-muhit bo‘yicha maxsus dastur – YUNEPni tuzdi. YUNEP, birinchi navbatda, eng dolzarb muammolar – cho‘llashish, tuproqlar degradatsiyasi, chuchuk suv zaxiralarining kamayishi, okeanlarning ifloslanishi, o‘rmonlarning kesilishi, qimmatli hayvon va o‘simlik turlarining yo‘qolishi muammolari bo‘yicha takliflar ishlab chiqishi kerak edi. Butunjahon atrof-muhit jamg‘armasi tashkil etildi. Jamg‘arma BMTga a’zo davlatlarning badali hisobiga rivojlanayotgan mamlakatlardagi turli ekologik muammolarni hal qilish bo‘yicha loyihalarni moliyalashtirishi belgilandi.

Stokgolm Konferensiyasidan keyin jahon hamjamiyati ekologik yo‘naltirilgan taraqqiyotga erishish bo‘yicha dastlabki qadamlarni tashladi. 1975-yili aholi soni 4 mlrd., 1987-yili 5 mlrd.dan oshdi. Dunyoning turli chekkalaridagi ekologik inqiroz vaziyatlari chuqurlashdi. Orol dengizining qurishi, Shimoliy Afrika mamlakatlaridagi qurg‘oqchilik, Chernobil AESdagi halokati, okeanlarning neft mahsulotlari bilan ifloslanishi, “ozon tuynuklari” muammolari chegara bilmasligi, regional va global oqibatlari bilan namoyon bo‘ldi.

1983-yili BMT Bosh Kotibining tashabbusi bilan Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha xalqaro komissiyasi tuzildi. Norvegiya bosh vaziri G.X.Bruntland boshchiligidagi komissiya 1987-yili “Bizning umumiy kelajagimiz” deb nomlangan ma’ruzani e’lon qildi. Ushbu hujjatda yirik ekologik muammolarni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolardan ajralgan holda hal qilib bo‘lmasligi bayon qilindi. Komissiya atrof-muhit uchun xavfsiz bo‘lgan iqtisodiy-ekologik rivojlanish davriga o‘tish zarurligini yoqlab chiqdi. Ma’ruzada ilk bor jamiyatning

barqaror rivojlanish yo‘liga o‘tishi zarurati rad qilib bo‘lmaydigan xulosalar asosida isbotlab berilgan.

Barqaror rivojlanish deganda hozirgi avlodlar hayotiy ehtiyojlarini kelgusi avlodlar ehtiyojlarini qondirishga zarar yetkazmasdan amalga oshiriladigan rivojlanish tushuniladi. Barqaror rivojlanish mazmun bo‘yicha “ekologik rivojlanish” tushunchasiga juda ham yaqindir.

1992-yilning 3-14-iyun kunlarida Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha konferensiya bo‘lib o‘tdi. Unda 179 ta davlat rahbarlari, hukumat vakillari, ekspertlar, nodavlat tashkilotlari, ilmiy va ishbilarmon doiralar vakillari qatnashdilar. Bu vaqtga kelib jahonda olamshumul voqealar ro‘y berdi. 1991-yili Sharqiy Yevropa va sobiq Ittifoqdagi totalitar sistema inqirozga uchradi. Jahon urushi xavfi keskin kamaydi va juda katta moliyaviy resurslardan tinchlik maqsadlarida foydalanish imkoniyati vujudga keldi.

Bundan tashqari, Konferensiya doirasida Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha chegaraviy Konvensiya va Biologik xilma-xillikni saqlash konvensiyalari tayyorlandi. 27 ta prinsipdan iborat “Rio deklaratsiya”si xalqaro huquqiy hujjat bo‘lib, unga ko‘ra davlatlar boshqa mamlakatlarning atrof-muhitiga zarar yetkazadigan har qanday faoliyat uchun javobgarlikni tan olishi, ekologik qonunchilikning samaradorligini oshirish, falokatlardan ogohlantirish, ekologik xavf manbalarini boshqa davlatlar hududiga o‘tkazmaslikka chaqiradi.

90-yillarda alohida davlatlar, jahon hamjamiyati, xalqaro tashkilotlar “XXI asrga kun tartibi”ni amalga oshirish bo‘yicha harakatlarni amalga oshirdilar. 2000-yili Nyu-Yorkda Ming yilik Sammiti bo‘lib o‘tdi va unda “Ming yillik Deklaratsiya”si qabul qilindi. Ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishish bo‘yicha jahonning barcha mamlakatlarida sa’y-harakatlar boshlandi.

XXI asrga kelib, atrof-muhitga ta’sir sur’ati yuqoriligicha qolmoqda. Dunyo okeanining ifloslanishi, cho‘llashish, biologik xilma-xillikning kamayishi, chuchuk suv yetishmasligi va boshqa muammolar tezkor choralar ko‘rishni talab etadi. Aholi sonining o‘sish sur’atlari yuqoriligicha qolmoqda. Ekologik xavfsiz, barqaror rivojlanish yo‘lidagi sa’y-harakatlar o‘zining ijobiy natijalarini ham bermoqda.

Hozirgi vaqtda tabiat va inson hayotining ekologik xavf ostida qolish jarayoni yanada murakkablashib, mushkullashib bormoqda. Atrof-muhit bilan jamiyat o‘rtasidagi aloqalar muvozanatining buzilishi tabiiy holatga putur yetkazmoqda. Yer yuzi tabiatining barqarorligi, turg‘unligi va uning o‘ziga xos qonunlarini insoniyat tomonidan buzilishining asosiy sabablaridan biri kishilarning atrof-muhit muhofazasi haqidagi bilimlarining yetishmasligi hamda tabiatning kelajakdagi ekologik holatini ko‘ra bilmasliklaridir.

Ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash uchun ekologik siyosatga o‘z ta’sirini ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan vazirliklar, korxona va tashkilot rahbar kadrlarining faoliyatida ijtimoiy-ekologik vaziyatga to‘g‘ri baho berish, uni himoya qilish, saqlash va takomillashtirish kabi tushunchalarni qalbdan his etishni shakllantirish, ya’ni ularda ekologik muammolarga muhim ijtimoiy-siyosiy ish sifatida qarashni tarbiyalashdir. Ushbu rahbar kadrlarda tabiatni muhofaza qilish muammolarini to‘g‘ri yechish va bashorat qilishni uddalash, yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarni oldini olish sharoitlarini yaratish kabi xislatlarni barpo etish muhim hisoblanadi.

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Insonning tabiatga ta’sirining hozirgi zamon bosqichi xususiyatlarini tushuntiring.
2. Ekologik bilimlarni rivojlantirish zaruriyati sabablarini ochib bering.

3. “Barqaror rivojlanish” tushunchasining vujudga kelish shart-sharoitlarini tushuntiring.
4. Barqaror rivojlanish bo‘yicha qanday konferensiyalar o‘tkazilgan va ularda qanday hujjatlar qabul qilingan?
5. O‘zbekistonda barqaror rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha qanday hujjatlar, qarorlar qabul qilingan?

## GLOSSARIY

**Aholining takror barpo bo‘lishi** – jamiyat davomiyligini ta’minlovchi asosiy jarayon bo‘lib, inson avlodining muntazam yangilanib turishidir.

**Aholining tabiiy o‘sishi** – tug‘ilganlar sonining vafot etganlar sonidan ortiqligi hisobiga ko’payish.

**Aholining yosh tarkibi** – aholining turli yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi.

**Aholi manzilgohlari** – ma’lum bir o‘lcham va tipdagi xilma-xil shakllarga ega aholi manzilgohlari tizimi hamda to‘ri.

**Aholining joylanishi** – mamlakat hududlari va mintaqalari bo‘ylab aholining tarixiy tarqalish jarayonlari.

**Aholi salomatligi**– aholining asosiy xususiyati, uning har bir a’zosining moslashuv reaksiyalarini hamda butun jamoani aniq mintaqaning muayyan sharoitlarida o‘zining ijtimoiy va biologik funksiyalarini mukammal ro‘yobga chiqarish qobiliyatini aks ettiruvchi tabiiy holati.

**Aglomeratsiya** [lot. “agglomerare” – qo’shish, yig‘ish] – ko‘plab shahar va aholi yashash joylarining bir-biriga tutashib, bir butun shaharga aylanishi jarayoni. Shahar aglomeratsiyasi – makoni va funksiyalari mushtarak, umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tizimni tashkil qiluvchi shahar tipidagi turar joylar guruhidir.

**Agrosanoat majmuasi** – qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste’molchilarga yetkazib berish bilan bog‘liq xo‘jalik tarmoqlarining birligi.

**Antropogen landshaft**– xususiyatlari inson faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan landshaft. Maqsadli yoki avvaldan mo‘ljallanmagan o‘zgarishlariga ko‘ra, atayin o‘zgartirilgan va bexosdan o‘zgargan landshaftlarga farqlanadi (ikkinchisi ba’zan “antropik landshaft” nomi bilan yuritiladi). Shuningdek, madaniy landshaftlar (o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun insonning xo‘jalik faoliyati tufayli ongli ravishda o‘zgartirilgan va kerakli holatda saqlab turiladigan) va noratsional faoliyat yoki qo‘shni landshaftlarning nomaqbul ta’siri ostida paydo bo‘lgan nomadaniy landshaftlar mavjuddir.

**Antropogen omil**– inson va uning faoliyati tomonidan organizmlarga, biogeotsenoz, landshaft, biosferaga ko‘rsatiladigan ta’sir.

**Antroposfera** [yun. “anthropos”– odam va “sphaire”– shar] – inson faoliyati tarqalgan chegara, noosfera – aqliy faoliyat qobig’i.

**Areal** [lot. “area”– maydon, makon] – o‘rganilayotgan obyektlar yoki hodisalar tarqalgan hudud yoki akvatoriya (turning areali, landshaft tipi areali, antropogen ta’sirning areali).

**Arid iqlimi** [lot. “aridus”– quruq] – atmosfera namligi past, havo harorati esa baland va sutka davomida katta tebranishlarga xos qurg‘oqchil hududlar iqdimi.

**Atmosferaning “o‘choqli” ifloslanishi**– “o‘choqli” ifloslanish iborasi ifloslantiruvchi moddalarning yuqori, qisqa muddatli konsentratsiyasini tavsiflash uchun foydalaniladi. Ifloslantiruvchi manbalar yaqinida turgan odamlar ular ta’siriga duchor bo‘ladi. Avtotransport gavjum harakatlanadigan shahar ko‘chalari, shuningdek, shaharlardagi atmosferaga ifloslantiruvchi moddalarni chiqaradigan sanoat korxonalari atmosfera ifloslanishi “o‘chog‘i” hisoblanadi.

**Atrof (insonni qamragan) muhit** – odamlarga va ularning xo‘jaligiga birgalikda va bevosita ta’sir etuvchi abiotik, biotik va ijtimoiy muhitlar majmuasi. Atrof-muhit tushunchasi “atrof tabiiy muhiti” tushunchasidan birmuncha kengroq, chunki u o‘z ichiga ijtimoiy hamda texnogen muhitlarni (uylar, korxonalar, yo‘llar va boshq.) ham qamrab olgan tushunchadir.

**Atrof-muhit sharoitini yaxshilash (tiklash)** – atrof-muhitning yuqori energetik darajaga o‘tishi yoki inson faoliyati natijasida muhit sifatining yaxshilanishi.

**Atrof-muhitga ta’sir qiluvchi omil** – atrof-muhitning salbiy o‘zgarishi va shunga o‘xshash oqibatlarga olib keluvchi har bir ta’sir yoki uning tarkibiy qismi (elementi).

**Atrof tabiiy muhit**– insonga bevosita yoki bilvosita ta’sir etuvchi tabiiy abiotik va biotik omillar majmuasi.

**Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish** – tabiiy boyliklarni saqlash va ulardan unumli, oqilona foydalanishga asoslangan jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan davlat va jamiyat tomonidan olib boriladigan tadbirlar tizimi.

**Go‘daklar o‘limi koeffitsiyenti** – bir yoshgacha bo‘lgan g o‘daklar o‘limining ko‘rsatkichidir. Har 1000 nafar tirik tugilgan go‘daklar soniga to‘gri kelgan bir yoshga yetmay nobud bo‘lgan go‘daklar soni.

**Global ifloslanish**– ifloslanish manbaidan juda uzoq masofada, sayyoraning deyarli barcha nuqtalarida ayon bo‘luvchi atrof tabiiy muhitning ifloslanishi.

**Geografik determinizm**[lot. “determinare”– aniqlash] – jamiyat rivojlanishi qonuniyatlari va uning xo‘jalik faoliyatini tabiiy sharoit xususiyatlari hamda joyning geografik o‘rni bilan asoslab beruvchi konsepsiya.

**Geografik yondashuv**– tabiiy qonuniyatlarni bilish maqsadida hodisalarning fazoviy munosabatlarini o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalish.

**Geografik omillar**– muayyan joy uchun xos bo‘lgan omillar. Atama qayerda ro‘y berayotganligidan kelib chiqqan holda inson faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini baholashda qo‘llaniladi.

**Demografik siyosat** – hozirgi davr hamda uzoq muddatli istiqbol uchun aholining takror barpo bo‘lishi va dinamikasi sohasida muayyan bir sifat va miqdorga erishishni nazarda tutuvchi birlashgan vositalar va fikrlar birligining davlat miqyosida qabul qilingan tizimi.

**Demografik vaziyat** – ma’lum bir hududdagi tug‘ilish, o‘lim va migratsiyaning yig‘indisi bo‘lib, aholining yosh-jins tarkibi va aholi dinamikasini shakllantiradi.

**Depopulyatsiya** – aholi sonining kamayib ketishi.

**Davlat hududi** – muayyan davlatning suvereniteti ostidagi siyosiy makon qismi.

**Depressiya** [lot. “depressio”– tushkunlik] – geografiyada keng ma’noda yer sirtining har qanday pasayishi, dengiz sathidan past yotuvchi botiqliklar, tovoqsoylar.

**Erkin iqtisodiy hudud** – investitsiyalarni alohida mintaqalar va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, resurslarni kam chiqindili va chiqindisiz qayta ishlovchi yanada progressiv texnologiyalarni joriy qilish, xalqaro aloqa va hamkorlikka ta’sir o‘tkazish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida soliqqa tortish, valyuta, bojxona va shu kabi boshqarmalarni tartibga solishdagi alohida tartib va shart-sharoitlar o‘rnatadigan huquqiy normalar yig‘indisi.

**Etnos** – bir qator umumiy belgilari (tili va yashaydigan hududining umumiyligi, madaniyati va maishiy hayotidagi yaqinliklar, tarixidagi o‘xshashliklar, ba’zan bitta davlatga mansubligi) mavjud bo‘lgan kishilar guruhi.

**Investitsion muhit** – xo‘jalik obyektlarini shakllantirishda investi-tsion sharoit yaratish.

**Ichki migratsiya** – biror-bir mamlakat, viloyat yoki ma’muriy hududiy birlik ichida aholining bir joydan ikkinchi bir joyga ko‘chishi.

**Ijtimoiy ishlab chiqarishning ekologik sarf-xarajatlari**– korxona-lar atrofidagi muhit atmosferasiga ifloslantiruvchi moddalarni chiqarish, oqovalarni oqizishni kamaytirish (texnologiyani mukammallashtirish, pirovard mahsulot tarkibini o‘zgartirish, tozalash inshootlar qurish va h.k.)ga qaratilgan tadbirlarga ajratiladigan xarajatlar.

**Insonni qamragan atrof-muhitning sifati** – inson va atrof-muhit o‘rtasidagi barqaror o‘zaro munosabatni, muhitning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi ekologik va antropotsentrik tushuncha. Uning o‘lchamlari, odatda, sog‘lomligini ko‘rsatuvchi holat bo‘lib xizmat qiladi. U nisbiy tushuncha bo‘lib, aholining har xil guruhlarida turlicha bo‘ladi, vaqt mobaynida organizmning adaptatsiyaviy o‘zgaruvchanligiga hamda unda salbiy oqibatlarning yig‘ilib borishiga qarab o‘zgaradi.

**Iqlim** – ob-havoning ma’lum joy uchun uning geografik o‘rni bilan belgilanadigan ko‘p yillik statistik rejimi.

**Iqlimga moslashish**– organizmlarning (inson, hayvonot, o‘simliklar) o‘zgargan geografik (asosan, iqlimiy) sharoitlarda yashashga ko‘nikishi.

**Kasbiy xastalik** – nomaqbul sharoitda mehnat qilish va kasbiy faoliyatning zararliligi oqibatidagina yoki, asosan, shular ta’sirida paydo bo‘ladigan xastalik.

**Lalmi yerlar** – qishloq xo‘jalik ekinlari sun’iy sug‘orishsiz, tabiiy yog‘in-sochin orqali sug‘oriladigan yerlar.

**Landshaft**[nemischa “landschaft” - manzara] – o‘zaro ta’sir etuvchi tabiat yoki tabiiy va antropogen komponentlardan hamda pastroq taksonomik tabaqali majmualardan tashkil topgan tabiiy hududiy majmua.

**Megalopolis**[yun. “mega” – katta, “lo” – cho’ziq, “polis” - shahar] – shahar aglomeratsiyalarining o‘zaro qo‘shilib ketishidan hosil bo‘lgan shahar, aholi manzilgohlari, urbanizatsiyalashgan zonalar.

**Mintaqalararo migratsiya** – kishilarning bir kontinentdan ikkinchi kontinentga uzoq muddatga yashash uchun borishi.

**Pestitsidlar** [lot. “pestis” – parazit va “caedere” – o‘ldirmoq] – o‘simlik va hayvonlarning kasallik hamda zararkunandalariga, begona o‘tlar, don va don mahsulotlari, yog‘och, paxta, jun, teri va h.k.larning zararkunandalariga, odam va hayvonlar orasida xavfli kasalliklar tarqatuvchilarga qarshi kurashishda foydalaniladigan kimyoviy moddalar.

**Rekreatsiya** – insonning sog‘ligini tiklaydigan kompleks tadbirlar.

**Suburbanizatsiya** – shahar atrofidagi aholi manzilgohlarining shahar markazidan va uning atrofidan kelayotgan aholi hisobiga tezroq rivojlanishi, shahar aglomeratsiyasining o‘z chegarasidan tashqariga chiqishi.

**Sotsial geografiya** – ijtimoiy infratuzilmani joylashtirish qonuniyatlarini o‘rganuvchi ijtimoiy-geografik fan.

**Sanoat chiqindilari** – ishlab chiqarish jarayoni natijasida olingan yoki chiqarilgan keraksiz materiallar. Sanoat chiqindilari suyuq chiqindilar, balchiq, qattiq va xavfli chiqindilar singari toifalarga ajratiladi.

**Suv iste’moli** – suvdan aholi, sanoat va qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish. Qaytariladigan (olingan suvning yana suv manbasiga qaytishi) va qaytarilmaydigan (bug‘lanish, filtratsiya va h.k. sarflanadigan) guruhlarga ajratiladi.

**Tabiiy ofat** – vayronagarchilikka olib keluvchi, odatda to‘xtatib bo‘lmaydigan tabiiy hodisa: zilzila, suv toshqini, sel, tayfun, vulqon otilib chiqishi, qurg‘oqchilik, cho‘llashish, zararkunandalarning ommaviy ravishda ko‘payishi, changlatuvchi hashorotlarning hosilga xatari va h.k.

**Tabiiy resurs(suv, havo, tuproq va h.k.) sifati** – uning tavsiflarining inson ehtiyojlari yoki texnologik talablariga (resursning tozaligi, unda foydali komponentlarning mavjudligi) mos kelishi darajasi.

**Unduruvchi sanoat** – yer osti boyliklarini qazib oluvchi va boyituvchi tarmoqlar majmuasi.

**Urbanizatsiya** [lot. “urbus” – shahar, “sation” - jarayon] – shaharlarning o‘sishi va rivojlanishi, shahar aholisi mavqeining mamlakat, hudud, jahon miqyosida o‘sishi.

**Kartalashtirish** [yun. “chartes” – varaq, “grapho” – yozmoq] – obyekt yoki holatlarning bir yoki bir nechta kartalar orqali kartografik modelini barpo etish jarayonlari majmui. Dala (M., landshaft syomkasi), kameral (aerofoto tasvirga tushirish, kosmos materiallari, statistik ma’lumotlar yordamida) uslublari yoki ularning yig‘masi yordamida olib borilishi mumkin.

**Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish infratuzilmasi** – bevosita qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga xizmat ko‘rsatuvchi sohalar.

**“Yashil inqilob”** – hosildorligi yuqori navlarni va intensiv texnologiyalarni dehqonchilikka tatbiq etish, shuningdek, fan-texnika yutuqlari negizida qishloq xo’jaligining tubdan yangilanishi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон,70-модда.
2. Мирзиёев Ш.М. БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи. http://xs.uz/index.php/homepage/rasmij/item/11175.
3. Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлисга Мурожаатнома2017 йил 22 декабрь http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017
4. Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлисга Мурожаатнома. 2018 йил 28 декабрь. https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Тошкент.: Ўзбекистон, 2017.
6. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Тошкент.: Ўзбекистон. 2017.
7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. -Тошкент.: Ўзбекистон, 2017.
8. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. -Т.: «Ўзбекистон», 2016.
9. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganing 24 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza, 2016-yil 7-dekabr. -T.: O’zbekiston, 2017.
10. Peter Haggett. Geographie: Eine Globale Synthese. Verlag Eugen Ulmer.- Stuttgart, 2004.
11. Dr.Christion Sawyer. Human geography crash course. Printed in the United

States of America. Green Edition. –2012.

12. Географический энциклопедический словарь. –М.; “Советская энциклопедия”, 1986. -528 с.
13. Горкин А (отп.ред). Социально-экономическая география: понятия и термины. Словарь-справочник. –Смоленск: “Ойкумена”, 2013, -328 с.
14. Петрова Н. География (сорременный мир): Учебник. –М.: «ФОРУМ», 2005. -224 с.
15. Фромберг А. Экономическая и социальная география: пособие для школьников и абитуриентов. –М.: “Экзамен”, 2011. -443 с.
16. Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология. -Наманган, 2002. -296 б.
17. Комилова Н. Тиббиёт географиясининг назарий ва амалий масалалари. –Т.: “Sharq”, 2015. -264 б.
18. Солиев А. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёти. [Матн]: танланган асарлар/ масъул муҳаррир: О.Ата-Мирзаев. –Т.: “Камалак”, 2013. -184б
19. Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. –Т.: “Университет”, 2014. -404 б.
20. Солиев А., Қаршибоева Л. Саноат географияси муаммолари ва диплом ишларини ёзишга доир услубий кўрсатмалар. –Гулистон, 1997.
21. Солиев А., Маҳамадалиев Р. Иқтисодий география асослари. –Т.; “Ўзбекистон”, 1996. -70 б.
22. Солиев А., Мирзаахмедов Ҳ., Жумаханов Ш. Қўшма корхоналар географияси. –Наманган, 2006. -136 б.
23. Эргашев Ш., Бобоматов Т., Турсунов Н. Жаҳон мамлакатлари: Маълумотнома. -Т.; “Ўзбекистон”, 2017. -320 б.
24. Ўзбекистонмиллийэнциклопедияси. –Т.; “Ўзбекистонмиллийэнциклопедияси”. I – XII жилдлар, 2000 – 2006.
25. Bahromov Q., Halimova G. Geografiyadan mashq va masalalar yechish usullari. –Buxoro, “Navro’z”, 2017. -164 b.

26. Jumaxanov Sh., Siddiqov S. Geografik masala va mashqlar. –Namangan, 2016. -116 b.

27. Jumaxanov Sh., Toshpo'latov A. Geografiya// Oliy o'quv yurti talabalari uchun uslubiy ko'rsatma. –Namangan, 2018. -252 b.

28. Максаковский В.П. Географическая картина мира. Кн. I: Общая характеристика мира. -Москва, Дрофа. 2008, 4-е изд., 495 стр.

29. Максаковский В.П. Географическая картина мира. Кн. II: Региональная характеристика мира.Москва, Дрофа, 2009, 4-е изд., 480 стр.

30. Komilova N., Jumaxanov Sh., Rajabov F. Inson geografiyasi. -T.: "Universitet", 2018. -248 b.

31. Назаров М.И., ТожиеваЗ.Н. Ижтимоий география. -Т.: Университет, 2003.

32. Экономическая, социальная и политическая география: мир, регионы, страны. Под. Ред. И.А.Родионовой.-М.:Информ, 2008.

33. SoliyevA., TashbayevaS., EgamberdiyevaM. Shaharlargeografiyasi. –T.: "Universitet", 2018. -192 b.

34. Голубчик М.М., Файбусович Э.Л., Носонов А.М., Макар С.В. Экономическая и социальная география: Основы науки. –М.: "Владос", 2003.

35. Vahobov H., Tillaboyeva M. Iqtisodiy geografiya asoslari// O'qituvchi kitobi. –T.: "O'qituvchi", 2001. -136 b.

36. G'ulomov P., Gadoyev K., Berdiyeva S. Geografik tushuncha va terminlarning izohli lug'ati. –T.; "Bayoz", 2019. -272 b.

37. Скопин А.Ю. Введение в экономическую географию: базовый курс для экономистов, менеджеров, географов и регионоведов. Учеб. для студ.высш.учеб.заведений. –М.: "ВЛАДОС", 2001.

38. Чистобаев А.И., Шарыгин М.Д. Экономическая и социальная география. Новый этап. –: "Наука", 1990.

## MUNDARIJA


KIRISH… .....3

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni.....5
2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining tadqiqot obyekti va predmeti.....19
3. Fanning tadqiqot usullari .....28
4. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining shakllanishi… .....39
5. Hududiy ishlab chiqarish haqidagi nazariyasi va iqtisodiy geografik rayonlashtirish.....75
6. Inson va tabiat o’zaro ta’siri haqida yondashuvlar va mintaqaviy tadqiqotlar .....91
7. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani rivojlanishining hozirgi bosqichi .....103
8. Tarixiy geografiya.....116
9. Iqtisodiy geografiya (tor ma’noda) - ijtimoiy geografik fan sifatida… 131
10. Iqtisodiy geografiyaning asosiy tushunchalar.....167
11. Geografik tuzilmalar .....171
12. Geografik jarayonlar. Aholi migratsiyasi va globalizatsiya.....204
13. Urbanizatsiya .....218
14. Aholi geografiyasi……..... 237
15. Madaniy makon (madaniyat geografiyasi).....265
16. Sotsial geografiya.....287
17. Tibbiyot geografiyasi .....297
18. Siyosiy geografiya.....309
19. Insoniyatning global muammolari .....329
20. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya hamda ekologiya.....337

Glossariy .....353

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR. .....358